

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**A.M.NAZAROV**

**UMUMIY PSIXOLOGIYA**

*(O‘quv qo‘llanma)*

*Oliy o‘quv yurtlarining 5112200 – maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda xorijiy til (tillar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan.*

**Buxoro - 2020**

**A.M.NAZAROV**

## **UMUMIY PSIXOLOGIYA**

Umumiy psixologiyasi nomli o`quv qo`llanmada shaxsdagi psixologik holatlar, xususiyatlar, jarayonlar haqidagi nazariy bilimlar berilgan.

Mazkur o`quv qo`llanmada umumiy psixologiyaga kirish, nutq, faoliyat, shaxs, bilish jarayonlari, shaxsning hissiy-irodaviy, motivatsion sohasi, shaxsning individual psixologik xususiyatlari haqidagi ma`lumotlar keltirilgan. Shuningdek, o`quv qo`llanmada shaxs to`g`risida tushuncha, uning tuzilmasi, nazariyalari, asosiy metodlari, shaxs ehtiyojlari, motivatsiyasi, qiziqishi, emotsiyasi (hissiyoti), xarakteri, irodasi, qobiliyati, temperamenti, bilish jarayonlari hamda ularning jahon psixologiyasi fanida o`rganilishi masalalari o`z ifodasini topgan.

Ushbu o`quv qo`llanma oliy o`quv yurtlarining 5112200 – maktabgacha va boshlang`ich ta`limda xorijiy til (tillar bo`yicha) ta`lim yo`nalishi talabalari, magistrilar, o`qituvchilar, mustaqil izlanuvchi-tadqiqotchilar uchun mo`ljallangan.

***Taqrizchilar:***

***Sh.R.Barotov - Psixologiya fanlari doktori, professor,  
Xalqaro psixologiya fanlari Akademiyasi haqiqiy a`zosi (akademigi)***

***E.Z.Xalimov - psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.***

## KIRISH

Biz yosh avlod qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz va biz bolalarimizning barkamol ruhiy dunyosi ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom bo'lishi uchun doimo qayg'urishimiz, kurashmog'imiz zarur.

Inson tarbiyasi insonning o'zi kabi qadimiy va keng qamrovlidir. Shu sababli, insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari aniqlash maqsadi izlanishlar olib borilgan.

Maktabgacha ta'lim sohasi ta'lim tizimining ilk bo'g'ini hisoblanadi va butun ta'lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi bo'lgan - barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha tarbiya muassasalari ham bolalarni har tomonlama tarbiyalaydi. Bola hayotidagi ilk yosh eng muhim davr bo'lib, xuddi mana shu davrda bolaning jismoniy, ruhiy, axloqiy, mehnat, estetik rivojlanishiga poydevor bo'ladi. O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish, ta'lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta'minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

Ana shu vazifalarni amaliyotda o'z ifodasini toptirishda umumiy psixologiya fani muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'lim sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash jarayonida umumiy psixologiya fani kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni shakllantirish borasida ustuvor o'rin egallaydi.

Psixologik bilimlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tatbiq etish ko'lami kengayib borishi uning mas'uliyati va nufuzi ortayotganligidan dalolat beradi.

Ushbu o'quv qo'llanmada umumiy psixologiyaga kirish, shaxs va uning individual-tipologik xususiyatlari, bilish jarayonlari yuzasidan nazariy va amaliy ma'lumotlar keltirilgan.

# 1-MAVZU. UMUMIY PSIXOLOGIYA FANI PREDMETI VA VAZIFALARI

*Tayanch tushunchalar: materializm, idealizm, tendensiya, internalistik, eksternalistik ijtimoiy faktor, bixeviorizm, neobixeviorizm, neofreydizm, psixosomatik.*

## 1.1.Psixologiya fani haqida tushunchalar

«Psixologiya» (yunoncha) soʻz boʻlib, «jon», «ruh» haqidagi «fan, taʼlimot» degan maʼno anglatadi. Biroq hozirgi davrda «jon» tushunchasi oʻrniga «psixika»ni qoʻllashda davom etmoqda. Psixologiyada «jon», «psixika» tushunchalari aynan bir xil maʼnoni bildiradi. Lekin «psixika» tushunchasi bugungi kunda «jon»dan kengroq koʻlamga ega boʻlib, ham koʻzga koʻrinuvchi, ham koʻzga koʻrinmovchi tomonlarini oʻzida aks ettiradi. Psixikaning tarkibiy qismlari faoliyat, xulq, muomala yaqqol namoyon boʻlish xususiyatiga ega boʻlsa, bilish jarayonlari, psixik holatlar, ichki kechinmalar, ijodiy rejalar, ilmiy farazlar miyada mujassamlashgani uchun ular koʻzga koʻrinmaydi. Psixologiya fanining keyingi davrdagi taraqqiyoti ular oʻrtasida bir talay tafovutlarni keltirib chiqardi.


Psixika toʻgʻrisida dastlabki tasavvurga ega boʻlish uchun dastavval psixik hodisalar mohiyati bilan tanishamiz. Odatda, psixik hodisalar deganda ichki, subyektiv tajriba faktlarning (voqelikning) namoyon boʻlishi tushuniladi, boshqacha soʻz bilan aytganda, psixika hayotning sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi har biri alohida olingan yaqqol shakllaridan iboratdir. Ichki, subyektiv tajribaning oʻzi nimani anglatadi? Insondagi quvonch yoki zerikish tuygʻulari, uning nimalarnidir esga tushirishi, biron-bir xohish yoki intilish kechinmalari, xotirjamlik yoki hayajonlanish, hadiksirash hislarining barchasi shaxsning ichki dunyosini tarkibiy qismlaridir, yaʼni bularning hammasi subyektiv psixik hodisalar sanaladi.

Subyektiv hodisalarning asosiy xususiyati - ularning bevosita subyektga taalluqliligidir. Agar inson idrok qilsa, sezsa, fikrlasa, eslasa, xohish bildirsa, albatta ana shu hodisalarni bir davrning oʻzida tushunib turadi. Inson intilsa, ikkilansa, bir qarorga kelsa, biz ularning barchasini sodir boʻlayotganligini anglab

turamiz ham. Shuning uchun psixik hodisalar bizning ruhiyatimizda sodir bo'lishidan tashqari, ular bevosita ko'z o'ngimizda namoyon bo'lib turadi. Obrazliq qilib aytganda, odamning ichki dunyosida turli hodisalar vujudga keladi, kechadi, odatda, shaxs bunday hodisalarni harakatlantiruvchi kuchi hamda ularning tomoshabini hisoblanadi.

Psixikaning turli shakllarda ko'rinishi, jumladan, psixik jarayonlar, anglashilmagan holatlar, xulq-atvor, psixosomatik (yunoncha psyche — «jon», somoto - «tana» ma'nosini anglatadi) hodisalar, inson aql-zakovati va qo'lining mo'jizakorligi moddiy va ma'naviy madaniyat mahsulini yaratdi. Har qanday faktlarda (voqelikda), hodisalarda psixika namoyon bo'ladi, o'zining xususiyatlarini ajratadi, faqat ular orqaligina psixikani o'rganish mumkin.

Psixologik voqelik-fakt deganda subyektning ichki kechinmalarining tarkibiy qismlari bilan bir qatorda ularning obyektiv shakllari (xulq-atvor, tana harakati, jarayoni, faoliyat mahsuli, ijtimoiy-madaniy hodisalar) orqali psixikaning xususiyatlari, holatlari, qonuniyatlarini o'rganish tushuniladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, inson ongidan tashqari, unga bog'liq bo'lmagan holda hukm suruvchi obyektiv borliq, ya'ni atrofimizdagi narsa va hodisalar, muhit, sharoit va boshqalarning psixikada aks etishi psixologik voqelik deb ataladi.



Psixologiya tarixi boshqa fanlar singari qiziqarli va mazmundor bilimlar sohasidan iborat. Psixologiya tarixi insoniyat tomonidan hayvonlarga va insonlarga

xos bo`lgan psixik hayot hodisalari haqidagi bilimlarning asta-sekin to`planib borishi tarixidir. Insonning o`zi haqidagi bilimlarni to`plab hamda chuqurlashtirib borishidir. Biz psixologiya tarixi bilan tanishar ekanmiz, inson va hayvonlar psixik hayotini o`rganishga bo`lgan intilish kishilar hayotini har xil tarixiy bosqichlarda ularning qanday nazariy va amaliy ehtiyojlar bilan taqozo qilinganligini, ba`zi qonuniyatlari qanday ochilganligini bilib olamiz. Psixologiya tarixi tarixiy hayotning bosqichlarida, fan va madaniyatning umumiy taraqqiyoti munosabati bilan psixologik bilimlar sohasi qanday kengayib borganligi hamda dastlabki yakkayu-yagona bo`lgan psixologiya qay tarzda taraqqiy etib, butun bir psixologiya fanlar sistemasi darajasiga ko`tarilganligi haqida ham ma`lumot beriladi. Psixologiya tarixi psixikaning yanada chuqur va aniq bilish imkoniyatini beradi. Psixologiya fani taraqqiyotga ko`maklashadigan foydali ilmiy tekshirish metodlarini izlanish va yaratishda katta o`rin tutadi.

Psixologiyaning butun tarixi davomida idealizm va materializm o`rtasida kurash kechgan. Bu kurash psixologiya mohiyatini turlicha tushunadi, insondagi psixik va fiziologik hodisalarni o`zaro munosabatlarini tushunishda hamda psixologiya predmetini tushunishda ifodalangan. Albatta psixologiya tarixida turlicha qarashlar va yo`nalishlar bo`lishiga qaramasdan bu fanning predmeti, ya`ni inson va hayvonga xos bo`lgan psixika, psixik hayot bir xilligicha qolaveradi.

Psixologiyaga oid bilimlarni rivojlanishini har xil davrlashtirish mumkin. Davrlashtirish ishiga xronologik jihatdan yondashilsa XVII asr psixologiyasiga, hududiy territorial jihatdan yondashilsa Meksika psixologiyasining tarixi, Amerika psixologiyasining tarixi kabilarga ajratish mumkin. Demak, har qanday davrlashtirish nisbiydir. Shuni hisobga olib quyidagi davrlashtirish sxemasini ham navbatdagi variantlardan biri deb hisoblash kerak.

## **1.2. Psixologiya fanining predmeti va asosiy vazifalari.**

Psixologik bilimlar taraqqiyotining butun tarixida psixologiya predmetining uchta ta`rifi mavjud; ruh (jon) haqidagi fan, ong haqidagi fan va xulq haqidagi fan. Psixologiyani ruh haqidagi fan sifatida talqin qilish, ruhni izohiy printsip deb uning

faoliyat doirasini nihoyatda cheklab qo`ygan. Ongni psixologiyaning predmeti sifatida talqin qilish va psixikaning ongli qismini tadqiqot obyektiga aylantirib, bir vaqtning o`zida ong, ong ham predmet, ham izohiy printsip bo`lib xizmat qilgan. Psixologiya predmeti sifatida xulqning tanlanishi ong psixologiyasi subyekt tizimini yengib, psixologiyani obyektiv tadqiqot yo`liga olib chiqdi. Lekin ayni paytda psixologiya psixika va ongni o`z tadqiqot predmeti sifatida yo`qotdi. Keyingi taraqqiyot ong va xulq (faoliyat) birligi printsipi asosida ong va faoliyatning tarixiy buzilgan aloqasi tiklanmoqda. Har qanday boshqa fanda bo`lganidek, psixologiya ham murakkab, qarama-qarshiliklarga to`la, ba`zan turg`unlik, ba`zan voz kechilgan fikrlarga qaytish kabi bosqichlarni bosib o`tgan.

Psixologiyani rivojlantirishda olimlar bir xususiyatni aniqladilar, shuning uchun uning faktini va xarakteristikasini tasvirlash bilan birga sistemalar to`g`risidagi tushunchani kiritish kerak deb hisoblashdi. Psixologik sistemalar «supernazariya» (supernazariya) deb nomlanadi. Ularni paydo bo`lishini bir qator mualliflar psixologiyani teoritik yetilmaganligi bilan bog`laydilar. 1933yilda amerikalik psixolog Yedna Xaydbreder «Fan spekyulyatsiyadan o`zini tiyadi, fakt bilan tasdiqlanmagani kerak emas. Ammo psixologiya faniga yagona mustahkam sistemani yaratish uchun umuman faktlar yetarli emas» - deb yozadi. 40 yildan keyin bu fikrni yana eslab amerikalik psixologlar Melvin Marks va Vilyam Xilks u hali kuchdaligini tasdiqlashadi. Bu mualliflar fikricha, sistema funksiyasi «direktivdir». Bu sistema psixologga qaysi obyektlar bilan va qaysi metod bilan ishlash kerakligini ko`rsatadi. O`z-o`zicha sistemalarni xarakteristikasini «supernazariya» sifatida tasvirlab beradi xolos, uni kelib chiqishini, rolini ochmaydi. Qarama-qarshilik holatida sistemalarning har biri o`z fanini tasdiqlar, o`z ishlash usuliga ega edi. Shunday qilib, o`rganilayotgan qismlarning birligi yo`q bo`lar edi. Psixologiyani birlik sonida gapirish mumkin emas. Marienson tomonidan bosilgan kitoblar «1930 yil psixologiyalari», «1925 yil psixologiyalari» deb ataladi. O`sha davrda psixologlar ko`p edi va ularni soni ham ko`payayotgan edi.

### **1.3.Psixikaning namoyon bo'lishi.**

Boshqa fanlarni o'rganish kabi, psixologiyaning o'rganishni ham, avvalo, bilish, ma'lumot olish uchun ahamiyati bor. Biz psixologiyani o'rganib, voqe'likning g'oyat katta va sifat jihatdan o'ziga xos sohasi - psixik hayot sohasi haqida bilim olamiz. Psixika qanday kelib chiqqan, hayvonot dunyosida psixik hayot formalari qanday taraqqiy etgan, odam psixikasi tarixan qanday rivojlangan, har bir odam tug'ilish paytidan tortib uning ongi qaysi shart-sharoitlarga qarab taraqqiy etadi, xarakter qanday vujudga keladi, odamning qobiliyatlari qanday shakllanadi - psixologning ilmiy tadqiqotlari ana shu savollarimizga javob beradi.

Odam tevarak-atrofdagi dunyoni qanday idrok etadi, u qanday esida qoldiradi, qanday esga tushiradi va fikr yuritadi, u qanday hislarni ko'nglidan kechiradi, odam tevarak-atrofdagi dunyoni o'z ehtiyojlariga moslashtirib, yangi moddiy va ma'naviy boyliklarni vujudga keltirib, qanday ish ko'radi - psixologiyani o'rganish bilan ana shu masalalarni bilib olamiz.

Psixologiyani o'rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odam aqlini ham o'stirishga yordam beradi. Odam aqlini o'stirish, jumladan, yangi bilimlar va ko'nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal qilish qobiliyatini takomillashtirishda, o'z fikrlarini nutqda to'g'ri ifodalay bilish va boshqalarning nutqini to'g'ri tushuna bilishda ham o'z ifodasini topadi. Albatta, har bir fan bilan shug'ullanish odamni kamolga yetkazadi. Ammo psixologiya bu sohada alohida o'rin tutadi. Odam psixologiyani o'rganar ekan, avvalo o'z aql-idrokini, uning jarayonlarini bilib oladi, unga diqqat-e'tibor beradi, aqlning faoliyatini kuchaytiradigan shart-sharoitni bilib oladi va shu bilan o'z aql-idrokining ko'proq o'sishiga yordam beradi.

Psixik hayot hodisalari haqidagi ilmiy bilimlarni egallash shaxs dunyoqarashini shakllanishida katta ahamiyatga egadir. Tushunish kishilar ongidagi eskilik sarqitlariga qarshi kurashda, jumladan, har xil diniy taassub va xurofotlarga qarshi kurashda juda kuchli qurol bo'lib xizmat qiladi. Odam psixologiyani o'rganar ekan, o'zidagi psixik hayotni va boshqa kishilar psixikasini



bila oladigan bo`lib qoladi. Bu bilim esa boshqa kishilarni va o`zini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Psixologiyaning bilish, ma`lumot olish uchun ahamiyati shulardan iboratdir.

Shu bilan birga psixologiya (jumladan, psixologiya metodlari) kishilar amaliy faoliyatining har xil turlarida - ta`lim-tarbiya, ishlab chiqarish, mehnat, meditsina, sud-huquqshunoslik, harbiy-mudofaa, san`at va boshqa sohalarda ham katta ahamiyatga egadir. Pedagogika ishida, ya`ni yosh avlodni o`qitish va tarbiyalashda psixologiyaning ahamiyati ayniqsa katta.


Pedagog o`quvchilarga biron materialni tushuntirar ekan shu materialni bolalar qanday o`zlashtirayotganini – ko`ruvchilar qanday idrok etayotganini, eslab qolayotganini, fikrlayotganini, ularda diqqat – e`tibor, hissiyot qanday namoyon bo`layotganini, bolalarning yosh xususiyatlariga qarab bu jarayonlar qanday ro`y berayotganini bilish lozim.

O`quvchini bilib olish – shu o`quvchining darslarni o`zlashtirish darajasini bilish demakdir, shuningdek, o`quvchining psixik xususiyatlarini bilish demakdir, uning qobiliyat va havaslari qanaqa ekanligini, uning diqqat – e`tibori, hislari, irodasi, xotirasi, tafakkuri qanday zohir bo`lishini bilish demakdir.

Ta`lim – tarbiya ishida pedagog bolalarni bilimdan bahramand qilish, ularga ko`nikma va malaka berish bilangina kifoyalanib qolmay, shuningdek, o`quvchilar shaxsining hamma tomonlarini, dunyoqarashi, xarakteri, irodasi, qobiliyati va havaslarini takomillashtirishi lozim. Buning uchun esa psixikaning ayrim tomonlari qanday sharoitda va qaysi pedagogik usullar yordami bilan o`zlashtirishini va takomillashuvini bilmoq kerak.

Psixologiyaning san`atdagi ahamiyatini ham ko`rsatib o`tmoq kerak. Har bir san`atkor (artist, muzikant, rassom va shunga o`xshashlar) kishilarga – tomoshabinlarga, tinglovchilarga o`z ijodi bilan ta`sir ko`rsatishni maqsad qilib qo`yadi. Buning uchun esa odamning qanday idrok qilishini, qanday fikrlashini va qanday his qilishini bilmoq kerak. San`at arbobi obraz yaratish ustida ishlaydi, shu obrazning biror badiiy vosita bilan gavdalantiradi. Buning uchun san`atkor obrazni

qanday elementlardan qay tariqa yaratilishini bilishi kerak. U ijodiy faoliyat psixologiyasini bilishi shart.



Psixologiyani bilish kundalik turmush uchun ham foydali. Har kim doimo boshqa kishilar o`rtasida bo`ladi, muayyan munosabatlar – tanish-bilishlik, oshna-do`stlik va boshqa shu kabilar tufayli boshqa kishilar bilan aloqa qiladi. Har birimizga boshqa kishilarning xarakter, havas, kayfiyatlarini bilib olishga, kishilarning bir-birini ajratishga va ularga ta`sir ko`rsatishga to`g`ri keladi.

Bu yerda shuni aytish kerakki, odamzod faoliyatining turli sohalarida psixologik bilimlarning amalda qo`llanish psixik hayot hodisalari, uni

qonuniyatlari, haqidagi bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish va oydinlashtirish uchun ham ko'p material beradi va shu bilan psixologiyani nazariy sohalarini boyitadi.

Psixologiyaning ilmiy bilish va amaliy ahamiyati shundan ham ko'rinadiki, psixologiyaning tarixiy taraqqiyotida unda bir qancha maxsus tarmoqlar ajralib chiqdi. Psixologiyaning bu tarmoqlari hozirgi vaqtda mustaqil fanlar darajasiga ko'tarildi. Psixologiyada tekshiriladigan psixik hayot hodisalari juda xilma-xil va murakkab hodisalardir. Bu hodisalar qanday metodlar bilan, ya'ni qaysi yo'llar bilan, qanday usullar bilan tekshiriladi, degan savol tug'iladi.

Psixologiyada chinakkam ilmiy bilimga ega bo'lmoq uchun psixikani tekshirish metodlarini bilish va shu metodlardan foydalana bilish kerak. Har bir pedagog kishilar psixikasini tekshirish uchun loaqal eng oddiy usullarni bilishi lozim.

Har bir fan kabi psixologiya ham psixik (ruhiy) hayot hodisalarini chinakkamiga ilmiy asosda bilib olish uchun quyidagi talablariga amal qilish lozim: Tekshiriladigan har bir psixik hodisaga boshqa hodisalar bilan bog'langan deb qaralishi zarur. Masalan, psixik hodisaning uning nerv fiziologik asosdan ajratib o'rganish yaramaydi, xotirani tafakkur, diqqat va umuman shaxsdan ajratib o'rganish yaramaydi va hokazo.

Har bir psixik hodisa va umuman shaxs vujudga kelish, taraqqiy etish va o'zgarish jarayonida ko'zdan kechirilishi zarur. Shuning uchun, masalan, bolalar va o'smirlar psixikasining taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, voyaga yetgan odam psixikasining yetarlicha yaxshi bilib bo'lmaydi.

#### **1.4. Psixologiyaning o'rganilish bosqichlari (bixeviorizm, neobixeviorizm, neofreydizm)**

Psixik hayot hodisalarning ularning taraqqiyot jarayonidan o'rganganda miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishini va bir sifat holatining ikkinchi sifat holatiga o'tishini ko'zdan kechirmoq kerak. Masalan, odam psixikasining taraqqiy etishini o'rgana turib, bilim olish va to'plash jarayonida

odamning bilish qobiliyatlari: xotirasi, tafakkuri va nutqi, mushohadakorligi sifat jihatidan o'zgarishni ko'rsatib bersa bo'ladi. Odam ongi uning tarixiy taraqqiyotida shakllanadi. Hozirgi mustaqillik sharoitida milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlash, yangicha tafakkur qilish va dunyoqarashni shakllantirish milliy mafkura va milliy g'oyani shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Odamning tevarak atrofdagi voqe'likni bilishi kuzatishdan, tajribadan boshlanadi. Shu sababli, ilmiy psixologiya ham o'z mavzuini o'rganishni tajribadan, psixik hayot faktlarini aniqlash, tasvir etish va tahlil qilishdan boshlashi lozim. So'ngra, aniqlangan va tahlil qilingan faktlar asosida, psixik hayot qonuniyatlarini ochib, tegishli nazariy va amaliy xulosalar chiqarilishi lozim.

### **Psixologiyaning fan sifatida rivojlanishining umumiy ko'rinishi**


<b>Bosqich</b>	<b>Psixologiyaning predmeti</b>	<b>Qisqacha ta'rifi</b>
I bosqich	Psixologiya jon (ruh) haqidagi fan.	Bunday ta'rif psixologiyaga 2500 avval berilgan. Inson hayotidagi turli tushunarsiz hodisalarni jon (ruh)ning mavjudligi va uning xususiyatlari bilan tushuntirishga harakat qilganlar.
II bosqich	Psixologiya ong haqidagi fan.	XVII asrda tabiiy fanlarning rivojlanishi ta'siri ostida shakllangan. Kishining fikrlashi, his qilishi, istaklarini – ongning shakli deb qaralgan. Psixologiyaning asosiy metodi introspeksiya (o'zini kuzatish) deb hisoblaganlar.
III bosqich	Psixologiya xulq-atvor haqidagi fan.	XX asrning boshida shakllangan. Psixologiyaning asosiy vazifasi kishining xulq-atvorini, harakatlarini, o'zini tutishini kuzatish deb hisoblaganlar. Xatti-harakatlar asosida yotgan motivlar hisobga olinmagan.
IV bosqich	Psixologiya psixikaning	Hozirgi zamon. Falsafiy va tabiiy fanlarga oid bilimlarning rivojlanishi

	qonuniyatlari va mexanizmlari haqidagi fan.	ta'siri ostida shakllangan va mustaqil, ko'p sohali, eksperimental fanga aylangan.
--	---	--

Psixika, ong – faqat yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xossasidir. Hayvonlar bilan odamlar organizmiga xos bo'lgan nerv sistemasi ana shunday yuksak darajada tashkil topgan materiyadir. Psixikaning bevosita moddiy substrati (asosi) – odamning bosh miyasidir. Odamning psixikasi, ongi – bosh miya funksiyasidir.

Psixika, ong materiya taraqqiyotining faqat yuksak bosqichlarida paydo bo'ladi. Materiya taraqqiy qilib borgan sari turli qonuniyatlar va xossalar - mexanik, fizik, kimyoviy, biologik va boshqa qonuniyat va xossalar paydo bo'ladi va taraqqiy qiladi, organik olam taraqqiyotining eng yuksak bosqichidagina materiyaning psixika, sezgi, ong, tafakkur, deb ataladigan alohida xossalari vujudga keladi.

Olam taraqqiyoti tarixida psixika, ong, bo'lmagan davr o'tgan. Psixika olam taraqqiyotining eng yuksak bosqichlaridagina paydo bo'ldi.



Psixika materiyaning alohida xossasi bo'lib, bu xossa obyektiv voqe'likni alohida bir ravishda aks ettirish qobiliyatidan iboratdir. Aks ettirish degan so'zning ma'nosi har xil tushuniladi. Tevarak-atrofdagi voqe'likni aks ettiradigan ko'pgina narsalar ma'lum, masalan, suv aks ettiradi, ko'zgu aks ettiradi va hokazo. Bu misollarda biz fizik hodisa sifatidagi aks etish (in'ikos)ni ko'ramiz. Psixik hodisalar haqida so'zlashganimizda esa sifat jihatdan boshqacha, o'ziga xos ravishda aks etishini nazarda tutmog'imiz kerak. Bu aks ettirish sezgilarda, xotirada, tafakkurda va boshqa shu kabilarda o'z ifodasini topadi.

Insonning aks ettirish jarayoni o`z mohiyati va xarakteri jihatidan 2 bosqichdan iboratdir. 1) Hissiy (aks ettirish) bilish bo`lib, u sezish, hissiy qabul qilish, xotira va tasavvurlardan iboratdir. 2) Aqliy bilish bosqichi bo`lib, u tafakkurdan iboratdir.

Hissiy bilishning boshlang`ich shakli - sezgidir. Chunki hissiy bilishning boshqa shakllari – hissiy qabul qilish sezgiga nisbatan ancha murakkab bo`lib, u sezish asosida vujudga keladi. Hissiy qabul qilishning sezishdan farqi shundaki, unda predmetlarning ayrim xossalarni emas, balki predmet bir butun holda aks etadi.

Hissiy bilishning yana bir shakli tasavvurdir. Tashqi ta`sir natijasida vujudga kelgan nerv va miya qobig`ining ma`lum qismidagi qo`zg`alish – sezish, qabul qilish – ma`lum davrgacha o`z izini qoldiradi, ya`ni tashqi ta`sir to`xtagandan so`ng qo`zg`alishning, sezishning izi saqlanib qoladi. O`sha ta`sir etgan predmetga aloqador bo`lgan, unga qandaydir munosabatda bo`lgan hodisa ta`siri natijasida izlar yana qayta tiklanishi mumkin.

Miya qobig`ida saqlanib qolgan shu fiziologik izlarning tiklanishi, qaytadan qo`zg`alishi tasavvur, xotirani vujudga keltiradi. Insonning bilish jarayoni hissiy bilish bilangina cheklanmaydi. Hissiy bilish yoki jonli kuzatish inson bilishining pastki bosqichida vujudga keladi, bu bosqich asosida ijtimoiy mehnat jarayonida ikkinchi yuqori bosqich – aqliy bilish, tafakkur paydo bo`ladi. Hissiy bilish orqali obyektiv reallikdan olingan «materiallar»ni qayta ishlash, ularni munosabatlari, ichki xususiyatlarini aniqlash, muhim va asosiy tomonlarini nomuhimlaridan ajratib olish, ularning qonuniyatlarini ochish aqliy bilish va tafakkurda amalga oshiriladi. Odam bilan uning tevarak-atrofidagi olam o`rtasida doimo o`zaro bir-biriga ta`sir qilish jarayoni bo`lib turadi. Odam bu protsessda dunyoni o`z psixikasi bilan aks ettiradi. Shu bilan birga, voqe`lik odam ongida ko`zgudagi kabi passiv ravishda aks etmay, balki aktiv ravishda aks etadi: odam tevarak-atrofdagi olam bilan o`zaro bir-biriga ta`sir ko`rsatar ekan, shu jarayonda olamga ta`sir etadi, uni o`zgartiradi va uni o`z ehtiyojlariga moslashtiradi.

Inson o'zining kimligini anglashga intilishdan, o'z ruhiy dunyosini va o'zgarlar ruhiyatini bilish istagi paydo bo'lishdan, tabiat va jamiyat hodisalarini tushunishga ehtiyoj sezishdan, o'tmish, hozirgi zamon, kelajak haqida mulohaza yuritishdan e'tiboran psixologiya fan sifatida rivojlana boshladi. Psixologik bilimlar juda uzoq o'tmish tarixga ega bo'lsa-da, lekin u fan sifatida falsafadan XIX asrga kelib ajralib chiqdi. Psixologiyani alohida fan sifatida ajralib chiqishiga o'sha davrda kishilik jamiyatida yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar sabab bo'ldi, chunki bular ijtimoiy zaruriyatning taqozosi edi. Psixologik holatlarni tadqiq qilish, ya'ni psixika mohiyatini tushunish maqsadida o'sha davrda eksperimental ilmiy-psixologik laboratoriyalar vujudga kela boshladi. Ilk psixologik tadqiqotlar laboratoriyasi nemis olimi V. Vundt tomonidan 1879 yilda Leypsig universitetida tashkil qilindi. Xuddi shu laboratoriya andozasi bo'yicha boshqa mamlakatlarda bir qancha mustaqil laboratoriyalar ochildi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelib psixologiya fani to'grisidagi ilmiy tushunchalarda keskin o'zgarishlar yuzaga keldi va ularning ta'siri natijasida psixologiyaning tadqiqot obyekti sifatida insonga muhitning ta'siri, uning xulq-atvorini o'rganish muammolari tanlab olindi. Shu davrda psixologiya fanining rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shgan psixologiya maktablari vujudga keldi, jumladan, Amerika (AQSh) psixologiyasining asosiy yo'nalishlaridan bo'lgan bixeviorizm, Germaniya geshtaltpsixologiya maktabi, Venada Z.Freydning psixoanalizi va boshqalar. Shu maktablarning hammasi o'zining nuqtai nazariga asoslanib, psixologiya fanining tarkibiy qismlarini o'rganishga harakat qildi. Psixologik konsepsiyalarning rang-barangligi sababli va fan-texnikaning rivojlanishi ta'siri bilan psixologiya o'zining tadqiqot obyektlariga ega bo'lgan ko'plab sohalarga ajrala boshlandi. Hozirgi davrda psixologiyaning nazariy va amaliy yutuqlari atrof-muhit hamda jamiyatning juda keng qirralariga tatbiq qilinmoqda.


## **1.5.Psixologiya fanining fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi. Psixologiya fanining tarmoqlari**

Psixologiya fanini muayyan sohalarga bo‘lishda aniq, yaqqol faoliyatining psixologik tomoni, insonning jamiyatga nisbatan psixologik munosabati, taraqqiyotining psixologik jabhasi asos qilib olingan. Psixologiya sohalarining tavsifiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Umumiy psixologiya - umumiy psixologik qonuniyatlar, mexanizmlar, murakkab ichki bog‘lanishlar, nazariy va metodologik printsiplar, ilmiy tadqiqot metodlar, psixikaning filo va ontogenetik o‘zgarishlarini, ilmiy tushunchalar va kategoriyalar, bilish jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan tadqiqot qiladigan soha. Umumiy psixologiya boshqa sohalar kabi shartli ravishda qabul qilingan nomdan iboratdir. Psixologiya fanining ilmiy tushunchalarini, kategoriyalari (shaxs, motivatsiya, faoliyat, muomala, ong)ni, tadqiqot metodlarini umumiy psixologiyada umumlashtirish uchun uning boshqa sohalaridagi tekshirish natijalarini mavhumlashtirish maqsadga muvofiq. Shuning bilan birgalikda umumiy psixologiyaning tadqiqot natijalari psixologiyaning boshqa sohalar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Umumiy psixologiya fani asosiy kategoriyalar, tushunchalar, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, individual-tipologik xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. 1. Psixik jarayonlar: sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol va boshqalar. 2. Irodaviy jarayonlar: motiv, motivatsiya, ehtiyojlar, intilishlar, qaror qabul qilish kabilar. 3. Hissiy jarayonlar: his-tuyg‘ular, emotsiya, kayfiyat, emotsional ton, stress, affekt singarilar. Psixik holatlarga psixik jarayonlarning ma’lum bir sifatlarining ko‘rinishlari kiradi. Masalan, hissiy jarayonlardan psixik holat sifatida kayfiyat, psixik xususiyatlarga qobiliyatlar va boshqalar kiradi. Umumiy psixologiyadagi bu bo‘linish shartli ravishda amalga oshirilgan bo‘lib, unda jarayon tushunchasi umumiy tadqiq qilinayotgan hodisaning jarayoniy xususiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi, xolos. Psixik holat tushunchasi psixik holatlarga nisbatan nisbiy statikligini anglatadi. Psixik xususiyat tushunchasi esa tadqiq qilinayotgan hodisaning mustahkamligini, qaytaruvchanligini aks ettiradi va bu narsa shaxs tuzilishida o‘z ifodasini topadi.



Umumiy psixologiyadan boshqa sohalar, bilimlar asos sifatida foydalaniladi, xuddi shu boisdan u universal xususiyat kasb etadi.



Eksperimental psixologiya - eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni tadqiq qilishning umumiy sohasi. Psixologiya fan sifatida falsafadan ajralib chiqishida eksperimental tadqiqotlar o'tkazish asosiy rol o'ynagan. XIX asrning o'rtalarida psixologik hodisalar ustidan ilk bor amaliy eksperimental-psixologik tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu fiziologik laboratoriyalarda elementar funksiyalarni o'rganish orqali, ya'ni ilk bor sezgi va idrokni o'rganish bilan boshlangan. Bu tadqiqotlar eksperimental psixologiyaning falsafa va fiziologiyadan mustaqil, alohida fan sifatida vujudga kelishiga muhim asos va obyektiv shart-sharoit yaratib bergan. Eksperimental psixologiya fan sifatida ajralib chiqishiga V.Vundt o'zining katta hissasini qo'shgan. Ilk eksperimental tadqiqotlar o'zini o'zi kuzatish metodi yordami bilan insonning ichki funksiyalarini o'rganishga qaratilgan edi. Keyinchalik eksperimental ishlar turlicha hayvonlarda o'tkazila boshlangan. Tadqiqotlarning ko'pchiligi T.L.Morgan, E.L.Torndayklar

tomonidan olib borilgan. Eksperimental tadqiqotlar orqali faqat psixik funksiyalargina emas, balki hissiyotlarning individual variantlari ham tekshirilgan. Eksperimental psixologiyaning tadqiqotlari psixologiya sohalarining nazariyasiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mehnat psixologiyasi - insonning mehnatga munosabati, mehnat faoliyatining qonuniyatlari va rivojlanishini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. Mehnat psixologiyasining obykti ishlab chiqarishda va mehnatda shaxsning faoliyati, uni ishdan bo‘sh vaqtining, dam olishining ishlab chiqarishga ta‘sirini ham tekshirgan. Mehnat unumdorligiga ishchini boqish uchun ketgan sarflar miqdori ko‘p bo‘lsa, unga qancha qulay shart-sharoit yaratilsa, shuchalik ijobiy ta‘sir yuzaga keladi. Shu asosda yuqoridagi fanlar mehnatkashga psixologik iliq muhit yaratish uchun mehnat psixologiyasiga yordam beradi. Mehnat psixologiyasini G.Myunsterbergning «Psixologiya va ishlab chiqarish unumdorligi» (1913) va «Psixotexnika asoslari» (1914) kitoblari chiqqan davrdan boshlab alohida soha sifatida vujudga kelganligi e‘tirof etilgan. Mehnat psixologiyasining asosiy vazifasi ishlab chiqarish munosabatlarini ijobiylashtirish, mehnatkashlarga zarur shart-sharoit yaratib berish, kasbiy kasalliklarning, ishlab chiqarishda jismoniy falokatlarning, psixologik zo‘riqlashlarning oldini olishdir.

Aviatsiya psixologiyasi - aviasanoat va aviaxizmatchilarning mehnat faoliyatida kechuvchi psixologik qonuniyatlarni o‘rganadi. Aviatsiya psixologiyasining predmeti murakkab aviatsiya tizimini boshqarishdagi inson psixikasining rolini tekshirishdan iborat. Aviatsiya psixologiyasi obykti shaxs faoliyati, jamoa tuzilishini tashkil qilishning shart-sharoitlari hisoblanadi. Aviatsiya psixologiyasi subyekti uchuvchilar, muhandis, texnik xizmat ko‘rsatish tarkibini tashkil etuvchi styuardessalar va boshqalar. Aviatsiya psixologiyasi soha sifatida uchuvchi qurilmalar yaratilishi vaqtidan, ya‘ni XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan vujudga kelgan. Aviatsiya psixologiyasi tug‘ilishining asosiy sababi uchuvchi apparatlar ishlatishda va boshqarishda inson omili xavfsizligiga shart-sharoit yaratish ehtiyojidir. Aviatsiya psixologiyasi psixologiyaning boshqa sohalar bilan uzviy bog‘liqdir.

Muhandislik psixologiyasi - inson va mashina o'rtasidagi munosabatni, insonga mashinaning psixologik ta'sirini va insonning mashina bilan munosabati jarayonining psixologik qonuniyatlarini tadqiqot metodlari yordami bilan o'rganuvchi psixologiya sohasi. Muhandislik psixologiyasi fan-texnika revolyutsiyasi ta'sirida vujudga kelgan bo'lib, quyidagi muammolarni tekshiradi:

- 1) inson va EHM kabi avtomatika tizimi yuklamasida inson vazifasini tahlil qilish;
- 2) EHM operatorlarining hamkorlik faoliyatida muloqot jarayoni va ularning o'zaro ta'sirini tadqiq qilish;
- 3) operator faoliyatining psixologik tuzilishini tahlil etish;
- 4) operator ishining sifatiga, tezligiga, samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni tekshirish;
- 5) inson tomonidan axborot qabul qilishni tadqiq etish;
- 6) operator faoliyatini boshqarish mexanizmini o'rganish;
- 7) EHMni boshqarishdagi buyruqlarni inson tomonidan qabul qilish xususiyatini aniqlash;
- 8) operatorlar uchun psixodiagnostika va proforiyentatsiya metodlarini ishlab chiqish;
- 9) operatorlarni o'rganishni optimallashtirish.

Kosmik psixologiya - vaznsizlik va bo'shliqda aniq mo'ljal ola bilmaslik sharoitida, organizmda juda ko'p ortiqcha taassurotlar yuklangan paytda ro'y beradigan nerv-psixologik zo'riqish bilan bog'liq bo'lgan alohida holatlar tug'ilganda kishi faoliyatining psixologik xususiyatlarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi.

Ekstremal psixologiya - insonning o'zgargan muhit shart-sharoitlarida psixik faoliyatining kechishi qonuniyatlarini o'rganadigan psixologiya sohasi. Ekstremal sharoitda insonga bir qancha faktorlar ta'sir qiladi: makon o'zgarishi, xavf omili, vaqt, shaxsiy ahamiyatga molik axborotning o'zgarishi, yolg'izlik, guruhiy izolyatsiya va hayotiy xavf. Ekstremal sharoitga inson moslashishining biologik vazifasi ekstremal sharoitda ishlovchilarni tanlab olish (kosmos, arktika, yong'in va hokazo), mashqlantirish, trening o'tkazishdan iborat.

Pedagogik psixologiya - tarbiya va ta'lim muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. Pedagogik psixologiya shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishi, bilish faoliyatining va shaxsda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi. Pedagogik psixologiyaning

maqsadi - o'qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta'sirini, shart-sharoit va boshqa psixologik faktorlardan kelib chiqqan holda kuchaytirishdir. Pedagogik psixologiya XIX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy taraqqiyotning ta'siri natijasida vujudga kelgan. Eksperimental psixologiya tadqiqotchilari pedagogik psixologiya rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Bundan tashqari, pedagogik psixologiyaning fan sifatida taraqqiy etishida o'sha davrda yuzaga kelgan psixologik yo'nalishlar ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazgan. Bixevioristik psixologiya yo'nalishi pedagogik psixologiya uchun asos qilib, tarbiyachi va o'qituvchiga vosita qilib tashqi muhit ta'sirini oladi. Tashqi muhit qanchalik ijobiy ta'sir qiluvchi omil bo'lsa, ya'ni qulay shart-sharoit vujudga kelsa, demak, shaxsning tarbiyalanishi shunchalik ijobiy kechadi.

Hozirgi zamon pedagogik psixologiya rivojlanishi natijasida insonning individual-psixologik farqlari, ijtimoiy-tarixiy tajribalar ta'siri hamda boshqa odamlar o'rtasidagi muloqot, muomala ta'siri borligini, shuningdek, yana bir qancha faktorlarni hisobga olgan holda shaxsni rivojlantiruvchi ta'lim orqali o'qitish va tarbiyalash yotadi. Pedagogik psixologiyani shartli ravishda bir necha turga ajratish mumkin: a) ta'lim psixologiyasi; b) tarbiya psixologiyasi; v) o'qituvchi psixologiyasi; g) oliy maktab psixologiyasi kabilar.

Tibbiyot psixologiyasi - kasallarning davolanishi, gigiyena, profilaktika, diagnostika jabhalarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Tibbiyot psixologiyasida tadqiqotlar tizimiga kasalliklarning kechishi, ularning shaxs psixologiyasiga ta'siri qonuniyatlari, insonning kasallikdan sog'ayishiga mikrosotsial guruh ta'siri o'rganiladi. Tibbiyot psixologiyasi o'z ichiga klinik psixologiya, patopsixologiya, neyropsixologiya kabi bo'limlarni qamrab oladi.

Tibbiyot psixologiyasi tarkibiga psixoterapiya sohasini ham kiritadilar. Tibbiyot psixologiyasining asosiy muammosi kasallikni davolashning inson psixologiyasiga ta'sirini tadqiq qilishdir. Uning asosiy muammosi insonning psixologiyasiga ijobiy ta'sir qiluvchi va shu bilan davolanishni tezlashtiruvchi ijobiy davolash muhitini tashkil qilishdir. Psixik hodisalar bilan miyaga fiziologik tuzilishlar o'rtasidagi nisbatni o'rganadigan soha - neyropsixologiya. Dorivor

moddalarning kishi psixik faoliyatiga ta'sirini tekshiradigan soha - psixofarmokologiya. Bemorlarni davolash uchun psixik jihatdan salomatligini ta'minlash chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi soha - psixoprofilaktika.

Yuridik psixologiya - huquq doirasidagi munosabatlar odamlarning psixik faoliyatini huquqiy boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Eksperimental psixologiya ta'siri ostida XX asrning boshlarida yuridik psixologiya sohasida ilk laboratoriya tadqiqotlari o'tkazilgan. Bu tadqiqotchilar guvohlarning ko'rsatmalarini va so'roq olib borish asoslarini o'rganishni maqsad qilib qo'ygan edilar. Yuridik psixolog sifatida yozuvchi A.K.Doylning qahramoni Sherlok Xolmsni atash mumkin. Yuridik psixologiya bo'yicha tadqiqot ishlari o'sha vaqtlarda G.Gross, K.Marbe, V.Shtern, K.Yung va boshqa psixologlar tomonidan olib borilgan. Keyinchalik yuridik psixologiyaning o'ziga xos tadqiqot yo'nalishlari vujudga keldi: jinoyatchilar shaxsini tadqiq qilish, guvohlik ko'rsatuvchilar ko'rsatmalarini tekshirish, sud psixologiyasi ekspertizasining nazariy va amaliy tomonlari ishlab chiqilgan. Yuridik psixologiya umumiy psixologiyaning metodlari va o'ziga xos ularning shakllarini qo'llaydi. Hozirgi zamonda uning bir qancha bilimlari mavjuddir: kriminal psixologiya, sud psixologiyasi, jinoyatchilarni qayta tarbiyalash psixologiyasi yoki axloq tuzatish mehnat psixologiyasi kabilar.

Harbiy psixologiya - harbiy faoliyatning inson psixikasiga ta'siri, harbiy faoliyatning xususiyatlarini psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi, tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Jangchi shaxsining psixologik faktorlarini tekshirish harbiy psixologiyasining asosiy muammolaridan biridir. Harbiy jamoalarda shaxslararo munosabatlar, komandirlar bilan jangchilar muloqotining psixologik xususiyatlari, favquloddagi holatlarda harbiy xizmatdagi kishilar psixikasining o'zgarishi, bo'linmalarda psixologik muhit masalasi, harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish birlamchi muammo ekanligi va hokazo. Harbiy psixologiya negizida sotsial psixologiya, mehnat psixologiyasi, muhandislik

psixologiyasi, pedagogik psixologiya sohalarining nazariy-amaliy materiallari, umumbashariy qonuniyatlar yotadi.

Sport psixologiyasi - sport musobaqalari va mashqlanish faoliyatida inson psixikasining rivojlanishi, guruhiy munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Mazkur soha XX asrning 60-70-yillarida jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi va uning ilk tadqiqotlari sportchilarning individual-psixologik farqlarini o'rganishga qaratilgan edi. Hozirgi davrga kelib esa sport psixologiyasi o'rganayotgan muammolar ko'lami kengaydi, shu boisdan uning asosiy vazifasi sportchilarning psixik va jismoniy kamolotiga ta'sir o'tkazuvchi muhim shart-sharoitlarni yaratib berishdir. Bundan tashqari sport psixologiyasi sportchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga, erishgan yutuqlariga psixologik yordam ko'rsatish jabhalari bilan ham shug'ullanadi.

Savdo psixologiyasi - jahon mamlakatlarida keng rivojlangan bo'lib, tijorat ta'sirining psixologik negizlari, obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarini, ehtiyojning individual, yoshga, jinsga oid va boshqa xususiyatlarini, xaridorlarga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydigan soha. Savdo psixologiyasi savdo-tijorat reklamalari, modalar psixologiyasi va shu kabi masalalarni tadqiq qiladi. Ayniqsa, sotuvchi-xaridor munosabati, kishilarga ta'sir o'tkazish, ularda iliq his-tuyg'u, ishonch uyg'onish mexanizmlari, mantiqan ularni muomala jarayonida ishontirish, qiziqtirish, ijtimoiy ahamiyatini tushuntira bilish, nizoli holatlarning oldini olish, xizmatda muloqot madaniyati va uning treninglaridan unumli foydalanish, xaridorlarning psixologik xususiyatlarini anglagan holda munosabatda bo'lish qonuniyatlarini tadqiq etish ham mazkur sohaning tekshiruv predmetiga kiradi.

Ijodiyot psixologiyasi - badiiy qadriyatlarni o'zlashtirishda, ularning yangi ko'rinishlarini ijod qilishda va shu qadriyatlarni inson tomonidan idrok qilishda kechadigan psixologik holatlarni hamda bu holatlarning shaxs hayoti, faoliyatiga ta'sirini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Ijod psixologiyasi bir tomondan psixologizm ta'siri ostida, ikkinchi tomondan esa aksilpsixologizm iskanjasida

rivojlanadi. Psixologizm tarafdorlari badiiy asarlar yaratilishi individual ong ta'sirida vujudga keladi, deb talqin qilishadi.

Hozirgi zamonda san'at asarlarining tarixiy jihatdan ularni ijodkorlarining shaxsiy xususiyatlari birlamchi ekanligidan kelib chiqiladi. Zamonaviy san'at psixologiyasi san'atkorlarning qobiliyatlarini asar yaratishda hissiy ko'rinishlarni, shaxslararo munosabatlarni psixologik nuqtai nazardan o'rganadi. San'atda inson ruhiy olamini amaliy jihatdan tekshirish, baholash, o'ziga xos jihatlarini guruhlash, individual, guruhiy, jamoaviy ta'sir xususiyatlarini sharhlash imkoniyati mavjud. San'at psixologiyasi ijtimoiy tarbiya berishning psixologik mexanizmlari, yo'llari, qonuniyatlari, metodlari kabilarni tadqiq etuvchi muhim sohalardan biridir. Bugungi kunda uning quyidagi sohalari o'z tadqiqot predmeti va obyektiga egadir: ijod psixologiyasi, san'at psixologiyasi, badiiy tarjima psixologiyasi, badiiy ijodiyot psixologiyasi, xalq amaliy san'ati psixologiyasi, badiiy me'morlik psixologiyasi kabilalar.

Yosh psixologiyasi - shaxsning psixik rivojlanish qonuniyatlarini inson tug'ilishidan to umrining oxirigacha bo'lgan davrni, ya'ni ontogenezni o'rganadigan psixologiya sohasi. Yosh psixologiyasi bolalar psixologiyasi sifatida XIX asrning oxirida vujudga kelgan bo'lib, u fan va texnika taraqqiyoti, jamiyat talabiga binoan bolalar psixologiyasi taraqqiyotida qo'llanilgan. Yosh psixologiyasi hozirgi zamonda bolalar psixologiyasi, o'smirlik va o'spirinlik psixologiyasi, yetuklik psixologiyasi, gerontopsixologiyadan iboratdir. U insonning ontogenezda rivojlanish jarayonida psixik holatlarning kechishi, psixik funksiyalarning roli, ularning o'zgarishi, harakatlantiruvchi kuchlar, mexanizmlar, ta'sir o'tkazuvchi obyektiv va subyektiv faktorlar, taraqqiyot qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Yosh psixologiyasi umr o'tishi bilan psixologik farq, individual-psixologik xususiyatlar o'rganishini o'rganadi, tadqiqotlarda madaniy, ijtimoiy-tarixiy, milliy ta'sirni hisobga oladi. Shuning uchun yosh psixologiyasining obyektlari o'ta murakkab bo'lib, taraqqiyotlar taraqqiyotini tekshirishni taqozo qiladi. Jahon psixologiyasida to'plangan barcha nazariy materiallarga, shu jumladan, genetik modellashtirish (L.S.Vigotskiy) metodlariga, egizaklar metodiga

va shunga o'xshash o'ta murakkab jarayonlarning longityud (uzluksiz) uslubi yordamida tekshirishga asoslanadi. Yosh psixologiyasining asosiy vazifalaridan biri - bolani psixik rivojlanishining ijobiy shaklda tashkil etilishi, yosh davrlari inqirozi bosqichlari, jarayonlari va paytlarida psixologik yordam ko'rsatish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Yosh psixologiyasi pedagogik psixologiyaning ilmiy, amaliy, tajribaviy asosi bo'lib hisoblanadi, lekin boshqa sohalari bilan ham uzviy alohida faoliyat ko'rsatadi, inson kamolotining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ijtimoiy ahamiyatga molik materiallar to'playdi.

Maxsus psixologiya - normal psixik rivojlanmagan tug'ma yoki keyinchalik orttirilgan nuqsonlar, defektlar ta'siri ostidagi insonlarning psixologiyasini tadqiqot qilish sohasi. Uning bir necha bo'limlari mavjud: patopsixologiya - rivojlanish jarayonida psixikaning aynishi, miyadagi kasallikning turlicha kechishi, psixikaning tamoman izdan chiqishi hollarini o'rganuvchi soha; oligofrenopsixologiya - psixik rivojlanishning miyadagi tug'ma asoratlar bilan bog'liq patologiyasi to'g'risida tadqiqot ishlarini olib boruvchi soha; surdopsixologiya - quloq eshitishining butunlay kar bo'lib qolgunga qadar jiddiy kamchiliklari, nuqsonlari bilan shug'ullanuvchi, bolani voyaga yetkazishning omilkor yo'l-yo'riqlarini topuvchi, korreksion-tuzatish ishlarini olib boruvchi soha; tiflopsixologiya - chala ko'ruvchi va mutlaqo ko'zi ojiz odamlarning psixologik rivojlanishini tadqiq qiluvchi soha. Maxsus psixologiyaning yana o'ziga xos tor bo'limlari ham mavjud bo'lib, insonlarning kasalligi, nuqsoni, aql-idrok darajasi, nutq faoliyati patologiyasiga binoan tadqiqot ishlari olib boriladi.

Qiyosiy psixologiya - psixologiyaning murakkab bo'limlaridan biri bo'lib, psixikaning filogenetik holatlari va ularning shakllarini tadqiq qiladigan soha. Qiyosiy psixologiyada hayvonlar psixologiyasi odamlarniki bilan qiyoslanadi, ularning xulq-atvoridagi o'xshashliklar va tafovutlar sabablari tekshiriladi, harakatlantiruvchi kuchlar, ta'sir o'tkazuvchi vositalar, omillar aniqlanadi.

Zoopsixologiya qiyosiy psixologiyaning bo'limidan iborat bo'lib, u turli guruhlarga, turlarga mansub hayvonlar, jonivorlar psixikasini, ularning xatti-harakatlarini o'rganadi. Etologiya - biologik va psixologik jabhalar qorishmasidan



iborat bo'lib, hayvonlarning xatti-harakatidagi tug'ma alomatlar, mexanizmlar insonniki bilan umumiy negizga ega ekanligini o'rganuvchi soha.

Differensial psixologiya - shaxslar o'rtasidagi tafovut va farqlarni hamda guruh a'zolari orasidagi nomutanosibliklarning psixologik tomonlarini, ya'ni psixologik farqlarini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Differensial psixologiyaga F.Galton asos solgan bo'lib, u individual farqlarni statistik analiz qilish uchun bir qancha usullar va asboblarni yaratgan. Differensial psixologiya terminini nemis psixologi V. Shtern o'zining «Individual farqlar psixologiyasi» (1900 yil) asarida ishlatgan. Differensial psixologiyaning asosiy metodlaridan biri - testdir. Avval individual testlar, keyinchalik esa guruh testlar qo'llanila boshlangan, ular asosan aqliy rivojlanishdagi farqlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, muayyan vaqt o'tgandan so'ng proyektiv testlar ishlab chiqilgan. Mazkur testlar qiziqishdagi, intilishdagi, hissiyotdagi tafovutlarni tekshirishga qaratilgandir. Testlarning faktor analizi yoki intellektga oid ma'lumot beruvchi omillari o'rganilgan. Jahon psixologiyasida eng keng yoyilgan nazariyadan biri - bu N.Spirmenning ikki faktorli konsepsiyasidir. Bu nazariyaga binoan, har bir faoliyat uchun umumiy bitta faktor mavjuddir, bundan tashqari, o'sha faoliyatga qaratilgan xususiy faktor ham mavjud. Shu sohaga oid yana bir nazariya L.Tyorston, Dj.Gilford va boshqalarning multifaktorlik yondashuvidir. Mazkur nazariya umumiy faktor borligini inkor qiladi, unda boshlang'ich aqliy qobiliyatlar asosiy o'ringa qo'yiladi. Psixologiya inson qobiliyatlari genetik, biologik omillarga asoslangan, degan g'oya mavjud bo'lib, ta'kidlanishicha, ular go'yoki nasldan naslga o'tadi. Hozirgi zamon differensial psixologiya diagnostika, prognostika metodlari yordami bilan shaxslarni qobiliyati bo'yicha tanlashda ilmiy printsip va qonuniyatlarga asoslanadi.

Psixofiziologiya - odamlarning individual psixologik va psixofiziologik farqlarini tadqiq qiluvchi, psixikaning genetikasini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Hatto differensial psixofiziologiya termini mavjud bo'lib, uni 1963 yilda V.D.Nebilisin tomonidan fanga kiritilgan. Psixofiziologiyaning ikkita asosiy tadqiqot yondashuvi mavjud: a) mustaqil amaliy tadqiqotlarda olingan fiziologik

va psixologik natijalarni o'zaro solishtirish, qiyoslash; b) biron-bir faoliyatda fiziologik funksiyalar o'zgarishini o'rganish.

Ijtimoiy (sotsial) psixologiya - odamlarning ijtimoiy guruhlariga birlashishini, bu guruhni tavsifni, shaxsning guruhni faoliyati va xulq-atvorini, ijtimoiy-psixologik qonuniyatlar, holatlar, hodisalar, ijtimoiy ustanovka kabilarni tadqiqot qiluvchi psixologiya sohasi. Qadimgi zamondan ijtimoiy-psixologik voqelik falsafiy nuqtai nazardan o'rganilib kelingan, lekin shaxs, guruh, jamoa munosabatlari qamrab olinmagan. Ijtimoiy psixologiya faniga asos bo'lib psixologiya, sotsiologiya, antropologiya, etnografiya, kriminologiya, falsafa kabi fanlar xizmat qilib kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmida sotsial psixologiyani fan sifatida rivojlantirishga ilk urinishlar boshlangan. Jahon jamoatchiligi tomonidan sotsial psixologiya 1908 yildan e'tiboran alohida fan sifatida tan olingan. Bunga asos bo'lib bir vaqtning o'zida inglizlik psixolog U.V.Makdugall va amerikalik sotsiolog E.Rosslarning tadqiqot natijalari xizmat qildi. Chunki bu ishlarda «sotsial psixologiya» termini qo'llanilgan edi. Urushdan keyingi yillarda AQShda va boshqa mamlakatlarda sotsial psixologiya muammolari yuzasidan tadqiqotlar o'tkazish jarayoni keng yoyildi. Ayniqsa, AQShda o'tkazilgan Kotornning tajribasi, E.Meyoning izlanishlari sotsial psixologiya tarixida asosiy rol o'ynaydi. Bu tadqiqotchilarning asosiy obyekti bo'lib kichik guruhlar xizmat qilgan, tajribalar laboratoriya sharoitida o'tkazilgan. Sotsial psixologiya fan sifatida muloqot, muomala qonuniyatlari, shaxslararo munosabat, individual va guruhni o'zaro ta'sir, guruhlarning ichki va tashqi tuzilishi, ularning turlari, tasnifi, ommaviy holatlar va boshqalarni tekshiradi.

Sotsial psixologiya bir necha sohalarni o'z ichiga qamrab oladi: din psixologiyasi, oila psixologiyasi, muomala psixologiyasi, kichik guruh psixologiyasi, katta guruh psixologiyasi, modalar psixologiyasi, insonni inson tomonidan idrok qilish psixologiyasi, etnopsixologiya va boshqalar.

Din psixologiyasi - psixologik va ijtimoiy-psixologik omillarning diniy ong bilan shartlanganligini, dinning insonga ta'sirini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Din psixologiyasi XIX asr-ning oxiri XX asrning boshlarida vujudga kelgan bo'lib,

insonni ibodat qilishdagi, diniy an'analarni, rasm-rusumlarni bajarishdagi hissiyot holatlarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Diniy psixologiyani o'rganish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda: a) umumiy nazariya: diniy ong, uning tuzilishi, diniy hissiyot, dinning shaxs shakllanishidagi ahamiyati; b) din psixologiyasi differentsiatsiyasi: ijtimoiy muhit va tarixiy davrdan shakllangan ong va hissiyot tadqiqoti; v) diniy guruh psixologiyasi; g) diniy rasm-rusumlar psixologiyasi; d) hurfikrlilik ta'limi psixologiyasi kabidir.

Siyosiy psixologiya - jamiyatning siyosiy hayotidagi psixologik xususiyatlar, holatlar, qonuniyatlar, ta'sirchanlik va ta'sir o'tkazish jarayonlari kabi jabhalarni tekshiruvchi psixologiya sohasi.

Oila psixologiyasi - oilaning psixologiyasini o'rganuvchi fanlararo tadqiqot qilishga yo'nalgan psixologiya sohasi. Oila psixologiyasi oilaning psixologik muammolarini o'rganadi, u oilaga ta'sir qiluvchi omillarni, oiladagi rollar taqsimlanishi, er-xotin munosabati, shaxslararo munosabat, yosh xususiyatlari, jinsiy tafovutlarga asoslanib muloqotga kirishish kabilarni o'rganadi. Oila psixologiyasi tomonidan to'plangan materiallar oila mustahkamligini saqlash uchun maslahatlar berishda, sotsiologik va psixologik dasturlar tuzishda qo'llaniladi. Shuningdek, oila tiplari, tuzilishi, ierarxiyasi, ularga ta'sir qiluvchi obyektiv va subyektiv omillar ham mazkur sohaning tadqiqot predmetiga kiradi.

Boshqaruv psixologiyasi - jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan shaxslar, guruhlar va jamoalar o'rtasidagi ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan nazorat, baholash, munosabat qonuniyatlarini, rahbar faoliyati va xarakteri, qobiliyati xususiyatlarini tadqiq qiladigan ijtimoiy psixologiyaning sohasi.

Parapsixologiya - hozirgi zamon fanining chegarasidan tashqaridagi, tushuntirish qiyin bo'lgan psixik hodisalarni o'rganadi. Ekstrasensorika - o'ta sezuvchanlik, telepatiya - fikrni masofaga uzatish, kelajakka bashorat qilish va hokazo. Parapsixologiyaga nisbatan qiziqish qadimdan mavjud bo'lib, unga nisbatan ixlos to hozirgi kungacha kamaygani yo'q, goho uni psixotronika deb ham atashadi. Xiromantiya - qo'l kaftiga qarab fol ochish, inson kelajagi va uning taqdiri haqida oldindan bashorat qilishdan iborat noilmiy soha. Spritizm - o'lgan

odamlar arvohlari, ruhlari bilan aloqa o'rnatish mumkin, ular hamisha barhayot va biz bilan muloqotga muhtoj degan g'oyani ilgari suruvchi parapsixologiya sohasi.


Jahon psixologiyasi fanida xulq-atvor, muomala va faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillarning eng muhimi tariqasida insonning emotsional hayoti yotishi aksariyat nazariyotchi psixologlar tomonidan ta'kidlab o'tiladi. Bu talqinning haqqoniyligiga hech qanday e'tirozlar bo'lishi mumkin emas. Chunki mazkur omil eksperimental psixologiyaning mustaqil soha sifatida vujudga kelishidan e'tiboran ustuvor, dalil taqozo qilmaydigan atribut singari tadqiqot predmeti mohiyatiga singib ketgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, inson muomalasining, xulq-atvorining kechishi, faoliyatining muvaffaqiyatli, sermahsul yakunlanishi ko'p jihatdan shaxsning emotsional holatlariga «emotsional ton, kayfiyat, stress, affekt va hokazo», izohlanishi murakkab bo'lgan ruhiy kechinmalarga, yuksak his-tuyg'ularga bog'liq.

O'yin, mehnat, o'qish, muomala va boshqa faoliyat turlarining muvaffaqiyatli kechishi, shaxslararo munosabatlarda xulq-atvorning namoyon bo'lishi ijobiy psixologik holat sifatida baholansa, emotsiya va hissiyotning barqaror, maqsadga yo'nalgan tarzda hukm surishi ehtimoli e'tirof etiladi. His-tuyg'ularning mustahkamligi, barqarorligi, mukammalligi sifatlarining mavjudligi ularning dinamik stereotiplar tipiga aylanganligidan dalolat beradi, faoliyat va xulqning shaxs tomonidan ongli ravishda boshqarish uslubi shakllanganligini bildiradi. Tabiatning tarkibiy qismlari va jamiyatning a'zolari bilan turli shakldagi, har xil xususiyatli munosabatga kirishishi ular bilan muomala qilish maromlarini davriy «muvaqqat tarzda» o'zgarishini vujudga keltiradi. Ana shu o'zgarish tufayli muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik, omad va omadsizlik, optimizm va pessimizm, romantika va realiya, simpatiya va antipatiya, progress va regress, jo'shqinlik va tushkunlik, faollik va sustlik kabi birinchisi ijobiy (pozitiv), ikkinchisi esa salbiy (negativ) ruhiy hodisa kelib chiqadi. Faoliyat va xulqning amaliyotida bir tekis kechishini ta'minlovchi emotsional holat barqarorligining buzilishi unga qiyos qilingan muvaffaqiyatning birlamchi omili to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlarni shubha ostida qoldiradi. Binobarin, jamiki narsaning boshlang'ich asosi, manbai

emotsiya degan g'oyani, uning qiymatini umumiy fonda birmuncha qadrsizlantiradi, lekin ikkinchi, ustuvor va yetakchi, umumiy va xususiy obyektiv va subyektiv, muhim va nomuhim mezonlar, alomatlar, o'lchamlar yordami bilan baholanishi ushbu psixologik masala mohiyatini oqilona talqin qilish zaruriyatini vujudga keltiradi. Holbuki shunday ekan, ularning mohiyatini, keltirib chiqaruvchi sabablarni, harakatlantiruvchi kuchlarini muayyan dalillarga asoslanib tahlil qilish muammosi maydonga keladi. Inson faoliyati va xulqining muayyan qonuniyatlarga asoslangan holda amalga oshishi ham obyektiv, ham subyektiv shart-sharoitlarga bog'liq.

Tabiiy omillarni keltirib chiqaruvchi obyektiv (tashqi) shart-sharoitlar, ya'ni mikro va makro muhit, moddiy borliq, yordamchi vositalarning mavjudligi, ularning yuksak talablarga javob bera olish imkoniyati, tashqi qo'zg'atuvchilarning bezararligi, vaqt va fazoviy o'lchovlarning muvofiqligi, mutanosibliyi kabilardan tarkib topadi. Xulq va faoliyatning namoyon bo'lishi uchun tabiiy shart-sharoitlar tizimi yaxlit holda ishtirok etishi ularning muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillar majmuasi tariqasida xizmat qilishi mumkin. Tabiiy shart-sharoitlardagi to'kislikdan tashqari ayrim yetishmovchiliklar va uzilishlarning sodir bo'lishi nuqsonlarni keltirib chiqaradi, buning oqibatida ruhiy kechinmalar faolligi, ildamligi, maqsadga yo'nalganligi buziladi.

Tabiiy shart-sharoitlar muhit ta'sirida inson ruhiy olamida bir qator keskin ham sifat, ham miqdor o'zgarishlari vujudga keladi, ular yangilanishlar, yangi fazilatlar, xislatlar tug'ilishida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo'lmish geografik muhit bu borada muhim rol o'ynaydi, ko'pincha u, birinchidan, biologik shartlangan shaxs sifatlariga ta'sir etib, fenotiplarni genotiplarga aylantiradi (hududiy muhit, relyef, stixiya kutilishi: zilzila, qor ko'chkisi, dovul, suv toshqini, oyoq yetmas qirli tog'lar va hokazo). Ikkinchidan, ontogenezda shaxs xarakterologik xususiyatlarining tabiiy ravishda shakllanishiga ta'sir o'tkazadi, shuning bilan birga mikro muhit bilan genlar, irsiy belgilar, alomatlar o'rtasida uyg'unlikni ta'minlab turuvchi mexanizm vazifasini bajaradi.



Obyektiv (tabiiy) shart-sharoitlardan tashqari, inson omili bilan uzviy bog'liqligi subyektiv (shaxsga oid, uning qiyofasiga bog'liq) shart-sharoitlar muomalaning, faoliyatning, xulqning ijtimoiy turmushda samarali amalga oshishini uzluksiz ravishda ta'minlab turadi. Subyektiv shart-sharoitlarning qatoriga shaxsning barqarorligi, xarakterning mustahkamligi, ehtiyoj, motiv, maslak, salohiyatining puxtaligi, o'zini o'zi boshqarish uslubining qat'iy ravishda shakllanganligi, biologik shartlangan xislatlar esa o'zaro uyg'unlashganligi kabilar kiradi.

Odatda, obyektiv (tabiiy) va subyektiv (shaxsga oid) shart-sharoitlardagi o'zgarishlar tufayli ijobiy (pozitiv) yoki salbiy (negativ) xususiyatli psixologik holatlar, hodisalar, xislatlar, kechinmalar ustuvorligi yuzaga kelib, moddiy asos funksiyasini bajaruvchi oliy nerv faoliyatini, markaziy nerv sistemasining ritmikasinini, ishchanlik qobiliyatini pasaytiradi. Buning oqibatida faoliyat, xulq va muomalani amalga oshirishda odatiy sa'y-harakatlar, operatsiyalar, maromlar buzila boshlaydi, favqulodda asabiylik, ruhiy nuqsoniylik, qonuniyatdan chetga

og'ishlik, noxush kechinmalar hokimligi yetakchilik qiladi. Xuddi shu sababdan, faoliyat, xulq va muomalaning muvaffaqiyati shubha ostida qolishi mumkin, chunki mahsuldorlik, sobitqadamlilik, maqsadga yo'nalganlik sifatlarining dominantligi yo'qoladi, natijada ushalmagan ezgu niyatlar armon tariqasida yuksak his-tuyg'ular sifatida davriy hukm surishda davom etaveradi.

Insoning tabiatga va jamiyatga nisbatan munosabati tasodiflarsiz, favquloddagi vaziyatlarsiz amalga oshishi mumkin emas, chunki ehtimollar darajasidagi kutilmaning yo'qligi rejasiz vaziyatlarni shaxsining idrok maydonida keltirib chiqaradi. Hayot va faoliyat strategiyasi va taktikasining ekstremal tarzida o'zgarishi individual va ijtimoiy xususiyatli vaziyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Vaziyatlar stixiyali, xaotik (betartib, tasodif) xatti-harakatlarni vujudga keltirib, tekis, odatiy, davriy, barqaror xususiyatlar ritmikasini izdan chiqaradi, natijada insonda motivatsion, emotsional, kognitiv, regulyativ, xulqiy, irodaviy tuzilish tarkiblarining funksiyasi buziladi. Shaxs tuzilishga favquloddagi vaziyatlarning ichki larzasi faoliyat, xulq va muomalaning onglilik holatidan ongsizlikka o'tishini taqozo etadi.

Xo'sh, nima uchun shaxs tasodiflarning oldini olishga tayyor emas yoki ko'pincha u bu borada kuchsizlik, ojizlik qiladi?

Ushbu muammo yechimini juda sodda tarzda hal qilish ham mumkin:

1) shaxs ongli zot, yaratuvchilik qudratiga ega bo'lishidan qat'iy nazar, u tabiatning tarkibiy qismi, instinktlar, shartsiz reflekslar ta'siriga beriluvchidir; 2) shaxsning tana a'zolari (organizmi) favquloddagi hodisalar va vaziyatlarga moslashgan emas (stixiya, halokat, tasodif, stress, affekt, xavf-xatar-risk); 3) shaxs komillik darajasiga erishmaganligi tufayli sababiy bog'lanish oqibatlarini, fobiya (qo'rqish) bilan bog'liq his-tuyg'ularni oldindan sezish, payqash, ularga nisbatan aks ta'sir berish imkoni yo'q; 4) shaxsda ikkinchi qiyofaning shakllanmaganligi (test, trening, trenirovka bilan qurollanmaganligi) uning xavf-xatar qurboniga aylantirishi shubhasiz.

Jahon psixologiyasi fanining ma'lumotlariga qaraganda, muvaffaqiyatsizlikdan hech kim himoyalangan emas, chunki ijtimoiy immunitet

juda kuchsiz aksil ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. Ma'lumki, jismoniy, axloqiy va aqliy barkamollik tub ma'nodagi komil inson to'g'risida mulohaza yuritishga imkon beradi va tarkiblarning to'la munosibligi, uyg'unlashganligi, o'zaro taqozo etuvchanligi asosiy mezon vazifasini bajaradi, komillik darajasi subyektning ma'naviy dunyosiga aylanmas ekan, u taqdirda hech kim tasodiflar, favquloddagi vaziyatlar shaxs tomonidan odatiy hodisa sifatida osoyishta qabul qilinmaydi.

Muvaffaqiyat garovi (kafolati) funksiyasini bajaruvchi omillarning genezisi to'g'risidagi fikr yuritilganda, eng avvalo, ularning birlamchiligi, asosiy manba ekanligini nazarda tutish nazariy hamda metodologik muammolar yechimini oqilona topishga puxta negiz hozirlaydi, boshlang'ich harakat nuqtasini belgilab berishga xizmat qiladi. Nazariy mulohazalarga binoan, faoliyat, xulq va muomalaning bir tekis, samarali kechishi genetik nuqtai nazardan quyidagilarga bog'liq:

Inson hayotini va faoliyatini o'zgartiruvchi asosiy omillar mavjud bo'lib, ular muayyan darajada shaxsning ta'siriga beriluvchandirlar.

Umumiy psixologiyaning asosiy printsiplari, determinizm, ong va faoliyat birligi, psixikaning faoliyatida rivojlanishi bo'lib hisoblanadi.

1. Determinizm (lotincha belgilayman ma'nosini bildiradi) printsipti tabiat va jamiyat hodisalari, shu jumladan, psixik hodisalarning obyektiv sabablar bilan belgilanishi haqidagi ta'limotdir. Shu boisdan psixika, ongning obyektiv borliq va nerv sistemasi bilan belgilanishi ilmiy psixologiyaning buyuk yutug'i hisoblanadi. Shuning uchun determinizm psixikaning turmush tarzi bilan belgilanishini va turmush tarzi o'zgarishiga mutanosib ravishda u ham o'zgarishini anglatadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, hayvonlar psixikasining rivojlanishini biologik qonun tarzidagi tabiiy tanlash mezoni bilan o'lchanadi. Hayvonlardan farqli o'laroq insonda ong shakllanishining paydo bo'lishi muayyan bosqichlar orqali rivojlanishi moddiy ishlab chiqarilish vositalarini yaratish hamda takomillashtirish, mahsulotlarni qayta ishlash qonunlari bilan belgilanadi. Inson ongining ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot xususiyatiga ega ekanligini anglashi (tushunish) shaxs ongining ijtimoiy borliqqa (makro, mikro) bog'liqligi haqidagi ham tabiatshunoslik, ham



insonshunoslik umumiy printsiptiga asoslangan buyuk xulosa kishilik jamiyatining olamshumul tantanasidir.

2. Ong bilan faoliyat birligi printsiptini psixologiya fanida qabul qilinishi shunday ma'noni anglatadi: a) ong bilan faoliyat bir-biriga qarama-qarshi voqelik emas; b) ong bilan faoliyat aynan biror-biriga o'xshash ham emas; v) ong bilan faoliyatning birligi ularning hukm surishi mexanizmidir. Faoliyat o'zining tuzilishi bo'yicha ichki va tashqi tarkiblariga ega bo'lsa-da, voqelik tashqi ifodasi bilan ajralib turadi. Ong bo'lsa faoliyatning ichki rejasini, uning dasturiy jabhasini aks ettiradi. Real vaqtlarning o'zgaruvchan (rivojlanishini anglatuvchi) modeli ongda yuzaga keladi, odam atrof-muhit bilan munosabatga kirishganda undan mo'ljal oladi, natijada nuqsonlarga yo'l qo'ymaydi. Faoliyat ong yordamida amalga oshadi va o'z navbatida ong mazkur jarayonda takomillashadi (muammo va uning yechimi variantlar, invariantlar turtki vazifasini o'ynaydi).

Ilmiy tadqiqot nuqtai nazaridan ong bilan faoliyat birligi printsipti, birinchidan, xulq-atvor, faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishga kafolat beradi; ikkinchidan, harakat, sa'y-harakatlarni muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlovchi ichki psixologik mexanizmni aniqlashga imkon beradi; ularning birligi psixikaning obyektiv qonuniyatlarini ochishga muhim imkoniyat, puxta shart-sharoit yaratadi.

Agarda psixika faoliyat samarasi va mahsuli sifatida talqin qilinsa, u taqdirda psixika va onging faoliyatda rivojlanish printsipti to'g'ri tushunilgan bo'ladi. Mazkur printsipt rus psixologlari L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.M. Teplov, B.G.Ananayev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

3. Psixikaning taraqqiyotini dialektika nuqtai nazaridan tushunish psixik taraqqiyot insonning mehnat faoliyatiga, ta'limga, o'yin faoliyatiga bog'liq ekanligini aniqlashdan dalolat beradi. Ijtimoiy tajribani o'zgartirish jarayonining yuz berishi shaxs uchun psixik taraqqiyotning shakli sifatida xizmat qiladi va dasturiy bilimlarni egallashga mustahkam zamin hozirlaydi. Har qaysi faoliyat turi inson psixikasini rivojlantirish manbai va mexanizmi rolini bajaradi.

Psixologlarning ushbu printsiptga taalluqli fikrlaridan namunalar keltiramiz: 1) L.S.Vigotskiy: ta'lim psixikaning rivojlanishini yo'naltiradi, shu bilan birga bu jarayonda ongli faoliyatning yangi, mutlaqo boshqacha shakllari yaratiladi; 2) P.P.Blonskiy: tafakkur kichik maktab yoshida o'yinlar bilan, o'spirinlik yoshida o'qish bilan bog'liq tarzda rivojlanadi; 3) S.L.Rubinshteyn: ong faoliyatda paydo bo'lib, ana shu faoliyatda shakllanadi; 4) B.M.Teplov: qobiliyat faqat rivojlanishda mavjud bo'ladi; lekin rivojlanishi faoliyat jarayonidan boshqacha muhitda yuz bermagandek, qobiliyat tegishli yaqqol faoliyatdan ajralmagan holda paydo bo'la olmaydi.

Ma'lumki, psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati va miyaning mahsulidir. Psixika borliqning sezgi organlari orqali insonning miyasiga bevosita ta'sir etishi asosida vujudga kelib, bilish jarayonlarida, shaxsning xususiyati va holatlarida, diqqati, his-tuyg'ulari, xarakter xislatlarida, qiziqishi hamda ehtiyojlarida o'z ifodasini topadi.

Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyati yotadi. Tashqi dunyodan kirib keladigan qo'zg'atuvchilarga ichki yoki tashqi biologik organlar javob reaksiyasini bildiradi. Bosh miya katta yarim sharlarida vujudga keladigan muvaqqat nerv bog'lanishlari psixik hodisalarning fiziologik asoslari hisoblanadi va ular tashqi ta'sirning natijasida hosil bo'ladi.

Psixofiziologik qonuniyatlarga binoan miyaning funksiyasi muvaqqat nerv bog'lanishlarining birlashish mexanizmi hamda analizatorlar faoliyati mexanizmlari ta'sirida hosil bo'ladi.

Psixikani tadqiq etish insonning butun ongli faoliyatini, uning ham nazariy, ham amaliy hayot faoliyatini o'rganishdir. «Odamning ongliligi uning turli-tuman faoliyatida, xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Inson shaxsi har xil shakl va mazmunga ega bo'lgan nazariy hamda amaliy faoliyatlarda tarkib topadi. Bunda muhit, irsiy belgilar, ijtimoiy ta'sir asosiy omillar hisoblanadi.

Inson o'zi yashab turgan davrni, moddiy turmushni aks ettiradi, ijtimoiy-siyosiy muhit ta'siri ostida bilimlarni o'zlashtira boradi, ijtimoiylashadi. Ijtimoiy muhitda uning his-tuyg'ulari, xarakteri, qobiliyati, iqtidori, tafakkuri, ehtiyojlari,

e'tiqodi, uni faollikka da'vat qiluvchi harakat motivlari, istaklari, tilaklari, xohishlari asta-sekin o'zgarib boradi.

Insonning bilish faoliyati rivojlanishi unga o'zini qurshab turgan borliqni yanada chuqurroq, to'laroq, aniqroq aks ettirish imkoniyatini yaratadi va u borliqning asl mohiyatini, turli yo'sindagi o'zaro bog'lanishlari, murakkab munosabatlari va aloqalarni tobora aniqroq yoritadi. Shu bilan birga mazkur jarayonlarda shakllanib kelayotgan insonning borliqqa, voqelikka, jismlarga, kishilarga va o'ziga munosabati vujudga keladi.

Inson ongining rivojlanishi uning tashqi olamni faol aks ettirishda namoyon bo'ladi. Insonning moddiy turmushi, u hayot kechirayotgan tuzumning moddiy asosiga emas, balki uni qurshab olgan odamlarning turmush tarzlari, umuminsoniy qiyofalari, dunyoqarashi, maslagi, ijtimoiy voqelikka munosabatlari, intilishlari, ijod mahsullari va xatti-harakatlarining majmuasidir.

Insonning borliqni aks ettirishi faol jarayondir. Insonning rivojlanishi obyektiv borliqqa va o'ziga faol ta'sir ko'rsatishida sodir bo'ladi. O'yinni kuzatishi, mehnati, o'qishi, adabiy asarni mutolaa qilishi, qiziqishining barqarorlashuvi va boshqalar shaxsning psixik rivojlanishini ifodalaydi.

Rivojlanish inson shaxsining tarkib topishi jarayonidir. Rivojlanish o'zaro bog'liq qator bosqichlarda amalga oshadi. Shaxs aql-zakovatining ko'rsatkichi, sifati, xususiyati uning atrofdagi odamlar bilan kundalik munosabatlari va amaliy faoliyatida vujudga keladi, o'zaro ta'sir natijasida unda aqlning ijodiy mahsuldorligi, teranligi, tezligi, mustaqilligi, tanqidiyligi, chuqurligi orta boradi.

Jahon psixologiyasi fanida shaxsning kamoloti, uning rivojlanishi to'g'risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo'lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o'rganishda turlicha pozitsiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o'ziga xos yondashishga egadirlar. Mazkur nazariyalar qatoriga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixevioristik kabilarni kiritish mumkin. Quyida sanab o'tilgan nazariyalar va ularning ayrim namoyandalari tomonidan shaxsni rivojlantirishning printsiplari to'g'risidagi qarashlariga to'xtalib o'tamiz.

Biogenetik nazariyaning negizida insonning biologik yetilishi bosh omil sifatida qabul qilingan bo`lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyoti ixtiyoriy xususiyat kasb etib, ular bilan o`zaro shunchaki aloqa tan olinadi, xolos. Mazkur nazariyaga binoan, taraqqiyotning bosh maqsadi - biologik determinantlariga (aniqlovchilariga) qaratiladi va ularning mohiyatidan sotsial-psixologik xususiyatlar keltirilib chiqariladi.

Taraqqiyot jarayonining o`zi, dastavval biologik yetilishning universal bosqichi sifatida sharhlanadi va talqin qilinadi.

Biogenetik qonunni F.Myuller va Gekkellar kashf qilishgan. Biogenetik qonuniyat organning taraqqiyoti nazariyasini tashviqot qilganda hamda antidarvinchilarga qarshi kurashda muayyan darajada tarixiy rol o`ynagan. Biroq individual va tarixiy taraqqiyoti munosabatlarini tushuntirishda qo`pol xatolarga yo`l qo`ygan. Jumladan, biogenetik qonunga ko`ra, shaxs psixologiyasining individual taraqqiyoti (ontogenez) butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan g`oya yotadi.

Nemis psixologi V.Shternning fikricha, chaqaloq (yangi tug`ilgan bola) hali u odam emas, balki faqat sut emizuvchi hayvondir, u olti oylikdan oshgach, psixik taraqqiyoti jihatidan faqat maymunlar darajasiga tenglashadi, ikki yoshida esa oddiy odam holiga keladi, besh yoshlarda ibtidoiy pada holatidagi odamlar darajasiga yetadi, maktab davridan boshlab ibtidoiy davrni boshidan kechiradi, kichik maktab yoshida o`rta asr kishilar ongiga va nihoyat yetukli davrdagina (16-18 yoshlarda) u hozirgi zamon kishilarining madaniy darajasiga erishadi.

Biogenetik nazariyaning yirik namoyandalaridan biri bo`lmish amerikalik psixolog S.Xoll psixologik taraqqiyotning bosh qonuni deb «rekapitulyatsiya qonuni»ni (filogenezni qisqacha takrorlashni) hisoblaydi. Uning fikricha, ontogenezdagi individual taraqqiyot filogenezning muhim bosqichlarini takrorlaydi. Olimning talqiniga binoan, go`daklik hayvonlarga xos taraqqiyot pallasini qaytarishdan boshqa narsa emas. Bolalik davri esa qadimgi odamlarning asosiy mashg`uloti bo`lgan ovchilik va baliqchilik davriga aynan mos keladi. 8-12 yosh oralig`ida o`shish davri o`smiroidi yoshidan iborat bo`lib, yovvoyilikning oxiri

va sivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolot cho`qqisiga hamohangdir. O`spirinlik esa jinsiy yetilishdan (12-13) boshlanib, to yetuklik davri kirib kelgunga qadar (22-25 yoshgacha) davom etib, u romantizmga ekvivalentdir. S.Xollning talqiniga qaraganda, bu davrlar «bo`ron va tazyiqlar», ichki va tashqi nizolar (konflikt)dan iborat bo`lib, ularning kechishi davomida odamda «individuallik tuyg`u»si vujudga keladi. Shaxsni rivojlanishining ushbu nazariyasi o`z davrida bir talay tanqidiy mulohazalar manbai vazifasini o`tadi, chunki inson zotidagi rivojlanish bosqichlari filogenezni aynan takrorlamaydi va takrorlashi ham mumkin emas.

Biogenetik konsepsiyaning boshqa bir turi nemis «konstitutsion psixologiyasi» (insonning tana tuzilishiga asoslagan nazariya) namoyandalari tomonidan ishlab chiqilgan. Y.Krechmer shaxs (psixologiyasi) tipologiyasi negiziga bir qancha biologik omillarni (masalan, tana tuzilishining tipi va boshqalarni) kiritib, insonning jismoniy tipi bilan o`shining xususiyati o`rtasida uzviy bog`liqlik mavjud, deb taxmin qiladi. Ye.Krechmer odamlarni ikkita katta guruhga ajratadi va uning bir boshqa sikloid toifasiga xos (tez qo`zg`aluvchi, his-tuyg`usi o`ta barqaror), ikkinchi uchida esa shizoid toifasiga (odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi, his-tuyg`usi cheklangan) xos odamlar turishini aytadi. Bu taxminini u shaxs rivojlanishi davriga ko`chirishga harakat qiladi, natijada o`smirlarda sikloid xususiyatlari (o`ta qo`zg`aluvchanlik, tajovuzkorlik, affektiv tabiatlilik), ilk o`spirinlarda esa shizoidlik xususiyatlari bo`ladi, deya xulosa chiqaradi. Lekin insonda biologik shartlangan sifatlar hamisha yetakchi va hal qiluvchi rol o`ynay olmaydi, chunki shaxsning individual-tipologik xususiyatlari bir-biriga aynan mos tushmaydi.

Biogenetik nazariyaning namoyandalari amerikalik psixologlar A.Gezell va S.Xoll taraqqiyotning biologik modeliga chamalab ish ko`radilar, bu jarayonda muvozanat, integratsiya va yangilanish sikllari o`zaro o`rin almashinib turadi, degan xulosaga keladilar.

Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko`rinishi Zigmund Freyding shaxs talqinida o`z ifodasini topgan. Uning ta`limotiga binoan, shaxsning barcha xatti-harakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlar bilan shartlangan,

ayniqsa, birinchi navbatda, u jinsiy (seksual) mayliga (libidoga) bog`liqdir. Bunga o`xshash biologizatorlik omillari inson xulqini belgilovchi birdan-bir mezon yoki betakror turtki rolini bajara olmaydi.

Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko`rinishi - bu aksil qutbga joylashgan sotsiogenetik nazariya hisoblanadi. Sotsiogenetik yondashishga binoan, shaxsda ro`y beradigan o`zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, uni qurshab turgan odamlar bilan o`zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko`ra, inson biologik tur sifatida tug`ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta`siri ostida shaxsga aylanadi.

G`arbiy Yevropaning eng muhim nufuzli nazariyalaridan biri - bu rollar nazariyasidir. Ushbu nazariyaning mohiyatiga binoan jamiyat o`zining har bir a`zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakat (xulq)ning barqaror usullari majmuasini taklif qiladi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo`lgan maxsus rollari shaxsning xulq-atvor xususiyatida, o`zgalar bilan munosabat, muloqot o`rnatishida sezilarli iz qoldiradi.

AQShda keng tarqalgan nazariyalardan yana bittasi - bu individual tajriba va bilimlarni egallash (mustaqil o`zlashtirish) nazariyasidir. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning hayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko`pincha ko`nikmalarni egallash va bilimlarni o`zlashtirishning samarasi qo`zg`atuvchini uzluksiz ravishda mustahkamlanib borishning mahsulidir. (E.Torndayk, B.Skinner va hokazo).

K.Levin tomonidan tavsiya qilingan «fazoviy zarurat maydoni» nazariyasi psixologiya fani uchun (o`z davrida) muhim ahamiyat kasb etadi. K.Levinning nazariyasiga ko`ra individning xulqi (xatti-harakati) psixologik kuch vazifasini o`tovchi ishtiyoq (intilish), maqsad (niyat)lar bilan boshqarilib turiladi va ular fazoviy zarurat maydonining ko`lami va tayanch nuqtasiga yo`naltirilgan bo`ladi.

Yuqorida tahlil qilingan (sharhlangan) har bir nazariya shaxsning ijtimoiy xulqi (xatti-harakati)ni o`zgalar uchun yopiq muhit xususiyatlaridan kelib chiqqan

holda tushuntiradi, bu o`rinda odam xohlaydimi yoki yo`qmi bundan qat`iy nazar mazkur sharoitga moslashmog`i (ko`nikmog`i) zarur, degan aqidaga amal qilinadi.

Bizningcha, barcha nazariyalarda inson hayotining ijtimoiy-tarixiy vaziyatlari va obyektiv shart-sharoitlari mutlaqo e`tiborga olinmaganga o`xshaydi. Psixologiyada psixogenetik yondashish ham mavjud bo`lib, u biogenetik, sotsiogenetik omillarning qimmatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotining birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Ushbu yondashishning uchta mustaqil yo`nalishga ajratib tahlil qilish mumkin, chunki ularning har biri o`z mohiyati, mahsuli va jarayon sifatida kechishi bilan o`zaro tafovutlanadi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Psixologiya fanining vazifalari haqida ma`lumot bering?
2. Psixologiya fanining printsiplari tushuntirib bering?
3. Psixologiya fanining predmeti va metodlarini izohlang?
4. Psixologiyaning rivojlanish bosqichlari ayting?
5. Bixeviorizm haqida umumiy ma`lumot bering?
6. Neobixeviorizmni yuzaga kelishi va rivojlanishi haqida aytib bering?

## 2-MAVZU. UMUMIY PSIXOLOGIYA FANINING ILMIIY TADQIQOT METODLARI

*Tayanch tushunchalar: metod, kuzatish, eksperiment, test, so'rov, faoliyat mahsullarini o'rganish, sotsiometriya, biografiya, proyektiv, modellashtirish.*

### 2.1.Hozirgi zamon psixologiyasi ilmiy tadqiqot metodlari

An'anaviy ravishda tadqiqot metodlari asosiy va yordamchi metodlarga ajratiladi. Asosiy metodlar - kuzatish va eksperiment - bola taraqqiyoti haqida ishonchli ma'lumot bera oladi. Yordamchi metodlar - test, so'rov, faoliyat mahsullarini o'rganish - tasvirlovchi ma'lumot berib, bu ma'lumot asosida faqatgina taxminlarni ilgari surish mumkin bo'ladi.

Umuman, psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilish metodlarining turli tasnifi mavjud. Shular to'g'risida umumiy psixologiya kursida keng ma'lumotlar berilgan. Bolalar psixologiya fani ham psixologiyaning boshqa sohalari singari o'ziga xos ilmiy tadqiqot metodlariga ega. Quyida rus psixologi B.G.Ananevni tavsiya qilgan klassifikatsiyasiga asoslangan holda mazkur metodlarning xususiyatlarini yoritishga harakat qilingan.

#### Psixologiyaning asosiy metodlari.

Asosiy metodlar	Asosiy metodlarning variantlari
<b>Kuzatish metodi</b>	Tashqi (obyektiv kuzatish) Ichki (o'z-o'zini kuzatish) Erkin kuzatish Standartlashtirilgan kuzatish Guruh ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish
<b>So'rov metodlari</b>	Og'zaki so'rov Yozma so'rov Erkin so'rov (suhbat) Standartlashtirilgan so'rov
<b>Testlar metodi</b>	Test-so'rov Test-topshiriq Proyektiv test Intellekt testlari



	Klinik test Sotsiometrik test
<b>Eksperiment</b>	Tabiiy eksperiment Laboratoriya eksperimenti Shakllantiruvchi eksperimenti
<b>Modellashtirish</b>	Matematik modellashtirish Mantiqiy modellashtirish Texnik modellashtirish Kibernetik modellashtirish
<b>Faoliyat natijalarini o'rganish</b>	Grafologiya Rasmlarni o'rganish

### **2.2.B.G.Ananevning tadqiqot metodlari kllasifikatsiyasi**

B.G.Ananev psixikani o'rganish metodlarini to'rt guruhga ajratib, ularni tashkiliy, empirik (amaliy), natijalarni qayta ishlash yoki statistik natijalarni sharhlash metodlari deb nomlagan. Bu guruhlar o'zining maqsad va vazifasi bo'yicha yana bir nechta toifa hamda turlarga bo'linadi. Quyida mazkur metodlarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari hamda qiyosiy tavsifi berildi.

Tadqiqot metodlarining birinchisi, ya'ni tashkiliy guruhi o'z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz), kompleks (ko'pyoqlama) deb atalgan turlarni oladi. Qiyoslash metodidan umumiy psixologiya, sotsial psixologiya (katta yoki kichik guruhlarni hamda ularning har xil toifalarini o'zaro taqqoslash), tibbiyot psixologiyasi (sog'lom va bemor kishilarning psixik xususiyatlarini qiyoslash), sport psixologiyasi (sportchilarning holati, uquvliligi va ishchanligini o'zaro taqqoslash) kabi fanlarda unumli foydalaniladi.

Ontogenez psixologiyasida esa qiyoslash metodi turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari, shaxs xususiyatlari, bilimlarni o'zlashtirishi, aqliy qobiliyati, salohiyati, rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o'ziga xosligi kabilarni o'rganishda qo'llanadi. Psixologlardan L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, A.A.Smirnov, B.G.Ananev, D.B.Elkonin, P.Ya.Galperin va ularning shogirdlari olib borgan tadqiqotlar (chaqaloqlik, go'daklik, ilk bolalik, kichik maktab yoshi, o'smirlik, o'spirinlik yosh davrlarini o'zaro solishtirish) shu metoddan foydalanib amalga oshirilgan. Keyingi yillarda xalq ta'limi tizimi va ishlab chiqarishda «inson omili»

muammosining ko‘tarilishi, vaqt taqchilligi, ishchanlik imkoniyati, psixologik moslik masalalarining alohida ahamiyat kasb etishi mazkur metodni keng qo‘llashni taqozo etmoqda. Bundan tashqari, tajribada olingan ma’lumotlarning ishonchliligini oshirishda ham qiyoslash metodi qo‘llanadi. Ayniqsa, sinaluvchilardagi o‘zgarishlarni ajratib olib qarash, tadqiqotning bosqichlarini alohida-alohida tahlil qilish, masalan, tajribaning birinchi bosqichi turli yoshdagi va jinsdagi odamlarga qanday ta’sir etganini aniqlash va hokazolar bu metodga diqqat-e’tibor ortib borayotganidan dalolatdir.

Umumiy psixologiyada qiyoslash metodi bilan bir davrda longityud (uzluksiz) metodi ham qo‘llanadi. Uning boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat, hatto, o‘n yillab tekshirilishidir. Longityud metodidan psixologlardan nemis V.Shtern, fransuz R.Zazzo, rus psixologlari N.A.Menchinskaya, A.N.Gvozdev, N.S.Leytis, V.S.Muxina va boshqalar ko‘p yillardan beri foydalanmoqdalar.

Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Hasan-Husan, Fotima-Zuhra) yoki aralash jinsli (Hasan-Zuhra, Fotima-Husan) egizaklar kuzatilgan. Shuning uchun qator tadqiqotlarning “ona kundaligi” (N.A.Menchinskaya, V.S.Muxina) deb nomlanishi bejiz emas. Uzoq vaqt bir shaxsni (kichik guruhni) kuzatish unda paydo bo‘layotgan yangi fazilatlarning rivojlanish dinamikasini, xulq-atvoridagi illatlarni (xatti-harakat) va ularning oldini olish tadbirlarini, murakkab psixologik munosabatlari, ichki bog‘lanish qonuniyati, mexanizmi to‘g‘risida mukammal, ishonchli, barqaror ma’lumotlar to‘plash imkonini yaratadi.

Longityud metodi yordamida subyektiv omillarning o‘ziga xosligini, obyektiv shart-sharoitlar va ijtimoiy muhitning sinaluvchiga ta’siri o‘rganiladi. Chunonchi, egizaklarning o‘xshashligi va tafovuti, ta’sirlanishi, his-tuyg‘usining o‘zgarishi, kishilar o‘rtasidagi individual farqlar (ishchanligi, temperamenti, oliy nerv faoliyati tizimi va hokazolar) bo‘yicha ma’lumotlar olish longityud metodi bilan amalga oshadi.

Hozirgi davrda fan va texnika taraqqiyoti psixologik tekshirishlarning ilmiylikini yanada oshirish uchun (subyektiv omillarning ta’sirini kamaytirish

maqsadida) yaxlit dastur asosida boshqa fanlar (tibbiyot, fizika, fiziologiya, biologiya, sotsiologiya, kibernetika, statistika, falsafa, mantiq va hokazolar) bilan birgalikda tadqiqot ishlari olib borishni taqozo etmoqda. Amaliy yo'sindagi ilmiy-tadqiqot ana shu ko'p qirrali (kompleks) yondashishni talab qiladi. Psixologiya sohalarida (psixofiziologiya, kosmos, tibbiyot psixologiyasi, muhandislik yoki aviatsiya psixologiyasida tadqiqot obyektiga tizimli yondashish tamoyili amalga oshirilmoqda. Kompleks metod yordamida o'rganilayotgan obyektidagi o'zgarishlar turli nuqtai nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har xil yondashiladi. Masalan, bolada oddiy bilimlarni o'zlashtirish xususiyati psixologik jihatdan tekshirilayotgan bo'lsa, kompleks yondashish ta'sirida ana shu o'zlashtirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik xususiyatlari yoritiladi. Aytaylik, keksayishning biologik omillarini o'rganish uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Kompleks dastur yordamida amalga oshirilgan tadqiqot natijalari ilmiy ahamiyatga molik bo'lib, insonshunoslik muammolarini hal qilishda katta yordam beradi.

Ilmiy tadqiqot metodlarining ikkinchi guruhi empirik metodlardan iborat bo'lib, bu guruhga kuzatish (o'zini o'zi kuzatish), eksperiment (tabiiy, laboratoriya), test, anketa, so'rov, sotsiometriya, suhbat, intervyu, faoliyat jarayoni va uning mahsulini tahlil qilish, tarjimai hol (shaxsiy guvohnoma, hujjat, turmush faoliyati voqealarini tahlil qilish) kabilar kiradi va ular sinash, tekshirish, diagnoz (aniqlash) va prognoz (oldindan belgilash) vazifalarini bajaradi. Insonda tug'ilganidan umrining oxirigacha sodir bo'ladigan psixologik o'zgarishlarni chuqurroq va obyektivroq tadqiq etish uchun empirik metodlardan navbati bilan foydalanish yaxshi natija beradi.

Ilmiy tadqiqot metodlarining uchinchi guruhi natijalarni qayta ishlashga mo'ljallangan bo'lib, ular statistik (miqdor) va psixologik (sifat) tahlil turlariga bo'linadi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda ko'pincha quyidagi statistik metodlardan foydalaniladi.

To'plangan miqdorlarni ishlab chiqishda mana bu formulalarni qo'llash mumkin:

1)  $M = v/n$  formulasi o'rtacha arifmetik qiymatni topish uchun ishlatiladi.  $M$ —yig'indi,  $v$  — variation miqdor,  $n$  — sinaluvchilar yoki obyektlarning sanog'ini bildiradi.

2)  $\sigma = \sqrt{c/n - 1}$  formulasi son qatoridagi o'rta kvadrat og'ishni hisoblashda yoki standart og'ishni aniqlashda ishlatiladi.  $\sigma$  — kvadratik og'ish,  $c$  — dispersiya,  $n$  — miqdor.

3)  $S = \sum (v - M)^2$  — son qatoridagi miqdorlar tarqoqligini aniqlash formulasi. U ba'zan "S" — dispersiya deb ham ataladi.

4) Psixologik tajribalarda olingan miqdorning, qo'llangan metodikaning ishonchlilik darajasini aniqlash uchun Student mezonidan foydalanish mumkin:  $t = (X - \bar{X})/\sigma$

Bunda  $t$  — ishonchlilik belgisi,  $X$  — son qatoridagi yuqori ball,  $\bar{X}$  — o'rtacha arifmetik miqdor,  $\sigma$  — kvadratik og'ish alomati.

Psixologik tajribalarda Myordokning ko'chish foizlarini aniqlovchi formula:  $(\varepsilon - S)/(\varepsilon - S) \cdot 100$ ;

bunda  $\varepsilon$  — sinaluvchilarning to'g'ri va noto'g'ri javoblarini hisoblashga xizmat qiladi. Ikkala miqdorning nisbati birining ikkinchisidan qay darajada yuqori ekanini ko'rsatadi. Bunda "S" — nazorat, tajriba guruhni anglatadi.

Tafakkurning so'z-mantiq tejamkorligi xususiyatini aniqlashda quyidagi formula qo'llanadi (3.I.Kalmikova tadqiqotlarida):

$$TST = \varepsilon R1 / \varepsilon R2 ;$$

$\varepsilon R1$  — sinaluvchilar topshiriqni bajargani uchun olgan ballar yig'indisi;  $\varepsilon R2$  — sinaluvchilar maksimal darajada ballar to'plashi mumkin bo'lgan imkoniyatlar. Topshiriq yechimi uch balli shkala bilan o'lchanadi. To'g'ri yechgani uchun "2" ball, noto'g'ri yechgani, yechishga intilgani uchun "1" ball va, nihoyat mutlaqo yechmagani uchun "0" ball qo'yiladi.

Yuqoridagi statistik metodlar tajribalarda olingan qiymatlarning ishonchlilik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Bunday metodlar haddan tashqari ko'p va biz ularning eng soddalariga to'xtab o'tdik, xolos.

To'plangan materiallarni psixologik tahlil qilish metodi mazkur fan uchun alohida ahamiyatga ega. Unda aniqlovchi, tarkib toptiruvchi (tarbiyalovchi), tekshiruvchi tajribalarda olingan har xil shakldagi ma'lumotlar turli printsipl, pozitsiya, ko'p qirrali (kompleks) va yaxlit (sistemali) yondashishga asoslanib mantiq yordamida psixologik tahlil qilinadi. Barcha fikr va mulohazalar ishonchli omillar orqali isbotlab beriladi, psixologik qonuniyat, qonun, xususiyat, xossa, holat va kamolotning o'ziga xosligi asoslanadi. Material alohida guruhlar va sinflarga ajratiladi, psixologik voqelikning boshqa jihatlari bilan uzviy sababiy bog'liqligi, ichki murakkab munosabati bayon qilinadi, sinaluvchilar muayyan toifalarga kiritiladi va tadqiqotdan yakuniy xulosa chiqariladi.

Ilmiy tadqiqot metodlarining to'rtinchisi - sharhlash guruhi genetik va donalash metodlaridan iboratdir. Genetik metod bilan tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar yaxlit holda maqsadga muvofiq yo'sinda sharhlanadi. Bu metoddan foydalanishning asosiy maqsadi - sinaluvchida vujudga kelayotgan yangi shaxs fazilatlarining rivojlanishi va bilish jarayonlarining o'zgarishiga tajriba natijasiga suyangan holda ta'rif hamda tavsif berishdir. Shuningdek, bunda mazkur fazilat va xususiyatlarning namoyon bo'lish davri, bosqichi hamda ba'zi mashaqqatli daqiqalarga, paytlarga qo'shimcha sharhlar berish imkoniyati tug'iladi.

Genetik metodga asoslanib psixik o'zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog'liqligining ildizi aniqlanadi. Tanlash metodi bilan tadqiqot obyektiga kirgan shaxs psixikasidagi barcha o'zgarishlar, o'ziga xoslik, o'zaro aloqa, o'zaro ta'sir va uyg'unlikning o'zaro bog'lanishlari o'rganiladi. Jumladan, inson nutqini idrok qilish uchun sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarining bir paytda birgalikda qatnashishi bunga yorqin misoldir. Bunda har bir bilish jarayonining ulushi ifodalanadi yoki uning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, ularning o'zaro bog'liqligi asoslab beriladi.

Lekin tajribada to'plangan ma'lumotlarni sharhlash uchun yuqoridagi metodlarning o'zi yetarli emas. Buning uchun uzilishlarga yo'l qo'ymaslik uchun yig'ilgan materiallar maxsus bosqichlarga ajratib sharhlanadi. Tadqiqotning birinchi - tayyorlov bosqichida kashf qilinadigan psixologik qonun yoki qonuniyat to'g'risidagi taxmin, faraz tahlil qilinadi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida tajriba o'tkazish prinsipi, sharoiti, obyektiv va subyektiv omillar bo'yicha mulohaza yuritiladi. Uchinchi bosqichda esa olingan miqdoriy natijalar qayta ishlanadi va bu ham o'z navbatida to'rt pog'onaga bo'linadi: a) empirik materialni birlamchi tahlil qilish: alohida olingan yoki topilgan omil, alomat, ko'rsatkich, mexanizm, xususiyat sharhlanadi; b) tahlil qilingan miqdoriy materiallar bilan tadqiqot gipotezasi alohida sharhlanadi; v) ikkilamchi tahlil; barqaror, ustun dalillar ajratiladi; g) ikkilamchi sintez: psixologik qonun, qonuniyat, topilgan dalil omil bilan tadqiqot gipotezasini birlashtirib maxsus xulosa chiqariladi.

To'rtinchi bosqich - sharhlashda har bir fakt, alomat, ko'rsatkich, mexanizm, xossa, psixologik jihatdan so'z-mantiq orqali tahlil qilinadi. Barcha ilmiy-amaliy mulohazalar isbotlanadi, buning natijasida hech bir shubhaga, e'tirozlarga o'rin qolmaydi. Ana shu bosqichda tadqiqot yakunlanadi, zarur xulosalar chiqariladi, amaliy tavsiyalar beriladi, o'rganilishi zarur muammoning ahamiyati va istiqboli to'g'risida mulohaza qilinadi.

### **2.3. Kuzatish metodi va uning turlari. Eksperiment metodi.**

Kuzatish metodi. Umumiy psixologiyada bu metodning obyektiv (tashqi) va subyektiv (o'zini o'zi) kuzatish turlari bor. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni har xil vaziyatlarda kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi: 1) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi; 2) kuzatiladigan obyekt tanlanadi; 3) sinaluvchining yoshi, jinsi, kasbi aniqlanadi; 4) tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi; 5) kuzatish qancha vaqt davom etishi qat'iylashtiriladi; 6) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'yin, o'qish, mehnat, sportda) amalga oshirilishi tavsiya qilinadi; 7) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa bilan o'tkazilishi) tayinlanadi; 8) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik, suhbat daftari, kuzatish

varaqsasi, magnitofon, videomagnitofon, kinokamera, mobil telefon va boshqalar) taxt qilinadi.

Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati va hokazolari o'rganiladi. Ammo o'ta murakkab ichki psixologik kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql-zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkoni yetmaydi. Masalan, go'dak bolani kuzatishda uning harakatlari, o'yinchoqlarga munosabati, his-tuyg'usi, talpinishi, mayli, xohishi aniqlanadi. O'quvchining darsdagi holatini kuzatishda esa diqqatining xususiyati, tashqi qo'zg'atuvchi bilan ta'sirlanishi, temperamenti, xatti-harakatining sur'ati, emotsional kechinmasining o'zgarishi to'g'risida ma'lumotlar to'plashga imkoniyati tug'iladi. O'spirin yoshlarning sport faoliyatini kuzatish orqali ularning irodasi, ishchanligi, his-tuyg'usining o'zgarish xususiyatlari, g'alabaga intilishi, o'zining harakatini idora qila olishi yuzasidan materiallar yig'ish mumkin. Ishchining dastgoh yonidagi faoliyatini kuzatish natijasida uning o'z diqqatini taqsimlashi, qiyin damlarda o'zini tutishi, imo-ishoralari, tashqi qo'zg'atuvchidan ta'sirlanish darajasi haqida keng ma'lumotlar yig'iladi. Keksalarning muloqot jarayonini kuzatish ularning xarakteri, nutq faoliyati, his-tuyg'usi, ekstrovertivligi yoki introvertivligi, qiziquvchanligi va ruhiyatining boshqa xususiyatlarini aniqlash demakdir.

Tashqi kuzatishda ba'zan tafakkur bo'yicha ham ma'lumotlar olish: ish ustidagi kayfiyatini, fikrning muayyan obyektga yo'naltirilganini, tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga berilmaslikni, chehradagi tashvish va iztirobni, ko'zdagi g'ayritabiiylikni, shuningdek, sinchkovlik, teranlik, termulish kabi ruhiy holatlarni kuzatib tafakkurning kechishidagi o'zgarishni aniqlash mumkin. Bulardan tashqari, qo'lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi, hissiyotning beqarorlashuvi ham inson ruhiyatidagi o'zgarishlar bo'yicha ma'lumot beradi.

Psixologiya fanida o'zini o'zi kuzatishdan (introspeksiyadan) ham foydalaniladi. Ko'pincha tajribali psixolog yoki o'rta, maxsus o'rta va oliy ta'lim tizimidagi yuqori malakali mohir o'qituvchi o'zini o'zi kuzatish orqali ilmiy xulosa

chiqara biladi. Masalan, o'z tafakkurini kuzatib o'zidagi emotsional o'zgarish haqida, shuningdek, tafakkurning ichki mexanizmlari vujudga kelishi, kechishi haqida ma'lumot oladi. Fikrlash faoliyati zaiflashganini sezadi. Natijada tafakkurning sifati, mazmuni, mohiyati va qay tarzda, qanday tezlikda, qay shaklda ro'y berishini kuzatadi.

Uzoq va yaqin chet el psixologiyasida o'zini o'zi kuzatishning inson ruhiyatini o'rganishdagi rolini ifodalovchi ilmiy-amaliy materiallar to'plangan. Introspeksiya yo'nalishining yirik namoyandalari o'zlarini o'zlari kuzatganlar va to'plagan materiallarini tahlil qilib umumiy psixologik qonuniyatlarni yaratishga harakat qilganlar. Lekin inson turli vaziyatlarda o'zini bir xil boshqara olmaydi va shuning uchun bu metodning ilmiy ahamiyati unchali katta emas, lekin hozirgi zamon elektron apparatlari bu jarayonni kuchaytirish imkoniyatiga ega.

Shunday qilib, kuzatish metodining qulay va samarali jihatlari bilan birga zaif tomonlari ham mavjud. Shu sababli insonning murakkab psixikasi boshqa metodlardan foydalanib tadqiq qilinadi.

#### **2.4. So'rov metodi va uning turlari. Faoliyat mahsulini o'rganish metodi**

Suhbat metodi. Bu metod bilan inson psixikasini o'rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning obykti va subyekti tanlanadi, mavzusi, o'tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgai narsa bilan uzviy bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Suhbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, aql-zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, ziyrakligi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to'g'risida ma'lumotlar olinadi, Suhbat chog'ida o'zaro izchil bog'langan savollar beriladi:

- Xotira deb nimani aytiladi?
- Xotira idrok qilingan narsa va hodisalarni esda qoldirish, mustahkamlash hamda zarur vaqtda esga tushirishdan iborat psixik jarayondir.
- Xotiraning nerv-fiziologik asoslari nimalardan iborat?



– Xotiraning nerv fiziogik asoslari bosh miya katta yarim sharlari qobig‘ida muvaqqat nerv bog‘lanishlarining hosil bo‘lishi, mustahkamlanishi va keyinchalik faollashuvidir.

– Xotiraning samaradorligi nimalarga bog‘liq?

– Esda olib qolishda harakatning tugallanmaganligiga, shaxsning qiziqishi va mayllariga, faoliyatga munosabati, kayfiyati va irodaviy zo‘r berishiga, xarakterologik sifatlariga bog‘liq.

– Xotiraning qanday turlari mavjud?

– Harakat, obrazli, so‘z-mantiq, emotsional, qisqa va uzoq muddatli, operativ, ixtiyorsiz, ixtiyoriy, produktiv, reproduktiv, faol va sust xotira turlari bor.

Suhbat paytida fikrlar mantiqiy izchillikka ega bo‘lishi shart. Biroq mashg‘ulot sinaluvchilarni toliqtirib qo‘ymasligi, ularning yoshiga, saviyasiga, mutaxassisligiga mutlaqo mos bo‘lishi zarur.

Dialog shaklidagi suhbatlar ham o‘z ko‘lami, mohiyati, mazmuni, shakli, xususiyati, sur‘ati, mavzusi, obyektga yo‘nalganligi bilan bir-biridan farqlanadi. Suhbatning yana bir turiga misol:

– Opajon, eson-omon yuribsizmi? Uydagilaringiz yaxshimi?

– Opang qoqindiq, ming qatla shukur, tinch yuribmiz.

– Nechuk, qanday shamol uchirdi?

– Ko‘zimdan o‘taverding, o‘taverding, keyin yo‘lga otlandim.

– Qiynalmasdan yetib keldingizmi?

– Aytarli qiynalmadim. Avval avtobusga, so‘ng tramvayga o‘tirdim, lekin metroga tushgim kelmadi.

Suhbat metodining yuqorida ta‘kidlangan ijobiy jihatlari bilan birga ayrim zaif tomonlari ham mavjud. Qaytariq so‘zlar, «g‘aliz» iboralar, nutqning tezligi, fikrning mavhumligi, zerikarliligi muvaffaqiyatsizlikka sabab bo‘ladi. Shuningdek, savol-javobning bir xil shaklda emasligi, sinaluvchida o‘ziga xos ishlash uslubi, oshkoralik yetishmasligi, iymanish, uyalish atroflicha ma‘lumotlar olishni qiyinlashtiradi va shu sababli boshqa metodlarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi. Inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida bu metod ontogenez psixologiyasida keng qo'llanadi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoqlar, modellar, yozgan she'rlarni tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallar to'plash mumkin. Mazkur metoddan foydalanishda mahsulotni yaratgan shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Obyekt bilan subyekt o'rtasida muloqot o'rnatish uchun shaxsning psixikasi to'g'risida sirdan muayyan hukm va xulosa chiqariladi. Ijodiy faoliyat mahsullariga kundalik, sxema, ixtiro, diagramma, kashfiyot, qurilma, asbob, texnik model, moslama, milliy kashtachilik, hunarmandchilik, zargarlik buyumlari, referat, kurs va malakaviy bitiruv ishlari, ilmiy ma'ruza, konspekt, taqriz, tezis, maqola, ko'rsatmali qurollar, loyiha, magistrlik, nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari va hokazolar kiradi. Bular turli yoshdagi va jinsdagi odamlar, har xil kasb egalari tomonidan yaratilgan bo'lishi va shunga ko'ra shakli, mazmuni, sifati, originalligi, katta-kichikligi, xususiyati, mazmun-mohiyati bilan bir-biridan keskin tafovut qilishi mumkin.

Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali bolalar, o'quvchilar, talabalar, konstruktorlar, olimlar, hunarmandlar, ishchilar, keksa yoshdagi qariyalar psixik xususiyatlari, mahorati, salohiyati, ijodiyoti to'g'risida ma'lumotlar to'plash mumkin. Lekin insondagi psixik o'zgarishlar, kamol topish va bularning kechishini ifodalovchi materiallar yig'ish uchun bu metodning o'zi yetmaydi. Shuning uchun inson psixikasini o'rganish maqsadida boshqa metodlardan ham foydalanish ma'qul.

Tajriba (eksperiment) metodi. Bu metod turli yoshdagi odamlar (chaqaloq, bola, o'spirin, balog'atga yetgan va qarilar)ning psixikasini chuqurroq, aniqroq tadqiq, qilish metodlari ichida eng muhimi hisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida sun'iy tushunchalarning shakllanishi, nutqning o'sishi, favquloddagi holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsning his-tuyg'ulari, xarakteri va tipologik xususiyatlari o'rganiladi. Inson psixikasining nozik ichki bog'lanishlari, munosabatlari, qonuniyatlari, qonunlari, xossalari,

murakkab mexanizmlari tekshiriladi. Buning uchun eksperiment materialini tekshiruvchi sinchkovlik bilan tanlashi, obyektiv tarzda har xil holat va vaziyatlarni yaratishi, bunda sinaluvchining yoshi, aql-idroki, xarakter, xususiyati, his-tuyg'usi, qiziqishi va saviyasiga, turmush tajribasiga, ko'nikma va malakalariga e'tibor berishi lozim.

Tajriba metodi o'z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. Tabiiy metod psixologik-pedagogik masalalarni hal qilishda qo'llanadi. Bu metodning ilmiy asoslarini 1910 yilda A.F.Lazurskiy ta'riflagan. Tabiiy metoddan foydalanishda ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o'qituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik o'zgarishlari, o'zaro munosabatlari, ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishda sinaluvchilar (bog'cha bolalari, maktab o'quvchilari, ishchilar, dehqonlar, xodimlar va hokazolar)ning o'zlari bexabar bo'lishi, ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish kundalik mehnat tarzi doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim.

Laboratoriya (klinika) metodi ko'pincha individual (goho guruh va jamoa) shaklida sinaluvchilardan yashirmay, maxsus psixologik asboblari, yo'l-yo'riqlar, tavsiyalar, ko'rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Hozir inson psixikasidagi o'zgarishlarni aniqlaydigan asboblari, murakkab elektron hisoblash mashinalari (displeylar), qurilmalar, moslama va jihozlar mavjud. Ular odamdagi psixologik jarayonlar, holatlar, funksiyalar, vujudga kelayotgan yangi sifatlarni qayd qilish va o'lchashda qo'llanadi. Ko'pincha detektorlar, elektron va radio o'lchagichlar, sekundomer, refleksometr, xronorefleksometr, lyuksmetr, anomaloskop, taxistoskop, audiometr, esteziometr, elektromiogramma, elektroensefalogramma kabilardan foydalaniladi.

Laboratoriya metodi yordami bilan diqqatning sifatlari, sezgi, idrok, xotira va tafakkurning xususiyatlari emotsional hamda irodaviy va aqliy zo'riqish singari murakkab psixik holatlar tekshiriladi. Ko'pincha laboratoriya sharoitida kishilar

(uchuvchi, shofyor, operator, elektronchilar) va kutilmagan tasodifiy vaziyatlar (halokat, portlash, izdan chiqish, shovqin ko'tarilishi)ning modellari yaratiladi. Asboblarning ko'rsatishi bo'yicha o'zgarishlar, rivojlanish dinamikasi, jismoniy va aqliy toliqish, emotsional-irodaviy, asabiy zo'riqish, jiddiylik, tanglik qanday sodir bo'layotganini ifodalovchi ma'lumotlar olinadi.

Tajriba aniqlovchi, tarkib toptiruvchi (tarbiyalovchi) va tekshirish (nazorat) qismlariga bo'linadi. Tajribaning aniqlovchi qismida psixik xususiyat, jarayon yoki holat o'yin, mehnat, o'qish kabi faoliyatlarda tadqiq qilinadi. Tadqiqot obyektining aynan shu paytdagi holati, imkoniyati aniqlanadi, lekin tekshiruvchi sinaluvchiga subyektiv ta'sir o'tkazmaydi. Shu pallada sinaluvchiga hatto, yo'llovchi savollar bilan ham yordam bermaslik tajribaning printsipli hisoblanadi.

Tarkib toptiruvchi tajribada sinaluvchilarda biror fazilatni shakllantirish, shuningdek, ularga maqsadga muvofiq muayyan malakani, yo'l-yo'riq va usulni o'rgatish rejalashtiriladi. Tajriba yakka, guruh va jamoa tarzida o'tkazilishi mumkin. Buning uchun tajriba materialining hajmi, ko'lami, qancha vaqtga mo'ljallanganligi, nimalar o'rgatilishi, sinaluvchilarni psixologik jihatdan tayyorlash oldindan belgilab qo'yilishi shart.

Tekshirish (nazorat) tajribasida tarkib toptiruvchi bosqichda shakllantirilgan usul, vosita, yo'l-yo'riq, ko'nikma, malaka va shaxs fazilatlarining darajasini, barqarorligini aniqlash, ta'sirchanligiga ishonch hosil qilish uchun mohiyati har xil mustaqil topshiriqlar beriladi. Tekshirish tajribasi orqali tarkib toptiruvchi eksperimentning samarasi o'lchanadi. Mazkur tajribada ham tekshiruvchi sinaluvchiga mutlaqo yordam berishi mumkin emas, aks holda tadqiqot o'tkazish printsipli buziladi.

Aniqlovchi, tarkib toptiruvchi va tekshiruvchi tajribalarda yig'ilgan ma'lumotlar, miqdor-statistik metodlardan foydalangan holda ishlab chiqiladi, shuningdek, miqdor tahlili o'tkazishga tayyorgarlik ko'riladi. Statistik metodlar yordamida insonning bilish jarayonlari bilan uning individual-tipologik xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi va ta'siri (korrelyatsiyasi) bilish jarayonlarining his-tuyg'u bilan boshqarilishi, aql-zakovat omillarini tahlil qilish

amalgga oshiriladi. So'ngra miqdorning hamda qo'llanilgan metodikaning ishonchlilik, aniqlilik darajasi aniqlanadi. Ungacha ham matematik statistikaning sodda metodlaridan foydalanib ayrim hisoblashlar, masalan, o'rtacha arifmetik qiymat, miqdorlarni tartibga solish va medianani hisoblash, kvadrat chetga og'ishni topish va boshqalar amalga oshiriladi.

Hozir injener (muhandis) psixologlar matematiklar bilan hamkorlikda inson psixikasining modelini yaratish ustida tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar, shuningdek, mediklar, fiziologlar, kibernetiklar psixikani programmalashtirishni nihoyasiga yetkazmoqdalar. Ishlab chiqarishdagi "sun'iy intellektlar", robotlar, EHMlar ana shu izlanishlarning dastlabki samarasi hisoblanadi.

### **2.5. Test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi. Projektiv metodlar**

Test metodi. Test - inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatleri va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llanadigan qisqa standart masala, topshiriq, misol, jumboqlar test deb ataladi. Test ayniqsa odamning qanday kasbni egallash mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo'llanadi. Test metodining qimmati tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yig'ilgan psixologik ma'lumotlarning obyektivligi va ularni ilmiy tahlil qila bilishga bog'liqdir. 1905 yildan, ya'ni fransuz psixologi A.Bine va uning shogirdi T.Simon insonning aqliy o'sish va iste'dod darajalarini o'lchash imkoniyati borligi g'oyasini olg'a surganidan keyin psixologiyada test metodi qo'llana boshlandi.

Chet el psixologlari testlarni shaxsning iste'dod darajasini aniqlash vositasi deb biladilar. Biroq test tekshirilayotgan hodisalarning psixologik mezoni hisoblanmaydi. Malumki, bir muammoning yechimini izlash turli psixologik vositalar bilai amalga oshiriladi. Chet el testologlari tadqiqot obyektlarini o'zgartirib turadilar va qobiliyat, tafakkur, bilim, ko'nikma hamda malakalarni aralash holda o'rganishga intiladilar. Sinash jarayonida sinaluvchilarning

emotsional holati va salomatligiga bog‘liq ruhiy kechinmalarni inobatga olmaydilar. Psixologlar K.M.Gurevich, V.A.Kruteskiy va boshqalar qo‘llaydigan testlar tubdan boshqacha printsiptan asosida tuzilgan. Ular testlarning tafakkur ko‘rsatkichi (indikator) bo‘lishi uchun harakat qildilar va muayyan yutuqlarga erishdilar. Shuningdek, tafakkur jarayonining sifat xususiyatlarini bilmay turib, qobiliyatning mohiyatini yoritib bo‘lmaydi, degan qoidaga amal qilgan holda testlardan foydalanmoqdalar.

Hozirgi davrda nodir testlar qatoriga psixologlardan G.Rorshax, S.Rozensveyg, R.Kettel, D.Veksler, G.Meyli, G.Ayzenk, A.Anastazi, Dj.Raven, G.Myurrey, R.Amtxaer, M.Rokich, Dj.Rotter, M.Lyusher, Dj.Gilford va boshqalar ijodining namunalarini kiritish mumkin. Eng keng tarqalgan testlar qatoriga yutuqqa erishish (maqsadga yetish) testlari (ular darsliklarda berilgan va bilim, malaka darajalarini baholashga qaratilgan), intellekt testlari (aqliy rivojlanish darajasini o‘lchashga mo‘ljallangan), shaxs testlari (inson irodasi, emotsiyasi, qiziqishi, motivatsiyasi va xulqini baholashga yo‘naltirilgan diagnostik usullardan iboratdir), shaxs “loyihasi” (proyektiv) testlari (savollarga bitta aniq javob berish talab qilinadi, javoblarni tahlil qilib shaxs xususiyatining “loyihasi” ishlab chiqiladi) kiradi.

Testlar quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1. natijaga erishuv testlari (bilimlar, ko‘nikma va malakalar aniqlanadi; ular harakat, yozma va og‘zaki testlarga bo‘linadi);
2. intellekt testlari;
3. kreativlik (ijodiyot) testlari;
4. kriterial-oriyentir testlari (mezoniyl mo‘ljalga yo‘naltirilgan);
5. shaxs testlari;
6. iste’dod (qobiliyat) testlari;
7. proyektiv testlar (syujetli testlar, rasm testlari, chizilgan va chizish talab qilinadigan testlar);
8. kognitiv testlar.

Psixologiya fanida testlashtirish mana bu ijtimoiy tuzilmalarga yo'naltiriladi: a) uzluksiz ta'lim tizimiga; b) kasbiy tayyorlash va saralashga; v) keng ko'lamli psixologik maslahatga.

Biografiya (tarjimai hol) metodi. Inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o'zgaralar ijodiga bergan baholari, tanbehleri, taqrizlari alohida o'rin egallaydi. Shu bilan birga o'zgaralar tomonidan to'plangan tarjimai hol haqidagi materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tasniflar, baholar, magnitofon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar, mobil telefon tasvirlari va hokazolar o'rganilayotgan shaxsni to'laroq tasavvur etishga xizmat qiladi.

Tarjimai hol ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatishda, uning suhbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarini ochishda yordam beradi. Masalan, mazkur ma'lumotlar orqali ijodiy xayol bilan bog'liq jarayonlar; she'riyat, musiqa, nafosat, tasviriy san'at, texnik ijodiyotning nozik turlari va kashfiyotdagi tafakkurning o'ziga xosligini, shaxsning ma'naviyat, qadriyat, qobiliyat, iqtidor, iste'dod singari fazilatlarini o'rganish mumkin. Inson ongining xossasi, namoyon bo'lishi, rivojlanishi, o'ziga xos va ijtimoiy xususiyatlari atoqli odamlar bildirgan mulohazalarda o'z ifodasini topadi. Allomalar to'g'risidagi ma'lumotlar zamondoshlari, izdoshlari, safdoshlarining ta'rifu tavsiflari orqali avloddan avlodga o'tadi.

Biografik ma'lumotlar odamlarning o'zini o'zi tarbiyalashi, nazorat qilishi, idora etishi, o'zining uslubini yaratishi, kamolot cho'qqisiga erishishi jarayonida namuna vazifasini o'taydi.

Badiiy adabiyotda yaratilgan talay asarlar, masalan, L.N.Tolstoy, A.M.Gorkiy, S.Ayniy, Oybek, Abdulla Qahhor va boshqa qator adiblarning esdaliklari tarjimai hol shaklida bo'lib, ular bilan tanishish natijasida mualliflarning his-tuyg'usi, temperamenti, xarakteri, qobiliyati, iste'dodi, qiziqishi, intilishi, mayli, layoqati, dunyoqarashi, e'tiqodi, nafosati, axloq va odobi to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin.

Anketa metodi. Uning yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va hodisalarga munosabatlari o'rganiladi.

Anketa odatda uch shaklda tuziladi. Ularning birinchi xili anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchisida esa har bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi turdagi anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. Anketadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

Tarqatilgan anketalar yig'ishtiriladi va elektron hisoblash mashinalarida hisoblanadi, atroflicha miqdoriy tahlil qilinadi, so'ngra tadqiqotga yakun yasalib, ilmiy va amaliy yo'sinda xulosalar chiqariladi. Anketa metodi inson psixikasini o'rganish uchun boy material to'plash imkonini beradi. Lekin unda olinadigan ma'lumotlar doimo xolisona xususiyatga ega bo'lavermaydi. Bu kamchilikka yo'l qo'ymaslik uchun anketa ichidagi nazorat vazifasini bajaruvchi savollarni puxta ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Sotsiometrik metod. Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llanadi. Unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatda kim bilan birga qatnashishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi. Ulardagi miqdor ko'rsatkichlari guruhdagi kishilarning shaxslararo munosabatlar to'g'risida tasavvur hosil qiladi. Bu ma'lumotlar guruhiy munosabatlarning tashqi ko'rinishini aks ettiradi, xolos. Shuning uchun hozir Ya.L.Kolominskiy va I.P.Volkov tomonidan sotsiometriyaning yosh davri psixologiyasiga moslab o'zgartirilgan turlari ishlab chiqilgan. Bular shaxslarning bir-birini tanlashi motivlarini keng ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa sotsiometriyaning Ya.L.Kolominskiy ishlab chiqqan o'zgartirilgan turi bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar haqida to'laroq axborot beradi.



Odatda o'quvchilardan quyidagicha savollarga javob berish talab qilinadi: "Sen sayohatga kim bilan birga borishni xohlaysan?" "Sessiyaga kim bilan birga tayyorlanishni istaysan?", "Kim bilan qo'shni bo'lib yashashni yoqtirasan?" Har bir savol sotsiometrik mezon (o'lchov) vazifasini bajaradi va turmush voqeligidan olingan. Sinaluvchi har bir savolning uchta javobidan bittasini "eng ma'qul" deb tanlashi lozim. Unga, "avval, hammadan ko'ra ko'proq kim bilan birga bo'lishni xohlasang, o'shanning familiyasini yoz", "agar sen istagan shaxs to'g'ri kelmasa, yana kim bilan birga bo'lishni istasang, shuning familiyasini yoz", "aytilgan shartlarga binoan uchinchi shaxsning familiyasini yoz" deb uqtirish lozim.

Guruhiy tabaqalanishni ko'rsatish uchun sotsiogramma to'rtta "maydon"ga ajratiladi. Qizlar doiracha bilan, o'g'il bolalar esa uchburchaklar bilan belgilanadi. Doiracha va uchburchaklar soni familiyalar soniga to'g'ri keladi. Guruh a'zolarining o'zaro munosabatlari doiracha va uchburchaklar strelkalar bilan bog'langanida o'z ifodasini topadi. Eng ko'p munosabatga ega bo'lgan sinaluvchi doiraning markazidan o'rin oladi. U guruh a'zolarining eng yoqimtoyi hisoblanadi. Shaxslar bilan aloqa o'rnatmagan sinaluvchi doiraning eng chetidan joy oladi. Oraliqdagi "maydon"larga o'rtacha va undan kamroq tanlangan tekshiriluvchilar joylashtiriladi. Tekshirishda, birinchidan, shaxslararo munosabatning darajasi va ko'lamini aniqlanadi, ikkinchidan, qizlar bilan o'g'il bolalar o'rtasidagi ko'rsatkichlar taqqoslanadi. Ko'rsatkichlarga qarab guruhdagi munosabatlar yoki qizlar bilan o'g'il bolalar o'rtasidagi munosabatlar va ularning o'ziga xosligi, psixologik mexanizmlari haqida xulosa chiqariladi. Shu bilan birga nazariy ahamiyatga molik g'oyalar olg'a suriladi, amaliy ko'rsatmalar beriladi, tavsiyalar bildiriladi.

Sotsiometrik metodi sharoitga muvofiqlashtirilgan kichik guruhlardagi shaxslararo munosabatni o'lchash usuli hisoblanadi. Bu usulda sinaluvchilarga bevosita savollar beriladi va ularga ketma-ket javob qaytarish orqali guruh a'zolarini o'zaro tanlash jarayoni vujudga keltiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab sinflari, o'quvchilar munosabatlari, dam olish manzillari, oliy maktablar, mehnat jamoalari va turli muassasalarning xodimlari o'rtasidagi

munosabatlarning xususiyatlari, dinamikasi, shaxslararo ziddiyatlarning sababi shu metod yordamida o'rganiladi. Turli ehtiyoj, motiv, qiziqish, intilish, harakat va hokazolar muayyan tartib hamda qoidaga binoan muvofiqlashtiriladi, tizimlashtiriladi, ularning ijtimoiy-psixologik hamda umumpsixologik ildizlari to'g'risida ma'lumotlar olinadi. Shu bilan birga guruhlardagi shaxslarning yaqqol, aniq nuqtai nazari, guruhbozlik, og'machilik, qarama-qarshilik, his-tuyg'uning zo'riqishi, guruhiy jipslik, moslik, munosabatning motivlari, qurilishi, jinslar o'rtasidagi muloqotlarning zamini hamda sehri mana shu kalit bilan ochiladi.

Umuman aytganda, sotsiometriya metodidan turli yoshdagi, ikki xil jinsdagi, saviyasi har xil kishilar guruhlaridagi psixologik qonuniyatlarni tadqiq etishda unumli foydalanish mumkin.

#### **Nazorat savollari:**

1. Metod deb nimani aytiladi?
2. Psixologiyadagi metodlarning samaradorligi nimalarga bog'liq?
3. Metodlarning qanday turlari mavjud?
4. Test metodi haqida nimalarni bilasiz?
5. Sotsiometriya metodining ijobiy tomonlarini sanab o'ting?

### 3 -MAVZU. PSIXIKA VA ONGNING TARAQQIYOTI

*Tayanch tushunchalar: psixika, filogenetik, refleksiya, ongsizlik aks ettirish shakllari, o'z-o'zini kuzatish, o'zligini anglash, ehtiyoj, instinkt, tafakkur.*

#### **3.1.Psixikaning filogenetik taraqqiyoti. Odam psixikasining paydo bo'lishi va taraqqiyoti**

Ehtiyoj odamning kun kechirishi, yashashi va kamolga yetishi uchun zarur narsalarning hammasi demakdir. Odam yashash, hayot kechirish uchun o'z ehtiyojlarini qondirishi lozim. Ehtiyoj hayvonlarda ham bor. Ammo hayvonlarda faqat biologik, tug'ma ehtiyojlar bo'ladi, ovqatlanish, o'z-o'zini himoya qilish, nasl qoldirish ehtiyojlari bor, xolos. Odamda bu biologik ehtiyojlardan tashqari, yana yuksak ehtiyojlar - bilish ehtiyojlari, ijtimoiy, ma'naviy, estetik va boshqa shu kabi ehtiyojlar bor. Bu ehtiyojlar tug'ma ehtiyojlar emas ular tarixan taraqqiyot etgan. Ijtimoiy zot bo'lgan odamning biologik ehtiyojlari ham tarixiy taraqqiyot jarayonida sifat jihatidan tubdan o'zgargan.

Kishilarning ehtiyojlari ijtimoiy tuzum formalarining taraqqiyotiga qarab o'zgaradi. Tarixda odam miyasi taraqqiyot etishi bilan birga sezgi ko'ruv, eshituv, tuyg'u organlari ayniqsa yuksak kamolotga erishdi. Odam muzikani, nafis suratlarni va boshqa san'at asarlarini idrok etishga qodir bo'ldi. Qo'l asosiy mehnat organi bo'lish bilan birga asosiy tuyg'u organi ham bo'lib qoldi.

Odamning tarixiy taraqqiyotida uning idroki va xotira faoliyati ham takomillashib va sifat jihatidan o'zgarib turdi. Tashqi dunyodagi narsa va hodisalarni anglab-bilib, shu bilan birga kengroq va chuqurroq idrok etadigan bo'ldi, o'z faoliyatidagi tajriba mahsulini anglab-bilib esda qoldiradigan va undan anglab-bilib foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Inson tafakkuri ham tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Odamzod tafakkuri dastlab elementar mehnat faoliyati bilan chambarchas bog'langan edi. Bu konkret-amaliy tafakkur edi. Keyinchalik tafakkur konkret tafakkurdan abstrakt tafakkur sari na amaliy tafakkurdan nazariy tafakkur sari taraqqiy qilib bordi. Albatta, abstrakt va nazariy tafakkur tajribadan ajralmagan holda o'sib bordi. Mantiqiy tafakkur

formalari ham mehnat tajribasida va dunyoni bilish jarayonlarida hosil bo`ldi va o`shib bordi.

Odam hodisalar o`rtasidagi muhim aloqa va munosabatlarni, tabiat va ijtimoiy hayot qonunlarini tafakkur yordami bilan ochib oladi. Insonning ong idora qiladigan faoliyati endi faqat oddiy qo`l mehnati qurollari, ovqat, kiyim-kechak va turar joyinigina yaratib qolmay, balki fan, san`at, murakkab texnikani ham yaratadi. Kishilar ilmga asoslangan dunyoqarash yaratishga intiladilar va shunga harakat qiladilar. Taraqqiy qilayotgan fan, texnika va san`at esa o`z navbatida kishilar ongining o`shishiga, ularning ma`naviy qiyofasiga, tafakkuriga ta`sir etadi.

### **Hayvonlar olamida aks ettirish shakllari.**

<b>Aks ettirish shakllari</b>	<b>Mohiyati</b>
I. Instinktlar	Shartsiz reflekslarga asoslangan tug`ma xatti-harakat shakllari. O`zgarmas sharoitlarda maqsadga muvofiq.
II. Ko`nikmalar	Individual hayot jarayonida orttirilgan xatti-harakat shakllari. O`zgaruvchan sharoitga qo`shimcha moslashish imkonini beradi.
III. Intellektual harakatlar	Predmet va hodisalar orasidagi bog`lanishlarni aks ettiradigan murakkab xatti-harakat shakllari. Murakkab sharoitlarga moslashish va tajribani yangi sharoitga ko`chirish imkonini beradi.

Avvalgi nasllarning tajriba va bilimlari tilda mustahkamlanib, keyingi nasllarga o`tib keldi. Mehnat aloqalarida takomillashib borgan til o`z navbatida kishilarnng ongi va tafakkuri taraqqiyotiga ham ta`sir etdi. Yozuvning takomillashuvi tufayli kishilarning o`zaro aloqasi va bir-biriga ta`siri mislsiz darajada kengaydi va mazmundor bo`lib qoldi. Kishilar bir-birlari bilan bevosita aloqa qilish orqaligina emas, balki uzoq masofadagi kishilar bilan va ilgari o`tgan kishilar bilan bamosita «aloqa» bog`lash yo`li bilan ham ularning ongi, bilim va tajribasi bilan boyiydigan bo`lib qoladi. Til kishining butun ongli faoliyati bilan chambarchas bog`langandir. Yuqorida ko`rsatib o`tilganidek, til mehnat bilan bir qatorda inson jamiyati va ongini taraqqiy ettiradigan ikkinchi asosiy faktordir.

<b>INSON VA HAYVONLAR PSIXIKASI O'RTASIDAGI FARQLAR</b>	
<b>TIL</b>	Hayvonlar " <i>tili</i> " bilan inson tilini hech bir jihatdan taqqoslab bo'lmaydi. Hayvon o'z to'dasidagi boshqa hayvonlarga ayni choqdagi vaziyat va hodisalar haqida signal bera oladi xolos. Inson til yordamida boshqa odamlarga o'tgan, hozirgi, va kelgusi zamondagi narsalar haqida ma'lumot bera oladi, ijtimoiy tajribani uzata oladi.
<b>TAFAKKUR</b>	Hayvonlar va odam <i>tafakkuri</i> o'rtasidagi farq ham ular tili o'rtasidagi farqqa bog'liqdir. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlarga faqat amaliy ("qo'l") tafakkuri xos, ularda abstrakt tafakkur yo'q. Shu sababli hayvon bevosita idrok qilinayotgan vaziyatning quli. Odamning xatti-harakatlari biron-bir konkret vaziyatdan abstraktlashishi va shu vaziyatning natijalarini oldindan ko'ra olish qobiliyatiga ega. Odamning abstrakt tafakkur qila olish qobiliyati uni muayyan biron vaziyatga bevosita qaramlikdan qutqaradi.
<b>QUROL YASASH</b>	<i>Qurol yasash</i> va uni asrash qobiliyatiga egalik odamni hayvondan ajratuvchi farqlardan biridir. Konkret vaziyatdan tashqarida hayvon hech vaqt qurolni boshqa narsalardan farqlab, qurol sifatida ajratmaydi va uni keyinchalik qurol sifatida foydalanish uchun saqlab qo'ymaydi. Hayvondan odamning farqi shundaki, u ilgaridan o'ylab qo'ygan reja asosida qurol yasaydi, qurolni tegishli maqsadlarda foydalanadi, va uni saqlab qo'yadi. Odam nisbiy doimiy buyumlar olamida yashaydi.
<b>IJTIMOIIY TAJRIBA</b>	Odam psixik faoliyatining yana bir farqi shundaki, inson o'zidan keyingi avlodlarga <i>ijtimoiy tajriba</i> qoldiradi.
<b>HISSIIYOT</b>	Odam va hayvonlar o'rtasidagi g'oyat muhim farqlardan biri ular <i>hissiyoti</i> o'rtasidagi farqdir. Albatta yuksak darajada taraqqiy etgan hayvonlar ham atrofida bo'layotgan voqealarga befarq munosabatda bo'lmaydi. Lekin faqat odamdagina boshqa odamning qayg'u va shodligiga qo'shilish, hamdard bo'lish hissi rivojlangan. Faqat odamgina tabiat manzaralaridan lazzatlana oladi, faqat odamdagina intellektual hissiyot mavjud.
<b>RIVOJLANISH SHAROITLARI</b>	Hayvonlarning rivojlanishi biologik qonuniyatlarga asosida boradi. Odamning rivojlanishi, uning ongining taraqqiyotida ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot qonunlari ustunlik qiladi.

Mehnat jarayoni va ijtimoiy munosabatlarning tarkib topish jarayonida tafakkur va til bilan birga, odam irodasi ham paydo bo`ldi hamda tarixan o`sa bordi. Odam, ishga kirishishdan oldin o`z harakatlarini tasavvur qiladi, shu harakatlarni oldin o`ylab ko`radi, qo`yilgan maqsadga yetish uchun anglab-bilib g`ayrat ko`rsatadi, ro`y bergan qiyinchiliklarni yengib o`tadigan bo`lib qoladi. Iroda bilan bo`ladigan harakatlar – ongli harakatlar shakllanadi.

Shu bilan birga, odamning iroda-ixtiyor bilan qiladigan harakatlari bo`ladi. Tevarak-atrofdagi muhitni o`zlashtirish, uni o`z ehtiyojiga moslashtirish imkonini paydo qildi.

Odam iroda egasi bo`lganligi tufayli tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiatni o`ziga asta-sekin bo`ysundirdi, uni o`ziga xizmat qilishga majbur etdi. Odam tabiatni, tevarak-atrofdagi olamni o`z maqsadlariga muvofiq qilib o`zgartiradi, unga yangilik kiritadi.

O`sha tarixiy taraqqiyot jarayonida, uzoq kurash yo`li bilan insonlar ijtimoiy muhiting stixiyali ta`siridan qutuladi, ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini sekin-asta bilib olib, ijtimoiy hayotga uyushgan holda ta`sir ko`rsata boshlaydi, inson jamiyatining taraqqiyotini muayyan yo`lga sola boshlaydi.

Ishlab chiqarish vositalarining ijtimoiy mulkligi ishlab chiqarish munosabatlarning asosi ana shu yangi munosabatlarni aks ettiradigan yangi ong ham paydo bo`ldi. Kishilar ongidagi bu yangilik kishilar o`rtasidagi munosabatlarning o`zgarishida, mehnatga munosabatning o`zgarishida, kishilar saviyasining o`zgarishi va kengayishida, ularning o`z faoliyatida oldilariga qo`yadigan g`oyalarning o`zgarishida o`z ifodasini topdi.

Kishilarning o`zaro munosabatlarida o`rtoqlarcha hamkorlik, va ishlab chiqarish jarayonida o`zaro yordam, hamkorlik qaror topdi.

Bizda kishilarning mehnatga munosabati ham tubdan o`zgardi: ilgari og`ir va mashaqqatli yuk deb hisoblangan mehnat shon-sharafga, shavkat va qahramonlik ishiga aylandi. Mehnatda zavq-shavq qo`zg`aydigan manbalar paydo bo`ldi. Bizda mehnat faqat yashash vositasi bo`libgina qolmay, balki, ehtiyojga shu bilan birga, shodlik va bardamlik manbalariga aylandi. Kishilarning yuksak hislari – Vatanimiz

baxt-saodati uchun ijodiy mehnat qilishida yangilik yaratish, kashfiyot bilan shug`ullanishda o`z ifodasini topmoqda.

Ozod kishilarning erkin mehnati zo`r ijodiyot ekanligini, bu ijodiyotda kishining barcha jismoniy va ma`naviy kuchlari munosib ravishda qo`shilishini, korxonalarimizning ilg`orlari va tadbirkorlari amalda ko`rsatmoqdalar.

Kishilarning o`zaro munosabatlari o`zgarishi bilan mehnatga yangicha munosabat qaror topishi bilan kishilarning ongi ham o`zgardi. Ular o`z jamiyatiga qarshi bosh ko`taradigan kishilar emas, balki o`z jamiyatining a`zosi uning fidoiysidirlar. Ular Vatan oldidagi burchini, vazifalarini doimo yaxshi anglaydigan kishilardir. Mustaqillik davrida kishilarning fikr-hislari, intilishlari va irodasi ham o`zgardi.

Kishilar ongining o`zgarishida ijtimoiy tuzum qancha yuqori bo`lsa, ijtimoiy muhitning o`sib kelayotgan avlod ongiga ta`siri shuncha ortadi. Mustaqillikka erishishimizning o`zi kishilarning ongini o`zgarishiga sabab bo`ldi. Jamiyatning bolalar ongiga ta`sir etishida ta`lim-tarbiyaning roli kattadir. Chunki bolalar yoshligidan atrofdagi kishilar bilan munosabatda bo`lib, bilimlar, ko`nikma va malakalarni egallaydilar. Bolani o`rab olgan ijtimoiy muhit (tabiat, jamiyat, jamoa va guruh), mehnat va til faqat inson shaxsi taraqqiyotining shartlarigina bo`lib qolmay, bolalar uchun maktabda o`quv predmetiga aylanadi. Bilim va ko`nikmalarni egallash bolaning ma`naviy jihatdan o`sishiga yordam beradi, dunyoqarash shakllanadi.

Inson ongining o`zgarishida uni faollik ko`rsatishi ham muhim ahamiyatga ega. Agar bola tug`ilganidan boshlab faollik ko`rsata boshlasa, keyinchalik bu faollik faoliyatga aylanadi. Faoliyat esa kishini o`zini o`rab olgan tabiatga, ijtimoiy muhitga va ayrim kishilarga ta`sir ko`rsatishuvidir. Bularning hammasi kishilar ongining o`zgarishiga sabab bo`ladi.

Insonning uni o`rab turgan olamga o`zaro tasiri obyektiv munosabatlar tizimida namoyon bo`ladi, obyektiv munosabat va aloqalar so`zsiz har qanday real guruhlarda paydo bo`ladi. Guruh azolarining bu obyektiv o`zaro munosabatlari subyektiv shaxslararo munosabatlarda aks etadi. Har qanday ishlab chiqarish

odamlarning o`zaro birlashishini talab qiladi. Hech bir kishilik jamiyati agar unda odamlar bilan munosabat o`rnatilmasa, ular bir-birini to`g`ri tushunmasdan to`laqonli birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olmaydi. Masalan, o`qituvchi o`quvchilarga biror narsani o`rgatish uchun ular bilan munosabatga kirishishi kerak.

### **3.2. Ong strukturasi va uning asosiy psixologik xarakteristikasi. Yuksak psixik funksiyalarning tarkib topishi va ularning tuzilishi**

Nerv sistemasining, ayniqsa uning yuksak uchastkalarining faoliyati uzoq, vaqtgacha tekshirilmasdan keldi.

Rus olimlari nerv sistemasining fiziologiyasini o`rganish sohasida jahon miqyosida katta xizmat ko`rsatdilar. Rus fiziologiyasining otasi I.M.Sechenov (1829-1905) bosh miyaning materialistik fiziologiya ilmini yaratish yo`llarini birinchi bo`lib ko`rsatib berdi.

1863 yilda uning «Bosh miya reflekslari» nomli mashhur asari bosilib chiqdi. Bu asarda Sechenov o`sha vaqtdagi ilg`or fiziologlarning yutuqlariga va o`zi olib borgan tekshirishlarga asoslanib, odamning psixik faoliyati qandaydir ismi bor, jismi yo`q, moddiy bo`lmagan ruh, jonning mahsuli bo`lmay, balki faqat miyaning faoliyatidir, degan fikrni dadil aytdi. Fiziologiya olimi bo`lgan Sechenov materialistik monizmning tabiiy-ilmiy asoslarini yaratib berdi. Chernishevskiy va undan oldin o`tgan boshqa rus materialistlari materialistik monizmni taraqqiy qildirdilar. «Odamdagi psixik va fiziologik hodisalarning ikkovi ham bir xildagi, bir-biriga yaqin hodisalar, bir moddiy asosdan kelib chiqadigan hodisalardir», deb yozdi Sechenov. Psixik jarayonlarning negizi bosh miya reflekslaridir, degan ta`limotni Sechenov birinchi bo`lib ilgari surdi. «Ongli va ongsiz hamma psixik hodisalar, deb yozadi u, o`zlarining kelib chiqish jihatidan aslida reflekslardir». Shu bilan birga I.M.Sechenov refleksning markaziy qismini, ya`ni miyada bo`ladi. P.I.Ivanov jarayonlarni ajratadi, bu jarayonlar, Sechenovning fikricha, psixikani vujudga keltiradi.



Miyaning reflektor faoliyatini o`rganish sohasida I.M.Sechenov boshlagan ishni I.P.Pavlov mustahkam eksperimental asosga qo`ydi, refleks tushunchasiga yangi ma`no berdi, shartli reflekslarning vujudga kelish mexanizmlarini kashf etdi, yangi ilm yuksak nerv faoliyati fiziologiyasini vujudga keltirdi, bu nerv faoliyati fiziologiyasi materialistik psixologiyaning tabiiy-ilmiy asosi, poydevoridir.

I.P.Pavlov o`z tekshirishlarining psixologiya uchun ahamiyati borligini ko`rsatib o`tgan edi, «bizning tekshirishlarimiz, degan edi u, psixologlar uchun juda katta ahamiyatga ega bo`lishi kerak, chunki ular keyinchalik psixologiya ilmining asosiy poydevori bo`lishi kerak deb o`ylayman».

I.P.Pavlovning fikricha, yuksak nerv faoliyatining fiziologiyasi vujudga kelishi bilan, «psixologlar, nihoyat, o`zlari tekshiradigan asosiy hodisalarning umumiy mustahkam zaminiga, tabiiy sistemasiga ega bo`ladilar, shu bilan ularning odamdagi son-sanoqsiz, tartibsiz tuyg`ularini sistemaga solishlari oson bo`ladi.

L.S.Vigotskiyning mulohazasiga ko`ra, insonning psixik funksiyalarini yuksak, madaniy, quyi, tabiiy turlarga ajratishni kiritish mumkin, chunki ularning negizida ta`lim bilan insonning oliy nerv faoliyatida birinchi va ikkinchi signallar sistemasi o`zaro ta`sirining ifodalanishi yotadi.

Hozirgi davrda psixologiya fanida psixologik hodisalarni psixik jarayonlarga, holatlarga, shaxsning xususiyatlariga ajratish qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuvning mavjudligi B.G.Ananov tomonidan strukturaviy konsepsiyaning bir tajribasi sifatida qaraladi. Bu voqelik «hodisalarni bir qator jabhalari bilan to`ldirishga intilish psixofiziologik xususiyat kasb etib, psixik jarayonlar uchun dastlabki materiallarni to`plash imkoniyatini (idrok, tafakkur, hissiyot, iroda) beradi». Uning fikricha, dastlabki materiallar, bir tomondan, psixik funksiyalar (sensor, mnemik), xulqning, ikkinchi tomondan, elementar motivlari (ehtiyot, ustanovka) hisoblanadi. Olimning mulohazasicha, bu qo`shimchalar «genetik ma`no kasb etib, fiziologiyadan miya mexanizmlarini umumpsixologik va neyrohumoral regulyatorlarini qamrab olish psixologiyaga o`tishga imkon beradi». Lekin ushbu strukturaviy yondashuvning maxsus psixologik deb qarashdan qat`iy

nazar, hozirgi zamon sintetik insonshunosligi uchun umumiy ahamiyatli jihatni yuksaklikka ko'tarishga qodir emas.

Ongsizlik anglab bo'lmaydigan - aniq, ravshan anglash nazorati uchun predmet bo'la olmaydigan ko'plab psixik hodisalar to'plami. Ongda har bir daqiqada bir vaqtning o'zida cheklangan miqdordagi tasavvurlar bo'lishi mumkin. Bunda ushbu damdagi anglanmagan tasavvurlarni biz aniq ong zonasiga oson «chaqirishimiz» mumkin («xohlaganing uchun eslading»), lekin juda ko'plab psixik boshqarib turuvchilar (regulyatorlar) shunday ishlaydiki, bunda inson na faqat o'z-o'ziga hisob bermasligi mumkin, balki buni u hattoki xohlagan taqdirda ham uni qila olmaydi. Masalan, soatning aylana shakldagi siferlarini idrok qilayotganda bizning ko'z qobig'imizda aylana emas, balki ellips (agar soatga yondan qarasak) hosil bo'lishi mumkin, biroq soat qanday holda tursa ham biz siferlarni «aylana» sifatida idrok qilamiz. Na faqat subyekt idroki tomonidan anlay olmaydigan, balki psixologiyada yangi shug'ullanayotgan kishi uchun ham tushunarsiz bo'lgan bu geometrik ma'nodagi hol psixika mexanizmlari tufayli ro'y beradi (qarang: doimiylik idrok xossasi sifatida) hissiyotlarning ba'zi qismlari («yaxshi», «madaniyatlilik» bilan sig'isha olmaydiganlarini) ongdan siqib chiqariladi, lekin Z.Freyd ta'limotiga ko'ra, ular xatti-harakatni sezilarli holda boshqarishda davom etaveradi va hattoki ichki ziddiyatlarga va asab kasallariklarini ham keltirib chiqaradi. Psixoanalizning (bu termin freydzizm tomonidan mustahkam o'rnashib qolgan, shuning uchun har qanday psixika tahlilini (analizini) psixoanaliz deb atamaslik kerak) psixoterapevtik amaliyoti shunga asoslanganki, siqib chiqarilgan hissiyotlarni topib anglash predmetiga aylantirish lozim. Bu psixoanalitikdan juda katta va o'tkir mahoratni talab qiladi (o'zini shunday deb hisoblaydiganning ko'pchiligi, afsuski, nafaqat bu borada malakasiz, balki manfaatparast hamdir).

Inson psixikasi bilan yuksak tashkil topgan hayvon psixikasi orasida katta farqqa ega bo'lgan ijtimoiy voqelik hukm suradi. Hayvon o'z to'ldasidagi a'zolariga yaqqol holat bilan bog'liq bo'lgan, bevosita favquloddagi vaziyat bilan cheklangan hodisalar yuzasidan «o'zining tili»da xabar uzatishi odatiy hodisa.

Odam undan farqli o'laroq nutq vositasida o'z qabiladoshlariga o'tmish (xotiro), hozirgi davr va kelajak to'g'risida ma'lumot (axborot) berish hamda ijtimoiy turmush tajribalarini uzatish imkoniyatiga ega. Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida til tufayli aks ettirish (in'ikos qilish) imkoniyatlari qayta qurildi, oqibat natijada odam miyasida atrof-muhit timsollari, xususiyatlari aniqroq aks eta boshladi. Buning natijasida yakkahol shaxs kishilik dunyosi tomonidan orttirilgan tajribadan bahramand bo'la bordi, shuningdek, uning uchun noma'lum hisoblangan borliq hodisalari, holatlari, qonuniyatlari to'g'risidagi bilimlarga egalik qila boshladi. His-tuyg'ular, ichki kechinmalar, taassurotlar, hayajonga soluvchi nafosat timsollar yuzasidan zavqlanishi, maroq olish imkoniyatlari vujudga keldi, ularning mazmuni, ma'nosi, mohiyati bo'yicha o'ziga o'zi hisobot berish, ijobiy yoki salbiy ta'sir etishini baholash muammolarini keltirib chiqardi.

Hayvonot olami bilan insoniyatning xabar uzatish vositasi orasidagi farqi tafakkurda ham o'z aksini topadi. Chunki har qanday psixik funksiya boshqa turdagi, shakldagi, mazmundagi funksiyalar qobig'ida namoyon bo'ladi va muayyan shart-sharoitlar vujudga kelganida rivojlanadi. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlarda amaliy (sodda) tafakkur mavjud bo'lib, chamalash orqali mo'ljal olishga, favquloddagi vaziyat yuzaga keltirgan vazifani bajarishga yo'naltirilgandir. Hayvonlar, aniqrog'i maymunlar ayrim hollarda «qurol» yasash va undan muayyan masala hal etishda foydalanish hodisalari tajribalarda kuzatilgan, lekin ulardan birontasi tafakkurni mavhum tarzda amaliyotga tatbiq eta bilmagan. Holbuki shunday ekan, hayvonlar idrok qilish ko'lamidan tashqariga chiqish imkoniyatiga ega emas, binobarin, u yaqqollikdan mavhumlikka o'ta olmaydi, hatto bunday vaziyatni aks ettirish imkoni ham yo'q. Hayvon yaqqollik, bevosita idrok qilishlikni quli bo'lsa, aksincha inson mavhum fikrlashning gultojisidir. Inson bilan hayvon o'rtasidagi bu boradagi tafovut quyidagilarda mujassamlashadi: a) shaxsning xulq-atvori, faoliyati yaqqollikdan mavhum holatga o'tish imkoniyatiga ega; b) favquloddagi vaziyat munosabati tufayli vujudga kelishi ehtimol oqibatni oldindan payqash layoqati mavjud; v) qiyinchiliklar uchrasa, ularni yengish uchun qo'shimcha vositalar qo'llash, o'zgartirishlar kiritish

bilan ajralib turadi. Shuning uchun avtomobil ishdan chiqsa inson uni sozlaydi, yomg'ir yog'sa narsalarni panaga oladi, ayb ish qilib qo'ysa himoyalaniish yo'l-yo'riqlarini o'ylaydi, muammo yechimini qidiradi va hokazo. Shaxs favquloddagi vaziyatning quliga aylanmaydi, aksincha u kelajakni ko'ra bilishga qodir, aql-farosat esa bashorat qilish imkoniyatini yaratadi. Faoliyat mahsulini oldindan payqash, fe'l-atvor oqibatini ilgarilab ketib sezish uquviga egaligi bilan inson ustuvorlik qiladi. Hayvonlarning amaliy tafakkuri ularni yaqqol vaziyatdan bevosita ta'sirotda bo'ysunishni taqozo etadi. Shaxsni mavhum fikrlashga nisbatan qobiliyati muayyan vaziyatga bevosita bog'liqlikdan uni xalos etadi. Inson bevosita muhim ta'siriga javob berish bilan qanoatlanib qolmasdan, balki uni kutayotgan ta'sirini ham bartaraf etish qurbiga egadir. Inson psixikasi bilan hayvon psixikasi o'rtasidagi birinchi farq shaxsning o'zi anglagan qadriyatga binoan ongli xatti-harakat qilish qobiliyati mavjudligidir.

Shaxsning hayvondan ikkinchi farqi uning mehnat qurollarini yaratish va saqlashga layoqatli ekanligi bo'lib, oldindan tuzilgan reja bo'yicha ularni yasaydi va ulardan muayyan maqsadni amalga oshirishda foydalanadi hamda keyinchalik qo'llash niyatida asrab olib qo'yadi. Ulardan odamlar hamkorlikda foydalanadi, hamkorlik faoliyatida esa qurollar yaratiladi, o'zaro tajriba almashadi, bilimlarni boshqalarga uzatishadi, umumiy saviyaga vorislik tufayli yuksaladi.

Inson psixikasining hayvondan yana bir farqli tomoni shunda-ki, uning ijtimoiy tajribaning boshqalarga uzluksiz ravishda uzatishida aks etadi. Tajribalarni instinktiv xatti-harakatlar tarzida o'zlashtirish hodisasi ham insonga, ham hayvonga xos odatdir, lekin shaxsiy tajribaga ko'ra ijtimoiy tajribaning ustuvorligi odamning ongli mavjudodga aylanishining asosiy manbai hisoblanadi. Shaxsni ijtimoiy munosabat, ijtimoiy tajriba shakllantiradi, moddiy va ma'naviy qurollarni egallash natijasida unda yuksak insoniy funksiyalar (ixtiyoriy xotira, ixtiyoriy diqqat, mavhum tafakkur) vujudga keladi va rivojlana boradi. Subyekt tomonidan kishilik dunyosida yaratilgan madaniy merosni o'zlashtirilishi, ayrim o'zgartirishlar kiritilishi uning kamolotida sifat jihatidan yuksak bosqichni yuzaga keltiradi. Yuksak funksiyalar, nutqiy faoliyatning takomillashuvi, mehnatning

hayotiy ehtiyojga aylanishi, ertangi hayot to'g'risida mulohazalar tug'ilishi ongning rivojlanishi uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Shu bois inson bilan hayvon o'rtasidagi tafovut tajribaning vorislik funksiyasi kasb etishi bilan yakunlanadi. Jismoniy va aqliy faoliyat kundalik zaruratga aylanishi sababli ong bevosita nazorat funksiyasini bajara boshlaydi, shuningdek, jamiyat, jamoa, tabiat to'g'risidagi tasavvurlarini tushunishi, anglash ham uning tasarrufiga aylanadi.

### **3.3. Yuksak psixik funksiyalarning substrati-miya.**

#### **Psixikaning vazifasi**

Borliq voqeliklarini bir tekis in'ikos ettirish vositasi sifatida insonda his-tuyg'ular rivojlana boshlaydi. Inson bilan hayvonot olami orasidagi yana bir tafovut his-tuyg'ular orqali namoyon bo'ladi. Lekin atrof-muhitdagi o'zgarishlarga nisbatan befarqlik har ikkala toifadagi mavjudodlarda hukm surmaydi, biroq tashqi ta'sirlar ijobiy yoki salbiy hissiy qo'zg'atishni vujudga keltiradi. Emotsional holatlar hayvonlarda ustuvor rol o'ynaydi, o'zlarining ularga munosabatlarini bildiradi. Biroq hayvonlardan farqli o'laroq odam o'zining yuksak his-tuyg'ulari (axloqiy, aqliy, nafosat, praksik - lazzatlanish) bilan jamiyatga va tabiatga nisbatan munosabatini bildiradi, jumladan, quvonch, g'am-g'ussa, mehr-muhabbat, achinish, hamdardlik, zavqlanish, faxrlanish, iftixor va boshqalar. Tabiat manzaralari, mehnat mahsuli, turmush lahzalari, ezgulik, armon insonni faolikka undaydi, har bir soniyadan maqsadga muvofiq foydalanish xohishlari motiv vazifasini bajarishga o'tadi. Yuksak his-tuyg'ular inson xulq-atvorining regulyatoriga aylanadi. Undagi vijdon, uyat, mas'ullik esa qadriyat tariqasida xizmat qiladi. His-tuyg'ularni boshqarish, nazorat qilish onglilikni taqozo etadi, ko'zlangan maqsadni amalga oshirishni ta'minlashga yordam beradi.

Agarda psixikaning taraqqiyoti biologik evolyutsion qonunlar ta'siri bilan ro'y bergan bo'lsa, inson ongining rivojlanishi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot qonunlari tufayli amalga oshgan. Hayvon bilan odam psixikasidagi yana bir tafovut ularni rivojlanish shart-sharoitlarida ko'rinadi va muhit, munosabat, ta'sir orqali aks etadi. Shaxslararo munosabatga kirishmasdan turib, yuksak his-tuyg'ular

shakllanmaydi, yuksak psixik funksiyalar rivojlanmaydi, inson shaxsi kamol topmaydi. Odam faqat ijtimoiy muhitda, shaxslararo munosabatda insoniy fazilatlarni egallab, til, aql, ong yordamida kamol topadi, xolos. Shunga qaramasdan, ong paydo bo'lishining biologik shart-sharoitlari mavjudligi to'g'risida mulohaza yuritish mumkin. Chunki, dastlabki ijtimoiy munosabatlarning biologik shart-sharoiti ibtidoiy jamiyatdagi to'dadan iborat edi. Shaxsning biologik shartlangan jihatlaridan tashqari, uning ijtimoiy omillari ham mavjud bo'lib, u muayyan ma'noda ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Bunga ijtimoiy muhitdan tashqarida (o'rmonda) shakllangan inson farzandlarining qiyofasi yaqqol misoldir.

Muhitdagi keskin halokatli o'zgarishlar tufayli inson o'zining moddiy ehtiyojini qondirish maqsadida mehnat faoliyatini kashf etdi va u ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga, turmush shart-sharoiti yaxshilanishiga, ongning takomillashuviga, fikr almashish, axborot uzatish imkoniyatining tug'ilishiga olib keldi. Tartibsiz to'dalardan kishilik jamiyati paydo bo'lgunga qadar bir qancha davrlar o'tdi, odamning qo'li mo'jizakor ish qurollarini yasaydigan, ularni takomillashtiradigan, keyinchalik foydalanishi uchun asraydigan ongli mavjudodga o'sib o'tdi. Mehnat faoliyatida odamning ongi aks ettirishning yuksak shaklini egalladi, faoliyatning obyektiv xususiyatlarini farqlash, ularni maqsadga muvofiqlashtirish tufayli atrof-muhitni o'zgartirish, unga ta'sir o'tkazish qudrati, qobiliyati, layoqati vujudga kela boshladi. U faqat qurollardan muvaqqat foydalanishdan voz kechib, avlodlarga qoldirish, asrashni ong ta'sirida ro'yobga chiqara bordi, buning natijasida insonning har xil shakldagi faoliyati ongli faoliyatga aylandi, o'zaro munosabatlar mazmuni, ko'lami kengaya boshladi, shaxsiy mehnat ulushi jamoa ehtiyojini qondirishni asosiy manbaiga aylandi. Tabiatga ta'sir o'tkazish, uni o'zgartirish to'g'risidagi maqsad o'z funksiyasini o'zgartirdi, qo'l esa yangidan-yangi mo'jizalar ijodkoridan asta-sekin aks ettirish quroliga, sezish, payqash, paypaslash, his etish organi vazifasini bajarishga o'sib o'tdi.

Kishilik jamiyatida mehnat faoliyatining takomillashuvi, shaxslararo munosabatning yangi shakllarining paydo bo'lishi, til va nutqni vujudga keltiradi, ularning barchasini maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlovchi ong jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Ong faqat faoliyat, xulq-atvor, muomala, his-tuyg'ular regulyatori emas, balki yakkahol shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini to'g'ri amalga oshirishining asosiy manbai rolini bajara boshladi.

Shunday qilib, insonning ongi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli bo'lish bilan birga, u mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishda, hamkorlikdagi o'zaro ta'sirda, tabiatga, jamiyatga nisbatan munosabatlar mohiyatida vujudga kelgan. Buning mahsulasi, shakli sifatida individual, guruhiy, etnik (milliy), ijtimoiy ong namoyon bo'lgan va ularning barchasi taraqqiyot tufayli o'zining yangi bosqichlariga o'sib o'tgan hamda keyinchalik fan, texnika yaralishiga puxta zamin hozirlagan.

### **3.4. Ong va uning shakllari. Ong tushunish sifatida; refleksiya nisbatan qobiliyatlik, o'z-o'zini kuzatish, o'zligini anglash**

Psixikaning yuqori bosqichi faqat insongagina xos bo'lgan, uning eng yuksak darajasi hisoblanmish ongda o'z aksini topadi. Ong psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli hisoblanib, insonning yakka va hamkorlik faoliyatining (muloqot nutq, til vositasida, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida yuzaga kelgandir. U ijtimoiy mahsul bo'lishidan tashqari, unga muayyan munosabat bildirish maqsadni ko'zlash, o'zlikni anglash kabilarni namoyon etish imkoniyatiga egadir. Quyidagi mulohazalarimizda ongning tarkibiy qismlarining mohiyatini yorituvchi va ularning hukm surishiga ta'sir etuvchi omillarga doir ayrim manbalar xususiyatini tavsiflashga harakat qilamiz. Odatda, inson ongi uni qurshab turgan tevarak-atrof haqidagi bilimlar majmuasidan iborat bo'lib, uning tuzilishi tarkibiga shunday bilish jarayonlari kiradiki, qaysiki ularning bevosita yordami bilan shaxs o'z axborotlari ko'lamini uzluksiz ravishda boyitib boradi. Insondagi bilimlar sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol singari bilish jarayonlari asta-sekin ular anglashinish darajasiga ko'tariladi, keyinchalik esa muayyan

turkumlarning tarkibiga kiradi. Harakatli hissiy tub ma'nodagi hissiy bilish bosqichlariga taalluqli sezgi, idrok, appersepsiya, tanish, bilib olish va tasavvur kabi bilish jarayonlari ko'magi asosida miyaga bevosita ta'sir o'tkazuvchilarning aks ettirishi natijasida inson ongida borliqning mazkur daqiqasida shaxsning tasavvurida ularning hissiy manzarasi yuzaga keladi.

Xotira jarayoni ongda o'tmishdagi narsa va hodisalarining obrazlarini esga tushirsa u yoki bu bosh miya katta yarim sharlarining bo'limlarida aks etgan muayyan izlarni jonlantirish imkoniyatiga ega bo'lsa, xayol jarayoni esa ehtiyoj obykti hisoblangan favquloddagi davr hukmiga kirmagan obrazlar modelini namoyon etadi. Bilishning yuksak darajasi bo'lmish tafakkur jarayoni umumlashgan, ijtimoiy xususiyatli, bilvosita va so'z orqali ifodalanuvchi bilimlarga asoslangan holda gavdalanuvchi muammolar yechimini hal etishni ta'minlaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan bilish jarayonlarining unisi yoki bunisi aks ettirish imkoniyatidan mahrum bo'lishi, buzilishi yoki ularning qaysinisidir xususiyati batamom, qisman izdan chiqishi ongni tubdan barbod ettirish sari yetaklaydi. Ong psixologik tavsifining yana bittasi - bu unda subyekt bilan obyekt o'rtasidagi aniq farqlanishda o'z ifodasini topadi, ya'ni shaxs «Men» degan tushunchasi bilan «Men» emas atamasi tarkibiga nimalar tegishli, aloqador ekanligini aniq biladi. Tirik mavjudotlar olamida birinchi bo'lib, borliqda real uni qurshab turgan tevarak-atrofga nisbatan o'zini qarama-qarshi qo'ygan, yaratuvchanlik kuch-quvvatiga, o'zgartiruvchanlik imkoniyatiga asoslangan shaxs o'zi uchun, sifat jihatidan yuksak darajadagi makon vujudga keltirish uchun hayvonot dunyosini mangu tark etgan, xuddi shu boisdan jonivorlar bilan uning o'rtasidagi ziddiyat va tafovut ongida saqlanib kelmoqda. Tabiatning tarkibiy qismi hisoblangan inson sut emizuvchilar olamida tanho o'zini o'zi nazorat qilishga, o'zini o'zi bilishga, o'zini o'zi boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan jonli zotdir, binobarin, u psixik faoliyatni tashkil qilishga, maqsadga yo'naltirishga, o'zini o'zi tadqiq qilishga qodir mavjudoddir. Shaxs o'z xulq-atvorini, bilish jarayonlarini aqliy va ijodiy faoliyatini, irodaviy sifatlarini, ongli ravishda oqilona baholay oladi hamda o'zini o'zi boshqara biladi.



Har qaysi insonda hukm suruvchi «Men»likning «Men emas»likdan ajratishga intilish «o'zini namoyon qilish, o'zini o'zi ifodalash, kimligini kashf etish, o'zini o'zi takomillashtirish, o'ziga o'zi buyruq berish, o'ziga o'zi ta'sir o'tkazish singari jarayonlarda» ontogenetik hayotning dastlabki taraqqiyot pallasidan, bolalikning ilk daqiqalaridan boshlab, to yetuklikning u yoki bu bosqichlarini egallash davrigacha davom etib, o'zini o'zi anglashning yuzaga kelishi bilan yakunlanadi. Lekin «Men»lik muammosining boshqa qirralari xususiyatlari, mexanizmlari, ta'sir etuvchi omillari, yangi sifat darajalari o'zini o'zi anglashning takomil bosqichlarida namoyon bo'laveradi, bu jarayon komil inson (jismoniy va ma'naviy barkamollik) darajasiga erishgunga qadar davom etishi mumkin. Biroq yuksak kamolot darajasiga erishish shaxsning iste'dodi, salohiyati, ishchanlik qobiliyati, aqliy va ijodiy faoliyati mahsuldorligiga bog'liq bo'lib, barcha insonlar taraqqiyot cho'qqisiga erishadi, degan ma'noni anglatmaydi. Chunki ijtimoiy hayotdagi umumbashariy talab, ehtiyoj negizida muayyan hududiy qulay (senzitiv) ham obyektiv, ham subyektiv shart-sharoitlar taqozosi bilan jahon fani va madaniyatida keskin o'zgarishlar yaratishga qodir tarixiy yakka shaxs dunyoga keladi. Bizningcha, komil insoniylikka erishishning o'ziga xos axloqiy, aqliy, irodaviy, g'oyaviy tarkiblari mavjud bo'lib, tanlangan idealga intilish, kasbga sodiqlik, samoviy muhabbat uning negizini tashkil qiladi. Tashqi olam taassurotlaridan mutlaqo voz kechish (g'oyibonalik), fikriy soflikka erishish (chilla), tana a'zolarini musaffolashtirish (ortiqcha moddalardan tozalash), komfortga tortilganlik orqali shaxs oliy darajaga, ya'ni komillikka etishi mumkin, lekin bu bosqich nisbiy xususiyat kasb etadi.

Ongnin uchinchi psixologik tavsifi, shaxsning maqsadini ko'zlovchi faoliyatini ta'minlashga oid ta'rifni ifodalagan bo'lib, uning yana bir funksiyasi mazkur maqsadini yaratishga yo'naltirilganligi bilan boshqalardan farq qiladi. Ushbu jarayonda shaxs faoliyatining turli xususiyatli motivlari yuzaga keladi, ular inson tomonidan chamalab chiqiladi, buning natijasida motivlar kurashi namoyon bo'ladi, bu o'rinda ustuvorlikka erishish yetakchilikni ta'minlaydi, irodaviy zo'r berish oqibatida muayyan qonun qabul qilinadi, harakatlarni bajarishning izchilligi

qay yo'sinda amalga oshirilishi hisobga olinadi, maqsadni qaror toptirishga to'siq vazifasini o'tovchi fikriy g'ovlar (to'siqlar) bartaraf etiladi va unga mutanosib o'zgarishlar kiritiladi, samaradorlikni oshirish uchun ba'zi bir tuzatishlar amalga oshiriladi.

Maqsadni ko'zlovchi faoliyatning amalga oshirilishi jarayonida, uning muvofiqlashuvida, voqelikka yo'naltirilishida obyektiv va subyektiv sabablariga ko'ra ayrim nuqsonlarga yo'l qo'yilishi, buzilishi vujudga kelishi ong funksiyasining zaiflashuvini bildiradi. Faoliyat ongli munosabatni taqozo etganligi tufayli uning tarkibiy qismlari bajarilishida ayrim kamchilikka yo'l qo'yilsa, bu holat ongning nazorat funksiyasi izdan chiqqanligini anglatadi.

Ongning so'nggi (to'rtinchi) tavsifi, uning tarkibiga muayyan darajadagi, ma'lum tizimga xos emotsional (hissiy) munosabatlar qamrab olinganligini aks ettiradi. Shaxs ongiga muqarrar ravishda turli-tuman his-tuyg'ular (har xil darajali, ijobiy, salbiy, barqaror, statik, dinamik), kechinmalar, stress, affekt holatlar to'g'risidagi axborotlar oqimi kirib kela boshlaydi.

<b>ONGNING XARAKTERISTIKALARI</b>	
<b>ONG, ANGLASH</b>	Inson ongi tevarak-atrof, tashqi va insonning o'zining ichki dunyosiga oid bilimlar to'plami, yig'indisidan iboratdir. Agar inson tashqi olam va o'zi ichki dunyosi haqida bilimlarni o'zlashtirish va anglashdek muhim xususiyatdan mahrum bo'lganda, unda hech qanday bilim va ong shakllanmagan bo'lar edi. Bizning bilimlarimiz ongning birlamchi asosini tashkil qiladi. Bilimlar turli psixik jarayonlar (bilimlar sezgi, idrok, diqqat va h.k. yordamida o'zlashtiriladi, xotirada saqlanadi, tafakkur jarayonida tahlil qilinadi) yordamida o'zlashtiriladi va boyitib boriladi.
<b>SUBYEKT VA OBYEKTNI FARQLASH</b>	Ongning ikkinchi xarakteristikasi - unda <i>subyekt va obyekt</i> o'rtasidagi farq o'z ifodasini topadi. Inson o'zini boshqalardan va tashqi olamdan farqlaydi, unda " <b>men</b> " va " <b>men emas</b> " tushunchasi mavjud. Odam organik olam tarixida birinchi marta undan ajralib chiqdi va o'zini tashqi olam, tevarak-atrofdagi muhitga qarshi qo'yadi. Bunday xususiyatning paydo bo'lishining natijasi <i>insonning o'z-o'zini bilishi va o'zligini</i>

	<i>anglashida, o'z-o'zini baholashida</i> aks etadi.
MAQSAD QO'YISH	Ongning uchinchi xarakteristikasi - <i>maqsad qo'yish va maqsadga yo'nalganlik</i> bilan belgilanadi. Har qanday faoliyat maqsadini aniqlash ongning funksiyasi. Har qanday faoliyatni amalga oshirishda maqsad qo'yiladi, faoliyat motivlari yuzaga keladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarni bajarish yo'llari ishlab chiqiladi va sharoitni hisobga olgan holda zaruriy tuzatishlar kiritib boriladi. Ma'lum sabablar ta'sirida maqsad ko'zlash yoki uni boshqarish, koordinatsiya qilishdagi buzilishlar ongning buzilishiga olib keladi.
MUNOSABAT	Ongning to'rtinchi xarakteristikasi - unda odamning ma'lum <i>munosabatlari</i> aks etishida. Inson o'z atrofida bo'layotgan voqealarga, obyektiv borliqqa, o'z faoliyati va uning natijalariga adekvat munosabatda bo'ladi. Bu munosabat uning his-tuyg'ularida namoyon bo'ladi. His-tuyg'ular va munosabatlarning o'zgarishi, noadekvatligi ongning buzilishidan darak beradi.

Shaxsning boshqa kishilarga, tabiatga, jamiyatga, ashyolarga nisbatan munosabatlari mavjud mezonlarga asoslansa, muayyan qoidalarga bevosita amal qilinsa, har bir narsaga oqilona, odilona va omilkorlik bilan yondashilsa, ongning nazorat funksiyasi hukm surayotganligidan dalolat beradi.

Shaxsdagi mo'tadillik, ruhiy sog'lomlik ongning boshqaruv imkoniyati mavjudligini bildirib kelib, ayrim hollarda hissiyotga berilishi esa uning o'z funksiyasini bajarishdan chetlashganligini namoyish qiladi. Turli xususiyatli munosabatlar ong nazoratida amalga oshirilsa, shaxs xulq-atvorida, faoliyatida va muomala jarayonida, hech qanday nuqsonlar, chetga og'ishlar sodir bo'lmaydi. Shu narsani ta'kidlab o'tish o'rinliki, patologik holatlarni tahlil qilish, ong mohiyatining genezisini atroflicha anglab olishga xizmat qilishi mumkin. Shu boisdan ongning zaiflashuvi shaxsning his-tuyg'ulari va munosabatlarini o'zgartiradi: simpatiya antipatiya bilan, quvonch qayg'u bilan, optimizm pessimizm bilan vaqti-vaqti bilan o'rin almashib turishi kuzatiladi.

Ongning yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha funksiyalarini namoyon bo'lishining muqarrar sharti til va nutq hisoblanadi. Shaxs nutq faoliyati yordami

bilan bilimlarini o'zgartiradi, ajdodlar tomonidan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davomida yuzaga keltirilgan tajribalar majmuasi tilda mustahkamlanadi, u o'zining tafakkuri orqali hayoti va faoliyatini boyitadi. Til alohida obyektiv tizim sifatida namoyon bo'lib, unda ijtimoiy-tarixiy jarayonlarda vujudga kelgan an'analar, marosimlar, qadriyatlar, g'oyalar majmuasi tariqasida ijtimoiy ongda aks ettirilgandir. Psixologik talqinlarga qaraganda, alohida, yakkahol shaxs tomonidan egallangan til boyliklari, qoidalari ma'lum ma'noda uning yaqqol, individual ongi sifatida yuzaga keladi, shaxsiy hayoti va faoliyatini muvaffaqiyatlar amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Til bilan nutq borliqni anglashning aloqa quroli hamda vositasi funksiyasini bajarib, shaxsning boshqa mavjudodlaridan farqlash sharti hisoblanadi va unda til bilan tafakkur birligi ong uchun moddiy negiz vazifasida ishtirok etadi, qaysidir ma'noda mexanizm rolini bajarishi ham mumkin.

Shunday qilib, ontogeneza ongning paydo bo'lishi («Men» davrining boshlanishi), uning taraqqiyoti, tarkibiy qismlari, unda ijtimoiy muhitning, zarur shart-sharoitlarning roli, biologik va ijtimoiy shartlanganlikning ta'siri, tarbiyaning ustuvorligi to'g'risidagi ilmiy tadqiqot ishlari mazkur muammoning psixologik tavsifini ishlab chiqishga muhim negiz yaratdi.

### **3.5. Ongsizlikning onglilikdan farqi, ust onglilik holatlari, ong tuzilmasi, ongning tarkibi, aks ettiruvchanligi, ijodiylikning vujudga keltiruvchanligi**

Psixologiya fanining asosiy kategoriyalari ichida (shaxs, motivatsiya, faoliyat, muomala va hokazo) ong alohida o'rin egallaydi va u borliqda insonning yuksaklik darajasini egallashga muhim zamin, kafolat negizini yaratadi. Insonni hayvonot olamidan ajralib chiqishining bosh omili ham ong hisoblanadi, xuddi shu boisdan u taraqqiyot va kamolotning eng zarur mezoni, o'lchami sifatida muhim rol o'ynaydi. Psixologik nuqtai nazardan ong olib qaralganda, u ijtimoiy-tarixiy (filogenetik) va individual (ontogenetik) taraqqiyotning mahsuli hisoblanmish insongagina xos bo'lib, psixik aks ettirishning va o'zini o'zi boshqarishning yuksak darajasi sanaladi. Ong kategoriyasi amaliy jihatdan tavsif qilinganda: a) u

ham hissiy, ham aqliy obrazlarning uzluksiz ravishda o'zgarib turuvchi majmuasi sifatida, b) bevosita subyektning oldida uning «ichki tajribasi» tariqasida, v) amaliy faoliyatdan qutiluvchi mahsulni oldindan sezuvchi (payqovchi) psixologik hodisa tarzida hukm suradi.

Ong muammosi bir qancha fanlarning, jumladan, falsafa (uning asosiy masalasi - bu ongning turmushga nisbatan munosabatidan iboratdir), mantiq, lingvistika, etnografiya, antropologiya, sotsiologiya, neyrofiziologiya, pedagogika kabilarning tadqiqot predmetiga aylangandir.

Psixologiya fani individda ongning vujudga kelishi, uning tuzilishi, rivojlanishi va hukm surishini tadqiq qiladi. Ong predmetga faollik, yo'nalganlik, intensiellik xususiyatlariga ega:

a) ong doimo nimanidir tushunish sifatida; b) refleksiya nisbatan qobiliyatlilik; v) o'zini o'zi kuzatish, ya'ni o'zligini anglash; g) motivatsion - qadriy xususiyat yaqqollikning yoki ravshanlikning turlicha darajasi yoki bosqichi ekanligi.

Psixologik ma'lumotlarga qaraganda, har qaysi individning ongi noyob, betakror, ammo u ixtiyoriy emas, chunki birinchi navbatda maxsus tizimda hukm suruvchi tuzilish bilan unga bog'liq bo'lgan tashqi omillar hamda hech qanday aloqasi bo'lmagan omillar shartlangandir. Xuddi shu tufayli ongni tadqiq qilinishning ikkita muhim qiyinchiligi mavjud: a) barcha psixologik holatlar individning ko'z o'ngida shunday namoyon bo'ladikim, bunda birinchidan, ular qay tariqa anglashilmoqda (ongsizlikning roli qanchalik), ikkinchidan, anglash darajasiga yetkazishning maxsus tashqi va ichki mashqi natijasida inson tomonidan anglashiniladi, uchinchidan, bevositalikda ong funksiyasida yanglishlik vujudga keladi.

O'zini kuzatish natijalariga ko'ra, ong o'zining yaqqol psixologik o'ziga xosligidan mahrumdir, chunki uning yagona alomati shundan iboratki, bunda uning sharofati bilan individ oldida yaqqol psixologik funksiyalar mohiyatni yuzaga keltiruvchi turli holatlar, hodisalar namoyon bo'ladi. Xuddi shu boisdan ong psixika hukm surishining sifatga ega bo'lmagan umumiy sharti (sharoiti)

tariqasida talqin qilingan, buning natijasida u majoziy belgilangan. Jahon psixologiyasi fani konsepsiyalarida bu hodisa aksariyat hollarda «ongning nuri», «ongning maydoni», hatto «psixik funksiyalarning umumiy hokimi» kabi tahlil etilgan, goho u qaysidir psixik funksiyalar bilan g'ayritabiiy ravishda (qo'shimcha diqqat, tafakkur bilan) ayniylashtirilgan. Shu munosabati bilan birinchi galda ongni yaqqol o'rganish, tekshirish to'grisida umuman gap bo'lishi mumkin emas. Ikkinchi holda esa ushbu masala unga mutanosib funktsiya bilan almashtiriladi. Bunday talqinlarning barchasi shunday fikrni tug'diradiki, go'yoki ong ilmiy psixologiya fani uchun shunchaki qayd qilinish, ya'ni fiksiya, xolos (U.Jeyms). Ongni tadqiq qilishdagi ikkinchi qiyinchilik ham bevosita birinchisidan kelib chiqadi: a) ong bir qator psixik funksiyalar kabi tashqi fazoda lokalizatsiyalashmaydi; b) ong psixik funksiyalardan farqli o'laroq vaqtni (zamonni, davrni) muayyan qismlarga ajrata olmaydi. Tadqiqotchilar ongni o'rganish uchun ommabop, sodda psixologik metodlarning qo'llaganliklari tufayli uning ma'lum tavsifini topa olmadilar, jumladan, vaqtning aniq birliklari yordamida uni o'lchash, muayyan vaqt oralig'ida ongni solishtirish. Adabiyotlar tahlilining ko'rsatishicha, ongni konstruktiv tarzda talqin qilishning muhim jabhasi K.I.Kant tomonidan ko'tarilgan ongning barqaror, invariant tuzilishi va sxemasi mavjudligi, uzluksiz ravishda o'rin almashtirib turuvchi sensor oqim, axborotlar va uning muayyan darajada tashkil qiluvchanligi to'g'risidagi yuksak g'oyasi hisoblanadi. Bir necha asrlar davomida aylanib kelgan va bunda tabiiy-ilmiy materialistik yondashuv diniy nazariyalarga qarshi kurash olib borgan. Ong muammosining yechimida ilmiy dialektik materialistik ta'limot hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi, bu borada Gegel g'oyasiga e'tiroz muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ta'limotga binoan, ongning tuzilishi ijtimoiy-madaniy xususiyat kasb etib, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida filogenetik tarzda, ustuvor individualistik hamkorlik jarayonida ijtimoiy ustuvor individualistik tuzilishning ta'sirida, eng avvalo, ishlab chiqarish amaliyoti negizida u shakllangandir. Ilmiy dialektik ta'limotdan kelib chiqqan holda sobiq sho'ro psixologiyasida ongning

ontogenezda shakllanishi to'g'risida umumlashgan ilmiy nazariya ishlab chiqilgan. Umumlashgan nazariyaga binoan, individ ongining tuzilishi ontogenezning ilk davrida bolaning kattalar bilan muomala (muloqot) qilish faoliyatida o'zlashtirish (egallash, o'ziniki qilib olish, o'z ma'naviy dunyosiga aylantirish jarayoni)ning sharofati bilan shakllanadi. Bunday tarzda o'zlashtirishning qat'iyatlik imkoniyati filogenetik, tarixiy taraqqiyotning negizida ham mavjuddir. Predmetli faoliyatning atributi bo'lmish muomala, uning tuzilishi tarkibida aks etuvchi quyidagi asosiy xususiyatlarga, xossalarga egadir: 1) ijtimoiy kelib chiqishi va tuzilishi; 2) uning ijtimoiy reglamentatsiyasi; 3) ruhiy qurollar va alomatlar bilvositaligida ifodalanishi; 4) ikki subyektning o'zaro alohidaligi va betakrorligi; 5) obyektga yo'nalganligi kabilari.

Shaxslararo munosabatda hamkorlik faoliyatining tuzilishi ong strukturasi vujudga keltirib, uning quyidagi asosiy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi: a) ijtimoiy xususiyati, hatto simvolik va verbal tuzilishga ega bo'lgan belgilar bilvositalanganligini qamrab olinganligi; b) refleksiya, ya'ni o'zini o'zi tushunishga nisbatan qobiliyatlilik; v) ichki dialogizm, ya'ni ichki nutqqa, fikrlash mexanizmi negiziga qurilishi; g) predmetlilik, ya'ni har qanday psixologik holat muayyan yaqqol tasvirlarga va alomatlariga ega bo'lishligi va hokazo.

Endi ongning psixologik tavsifidan kelib chiqqan holda uning shakllari yuzasidan qisqacha mulohaza yuritamiz. Ongning genetik jihatdan talqini ongsizlik birlamchiligini bildirib, u o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini, inson faoliyati va xatti-harakatida muayyan darajada rol o'ynashini tan olishni taqozo etadi. Chunki inson ongining yuksakroq shakllari uzoq ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning keyingi davrida vujudga kelgandir. Xuddi shu boisdan ongning paydo bo'lishi to'g'risida mulohaza yuritilganda ijtimoiy borliq, ijtimoiy taraqqiyot, ularga nisbatan munosabat uslubi asosiy mezonlar vazifasini bajarib kelgan va hozir ham xuddi shunday bo'lib qolaveradi.

Psixologik talqinga ko'ra, ongsizlik, birinchidan, voqelikning hodisalari bilan shartlangan ruhiy jarayonlar, aktlar va holatlarning majmuasi; ikkinchidan, tashqi va ichki ta'sirlarga nisbatan subyektning o'ziga hech qanday hisobot bermasligi;

uchinchidan, psixik aks ettirishning shakli, ya'ni voqelikning obrazi: tasviri, timsoli va unga nisbatan subyektning munosabati refleksiyaning maxsus predmeti sifatida vujudga kelmaganligi; to'rtinchidan, qismlarga ajralmovchi yaxlitlik tarkibiga ega ekanligi va hokazo.

Ongsizlikning onglilikdan farqi shuki, uning tomonidan aks ettiriluvchi voqelik subyektning kechinmalari bilan, uning borliqqa munosabati bilan qo'shib, aralashib ketadi. Shuning uchun ongsizlikda subyekt tomonidan amalga oshiriluvchi xatti-harakatlar natijasini ixtiyoriy ravishda nazorat qilish va baholash imkoniyati mavjud emas. Ongsizlikda voqelik subyektning o'xshashlik, ayniyat singari mantiqiy shakllariga asoslanib aks ettiriladi.

Bu holat bevosita emotsional his qilish, emotsional yuqish va identifikatsiyalashga daxldorlik tuyg'usi orqali turlicha hodisalar o'zining tuzilishi, mohiyati jihatidan o'ziga xoslikdan qat'iy nazar bir tizimga birlashtiriladi, psixologik obyektlar o'rtasidagi u yoki bu xususiyatli alomatlar o'rtasidagi tafovutlar, mantiqiy qarama-qarshiliklar ochilmasdan namoyon bo'ladi, in'ikos etiladi.

Ongsizlikda o'tmish bilan kelajak ko'pincha bir davrda hukm surayotganday, go'yoki ular biron-bir psixik aktga bevosita birlashgan tarzda aks ettiriladi, bunga tush ko'rish jarayoni yorqin misoldir. Ongsizlik borliqni bola tomonidan bilishning ilk shakllarida, ibtidoiy tafakkurda, intuitsiyada, affektiv holatlarda, sarosimaga (panikaga) tushishda, gipnoz holatida, tush ko'rishda, odatiy harakatlarda, subsensor idrokda, ixtiyorsiz esda olib qolishda, shuningdek, intilishlarda, hissiyotda, xulq-atvorda ifodasini topib, ularning sabablari va oqibatlari shaxs tomonidan tubdan anglashilmaydi. Odatda, ongsizlikning namoyon bo'lishining to'rt turkumi psixologlar tomonidan tan olinib kelinmoqda.

Anglashilmagan motivlar va ma'no anglatuvchi ustanovkalar, odatda, ular shaxsga oid ma'no kasb etib, kelajakka xohish, istak orqali shartlangandirlar. Bunday holatlarning turkumi gipnoz holatidan chiqqan subyektning xatti-harakatini o'rganishda qo'lga kiritilgan, ushbu jarayonda unga aniq harakat dasturi orqali kuchli ta'sir o'tkazilgan (masalan, bozorga borish va aytilgan narsalarni



xarid qilish kabilar). Qo'yilgan dasturiy topshiriqlarni bajarish jarayonida inson o'z xulq-atvori sabablarini izohlay va tushuntira olish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Mazkur hodisalarning psixologik tabiatini psixoanalitik pozitsiyasidan turib tushuntirishga harakat qilgan Zigmund Freyd «ongsizlikning dinamik qisilishi» terminini fanga olib kiradi. Z.Freyd, ongsizlik deb, ijtimoiy normalar talabi bilan nizoli holat, qarama-qarshilik tufayli ongga kira olmagan, amalga oshmay qolgan mayllar qisilish mexanizmi yordami bilan begonlashib, individ yanglish aytgan so'zida, gapda yanglishib ketishida, tush ko'rishida va hokazolarda aks etishini tushunadi. Ongsizlikning shunga o'xshash tarzda namoyon bo'lish xususiyati shundan iboratki, subyektning amalga oshmay qolgan mayllari psixoterapevtik holatlar bilan sababiy bog'liqligini anglashi mazkur mayllar bilan shartlangan kechinmalarning yo'qolishiga olib kelmaydi (masalan, qo'rquvning yo'qolishiga), chunki anglanish subyekt tomonidan qandaydir u bilan yuz bermayotgan, go'yo shaxsga aloqasiz, begona hodisa sifatida idrok qilinadi.

Xulq-atvordagi ongsizlik samaradorligi ularni keltirib chiqaruvchi hodisalar shaxsning boshqa odamlar bilan hamkorlikda boshidan kechirishida (masalan, psixologik seans chog'ida) yoki guruhiiy psixoterapiya davrida o'zgalarda kechishida sodir bo'lsa individni qoniqtiradi. Chet el psixologiyasida, eng avvalo, Z.Freydning psixoanalizida va uning izdoshlari qarashlarida ongsizlikning yuzaga kelishini tor ma'noda, cheklanib tushunish uning dinamik jabhalarini shakllanishining bir tomonlama tahlil qilish bilan shartlanganligidir. Chunki, ongsizlikning ijtimoiy-tarixiy shartlanganligini tan olmaslik, ongsizlikning inson bilan borliqning o'zaro ta'siridan bevosita ajratib olmaslik bir qator anglashilmovchiliklarga olib keladi, ularni differensiyalash orqali shu kontekstdagina uning asl mohiyati, funksiyalari shaxs xulq-atvorida ochilishi mumkin, xolos. Bunday cheklanishlar rus psixologiyasida ustanovka nazariyasida, psixologik hodisalar o'rganishda faoliyatli yondashuvda psixikani dialektik materialistik tushunishdan kelib chiqqan holda anglashilmagan motivlarning funksiyalari, tabiati, ma'no anglatuvchi ustanovkalar inson hayotida shaxsiy ma'no kasb etuvchi g'oyalarida bartaraf qilib borildi.

Faoliyatni bajarish usullarining anglashilmovchi regulyatorlar uni kechishining barqaror va yo‘nalgan xususiyatini ta‘minlaydi. Ular avtomatlashgan va ixtiyorsiz harakatlar regulyatsiyasi negizida yotadi (masalan, topshiriqni yechish jarayoni) va anglashilmagan hodisalarni oldindan sezish, payqash obrazlari harakat usullari bilan shartlangan bo‘lib, turli vaziyatlardagi o‘tmish tajribalariga bevosita tayanadi. Avtomatlashgan odatiy xulq-atvor yo‘lida kutilmagan to‘siqlar paydo bo‘lganda ular subyekt tomonidan anglashinishi mumkin. Anglashilmagan avtomatlashgan xulqning psixofiziologik mexanizmlari to‘g‘risidagi ilmiy tasavvur, nazariya N.A.Bernshteynning «Xatti-harakat tuzilish darajalari» konsepsiyasida ishlab chiqilgan. Subsensor idrok qilishning vujudga kelishi. Ongsizlikning tabiati to‘g‘risidagi ilmiy tasavvurlarning tobora o‘sishi, uni paydo bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari, keltirib chiqaruvchi mexanizmlari va funksiyalari inson xulq-atvorining regulyatsiyasi, shaxs hayotining yaxlit obyektiv manzarasini yaratishning zarur shart-sharoiti hisoblandi. Lekin bu muammo hali to‘laqonli ilmiy ma‘lumotlarga ega emas, xuddi shu sababdan uning psixofiziologik asoslari, mexanizmlari harakatga keltiruvchi kuchlar to‘g‘risida atroflicha mulohaza yuritish imkoniyatini bermaydi.

### **Ongning tuzilishi**

#### **1. Ongning tarkibi:**

- a) obrazni his qilish imkoniyati;
- b) borliqdagi narsalarning qadr-qiymati;
- v) atrof -muhit obyektlarining ma‘no kasb etishi.

#### **2. Ongning funksiyalari:**

- a) aks ettiruvchanligi;
- b) ijodiylikning vujudga keltiruvchanligi;
- v) baholovchanligi;
- g) boshqaruvchanligi;
- d) refleksivligi;
- y) ma‘naviyligi.

#### **3. O‘zini o‘zi anglashning omillari:**

- a) oilaviy muhit ta'siri;
- b) milliy muhit va milliy til vositalari;
- v) ma'rifiy, ma'naviy, madaniy qurshov;
- g) maxsus hayotiy vaziyatlar va favqulodda hodisalar.

**4. Ongning xislatlari:**

- a) borliq obyektlari va jamiyat subyektlari bilan munosabat o'rganish;
- b) biosfera va neosfera hodisalarini anglash (tushunish, bilish);
- v) tabiiy va ijtimoiy holatlar hamda hodisalarga hamdardlik (empatiyaning namoyon bo'lishi).

**5. Ongning xususiyatlari:**

- a) reaktivligi;
- b) sezgirligi;
- v) refleksivligi;
- g) taraqqiyotning ixtiyorsizligi (spontanligi);
- d) polifonikligi;
- y) dialogizmga moyilligi.

**6. Ongning turlari:**

- a) individual;
- b) guruhiy;
- v) jamoaviy;
- g) etnik;
- d) milliy;
- y) ijtimoiy.

**Nazorat savollari:**

1. Ong paydo bo'lishining ijtimoiy-tarixiy mohiyati haqida nimalarni bilasiz?
2. Ong psixologik kategoriya sifatida deganda nimani tushuniladi?
3. Ong tuzilmasi to'grisida tushunchalarni izohlang?
4. Ongning shakllari haqida ma'lumot bering?
5. Ongning rivojlanishi o'ziga xosligi haqida gapirib bering?

## 4 -MAVZU. FAOLIYATNING PSIXOLOGIK TALQINI

*Tayanch tushunchalar: faoliyat, ehtiyoj, faollik, o'yin, o'qish, mehnat, motiv, interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, xulq-atvor, xatti-harakat, motiv, qiziqish.*

### 4.1. Faoliyat haqida tushuncha. Faoliyatning psixologik talqini

Psixologiya fanida hayvonlarning xatti-harakati (ularning qaysi taraqqiyot bosqichidan qat'iy nazar), xulq-atvorining yuzaga kelishi ko'p jihatdan ularni qurshab turgan makro, mikro muhitga bog'liq. Ularning namoyon bo'lishi biologik (tabiiy) shartlangan omillar, vositalar tomonidan belgilanadi va boshqarilib turiladi. Insonni hayvonot olamining xususiyatlari bilan qiyoslashga harakat qilsak, u holda mutlaqo boshqacha voqelikning shohidi bo'lishimiz mumkin. Chunonchi, shaxs o'zining faolligi bilan hayvonot olamidan farqli o'laroq ajralib turadi, mazkur harakatlantiruvchi kuch faollik ilk bolalik yoshidan e'tiboran ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida to'plangan insoniyatning tajribasiga va jamiyatning qonun-qoidalarini egallashga yo'naltirilgan bo'ladi. Uzoq davrlar davom etgan maxsus jarayonning ta'sirida sodda tarzdagi xatti-harakatda faollik ustuvorlik qilganligi tufayli o'zining yuqori bosqichiga o'sib o'tib, yangicha mazmun, mohiyat, shakl va sifat kashf etgan. Faollik negizida paydo bo'luvchi o'zgacha sifatni, o'ziga xoslikni egallagan xatti-harakatning yuksak ko'rinishi, faqat insongagina taalluqliligi orqali u psixologiya fanida faoliyat deb nomlana boshlandi. Faoliyat faollikning shaxsga xos turi sifatida vujudga kelib, u o'zining psixologik alomatlari bilan xatti-harakatdan tafovutlanadi. Uning farqli alomatlari tavsifi yuzasidan maqsadga muvofiq mulohazalar yuritish ayni muddaodir.

Birinchi, faoliyatning mazmuni to'la-to'kis uni yuzaga keltirgan tabiiy, biologik va ma'naviy ehtiyoj bilan shartlanmaganligi tufayli uning psixologik mexanizmi ham o'zgacha negizga qurilishi mumkin. Mabodo ehtiyoj motiv (lotincha, turtki, harakatga keltiruvchi degan ma'noni anglatadi) sifatida faoliyatga ichki turtki berib, uni jadallashtirishga, faollashtirishga erishsa, u vaziyatda faoliyatning mazmuni, shakllari ijtimoiy: shart-sharoit, talablar, zaruriyat, tajriba kabilar bilan belgilanadi. Shuni alohida ta'kidlash o'tish joizki, insonni mehnat

qilishga undagan motiv moddiy ovqatga nisbatan ehtiyoj vujudga kelishi tufayli tug`ilishi hodisasi muayyan darajada uchrab turadi. Aksariyat hollarda ishchi dastgohni ochlikning oldini olish uchun emas, balki jamiyat tomonidan mas`ul ijtimoiy vazifa sifatida belgilanganligi sababli boshqarishga qaror qiladi. Bundan ko`rinib turibdiki, ishchining mehnat faoliyati mazmuni moddiy ehtiyoj bilan emas, balki maqsad bilan belgilanadi, bu o`z navbatida maqsadning ijtimoiy negizida yotuvchi tayyorlash mas`ulligi bilan uyg`unlashib ketadi. Modomiki shunday ekan, odam nima uchun bunday yo`sinda xatti-harakat amalga oshirgani, uning nimani ko`zlab ish qilayotgani mos kelmaydi, chunki uni faollikka undovchi turtki, xohish-istak bilan faoliyatni yo`naltiruvchi aniq maqsad o`zaro mutanosib emas. Binobarin, faoliyat faollik manbai hisoblanmish ehtiyoj sifatida yuzaga kelgan tarzda faollikning yo`naltiruvchisi tariqasidagi anglanilgan maqsad bilan idora qilinadi.

Ikkinchidan, faoliyat muvaffaqiyatini ta`minlash uchun psixika narsa va hodisalarning xususiy obyektiv xossalarini aks ettirishi, qo`yilgan maqsadga erishish yo`l-yo`riqlarini aniqlab berishi joiz.

Uchinchidan, faoliyat shaxsning xulq-atvorini maqsadga qaratilgan harakatlarni ro`yobga chiqarish, yuzaga kelgan ehtiyojlarni va yordamga muhtojligi yo`q faollikning imkonini beradigan boshqarishni uddalashi lozim. Shuning uchun faoliyat bilish jarayonlarisiz, irodaviy zo`r berishsiz amalga oshishi amri mahol, chunki u har ikkala omil bilan uzviy aloqaga kirishganidagina yaratuvchanlik xususiyatini kasb etadi, xolos.

Odatda, faoliyatga ta`rif berilganda, birinchi galda anglashilgan maqsad bilan boshqarilishi, so`ngra psixik (ichki) va jismoniy (tashqi) faollikdan iborat ekanligi ta`kidlab o`tiladi. Lekin ushbu belgilar faoliyat ta`rifini mukammal tarzda ochib berishga qurbi yetadi, degan gap emas, albatta.

Inson faolligida anglanilgan maqsad mavjudligi to`g`risida mulohaza yuritish uchun har xil xususiyatli bir qancha omillarga murojaat qilishga to`g`ri keladi. Faoliyatning motivlari, ro`yobga chiqarish vositalari, axborot tanlash va uni qayta ishlash anglanilgan yoki anglanilmagan, ba`zan anglanilganlik noto`kis, hatto u

noto`g`ri bo`lishi mumkin. Jumladan: a) maktabgacha yoshdagi bola o`yin faoliyatiga nisbatan ehtiyojini goho anglaydi, xolos; b) boshlang`ich sinf o`quvchisi o`quv motivlarini hamisha ham anglash qurbiga ega bo`lmaydi; v) o`smir ham xulq motivlarini noto`kis va noto`g`ri anglashi mumkin; g) hatto voyaga yetgan odam ba`zan xulq motivini noo`rin xaspo`shlashga intiladi. Bundan tashqari, hatto faoliyatni amalga oshirishni rejalashtirish, uni ro`yobga chiqarish uchun qaror qabul qilish, mahsulani taxminlash, xulosa chiqarish ham anglanilganlik kafolatiga ega emasdir. Chunki faoliyatni ro`yobga chiqaruvchi harakatning aksariyati ong tomonidan boshqarilmaydi, jumladan, velosiped uchish, kuy chalish, kitob o`qish, telefon qilish odatiy hodisadir.

Shuni uqtirib o`tish lozimki, faoliyatning jabhalarini ongda aks darajasi va mukammalligi uning anglanilganligi ko`rsatkichi mezoni hisoblanadi. Lekin faoliyatning anglanganligi darajasi keng ko`lamli bo`lishiga qaramasdan, maqsadni ko`zlash (anglash) uning ustuvor belgisi vazifasini o`ynayveradi. Faoliyatda maqsadni anglash ishtirok etmasa, unda u ixtiyorsiz (impulsiv) xatti-harakatga aylanib qoladi va bunday holat ko`pincha hissiyot bilan boshqariladi. Jahl, g`azab (affekt), kuchli ehtiros holatlari yuz bergan odam ixtiyorsiz harakat qiladi. Biroq xatti-harakat ixtiyorsizligi uning anglanilmaganligini bildirmaydi, aksincha bunda inson motivining shaxsiy jabhasi anglanilgan bo`ladi, uning ijtimoiy mazmuni esa qamrab olinmaydi.

Faoliyatning tuzilishi. Voqelikka nisbatan munosabatning muhim shakli sifatidagi faoliyat inson bilan uni qurshab turgan olam (borliq) orasida bevosita aloqa o`rnatadi. Tabiatga, narsalarga o`zga odamlar ta`sir ko`rsatishi ham faoliyatning qudrati bilan ro`yobga chiqadi. Inson faoliyatda narsalarga nisbatan subyekt sifatida, shaxslararo munosabatda esa shaxs tariqasida gavdalanadi hamda imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga musharraf bo`ladi. Uning natijasida ikkiyoqlama bog`lanish uzluksiz harakatga kirishi, to`g`ri va teskari aloqa o`rnatishi tufayli inson narsalarning, odamlarning, tabiat va jamiyatning o`ziga xos xususiyatlari to`g`risida ma`lumot to`playdi. Har xil xususiyatli o`zaro

munosabatlar negizida faoliyat subyekti uchun narsalar subyektlar sifatida, odamlar esa shaxs timsolida aks eta boshlaydi.

Inson faoliyatga yo`naltirilgan maqsadga erishish uchun shu yo`lda harakat qilishi tufayli xususiy vazifalarni bajarishga kirishadi. U o`z oldida turgan maqsadni amalga oshirish uchun ma`lum vaqt oralig`ida u yoki bu amalni bajaradi. Biror matni kompyuterda tayyorlash uchun inson oldin uni elektr tokiga ulaydi, ekranni ishga sozlaydi, uning tugmachalarini bosish orqali harf va so`zlarni teradi, so`ngra ma`lum ma`no anglatuvchi matn paydo bo`ladi.

Psixologiyada faoliyatning alohida bir xususiy vazifasini bajarishga mo`ljallangan, nisbatan tugallangan qismi (unsuri), tarkibi harakat deb nomlanadi. Masalan, kompyuter texnikasidan foydalanish harakatlari amalga oshiriladigan ishlardan tarkib topadi. Harakatlar natijasida odam borliqdagi narsalar xususiyati, holati, fazoviy joylashuvini o`zgartiradi. Mazkur jarayon nafaqat harakat yordami bilan, balki muayyan sa`y-harakatlar tufayli yuzaga keladi. Duradgor eshik yasamoqchi bo`lsa, avval munosib material tanlaydi, ularni o`lchaydi, unsurlarini sanaydi, randalaydi, qismlarni bir-biriga joylashtiradi, yopishtiradi, unga parдоз beradi, oshiq-moshiq qoqadi, kesaki o`rnatadi, ochib yopilishini tekshiradi va hokazo. Keltirilgan misoldan ko`rinib turibdiki, duradgorning gavdasi, oyoq-qo`llari, boshining tutishi sa`y-harakatlari bilan birga «tanlash», «ishlov berish», «o`rnatish» amal qismlari majmuasi faoliyatni tarkib toptiradi. Sa`y-harakatning harakatdan farqli tomonlari uning aniqligi, maqsadga yo`nalganligi, epchilligi, uyg`unligi singari belgilarida o`z ifodasini topadi.

Inson faoliyatida narsalarni o`zlashtirishga yo`naltirilgan sa`y-harakatlardan tashqari: a) tananing fazoviy holati; b) qiyofaning saqlanishi (tik turish, o`tirish); v) joy almashish (yurish, yugurish); g) aloqa vositalari sa`y-harakatlari qatnashadi. Odatda, aloqa vositalari tarkibiga: a) ifodali sa`y-harakatlar (imo-ishora, pantomimika); b) ma`noli ishoralar; v) nutqiy sa`y-harakatlar kiritadi. Sa`y-harakatlarning ushbu turlarida ta`kidlab o`tilganlardan tashqari mushaklar, hiqildoq, tovush paychalari, nafas olish a`zolari ishtirok etadi. Demak, narsalarni o`zlashtirishga qaratilgan harakatning ishga tushishi muayyan sa`y-harakatlar

tizimining amalga oshirilishini anglatadi. Bu hodisa ko'p jihatdan harakatning maqsadiga, ta'sir o'tkaziladigan narsalarning xususiyatlariga va harakatning amalga oshishi shart-sharoitlariga bog'liq. Jumladan, a) kitobni olish qalamni olishdan boshqacharoq tarzda sa'y-harakatni taqozo etadi; b) avtomobilni haydash velosipedda uchishga qaraganda ayricha sa'y-harakat talab qiladi; v) ellik kg shtangani ko'tarishda bir tonnaga qaraganda ko'proq quvvat sarflanadi; g) kartonga katta shaklni yopishtirishga qaraganda kichik shaklni joylashtirish qiyin kechadi.

Yuqorida keltirilgan misollar turlicha obyektlarga taalluqli bo'lishiga qaramay, ularda harakatning maqsadi yagonadir. Obyektlarning turlicha ekanligi sa'y-harakatlarning oldiga va mushak faoliyati tuzilishiga har xil talablarni, tizimni qo'yadi. Ushbu voqelik rus olimlari P.K.Anoxin, N.A.Bernshteyn, E.A.Asratyanlarning tadqiqotlarida dalillab berilgan. Ularning umumiy mulohazalariga qaraganda, mushaklarning faoliyati sa'y-harakat vazifasi bilan emas, balki mazkur sa'y-harakat ro'y beradigan shart-sharoitlar bilan boshqarilishi mumkin. Mushaklar bu o'rinda sa'y-harakatlarning yo'nalishini va tezligini ta'minlash uchun xizmat qiladi, har xil qarshiliklarni (hajm, kuch, vazn ta'siri) muayyan darajada susaytiradi.

Sa'y-harakatlarning amalga oshirilishi beto'xtov ravishda nazorat qilinadi, uning mahsulati harakatning pirovard maqsadi bilan qiyoslanadi va unga ayrim tuzatishlar kiritiladi, xuddi shu tarzda boshqaruv betinim takrorlanaveradi, harakatni nazorat qilish jarayoni esa sezgi a'zolari yordami bilan vujudga keladi. Sa'y-harakatning sensor (sezgi a'zolari yordamida) nazorat qilishning isboti uning oynadagi o'z aksiga qarab chizishda o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, oynada qalamning odam qo'li harakat yo'nalishi bo'yicha emas, balki qarama-qarshi tomonga harakatlanayotganday tuyuladi. Inson ko'rish orqali mashqlanishi tufayli ma'lumotlardan foydalanish bilan harakatni muvofiqlashtirishni uddalaydi.

Sa'y-harakatlarning nazorat qilish jarayoni va ularni boshqarish teskari aloqa printsipiga binoan ro'yobga chiqadi. Ushbu hodisani amalga oshish imkoniyati quyidagi omillarga bevosita bog'liq holda kechadi: a) sezgi a'zolari aloqa kanali



vazifasini bajargan taqdirda; b) ular axborot manbai sifatida harakat rolini o`ynaganda; v) sa`y-harakatlarni aks ettiruvchi alomatlar bu jarayonda xabar yetkazuvchi sifatida qatnashganida va boshqalar. Ta`kidlab o`tilgan omillar orqali amalga oshadigan teskari aloqaning bunday shaklini (ko`rinishini) rus tadqiqotchi P.K.Anoxin teskari afferentatsiya deb atagan. Afferentatsiya (lotincha gogepz keltiruvchi degan ma`no anglatadi) hamda tashqi qo`zg`atuvchilardan hamda ichki organlardan, axborotni qabul qiluvchi hissiy a`zoldan markaziy nerv sistemasiga kelib tushuvchi nerv impulslarining doimiy oqimini bildiradi. To`g`ri aloqa axborotlarining tashqaridan kirib borishini anglatib kelsa, teskari afferentatsiya uning aks holatini aks ettiradi. Sa`y-harakatlarning hammasi ham organlarning faoliyatini tushuntirish uchun xizmat qiladi va nazorat (boshqaruv) jarayoni qanday kechishini tahlil etish imkoniyatiga ega.

Narsaga yo`naltirilgan harakatning ishga tushishi muayyan bir tizimga taalluqli sa`y-harakatlarning natijaga (mahsulaga) erishishini ta`minlash bilan cheklanib qolmaydi. Balki u (harakat), birinchidan, sa`y-harakatlarning mahsulalari mos ravishda, ikkinchidan, harakatlar obyektning xususiyatlariga mutanosiblikda, uchinchidan, sa`y-harakatlarni hissiy nazorat qilishni amalga oshirgan yo`sinda ularga ba`zi bir tuzatishlar kiritadi. Ushbu jarayonni osonroq tushunish uchun uning negizi: a) tashqi muhitning holati, b) muhitda harakatlarning vujudga kelishi, v) natijalar (mahsulalar) to`g`risida miyaga axborot beruvchi hissiy mo`ljallarni egallash mujassamlashtiradi. Masalan, haydovchi avtobusni to`xtatish tepkisini bosish kuchini, uning harakati tezligi, shoh ko`chaning holati, avtobusning vazni, harakat qatnovi, piyodalar gavjumligi bilan so`zsiz moslashtiradi.

Holbuki shunday ekan, faoliyat tarkibiga kiruvchi sa`y-harakatlar tizimi oxir-oqibatda mazkur harakatning maqsadi bilan nazorat qilinadi, baholanadi va to`g`rilab turiladi. Maqsad miyada faoliyatning bo`lg`usi mahsulalarning timsoli, o`zgaruvchan andazasi tarzida vujudga kelishi mumkin. Ezgu niyatga aylangan bo`lg`usi andoza bilan harakatning amaliy natijasi qiyoslanadi, o`z navbatida andoza sa`y-harakatni yo`naltirib turadi. Ana shu holatning turlicha psixofiziologik

talqinlari mavjud bo`lib, ular «bo`lg`usi harakat modellari», «sa`y-harakat dasturi», «maqsadning dasturi», «miyada harakatning o`zi oldindan hosil qiladigan andozalari» singari tushunchalarda o`z ifodasini topadi. Jumladan, ularning eng muhimlari: «harakat aktseptori» va «ilgarilab aks ettirish» (P.K.Anoxin), «harakatlantiruvchi vazifa» va «bo`lg`usi ehtiyoj andozasi» (N.A.Bernshteyn), «zaruriy mohiyat» va «kelajak andozasi» (Mittelshtedt, U.Eshbi) va boshqalar. Sanab o`tilgan tadqiqotchilarning talqinlari ilmiy faraz (taxmin) tarzida berilganligi tufayli ular miyada qanday aks etilishi mumkinligini mukammal bilishga qodir emasmiz. Lekin ularning miyada ilgarilab aks ettirish to`g`risidagi mulohazalari, bu borada tasavvurlarning yaratilishi psixologiya fani uchun ijobiy ilmiy voqelik bo`lib hisoblanadi.

#### **4.2. Faoliyatning turlari. O`yin faoliyatining o`ziga xos jihatlari**

Faoliyat jahon psixologiyasi fanining asosiy (fundamental) tushunchalaridan biri hisoblanib, ko`pincha psixologik kategoriya sifatida olib qaraladi. Shuning bilan birga ushbu tushuncha haddan ziyod keng ma`noli va ko`p ahamiyatli tarzda foydalanilganligi tufayli uning mohiyati yoyiq bo`lib boradi, natijada qiymati asl mazmunini yo`qotadi. Xuddi shu boisdan psixologiyada faoliyat uchun umumiy qabul qilingan definitsiya mavjud emas, foydalanib kelinayotgan tuzilma, ta`rif esa ko`p hollarda tanqidga uchraydi. Holbuki shunday ekan, semantik tahlil o`tkazish orqali faoliyatga nisbatan turlicha qarashlarni umumlashtirish, o`zaro taqqoslash zaruriyati aniqlangan bo`lar edi, bu esa o`z navbatida uning (faoliyatning) ilmiy psixologik obyektiga aylantirishi unga aloqador tushunchalar tarkibini mukammallashtirish imkoniyatini vujudga keltiradi. Ensiklopediya, izohli lug`at va lingvistik so`zliklardagi ma`lumotlar, ilmiy matnlar tahlilining ko`rsatishicha, faoliyat tushunchasi falsafa, fiziologiya, sotsiologiya, psixologiya fanlari predmetidan kelib chiqib, o`zaro qorishish oqibatida mehnat, ish, aktivlik, xulq singari to`rt xil tavsifga ega bo`lgan.

I.M.Sechenov fiziologik organlar va tizimlar faolligi yoki ishi to`g`risida tasavvurga ega bo`lgan, shu sababdan uning asarlarida «tafakkurning faol shakli»,

«tafakkur faoliyati», «miya faoliyati», «muskul faoliyati» soʻz birikmalari keng koʻlamda joy egallagan. I.P.Pavlov tomonidan «oliy nerv faoliyati», N.A.Bernshteyn esa «fiziologiya faolliigi» atamasi fan olamiga olib kirgan. Lekin N.A.Bernshteyn faollik, faoliyat, ish, mehnat tushunchalarini maʼnosiga koʻra farqlagan boʻlishiga qaramay, u aksariyat hollarda faollikni faoliyat maʼnosida qoʻllagan.

Psixofiziologiyada faoliyat faollikni fiziologik maʼnosi sifatida talqin qilingan boʻlsa, ish, mehnat faoliyati «mehnat faolliigi» mazmunida qoʻllanadi. Ijtimoiy psixologiyada «faoliyat-faollik-ish-mehnat», «faoliyat-xulq», «mehnat-xulq-faoliyat» koʻrinishlari juftligi uchrab turadi. S.L.Rubinshteyn ong va faoliyat birligi printsiptini ilgari surib va atroflicha asoslab berib, faoliyat psixologiyasini yaratish zaruriyatini tushuntira oldi. Uningcha, mehnat psixologik emas, balki «ijtimoiy kategoriya», psixologiya esa «mehnat faoliyatining psixologik jabhalarini» tadqiq etadi. Psixiklilikning namoyon boʻlishi yoki hukm surishining obyektiv shakli xulqda, faoliyatda ifodalanadi (aks ettirish harakati maʼnosida).

A.N.Leontev faoliyatning psixologik nazariyasini yaratib, uning asosiy tushunchasi sifatida «predmetli faoliyat» soʻz birikmasini fanga olib kirdi. Muallif tomonidan «odamning hissiy-amaliy faoliyati» soʻz birikmasi «ijtimoiy inson» sifatida talqin etiladi. Uning asarlarida «faoliyat», «xulq» tushunchalari har xil mazmunda ishlatiladi, jumladan, «teskari aloqalar vositasida xulqni boshqarish», «faoliyatning halqali tuzilishi», «faoliyatni boshqarish», «qoʻlning tuyush faoliyati», «perseptiv faoliyat», «retseptor va effektor apparatlarning hamkorlik faoliyati» kabilar.

B.G.Ananev faoliyat psixologiyasini faollik psixologiyasi maʼnosida tushunadi. Uning fikricha, bilish va muomala faoliyatning birlamchi koʻrinishidir. Tadqiqotchi «inson faoliyati», «tashkiliy ish», «tashkilotchilik faoliyati», «xulq jarayonining algoritmlari» atamalaridan har xil maʼnoda foydalanadi.

### **4.3. O'qish faoliyati, uning komponentlari va psixologik xususiyatlari.**

#### **Mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlari**

Yuqoridagi mulohazalardan ko`rinib turibdiki, miyani ilgari aks ettirish imkoniyati va hali amalga oshirilmagan harakatning natijasi inson psixikasida qay tarzda in`ikos etilishi kuchli qiziqish uyg`otadi. Bu hodisani izohlashning yagona yo`li - u ham bo`lsa borliqning muhim xususiyati hisoblanmish qonuniyatning mavjudligidir. Borliqdagi qariyb (neosfera hisobga olinmaganda) barcha narsalar, munosabatlar, xususiyatlar, shart-sharoitlar, tuzilmalar bir-biri bilan doimiy bog`liqlikka ega bo`lib, muayyan qonuniyat asosida harakatlanadi, bir holatdan ikkinchisiga o`tadi. Shuning uchun idishdagi suv qaynatilsa bug`ga aylanadi, harorat pasaysa, u muzlaydi, havo isiganida esa muz eriy boshlaydi, bahor ketidan yoz keladi, narsalar ishqalansa qiziydi va hokazo. Xuddi shu bois obyekt bilan hodisa o`rtasidagi o`zgarmas, barqaror munosabatlar, obyektning muhim xususiyatlari hodisaning qonuniyati deyiladi. Ularda o`zgarmas xususiyatlar va qonuniyatlarning mavjudligi o`zgarishlarni oldindan payqash, harakatlarni muvofiq yo`naltirish imkonini vujudga keltiradi. Tashqi, yaqqol faoliyat favquloddagi davrda ichki timsoliy (psixik) faoliyat tarzida his yetiladi. Obyektlarga yo`naltirilgan yaqqol harakatlar ularning muhim xususiyatlariga mo`ljallangan timsoliy jarayon bilan almashtiriladi. Xuddi shu sababdan tashqi, yaqqol harakatdan, ichki, timsoliy harakatga mana shu tarzda o`tish jarayoni interiorizatsiya (ichki tarzga aylanish) deb ataladi. Interiorizatsiya muammosi rus olimlari L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, P.Ya.Galperin va ularning shogirdlari tomonidan turli jabhalarda tadqiqot qilingan. Interiorizatsiya sharofati bilan inson psixikasi muayyan vaqt oralig`ida uning idrok maydonida yo`q narsalarning timsoli (obrazi)dan foydalanish qurbiga ega bo`ldi. Shu narsa ma`lumki, bunday o`zgarishlarning muhim quroli bo`lib so`z, o`zgarish vositasi sifatida nutqiy faoliyat xizmat qiladi. Shuning uchun so`zlarni to`g`ri ishlatishga odatlanish favqulodda buyumlarning muhim xususiyatlarini axborotidan foydalanishning usullarini o`zlashtirish demakdir.

Inson faoliyati murakkab va o`ziga xos jarayon bo`lib, shunchaki ehtiyojlarni qondirishdan iborat emas, balki ko`pincha jamiyatning maqsadi va talablari bilan belgilanadi. Xuddi shu boisdan qo`yilgan maqsadning anglanilganligi va unga erishish bo`yicha ish harakatlari tajribasi bilan bog`liq ekanligi inson faoliyatining o`ziga xos belgisi bo`lishini tasdiqlaydi.

Shuning uchun shaxs faoliyatining jismoniy (tashqi) va psixik (ichki) tuzilmalari bir-biri bilan uyg`unlashganligi ko`zga tashlanadi. Inson faoliyatining tashqi jabhasi uning atrof-muhitga ta`sir ko`rsatishga mo`ljallangan sa`y-harakatlar ichki (psixik) jihatiga bog`liq bo`lib, ularni motivlashtiradi, bilishga undaydi va boshqaradi. Shuningdek, tashqi jabha o`z navbatida: a) psixik faoliyat buyumlar va jarayonlar xususiyatlarini o`zida namoyon qiladi; b) ularning maqsadga muvofiq tarzda qayta o`zgartirilishini amalga oshiradi; v) psixik andozalar o`xshashligini, natijalar va harakatlarning kutilmalariga muvofiqligini ko`rsatadi; g) ularni uzluksiz ravishda yo`naltirib va nazorat qilib turadi. Shunga muvofiq ravishda tashqi, yaqqol faoliyatni ham ichki (psixik) faoliyatning eksteriorizatsiyalashuvi (tashqi tarzga aylanishi) deb baholash maqsadga muvofiq.

Psixologiya fanida harakat tushunchasi tahlil qilinganida u motor (jismoniy) harakat, sensor (hissiy) harakat va markaziy qismga ajratiladi. Shunga muvofiq ravishda ajratilgan tarkiblar harakatni amalga oshirish jarayonida bajaradigan ishlarni ijro etish, nazorat qilish va boshqarish bilan shug`ullanadi. Faoliyat harakatlarining ijro etish, nazorat qilish va boshqarishda qo`llaniladigan yo`l-yo`riqlar uning usullari deyiladi.

Odatda, harakatlar anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda amalga oshirilishi kuzatiladi. Harakatni bajarishda ong borgan sari kamroq ishtirok etishi tufayli ishni amalga oshirish avtomatlasha boshlaydi, ayrim mayda-chuyda qismlarga nisbatan e`tibor (nazorat) kamayadi. Shuning uchun inson faoliyatida maqsadga yo`naltirilgan sa`y-harakatlarni ijro etish va boshqarishning muayyan darajada avtomatlashuvi malaka deyiladi. Xuddi shu boisdan harakatlarni boshqarish bilan sa`y-harakatlarni boshqarish aynan bir narsa emas, albatta. Chunki sa`y-harakatlarning yuksak darajada avtomatlashuvi uning o`z tarkibidagi harakatni

ongli ravishda idora qilish bilan uyg'unlashib ketadi. Patologik holatlardan tashqari, barcha faoliyat turlari ong bilan boshqarilib turadi. Harakat tarkiblarining avtomatlashuvi: birinchidan, ongli ravishda yo'naltirilgan obyektни almashtiradi. Ikkinchidan, harakatning umumiy maqsadlarini, uning ijro etilishi shart-sharoitlarini, natijalarini nazorat qilishni, uchinchidan, ularni baholashni ong uning tasarrufi doirasiga kiritadi.

Malakaning tuzilishi. Harakatning qisman avtomatlashuvi tufayli uning tuzilishida ayrim sifat o'zgarishlari yuz beradi va ular quyidagilardan tashkil topgandir:

Birinchidan, sa'y-harakatlarning ijro etilishi usullari o'zgaradi. Bunda bir qator sodda sa'y-harakatlar yagona jarayonga (tarkibga) kiruvchi ba'zi sodda sa'y-harakatlar o'rtasida to'siq va uzilish ro'y bermagan murakkab sa'y-harakat o'zaro bir-biriga qo'shib ketadi, ortiqchalari esa bartaraf etiladi.

Masalan, bola velosipedni uchishga o'rganayotgan paytida bir qancha ortiqcha harakatlarni amalga oshiradi: o'zini bir tekis tuta olmaydi, pedalni birini bosib, ikkinchisini bosmaydi, rulni qattiq tutadi, yo'lga diqqatini taqsimlay olmaydi, o'rindiqqa noqulay o'tiradi, birovning yordamiga tayanadi. Malakali velosiped haydovchisi harakatni silliq bajaradi, ortiqcha urinishlarga yo'l qo'ymaydi. Harakatlarni o'zlashtirish jarayonida: a) sa'y-harakatlar tarkibi; b) sa'y-harakatlar izchilligi; v) sa'y-harakatlar uyg'unligi; g) ularning tezligi rejali kechishiga sharoit yuzaga keladi.

Ikkinchidan, harakatni sensor (hissiy) nazorat qilish usullari o'zgaradi. Dastavval, sa'y-harakatlar amalga oshishini ko'rish organi orqali nazorat qilish kinestetik (mushaklar yordamida harakat) nazorat bilan almashadi. Chunonchi, charxchi asbobning tezligiga emas, balki ko'proq pichoq tig'iga e'tibor qaratadi. Sa'y-harakatlarning xususiyatini aniqlovchi har xil o'lchamlarining nisbatini baholash imkonini vujudga keltiradigan sensor sintezlar (yunoncha - uyushma demakdir) hosil bo'ladi. Harakat mahsullarini nazorat qilishga alohida ahamiyat kasb etadigan mo'ljallarni farqlash va ajratish uquvchanligi insonda rivojlanadi.

Uchinchidan, harakatni markazdan turib boshqarish usullari o`zgarib boradi. Harakat usullarini idrok etishdan diqqat xoli bo`lib, u uning vaziyati va mahsulatisiga qaratilgandir. Topshiriq yechimlari, aqliy faoliyat jarayonlari tezkorlikda, hamkorlikda bajarila boshlaydi. Jumladan, uchuvchi samolyot dvigatelining ortiqcha kuch bilan ishlayotganini tovushidan fahmlaydi. Narsalarni aniqlashga sarflanadigan vaqt kamaya boradi. Qo`llanishga mo`ljallangan usullarning turkum tarzda ong yordamida oldindan payqash (sezish, fahmlash, bilish) jarayoni antitsipatsiya (lotincha, oldindan fahmlash, sezish ma`nosini anglatadi) deyiladi.

Shuning uchun, harakat usullaridagi mazkur o`zgarishning siri nimada va ular qanday psixologik mexanizmiga ega, degan savolning tug`ilishi tabiiydir. Psixologik mexanizm (ta`minlash) o`z ichiga izlanish urinishlarini va tanlashni oladi. Shaxs u yoki bu harakatni bajarishga urinib ko`radi, hatto ushbu jarayonni nazorat qilib ham turadi. Bu o`z navbatida muvaffaqiyatli urinishlar (sa`y-harakatlar), o`zini oqlagan chamalashlar, mo`ljallar inson tomonidan tanlanadi va asta-sekin mustahkamlanadi. Qo`llanganda foyda (naf) bermagan harakatlar samara beruvchilari bilan almashtiriladi. Bu holat muayyan davr davomida takrorlanadi yoki mashq qilinadi. Ana shundan kelib chiqqan holda muayyan harakatlarini o`zlashtirish maqsadida ularni ongli ravishda nazorat qilishga va o`zgartirishga harakat qilinadi. Amaliy ish harakatlarini takrorlamasdan turib, turli xususiyatli malakalarni shakllantirib bo`lmaydi.

Malakani shakllantirishda bajarilayotgan harakatlarning nutq faoliyatida so`z bilan ifodalanishi va harakatning timsolini xayolda mujassamlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu yo`sinda insonning malakasi anglashinilgan tarzda avtomatlashgan xatti-harakat sifatida shakllanadi. Malakalarni shakllantirish mexanizmiga, printsipiga muayyan odatiy jabhalarga, usul va vositalar tanlash xususiyatiga alohida e`tibor qilish uning muvaffaqiyatli hosil bo`lishini ta`minlaydi. Buning uchun quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq: a) usullarni tanlash, b) harakatda ong nazorat funksiyasini kamaytirish, v) maqsadni

oydinlashtirish, g) shart-sharoitni tasavvur etish, d) malakani shakllantirish modelini xayolda yaratish va hokazo.

Psixologiya fanida malakani shakllantirishning asosiy bosqichlari sxemasi ishlab chiqilgan, bunda asosiy e'tibor malakaning xususiyatiga, malakaning maqsadiga, harakatni bajarish usullariga qaratiladi. Shuningdek, malakalarning o'zaro ta'siri muammosiga alohida ahamiyat beriladi, chunki inson malakalar tizimiga amal qilgan holda yangi malakani o'zlashtiradi. Oldin egallangan malaka, keyingisini tarkib topishiga yordamlashadi, goho unga xalaqit berishi ham mumkin. Harakatning avtomatlashuvi uning maqsadi, obykti, vaziyati va shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Harakatning muvaffaqiyati, samaradorligi ko'p jihatdan sensor nazoratga hamda uning yangi sharoitiga ko'chishiga bog'liq.

Malakalarning noto'g'ri (teskari) ko'chirilishi interferentsiya hodisasini vujudga keltiradi. Faoliyat ko'nikma, malaka, usul, harakat, sa'y-harakat, operatsiya kabi tarkibiy qismlar tufayli muayyan mahsullarga erishadi, moddiy va ma'naviy natijalarni hamda bilimlarni vujudga keltiradi.

#### **4.4. Faoliyatda muvaffaqiyatga erishish. Faoliyatning shaxs taraqqiyotidagi roli**

Psixologik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, faoliyat shaxslararo munosabatlar tizimi tariqasida, hamkorlik tarzida namoyon bo'ladi. Faoliyatda inson shaxsi (uning xususiyatlari) aks etadi va ayni bir davrda faoliyat odam shaklini tarkib toptiradi. Ong bilan faoliyat birligi printsiptga asoslanish orqali shaxs kamol topadi, shaxslararo munosabatga kirishadi, ijtimoiy tajribalarni o'zlashtiradi, o'zaro ta'sir yordamida ijtimoiylashadi. Inson shaxsining shakllanishi o'yin, ta'lim, mehnat, sport va boshqa faoliyatning turlarida amalga oshadi. Faollik tufayli faoliyatni amalga oshirish jarayoni yuzaga keladi, xulq-atvor, muomala (kommunikatsiya) vositasida ehtiyoj, istak, ijtimoiy talablar qondiriladi, turli xususiyatli axborotlar o'zlashtirilishi natijasida shaxs tarkib topa boshlaydi.

Faoliyatning oddiy shakllaridan biri o'yin hisoblanadi, lekin u tobora takomillashib, sodda harakatlardan keyinchalik syujetli, rolli o'yinlarga, hatto



sportgacha murakkablashib boradi, atrof-muhitni aks ettirishida ishtirok eta boshlaydi. Insonning borliqni in'ikos etishidagi dastlabki urinish harakat orqali namoyon bo'ladi. Harakatlar bolaning tabiatga, uni qurshab turgan kishilik dunyosiga nisbatan munosabatini, ular to'g'risidagi ilk taassurotlar, sodda tasavvurlar, bilimlarni o'zlashtirishni anglatib keladi. Keyinchalik oddiy harakatlar muayyan ma'no kasb etib, syujetli va rolli o'yinlarga aylanadi. O'yinlar milliy (etnik) va umumbashariy turkumlardan tarkib topgan bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini o'zida aks ettiradi. O'yinlar takomillashib borib sport turlariga, sport faoliyatiga o'sib o'tadi, jumladan, shaxmat, damino, futbol, shashka va hokazo. Sport o'yin faoliyati sifatida barcha yoshdagi insonlarga xos bo'lib hisoblanadi.

O'yin faoliyatida bola ijtimoiy voqelikni taqlid, rol orqali ijro etishga harakat qiladi va shu yo'sinda atrof-muhit to'g'risidagi, ijtimoiy turmushdagi shaxslararo munosabatlarni o'zlashtira boradi. Ijtimoiy turmushdagi u yoki bu hodisani rol orqali ijro qiladi. So'z bilan harakatning birikuvi natijasida o'yin faoliyat tusini oladi va muayyan ma'no, axborot berish, uzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Dastlabki o'yin aynan kattalar xatti-harakatini takrorlash, ularga taqlid qilish bilan tavsiflanadi. Syujetli o'yinlar borliqning goh anglangan, goho anglanmagan tarzda u yoki bu tomonlarini egallashga xizmat qiladi.

O'yin dastavval bola uchun vaqt o'tkazish, uni mashg'ul qilish funksiyasini bajarsa, keyinchalik ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot namunalarini ifodalash darajasiga o'sib o'tadi. Rollar, ma'noli harakatlar, ibratli imo-ishoralar, tushunchalar bola shaxsini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Bola tug'ilganidan to maktab ta'limigacha davrida uning uchun o'yin faoliyati yetakchi faoliyat rolini bajaradi, shuningdek, o'yin didaktik tus kasb etishi ham mumkin.

Bolalar o'yinlarining dastlabki ilmiy tahlili rus olimi E.A.Pokrovskiy tomonidan 1887 yilda amalga oshirilgan. Uning fikriga ko'ra, «o'yin» to'g'risidagi tushunchalar o'ziga xoslikni va tafovutni u yoki bu xalqqa mansublikni bildiradi.

Oradan yarim asr vaqt o'tgandan keyin, 1933 yilda «o'yin» tushunchasining etimologik tahlilini amalga oshirgan va uning o'ziga xos alomatlarini tasniflashga

harakat qilgan golland olimi F.Boytendayk hisoblanadi. Boytendayk o‘yinning alomatlari qatoriga quyidagilarni kiritadi: «u yoqqa va bu yoqqa» harakat, ixtiyorsizlik va erkinlik, quvonch va ermaklik. Bunday alomatlardan qanoatlanmagan muallif, uning fenomenini bolalar faoliyatini kuzatish orqali aniqlash mumkin, chunki o‘yinning qiymati va ahamiyati ularning o‘zlari tomonidan oqilona baholash, degan xulosaga keladi.

O‘yinni vujudga kelish tarixiga ilmiy yondashish nemis psixologi V.Vundtga 1887 yilda nasib etdi. Uning mulohazalariga ko‘ra, o‘yinning manbai huzur qilish, rohatlanishdan iboratdir. V.Vundt bildirgan fikrlar yoyiq xususiyatga ega bo‘lib, o‘yinning u yoki bu jihatlarini yoritishga xizmat qiladi. Uning fikricha, o‘yin - bu bolalarning mehnatidir. Hech bir o‘yin yo‘qki, u jiddiy mehnatning u yoki bu shaklini prototipi bo‘lmasin, hamisha uning vaqtdagi va fazodagi haqiqiy holatini o‘zida aks ettirmasin. Yashash zarurati insonni mehnat qilishga majbur qiladi. Mehnat orqali inson o‘z kuch-qudratini baholashga o‘rgana boradi, huzur qilish va rohatlanishining manbai ekanligiga iqror bo‘ladi. Uningcha, o‘yin mehnatning foydali jihatini yo‘qotib boradi. Shuningdek, mehnat jarayonidagi eng yoqimlilik, uning natijasi maqsadga aylanadi. V.Vundt mehnat predmetini harakat usullaridan alohida hukm surishiga ishora qiladi. Bu bilan u psixologiya tarixida ustunlik qilib kelayotgan «o‘yin insonning biologik jabhasi» degan g‘oyaga qo‘shimcha tariqasida unga ijtimoiy-tarixiy jihatni kiritadi. V.Vundtning ushbu g‘oyasi psixologiya fani uchun alohida ahamiyat kasb etadi va o‘yinning tadqiqotiga keng imkoniyatlar ochadi.

Jahon psixologiyasi fanida o‘yin nazariyasiga yirik ulush qo‘shgan olimlardan biri K.Groos hisoblanadi. Yigirmanchi asrlarning boshlari o‘yin nazariyasi uchun eng qulay va sermahsul davr bo‘lgan. V o‘z zamondoshlari D.A.Kolotssa va G.Spenserlarning fikr va mulohazalariga asoslangan holda o‘yin nazariyasini yaratdi. K.Groos o‘z g‘oyasini umumlashtirib, uni «mashqlantirish nazariyasi» yoki o‘z-o‘zini tarbiyalash deb ataydi va uni quyidagicha tasniflashga harakat qiladi:

Har qaysi tirik mavjudod irsiy beriluvchanlik, mayl xususiyatiga ega bo'lib, uning xulq-atvorida maqsadga muvofiqlikni kasb ettiradi. Yuksak darajadagi jonivorlarning tug'ilishidan berilgan xislatlari qatoriga faoliyatga impulsiv intilishni kiritish mumkin, qaysiki u jismoniy o'sish davrida yaqqol namoyon bo'ladi.

Yuksak darajadagi mavjudodda, xususan, insonda irsiy javob harakatlari murakkab hayotiy muammolarni bajarishga yetarli emasdir.

Har qaysi yuksak taraqqiy etgan mavjudot hayotida bolalik davri mavjud bo'lib, u o'sish va rivojlanish xususiyatiga ega. Lekin mustaqil hayot va faoliyatni ta'minlay olmaydi. Chunki unga bunday imkoniyatni ota-onaning parvarishi yaratadi va u tug'ma mayl va moyilliklarga asoslanadi.

Bolalik davri hayot uchun eng zarur shart-sharoitlarga va ularga moslashuvni egallash maqsadiga tabiiy ravishda yo'nalgan bo'ladi. Biroq irsiy javob harakatlarga bevosita asoslanmaydi. Inson zotiga uzundan-uzun bolalik davri beriladi. Qanchalik faoliyat mukammal bo'lsa, unga shunchalik ko'proq tayyorgarlik joiz.

Bolalik xususiyatiga binoan hayotga ko'nikish yo'llari turli-tumandir. Ko'nikish yoki moslashish yo'lining eng tabiiysi va shuning bilan eng zaruri shundan iboratki, bunda faoliyatga nisbatan impulsiv ehtiyojning mavjudligi irsiy reaksiyalar o'z-o'zicha namoyon bo'lishiga zamin hozirlaydi. Bunday sharoit irsiy harakatlarga asoslangan holda yangi malakalarni egallashni vujudga keltiradi. Avvalo yangi odatiy harakatlar yaraladi.

Ko'nikish yoki moslashish yo'llari insonni taqlid qilishda o'z ifodasini topuvchi nasliy intilish, mayl orqali amalga oshiriladi. Bu narsa keksa avlodning qobiliyatlari va odatlari bilan uzviy bog'liq ravishda kechadi.

Shaxsiy ichki qo'zg'alish xususiyatiga ko'ra, rivojlanuvchi individ hech qanday maqsadning tashqi ko'rinishisiz o'z mayli hamda intilishini namoyon qiladi, mustahkamlaydi va o'stiradi. Bu o'yinning dastlabki nishonalaridan dalolat beradi.

K.Byuler K.Groosning ogohlik nazariyasini tan olib, o‘yin filogenezga taalluqli ekanligini ta’kidlab, uning dressura bosqichi uchun ogohlik ekanligini uqtiradi. U o‘yinning mohiyati va tomonlarini ochishda o‘zining gedonalogik (huzur qilish) reaksiyaning birlamchiligi nazariyasiga asoslanadi. K.Byuler Z.Freydning rohatlanishga intilishdan iborat g‘oyasini e’tirof etsada, lekin inson faoliyati va rivoji uchun harakatlantiruvchi emas ekanligini uqtiradi.

O‘yin nazariyasiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan olimlardan biri - bu Boytendaykdir. U.K.Groosning ogohlik nazariyasiga ikki xil mazmunda e’tiroz bildiradi.

O‘ynay bilmagan hayvonlar instinkt darajasiga ko‘ra zaif deyishga hech qanday dalil yo‘q. Chunki instinktiv faoliyatda mashqlanishning roli yetarli yuksak emas. Shuning uchun faoliyatning instinktiv shakllari mashqlanishga bog‘liq bo‘lmasdan, balki ulardan tashqari muhitda takomillashadi.

Mashqlanish o‘yinning mohiyatida yotmaydi, lekin uning tayyorgarlik mashqlari mavjud bo‘lib, ular o‘yin deyilmaydi.

F.Boytendayk o‘yin predmetining tanishligi yoki notanishligi o‘rtasidagi munosabatini uning obrazlilik deb ataydi. Obrazning affektiv va gnostika munosabati (notanish yoki hayotiy) fantaziyani keltirib chiqaradi. Binobarin, antropomorfizm sahovati sifatida fantaziyalashgan obrazlar, tasavvurlar vujudga keladi.

#### **4.5. A.N.Leontev bo‘yicha faoliyat tuzilishi.**

##### **Faoliyat va motivlar**

O‘yin nazariyasiga oid ilmiy qarashlar E.Klapared, Dj.Kollarits, X.Shlosberg, Dj.Bruner kabi xorijiy psixologlar asarlarida o‘z ifodasini topgan.

O‘yinda yoki o‘yin faoliyatida o‘zbek xalqining (hududiy xususiyatidan qat’iy nazar) yashash tarzi, intilishi, xohishi, istagi, ezgu niyati, uning mavsumiyligi, kasb-korga taalluqli jihatlari, holatlari aks ettirilgan bo‘ladi. Emotsiya, hissiyot, xarakter, milliy qiyofa, bilish jarayonlari, xulq-atvor, ularni namoyon bo‘lish tezligi (sur’ati), davomiyligi, kechishi milliy xususiyatga egadir. Nafaqat milliy o‘yinlar, balki xalqning (millatning, elatning) raqslari; ularning syujeti, tezligi,

osoyishtaligi; uning qo'shiqlari chastotasi, tembri, amplitudasi, badiiy ijodiyoti xususiyatlari umumiy milliy kaloriti bilan uyg'unlashgandir.

Milliy harakatli va sport o'yinlarining mohiyati, mazmuni, ma'no ifodalashi, manbai, negizi, ularning in'ikosi, ularda aks ettiriluvchi kechinmalari, syujetda o'z aksini topgan shaxslararo munosabat, muomala, xarakterologik va shaxs xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik omil (sabab, faktor)lardan tashqari milliy o'yin faoliyati tabiiy, geografik qonuniyatlarga (iqlim, yog'ingarchilik, joylashish sathi, qulay va noqulayligi, shamol, ofatlar ehtimolligi), xossalari, ularga nisbatan xayrixohlik, qat'iy yoki beayov kurash yoki sajda, yolvorish, iltijo qilish milliy idrok, tasavvur, irodaviy kuchga asoslanadi.

Ijtimoiy tajriba va uni egallash, shakllangan etnik stereotiplarga asoslanish natijasidan kelib chiquvchi milliylik, umumiylik, xususiylik, alohidalik, yakkahollik, guruhiylik, jamoaviylik, tabiatga va jamiyatga munosabatni aks ettirish tarzida o'yin vujudga kelishi mumkin.

Tabiat mo'jizalari, ilohiy kuchlarga e'tiqod, aql-zakovatdan hayratlanishni ifodalovchi syujet va mazmundan iborat bo'lgan milliy o'yinlar.

Kasbni tasvirlovchi, uni takomillashtirishga olib boruvchi imkoniyat, intilishni harakat va his-tuyg'u yordamida namoyon etuvchi, qadriyat, ma'naviyat, ruhiyatga asoslanuvchi milliy o'yinlar.

Millatlararo ta'sir natijasida yaraluvchi, lekin milliylikning u yoki bu qirralarini saqlab qoluvchi baynalmilal xususiyatli o'yinlar.

Ijtimoiy garmoniya ta'siri, ijtimoiy ong rivoji, madaniyat, fan va texnika mahsulasi sifatida tug'iluvchi yangi toifaga xos milliy o'yinlar.

Jahon psixologiyasi fanida o'yinlar yuzasidan mulohaza yuritilganda aksariyat hollarda ularni oilaviy turmushga, dehqonchilikka, qurilishga, sanoat sohasiga, siyosatga, harbiyga, kasbga taalluqli ekanligiga qarab guruhlarga ajratiladi. Eng qadimiy milliy o'yinlar qatoriga harakatli va sport o'yinlari kiritiladi hamda xalqning keng tarqalgan, sevimli o'yinlari bo'lib hisoblanadi. Ular o'zining syujeti, mazmuni, roli bilan bir-birlaridan keskin tafovutlanib turadi. Ba'zi hollarda

harakatli o'yinlar bir davrning o'zida ham sport o'yinlari bo'lib hisoblanadi. Yoinki sport o'yinlari harakatli o'yinlar qatoriga kiritilishi mumkin.

**Nazorat savollari:**

1. Faoliyat to'grisida umumiy ma'lumot bering?
2. Faoliyatning tuzilishi tavsifini aytib bering?
3. Faoliyatning o'ziga xos jihatlarini izohlang?
4. Faoliyatning psixologik tavsifi haqida aytib bering?
5. Faoliyatni interiorizatsiyalash va eksteriorizatsiyalash tushunchalarini izohlang?

## 5-MAVZU. SHAXS

*Tayanch tushunchalar:* odam, inson, individuallik, shaxs, individ, biogenetika, sotsiogenetika, dispozitsiya, ehtiyojlar dinamikasi, motivlar ierarxiyasi, shaxsiy moyillik, gumanistik, endopsixika, ekzopsixika.

### **5.1. Shaxs haqida tushuncha, odam-inson-individuallik tushunchalari, shaxs ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida: ijtimoiy normalar, sanksiyalar**

Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ shaxs, individuallik (yakkahollik) tushunchalari orqali aks ettiriladi. Katta yoshdagi ruhiy sog'lom (eshi joyida) odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi. Biroq bulardan birinchisinigina shaxs deb atash an'ana tusiga kirib qolgan, chunki o'sha zotgina ijtimoiy mavjudot, ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy taraqqiyotning faol qatnashchisi bo'la oladi. Individ sifatida yorug' dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Ilk bolalik chog'idanoq individ muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasiga tortiladi, bunday shaxslararo munosabatlar tarzi tarixiy shakllangan bo'lib, u yoshligidanoq shu tayyor (ajdodlar yaratgan) ijtimoiy munosabat, muomala, muloqot tizimi bilan tanisha boradi. Ijtimoiy qurshov (oila a'zolari, mahalla ahli, jamoatchilik, ishlab chiqarish jamoasi), ijtimoiy guruh ichida (kishilarning og'ushida, ularning qalb to'risida) odamning bundan keyingi rivojlanishi uni shaxs sifatida shakllantiruvchi, uning ongi va irodasining xususiyatlariga mutlaqo bog'liq bo'lmagan har xil xususiyatli munosabatlar majmuasini vujudga keltiradi.

Jahon psixologiyasi fanida onda-sonda uchrab turadigan shaxsni ijtimoiy muhitning sust mahsuli deb tushuntirish va unda faollikni inkor etish o'ta bahsli fikrdir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, shaxsning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish jarayoni odamning o'zicha amalga oshirayotgan faoliyatiga va uning bilan qanday maqsad ko'zlayotganiga nisbatan munosabatini aks ettiruvchi ruhiy dunyosi orqali namoyon bo'ladi. Odatda, faollik shaxsga xos xulq-atvor, faoliyat,

muomala motivlarida, ustanovkalarida, amaliy ko'nikmalarida ko'zga tashlanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, faollik shaxsning atrof-muhitdagi voqelikni egallashga intilgan sa'y-harakatlarda vujudga keladi. Shaxsning faolligi uning o'z istiqboli uchun yo'l-yo'riq tanlashda, uni o'zlashtirishda, hayotda o'z mavqei va o'rini topishda gavdalanadi.

Bir xil turmush sharoitlari shaxs faolligining turli shakllarini yaratish hamda har xil hayotiy vaziyatni vujudga keltirish imkoniyatiga ega. Hayotda biron bir tanbeh berishning o'zi kimdadir ruhiy hisni uyg'otsa, boshqa birining sirtiga ham yuqmasligi uchraydi. Shunday qilib, odamga ta'sir qiluvchi barcha tashqi qo'zgatuvchilar ijtimoiy shart-sharoitlarga, faoliyatning ichki tarbiyaviy qismlari (tomonlari, jihatlari, jabhalari, tarkiblari) tuzilishi yig'indisi bilan boyitilishi evaziga shaxs degan tushuncha hosil bo'ladi.

Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlardan biri - bu uning individualligidir, ya'ni yakkaholligidir. Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyatlar motivlari, inson maslagi, dumyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Psixik xususiyatlarning birikmasini aynan o'xshash tarzda aks ettiruvchi inson mavjud emas. Masalan, yaqin odamdan ayrilganligi qayg'u-alam, uning bilan birga esa hayotda tiklab bo'lmovchi va boshqalarda takrorlanuvchi fazilatlar murakkab voqelikning mangulikka yo'nalishi bilan izohlash mumkin. Shaxs o'zining qadr-qimmatini va nuqsonlari bilan ijtimoiy turmushda faol ishtirok qilishi, ta'lim va tarbiya yordamida yuzaga kelgan o'zining kuchli va kuchsiz jihatlari bilan yaqqol, betakror oliy zotdir.

Odam jamiyatda turli guruhlar faoliyatida qatnashar ekan, ko'pincha, ularda har xil vazifalarni (funksiyalarni) bajaradi, o'zaro hech bir o'xshamagan rollarni ijro etadi. Masalan, ota-onaning, oilaning «egovi», injiq, «zo'rvon» bola o'z tengqurlari davrasida ehtiyotkorona harakat qilib, o'zini tamoman boshqacha tutadi. Shuningdek, jiddiy, talabchan va xizmat vaqtida boshqalarga



qo'shilmaydigan sayohat davrida, mehnat faoliyatida, hashar va hamkorlikda, ulfatchilikda hazilkash va qiziqchiga aylanishi mumkin. Yuqorida keltirilgan masalalardan bitta odamning o'zi turli vaziyatlarda mazmun jihatdan bir-biriga qarama-qarshi rollarni bajaradi. Aksariyat hollarda odam turli-tuman vaziyatlarga, sharoitlarga mos, ularga mutanosib bo'lgan jihatlarni (jabhalarni) namoyon qiladi, uning oilada, xizmat vazifasida, jamoatchilik orasida, sport musobaqasida va shu singarilarida o'z zimmasiga olgan rollarni bir-biriga qarama-qarshi emas, balki o'zaro hamohang tarzda o'ynaydi. Ana shu inson fazilatlarining, xislatlarining, sifatlarining bir-biriga mosligi shaxsning yaxlitligini ko'rsatuvchi alomatlardan biri bo'lib, undagi qarama-qarshilik, ziddiyat va shakllanib ulgurmagan xususiyatlarning ko'rsatkichi uning turli vaziyatlarda bajariladigan rollarning o'zaro bir-biriga zidligi yoki nomutanosibliги hisoblanadi.

Inson jamiyatning turli guruhlarida odamlarning o'z zimmasiga olgan vazifalari va rollari qanchalik rang-barang bo'lmasin, turmushdagi mavqei ko'p ma'no, ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lishidan qat'i nazar, inson shaxsiga to'la mos keladigan haqiqiy tavsif berish imkoniyati saqlanib qoladi. Unga beriladigan tavsif faqat uning o'ynaydigan asosiy rollarini, egallagan mavqeining individualligini namoyon qiluvchi motivlarini aniqlash bilan emas, balki uning ishlab chiqarishga, moddiy boyliklarni o'zlashtirishga nisbatan munosabatini o'rganish orqali beriladi. O'zbekistonda inson shaxsiga beriladigan asosiy tavsif uning asosida gumanistik, mustaqil, huquqiy jamiyat qurish jarayoniga nisbatan va bu ijtimoiy jarayonda faol qatnashishi kabi muhim mezonlarga asoslanadi.

Jahon psixologiya fanining ilg'or taraqqiyparvar, gumanistik tadqiqotchilarining tajribasida ko'rsatilishicha, shaxsning psixologik tuzilishi, psixologik xususiyatlari, xarakter xislati, temperament xususiyatlari, irodaviy sifatlari, aqliy qobiliyatlari, iste'dod darajalari, barqaror qiziqishlari, hukmron motivlari, hissiyoti va shu kabilarning birikmasi (majmuasi) har bir yaqqol, alohida odamda betakror, barqaror, turg'un birlikni tashkil etadi. Bu esa, o'z navbatida shaxsni psixologik tuzilishining nisbiyligi, qat'iyligi, stereotipligi to'g'risidagi fikrni qat'iy tasdiqlashga imkon yaratadi.

Psixik holatlar, hodisalar (hissiyot, xohish, orzu, tafakkur va shu kabilar) uzluksiz ravishda o'zgarib turishi, ijtimoiy guruhlarda, hayotiy vaziyatlarda odam o'z zimmasiga olgan rollariga aloqador xulq-atvorning o'zgarishi, yoshni ulg'ayib borishi ham shaxsning psixologik qiyofasi (milliylik, etnik ta'sir asosida) muayyan darajada barqarorlikni saqlaydi. Mazkur nisbiy barqarorlik odam qatnashadigan uning yashash sharoitlari, jismoniy xususiyatlarining qiyofasi bilan uyg'unlikda shakllantiruvchi ijtimoiy munosabatlar yig'indisining doimiyliigi bilan uzviy bog'liqdir. Biroq biz qayd qilib o'tgan doimiylik nisbiy xususiyatga egadir. Chunki shaxsni psixik tuzilishining o'zgarishi jahon psixologlarining bir qator tadqiqotlarida o'rganilgan. Bu o'zgarishlar odamning yashash muhiti, amalga oshiradigan faoliyatida namoyon bo'luvchi hisoblanib, ular ijtimoiy ta'sir, tarbiya sharoitiga bevosita aloqadordir.

Demak, shaxsning nisbatan barqaror va nisbatan o'zgaruvchan xususiyatlari inson xislatlarining yaxlitligi va o'zaro bog'liq. Hayotda biron bir tanbeh berishning o'zi kimdadir ruhiy hisni uyg'otsa, boshqa birining sirtiga ham yuqmasligi uchraydi. Shunday qilib, odamga ta'sir qiluvchi barcha tashqi qo'zg'atuvchilar ijtimoiy shart-sharoitlarga, faoliyatning ichki tarbiyaviy qismlari (tomonlari, jihatlari, jabhalari, tarkiblari) tuzilishi yig'indisi bilan boyitilishi evaziga shaxs degan tushuncha hosil bo'ladi. Odatda, shaxsni psixologik jihatdan o'rganish o'z tarkibiga ikki asosiy ilmiy muammoni qamrab oladi.

«Endopsixika» va «Ekzopsixika» haqida tushuncha. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ilmiy muammolardan birinchisi bir shaxsni boshqa odamlardan ajratib turadigan individual tuzilishiga ega ekanligidir. Ushbu yaqqol psixologik muammoni hal qilish shaxsning mazkur tuzilishining ichki sharoitlarida ifodalanuvchi xulq-atvorni oldindan bashorat qilish imkoniyatini yaratadi. Mazkur masalaning qo'yilishi dastavval ta'lim va tarbiya ehtiyojlaridan, tashkilotchilikka oid faoliyat sohalari va boshqa ehtiyojlar zamiridan kelib chiqadi. Lekin bu masalani ilmiy asosda hal qilish boshqa muammoni, ya'ni shaxsni toifalarga ajratish (tipologiya), uning eng muhim, mukammal tuzilishini aniqlash bilan bog'liqdir. Darhaqiqat, shaxs tipologiyasi, shaxsni tipologik tahlil qilishning eng

nozik, ibratli jihatlarini cheklab o'tish, u haqida yetarli darajada to'la tasavvurga ega bo'lishni xohlasak, uning eng umumiy tasvirini umumlashgan tarzda ta'kidlab o'tish lozim.

Shaxs tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi masala esa bunday tuzilishning bir qancha tarkibiy qismlarga ajratishni taqozo etadi, binobarin, ushbu bo'laklarning yig'indisi yaxlit inson shaxsini vujudga keltiradi. Jahon psixologiyasi fanida psixologlar shaxsni psixologik tuzilishining tarkibiy qismlarini turli mohiyatiga asoslanib turkumlarga ajratishni (klassifikatsiyalashni) tavsiya etmoqdalar.

## **5.2. Shaxs nazariyalari endopsixika va ekzopsixika. Markaziy Osiyo mutaffakirlari ijodida shaxs kamoloti**

Hozirgi zamon jahon psixologiyasida biologik (tabiiy) va ijtimoiy (sotsial) omil (faktor)ning, voqelikning ta'siri ostida shakllangan inson shaxsida ikkita muhim qism bo'lganligini tasdiqlovchi nazariya yuksak mavqeni egallab turibdi.

Mazkur nazariyaga binoan «ichki psixik» («endopsixik» - yunoncha «endo» ichki degan ma'noni bildiradi) qismlarga ajratiladi, degan g'oyani ilgari suriladi. Ushbu talqinga ko'ra «endopsixika» shaxsning psixik tuzilishining ichki qismlari sifatida psixik elementlar va funksiyalarning o'zaro bog'liqligi aks ettiriladi. Uning negizida insonning nerv-psixologik tuzilishi bilan «endopsixik» aynan bir narsa degan tushunchani tasdiqlash yotadi, go'yoki u odam shaxsining ichki mexanizmini yuzaga keltiradi. Psixik tuzilishning «ekzopsixik» qismi bo'lsa shaxsning tashqi muhitiga nisbatan munosabatini, shaxsga qarama-qarshi bo'lgan barcha jihatlarini, shaxslararo va obyektiv munosabatini belgilaydi. «Endopsixika» o'z navbatida shaxsning ta'sirlanishi, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlarining xususiyatlarini, irodaviy zo'r berish xislatlarini, ixtiyorsiz harakatlarni va shu kabi fazilatlarni aks ettiradi. «Ekzopsixika» esa o'z tarkibida shaxs munosabatlarining tizimini va uning qiziqishlari, mayllari, ideallari, maslagi, ustunlik qiluvchi, hukmron hissiyotlarini, egallagan bilimlarni, tajribalarni va shu singarilarni qamrab oladi. Tabiiy omilga (asosga) ega bo'lgan «endopsixika»

biologik shart-sharoitlarga bog'liqdir, aksincha, «ekzopsixika» ijtimoiy voqeliklar ta'siri ostida yuzaga keladi, tarkib topadi va takomillashib boradi.

Shaxsning tarkib topishi bir qator omillarga bog'liq degan nazariyaning namoyandalari bo'lmish hozirgi zamon uzoq chet el (AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya, Shvetsariya va boshqalar) psixologlari oqibat natijasida shaxsning tuzilishini o'sha ikkita asosiy omillarga, ya'ni biologik va ijtimoiy (sotsial) voqeliklarning ta'siriga bog'liq bo'lgan tuzilishining mavjudligidan manfaatdordirlar. Obyekt-subyekt munosabatini belgilaydi. «Endopsixika» o'z navbatida shaxsning ta'sirlanishi, idrok, tasavvur, xotira, tafak-kur, xayol jarayonlarining xususiyatlarini, irodaviy zo'r berish xislatlarini, ixtiyorsiz (ideomotor) harakatlarini va shu kabi fazilatlarini aks ettiradi. «Ekzopsixika» esa o'z tarkibiga xos munosabatlarining tizimini va uning qiziqishlari, mayllari, ideallari, ustanovkalari, maslagi, ustunlik qiluvchi, hukmron hissiyotlarini, egallangan bilimlarni qamraydi.

Jumladan, dialektik materializm darg'alarining iborasi bilan aytganda, inson shaxsining mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar yig'indisidan iborat, bu ifodaga o'ta keskin e'tiroz bildirishga hojat yo'q. Chunki shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lganligi (mikro muhit mahsuli ekanligi tan olinmasada) uchun unda tabiiy-biologik tuzilish alomatlarini saqlanib qolishi tabiiy holdir. Masalan, shaxs tuzilishida biologik va ijtimoiy (sotsial) omillarni birlamchi deb e'tirof qilish muammoning bir tomoni (ularni hisobga olish, albatta zarur), lekin ikkinchi tomoni ularning o'zaro munosabatlarini qay tarzda tushunishda o'z ifodasini topadi. Ko'pgina psixologlarning fikricha, bizning nuqtai nazarimizcha, qo'sh omillik nazariyaning bahsli jabhasi shundan iboratki, bu nazariya ijtimoiy omil bilan biologik voqelikni, muhit bilan biologik tuzilishni, «ekzopsixika» bilan «endopsixika»ni mexanik ravishda bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi, o'zaro ta'sir etish muammosiga loqaydlik bilan munosabatda bo'ladi. Mazkur konsepsiya vakillari shaxsning shakllanishi va uning tuzilishiga ta'sir qiluvchi tabiiy va ijtimoiy omillar ichki imkoniyatlari mavjud ekanligini hisobga olmaydilar.

Ta'kidlab o'tilgan fikrlarni tasdiqlash maqsadida ular o'tkazgan tajribalariga murojaat qilamiz. Qo'sh omillik nazariya tadqiqotchilari tajribalarida 80-130 sm balandlikdagi odamlarning shaxs xislatlarini tarkib toptirish o'rganilgan. Buning natijasida ular shaxsning tuzilishida ko'p xislatlari o'xshashligi topilgan. Bunday odamlarning bo'yi past (pakana) bo'lishlaridan tashqari, ularning tuzilishida hech qanday nuqson va kamchilik yo'q ekanligi aniqlangan. Bunday toifaga kiruvchi kishilarda bolalarga xos kulgini, hech bir tanqidsiz optimizmni, o'ta soddalikni, muayyan darajada hissiy (emotsional) zo'riqishni talab qiladigan vaziyatga nisbatan chidamlilikni, uyat hissining kamroq ekanligini uchratish mumkindir.

Shaxsning xislatlariga na «endopsixika», na «ekzopsixika» qismlarini kiritish mumkin emas. Chunki shaxsning sifatlari mitti odamlarning psixik xususiyatlarining mahsuli bo'lib, ular bo'yiga nisbatan o'z tengqurlari o'rtasidagi farq aniqlangan davrdan e'tiboran shunday bir ijtimoiy vaziyatda paydo bo'lishi, tarkib topishining takomillashishi tabiiydir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, tevarak-atrofdagilarning mitti odamlarga bo'ydor kishilarga qaraganda boshqa munosabati, ularning pisand qilmasligi, kamsitilishi, ular ham barcha kabi narsalarni his qilish, orzu qilish, ajablanish, hayron qolish sababli ularda shaxsning o'ziga xos tuzilishi vujudga keladi. Bunday yaqqol voqelik ularning ruhiy ezilishini, ba'zan boshqalarga, hatto o'zlariga nisbatan tajovuzkorona yo'l tutishlarini niqoblaydi, xolos. Mabodo biz mitti odamlar (liliputlar) o'zlari bilan bab-barovar bo'yli kishilar muhitida yashaydi deb tasavvur qilsak, u holda ularda ham tevarak-atrofdagi boshqa odamlardagi kabi mutlaqo boshqacha shaxsiy fazilatlar, xususiyatlar, xislatlar, sifatlar mujassamlashishi mumkin bo'lar edi.

Taraqqiyparvar (gumanistik) psixologiya fanida ta'kidlanganidek, shaxs tuzilishidagi tabiiy, organik jihatlar va holatlar uning ijtimoiy shart-sharoitlariga bog'liq tarkibiy qismlaridir. Shaxs tuzilishidagi tabiiy (anatomik-fiziologik va boshqa sifatlar) va ijtimoiy omillar yaxlit birlikni tashkil qiladi va ular hech mahali ixtiyorsiz ravishda bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Shunday qilib, ilmiy psixologiya (materialistik deb atashdan saqlanish maqsadida) fanida barcha kategoriyalarga umumbashariy, umuminsoniy tamoyil

nuqtai nazardan yondashish shaxs tuzilishida tabiiy (biologik) va ijtimoiy (sotsial) omillar rolini tan oladi, inson shaxsidagi biologik va ijtimoiy voqeliklarni atigi shularning negizida qarama-qarshi qo'yishga tanqidiy munosabatda bo'ladi.

Shaxs muammosini dialektik materializm pozitsiyasida turib himoya qiluvchi rus psixologiyasi va boshqa taraqqiyparvar yo'nalish vakillari shaxsning faolligi tevarak-atrofdagi olam bilan bo'ladigan o'zaro munosabat jarayonida faoliyat vujudga kelishi mumkin degan ta'limotga asoslanadi. Shaxsni faolligining manbai uning ehtiyojlari hisoblanib, xuddi shu ehtiyojlar odamni muayyan tarzda va ma'lum yo'nalishda harakat qilishga undaydi. Xuddi shu boisdan ehtiyoj shaxs faolligining manbai sifatida yuzaga keladi va uning yaqqol turmush sharoitiga bog'liqligini aks ettiruvchi holatdir.

Ehtiyojlarda shaxsning yaqqol ijtimoiy turmush sharoitlariga bog'liqligi motivlar tizimi (motivatsiya) sifatida o'zining faol jabhalari bilan ifodalanadi. Motivlar ma'lum ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan faoliyatga nisbatan moliklikdir, degan ta'riflanishga mutlaq mosdir. Psixologiya fanida qiziqishlar deganda, odamlarning bilish jarayoniga yo'naltirilgan ehtiyojlarning hissiy aks etishidir. Bilish ehtiyojlarini shaxs tomonidan qondirilishi uning bilimlaridagi uzilishlarini to'ldirishga, ta'lim vaziyatlariga to'g'ri moslashishga hamda ularni tushunishga zarur imkoniyatlar yaratadi va yordam beradi.

E'tiqod odamning shaxsiy qarashlari, xulq-atvor tamoyillari, ilmiy dunyoqarashlariga asoslanib harakat qilishga undovchi anglashilgan ehtiyojlar majmuidir. E'tiqod shaklida yuzaga keladigan ehtiyojlarning mazmunini odamni qurshab turgan tabiat va u yashaydigan jamiyat haqidagi bilimlar hamda ularni muayyan darajada shaxs tomonidan anglash hosil qiladi va asta-sekin turli tashqi ta'sirlar yordamida takomillashib boradi.

Insonda vujudga keladigan tilaklar sa'y-harakatlar motivlari hisoblanib, bu motivlarda aynan shu vaziyatda bevosita yaqqol namoyon bo'lmagan turmush va rivojlanish sharoitlarida ehtiyojlar ifodalanadi.

Shaxsning psixik taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchlari insonning hayoti-faoliyati davomida o'zgarib turuvchi ehtiyojlari bilan ularni qondirishning

haqiqiy imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar bo'lib hisoblanadi. Bular to'g'risida jahondagi ilmiy psixologik adabiyotlarda bir qator qimmatli va boy materiallar mavjuddir.

Odatda, shaxsni rivojlantirish, shakllantirish, tarkib toptirish, kamolotga yetkazish mavjud qarama-qarshiliklarni, ziddiyatli vaziyatlarni yengish, irodaviy zo'r berish, zo'riqish, tanglik, jiddiylik holatlarini boshqarish, o'zini qo'lga olish orqali ushbu faoliyatni amalga oshirishning oqilona, omilkor vositalarini (yo'llari, usullari, operatsiyalari, ko'nikmalari, uquvlari, malakalari, odatlari, harakatlari, sa'y-harakatlari kabilarni) o'zlashtirish, egallash natijasida vujudga keladi. Bularning barchasi imitatsiya (taqlid), identifikatsiya, refleksiya, stereotipizatsiya, ta'lim, o'qitish, o'qish, o'rganish, o'rgatish, saboq olish, o'zlashtirish, mustaqil bilim olish jarayonida yuzaga keltiriladi. Mazkur holatda aniq faoliyat orqali ehtiyojni qondirish qonuniy ravishda yanada yuksakroq, yuqori bosqichdagi yangi xususiyatga ega bo'lgan ehtiyojni tug'diradi.

Shunday qilib, ehtiyojlarning tug'ilishi, taraqqiyoti, ularni saralash va shakllantirish hamda mustaqil, demokratik, huquqiy jamiyat kishisiga xos bo'lgan milliy, hududiy ma'naviyat, ruhiyat va qadriyatlarning qonuniyatlariga, xossalriga, mexanizmlariga asoslangan sharqona, o'zbekona yuksak axloqiy hislarga ega insonlarni voyaga yetkazish respublikamiz psixolog olimlarining oldida turgan asosiy vazifalaridan biridir. Buning uchun psixologlar ko'p tajribalarda sinalgan (ishonchli, validli, reprezentativ) testlar, metodlar (inovatsion xususiyatli), metodikalar (ularning invariantlari, variatsiyalari, modifikatsiyalari), muayyan kasbiy malakalar, uslubiy qurollar (ko'rsatmalar, tavsiyalar, ishlamalar, modul va reyting tizimlari), zamonaviy texnik vositalar bilan to'la-to'kis qurollanishlari, nazariy va amaliy bilimlarni egallashlari, olingan natijalarni ko'p qirrali (sifat, miqdor, korrelyatsion, dispersion, faktor va hokazo) tahlil qila bilishlari, chuqur talqin qila olishlari mutlaqo zarurdir. Chunki bularsiz shaxsni komil inson sifatida shakllantirish, kamol toptirish mumkin emas, binobarin, ikkiyoqlama o'zaro ta'sir bunday imkoniyat yaratishga qodir.

### **5.3. Chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari. Rus va o'zbek psixolog olimlarning shaxs haqidagi ilmiy qarashlari**

Jahon psixologiyasi fanida shaxsning kamoloti, uning rivojlanishi to'g'risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo'lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o'rganishda turlicha pozitsiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o'ziga xos yondashishga egadirlar. Mazkur nazariyalar qatoriga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixevioristik kabilarni kiritish mumkin. Quyida sanab o'tilgan nazariyalar va ularning ayrim namoyandalari tomonidan shaxsni rivojlantirishning printsiplari to'g'risidagi qarashlariga to'xtalib o'tamiz.

Biogenetik nazariyaning negizida insonning biologik yetilishi bosh omil sifatida qabul qilingan bo'lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyoti ixtiyoriy xususiyat kasb etib, ular bilan o'zaro shunchaki aloqa tan olinadi, xolos. Mazkur nazariyaga binoan, taraqqiyotning bosh maqsadi - biologik determinantlariga (aniqlovchilariga) qaratiladi va ularning mohiyatidan sotsial-psixologik xususiyatlar keltirilib chiqariladi.

Taraqqiyot jarayonining o'zi, dastavval biologik yetilishning universal bosqichi sifatida sharhlanadi va talqin qilinadi.

Biogenetik qonunni F.Myuller va E.Gekkellar kashf qilishgan. Biogenetik qonuniyat organning taraqqiyoti nazariyasini tashviqot qilganda hamda antidarvinchilarga qarshi kurashda muayyan darajada tarixiy rol o'ynagan. Biroq organning individual va tarixiy taraqqiyoti munosabatlarini tushuntirishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ygan. Jumladan, biogenetik qonunga ko'ra, shaxs psixologiyasining individual taraqqiyoti (ontogenez) butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan g'oya yotadi.

Nemis psixologi V.Shternning fikricha, chaqaloq (yangi tug'ilgan bola) hali u odam emas, balki faqat sutemizuvchi hayvondir, u olti oylikdan oshgach, psixik taraqqiyoti jihatidan faqat maymunlar darajasiga tenglashadi, ikki yoshida esa oddiy odam holiga keladi, besh yoshlarda ibtidoiy poda holatidagi odamlar darajasiga yetadi, maktab davridan boshlab ibtidoiy davrni boshidan kechiradi,



kichik maktab yoshida o'rta asr kishilar ongiga va nihoyat yetukli davrdagina (16-18 yoshlarda) u hozirgi zamon kishilarining madaniy darajasiga erishadi.

Biogenetik nazariyaning yirik namoyandalardan biri bo'lmish amerikalik psixolog S.Xoll psixologik taraqqiyotning bosh qonuni deb «rekapitulyatsiya qonuni»ni (filogenezni qisqacha takrorlashni) hisoblaydi. Uning fikricha, ontogenezdagi individual taraqqiyot filogenezning muhim bosqichlarini takrorlaydi. Olimning talqiniga binoan, go'daklik hayvonlarga xos taraqqiyot pallasini qaytarishdan boshqa narsa emas. Bolalik davri esa qadimgi odamlarning asosiy mashg'uloti bo'lgan ovchilik va baliqchilik davriga aynan mos keladi. 8-12 yosh oralig'ida o'sish davri o'smiroldi yoshidan iborat bo'lib, yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolot cho'qqisiga hamohangdir. O'spirinlik esa jinsiy yetilishdan (12-13) boshlanib, to yetuklik davri kirib kelgunga qadar (22-25 yoshgacha) davom etib, u romantizmga ekvivalentdir. S.Xollning talqiniga qaraganda, bu davrlar «bo'ron va tazyiqlar», ichki va tashqi nizolar (konflikt)dan iborat bo'lib, ularning kechishi davomida odamda «individuallik tuyg'u»si vujudga keladi. Shaxsni rivojlanishining ushbu nazariyasi o'z davrida bir talay tanqidiy mulohazalar manbai vazifasini o'tadi, chunki inson zotidagi rivojlanish bosqichlari filogenezni aynan takrorlamaydi va takrorlashi ham mumkin emas.

Biogenetik konsepsiyaning boshqa bir turi nemis «konstitution psixologiyasi» (insonning tana tuzilishiga asoslagan nazariya) namoyandalari tomonidan ishlab chiqilgan. E.Krechmer shaxs (psixologiyasi) tipologiyasi negiziga bir qancha biologik omillarni (masalan, tana tuzilishining tipi va boshqalarni) kiritib, insonning jismoniy tipi bilan o'sishining xususiyati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud, deb taxmin qiladi. E.Krechmer odamlarni ikkita katta guruhga ajratadi va uning bir boshqa sikloid toifasiga xos (tez qo'zg'aluvchi, his-tuyg'usi o'ta barqaror), ikkinchi uchida esa shizoid toifasiga (odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi, his-tuyg'usi cheklangan) xos odamlar turishini aytadi. Bu taxminini u shaxs rivojlanishi davriga ko'chirishga harakat qiladi, natijada o'smirlarda sikloid xususiyatlari (o'ta qo'zg'aluvchanlik, tajovuzkorlik, affektiv tabiatlilik), ilk o'spirinlarda esa shizoidlik xususiyatlari bo'ladi, deya xulosa chiqaradi. Lekin

insonda biologik shartlangan sifatlar hamisha yetakchi va hal qiluvchi rol o'ynay olmaydi, chunki shaxsning individual-tipologik xususiyatlari bir-biriga aynan mos tushmaydi.

Biogenetik nazariyaning namoyandalari amerikalik psixologlar A.Gezell va S.Xoll taraqqiyotning biologik modeliga chamalab ish ko'radilar, bu jarayonda muvozanat, integratsiya va yangilanish sikllari o'zaro o'rin almashinib turadi, degan xulosaga keladilar.

Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko'rinishi Zigmund Freydning shaxs talqinida o'z ifodasini topgan. Uning ta'limotiga binoan, shaxsning barcha xatti-harakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlar bilan shartlangan, ayniqsa, birinchi navbatda, u jinsiy (seksual) mayliga (libidoga) bog'liqdir. Bunga o'xshash biologizatorlik omillari inson xulqini belgilovchi birdan-bir mezon yoki betakror turtki rolini bajara olmaydi.

Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko'rinishi - bu aksil qutbga joylashgan sotsiogenetik nazariya hisoblanadi. Sotsiogenetik yondashishga binoan, shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra, inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

G'arbiy Yevropaning eng muhim nufuzli nazariyalaridan biri - bu rollar nazariyasidir. Ushbu nazariyaning mohiyatiga binoan jamiyat o'zining har bir a'zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakat (xulq)ning barqaror usullari majmuasini taklif qiladi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo'lgan maxsus rollari shaxsning xulq-atvor xususiyatida, o'zgaralar bilan munosabat, muloqot o'rnatishida sezilarli iz qoldiradi.

AQShda keng tarqalgan nazariyalardan yana bittasi - bu individual tajriba va bilimlarni egallash (mustaqil o'zlashtirish) nazariyasidir. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning hayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko'pincha ko'nikmalarni egallash va bilimlarni o'zlashtirishning samarasi qo'zg'atuvchini

uzluksiz ravishda mustahkamlanib borishning mahsulidir. (E.Torndayk, B.Skinner va hokazo).

K.Levin tomonidan tavsiya qilingan «fazoviy zarurat maydoni» nazariyasi psixologiya fani uchun (o'z davrida) muhim ahamiyat kasb etadi. K.Levinning nazariyasiga ko'ra individning xulqi (xatti-harakati) psixologik kuch vazifasini o'tovchi ishtiyoq (intilish), maqsad (niyat)lar bilan boshqarilib turiladi va ular fazoviy zarurat maydonining ko'lamini va tayanch nuqtasiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Yuqorida tahlil qilingan (sharhlangan) har bir nazariya shaxsning ijtimoiy xulqi (xatti-harakati)ni o'zgaralar uchun yopiq yoki maxsus muhit xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tushuntiradi, bu o'rinda odam xohlaydimi yoki yo'qmi bundan qat'iy nazar mazkur sharoitga moslashmog'i (ko'nikmog'i) zarur, degan aqidaga amal qilinadi.

Bizningcha, barcha nazariyalarda inson hayotining ijtimoiy-tarixiy vaziyatlari va obyektiv shart-sharoitlari mutlaqo e'tiborga olinmaganga o'xshaydi. Psixologiyada psixogenetik yondashish ham mavjud bo'lib, u biogenetik, sotsiogenetik omillarning qimmatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotining birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Ushbu yondashishning uchta mustaqil yo'nalishga ajratib tahlil qilish mumkin, chunki ularning har biri o'z mohiyati, mahsuli va jarayon sifatida kechishi bilan o'zaro tafovutlanadi.

Umumiy psixologiya fanida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari tadqiq etiladi.

Bu borada psixologlar tomonidan shaxsga nisbatan turlicha ta'rif berilgan va uning tuzilishini o'ziga xos tarzda tasavvur qilishgan. Quyida mualliflarning ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

A.G.Kovalevning fikricha, shaxs - bu ijtimoiy munosabatlarning ham obyekt, ham subyektidir. A.N.Leontev ushbu masalaga boshqacharoq yondashib, unga shunday ta'rif beradi: shaxs - bu faoliyat subyektidir. K.K.Platonovning talqiniga binoan: jamiyatda o'z rolini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli a'zosi shaxs deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan

S.L.Rubinshteyn ta'rificha, shaxs - bu tashqi ta'sirlar yo'nalishini o'zgartiruvchi ichki shart-sharoitlar majmuasidir.

Psixologiya fanida bir-biriga yaqin, lekin ayniyat bo'lmagan tushunchalar qo'llanilib kelinadi, chunonchi: odam, shaxs, individuallik. Ularning mohiyatini aniqroq izohlab berish uchun har birining psixologik tabiatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Odam: sut emizuvchilar sinfiga daxldorlik, biologik jonzot ekanligi odamning o'ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik, qo'llarning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi uning o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzot sifatida odam ong bilan qurollanganligi tufayli borliqni ongli aks ettirish qobiliyatidan tashqari o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o'zgartirish imkoniyatiga ham egadir.

#### **5.4.Biogenetik va sotsiogenetik nazariyalar. «Men»-obrazi va o'z-o'ziga baho**

Shaxs. Mehnat tufayli hayvonot olamidani ajralib chiqqan va jamiyatda rivojlanuvchi, til yordami bilan, boshqa kishilar bilan muloqot (muomala)ga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi.

Individuallik. Har qaysi inson betakror o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shaxsning o'ziga xos qirralarining mujassamlashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individual shaxsning intellektual, emotsional va irodaviy sohalarida namoyon bo'ladi.

S.L.Rubinshteyn bo'yicha shaxs quyidagi tuzilishga ega: Yo'nalganlik - ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi. Bilimlar, ko'nikmalar, malakalar - hayot va faoliyat jarayonida egallanadi.

Individual tipologik xususiyatlar - temperament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi. K.K.Platonov ta'limotiga ko'ra, shaxs tuzilishi quyidagi shaklga ega:

I. Yo‘nalganlik ost tuzilishi - shaxsning axloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Undan harakatchanlik, barqarorlik, jadallik, ko‘lam (hajm) darajalarini farqlash lozim.

II. Ijtimoiy tajriba ost tuzilishi - ta‘lim vositasida, shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko‘nikmalar va odatlarni qamrab oladi.

Psixologik aks ettirish shakllari ost tuzilishi - ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

Biologik shartlangan ost tuzilish - miya morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bogliq bo‘lgan patologik o‘zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik xususiyatlarini birlashtiradi.

A.G.Kovalev talqiniga binoan, shaxs mana bunday tuzilishga ega:

1. Yo‘nalganlik - voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o‘zaro ta‘sir etuvchi har xil xususiyatli g‘oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi.

Ustuvor yo‘nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi.

Imkoniyatlar - faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta‘minlovchi tizim. O‘zaro ta‘sir etuvchi va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turlicha qobiliyatlar.

Ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo‘ladi. Xarakter tizimidan irodaviy va ma‘naviy sifatlar ajratiladi.

Mashqlar tizimi. Hayot va faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish (korreksiyalash), o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘zini o‘zi boshqarishni ta‘minlaydi.

Shaxsning psixologik tuzilishi modellari tahlili. Psixologiya fanida sistemali yondashuvga oid tadqiqotlarning ko‘rsatishiga qaraganda, har qaysi tizimning tavsifi sifatida uning tuzilishi qabul qilinadi. Odatda, ya‘ni struktura - bu obyektning bir qator tarkiblari o‘rtasidagi uning yaxlitligi, o‘ziga o‘zining ayniyatlashuvini ta‘minlovchi barqaror ichki aloqalar majmuasidir.

Biz shaxs strukturasi, ya‘ni tuzilishi muammosini bayon, talqin qilishda tayanch va jabha, komponent tushuncha tariqasida yaxlit tuzilishning nisbiy mustaqil qismidan, tahlilning birligi sifatida element tushunchasidan (atamasidan),

har qanday kontekstlardan yaxlitlik xususiyatini aks ettirmasa ham ulardan foydalanamiz. Bunday tafovut (farq) shaxs xususiyatlarini yaxlit holda mukammal ochish uchun tarkibiy tizimli va elementli-tizimli darajalarini namoyon etish uchun mutlaqo zarur.

Shaxsning tuzilishi to'g'risidagi muammo o'zining dolzarbligi bilan fanning tadqiqot doirasidan, predmetidan tashqari chiqadi. Shaxs tuzilishiga oid ilmiy tasavvurlarning yaratilishi, ishlab chiqilishi yaxlit nazariyaning zaruriy sharti hisoblanib, insonning ijtimoiy mohiyati qirralarini ochish imkoniyatiga egadir. Xuddi shu boisdan psixologiyaga falsafa, pedagogika, tibbiyot singari fanlarning namoyandalari tomonidan uni muhokama qilish namoyon bo'layotganligi tufayli unga qiziqishning yuksakligidan dalolat bermoqda.

Psixologiya fani shaxs strukturasi modelini yaratishga boshqa fanlardan izchilroq kirishadi, uning tabiatini aks ettirish imkoniyatiga erishadi, natijada u psixologiya muammolari majmuasida markaziy o'rin egalladi. Psixologiya olimlari tomonidan tadqiqot qilinayotgan dolzarb muammolar bilan shaxs tuzilishiga oid masala u yoki bu jabhasi orqali uzviy bog'liqlikka ega. Bu kontekstda xulq motivatsiyasi, shaxsning tipologiyasini ishlab chiqish, shaxsga ta'sir o'tkazishning samarali yo'l-yo'riqlarini qidirishni eslatib o'tishning o'zi kifoya.

Psixologiya fanida shaxsga strukturaviy yondashish bo'yicha eng salmoqli ilmiy izlanishlar amalga oshirilganligi qonuniy holat bo'lib, xilma-xil shaxs strukturasi modeli yaratilganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Bu borada B.G.Ananovning fikricha, psixologik hodisalarni aql (intellekt), hissiyot (emotsiya) va irodaga ajratilishi inson psixologiyasida strukturaviy yondashish tajribasining dastlabki ko'rinishi bo'lib, uning haqchilligi ko'pgina psixologlar tomonidan tan olinishidir. B.G.Ananov strukturaviy yondashishning boshqa variantlari tariqasida turlicha psixik hodisalar bilan qarama-qarshi aloqalarning e'tirof etilishi - psixik aktlarning psixik funksiyalar, ongning ongsizlik, tendensiyalarning potensiyalar bilan uyg'unligini ta'kidlaydi. L.S.Vigotskiyning mulohazasiga ko'ra, insonning psixik funksiyalarini yuksak, madaniy, quyi, tabiiy turlarga ajratishni kiritish

mumkin, chunki ularning negizida ta'lim bilan insonning oliy nerv faoliyatida birinchi va ikkinchi signallar sistemasi o'zaro ta'sirining ifodalanishi yotadi.

Hozirgi davrda psixologiya fanida psixologik hodisalarni psixik jarayonlarga, holatlarga, shaxsning xususiyatlariga ajratish qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuvning mavjudligi B.G.Ananov tomonidan strukturaviy konsepsiyaning bir tajribasi sifatida qaraladi. Bu voqelik «hodisalarni bir qator jabhalari bilan to'ldirishga intilish psixofiziologik xususiyat kasb etib, psixik jarayonlar uchun dastlabki materiallarni to'plash imkoniyatini (idrok, tafakkur, emotsiya, iroda) beradi». Uning fikricha, dastlabki materiallar, bir tomondan, psixik funksiyalar (sensor, mnemik), xulqning, ikkinchi tomondan, elementar motivlari (ehtiyoj, ustanovka) hisoblanadi. Olimning mulohazasicha, bu qo'shimchalar «genetik ma'no kasb etib, fiziologiyadan miya mexanizmlarini umumpsixologik va neyrohumoral regulyatorlarini qamrab olish psixologiyaga o'tishga imkon beradi». Lekin ushbu strukturaviy yondashuvning maxsus psixologik deb qarashdan qat'iy nazar, hozirgi zamon sintetik insonshunosligi uchun umumiy ahamiyatli jihatni yuksaklikka ko'tarishga qodir emas.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan psixik hodisalarning turli ko'rinishlarini fenomenlarga ajratishning qonuniyligi bo'yicha bahs yuritmasdan turib, jumladan jarayonlarga, holatlarga, xususiyatlarga bo'linishdan ko'z yumib, ushbu kategoriyalar, ularning turlicha talqini shaxs strukturasi tarkibiy qismlariga tenglashtirish mumkin emasligini qayd etish zarur. Chunki ular sof psixologik asnoda vaqt va fazo o'lchami bo'yicha aniqlikka ega emasdir. Shuning uchun B.G.Ananov tomonidan kiritilgan ilmiy qo'shimchalar umumpsixologik vaziyatni keskin o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lmasa-da, uning ayrim tomonlarini to'ldirishga ega.

Shaxs tuzilishining modelini ishlab chiqishdagi muhim qiyinchiliklarning eng asosiy sababi har xil nuqtai nazarlar mavjudligida yorqin namoyon bo'ladi, ular «shaxsning tuzilishiga ko'ra, substansional va ideal, irsiy va egallaganlik, ijtimoiy va psixologik, somatik va psixologik tomonlariga ega» (V.M.Banshikov). Mulohazadan ko'rinib turibdiki, bunda shaxsning «substansional tomoni»ni irsiy,

turmushda egallaganlik, somatik jabhalar bilan taqqoslaganda mustaqil strukturaviy tarkib sifatida alohida reallikka ega emas. Bunday talqin biron-bir psixologik hodisani turlicha nuqtai nazardan izohlash bilan bog'liq bo'lib, yakkahol, ya'ni individual voqelik (reallik) ustida gap borayotganligini bildiradi.

Psixologiya fanida qo'llanilib kelinayotgan va nisbatan barqarorlashgan shaxsni yo'nalganlikka, temperamentga, xarakter va qobiliyatlarga bo'lish yetarli darajada keskin e'tirozlarga sabab bo'layotgani yo'q. Shuning uchun ko'pgina psixologlar umumiy tizimning majmuasini tashkil qiluvchi murakkab xususiyatlarning tuzilishi sifatida qaraydilar va shaxsning yaxlit tavsifini ifodalaydi, deb tushunadilar. A.G.Kovalevning fikricha, temperament tabiiy (irsiy) xususiyatlarning tizimini bildirib keladi, yo'nalganlik - ehtiyoj, qiziqish, ideallar tizimi, qobiliyatlar - intellektual, irodaviy va emotsional xislatlar ansambli, xarakter - xulq-atvor usullarining va munosabatlarining sintezidir.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, shaxsning murakkab tuzilishga ega bo'lgan ko'p qirrali xususiyatlari, fazilatlar, xislatlari o'zaro bir-birlarining ichiga singib ketganligi natijasida tabiiy, emotsional ehtiyojlar, munosabatlar, xulq-atvor usullari to'g'risidagi mulohazalar umumlashmalar umumlashmasidir. Chunki qiziqishlar va ideallarni intellektual, emotsional, irodaviy xususiyatlarisiz tasavvur qilish mumkin bo'lmaganiday, munosabatlar va xulq-atvor usullari ham alohida hukm surishi g'ayritabiiy holatdir.

B.D.Pariginning fikricha, shaxsning statik tuzilishga quyidagilar kiradi: umuminsoniy psixologik xususiyatlar; milliy, kasbiy, iqtisodiy, siyosiy, sinfiy birlikka aloqador ijtimoiy o'ziga xos xususiyatlar; shaxsning individual betakror xususiyatlari. Bizningcha, olim tomonidan ta'kidlab o'tilgan xususiyatlarning har qaysisi shaxs psixikasida mavjud bo'lib, ular alohida xislatlar guruhi ko'rinishiga ega emasdir.

Yuqorida tahlil qilingan modellarning hech qaysisi sistemali yondashuv doirasidagi hozirgi zamon shaxs strukturasi to'g'risidagi modelga mos kelmas edi. Ushbu modellarning tarkib (jabha)larida nisbiy mustaqil birlik xususiyati aks topmaganligi tufayli bir vaziyatda ular o'zaro tobe elementlarga, ikkinchi



hodisalarda esa takroriy xislatlar ko‘rinishiga o‘xshab ketadi. Shuningdek, shaxs tuzilishi umuman muayyan nazariy yoki amaliy ahamiyatga ega tomon (jabha)lari bilan ajralib turmaydi. Shuning uchun ta’kidlangan hech bir model psixologik mohiyatini o‘zida aks ettiruvchi, jamiyat a’zosi sifatidagi insonning tipiklik va individuallik qiyofalarini tahlil qilishni ta’minlay olmaydi.

Chet el psixologlarining shaxs tuzilishining mohiyatini ochib berishga qaratilgan ko‘pgina yondashuvlari ham yuksak ko‘rsatkichlarga erishmaganligi tufayli bu masalani yoritish uchun keskin o‘zgarish kiritilmadi. G.Ollport, G.Myurrey, R.Linton, K.Rodgers, A.Maslou va boshqa olimlarning yaqqol shaxsning psixologik mohiyatini tushunchalar tizimi yordami bilan xaspo‘shlashi ijobiy izlanish tarzida o‘ziga tortadi, lekin unda shaxs «kundalik turmushimizda biz bilgan shaxsning aynan timsolidir», deb ta’riflanadi.

Mazkur ijobiy ezgu niyatlarni amaliyotda qaror toptirishga shaxsning tizimi tashkiliy tomonini baholay olmaslik va ichki omillar rolini bir tomonlama orttirish holati to‘sqinlik qiladi. Jumladan, R.Linton shaxs tuzilishini «individumga aloqador psixik holatlar va hodisalar tashkiliy agregati», deb talqin qilishni taklif qiladi, buning natijasida ularning shunchaki yig‘indisi yuzaga keladi, xolos.

Taniqli AQSh psixologi G.Ollportning fikricha, shaxs «ichki tizim», «dinamik qurilma», «Men», «qandaydir metapsixologik Men» o‘zida oldindan maqsad va dispozitsiyani aks ettiruvchi, inson tafakkuri va xulq-atvorida mutanosib ravishda qaror toptiruvchi jonzotdir». Xuddi shu boisdan shaxsning sinfiy-tarixiy jihatdan yaqqol baholanishi ochilmay qoladi, ijtimoiy tahlil o‘rnini psixologik talqin egallaydi chamamda.

Psixologlardan T.Parsons, G.Mid va boshqalar «shaxsning rolli tuzilishi» nomli konsepsiyani ishlab chiqib, odamning yaxlit subyektiv dunyosini, uning psixologik qiyofasini diqqat markazidan, idrok maydonidan chetda qoldiradilar.

Shunga qaramasdan, rus faylasuflari va psixologlari shaxsning strukturasiiga biryoqlama yondashishga barham berishga intildilar, uning jamiyatda bajaradigan rolini adolatli baholab, ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik, psixologik tizimlarda rolning turli kontekstda maqsadga muvofiq bajarilishini ko‘rsatib o‘tdilar. Bu kontekstdagi

asosiy yoki bosh muammo rollarni internalizatsiyalashning yaqqol psixologik mexanizmlari, ular bilan bog‘liq bo‘lgan normalari, rollar o‘rtasidagi psixologik farqlar, shaxs tuzilishida mustahkam joy olgan, unga nisbatan tashqi omillar; qo‘zg‘atuvchilar tarzida saqlanuvchilar hisoblanadi.

Chet el psixologiyasida olimlar diqqatini keyingi yillarda shaxs modelining psixologik omillari tortmoqda, ularning asosiy variantlari G.Ayzenk, R.Kettell konsepsiyalari bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur konsepsiyalar ko‘p yoki oz miqdordagi «omillar» (Ayzenkda ular 2-3 ta, Kettellda esa 20 tadan ziyod)ga asoslangan bo‘lib, Ular muayyan darajada umumlashgan individuallikning yoki shaxs qiyofasini ifodalovchi, psixologik xususiyatlarni aks ettiruvchi ruhiy tizimni qayd qilishga suyanadi. Ammo tub ma‘nodagi shaxsning psixologik konsepsiyasi ham individuallik qiyofalarini haqiqiy ijtimoiy-psixologik mohiyatini ochish imkoniyatiga ega emas, chunki xususiyatlarning qonuniy ravishdagi o‘zaro aloqalari tavsif qilinmay qolingan.

B.D.Pariginning qat‘iy asoslanib aytishiga ko‘ra, shaxsning dinamik strukturasi yetakchi (farqlanuvchi) alomati yaqqol vaqt oralig‘iga bog‘liqligi, shaxs faoliyati yoki psixikaning muayyan holatiga aloqadorligidir. Shaxsning dinamik strukturasi ikki asosiy jabhaga taalluqligiga, ya‘ni psixik holatlarga va xulqqa ishora qilgan B.D.Pariginning mulohazasicha, shaxsning kayfiyati yoki psixologik jihatdan o‘zining tayyorgarlik xislati yuksak ahamiyatli yangilanishdir.

Olimning talqiniga ko‘ra, psixologik tayyorgarlik - bu integral strukturaviy tuzilmadan iborat bo‘lib, muayyan vaqt oralig‘ida inson psixikasining jismlari yo‘nalganlik darajasi va tonalligini tavsiflaydi. Psixologik tayyorgarlik o‘zining tuzilishi bo‘yicha uch xil jabhani qamrab oladi (konstantli, dolzarbli, vaziyatli) va faoliyatda muhim funksiyalarni bajaradi: a) muayyan vaqt birligida individ tomonidan qayta ishlanuvchi va idrok qilinuvchi barcha joriy axborotlarning akkumulyatori; b) inson faolligining tonizatori va regulyatori; v) faoliyat va axborotni qabul qilish ustanovkasi; g) shaxsning qadriyatga yo‘nalganlik omili hisoblanadi. Inson hayoti va faoliyatining u yoki bu lahzalarida psixikasining (komponentlari) tarkibiy qismlari bilan sodir bo‘lishlikning psixik tayyorgarligi

sintetik ravishda birlashgandir. Bu muammo pariginchasicha, psixik tayyorgarlik psixik holatlarning dominantligi degan tushunchaga yaqinlashib qoladi. Vaholanki, shaxsning dinamik va statik tuzilishi munosabatini hisobga olmaydi, psixologik tayyorgarlikning miqdoriy tavsifi yo'llarini ko'rsatib o'tmaydi, natijada uning ko'lami cheksizga aylanib qoladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan hodisalarni (vaqtni fazoviy) baholash ontologik asnoda o'z yechimini topa olmaydi. Chunki struktura yaxlit tuzilma bo'lganligi tufayli u hech qachon jabha, tomon va jihatlarning shunchaki majmuasidan iborat bo'lmasligi ravshan. Binobarin, ost tuzilish tushunchasini talqin qilishda umumiy qabul qilingan qoidaga ko'ra nisbiy jihatdan mustaqil tarkiblardan tuzilganidan qat'iy nazar, u bundan kengroq yaxlitlikning qismi bo'lib hisoblanadi. Ana shu fikrdan kelib chiqqan holda quyidagilarni ko'z o'ngiga keltirish muvofiq: birinchidan, shaxsning ijtimoiy sifatleri o'z holicha hukm surmaydi, balki yaqqol nerv sistemasida qayd qilinadi, ya'ni tabiiy-biologik mexanizmlar yordami bilan amalga oshadi.

Ikkinchidan, biologik shartlangan shaxs sifatlarining aksariyati filo va ontogeneza bevosita ijtimoiy shart-sharoitlarning ta'siri ostida shakllanadi. Shuning uchun biologik shartlanganlikning ijtimoiylikdan ajratishni o'zi o'ta murakkab bo'lib, amaliy jihatdan genotip bilan fenotip o'rtasida demarkatsion (fransuzcha - qat'iy chegara) chiziq o'tkazish mumkin emas.

Uchinchidan, na biologik, na ijtimoiy shartlangan sifatlar, fazilatlar, xislatlar inson tomonidan egallanayotgan tajribadan tashqarida namoyon bo'lishi kuzatilmaydi. Shuningdek, insonning o'zlashtiradigan bilimlari, malakalari, ko'nikmalari, odatlarining o'ziga xosligi uning shaxsidagi nuqsonlar kompensatsiyasi ko'pincha axloqiy yo'nalganlik va mayllarga bog'liq.

To'rtinchidan, alohida olingan bilim jarayonlarining tipologik xususiyatlari bilan shartlangan shaxs fazilatlarini o'zaro bir-biridan ajratib tahlil qilish ham g'ayritabiiy holatdir. Yuqoridagi mulohazalarning barchasi shaxsda namoyon bo'ladigan xislatlarida o'z ta'sirini, izini qoldiradi.

Xuddi shu boisdan K.K.Platonov tomonidan tavsiya qilingan ost-tuzilishning tabiiy yaqqol shaxs tuzilmasi majmuasi sifatida qabul qilish o'ta bahslidir. K.K.Platonov bo'yicha shaxsning to'rt «osttuzilish» jabhalari hisoblanadi, chunki turli kontekstdagi ularning har qaysisiga shaxs fazilati tariqasida qarash va shunda uning integral tizimini baholash mumkin.

V.S.Merlin ham shaxsning tuzilishi masalasiga alohida ahamiyat bergan olimlardan biri sanaladi. Uningcha, shaxsning qismlariga ajratib talqin qilinmaydigan jabha (komponent) - bu uning xislatlaridir. Ularning har biri muayyan yo'nalganlik mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, shaxs munosabatini aks ettiradi. Shunga binoan shaxsning tuzilishi deganda V.S.Merlin insonning o'z-o'ziga, o'zgalarga, mehnatga u yoki bu munosabatini o'zida birlashtiruvchi shaxs xususiyatlarining tashkiliy va o'zaro aloqadorligini anglatuvchi o'ziga xos «simptom kompleks»ni tushunadi.

Olimning muammoga bunday yondashuvi go'yoki juda o'rinli, to'la ashyoviy daliliy tasavvurni vujudga keltiradi. Shaxs tuzilishi muammosini uzil-kesil hal qilinishi, yechimini topish uchun ayrim shartlarga rioya etilishi lozim. Birinchidan, «shaxsning munosabati» tushunchasi mohiyatini yaqqol ochish, ikkinchidan, shaxsning xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarni detallashtirgan holda ishlab chiqish darkor. V.S.Merlinning faktlar konstatatsiyasiga binoan «simptom kompleks» shaxs tuzilishining bayoniy va statik tavsifini bildiradi, xolos», holbuki shunday ekan «mazkur ijtimoiy sharoitlarda shaxs tuzilishining rivojlanishi va yuzaga kelishi qonuniyatlari» o'rnatilishi joiz.

N.I.Reynvaldning izohlashicha, faoliyatning regulyatsiyasida psixik funksiyalarni umumlashgan guruhlashtirish ularning uch o'lchovli (mezonli) tasnifining aql (intellekt), hissiyot (emotsiya) va iroda mohiyati zimmasiga tushishi shaxs tuzilishini temperament, xarakter va qobiliyatlarga, ikkinchi tomondan esa ekstraversiya, introversiya omillariga ajratishga barham beradi.

N.I.Reynvaldning ushbu yondashuvi A.R.Luriyaning miya faoliyatining uch blokli roli tasnifiga bevosita mos tushadi, chunonchi, aql (intellekt) ko'p hollarda informatsion blok orqali amalga oshadi, iroda (tashkiliylilik) programmalashtirish

bloki bilan, xilma-xil emotsional holatlar (hissiyot) yuzaga kelishining negizida «energetik» blok yotadi. Aql, hissiyot, iroda va ularni ro'yobga chiqaruvchi miyaning bloklari, harakatlantiruvchilarni emas, balki o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatining uch lahzasini anglatadi.

Xullas, qarashlarning rang-barangligi muammo yechimining har xil variantlari, invariantlari, modifikatsiyalari, modullari va modellari bir davrning o'zida hukm surishini ta'minlaydi hamda sistemali yondashuv majmuasi yuzaga kelishi uchun puxta negiz, mexanizm va barqaror manba hozirlaydi.

Odamzod muammosi azaliy dolzarbligi bilan boshqa insonshunoslik kategorilaridan keskin ajralib turgan va bundan keyingi insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida ham xuddi shunday yuksak nufuzga ega bo'lib qolaveradi. Jamiyat mavjud ekan, uning qudrati, harakatlantiruvchi kuchi, moddiy va ma'naviy mahsulot yaratuvchisi bo'lmish insonning axloqi, aql-idroki, yuksak his-tuyg'usi, irodaviy fazilati, qobiliyati va salohiyati yuzasidan yangi ma'lumotlarga ega bo'lish masalasi o'z mavqeini aslo yo'qotmaydi. Xuddi shu boisdan inson shaxsi, uning kamoloti, unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, faoliyat, tajriba va intilishning roli masalalari XXI asrda tadqiqot etilishga muhtojdir.

Inson shaxsini o'rganish masalasi bilan falsafa, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, filologiya, tarix kabi ijtimoiy va gumanitar fanlar shug'ullanadi. Hozirgi davrda inson muammosi aniq, gumanitar, ijtimoiy fanlarning umumiy tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda va bu jarayon keyingi asrda yanada jadallashadi. Shunga qaramasdan, bir tomondan, insonni o'rganishda differentsiatsiya hodisasi yuz bermoqda, ikkinchi tomondan, inson taraqqiyotining sintetik (birikuv) tavsifi bo'yicha integratsiya holati ko'zga tashlanmoqda. Inson bir qator fanlarning tadqiqot obyektiga ekanligi yig'iq, ixcham, yaxlit tarzda tasavvur etish uchun uni biosotsial va sotsiobiologik jihatdan o'rganish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, inson hayoti va faoliyatining operatsional (usul, uslub, uquv, operatsiya, ko'nikma, malaka, odat) mexanizmi uning ontogenezida funksional (harakatlantiruvchi) mexanizmga o'sib o'tadi, binobarin, unda komillikning

belgilari, alomatlari shakllanadi, natijada u jismoniy va ma'naviy kamolot cho'qqisining muayyan darajasiga erishadi.

Jahon psixologiyasidagi turli nazariyalarga asoslangan holda, birinchidan, inson u yoki bu aloqalar tizimiga binoan biologik evolyutsiya mahsuli sifatida o'rganiladi. Ikkinchidan, ijtimoiy-tarixiy jarayonning ham obykti, ham subyekti tariqasida inson shaxsi tadqiqot qilinadi. Uchinchidan, individ (odamzod) muayyan darajada va ko'lamda o'zgaruvchan, biologik taraqqiyotning genetik dasturiga asoslanuvchi alohida xususiyatli jonzod tarzida ilmiy jihatdan tekshiriladi.

Bizningcha, insonning jamiyat ishlab chiqarishining yetakchi va asosiy tarkibi, bilish, kommunikatsiya va boshqaruv jarayonining subyekti, tarbiyalash va tarbiyalanish predmeti sifatida tadqiq etilishi muhim ahamiyatga ega. Xuddi shu boisdan inson va uning borliq, ijtimoiy jamiyat bilan ko'p qirrali, murakkab munosabatga hamda aloqaga kirishishi quyidagi tarzda namoyon bo'lishi mumkin:

Tabiatning biotik va abiotik omillari - inson.

Jamiyat va uning tarixiy taraqqiyoti - inson.

Inson - texnika, texnologiya.

Inson - madaniyat, ma'naviyat, qadriyat va ruhiyat.

Inson va jamiyat - yer va fazo.

XXI asrda ham odam individ, shaxs, subyekt, komil inson sifatida psixologik ilmiy tushunchalar negizida talqin qilinishda davom ettiriladi, lekin har bir tushuncha mohiyatida va ko'lamida sifat o'zgarishlari yuz berishi mumkin, chunki tashqi va ichki omillar, ta'sir etuvchilar, ta'sirlanuvchilar ustuvorligi yo'qola boradi.

Odamga individ sifatida tavsif berishda uning yosh davri, jinsiy va individual-tipologik xususiyatlariga asoslaniladi. Yosh davrning sifatlari ontogenetik, evolyutsiya bosqichlarida izchil ravishda namoyon bo'ladi va takomillashuv jarayonida o'z ifodasini topadi, jinsiy dimorfizm xususiyati esa ularga mutlaqo mos tushadi. Individning individual-tipologik xususiyatiga konstitusion (tananing tuzilishi, biokimyoviy individuallik, ya'ni yakkahollik) holatlar, simmetriya va asimmetriya juft retseptorlari, effektorlari funksiyasi kiradi. Bu xususiyatlar,

holatlar, hodisalar, mexanizmlar va xossalar birlamchi hisoblanib, hujayra va molekulyar tuzilishning barcha darajalarida ishtirok etadi.

Jahon psixologiyasi to'plagan nazariy va amaliy ma'lumotlarga ko'ra, yosh, jinsiy va individual-tipologik xususiyatlar sensor (subsensitiv, subseptiv), mnemik (xotira), verbal (so'z orqali) va mantiq psixofiziologik funksiyalarining dinamikasi hamda organik ehtiyojlar tuzilishini aniqlaydi. Individning bu xususiyatlarini ikkilamchi deb atab, ularning integratsiyasi temperament xususiyatlarida va tug'ma mayllarda ifodalanishini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq. Chunki yuqoridagi sifatlar ontogenetik evolyutsiya jarayonidan iborat bo'lib, ular filogenetik dasturga asoslanib hukm suradi. Yosh davrga oid va individual o'zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti ta'siri ostida har xil ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Individning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy muhitda vujudga kelgan sifatlari ta'sir etib, uning individual o'zgaruvchanligi omilini yanada kuchytiradi.

Insonning shaxs sifatida tavsiflanishining muhim psixologik lahzasi uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy negizga bog'liq, ya'ni uning jamiyatda egallagan o'rni, nufuzi, mavqei bilan belgilanadi) orqali ifodalanadi. Statusning negizida esa hamisha uzluksiz ravishda o'zaro aloqalar tizimi yotadi. Inson bajarishi lozim bo'lgan guruh faoliyat va yakkahol turmushga, kasb-hunarga aloqador oiladagi hamda jamoadagi rolning ijtimoiy funksiyasi, uning muayyan maqsadga, qadriyatga, ma'naviyatga yo'nalganligi, shaxsni faollashtiradi, natijada u barcha jabhalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Status, rol, qadriyatga yo'nalganlik shaxs xususiyatlari, sifatlari, fazilatlari, xosiyatlari va xislatlarining birlamchilarini tashkil etadi, uning tuzilishida asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning tavsifi faoliyat, xulq motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fe'l-atvor (oddiy stereotipdan tortib, to xalq donishmandligi namunalari) tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi alomatlar, belgilar sifatida joy egallaydi. Shaxsning birlamchi va ikkilamchi sifatlarining o'zaro ta'sirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va mayllari yuzaga keladi. Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi, ularni takomillashtiruvchi va

barqarorlashtiruvchi asosiy shakl - uning jamiyatdagi hayot yo'li, muayyan iz qoldirishi va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi. Shaxsning xalqiga qilgan xizmati uning e'zozlanishiga, hattoki milliy ma'naviy boylik, tafakkur gulshani va sarchashmasi darajasiga ko'tarilishi mumkin.

Insonning faoliyat subyekti sifatidagi asosiy tavsiflari qatoriga uning bu sohadagi taraqqiyotning mahsuli - ongi (obyektiv faoliyatning in'ikosi sifatida (va faoliyati) voqelikning o'zgartiruvchisi tariqasida) kiradi. Inson amaliy faoliyatning subyekti tarzida uning shaxsiy fazilatlari va xislatlarini tavsiflabgina qolmaydi, balki mehnatning texnik vositalari va texnologiyasi, ularning kuchaytiruvchanlik, tezlashtiruvchanlik va yaratuvchanlik funksiyalari sifatida yuzaga keladi. Amaliy faoliyat umuminsoniy va yakka shaxs tajribasining bir qismi tariqasida, egallanilgan, o'zlashtirilgan, puxta tajribadan foydalanish singari namoyon bo'ladi.

Nazariy faoliyatning subyekti bo'lmish inson o'zining bilimlari, kasbiy ko'nikmalari, aqliy malakalari bilan tavsiflanadi, qaysi-ki ular o'ziga xos alomatlar tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Aqliy faoliyat ijodiyot darajasiga o'sib o'tishi natijasida ijodiy mahsullar, yangiliklar, qonuniyatlar vujudga keladi va jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Ajdodlar merosi va avlodlar salohiyati mahsullarining uzviy bog'lanishi nazariy va amaliy faoliyatning o'zaro uyg'unlashuvini taqozo etadi, vaholanki, har ikkala faoliyat turida ijodiylik alomati, mahsuli ishtirok qiladi, fan va texnika rivojini ta'minlaydi. Faoliyat tajribalar bilan uzviy bog'lansa, uning samaradorligi, maqsadga yo'nalganligi, amalga oshish imkoniyati yuksak bosqichga ko'tariladi.

Inson hayotida ijtimoiy hodisa sifatida armon muhim rol o'ynaydi, uni faollikka chorlaydi, harakat qilishga asosiy turtki vazifasini bajaradi. Armon inson uchun go'yoki ushalmagan orzu, g'amgin tuyg'ularning jonlashuvi, komfortga intilishga da'vat etuvchi hissiyot, ijtimoiy va yakkahol turmushni baholash mezoni, faollikka yetaklovchi motiv, ezgu niyatlar og'ushiga tortuvchi doimiy turtki, loqaydlikning oldini oluvchi ichki ruhiy imkoniyatdir. Shaxs uchun eydetik obrazlar qanchalik ahamiyat kasb etsa, barqaror iz qoldirsa, armon ham xuddi



shunday xususiyatga ega bo'lib, ulardan farqli o'laroq doimiylik, ustuvorlik, maqsadga undovchiligi bilan yuqoriroq nufuzga ega.

Insonning subyektiv xislatlari integratsiyasining yuksak shakli ijodiyot (kreatsiya) hisoblanib, umumlashgan imkoniyatlar tarzida qobiliyatlar (iste'dod, iqtidor), talant va salohiyat vujudga keladi. Odamning subyektiv xususiyatlari, xislatlari rivojining asosiy shakllari ruhan tayyorgarlik, kulminatsiya va tugashi sanalib, insonning jamiyatdagi ishlab chiqarish va ijodiyot faoliyatlarini belgilaydi. Mazkur to'rt bosqich, to'rt mezon, taraqqiyotni baholash tizimi o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari, sur'ati, davomiylik bilan bir-birlaridan ham sifat, ham miqdor jihatdan ajralib turadi.

Jahon psixologiyasi fanida inson sifatleri (xislatlari, fazilatlari, xosiyatlari)ni individual, shaxsga oid va subyektiv guruhlariga ajratilishi an'anaviy va kasbiy xususiyatga ega, chunki ular odamning yaxlitligi, bir butunligi, alohidaligi tavsifidan iborat bo'lib, bir davrning o'zida ham tabiat, ham jamiyat jonzodi ekanligini anglatadi. Mazkur yaxlitlikning mag'zi shaxsning tuzilishidir, unda nafaqat insonning asosiy xislatlari o'zaro kesishadi va umumlashadi, balki uning ijtimoiy va shaxsiy ko'nikmalari muayyan tarkibga keltiriladi, qoidaviy xususiyat kasb etadi.

Bizningcha, individ, shaxs, subyekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi ijtimoiy-psixologik holatlarga e'tibor qilinishi zarur:

Inson rivojining determinatori hisoblangan asosiy omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhitining omillari).

Insonning shaxsiy o'ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning rivojlanishi ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolyutsion negizda kamol topish bosqichlari, barqarorlashuvi va involyutsiya (o'sishdan qaytish davri xususiyatlari).

Insonni yaxlit, mukammal tuzilishining asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning muttasil ravishda takomillashuvi kabi faktorlar.

Uch xil xususiyatli tadqiqot dasturining tarkibiy qismlari insonning amaliy, nazariy va ijodiy faoliyatining mezonlari hisoblanadi. Chunki bevosita faoliyatni amalga oshirish jarayonida yashash muhitini va ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashning ham interiorizatsiya, ham eksteriorizatsiya davrlari yuzaga keladi.

XXI asrda individ, inson, shaxs, subyekt va komil insonni o'rganish turli yo'nalishlarda, vaziyatlarda, yosh xususiyatlari, alohida yondashish negizida, o'ziga xos tahlilga, metodologik asosga suyanib olib borilishi maqsadga muvofiq. Chunki jahon psixologiyasi fanida to'plangan nazariy va amaliy xususiyatli materiallarni mafkuraviy nuqtai nazardan tahlil hamda tanqid qilmasdan, balki ularni xolisona baholash, ilmiy jihatdan talqin qilish joiz. Binobarin, turli psixologik ilmiy maktablar tomonidan to'plangan natijalarning oqil jihatlarini tanlash va tadqiqotning boshlang'ich nuqtasini belgilashda ulardan omilkorlik bilan foydalanish ko'pgina ilmiy qaytadan tekshiruvlarning oldini oladi.

Demakki, tabiatga va jamiyatga nisbatan sevinch, sevgi, mehr-muhabbat yuksak hislari, vatanparvarlik va Vatan tuyg'usining tarkiblari, negizi, ularni harakatlantiruvchi mexanizmlari boshqacha yondashishni taqozo etadi, zamon ruhi va nafasiga moslashishni talab qiladi. Insoniyatning bunday yuksak his-tuyg'ulari, anglashilgan motivlari shaxsning o'qish, mehnat, sport va o'yin faoliyatlarida, bilish hamda muomala jarayonlarida vujudga kelishi mumkin. Borliqqa va jamiyatga nisbatan munosabatning o'zgarishi, uning ierarxiyasi, shakllari, maqomi va mohiyatida namoyon bo'ladi, ularga yo'naltirilgan avvalgi, eski uslubdagi motivatsiya o'z ahamiyatini nisbiy jihatdan yo'qotadi.

Hozirgi kunda va kelajakda shaxsga subyektiv munosabat muammosini ijtimoiy jihatdan turmushda qaror toptirish uchun:

Odam (individ) – inson - shaxs - individuallik - subyekt - komillik (barkamollik) ierarxiyasiga rioya qilish.

Shaxsga nisbatan subyektiv munosabat, ya'ni unda robot sifatida majburiylik tamoyiliga asoslanib (barcha xususiyatlarni bir tekis shakllantirish mumkin, degan xato nazariyadan voz kechish) inson qarshilik ko'rsatishini hisobga oluvchi yondashishni yo'lga qo'yish, subyekt-subyekt aloqasini vujudga keltirish.

Har qanday subyekt - shaxs, lekin har qaysi shaxs subyekt emasligi muammosini yechish. Buning uchun mustaqil fikrlashga ega bo'lish, shaxsiy pozitsiyani himoya qila olish, g'oyani amalga oshirish yo'lida to'siqlarni pisand qilmaslik, mustahkam ishonch, qat'iy maslak, iymon negizida asoslanish, intilishda irodaviy barqarorlik ustuvorligiga erishish. Dunyoqarash va uni hayotga tatbiq qilishning obyektiv va subyektiv shart-sharoitlari mavjudligiga iqrор bo'lish hamda uni tan olish va hokazo.

Bizningcha, individ, shaxs, subyekt va komil inson to'g'risida mulohazalar yuritilganda ularning ongsizlik, ongostlilik, onglilik va o'ta (super) onglilik holatlari bilan uzviy aloqadorligini unutmash lozim. Yuqorida keltirilgan atamalar ongli mavjudodga taalluqli ekanligi jahon psixologiyasi fanining ilmiy manbalarida atroflicha talqin qilingan, lekin ularning ierarxiyasi, mohiyati bayonida turlicha yondashuv hukmronidir. Mazkur maqsadni chuqurroq ochishga yo'naltirilgan nazariyalar o'ta bahsli bo'lib, uning zaminida faqat ong yotishi tasdiqlanadi, xolos. Aslida esa inson ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriy xotira va muayyan maqsadga asoslanib, biron-bir faoliyat inson tomonidan tashkil qilingandagina ong shaxsning ushbu faoliyatini regulyatori (boshqaruvchi) vazifasini bajaradi. Biroq odam funksional holatining o'zgarishi bilan onglilikdan ongsizlik (ixtiyorsizlik)ka o'tishi, ijod, tashabbus uning uchun muomala, faoliyat negiziga aylansa, u holda shaxs ongosti (muvofiqlashuv) holatiga asta kirib borishi mumkin. Xuddi shu boisdan shaxs bir davrning o'zida har uchala holat (onglilik, ongsizlik, ongostlilik) hukmi ostida yashashi, faoliyat ko'rsatishi, ijod qilishi, muomalaga kirishishi mumkin. Har uchala holatning omili negizida shaxsning kamoloti vujudga keladi, ularning har qaysisi bu jarayonga o'ziga xos ulush qo'shadi. Ong holatlari tabiiy ravishda bir-biri bilan uzluksiz tarzda o'rin almashtirib turadi, chunki inson ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keyingi bosqichlar hukmi bilan yashaydi va faoliyat ko'rsatadi.

## **5.5. Shaxsga xos bo'lgan obyektiv sifatlar, onglilik, javobgarlikni his etish, o'z qadrini bilish**

XXI asrda yashovchi inson ongli, ongosti va ongsizlik holatlaridan tashqari, o'z-o'zini anglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Xuddi shu boisdan o'z-o'zini anglashning quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

o'tmishdagi «Men» («o'zlik»);

hozirgi «Men» («o'zlik»);

bo'lg'usi «Men» («o'zlik»);

ideal «Men» («o'zlik»);


dinamik «Men» («o'zlik»).

O'z-o'zini anglash jarayoni milliy o'zligini anglash bilan uzviy bog'liq bo'lib, muayyan vaqt, muddat o'tishini, ya'ni ma'lum davrni taqozo etadi, lekin u ham evolyutsion, ham revolyutsion yo'l ta'sirida amalga oshishi mumkin. O'z-o'zini anglash borliq va jamiyatni in'ikos etishning yuqori bosqichi sanalib, pirovard natija sifatida yuzaga keladi, insonning donishmandligini namoyish qiladi. O'z-o'zini anglash besh tarkibdan iborat bo'lib, u o'ta murakkab jarayon hisoblanib, uning tarkiblari birin-ketin anglashinish imkoniyatiga ega emas. Chunki insonda o'zining hayoti va faoliyati yutuqlari, nuqsonlarini, xulq-atvor ko'nikmalarini, aql-idrok darajalarini, ichki imkoniyat zaxiralarini, qadriyat hamda ma'naviyat ko'rsatkichlarini oqilona baholashga qurbi yetishmaydi. Shaxsda tanqid va o'z-o'zini tanqid, baholash va o'z-o'zini baholash, tekshirish va o'z-o'zini tekshirish, nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish, boshqarish va o'z-o'zini boshqarish, takomillashtirish va o'z-o'zini takomillashtirish, rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirish mutanosibligi maqsadga javob bera olmaydi. Individual va ijtimoiy ongni tobora rivojlanib borishi mazkur mutanosiblikni amalga oshirishni ta'minlaydi, bu esa muayyan muddatni talab qiladi.

Inson o'z-o'zini anglash jarayonida ko'pincha reallikdan boshlaydi, hozirgi va favquloddagi holatni tahlil qiladi, shaxsiy imkoniyati bilan taqqoslaydi, ma'lum mezon yoki namuna, ibrat tanlab, unga tenglashishga intiladi. Keyinchalik esa kelajak, istiqbol rejaları uni qiziqtiradi, o'zining nimalarga qodirligi yuzasidan

mulohaza yuritadi va bu borada muayyan qaror qabul qilishga erishadi, lekin uning ongliligi yoki oqilliligiga shubhalanadi. Uni bir necha marta tahlil qilish, qiyoslash, unga o'zgartirishlar kiritish, yangilash orqali bo'lg'usi «Men»iga aniqlik kiritadi va faollik mexanizmiga aylantiradi.

### O'z-o'zini tarbiyalash metodlari.



O'z-o'zini anglashning navbatdagi bosqichida shaxs o'tmishini tahlil qiladi, undagi qusurli va ibratli jihatlarni o'zaro qiyoslab ustuvorlikni topishga intiladi, bu borada ayrim siljishlarga erishadi. Ijtimoiy hayotdan u o'ziga ideal bo'luvchi shaxsni tanlaydi va undagi ijobiy xislatlar, xususiyatlar va ko'rinishlarni, ko'rsatkich-larni o'zida mujassamlashtira boradi. Shaxs o'z-o'zini anglash davomida dinamik harakatsiz hech bir narsani ro'yobga chiqara olmasligiga iqror

bo‘ladi, natijada uzluksiz harakatlar asta-sekin, birdaniga, tavakkaliga amalga oshirish lozimligini tushunib yetadi. Dinamik holatni baholash, tekshirish, nazorat qilish, boshqarish natijasida dinamik «Men» shakllana boshlaydi. O‘z-o‘zini anglashning besh tarkibiy qismi bir tekis insonning ma’naviy dunyosiga aylansa, demakki, unda mukammallik, barkamollik darajasi vujudga kelganligidan dalolatdir.

O‘z-o‘zini anglash shaxsning fazilatiga aylanishi uchun muayyan davr, vaqt, muddat talab qiladi, shuning uchun o‘quvchilar, talabalar va respublikamizning boshqa fuqarolari bilan dasturiy tadbir-choralar o‘tkazish orqali ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

XXI asr odamlari komillikni egallovchi, ya’ni komil insonlikka intiluvchi shaxslardan tarkib topishi lozim. Komillikning bir nechta mezonlari mavjud bo‘lib, unda jismoniy barkamollik, axloqiy barkamollik, betakrorlik, aql-zakovatlilik singari shaxsning ijtimoiy-tarbiyaviy tarkiblari o‘z ifodasini topadi. Komillikning o‘ziga xos bosqichlari, obyektiv va subyektiv xususiyatli shart-sharoitlari, omillari mavjuddir. Komil inson imkoniyati cheksiz, o‘z iqtidori, iste’dodi, salohiyati, qobiliyati, donishmandligi, qomusiyligi bilan o‘z zamondoshlaridan sezilarli darajada ilgarilab ketuvchi, betakror, o‘ta (super) ongli, biosfera va neosfera munosabatlarini anglovchi ongli zotdir (onglilikning ongliligi ustuvordir). Bizningcha, bu darajaga barcha fuqarolar erishish imkoniyatiga ega emas, chunki buning ham obyektiv, ham subyektiv omillari, shart-sharoitlari mavjuddir. Xuddi shu sababdan shunchaki intilish, mayl, layoqat bilan yuksak kamolot cho‘qqisiga erishib bo‘lmaydi, mazkur ijtimoiy holatni chuqurroq tadqiqot qilish farazlarimizni yo tasdiqlaydi yoki inkor qiladi.

Inson shaxsini o‘rganish masalasi bilan falsafa, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, filologiya, tarix kabi ijtimoiy va gumanitar fanlar shug‘ullanadi. Hozirgi davrda inson muammosi aniq, gumanitar, ijtimoiy fanlarning umumiy tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda va bu jarayon keyingi asrda yanada jadallashadi. Shunga qaramasdan, bir tomondan, insonni o‘rganishda differentsiatsiya hodisasi yuz bermoqda, ikkinchi tomondan, inson taraqqiyotining

sintetik (birikuv) tavsifi bo'yicha integratsiya holati ko'zga tashlanmoqda. Inson bir qator fanlarning tadqiqot obyekti ekanligi yig'iq, ixcham, yaxlit tarzda tasavvur etish uchun uni biosotsial va sotsiobiologik jihatdan o'rganish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, inson hayoti va faoliyatining operatsional (usul, uslub, uquv, operatsiya, ko'nikma, malaka, odat) mexanizmi uning ontogenezida funksional (harakatlantiruvchi) mexanizmga o'sib o'tadi, binobarin, unda komillikning belgilari, alomatlari shakllanadi, natijada u jismoniy va ma'naviy kamolot cho'qqisining muayyan darajasiga erishadi.

Jahon psixologiyasidagi turli nazariyalarga asoslangan holda, birinchidan, inson u yoki bu aloqalar tizimiga binoan biologik evolyutsiya mahsuli sifatida o'rganiladi. Ikkinchidan, ijtimoiy-tarixiy jarayonning ham obyekti, ham subyekti tariqasida inson shaxsi tadqiqot qilinadi. Uchinchidan, individ (odamzod) muayyan darajada va ko'lamda o'zgaruvchan, biologik taraqqiyotning genetik dasturiga asoslanuvchi alohida xususiyatli jonzot tarzida ilmiy jihatdan tekshiriladi.

Insonning shaxs sifatida tavsiflanishining muhim psixologik lahzasi uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy negizga bog'liq, ya'ni uning jamiyatda egallagan o'rni, nufuzi, mavqei bilan belgilanadi) orqali ifodalanadi. Statusning negizida esa hamisha uzluksiz ravishda o'zaro aloqalar tizimi yotadi. Inson bajarishi lozim bo'lgan guruhiy faoliyat va yakkahol turmushga, kasb-hunarga aloqador, ya'ni oiladagi hamda jamoadagi rolning ijtimoiy funksiyasi, uning muayyan maqsadga, qadriyatga, ma'naviyatga yo'nalganligi, shaxsni faollashtiradi, natijada u barcha jabhalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Status, rol, qadriyatga yo'nalganlik shaxs xususiyatlari, sifatleri, fazilatleri, xosiyatlari va xislatlarining birlamchilarini tashkil etadi, uning tuzilishida asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning tavsifi faoliyat, xulq motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fe'l-atvor (oddiy stereotipdan tortib, to xalq donishmandligi namunalari) tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi alomatlar, belgilar sifatida joy egallaydi. Shaxsning birlamchi va ikkilamchi sifatlarining o'zaro ta'sirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va mayllari yuzaga keladi. Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi, ularni

takomillashtiruvchi va barqarorlashtiruvchi asosiy shakl - uning jamiyatdagi hayot yo'li, muayyan iz qoldirishi va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi. Shaxsning xalqiga qilgan xizmati uning e'zozlanishiga, hattoki milliy ma'naviy boylik, tafakkur gulshani va sarchashmasi darajasiga ko'tarilishi mumkin.

Insonning faoliyat subyekti sifatidagi asosiy tavsiflari qatoriga uning bu sohadagi taraqqiyotning mahsuli - ongi (obyektiv faoliyatning in'ikosi sifatida (va faoliyati) voqelikning o'zgartiruvchisi tariqasida) kiradi. Inson amaliy faoliyatning subyekti tarzida uning shaxsiy fazilatlarini va xislatlarini tavsiflabgina qolmaydi, balki mehnatning texnik vositalari va texnologiyasi, ularning kuchaytiruvchanlik, tezlashtiruvchanlik va yaratuvchanlik funksiyalari sifatida yuzaga keladi. Amaliy faoliyat umuminsoniy va yakka shaxs tajribasining bir qismi tariqasida, egallanilgan, o'zlashtirilgan, puxta tajribadan foydalanish singari namoyon bo'ladi. Nazariy faoliyatning subyekti bo'lmish inson o'zining bilimlari, kasbiy ko'nikmalari, aqliy malakalari bilan tavsiflanadi, qaysiki ular o'ziga xos alomatlar tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Aqliy faoliyat ijodiyot darajasiga o'sib o'tishi natijasida ijodiy mahsullar, yangiliklar, qonuniyatlar vujudga keladi va jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Ajdodlar merosi va avlodlar salohiyati mahsullarining uzviy bog'lanishi nazariy va amaliy faoliyatning o'zaro uyg'unlashuvini taqozo etadi, vaholanki, har ikkala faoliyat turida ijodiylik alomati, mahsuli ishtirok qiladi, fan va texnika rivojini ta'minlaydi. Faoliyat tajribalar bilan uzviy bog'lansa, uning samaradorligi, maqsadga yo'nalganligi, amalga oshish imkoniyati yuksak bosqichga ko'tariladi.

Inson hayotida ijtimoiy hodisa sifatida armon muhim rol o'ynaydi, uni faollikka chorlaydi, harakat qilishga asosiy turtki vazifasini bajaradi. Armon inson uchun go'yoki ushalmagan orzu, g'amgin tuyg'ularning jonlashuvi, komfortga intilishga da'vat etuvchi hissiyot, ijtimoiy va yakkahol turmushni baholash mezon, faollikka yetaklovchi motiv, ezgu niyatlar og'ushiga tortuvchi doimiy turtki, loqaydlikning oldini oluvchi ichki ruhiy imkoniyatdir. Shaxs uchun eydetik obrazlar qanchalik ahamiyat kasb etsa, barqaror iz qoldirsa, armon ham xuddi shunday xususiyatga ega bo'lib, ulardan farqli o'laroq doimiylik, ustuvorligi,



maqsadga undovchiligi bilan yuqoriroq nufuzga ega.

Insonning subyektiv xislatlari integratsiyasining yuksak shakli ijodiyot (kreatsiya) hisoblanib, umumlashgan imkoniyatlar tarzida qobiliyatlar (iste'dod, iqtidor), talant va salohiyat vujudga keladi. Odamning subyektiv xususiyatlari, xislatlari rivojining asosiy shakllari ruhan tayyorgarlik, kulminatsiya va finish sanalib, insonning jamiyatdagi ishlab chiqarish va ijodiyot faoliyatlarini belgilaydi. Mazkur to'rt bosqich, to'rt mezon, taraqqiyotni baholash tizimi o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari, sur'ati, davomiyligi bilan bir-birlaridan ham sifat, ham miqdor jihatdan ajralib turadi.

Jahon psixologiyasi fanida inson sifatleri (xislatlari, fazilatlari, xosiyatlari)ni individual, shaxsga oid va subyektiv guruhlariga ajratilishi an'anaviy va kasbiy xususiyatga ega, chunki ular odamning yaxlitligi, bir butunligi, alohidaligi tavsifidan iborat bo'lib, bir davrning o'zida ham tabiat, ham jamiyat jonzodi ekanligini anglatadi. Mazkur yaxlitlikning mag'zi shaxsning tuzilishidir, unda nafaqat insonning asosiy xislatlari o'zaro kesishadi va umumlashadi, balki uning ijtimoiy va shaxsiy ko'nikmalari muayyan tarkibga keltiriladi, qoidaviy xususiyat kasb etadi.

Bizningcha, individ, shaxs, subyekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi ijtimoiy-psixologik holatlarga e'tibor qilinishi zarur:

Inson rivojining determinatori hisoblangan asosiy omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhitining omillari). Insonning shaxsiy o'ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning rivojlanishi ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolyutsion negizda kamol topish bosqichlari, barqarorlashuvi va involyutsiya (o'sishdan qaytish davri xususiyatlari). Insonni yaxlit, mukammal tuzilishining asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning muttasil ravishda takomillashuvi kabi faktorlar.

Uch xil xususiyatli tadqiqot dasturining tarkibiy qismlari insonning amaliy, nazariy va ijodiy faoliyatining mezonlari hisoblanadi. Chunki bevosita faoliyatni amalga oshirish jarayonida yashash muhitini va ijtimoiy-tarixiy tajribani

egallashning ham interiorizatsiya, ham eksteriorizatsiya davrlari yuzaga keladi.

XXI asrda individ, inson, shaxs, subyekt va komil insonni o'rganish turli yo'nalishlarda, vaziyatlarda, yosh xususiyatlari, alohida yondashish negizida, o'ziga xos tahlilga, metodologik asosga suyanib olib borilishi maqsadga muvofiq. Chunki jahon psixologiyasi fanida to'plangan nazariy va amaliy xususiyatli materiallarni mafkuraviy nuqtai nazardan tahlil hamda tanqid qilmasdan, balki ularni xolisona baholash, ilmiy jihatdan talqin qilish joiz. Binobarin, turli psixologik ilmiy maktablar tomonidan to'plangan natijalarning oqil jihatlarini tanlash va tadqiqotning boshlang'ich nuqtasini belgilashda ulardan omilkorlik bilan foydalanish ko'pgina ilmiy qaytadan tekshiruvlarning oldini oladi.

Shaxsga nisbatan subyektiv munosabat, ya'ni unda robot sifatida majburiylik tamoyiliga asoslanib (barcha xususiyatlarni bir tekis shakllantirish mumkin, degan xato nazariyadan voz kechish) inson qarshilik ko'rsatishini hisobga oluvchi yondashishni yo'lga qo'yish, subyekt-subyekt aloqasini vujudga keltirish.

Har qanday subyekt-shaxs, lekin har qaysi shaxs subyekt emasligi muammosini yechish. Buning uchun mustaqil fikrlashga ega bo'lish, shaxsiy pozitsiyani himoya qila olish, g'oyani amalga oshirish yo'lida to'siqlarni pisand qilmaslik, mustahkam ishonch, qat'iy maslak, iymon negizida asoslanish, intilishda irodaviy barqarorlik ustuvorligiga erishish. Dunyoqarash va uni hayotga tatbiq qilishning obyektiv va subyektiv shart-sharoitlari mavjudligiga iqror bo'lish hamda uni tan olish va hokazo.

Bizningcha, individ, shaxs, subyekt va komil inson to'g'risida mulohazalar yuritilganda ularning ongsizlik, ongostlilik, onglilik va o'ta (super) onglilik holatlari bilan uzviy aloqadorligini unutmaslik lozim. Yuqorida keltirilgan atamalar ongli mavjudodga taalluqli ekanligi jahon psixologiyasi fanining ilmiy manbalarida atroflicha talqin qilingan, lekin ularning ierarxiyasi, mohiyati bayonida turlicha yondashuv hukmronidir. Mazkur maqsadni chuqurroq ochishga yo'naltirilgan nazariyalar o'ta bahsli bo'lib, uning zaminida faqat ong yotishi tasdiqlanadi, xolos. Aslida esa inson ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriy xotira va muayyan maqsadga asoslanib, biron-bir faoliyat inson tomonidan tashkil qilingandagina ong

shaxsning ushbu faoliyatini regulyatori (boshqaruvchi) vazifasini bajaradi. Biroq odam funksional holatining o'zgarishi bilan onglilikdan ongsizlik (ixtiyorsizlik)ka o'tishi, ijod, tashabbus uning uchun muomala, faoliyat negiziga aylansa, u holda shaxs ongosti (muvofiqlashuv) holatiga asta kirib borishi mumkin. Xuddi shu boisdan shaxs bir davrning o'zida har uchala holat (onglilik, ongsizlik, ongostlilik) hukmi ostida yashashi, faoliyat ko'rsatishi, ijod qilishi, muomalaga kirishishi mumkin. Har uchala holatning omili negizida shaxsning kamoloti vujudga keladi, ularning har qaysisi bu jarayonga o'ziga xos ulush qo'shadi. Ong holatlari tabiiy ravishda bir-biri bilan uzluksiz tarzda o'rin almashtirib turadi, chunki inson ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keyingi bosqichlar hukmi bilan yashaydi va faoliyat ko'rsatadi.

Jahon psixologiyasi fanida to'plangan ma'lumotlardan ma'lumki, inson (shaxs) o'zini o'zi anglashi uchun xuddi shu o'zini o'zi anglash xususiyatining (jarayonining) subyekti bo'lishi muqarrar.

#### **Nazorat savollari:**

1. Shaxs haqida tushuncha bering?
2. Shaxs borasida biogenetik nazariya haqida gapirib bering?
3. Shaxs borasida sotsiogenetik nazariya haqida ma'lumot bering?
4. Shaxs shakllanishi va rivojlanishini izohlang?

## 6 -MAVZU. SEZGINING PSIXOLOGIK MOHIYATI

*Tayanch tushunchalar: analizatorlar, persepsiya, eksterioretseptiv sezgi, proprioretseptiv sezgi, interioretseptiv sezgi, afferent, efferent, adaptatsiya.*

### 6.1. Sezgi psixik jarayon sifatida. Sezgining psixofiziologik asoslari

Jahon psixologiyasi fanida to'plangan ma'lumotlarning ko'rsatishicha, sezish oddiy psixik bilish jarayoni hisoblanib, moddiy qo'zg'atuvchilarning muayyan reseptorlarga bevosita ta'sir etishi orqali real olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini va shuning bilan birga, inson organizmining (uning a'zolarining) ichki holatlarini aks ettirishdan iborat bilishning dastlabki bosqichidir. Sezgi biosfera va neosferada harakatlanuvchi jamiki narsalarning, xoh mikro, xoh makro tuzilishidan qat'iy nazar, sezgi organlariga ta'sir qilish mahsulasi sodda obrazlar, timsollarning ayrim tarkibiy xususiyatlar tariqasida aks etishidir. Inson atrof-muhitdagi moddalar shaklini, harakatlar ko'rinishini, ularning xossalari o'ziga xos xususiyatlarini sezgi organlari yordamida, sezgilar orqali biladi, xolos.

Sezgilar to'g'risidagi ilmiy ta'limotlarga binoan narsalar va ularning xossalari, tarkibiy qismlari, xususiyatlari, shakllari, harakati birlamchi hisoblanib, sezgilarning o'zi esa tashqi va ichki qo'zg'atuvchilarning sezgi a'zolariga ta'sir etishining mahsulidir. Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, sezgilar moddiy (obyektiv) borliqning, voqelikning haqqoniy tasvirini in'ikos qiladi, binobarin, moddiy olam qanday ko'rinishga, shaklga, xususiyatga ega bo'lsa ular xuddi shundayligicha hech o'zgarishsiz, aynan aks ettirish imkoniyatiga egadir.

Psixologiyada sezgilarning fiziologik asosini va mexanizmlarini qo'zg'atuvchilarning o'ziga mutlaq mos (adekvat) bo'lgan analizatorlar ta'siri natijasida yuzaga keluvchi asab (nerv) jarayoni, uning tizimi, tuzilishi tashkil qiladi. Fiziologlar va psixologlarning ta'limotlariga ko'ra analizatorlar uch o'zaro uzviy uyg'unlikka ega bo'lgan tarkibiy qismlardan iboratdir. Sodda qilib talqin qilinganda mazkur tarkiblar quyidagi ketma-ketlikdagi tuzilishdir:

tashqi kuch-quvvatni (energiyani) asab (nerv) jarayoniga aylantirib beruvchi periferiya qismdan, ya'ni retseptordan;

analizatorlarning periferiya qismini markaziy qism bilan bog'lovchi afferent (markazga intiluvchi asab tolasi), o'tkazuvchi asab yo'llaridan;

periferiya qismlaridan keluvchi nerv impulslari (harakatlari) qayta ishlanuvchi analizatorlarning miya po'stidagi qismlaridan (uchastkalaridan) iboratdir.


Boshqacha so'z bilan aytganda, periferik nervlarning uchlari (ko'z, quloq, teri, burun kabilar), ta'sirotni eltuvchi (afferent), javob qaytaruvchi (efferent) nerv tolalari, analizatorlarning orqa va bosh miya markazlari analizatorni tashkil qiladi.

Jahon psixologiyasi fanining so'nggi yutuqlari hamda atamalariga binoan sezgilar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi (ushbu tasniflanishning dastlabki ko'rinishi ingliz olimi Ch.Sherringtonga taaluqlidir):

tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishga moslashgan hamda retseptorlarga tananing sirtqi qismiga joylashgan sezgilar, ya'ni eksterioreseptiv sezgilar (retseptorlar);

ichki tana a'zolari holatlarini in'ikos etuvchi hamda retseptorlari ichki tana a'zolarida, to'qimalarida joylashgan sezgilar, ya'ni interioreseptiv sezgilar;

tanamiz va gavamizning holati hamda harakatlari haqida ma'lumot (axborot, xabar) beruvchi, muskullarda, bog'lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan sezgilar, ya'ni proprioreseptiv sezgilar.



Birinchi turkum sezgilarni ko'rish, eshitish, hidlash, teri-tuyush, ta'm-maza, kabi turlar tashkil qiladi. Ko'rish 380 dan 770 gacha millimikron diapazondagi elektromagnit nurlardan iborat jarayondir. Eshitish esa tebranish chastotasi 16 dan

to 20000 gacha bo'lgan tovush to'liqlaridan iboratdir. Ko'rish sezgilari bosh miya po'stini tepa burmasining qismida joylashgan bo'dadi. Teri-tuyush, harakat sezgilari miya po'stini markaziy burmasining orqa qismidan o'rin olgandir.

Endi sezgilar klassifikatsiyasi, mohiyati va uning negizlari yuzasidan kengroq mulohaza bildiramiz.


A.R.Luriyaning fikricha, interioreseptiv sezgilar asl, tub ma'nodagi sezgilar emas, balki emotsiyalar bilan sezgilar o'rtasidagi oraliq sezgilar sifatida namoyon bo'ladi. Psixologiya fanida mazkur sezgilarning subyektiv ravishda paydo bo'lishi yetarli darajada chuqur o'rganilmagan, xuddi shu bois ular «noma'lum hislar» doirasiga kiritilgandir. Ular to'g'risidagi bilimlar bilan tanishish, o'zgarib borishlarini tekshirish «kasalliklarning ichki manzarasi»ni ifodalab berishda muhim rol o'ynashi mumkin. Ichki organlarning xastaligida vujudga keluvchi mazkur holatlar ichki kasalliklarni diagnostika qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

## **6.2.Sezgining tasnifi, sezgi klassifikatsiyalari**

Bunday xususiyatli ixtiyorsiz sezgilar insonda juda erta uyg'onadi, shuning bilan birga ularning ifodalanishi o'ziga xos shakllarga egadir. Chunonchi, ular oldindan his qilish tariqasida paydo bo'lib, hatto inson ularni ta'riflab berish imkoniyatiga qodir emas, ko'pincha ushbu kechinmalar tush ko'rishda qaysidir kasallik xuruj qilayotganligidan darak beruvchanlik vazifasini o'tmaydi, xolos. Ular insonning kayfiyatida, emotsional reaksiyalari o'zgarishida ko'zga tashlanadi, bolada esa xatti-harakatning keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi. Chunki, bola o'z tana a'zolaridagi ichki holatlarning o'zgarishini anglash, sezish, his qilish uquviga ega emas, xuddi shu tufayli undagi xatti-harakatning umumiy o'zgarishi belgilaridan buni sezish mumkin. Bu hodisalarning yorqin misoli sifatida quyidagi voqelikni tahlil qilamiz: bola o'z ichki interioreseptiv sezgilarini namoyish qilish maqsadida «kasal» bo'lib qolgan qo'g'irchog'ini parvarish qila boshlaydi.

Interioreseptiv sezgilarning obyektiv ahamiyati juda yuqori, chunki ular ichki jarayonlarni o'zaro o'rin almashtirish balansini ta'minlab turishning asosi hisoblanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, ular organizmlardagi jarayonlarni

o‘zaro o‘rin almashib turishining gemostazi (barqarorligi) deb ataladi. Ichdan paydo bo‘ladigan signallar xatti-harakatni vujudga keltiradi, stress, zo‘riqish, affekt holatlarini yo‘qotish (bartaraf qilish, pasaytirish), tug‘ilib kelayotgan mayllarni esa qoniqtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Oqibat natijada, ichki tana a‘zolarining faoliyatini izdan chiqish holati yuz berishi mumkin. Xuddi shu sababdan tibbiyot psixologiyasida interioreseptiv sezgilar ham muhim rol o‘ynaydi. Somatik va visperal jarayonlar, ruhiy holatlar (psixosomatika) o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish imkonini yaratadi.




Interioreseptiv sezgilarning fiziologik mexanizmlari interioreseptsiya bilan birgalikda K.M.Bikov, V.N.Chernigovskiylar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Bu narsalarning barchasi shartli reflektor faoliyati mexanizmlaridan kelib chiqqan holda sharhlab berilgan.

Proprioretseptiv sezgilar tana dvigatel apparatining va gavdaning fazodagi holati to‘g‘risida signallar bilan ta‘minlab turadi. Ular inson harakatining regulyatorini va afferent asosini tashkil qiladilar.

Periferik retseptorlar muskullarda, paylarda va bo‘g‘imlarda joylashgan bo‘lib, maxsus tanachalari shakliga egadirlar. Mazkur tanachalar Puchchini tanachalari deb ataladi. Tanachalarda vujudga keluvchi qo‘zg‘atuvchilar

muskullarining taranglashuvi natijasida va bo‘g‘imlar holatining o‘zgarishida, nerv tolalari (iplari) yordamida orqa miyaning orqa ustunidagi (stolbasidagi) oq suyuqliklarga yetkaziladi. Qo‘zg‘ovchilar Burdax va Goll yadrosining quyi bo‘limlariga yetib keladi va undan po‘stosti tugunlaridan o‘tib, bosh miya katta yarim sharining qorong‘ilashgan zonasida o‘z harakatini yakunlaydi.



Proprioretseptorlar harakatining afferent asosi ekanligi A.A.Orbeli, P.K.Anoxin (hayvonlarda), N.A.Bernshteyn (odamlarda) tomonidan o‘rganilgan.

Psixologik ma’lumotlarga ko‘ra, gavdaning fazodagi holati sezgirligi statik sezgilarda o‘z ifodasini topadi. Uning markazi ichki quloq kanallarida joylashgan bo‘lib, o‘zaro bir-biriga perpendikulyar bo‘shliqda tutash holatda yotadi. Masalan, bosh holatining o‘zgarishi quyidagi sxemaga binoan amalga oshadi:

- a) o‘zgarish endolimfa suyuqligiga bog‘liq qo‘zg‘alish;
- b) eshitish nervi;
- v) vestibulyator nerv;
- g) bosh miya po‘stining chakka bo‘lmasi;
- d) miya apparatiga o‘tadi.



Vestibulyator sezgirlik apparati qurish bilan bevosita aloqada bo'lib, fazoni oriyentirlash jarayonida ishtirok etadi. Masalan, avtomobilning yo'ldan o'tishi (qatnovi), qalin o'rmonni kesib o'tish payti va hokazo. Xuddi shunday holat uchishda ham yuzaga kelishi mumkin. Patologiya holatida ham xuddi shunday jarayonga duch kelinadi.

Eksterioretseptiv sezgilar moddalikdan (5 tadan) tashqari intermodal nospesifik sezgi turkumlariga ham ajratiladi. Masalan, eshitish organi (a'zosi) orqali sekundiga 10-15 tebranishni sezish mumkin, lekin quloq bilan emas, balki suyaklar yordamida (miya qopqog'i, tirsak, tizza uchlari orqali) payqash vibratsiya sezgirlik deyiladi. Masalan, karlarning tovushlarning idrok qilishi, pianinoni ushlab turish, pol yoki mebelning harakati kabilar. Odatda, vibratsion sezgirlik intermodal sezgi deb ham nomlanadi. Intermodalning boshqa bir ko'rinishi mana bunday holatda namoyon bo'ladi:

- a) hid, ta'm va maza sezgilarida;
- b) o'ta kuchli tovushda, o'ta yorqin yorug'likda;
- v) tricheminal, ya'ni uch xil ta'sirning uyg'unlashgan, integrativ holatida kabilar.

Sezgining nospesifik shakli - terining foto sezgirliги ranglarning nozik jilolarini ajratish, qo'l uchlari bilan sezish orqali ro'yobga chiqadi. Terining foto sezgirliги A.N.Leontev tomonidan kashf qilingan bo'lib, bu narsa ko'pgina holatlarga oqilona yondashish imkoniyatini vujudga keltiradi. Ushbu kashfiyot qo'l uchiga yashil va qizil rangli yorug'lik yuborish orqali dunyo yuzini ko'rgan. Rang signallarining og'riq qo'zg'atuvchilar bilan munosabati qiyosiy jihatdan olib borilganda, insonni faol mo'ljallash (oriyentirlash) jarayonida uning qo'l uchi terisiga kelib tushadigan rang nurlarini farqlashga o'rgatish mumkin ekan.

Psixologiya fanida trening foto sezgirliги tabiati hali yetarli darajada o'rganilgani yo'q. Shunga qaramasdan, talamitik tizim va po'st ostining qo'zg'alganida asab tizimi hamda teri ektodermlaridan kelib chiqqan, atrofga yoyilgan (tarqalgan), rudimentlar yorug'lik sezish elementlari maxsus sharoitda muvaffaqiyatli harakat qiladi. Ko'pincha «oltinchi tuyg'u, hissiyot» sharofat bilan

inson tomonidan «masofa»ni sezish, koʻr odamlarda toʻsiqni his qilish ushbu jarayon uchun yorqin misol boʻla oladi. Ehtimol, yuz terisining issiq havo toʻlqinlarini idrok qilish, toʻsiq oraligʻida mavjud boʻlgan tovush toʻlqinlarini (tebranishlarini) oʻzida aks ettirish terining foto sezgirligini ilmiy jihatdan izohlashga muayyan negiz (asos) boʻlib xizmat qilishi mumkin. Insonning aks ettirish jarayoni oʻz mohiyati va xarakteri jihatidan 2-bosqichdan iboratdir. 1) Hissiy (aks ettirish) bilish boʻlib, u sezish, hissiy qabul qilish, xotira va tasavvurlardan iboratdir. 2) Aqliy bilish bosqichi boʻlib, u tafakkurdan iboratdir.

Hissiy bilishning boshlangʻich shakli - sezgidir. Chunki hissiy bilishning boshqa shakllari – hissiy qabul qilish sezgiga nisbatan ancha murakkab boʻlib, u sezish asosida vujudga keladi. Hissiy qabul qilishning sezishdan farqi shundaki, unda predmetlarning ayrim xossalarni emas, balki predmet bir butun holda aks etadi.

Hissiy bilishning yana bir shakli tasavvurdir. Tashqi taʼsir natijasida vujudga kelgan nerv va miya qobigʻining maʼlum qismidagi qoʻzgʻalish – sezish, qabul qilish – maʼlum davrgacha oʻz izini qoldiradi, yaʼni tashqi taʼsir toʻxtagandan soʻng qoʻzgʻalishning, sezishning izi saqlanib qoladi. Oʻsha taʼsir etgan predmetga aloqador boʻlgan, unga qandaydir munosabatda boʻlgan hodisa taʼsiri natijasida izlar yana qayta tiklanishi mumkin.

Miya qobigʻida saqlanib qolgan shu fiziologik izlarning tiklanishi, qaytadan qoʻzgʻalishi tasavvur, xotirani vujudga keltiradi.

Insonning bilish jarayoni hissiy bilish bilangina cheklanmaydi. Hissiy bilish yoki jonli kuzatish inson bilishining pastki bosqichida vujudga keladi, bu bosqich asosida ijtimoiy mehnat jarayonida ikkinchi yuqori bosqich – aqliy bilish, tafakkur paydo boʻladi. Hissiy bilish orqali obyektiv reallikdan olingan «materiallar»ni qayta ishlash, ularni munosabatlari, ichki xususiyatlarini aniqlash, muhim va asosiy tomonlarini nomuhimlaridan ajratib olish, ularning qonuniyatlarini ochish aqliy bilish va tafakkurda amalga oshiriladi.

### **6.3. Inson faoliyatida sezgining roli va qonuniyatlari, chet el psixologiyasida sezgi nazariyalari**

Odam bilan uning tevarak-atrofidagi olam o`rtasida doimo o`zaro bir-biriga ta`sir qilish jarayoni bo`lib turadi. Odam bu protsessda dunyoni o`z psixikasi bilan aks ettiradi. Shu bilan birga, voqelik odam ongida ko`zgudagi kabi passiv ravishda aks etmay, balki aktiv ravishda aks etadi: odam tevarak-atrofdagi olam bilan o`zaro bir-biriga ta`sir ko`rsatar ekan, shu jarayonda olamga ta`sir etadi, uni o`zgartiradi va uni o`z ehtiyojlariga moslashtiradi.

Psixik mahsullar - psixik jarayonlarning natijasidir. Bularga sezgi va idroklarning obrazlari, tasavvurlar, muhokamalar, tushunchalar shaklidagi subyektiv psixik mahsullar kiradi.

Yoqimli va yoqimsiz tuyg`ular, tinchlik-farosat, hayajonlanish va ma`yuslanish, uyg`oqlik va uyqu holatlari, dadillik va taraddudlanib qolish holatlarini boshdan kechirish holatlarga kiradi.

Xilma-xil psixik hodisalarni: bilish, emotsional soha (hissiyot sohasi) va iroda sohasi deb uchga bo`lish qadimdan bor. Odam ongi faoliyatida zohir bo`ladigan ana shu turlar psixik funksiyalar deb ataladi.

Bilish hodisalari boshqacha aqliy, intellektual jarayonlar deb ataladi. Sezgilar, idrok, xotira, xayol, tafakkur va nutq – bilish jarayonlaridir.

S e z g i l a r – muayyan paytda sezgi organlarimizga: ko`ruv, eshituv, tuyish, hid bilish va boshqa shu kabi organlarimizga ta`sir etib turgan narsalardagi ayrim xossalarning aks etishidir. Masalan, qizil, oqni, shirin, achchiqni, og`ir, yengilni sezamiz.

A.N.Leontev seskanuvchanlikdan sezuvchanlikka o`tish boshqacha hayot tarixi bilan bog`liq deb ko`rsatadi va yuksak tashkil topgan hayvonlarda sezuvchanlik taraqqiy etadi, sezgi a`zolari tarkib topadi deb ko`rsatadi.

Sezish qobiliyatining paydo bo`lishi psixika taraqqiyotidagi dastlabki davrdir. Keyinchalik hayvonlar nerv sistemasining taraqqiysiga va jumladan sezgi organlarining taraqqiysiga qarab, tashqaridan bo`ladigan ta`sirni aks ettirish, sezish qobiliyati o`sib, tobora murakkablasha bordi. Masalan, maxsus sezgi organlari

bo`lmagan eng sodda hayvonlarda, aftidan, faqat umumiy, differentsiallashmagan sezuvchanlik mavjud bo`lsa kerak. Taraqqiyotning ancha yuqori bosqichlarida hayvonlarda sezgi organlari paydo bo`ladi, nerv sistemasining analiz qilish qobiliyati ham o`sadi. Biologik taraqqiyotning yuqori bosqichlarida hayvonlarning ba`zi turlarida sezgi organlari hayron qolarlik darajada takomillashadi. Masalan, burgutning ko`rish organi, itning hid bilish organlari va hokazo.

Nerv sistemasining sezgi organlarining taraqqiyoti, shu bilan birga hayvonlar psixikasining ham taraqqiyotiga, hayvonlarning hayot kechirish tarziga, shu hayvonlarning qayerda, qanday yashashiga, qanday oziqlanishiga, qanday ovqat topishiga, kimga qarshi kurashishiga va shu kabilarga bog`liqdir. Masalan, parrandalar umrining ko`p qismini havoda, uchib yurib o`tkazadi. Bunday hayot kechirish bepoyon bo`shliqlarda adashmaslik zaruriyatini tug`diradi.

Biror faoliyatni bajarishdagi barcha harakatlar kishi tomonidan nazorat qilinib tuzatilib boriladi. Nazorat qilish va holatlarni tuzatish qobiliyatidan mahrum bo`lgan kasallar hatto eng oddiy ish-harakatni ham muvaffaqiyatli bajara olmaydi. Ular stakanni stoldan olishda, og`izga olib kelishda xatolarga yo`l qo`yadilar.

Nazorat qanday yo`l bilan amalga oshiriladi? Bu sezgi organlari ko`rish, eshitish, muskul sezgi va boshqalar orqali amalga oshiriladi. Chunki har bir ish – harakatni bajarayotganimizda barcha harakatlarimizni ko`zimiz orqali yoki eshitish sezgimiz orqali tekshirib turamiz.

Albatta, harakatni boshqarish va nazorat qilishda bosh miya ham katta rol o`ynaydi. Har qanday harakat o`zining oxirida oladigan natijasining maqsadiga qarab boshqariladi va nazorat qilinadi. Bajirilgan harakatning natijalari uning maqsadi nuqtai nazaridan baholanadi va tuzatiladi. Har qanday ish harakatni bajarishdan oldin uning modeli miyada tayyor bo`ladi, ana shu modelga qarab u boshqariladi, olingan natija modelga qarab baholanadi.

Periferiyadagi nervlardan ba`zilari qo`zg`alishi periferiyadan markazga ham, markazdan periferiyaga ham o`tkazadi.

Sezuvchi va harakatlantiruvchi nervlardan qo`zg`alish bir xil tezlik bilan o`tmaydi; sezuvchi nervlar qo`zg`alishni harakatlantiruvchi nervlarga nisbatan

sekinroq o`tkazadi. Sezuвchi nervlar ayrim sezgi organlariga yoyilib, har bir organning asosiy negizini tashkil etadi. Har bir sezuвchi nerv muayyan organga ko`ruv, eshituv, hid bilish va shunga o`xshash organlarning biriga xos bo`lgan spetsifik qo`zg`alishlarni o`tkazadi.

Harakatlantiruvchi nervlar ayrim organlarning va muskul ayrim qismlari harakatini idora etadi. Katta yarim sharlar po`stining peshona qismlarida periferik nerv sistemasining ham, vegetativ nerv sistemasining ham funksiyalarini birlashtiradigan yuksak markazlari bor. Bosh miya po`stidan periferik nerv sistemasiga ham, vegetativ nerv sistemasiga ham impulslar kelib turadi. Binobarin, vegetativ nerv sistemasini, shuningdek, boshqa qism va markazlarni bosh miya po`sti idora etadi.

Vegetativ nerv sistemasi umumiy nerv sistemasining bir qismi bo`lib, ichki organlar hazm, nafas, qon aylanish organlarining ishlarini va ichki sekretiya bezlarining faoliyatini idora qiladi. Vegetativ nerv sistemasi organizmning umuman hamma hayotiy jarayonlarini idora etadi. Organizm jarayonlarining shu tariqa vegetativ nerv sistemasi tomonidan idora etilishi organlar faoliyatining kuchayishi va susayishida, ortishi va kamayishida ko`rinadi.

Vegetativ nerv sistemasi ichki organlar bilangina bog`lanib qolmay, balki organizmning boshqa hamma qismlari bilan ham bog`langandir. Vegetativ nerv sistemasining markazdan qochuvchi tolalari hamma sezgi organlarida va teri hujayralarida bor. Vegetativ nerv sistemasi o`sha tolalar orqali sezgi organlariga ta`sir etib, ularning faoliyatini kuchaytiradi yoki susaytiradi. Jumladan, vegetativ nerv sistemasi sezgi organlarining adaptatsiyasiga (ya`ni moslanishiga) ancha yordam berar ekan. Vegetativ nerv sistemasi markaziy nerv sistemasining turli qismlariga, jumladan, bosh miya po`stiga ham ta`sir etadi. Shuning uchun ham vegetativ nerv sistemasining ta`siri psixik jarayonlarda ham ko`rinadi.

Vegetativ nerv sistemasi ikki bo`lakdan: simpatik nerv sistemasi va parasimpatik nerv sistemasidan iborat.

Simpatik nerv sistemasining markazlari gipotalamusda, orqa miyaning ko`krak va yuqori bel bo`limlaridadir. Simpatik nerv sistemasining tolalari tanadagi hamma organlarga yoyiladi.

Parasimpatik nerv sistemasining markazlari to`rt tepalikda, o`rta miyada (Varoliy ko`prigi), uzunchoq, miyada va orqa miyaning dumg`aza bo`limidadir.

Simpatik va parasimpatik nerv sistemalari ichki organlar faoliyatini idora etishda «antagonistlar» rolini belgilaydi.

Har bir analizatorning periferiyadagi chekka tarmoqlari tegishli sezgi organlarida - ko`ruv organida (ko`z), eshituv organida (quloq), hid bilish organida (burun - halqum) va boshqa organlarda bo`ladi.

Analizator – avvalo sezgi va idroklarimizning nerv-fiziologik apparatidir.

Analizator quyidagicha ishlaydi: analizatorning chekka tarmoq egati (retseptor) tegishli qo`zg`alishlarni sezib, qaytadan ishlab, maxsus nerv qo`zg`alishiga aylantiradi. Masalan, ko`ruv retseptori tabiatdan yorug`lik tebranishlarini, eshituv retseptori esa havo tebranishlarini ajratib oladi.

Analizatorning ikkinchi bo`limi qo`zg`alishni periferiyadagi (chekka) tarmoqlardan bosh miya po`stiga o`tkazadi.

Sa`y-harakatlarning amalga oshirilishi beto`xtov ravishda nazorat qilinadi, uning mahsulasi harakatning pirovard maqsadi bilan qiyoslanadi va unga ayrim tuzatishlar kiritiladi, xuddi shu tarzda boshqaruv betinim takrorlanaveradi, harakatni nazorat qilish jarayoni esa sezgi a`zolari yordami bilan vujudga keladi. Sa`y-harakatning sensor (sezgi a`zolari yordamida) nazorat qilishning isboti uning oynadagi o`z aksiga qarab chizishda o`z ifodasini topadi. Ma`lumki, oynada qalamning odam qo`li harakat yo`nalishi bo`yicha emas, balki qarama-qarshi tomonga harakatlanayotganday tuyuladi. Inson ko`rish orqali mashqlanishi tufayli ma`lumotlardan foydalanish bilan harakatni muvofiqlashtirishni uddalaydi.

Sa`y-harakatlarning nazorat qilish jarayoni va ularni boshqarish teskari aloqa prinsipiga binoan ro`yobga chiqadi. Ushbu hodisani amalga oshish imkoniyati quyidagi omillarga bevosita bog`liq holda kechadi: a) sezgi a`zolari aloqa kanali vazifasini bajargan taqdirda; b) ular axborot manbai sifatida harakat rolini

o`ynaganda; v) sa'y-harakatlarni aks ettiruvchi alomatlar bu jarayonda xabar yetkazuvchi sifatida qatnashganida va boshqalar. Ta'kidlab o`tilgan omillar orqali amalga oshadigan teskari aloqaning bunday shaklini (ko`rinishini) rus tadqiqotchi P.K.Anoxin teskari afferentatsiya deb atagan. Afferentatsiya (lotincha agogepz keltiruvchi degan ma`no anglatadi) hamda tashqi qo`zg`atuvchilardan hamda ichki organlardan, axborotni qabul qiluvchi hissiy a`zoldan markaziy nerv sistemasiga kelib tushuvchi nerv impulslarining doimiy oqimini bildiradi. To`g`ri aloqa-axborotlarining tashqaridan kirib borishini anglatib kelsa, teskari afferentatsiya uning aks holatini aks ettiradi. Sa'y-harakatlarning hammasi ham organlarning faoliyatini tushuntirish uchun xizmat qiladi va nazorat (boshqaruv) jarayoni qanday kechishini tahlil etish imkoniyatiga ega.

Senzitivlik (lotincha zepsis sezish, his qilish degan ma`no anglatadi). Sensitivlik yuzasidan insonda bironta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo`lgan o`ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi, jumladan, sezgilarning paydo bo`lishi uchun qo`zg`ovchining ozgina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasi (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashadi.

XX asrning ikkincha yarmida paydo bo`lgan layoqatni miyaning mikrotuzilishi va sezgi a`zolari bilan bog`lovchi faraz eng mahsuldor bo`lib hisoblanadi. Miya hujayralarini tadqiq etish iste`dodli shaxs nerv hujayralarining morfologik va funksional xususiyatlarida farq borligini aniqlash mumkinligi faraz qilinadi. Layoqatlar bilan nerv jarayonlarining ayrim differentsial xususiyatlari hamda oliy nerv faoliyatining tiplari o`rtasida bog`liqlik mavjudligi to`g`risida faraz ham haqiqatga yaqindir.

Rus psixologi B. M. Teplov va uning shogirdlari ishlarida oliy nerv faoliyati tiplarining xislatlari ta`siri tufayli shaxs qobiliyatlarining tuzilishida qandaydir sifat xususiyatlari paydo bo`lishini aniqlashga urinishgan. Jumladan, asab tizimining alohida sezgilari ma`lum qobiliyat nishonasi sifatida vujudga kelishi mumkin.

Eksterioretseptiv sezgilar - Ko`rish, eshitish, hid bilish, ta`m bilish, teri sezgilari.

Proprioretseptiv sezgilar - Muskul-harakat, statik sezgilar;

Interioretseptiv sezgilar - Organik sezgilar.

Sezgi - qo'zg'atuvchilarning idrok a'zolari retseptorlaritga ta'siri tufayli vujudga keladigan, obyektiv dunyo xossalarning subyektiv in'ikosidir. Inson tartibsiz holdagi kechinma va tasavvurlar orasidan ba'zi obyektlarni ajratib oladi va bu bilan go'yoki ushbu tartibsizliklarni tartibga keltiradi. Inson sezgi a'zolariga ta'sir qilish uchun biron narsa idrok etildi, anglandi deyishga hali erta. Predmet yoki predmet emas deb hisoblash insonning o'ziga bog'liq: kim uchundir tashqi muhitda musiqaviy ovoz va shovqinlar, ularda uyg'unlashmaganlik (dissonans) va uyg'unlik (konsonaj); kimgadir esa mashinaning ishlashidan darak beruvchi shovqin yoki hayvonlar tomonidan chiqarilayotgan ovozlar, kim uchundir suhbatdoshning nutqidagi mantiqiy urg'u berishlar, kimgadir turar joylarni muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz rejalashtirish va boshqalar. Kimlar uchundir esa, agar u bunday narsalarni bilmasa, ular go'yoki yo'qdek «zo'r berib eshitmaslik va ko'rmaslik» payida bo'ladi.

#### **6.4.Sezgi kognitiv jarayonning boshlang'ich nuqtasi (R.Solso)**

Tashqi olam xususiyatlari to'g'risidagi va shaxsning o'z gavdasini tuta bilish yuzasidan bilimlar, ma'lumotlar, xabarlar va taassurotlar manbai bu sezgilar bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun sezgilar inson organizmiga, ya'ni uning tana a'zolariga tushadigan axborotlarning asosiy kanali (yo'li) sanalib, ular tashqi dunyo hamda ichki tana a'zolari to'g'risidagi xabarni bosh miya katta yarim sharlari va bosh miyaning tarkiblariga yetkazib turadi, xuddi shu boisdan inson o'zini qurshab turgan makro muhitni oriyentirlash (mo'ljallash) imkoniyatiga egadir. Agarda mazkur kanallar berk bo'lib qolgan taqdirda, sezgi organlari zarur axborotlar bilan ta'minlamaydi, binobarin, ongni hukm surish imkoniyati o'z-o'zidan yo'qoladi.

Psixologiya fanida shunday ilmiy dalillar mavjudki, mabodo inson axborotlarning shaxobchasidan mahrum bo'lsa, u holda u uyqu holatiga sho'ng'iydi. Masalan, tasodifan teri-tuyush sezgilari patologiyaga uchrasa, unda odam (ko'pincha vaqtincha, muvaqqat) ko'rish, eshitish, hid sezishdan mahrum



bo'lishi mumkin. Mabodo axborotlar tuzatish shaxobchasi ilk bolalik yoshi davrida buzilsa, kar yoki ko'r bo'lib qolsa, u taqdirda uning aqliy rivojlanishida keskin to'xtalish (vaqtincha orqada qolish) yuzaga keladi. Agarda bola maxsus usul yoki uslubga o'rgatilsa tabiiy ravishda mavjud kamchiliklarning o'rnini to'ldirib bo'lmaydi.

Sezgini bunday tarzda tushuntirilishiga nisbatan har xil munosabatlar psixologiya tarixida mavjud bo'lib, ularning hech qaysisi asosiy manba ekanligiga shubha bilan qarashga moyildirlar. Hozir ularning ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz va haqiqiy mohiyatini ochib berishga intilamiz.

Nemis faylasufi Xristian Volf "Ratsional psixologiya" (1732) va "Empirik psixologiya" (1734) kitoblarida: ongning ichki holati, aqliy fikr yuritishga qobiliyatlilik tabiiy moddiy asos zamiridan kelib chiqib, tashqi olamdan kelib tushadigan axborotlar shoxobchasiga, ya'ni sezgi kanaliga, hech qanday bog'liq emas deb tushuntirishga harakat qildi. Sezgilarga mana bunday yondashish nazariyotchisi fanga "ratsionalizm" tushunchasi bilan birga kirib keldi. X. Volf va uning tarafdorlari psixik jarayonlar (sezgi, idrok, xotira va boshqalar) murakkab ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli emas, degan g'oyani ilgari surdilar. Shuning bilan birga "Ong", "Aql" tarixiy evolyutsiya natijasi emas deb, inson psixikasiga o'zgacha yondashib, uni izohlab berish mushkul bo'lgan "birlamchi" xususiyat ekanligini tushuntirishga intildilar.

Mazkur nazariyaga asoslangan psixologlar insonning sezgilari uning tashqi olam bilan bog'lab turuvchi birdan-bir shaxobcha ekanligini inkor qilishgacha borib yetdilar va voqelikni mana bunday tarzda izohlashga harakat qildilar: go'yoki sezgilar insonni tashqi olamdan ajratib turadilar, ular atrof-muhit o'rtasidagi bartaraf qilib bo'lmaydigan devor hisoblanadilar. Berkli, Yung, I.Myuller, Gelmgols singari olimlar sezgi organlarining "spesifik energiyasi" nazariyasini ishlab chiqdilar. Bu g'oyaning asoschisi sifatida Iogann Myuller qat'iy pozitsiyada turib, uni butun vujudi bilan himoya qilishga intildi. Ushbu nazariyaga binoan, har qaysi sezgi a'zosi xoh quloq, xoh til, xoh teri bo'lishidan qat'iy nazar, tashqi dunyoning ta'sirini aks ettirmaydi, atrof-muhitda bo'lib turgan real, yaqqol

jarayonlar yuzasidan axborotlar berishga qobil emas, faqat u tashqi ta'sirdan shaxsiy jarayonlarning qo'zg'atuvchisidan turtki bo'ladi, xolos. Mazkur nazariyaga ko'ra, har bir sezgi a'zolari o'zining "spesifik energiyasi"ga ega, har qanday ta'sirdan qo'zg'aladi. Masalan, ko'zni bosib, unga elektr toki bilan ta'sir qilib ko'rilsa, unda yorug'lik sezgisi hosil qilinadi; quloqqa elektr qo'zg'atuvchisi bilan ta'sir o'tkazilsa, u holda tovush sezgisi vujudga keladi. Binobarin, sezgi a'zolari tashqi ta'sirni aks ettirmaydi, balki ulardan, ya'ni ularning ta'siridan qo'zg'aladi, xolos. Inson hech qachon tashqi voqelik, yaqqol dunyoning obyektiv ta'sirlarni idrok qilmaydi, balki sezgi a'zolari faoliyatida o'zlarining shaxsiy subyektiv holatlarini aks ettiradi.

Mazkur nazariyaga binoan, inson obyektiv dunyoni idrok qila olmaydi, u subyektiv jarayonlarni aks ettiradi, oqibat natija "dunyo element" (mayda qism)larni idrok qilish vujudga keladi. Psixologiya tarixida "subyektiv idealizm"degan yo'nalish ham yuzaga kelgan bo'lib, ungacha, «inson faqat o'zi»nigina biladi, xolos. Undan tashqari hech narsa hukm surishi mumkin emas. Bu nazariya o'ziga xos g'oyaga ega bo'lib, fan tarixida «solipsizm» (yagona «Men») nomini olgan edi.

Sezgilarning retseptor va reflektor nazariyalari. Sezgilarning retseptor nazariyasiga ko'ra, retseptor yoinki sezgi a'zolari ularga ta'sir qiluvchi qo'zg'atuvchilarga nisbatan sust (passiv) javob qaytaradi, sezgilar harakatga qarama-qarshi turuvchi sust jarayondir, harakatning o'zi esa aksincha faol (aktiv)dir.

Hozirgi davrda sezgilarning retseptor nazariyasi mutlaqo sezgi jarayonining fiziologik mexanizmini ochib berishga yaroqsiz ekanligini qator tadqiqotchilar tomonidan ishonchli omillarga suyangan holda ta'kidlab o'tilgandir.

Sezgi jarayonining faol (aktiv)ligini tan oluvchi nazariya - sezgilarning reflektor nazariyasi deb ataladi. Ushbu fikrni asoslash uchun misollarga murojaat etaylik va hayvonot olamida aks ettirishni tahlil qilib ko'raylik. Hayvonlar va jonivorlarning sezgilari sust (passiv) xususiyatga emas, balki tashqi olam ta'sirining biologik ahamiyatga molik jihatlarini faol (aktiv) ravishda ajratgan

holda xatti-harakatni amalga oshiradilar. Masalan, bolari (asalari) bir xil turkumdagi gullarga nisbatan aralash holdagi gullarga faol (aktiv)roq javob reaksiyasini bildiradi; qirg'iy irish-chirish hidlariga, undan ko'ra suv o'tlarining ildizlari hidiga chaqqon harakat qiladi. Mushuk sichqonning qitirlashiga e'tiborini kuchaytiradi, lekin xuddi shunga o'xshash kamerton tovushini keltirsak, aslo unga parvo ham qilib qo'lmaydi.

Bu omillar shuni ko'rsatib turibdiki, birinchidan, sezgilar faollik (aktivlik) xususiyatiga ega, ikkinchidan, ularning vujudga kelishida harakat tarkiblari ishtirok etadi. AQShlik psixolog Neffning ta'kidlashicha, mikroskop ostiga olib teriga igna sanchilsa, xuddi shu uchastkada (maydonda) reflektor harakat reaksiyalari kuzatilgan; tomirning qisilishi, teri galvanik refleksi (KGR), goho ko'z harakati, bo'yin muskullarining taranglashuvi, qo'lning harakat reaksiyasi sodir bo'lishi mumkin.

Jahon psixologlari tomonidan narsalarning murakkab tomonlarini tanish, farqlash harakatning ishtirokisiz amalga oshmasligi ta'kidlab o'tilgan. Masalan, ko'zni yumib jismni farqlash uchun qo'l bilan uni paypaslash kerak, aks holda uning holati, shakli, qattiq yoki yumshoqligi, g'adir-budurligini bilib, sezib bo'lmaydi.

I.M.Sechenovning fikriga ko'ra, jismni ko'z bilan idrok qilish uchun ko'z o'sha narsani «qidirsin», faqat shundagina maqsadga muvofiq harakat yuzaga chiqqan bo'ladi. Hozirgi davrda psixologiya fanida ko'z harakatlari nazariyasi ishlab chiqilgan bo'lib, ular va makro va mikro, ixtiyoriy hamda ixtiyorsiz ko'rinishlarga ajratiladi. Ular quyidagi nomlar bilan ifodalanadi: konvergent, divergent, gorizontal, vertikal, siklofuzion, torsion, version, vergent, sakkadik, tremor, dreyf, fliki kabilar. Ko'z harakati yordami bilan fazoda o'rin almashib turgan jismlarni tanish, bilib olish va identifikatsiyalash amalga oshiriladi. Ko'z harakatlari uch juft tashqi muskullari, ya'ni miya bosh suyagining III, IV va VI juft nervlari orqali ro'yobga chiqadi. Ko'zning mikro va makro harakatlari sezgining mexanizm rolini bajarish imkoniyatiga ega.

Eshitish sezgisi eshitish va tovush apparatlari tarkiblarining yaqin ishtirokida vujudga keladi.

Shunday qilib, yuqoridagi mulohazalarga ko'ra, elementlar (sodda) faol reflektor jarayoni, shuningdek, murakkab faol retseptor faoliyat jarayoni (paypaslash, suratga tikilish kabilar) mavjud bo'lib, sezgilarning vujudga kelishini ta'minlab turadi. Psixologik ma'lumotlarning tahliliga ko'ra, faol harakatning har qaysisi sezgining reflektor nazariyasidan iboratdir.

Sezgilarning umumiy qonuniyatlari va sezgirlik. Sezgilari o'zlariga adekvat (mos) bo'lgan qo'zg'atuvchilarni aks ettirish shakllaridan biri hisoblanmish bilish jarayonlaridir. Ko'rish sezgisining adekvat qo'zg'atuvchisi havoni to'liqligi uzunligi 380 dan 770 millimikron diapazondagi elektromagnit nurlanishidan iboratdir. Bu elektromagnit nurlanishlar ko'rish analizatorlarida ko'rish sezgisini vujudga keltiruvchi nerv (asab) jarayoniga aylanadi. Eshitish sezgilari tebranish chastotasi 16 dan to 20000 gacha bo'lgan tovush to'liqligini ta'sirining reseptorlarda aks ettirishidir. Taktil sezgilari mexanik qo'zg'atuvchilarning teri yuzasida ta'siri natijasida hosil bo'ladi. Karlar uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan tebranishni aks ettirish sezgilari narsalarning tebranishlarini in'ikos qilish orqali yuzaga keladi. Boshqa turdagi sezgilari ham o'zlarining maxsus qo'zg'atuvchilariga egadirlar. Lekin sezgilarning turli ko'rinishlari faqat o'zlarining maxsusligi bilangina emas, balki ular uchun umumiy xususiyatlari bilan ham tavsiflanadilar. Sezgilarning ana shu xususiyatlariga sifatleri, jadalligi, davomiyligi va fazoviy lokalizatsiyasi kiradi.

Sifat mazkur sezgining asosiy xususiyati bo'lib, uni boshqa sezgi turlaridan farqlaydi va ayni shu sezgi turi chegarasini o'zgartiradi. Masalan, eshitish sezgilari tovushning balandligi, tembri, qattiqligi bilan tafovutlanadi, ko'rish sezgilari esa ranglarning quyugligi, jilosi, tovlanishi, toni va boshqa shu kabilar bilan farqlanadi. Sezgilarning sifat jihatidan ko'p turiligi materiya harakati shakllarining turli-tumanligining aks ettirishidir.

Sezgilarning jadalligi ularning miqdoriy tavsifidan iborat bo'lib, ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchining kuchi va retseptorning funksional holati bilan belgilanadi. Sezgilarning davomiyligi ularning vaqtinchalik tasniflanishidan

iboratdir. Sezgilarining davomiyligi ham sezgi a'zolarining funksional holati bilan, shuningdek, qo'zg'atuvchining ta'sir qilish vaqti hamda jadalligi bilan o'lchanadi.

Qo'zg'atuvchi sezgi asosida ta'sir qilishi bilan darhol sezgi hosil bo'lmaydi, balki u bir qancha daqiqadan keyin vujudga keladi. Ana shu qisqa vaqt sezgining latent (yashirin) davri deb ataladi. Latent davri sezgi turlari uchun har xil fursatda kechadi. Masalan, taktil sezgilari uchun latent davri 130 millisekund, og'riq sezgilari uchun esa 370 millisekundga to'g'ri keladi, maza-ta'm sezgisi esa til yuzasiga ta'sir etilgandan so'ng 50 millisekundgacha vaqt oralig'ida hosil bo'ladi.

Qo'zg'atuvchi ta'sir qila boshlashi bilan bir davrda hosil bo'lmaganidek, qo'zg'atuvchining ta'siri to'xtashi bilan bir vaqtning o'zida sezgi yo'qolmaydi. Vaholanki, sezgilarining inersiyasi (sezgilarining saqlanishi) ta'siridan keyingi hodisasi deb ataladigan narsada namoyon bo'ladi.

Ko'rish sezgisi ba'zi bir inersiyaga ega bo'lib, ko'rish sezgisining ta'siri to'xtashi bilan darhol yo'qolib ketmaydi. Qo'zg'atuvchi ta'sirining izi ketma-ket keluvchi obrazlar deb ataladigan hodisa sifatida saqlanib qoladi. Psixologiyada ko'zning to'r pardasida rangni sezadigan uch xil xususiyatli element bor deb taxmin qilinadi. Qo'zg'alish jarayoni hosil bo'lganda, ular toliqadilar va sezgirliklari ancha kamayadi. Qizil rangga qarab turganimizda ko'z to'r pardasidagi qizil rangni qabul qiluvchi element boshqalarga nisbatan ortiqroq toliqadi, shuning uchun ko'z to'r pardasining xuddi shu joyiga qizil rangdan so'ng oq rang ta'sir etadigan bo'lsa, qolgan ikkita qabul qiluvchi element ortiqroq sezgirlikka ega bo'ladi va biz ko'z qarshimizda ko'kish yashil rangni ko'ramiz.

Eshitish sezgilari ham ketma-ket obrazlarga ega bo'lishi mumkin. Chunki quloqni bitiradigan qattiq ovoz yoki tovush bilan birga yuzaga keladigan noxush sezgi, ya'ni bu «quloq»ning shang'illashidir. Eshitish analizatoriga bir necha sekund davomida ta'sir etadigan bir qator qisqa tovush impulsaridan so'ng ular tutash holda yoki bir oz pasaytirilgan tarzda idrok qilina boshlaydi. Agar bu tovushlarning ta'sirini modellashtirish mumkin bo'lganda edi, ana shunday hodisani kuzatish imkoni yuzaga kelardi. Bu hodisa tovush impulsining ta'siri

to'xtaganidan keyin uchraydi hamda tovushning impulsi jadalligi va davomiyligiga bog'liq ravishda bir necha sekund mobaynida davom etishi mumkin.

Boshqa analizatorlarda ham xuddi shunga o'xshash hodisalarni kuzatish mumkin. Masalan, harorat, og'riq va maza sezgilari ham qo'zg'atuvchining ta'siri to'xtagandan so'ng bir necha muddat oraliq'ida davom etaveradi.

Sezgilar uchun qo'zg'atuvchining fazoviy lokalizatsiyasi, qo'zg'atuvchining fazoda o'rin egallashi bilan tavsiflanadi. Distant, ya'ni masofa retseptori tomonidan amalga oshiriladigan fazoviy analiz bizga qo'zg'atuvchining fazodagi o'rni haqida ma'lumot beradi. Kontakt sezgilar: taktil, og'riq, maza badanning qo'zg'atuvchi ta'sir qilayotgan joyi bilan bog'liqdir. Bunda og'riq sezgilarining lokalizatsiyasi, ya'ni badanda joylashgan o'rni, taktil sezgilarga qaraganda badanga anchagina tarqalgan, lekin unchalik aniqlik darajasiga ega emas. Bu holatni yaqqol namoyish qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni keltiramiz: 1 kvadrat mmteriga nisbatan barmoqlar 120, panja 14, kaft 15, ko'krak 29, peshana 50, burun uchi 100 va hokazo.

Lokalizatsiya (mahalliy cheklanganlik) psixik funksiyalarning bosh miya katta yarim sharlari qobig'idagi muayyan hujayralarning ishi bilan bog'lanishidir. Masalan, ko'ruv analizatorining ishi asosan miya qobig'ining ensa qismining faoliyati bilan bog'langan, eshitish analizatorining ishi esa chakka bo'laklari bilan, teri-tuyush hamda harakat analizatorlari bo'lsa tepa va ensa bo'laklari bilan bog'langandir.

Insonni qurshab turgan atrof-muhitning holati to'g'risida axborot beruvchi turli ko'rinishdagi sezgi a'zolari o'zlari aks ettirmoqchi bo'lgan hodisalarga nisbatan ma'lum darajada sezgir bo'lishlari lozim. Chunki mazkur hodisalarni ozmi yoki ko'pmi aniq va ravshan aks ettirish lozim. Binobarin, sezgi a'zolarining sezgirligi dolzarb va favquloddagi sharoitda ta'sir qilib sezgi jarayoni hosil qilish imkoniyatiga ega bo'lgan minimal darajadagi qo'zg'atuvchi bilan belgilanadi. Xuddi shu boisdan sezilarli yoki sezilmas darajada sezgi hosil qiluvchi qo'zg'atuvchining minimal kuchi sezgirlikning quyi mutlaq (absolyut) chegarasi deyiladi.

Kuchli mutlaq (absolyut) chegaradan nimjonroq yoki kuchsizroq qo'zg'atuvchilar quyi chegaralarni hosil qilmaydi, chunki, ularning ta'sir kuchi to'g'risidagi signallar bosh miya po'stiga borib yetmaydi. Bosh miya po'sti har bir ayrim olingan «p» miqdordagi impulslardan hayotiy zaruriysinigina tanlab, so'ng qabul qilib oladi. Shuning bilan birga miya po'sti o'z qo'zg'atuvchanlik chegarasini oshirish yo'li bilan qilingan barcha qo'zg'atuvchilarni, shu jumladan, ichki a'zoldan keladigan impulslarni ham ushlab qoladi. Vujudga kelgan bunday holat biologik jihatdan maqsadga muvofiqdir. Chunki, bosh miya katta yarim sharlari po'sti barcha tushib kelayotgan impulslarni qabul qilib oladigan va ularning hammasiga javob reaksiyasini bildiradi oladigan organizmni tasavvur qilish mumkin emas. Ma'lumki, bosh miya katta yarim sharlarining po'sti organizmning hayotiy manfaatlarini muhofaza qilib turadi, shuningdek, o'z qo'zg'alish chegarasini oshirish bilan faollashmagan (aktuallashmagan) impulslarni po'stloq ostiga, ya'ni quyi markazlarga uzatadi, buning natijasida organizm ortiqcha reaksiyalardan musaffo bo'ladi.

Tekshirishlarning ko'rsatishiga qaraganda, po'stloqosti impulslari organizm uchun befarq tura olmaydi. Masalan, tashqaridan ta'sir qilayotgan xuddi ana shu kuchsiz po'stloq osti qo'zg'atuvchilari bosh miya katta yarim sharlari po'stida dominant o'chog'ini (hukmron manbaini) barpo qiladi va gallyutsinatsiya hamda «sezgilarning aldanishiga» sabab bo'ladi. Kasallangan odamlar quyi chegaradagi tovushlarni miyaga o'rtnashib qolgan tovushlar to'plami tariqasida qabul qilishlari mumkin, ayni chog'da haqiqiy inson nutqiga befarq bo'ladi; kuchsiz yorug'lik nuri har xil gallyutsinatsiya ko'rish sezgilari hosil qilishi mumkin; terining kiyimga tegishidan vujudga kelgan taktil sezgilar noto'g'ri o'tkir teri sezgilarini yuzaga keltiradi.

Sezgilarining quyi chegarasi mazkur analizatorlarning mutlaq (absolyut) sezgirligi darajasini aniqlaydi. Mutlaq (absolyut) sezgirlik bilan sezgi chegaralarining me'yori o'rtasida teskari mutanosiblik (proporsionallik) mavjud; sezgi chegarasining me'yori qanchalik kichik bo'lsa, mazkur analizatorlarning sezgirligi shunchalik yuksak bo'ladi.

Insondagi hid bilishni bitta hujayrasining chegarasi tegishli hid tarqatuvchi moddalar uchun 8 (sakkiz) molekuladan oshmaydi, maza yoki ta'm sezgisini hosil qilish uchun hid sezgisini yuzaga keltirishga qaraganda 25000 marta ko'proq talab qilinadi.

Insoniyatda ko'rish va eshitish analizatorlarining sezgirligi juda yuksakdir. S.I.Vavilovning fikricha, ko'z to'r pardasiga 2-8 kvant yorug'lik tushsa, u holda ko'rish hodisasi yuz beradi. Xuddi shu sababdan to'la qorong'ilikda yongan shamni 27 km masofadan ko'ra olish mumkin. Biroq narsaning tekkanligini sezish uchun ko'rish va eshitishga qaraganda 100-10000 ml. marta ortiq energiya kerak bo'ladi.

Analizatorlar sezgilarning yuqori chegarasiga ham egadirlar. Ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchiga nisbatan tag'in adekvat, ya'ni aynan sezgini hosil qila oladigan qo'zg'atuvchining yuqori mutlaq (absolyut) chegarasi deyiladi. Retseptorlarga ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchining kuchini bundan keyin ham ortib borishi retseptorlarda faqat og'riq sezgisini yuzaga keltiradi.

Mutlaq (absolyut) chegaraning me'yori sharoitga qarab o'zgaradi: inson faoliyatining xususiyatlariga, uning yoshiga, retseptorlarning funksional holatiga, qo'zg'atuvchining kuchi hamda davomiyligiga va hokazoga bog'liq holda o'zgarishi mumkin.

Sezgilar o'rtasida yuzaga keladigan farqni hosil qilish ikki qo'zg'atuvchi o'rtasidagi minimal farqni farq ajratish chegarasi deb ataladi. Nemis fiziolog olimi Veber odamning o'ng va chap qo'lidagi ikkita narsadan og'irroq'ini aniqlay olish qobiliyatini tekshirib, shunday xulosaga keladi: farq ajratish sezgirligi mutlaq (absolyut) xususiyatga ega bo'lmay, balki nisbiy xususiyatga egadir.

Sezgilarni o'lchashni asosan ikki metodi psixologiya fanida hukm surib keladi. Ulardan biri bevosita metod deb atalib, subyektiv ravishda baholashga asoslanadi. O'lchashning ikkinchi metodi esa alomatlarni obyektiv ravishda baholashga asoslangan bo'lib, sezgilarning bilvosita (bevosita) mavjudligiga qaratilgandir.



Bevosita metod yoki qo'zg'atuvchining so'z bilan baholash metodi quyidagicha tuzilishga egadir: sinaluvchiga teri, tovush, yorug'lik ta'sir qila oladigan qo'zg'atuvchi havola qilinadi, dastavval qo'zg'atuvchi minimal intensivlikka (jadallikka) ega bo'ladi, so'ng ularning kuchi orttirib boriladi. Mazkur tadbirdan keyin sinaluvchi «u qaysi bir sezgi qo'zg'atuvchisining dastlab sezganligiga» javob berish so'raladi.

Teri sezgirligini o'lchash uchun maxsus asbob, «esteziometr» qo'llaniladi. Eshitish sezgirligini o'lchash audiometr yordamida amalga oshirilib, tovushlarning turli darajalaridagi intensivligi aniqlanadi. Ba'zan kichkina temir sharni har xil balandlikdan tashlab ko'rish orqali ham yuqoridagi maqsad amalga oshiriladi. Ko'rish sezgirligini aniqlash esa sinaluvchi ko'ziga yorug'likning turli-tuman intensivlikda yuborish orqali (goho qorong'ilikda), quyidan yuqoriga yorug'lik birligi (ya'ni lyuks) orttirib boriladi. Ta'm va hid bilish sezgirligi ham maxsus asboblarda yordamida o'lchanadi, goho kimyoviy usul ham qo'llaniladi.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, sinaluvchiga kuchsiz qo'zg'atuvchi bilan ta'sir etilsa, ya'ni subyektga kuchsiz qo'zg'atuvchi bilan ta'sir etilsa, u holda subyektida hech qanday sezgi hosil bo'lmaydi, shuningdek, sanab o'tilgan reflektorlarda ham o'zgarish yuz bermaydi.

Qon tomir yoki elektrofiziologik reaksiyalar kuchsiz qo'zg'atuvchi ta'sirida ham aniq namoyon bo'lishi mumkin, aksincha sezish jarayoni esa amalga oshmaydi. Bu holatni elektro ensefalografik reaksiyalar tasdiqlaydi. Tovush qo'zg'atuvchiga kelib chiqqan holda G. V. Gershuni inson subsensor diapazonga ega degan ilmiy g'oyani olg'a suradi. Bu narsa anglashinilmagan fiziologik reaksiyalar, sezib bo'lmas qo'zg'atuvchilarga asoslanadi.

Sezgilarning o'zgarishi adaptatsiya va sensibilizatsiya holatlarida o'z ifodasini topadi.

Adaptatsiya (lot.-moshlshmoq) - sezgi organlari, ya'ni a'zolari (analizatorlar)ning taassurot kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishidan iboratdir. Adaptatsiya hodisasida sezgirlik ortishi yoki kamayishi mumkin. Kuchli ta'sirdan kuchsiz ta'sirotda o'tganda sezgirlik asta-sekin ortib

boradi, ta'sirot kuchayganda esa sezgirlik kamayib boradi (ko'ruv, eshituv, hid bilish, teri-tuyush va hokazo).

Odatda, genetik nuqtai-nazardan adaptatsiya uch xil xususiyatli negiz (manba) ta'sirida vujudga keladi.

1. Qo'zg'atuvchilarning davomli ta'siri jarayonida sezgilarning to'la yo'qolishi tarzidagi adaptatsiya. Doimiy ta'sir qilib turadigan qo'zg'atuvchi ta'sir o'tkazadigan bo'lsa, bunday holatda sezgi so'nib qoladi. Masalan, teriga tegib turadigan yengilgina bir yuk tez orada sezilmay qoladi. Yoqimsiz hidli bir joyga kirib qolganimizda bir ozdan so'ng bu hidni batamom yo'qolib ketganday his qilamiz. Og'izda biron-bir narsa ushlab turiladigan bo'lsa ta'm sezgisining intensivligi bo'shshadi.

Doimiy va harakatsiz qo'zg'atuvchining ta'siriga nisbatan ko'rish analizatorlarida to'la adaptatsiya hodisasini shu bilan tushuntirib berish mumkin. Bunday holatda qo'zg'atuvchining harakatsizligini ko'rish retseptorlari apparatining harakatchanligi bosib yuboradi. Ko'zni har doim ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda harakatlanib turishi ko'rish sezgisining uzluksizligini ta'minlaydi. Qo'zg'atuvchi ta'siridan 2-3 sekund o'tgach, ko'rish sezgisi yo'qoladi, ya'ni adaptatsiya hodisasi yuzaga keladi.

2. Kuchli qo'zg'atuvchining ta'siri ostida ham sezgilar zaiflashadi. Masalan, qo'lni muzdek suvga tutib turgan paytda, sovuq qo'zg'atuvchi ta'siri bilan yuzaga kelgan sezgingin intensivligi pasayadi. Qorong'iroq xonadan juda yorug' joyga kirib qolsak, biz avval boshqa yorug'likdan «ko'r» bo'lib qolib, atrofimizdagi narsalarni ajrata olmaymiz. Ma'lum fursat o'tgandan so'ng ko'rish analizatorilarning sezgirligi keskin sur'atda pasayadi va biz mo'tadil ko'rish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ko'rish sezgirligining intensiv yorug'lik qo'zg'atuvchisi bilan ta'sir qilganda pasayishdan iborat hodisani yorug'lik adaptatsiyasi deb yuritiladi.

Ko'rib o'tilgan ikki turdagi adaptatsiyani ko'pincha psixologiya fanida negativ adaptatsiya deb ataladi. Chunki, har ikkala adaptatsiya natijasida ham analizatorlarning sezgirligi keskin pasayadi.

3. Sezgirlikni, kuchsiz qo'zg'atuvchi ta'siri ostida sodir bo'ladigan, ortib borishini ham adaptatsiya deb atash an'anaga aylanib qolgan. Aksariyat sezgi turlariga xos bo'lgan adaptatsiyaning mazkur turi pozitiv adaptatsiya deyiladi.

Qorong'ilik adaptatsiyasida ko'rish sezgirligi ortadi. Sokinlikka nisbatan adaptatsiya eshitish adaptatsiyasi zamirida yuzaga keladi. Masalan, sovuq suvda (sovuq yegan) qo'l - bir harorat - issiq; issiq suvda qo'l sovuq suvda o'zgartirilmagan tuyuladi. Harorat sezish bilan bog'liq bo'lgan pozitiv adaptatsiyalar yuqoridagi xususiyatlarga ega.

Tibbiyot psixologiyasida negativ og'riq adaptatsiyasining mavjudligi to'g'risidagi gipoteza (ukolga, ignaga, issiq nurlanishga nisbatan) ham hukm surishi ta'kidlanib o'tildi.

Adaptatsiyani hosil bo'lish xususiyatlari to'g'risida ma'lumot: a) taktil (teri) adaptatsiya juda tez hosil bo'ladi; b) ko'z adaptatsiyasi bir necha daqiqa; v) hid va ta'm adaptatsiyalari undan ham uzunroq vaqt talab qiladi.

Adaptatsiyaning ahamiyati shundan ibratki, u kuchsiz qo'zg'alishni payqashga yordam beradi, kuchli qo'zg'alishdan sezgi organini saqlaydi.

Adaptatsiyani tushuntirib berish: 1) tayoqsimon hujayralarga joylashgan ko'rish purpuri aynib ketadi; kimyoviy modda borligi ilmiy jihatdan isbotlanmagan; 2) miyaning po'stloq qismi sezgirlikni pasaytiradigan «mulohazalovchi» tormozlanish. Tormozlanish - boshqa joylarda qo'zg'alishni kuchaytiradi - sezgirlik ortadi, izchil o'zaro induksiya hodisasi ro'y beradi.

### **6.5. Analizatorlar. Sezgining retseptor va reflektor nazariyasi**

Analizatorlarning o'zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezgirlikning kuchayishi sensibilizatsiya deb ataladi. Sezgilar o'zaro munosabatining fiziologik mexanizmi analizatorlarning markaziy qismlari joylashgan bosh miya po'stidagi qo'zg'alishning irradiatsiya hamda konsentratsiya jarayonlaridir. I.P.Pavlovning ta'limotiga ko'ra, kuchsiz qo'zg'atuvchi bosh miya katta yarim sharlarining po'stida oson irradiatsiyalanadigan, ya'ni oson yoyilib ketadigan qo'zg'alish jarayonini yuzaga keltiradi. Qo'zg'alish jarayonining irradiatsiyasi natijasida

boshqa analizatorlarning sezgirligi ortadi. Kuchli qo'zg'atuvchi ta'sir etganda, aksincha, konsentratsiyaga moyil bo'lgan qo'zg'alish jarayoni yuzaga keladi. O'zaro induksiya qonuniga ko'ra, bunday qo'zg'alish jarayoni boshqa analizatorlarning markaziy qismlarini tormozlanishga olib keladi va natijada ularning sezgirligi pasayadi.

Analizatorlar sezgirligining o'zgarishi shartli reflektor asosida, ya'ni ikkinchi signallar tizimiga kiruvchilar ta'siri bilan ham yuzaga kelishi mumkin. Tekshiriluvchilarga «limondan nordon», zahardan achchiq» degan so'zlarni talaffuz qilish bilan ularning ko'zlari va tillarida elektr sezgirligi yuzasidan o'zgarishni maydonga keltiruvchi omillar qayd etilgan. Ushbu o'zgarishlar bizga haqiqiy limon va zahar tabiati bilan ta'sir qilinganda hosil bo'ladigan qo'zg'alishga o'xshashlikni vujudga keltiradi.

Sezgi organlarining sezgirligini o'zgartirish qonuniyatlarini o'zlashtirib olganligimizga asoslanib, maxsus ravishda tanlangan qo'shimcha qo'zg'atuvchilarni qo'llash yordami bilan ma'lum bir retseptorlarni sensibilizatsiyalash, ya'ni ularning sezgirligini oshirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Qo'zg'atuvchining birin-ketin analizatorga ta'siri bilan analizatorlarga xos sezgining paydo bo'lishini sinesteziya deyiladi. Sinesteziya yunoncha birgalikda sezish degan ma'noni anglatib keladi. Sinesteziya hodisasini har xil turdagi sezgilarda kuzatish mumkin. Ko'rish va eshitish sinesteziyasi hammadan ko'ra ko'proq uchrab turadi, unda tovush qo'zg'atuvchilarining ta'siri bilan odamda ko'rish obrazlari vujudga keladi. Bunday tabiatli sinesteziyalar har xil odamlarda o'ziga xos ravishda kechadi, lekin ular har qaysi shaxs uchun muayyan darajada doimiy bo'lishi kuzatiladi. Eshitish va ta'm sinesteziya hodisasi ko'pincha «o'tkir ta'm», «savlatli rang», «shirin tovush», «achchiq shamol», «bahaybat ovoz», «motamsaro osmon», «qalb o'rtar navo», singari iboralarda o'z ifodasini topgan bo'ladi. Chunki ularning mohiyatida ikkilanganlik xususiyatlari maxsus kuchaytirgich tariqasida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Nazorat savolari:**

1. Sezgi haqida tushuncha bering?
2. Sezgi turlarini sanang?
  1. Sezgining xususiyatlari va tavsifi haqida nimalarni bilasiz?
  2. Sensor adaptatsiya va sezgilarning o‘zaro ta’siri haqida ma’lumot bering?
  3. Sezgining rivojlanishi haqida aytib bering?

## 7 -MAVZU. IDROK

*Tayanch tushunchalar: fon va figura, geshtalt nazariyasi, vaqtni idrok qilish, fazoni idrok qilish, harakat idroki, predmetliliği, yaxlitligi, strukturaliligi, doimiyligi (konstantligi), anglashilganligi.*

### 7.1. Idrok haqida tushuncha. Idrokning fiziologik asoslari

Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo'lib hisoblanganligi sababli barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi, aks ettirishda ishtirok qiladi.

Idrok tushunchasi lotin tilida «regserpo» qabul qilish, idrok deb nomlanadi, uning yuqori bosqichi esa «appersensiya» (lotincha - idrok, qabul qilish) deyiladi.

Appersepsiya - idrok jarayonini shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivatsiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman, ruhiy hayotning barcha mazmuni bilan belgilanishidir. Appersepsiya hodisasi tufayli odamlar o'zaro idrokining mazmuni bilan bir-birlaridan muayyan darajada tafovutlanadilar, ya'ni ular aynan bir xil narsani o'zining bilim saviyasi, maslagi, pozitsiyasi, dunyoqarashi va ijtimoiy kelib chiqishiga asoslangan holda turlicha idrok qiladilar hamda aks ettiradilar. Masalan, «ildiz» tushunchasini biologlar o'simliklarning moddiy asosi sifatida, matematiklar sonlarning ildiz ostidagi ko'rinishida, ijtimoiy nuqtai nazardan qarindosh-urug'chilik shaklida ko'z o'ngiga keltiradi. Mazkur tushuncha ba'zi hollarda idrokning aniqlik, to'liqlik, ravshanlilik, predmetlilik, tanlovchanlik (saralash) kabi sifatlarning ma'nosi o'rnida qo'llanilgan. Psixologiya nazariyalariga ko'ra appersepsiya hodisasi barqaror va vaqtincha (muvaqqat) deb yurituvchi ikki ko'rinishga (turga) ajratiladi. Barqaror appersepsiya hodisasi shaxsning dunyoqarashi, qat'iy maslagi, ideali, pozitsiyasi, motivatsiyasi, qiziqishi, bilim saviyasi, madaniy darajasi, xulq-atvori, ma'naviyati va kasbiy tayyorgarligiga bog'liq bo'lib, u o'ta murakkab tuzilishga egadir.

Muvaqqat (vaqtincha) appersepsiya turi esa shaxsning faqat idrok qilish jarayonidagi emotsional holatiga, ya'ni uning kayfiyati, ruhlanishi, shijoati, stress,

affektiv ko‘rinishdagi his-tuyg‘ularida, ularning sur‘ati, davomiyligi, tezligida o‘z ifodasini topadi.

Psixologiya fanida idrok muayyan shakllarga ajratilib tadqiq qilinadi, vaqt, harakat, fazo yordami bilan atrof-muhitning, biosferaning, ijtimoiy turmushning mohiyati yuzasidan axborotlar ma‘lumotlar, xususiyatlar aks ettiradi. Borliqdagi narsa va hodisalarning yashash shakli, uzluksiz ravishda harakatda bo‘lishi, muayyan obyektiv vaqt birligida hukm surishi inson ongida bevosita in‘ikos qilinadi. Odatda, inson tomonidan vaqtni idrok qilish, asosan, ruhiy hodisalar, holatlar, vaziyatlar, xususiyatlarning o‘zaro o‘rin almashinuvi tufayli namoyon bo‘ladi va o‘ziga xos tuzilishi bilan mazkur jarayonning boshqa shakllaridan farq qilib turadi. Vaqtni idrok qilish inson tomonidan aks ettirilayotgan vaqt birligining obyektiv (haqqoniy, xolis) mazmuniga, shaxsning unga nisbatan munosabatiga bog‘liq bo‘lib, xuddi shu mezon orqali uning mahsuldorligi o‘lchanadi. Masalan, shaxsning ehtiyoji, motivatsiyasi, qiziqishlari va intilishiga mos, mutanosib vaqt birligini, idrok birligini idrok qilgan taqdirdagina vaqt obyektiv jihatdan (kechinmalar, his-tuyg‘ularga nisbatan shaxsning ijobiy, haqqoniy munosabatlarida) tez o‘tganday idrok qilinadi, odatda, yoqtirmaslik, idrok maydoniga (qamroviga) nomutanosiblik esa shaxsda zerikish, vaqt «sekin» o‘tish tuyg‘usini uyg‘otadi.

## **7.2.Idrok turlari. Idrokning asosiy sifatleri**

Psixik mahsullar – psixik jarayonlarning natijasidir. Bularga sezgi va idroklarning obrazlari, tasavvurlar, muhokamalar, tushunchalar shaklidagi subyektiv psixik mahsullar kiradi.

Yoqimli va yoqimsiz tuyg‘ular, tinchlik-farosat, hayajonlanish va ma‘yuslanish, uyg‘oqlik va uyqu holatlari, dadillik va taraddudlanib qolish holatlarini boshdan kechirish holatlarga kiradi.

Xilma-xil psixik hodisalarni: bilish, emotsional soha (hissiyot sohasi) va iroda sohasi deb uchga bo‘lish qadimdan bor. Odam ongi faoliyatida zohir bo‘ladigan ana shu turlar psixik funksiyalar deb ataladi.

Bilish hodisalari boshqacha aqliy, intellektual jarayonlar deb ataladi. Sezgilar, idrok, xotira, xayol, tafakkur va nutq – bilish jarayonlaridir.

Idrok - Tevarak-atrofimizdagi narsalarning yaxlit holda aks etishidir. Masalan, uy, gul, nutq, musiqa va boshqa shu kabilarni idrok etamiz. Narsalar sezgilar asosida idrok etiladi. Sezgi va idrok – tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalar hamda ulardagi xilma-xil xossalarning miyamizdagi obrazlaridir.

Odam psixikasining barcha tomonlari, inson xulq-atvorining turli-tuman hamma xususiyatlari asosan faoliyatida namoyon bo'ladi. Odam faoliyatining asosiy turlari: o'yin (bolalik davrida), ta'lim va mehnatdir. Faoliyatning barcha turlarida odam o'z atrofidagi voqe'likning idrok etadi, bir nimani eslab qoladi yoki esiga tushiradi, fikrlaydi, har-xil hislarni ko'nglidan kechiradi, o'z faolligini namoyon qiladi.

Bu yerda ko'rsatilgan xilma-xil psixik hodisalar bir-biridan ajralgan holda sodir bo'lmaydi.

Shu tariqa, psixik holatlar va psixik mahsullar psixik jarayonlar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, odatda shu jarayonlar tarkibiga kiradi.

Psixik holatlar ro'y beradigan psixik jarayonlarning o'ziga xos foni hisoblanadi. Bu holatlar psixik jarayonlarga ta'sir etadi, ularni tezlatadi, kuchaytiradi yoki tormozlaydi, susaytiradi.

Mustahkamlangan psixik mahsullar murakkabroq jarayonlarning ro'y berishi uchun asos - material hisoblanadi. Masalan, xayol, tafakkur jarayonlari tasavvur va xotira asosida voqe' bo'ladi va hokazo.

Xuddi shuningdek, ayrim aqliy, emotsional va irodaviy jarayonlar bir-biri bilan bog'lanmagan holda ro'y bermaydi. Odamning psixik hayotini qandaydir birlamchi elementlarining yoki ayrim psixik jarayonlarning, ya'ni sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq va shu kabilarning anchayin yig'indisi deb o'ylash yaramaydi. Har bir psixik protsess boshqa jarayonlar bilan chambarchas bog'langan holda sodir bo'ladi. Masalan, sezgisiz idrok etib bo'lmaydi, idrok esa xotira, tafakkur jarayonlariga, nutq, diqqat, hissiyot va irodaga bog'liq bo'ladi.



Xotira va xayol jarayonlari tafakkur, nutq, hissiyot va iroda jarayonlariga bog'liq. Tafakkur idrok bilan xotira asosida ro'y beradi va nutq bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Nutqning o'zi ham tafakkursiz bo'la olmaydi.

### **7.3. Idrokning individual xususiyatlari. Idrokning yangi qirralari**

Psixik hayotni o'rganishda ayrim psixik jarayonlarni boshqa psixik jarayonlardan ajratib tekshirishga to'g'ri keladi. O'rganishni osonlashtirmoq uchun sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq va boshqa shu kabi jarayonlarni alohida-alohida tekshiramiz. Ammo har bir psixik protsessni o'rganganda shu protsessning, masalan, xotira, xayol, tafakkurning boshqa jarayonlar bilan bog'langan holda ro'y berishini ko'rsatib o'tamiz.

Psixika bir butun yaxlit bir narsadir. Psixikaning bu birligi va yaxlitligiga sabab avvalo shuki, bosh miya faoliyati bir butun va yaxlitdir.

Psixik hayotning hamma tomonlari: aql, his va iroda shaxsning faoliyatda namoyon bo'ladi. Shaxs olamni biladi, shaxs turli hislarni dildan kechiradi va shu shaxs ish-harakat qiladi.

Pedagog o'quvchilarga biron materialni tushuntirar ekan shu materialni bolalar qanday o'zlashtirayotganini - ko'ruvchilar qanday idrok etayotganini, eslab qolayotganini, fikrlayotganini, ularda diqqat – e'tibor, hissiyot qanday namoyon bo'layotganini, bolalarning yosh xususiyatlariga qarab bu jarayonlar qanday ro'y berayotganini bilish lozim.

Ma'lumki, yosh avlodning aqliy taraqqiyotida, uni axloqiy va estetik jihatidan tarbiyalashda badiiy adabiyot juda katta ahamiyatga egadir.

Bundagi pedagogik-psixologik muammolar, albatta, asosan badiiy adabiyotni idrok qilish masalalari, adabiy obrazlarni idrok qilish va tushunish masalalaridir. Bu muammolarni hal qilish ham ta'lim va tarbiya psixologiyasining vazifasini tashkil qiladi. Lekin voqeligimizning boyligi va xilma-xiligini to'g'ri aks ettirgan adabiyotgina ijobiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Badiiy ijodning boshqa turlari singari yuksak g'oyaviylik bilan ajralib turadigan, xalq hayoti bilan chambarchas bog'langan adabiyotgina tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

#### **7.4. Idrokning asosiy xususiyatlari uning predmetlili, yaxlitligi, strukturaliligi, doimiyli (konstantligi) va anglashilganligi**

Hozirgi zamon psixologiya fanining nazariy muammolari qatoriga insonni inson tomonidan idrok qilish masalasini kiritish mumkin. Ilmiy manbalarning tahliliga ko'ra, insonning ba'zi psixologik xususiyatlari, fazilatlari uning yuz alomatlari va tana a'zolarining turli harakatlari yordamida aniqlanadi. Insonning tashqi qiyofasining tuzilishi bo'yicha shaxs xarakteri xususiyatlari va uning fazilatlariga oid ishonchli fikr bildirish o'zining uzoq tarixiga ega bo'lsada, lekin muammoning ilmiy negizi, uning mexanizmi hozirgi davrdagina tadqiq qilina boshlandi. Odamning tashqi qiyofasini tahlil etish orqali uning ruhiy dunyosiga baho berish yuzasidan jahon psixologlari tomonidan yaratilgan nazariyalar, to'plangan amaliy ma'lumotlar umumlashtirilsa, quyidagi tasnifnomani yuzaga keltirish mumkin:

Insonning tashqi qiyofasidagi har bir o'zgarish uning yaqqol shaxsiy xususiyati bilan uzviy bog'liq ekanligini tushuntirishga asoslangan analitik talqin uslubi (labni qattiq qisib yurish odam irodasining mustahkamligi nishonasidir). Boshqacha so'z bilan aytganda, insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan to'plangan tajribalarga asoslanib, shaxsning ruhiy dunyosini baholash imkoniyati mavjudligi demakdir.

Insoning tashqi qiyofasidagi beixtiyor, tabiiy ko'rinishdagi sernafosat nozik ado, boshqa kishilar hissietini o'ziga tortuvchi joziba, maftunkorlik, xushbichimlik shaxsning kechinmalari bilan uyg'unlashuvini e'tirof qilishga qaratilgan yondashuv (shaxsning did bilan kiyinishi, me'yor bilan o'ziga oro berishi uning ibosida ifodalanishining ruhiy dunyosi bilan mutanosibli). Idrok qilinayotgan inson muayyan masofada muomala va muloqotga kirishuvchi shaxs tomonidan qay yo'sinda qabul qilinsa, demak, o'sha odam to'g'risidagi taassurot bevosita favquloddagi holatga, vaziyatga bog'liq bo'ladi, chunki yoqtirish yoki yoqtirmaslik, simpatiya, antipatiya, empatiya bir lahzalik idrok mahsulida mujassamlashishi mumkin.

Idrok qilinayotgan insonning tashqi ko'rinishining alomatlari iliq taassurot

va tasavvur uygʻotuvchi tanish odamning psixologik xususiyatlari notanish kishiga oʻxshashligi tufayli ixtiyorsiz ravishda unga qiyos beriladi. Oldin idrok qilingan tanish insonning barcha fazilatlarini va xislatlarini tashqi qiyofa evaziga notanish kishiga koʻchiriladi. Shuni ajablanarliki, mazkur jarayonda na mantiqiy tahlil, na uzviylik talqini ishtirok etadi. Xuddi shu boisdan bu tarzda insonni inson tomonidan idrok qilish oʻxshashlikka asoslanishini taʼkidlab oʻtish maqsadga muvofiq.

Insoning tashqi qiyofasini idrok qilish negizida uni u yoki bu ijtimoiy (ishchi, dehqon, ziyoli) guruhlarga, yaʼni toifalarga aloqadorligi toʻgʻrisida muayyan qarorga kelinsa, odamning shaxsiy sifatlarini baholash xuddi shu nuqtai nazardan amalga oshiriladi. Kishining tashqi koʻrinishiga nisbatan bunday yondashish ijtimoiy kelib chiqishga asoslanuvchi oʻxshatish deyiladi.

Bizningcha, insonin inson tomonidan idrok qilish jarayoni qatʼiy ravishda quyidagi bosqichlar orqali amalga oshishi mumkin:

idrok qilinayotgan odamni idrok qiluvchi oʻzining shaxsiy xislatlari bilan qiyoslash natijasida, uning mahsuli boʻyicha talqin qilinadi va tushuntiriladi; bunday idrok qilish tarzida insonning inson tomonidan aks ettirish, oʻxshatish, unga taqlid qilish, undan ibrat olish ulublari orqali yuzaga keladi, yaʼni identifikatsiya bosqichi bevosita amalga oshadi;

idrok qilinayotgan shaxsning oʻrniga idrok qiluvchi oʻz xohishi boʻyicha mulohaza yuritishi, uni tushunishga intilish oʻz-oʻzini anglash negizida namoyon boʻladi, yaʼni refleksiya bosqichi vujudga kelganligi toʻgʻrisida muayyan qarorga kelinadi;

oʻzga kishilarning kechinmalari va his-tuygʻulariga nisbatan hamdardlik bildirish, mehr-oqibatligini amaliy ifodalash orqali ularni tushunish imkoniyati tugʻiladi, buning natijasida tub maʼnodagi empatiyaga asoslangan idrok qilish bosqichi yuzaga keladi;

oʻzga kishilarga ijtimoiy guruh aʼzolariga nisbatan berilgan xislatlarni ommaviy tarzda yoyish, tavsif berish va baholash negizida idrok qilish jarayoni tugʻiladi, yaʼni qadimgi mezonlar boʻyicha inʼikos qilish stereotipizatsiya deyiladi.

Psixologiya fanida refleksiya, ya'ni o'zini o'zi anglash shaxsning barcha (hissiy, bilishga oid, irodaviy, boshqaruv) xususiyatlarini oqilona baholash degan qarashlar va yondashuvlar to hozirgi davrgacha davom etib kelmoqda. Bunday holat inson tomonidan o'zini o'zi aks ettirishni bildiradi, xolos. Lekin o'zga kishilar idrok qilinuvchining shaxs sifatlarini qay hajmda bilishadi, ularni baholash imkoniyati qanday, uning nimalarga qodir ekanligini tushuna olishadimi? Shu kabi muammolarga javob berish orqali o'zini o'zi anglashning boshqa qirralarini aniqlash mumkin. Insonlar o'zaro bir-birlarini idrok qilish kezida:

birinchidan, darhaqiqat idrok qilinayotgan shaxsning asl qiyofasi so'zsiz ravishda ifodalanishi;

ikkinchidan, shaxs o'zini aniq tasavvur qilib, so'ng oqilona baholay olishi, munosabat bildirishi, shaxsiy yondashuvi;

uchinchidan, shaxsning boshqa odamlar tomonidan anglanishi natijasida ikkiyoqlama in'ikos, ya'ni «subyekt-subyekt» munosabati vujudga keladi. Shaxslararo bir-birini aks ettirish jarayonining mohiyati inson fazilatlarini qayta esga tushirish, qaytadan tiklash va ularni yaxlit tarzda mujassamlashtirish orqali o'z aksini topadi.

Jahon psixologlari asarlarini tahlil qilish va shaxsiy kuzatishlarimiz natijalari inson tomonidan faoliyat maqsadini ro'yobga chiqarish rejasini va modelini yaratishda ifodalanuvchi antisipatsiya (lotincha oldindan sezish, payqash, oldindan idrok qilish, hodisa mohiyatini ochishdagi topqirligi) bir necha bosqichlardan iborat ekanligidan dalolat bermoqda.

Hozirgi zamon jahon psixologlari antisipatsiyani besh darajaga ajratib o'rganmoqdalar, chunonchi anglashilmas subsensor (lotincha - sezish so'zlaridan tuzilgan bo'lib, idrok qilishning ongosti holatini anglatiladi), sensomotor (lotincha - sezish, harakat degan ma'noni bildirib, nozik harakatlarni sezish demakdir), perseptiv (lotincha-idrok degan ma'no anglatadi), tasavvur, bashorat (bashorat) qilish kabilar.

Antisipatsiyaning subsensor darajasining ifodalanishi inson gavdasining o'zgarishida, uning ideomotor (ixtiyorsiz harakat) jarayonida, tashqi ta'sirga tezkor

javob qaytarishida o'z aksini topadi. Gavdaning mujassamlashuvi va harakat barqarorligi insonning ixtiyoriy sa'y-harakatga tayyorgarlik ko'rish uchun muhim zamin ta'minlaydi.

Antisipatsiyaning sensomotor bosqichi harakatdagi jismlarni o'zaro taqqoslashda, murakkab harakatlarni muvofiqlashtirishda, tezkor harakatning muhitdagi vaqt va fazoviy o'zgarishlar mutanosibligini uzluksiz ravishda idora qilib turishda namoyon bo'ladi.

Perseptiv bosqichda idrok qilish xotira jarayonlari bilan uyg'unlashib ketadi. Buning natijasida o'tmish tajribalariga asoslanib kelajakda vaqt va fazoviy o'zgarishlar yuz berishi ehtimoli chuqur tahlil qilinadi, uning obrazlari yaqqollashtiriladi.

Bizningcha, inson tomonidan yangilik modelini bir necha yo'nalishda amalga oshirishi mumkin: hozirgi zamon kelajak tomon fikriy yo'nalishda; kelajak muammolaridan hozirgi davr masalalariga fikran ko'chish; hozirgi davr va istiqbol rejalari yuzasidan moziyga murojaat qilish kabilar.

Antisipatsiyaning har qaysi bosqichi integrativ xususiyatga ega bo'ladi, ular bir-birini uzluksiz ravishda taqozo qiladi va xuddi shu yo'sinda ma'lumotlar taqchilligiga barham beriladi. Shunday real voqelik vujudga kelishi mumkinki, bunda inson oldida yaqqol topshiriq va vazifadan kelib chiqqan holda u yoki bu antisipatsiyaning bosqichi ustuvorlikka erishadi. Xuddi shu boisdan uning har qaysi bosqichi o'zaro qorishib ketishi, muammoning o'ziga xos xususiyatlariga binoan izchillik, ketma-ketlik tizimi buzilishi ehtimoldan holi emas.

### **Nazorat savollari:**

1. Idrokning umumiy tavsifnomasi haqida gapirib bering?
2. Idrokning nerv-fiziologik asosini tushuntiring?
3. Idrok xususiyatlari va turlarini sanag?
4. Idrokning individual farqlarini aytib bering?
5. Idrokning rivojlanishi haqida ma'lumot bering?

## 8 -MAVZU. DIQQAT PSIXOLOGIK JARAYON SIFATIDA

*Tayanch tushunchalar:* konsentratsiya, diqqat fokusi, diqqatning yo'nalganligi, diqqatning barqarorligi, diqqat ko'lami, ko'chuvchanligi, bo'linishi, ko'lami, kuchi, barqarorligi, bo'linishi.

### 8.1. Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning nerv-fiziologik asoslari

Diqqat inson faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning va ularni samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biridir. Kishi faoliyati qanchalik murakkab, serzahmat, davomiylik jihatdan uzoq muddatli, mas'uliyat hissini taqozo qilsa, u diqqatga shunchalik yuksak shartlar va talablar qo'yadi. Inson ziyrakligi, farosatliligi, tez payqashi, sinchkovligi, dilkashligi uning turmush sharoitida, shaxslararo munosabatida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Diqqat aqliy faoliyatning barcha turlarida ishtirok etadi, insonning xatti-harakatlari ham uning ishtirokida sodir bo'ladi.

Psixologiya fanida diqqatga har xil ta'rif beriladi, uni yoritishda psixologlar turli nazariyaga asoslanib yondashadilar. Diqqat deb ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obyektga aktiv (faol) qaratilishi aytiladi (P.I.Ivanov). P.I.Ivanovning fikricha, biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimiz qilgan ishimiz, o'y va fikrlarimiz diqqatning obyekti bo'la oladi.

N.F.Dobrinin, N.V.Kuzmina, I.V.Straxov, M.V.Gamezo, F.N.Gonobolin va boshqalarning nuqtai nazaricha, diqqatning vujudga kelishida ongning bir nuqtaga to'planishi ong doirasining torayishini bildiradi, go'yoki ong doirasi bir muncha tig'izlanadi. Bunday torayish va tig'izlanish natijasida ong doirasi yanada yorqinlashadi. Ongning eng toraygan, tig'izlangan yorqin nuqtasi diqqatning markazi (fokusi) deb nomlanadi. Xuddi shu markaz (fokus)ga tushgan idrok qilinayotgan jismlar, tasavvur obrazlari, o'y va fikrlar to'la, yorqin va aniq ifodalanadi. Jahon psixologlarining fikricha, diqqat uzluksiz ravishda, muayyan darajada aktivlik xususiyatini saqlab turadi. Bunday aktivlik, ongning biron-bir obyektga yo'nalishining kuchayishi va ma'lum vaqt davomida diqqat

yo'naltirilgan narsaga ongning faol (aktiv) qaratilishini regulirovka qilib turadi hamda mazkur holatning saqlanishini ta'minlaydi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, diqqat sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq kabi alohida psixik jarayon emas. Shuning uchun barcha psixik jarayonlarda qatnashadi, ularning mahsuldorligini oshirishga ta'sir etadi. Shu boisdan diqqat qaratilgan obyektlar ong to'plangan nuqtasida aniq, yaqqol aks ettiriladi. Demak, diqqat aqliy jarayonlarning sifati, mahsuldorligi va samaradorligini ta'minlovchi insonning ichki aktivligidan iboratdir. Shuningdek, u har qanday inson faoliyatining zaruriy shartidir.

Psixologiya tarixining sahifalarini varaqlasak, diqqatning kishi faoliyatidagi roliga berilgan yuksak va qimmatli mulohazalar uchraydi. Jumladan, fransuz olimi Kyuve geniallikni chidamli diqqat deb ta'riflashi, Nyutonning kashfiyot fikrini doimo shu masalaga qaratilish jarayoni deyishi, Ushinskiyning diqqat psixik hayotimizning yagona eshigi deb baho berishi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Bilish jarayonlari kechishining eng muhim xususiyati uning tanlovchanlik va yo'nalganligi bilan xarakterlanadi. Shu boisdan inson atrof-muhitning ko'plab qo'zg'atuvchilari, ta'sirlari orasidan alohida nimanidir idrok etadi, faraz qiladi, allaqaysi narsa to'g'risidagina mulohaza yuritadi, xolos. Ongning bu xossasi diqqat xususiyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Diqqat bilish jarayonlari singari o'zining alohida mazmuniga, muayyan mahsuliga ega emas, shuning uchun u barcha jarayonlarning jo'shqinligi, ildamligini ta'minlaydi. Demak, diqqat individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqozo etadigan tarzda ongning yo'naltirilganligi va biror narsaga qaratilganligidir (E. B. Pirogova). Berilgan ta'rifga binoan, "ushbu yo'naltirilganlik subyektning ehtiyojlariga, uning faoliyati maqsadlari va vazifalariga mos keladigan obyektlarning tanlanganligida, ixtiyorsiz yoki ixtiyoriy tanlashda va ajratishda vujudga keladi. Diqqatning muayyan obyektlarga to'planishi, to'planganligi (konsentriyalanishi) ayni paytda boshqa jismlardan chalg'ishni yoki ularning vaqtincha (muvaqqat) inkor etilishini talab qiladi. Ana shu omillarga ko'ra, aks ettirish ravshanlanib boradi, tasavvurlar, mulohazalar faoliyat yakunlangunga

qadar, qo'yilgan maqsadga erishguncha ongda saqlanadi. Ana shu yo'sinda diqqat faoliyatini nazorat qilib boradi va uni boshqaradi. Shuning uchun ko'pgina psixologlar (P.Ya.Galperin va uning shogirdlari) diqqatni yuksak turini bilish jarayonlari, kishining xulq-atvori kechishini boshqarish imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Diqqatning.biror obyektga yo'nalishiga ko'ra sensor (perseptiv), aqliy (intellektual), harakatlantiruvchi (harakat) shakllariga ajratish mumkin.

## **8.2. Diqqat turlari. Diqqatning asosiy xususiyatlari**


Diqqatning muayyan obyektga to'planishi ko'p jihatdan insonning his-tuyg'usi, irodaviy sifati, qiziqishi kabilarga bog'liqdir.

His-tuyg'ular va emotsional holatlar diqqatning obyekt bilan uzviy bog'langandagina uning uchun ijobiy ahamiyat kasb etadi. His-tuyg'ular, emotsional holatlar qanchalik kuchli va ko'tarinki tarzda namoyon bo'lsa, demak, diqqat ham shunchalik obyektga mustahkam qaratiladi. Hislar, emotsiyalar diqqatning ham ixtiyorsiz, ham ixtiyoriy turlarini zo'raytiradi. Insonning amaliy va aqliy faoliyati jarayonida uning ongi muayyan darajada yangi bilimlar ma'lumotlar bilan boyib borishi natijasida diqqat ham takomillashadi. Yangilikni payqash hissi odam aqliy faoliyatini faollashtiradi (aktivlashtiradi), shu bilan birga, diqqatning obyektga uzoqroq to'planishini ta'minlaydi. Insonning barqarorlashgan kayfiyati diqqatning kuchi va ildamligini oshiradi, tanlovchanligiga ijobiy ta'sir etadi. Stress, affekt singari emotsional holatlar diqqatga salbiy ta'sir etib, uning tashqi ta'sirlariga beriluvchan, kuchsiz qilib qo'yadi. Ana shuning oqibatida diqqat chalg'iydi, bo'linadi, parishonlik namoyon bo'ladi, faoliyatdagi bir tekislik buziladi.

Psixologiyada diqqatning ixtiyoriy turi, ko'pincha irodaviy deb nomlanadi. Bu, albatta, bejiz emas, chunki, diqqatning muayyan obyektga yo'naltirilishi iroda kuchi bilan saqlab turiladi. Hatto ixtiyorsiz diqqat faoliyatida qatnashsa, u ham irodaning zo'ri bilan yo'naltirilgan obyektga to'planib turadi. Irodaning faoliyatni amalga oshirishda ishtirok qilishi ko'p jihatdan kishining maqsadiga intilishi,



ishchanlik qobiliyati, psixologik tayyorligiga bog‘liq. Shu boisdan diqqatning kuchi, barqarorligi, mustahkamligi ildamligi odamning muayyan faoliyatini bajarishga moyilligi, shayligi bilan o‘lchanadi. Diqqatning yuksak darajada mujassamligini ta’minlab turishda odamning faoliyatni bajarishga muvofiqlashgani muhim rol o‘ynaydi. Har qanday faoliyatni amalga oshirishning boshida qiyinchiliklar yuzaga keladi va ular kishidan irodaviy zo‘r berishni talab qiladi. Faoliyatni bajarishdagi nuqsonlarning namoyon bo‘lishi diqqatni to‘plashdagi qiyinchiliklarning oqibati bo‘lib hisoblanadi.



Diqqatning obyektga to‘planishi, mustahkamlanishi odamning qiziqishlariga bog‘liqdir. Hatto ixtiyorsiz diqqatning faoliyatda mujassamlashishida kishining ishtiyoqi va qiziqishi katta ahamiyatga egadir. Odatda, faoliyatga qiziqish bevosita va bilvosita shaklda namoyon bo‘ladi. Bevosita qiziqish faoliyat jarayoniga, xatti-harakatlarning o‘ziga, ish uslublariga qaratilgan qiziqishdan iboratdir. Bilvosita qiziqish esa faoliyatning maqsadiga, uning natijasiga yo‘naltirilgan qiziqishdir. Ixtiyoriy, irodaviy diqqat bilvosita qiziqish bilan aloqadordir. Psixologik ma’lumotlarning tahliliga ko‘ra, diqqatning obyektga to‘planishi va mustahkamlanishi ko‘zlangan maqsadni, faoliyat mahsulining zarurligi hamda sifatining ahamiyatini inson tomonidan anglash orqali ta’minlab turiladi. Faoliyat

maqsadini anglash o'z ish-harakatida kishi diqqatining yuksak darajada mujassamlanishini ta'min etuvchi eng muhim shart va sharoitlardan biridir.

### **8.3. Diqqatning ko'chuvchanligi, bo'linishi, ko'lami, kuchi, barqarorligi va bo'linishi. Diqqatning rivojlanishi**

Diqqatning ixtiyorsiz va ixtiyoriy ravishda vujudga kelishi o'zining yo'nalishiga ko'ra tashqi va ichki bo'lishi mumkin. Agar diqqatning manbai ongimizdan tashqarida bo'lsa tashqi deb ataladi. Masalan, shofyor, tikuvchi, muharrir kabilarning faoliyatida sodir bo'ladigan diqqat tashqi diqqatdir. Tashqi diqqat faqat idrok qilish jarayonidagina namoyon bo'lmasdan, balki fikr yuritilayotgan narsalarga ham qaratiladi. Jumladan, ixtirochining o'zi yaratgan narsasini tasavvur qilishi, rassomning obrazlarni kashf qilish jarayoni, muhandisning to'g'on qurilishini ko'z o'ngiga keltirish bilan bog'liq holatlar bunga misol bo'la oladi. Inson ongining o'zida sodir bo'layotgan o'z hissiyotlarini, fikrlarini, orzu-istaklarini va shu kabilarni kuzatishda ichki diqqat yuzaga keladi. Diqqatning har ikkala ko'rinishi ham faoliyatning muvaffaqiyatli yakunlanishiga munosib hissa qo'shish imkoniyatiga egadir.

Dominanta tushunchasi fiziologiya faniga A.A.Uxtomskiy tomonidan kiritilgan. Uning isbotlashicha, dominanta orqa miyadan tortib to bosh nerv markazlarining ishlash printsipini tashkil qiladi. Dominanta diqqatning fiziologik asosidir.

Nerv jarayonlarining induksiyasi - oliy nerv faoliyatining qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari o'rtasidagi o'zaro munosabat: MNSining biror markazida qo'zg'alish paydo bo'lsa, u boshqa markazlarda tormozlanishning kelib chiqishiga, tormozlanish esa qo'zg'alishning kelib chiqishiga sabab bo'lishdan iborat qonuniyat. Nerv tizimi jarayonlarning konsentratsiyasi - markaziy asab tizimidagi qo'zg'alish yoki tormozlanish jarayonlarining vaqt o'tishi bilan dastlabki paydo bo'lgan uchastkasiga to'planish qonuni.

Diqqatning ko'lami - bir davrning o'zida diqqat tomonidan qamrab olinishi mumkin bo'lgan obyektlarning miqdori.

Diqqatning ko'chuvchanligi - faoliyat jarayonida diqqatning ongli ravishda bir obyektidan ikkinchi obyektga ko'chirilishi. Diqqatning ko'chuvchanligi har qanday faoliyatda, ayniqsa pult boshqaruvidagi alohida ahamiyatga egadir. Diqqatning taqsimlanishi - diqqatning bir vaqtning o'zida bir qancha obyektlarga qaratilishidan iborat xususiyati. Diqqatning taqsimlanishi murakkab faoliyat jarayonini amalga oshirishda alohida ahamiyatga egadir. Masalan: shofyorning, o'qituvchining ish jarayonidagi diqqati taqsimlangan diqqatdir.

Diqqatning barqarorligi - diqqatning o'z obyektiga kuchli yo'naltirilishi va faol to'planishidan iborat ijobiy xususiyati. Yuqorida ko'rsatilgan psixik jarayonlarning hammasi odamda diqqat mavjud bo'lgandagina yuzaga chiqadi. Diqqat – ongimizning o'zimiz idrok etayotgan, tasavvur qilayotgan, fikr yuritilayotgan va aytayotgan narsamizga qaratish, bir nuqtaga to'plash demakdir. Diqqat o'ziga alohida bilish jarayoni emas, balki bilish jarayonlarning aktiv borishi va sifatli bo'lishi uchun zarur shartdir, xolos.

Ba'zi psixologlar (masalan G.A.Fortunatov) diqqatni psixik holatlarga qo'shadilar. Ammo, diqqat ong faolligining o'ziga alohida bir ko'rinishi ekanligini keyinroq yaqqol anglashiladi. Shu sababli diqqatni iroda sohasiga ham qo'shish mumkin.

Odamning idrok qilayotgan, tasavvur etayotgan, fikr yuritayotgan narsasiga va qilayotgan ishiga nisbatan ko'nglidan kechayotgan har xil yoqimli va yoqimsiz, xush yoki noxush tuyg'ular emotsional sohaga (yoki hissiyot sohasiga) kiradi. Biz dilimizda xush yoki noxush tuyg'u his qilamiz, do'stlik, vatanga muhabbat his qilamiz, urush olovini yoquvchilarga qarshi g'azab his qilamiz. Odamning emotsional tuyg'ulari doimo uning ehtiyoj va manfaatlari bilan bog'liq bo'ladi. Odamning idrok qilayotgan, tasavvur etayotgan va fikr yuritayotgan narsasiga va qilayotgan ishiga ijobiy yoki salbiy munosabati hissiyotda o'z ifodasini topadi. Emotsiyalar ham jarayon, ham holat bo'ladi.

Psixik faoliyatning yuksak ko'rinishi, ya'ni niyatimizga (oldindan o'ylagan maqsadimizga) yetmoq uchun shu maqsadga erishish yo'llari va vositalarini

qamrab olib, shuningdek, uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf qilishda g'ayrat ko'rsatib qilinadigan faoliyat iroda sohasiga kiradi.

Ixtiyoriy (iroda bilan bo'ladigan) faoliyatni ixtiyorsiz (irodadan tashqari bo'ladigan) faoliyatdan ajratish kerak. Ixtiyorsiz faoliyat hayotimizdan tashqari va anglab, bilib g'ayrat ko'rsatmasdan turib yuzaga chiqadi. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz faoliyat diqqat e'tiborda va ish-harakatda ko'rinadi. Shu sababli ixtiyorsiz diqqat bilan ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz harakatlar bilan ixtiyoriy (iroda bilan bo'ladigan) harakatlar farq qilinadi.

Psixologik hodisalar subyektiv kechinmalar aks etiladigan narsa va hodisalarning miyamizdagi obrazlari shaklida ro'y beradi. Ammo, barcha subyektiv psixik hodisalar sirtida, organizmizning xilma-xil o'zgarish va harakatida: mimika, imo-ishora, nutq pantomimikada o'z ifodasini topadi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Diqqatning haqida tushuncha bering?
2. Diqqat turlari sanang?
3. Diqqat xususiyatlari ayting?
4. Diqqatning yo'nalganligini tushuntiring?
5. Diqqatning barqarorligi nima?
6. Diqqat ko'lami nima?

## 9 -MAVZU. XOTIRA

*Tayanch tushunchalar:* xotira turlari, ixtiyorsiz, ixtiyoriy xotira, obrazli xotira, eydetik xotira, emotsional xotira, so'z-mantiq xotirasi, xotiraning individual psixologik xususiyatlari, assotsiatsiya.

### 9.1. Xotiraning psixik jarayon sifatida o'rganilishi. Xotira va uning psixifiziologik mexanizmlari

Psixologik manbalarda ko'rsatilishicha, psixikaning eng muhim xususiyati shundan iboratki, inson tashqi ta'ssurotlarning aks ettirilishidan o'zining keyingi faoliyatida, xatti-harakatlarida doimo foydalanadi va ijodiy yondashuvi natijasida ba'zi bir o'zgarishlar kiritadi. Insonda shaxsiy tajriba, ko'nikma, malaka va bilim ko'lami orta borishi hisobiga faoliyat hamda xulq-atvor tobora murakkablashib, yangi mazmun, yangi sifat kasb eta boshlaydi. Ma'lumki, agar tashqi olamning bosh miya katta yarim sharlari qobig'ida hosil bo'ladigan obrazlari, timsollari va ularning izlari yo'qolib ketaversa, tajribaning saqlanishi, bilimlarning boyishi, murakkablashishi, muayyan tartibga kelishi, qaytadan jonlanishi mutlaqo mumkin bo'lmas edi. Modomiki shunday ekan, mazkur obrazlar bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'lanib, asta-sekin mustahkamlanib, miya qobig'ida puxta saqlanib qoladi, shu bilan birga, hayot va faoliyatning muayyan talablariga muvofiq ravishda qaytadan jonlanadi, avvalgi holatini boshqatdan namoyon qiladi.

Hozirgi davrda qo'llanib kelinayotgan adabiyotlarda xotiraga mana bunday tarzda ta'rif berilib kelinmoqda: «Individning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi». Lekin bu ta'rifda xotiraga taalluqli bo'lgan juda ko'p sifatlar, xossalalar va xususiyatlar o'z aksini topmagan, shuning uchun uni mukammal, ixcham, pishiq ifodalangan deyishga hech qanday haq-huquqimiz yo'q. Ushbu qiyin holatdan chiqishning birdan-bir yo'li, bizningcha unga mana bunday tarzda ta'rif berishdan iborat: «Xotira atrof-muhitdagi voqelik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va aktiv (faol) holda reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib

qolish, esda saqlash, qaytadan esga tushirish, unutish hamda tanish, eslashdan iborat ruhiy jarayon alohida va umumiy namoyon qiluvchi hodisa, barcha taassurotlarni ijodiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik (yunoncha *tpeta* — xotira) faoliyatdir». Shuni qat'iy ishonch bilan aytish mumkinki, berilgan ta'rif xotiraning murakkab, keng qamrovli jihatlarini to'la ta'kidlash imkoniyatiga ega. Lekin bu narsa mutlaq darajada mukammallik da'vo qilish degan ibora emas, chunki unda obyektivlik (tashqi) va subyektivlik (ichki) yuzasidan ma'lumot aks ettirilmadi. Umuman olib qaraganda esa, bu narsaga hojat ham, imkoniyat ham yo'qdir.

Ta'rifda xotiraning esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish, unutish, tanish, eslash kabi asosiy jarayonlari alohida ajratib ko'rsatilgan, lekin ularning har biri mustaqil holat va jarayon hisoblanmaydi. Chunki ular muayyan faoliyat davomida, xoh bilish, xoh mnemik holat bo'lishidan qat'iy nazar va o'sha faoliyat tuzilishi, mohiyati va mazmuni bilan belgilanadi. Shuning uchun inson tomonidan muayyan bir materialni esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish uning individual (yakkahol) tajriba ko'lami, bilim saviyasi va aql-zakovati darajasiga bog'liq. Chunki esda olib qolingani narsa va hodisalarni keyinchalik qo'llash uchun esga tushirish taqozo etiladi; bu mnemik faoliyatni talab qiladi. O'zlashtirilgan materiallarni ushbu faoliyat doirasidan chiqib ketishi esa uning unutilishiga olib keladi. Materialni esda saqlash uchun shaxs faoliyatida qanday aks etishiga bog'liqdir. Ana shuning uchun har xil holatlarda odamning bilish faoliyati, xulq-atvori hayotiy tajribasi va madaniy malakasi bilan belgilanadi. Lekin qarama-qarshi nuqtai nazarlar ham mavjud; ular o'zaro mezonlari hamda sharhlari bilan tafovutlanadilar.

Shunday qilib, xotira shaxs ruhiy faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xotiraning bosh roli o'tmishda yuz bergan narsa va hodisalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmasdan, balki ham hozirda, ham kelgusida amalga oshirish rejalashtirilgan voqelikning ro'yobga chiqishini ta'minlaydi. Tabiatda va jamiyatda namoyon bo'ladigan har qanday toifadagi ruhiy hodisa o'zining tarkibiga kiruvchi har bir

qismni muayyan tartibda o'zaro bog'langan tarzda saqlab qolinishini talab etadi. Turli ko'rinishga ega bo'lgan «bog'lanish»ga imkoniyat yoki shart-sharoit vujudga kelmasa, u holda rivojlanish to'g'risida so'z ham bo'lishi mumkin emas, chunki, I. M. Sechenov iborasi bilan aytganda, kishi »chaqaloqlik holatida» mangu qolib ketgan bo'lur edi.

Psixologik ilmiy adabiyotlarda ko'p marotaba ta'kidlanishiga binoan, xotira barcha ruhiy jarayonlarning eng muhim tasnifi bo'lishi bilan bir qatorda, inson shaxsining birligi va yaxlitligi, biologik va ijtimoiylik nisbatini ta'minlab turadi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari, xossalari, mexanizmlari to'g'risida muayyan tartibda ma'lumot berish imkoniyatiga ega.

Xotira psixologiya fanining chuqur tadqiq qilingan jarayonlaridan biri bo'lib hisoblansa-da, lekin fan va texnikaning taraqqiyoti ko'p jihatdan xotira muammolarining o'rganilishiga bog'liqdir. Shuning uchun uning qonuniyatlarini ochish, «aqlli» va «sun'iy intellekt»li mashinalar mahsuldorligini oshirish, sifat darajasini ko'tarish uchun xizmat qiladi. Hozirgi davrda olib borilayotgan ilmiy-tekshirish ishlari esda olib qolish, esga tushirish mexanizmlari va kognitivistik nazariyalarga bag'ishlangan. Lekin jahon psixologiyasi fanida assotsianizm, geshtaltizm, bixeviorizm, freydizm kabi ko'plab yo'nalishlar mavjud bo'lishiga qaramasdan bugun xotiraning yagona va tugallangan nazariyasi ishlab chiqilmagan. Ilmiy-nazariy xususiyatlarga ega bo'lgan, faraz tarzdagi nazariyalar va qarashlarning haddan tashqari ko'pligi kibernetika, tajriba va genetik biologiya, biokimyoy, fiziologiya, tibbiyot nuqtai nazaridan yondashganligi bilan tasniflanadi. Bu narsaning barchasi xotirani o'rganishning psixologik, neyrofiziologik va biokimyoviy bosqichlari mavjudligidan dalolat beradi.

Xotirani o'rganishning har uchala darajasi ichidan uning psixologik darajasi tadqiq qilinishi o'zining boy materiallari bilan boshqalaridan sezilarli ustunlikka ega bo'lib, psixologiya fanida xilma-xil yo'nalishlar va nazariyalar ishlab chiqilganligi hamda original (mustaqil ravishda, boshqalarga o'xshamaydigan) innovatsion (yangi, dolzarb) g'oyalar ilgari surilganligi ma'lumdir. Bu nazariyalar negizida (mohiyatida) xotira jarayonlarining shakllanishiga subyekt (inson)ning

faolligi qanday ahamiyatga egaligi va bunday faollikning mexanizmi (yuzaga kelishi) qanday ro'yobga chiqishi to'g'risidagi muammolarni tasniflash va baholash yotadi.

Inson xotirasining qonuniyatlarini o'rganish psixologiya fanining markaziy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, insonning har qanday kechinmasi, hatto xatti-harakatlari uzoq muddat ongda saqlanib, ma'lum bir sharoitda qayta namoyon bo'luvchi izlar qoldiradi. Shuning uchun xotira deganda insonga tabiat, jamiyat, koinot to'g'risida ma'lumot, xabar, axborot va taassurot to'plash imkonini beradigan hamda ilgarigi tajriba izlarining esda olib qolinishi, esda saqlanishi, qayta esga tushirilishi, eslashi, tanishi tushuniladi.

Bunga bog'liq ravishda psixologiya fani oldida xotira jarayonlarini o'rganish bilan aloqador bo'lgan qator murakkab muammolar, masalalar tadqiq qilish vazifasi turibdi. Bular quyidagalardan iboratdir: izlar qanday esda olib qolinadi, esda olib qolishning fiziologik mexanizmlari qanday, esda olib qolishga qanday obyektiv (tashqi), subyektiv (ichki), tabiiy-biologik va ijtimoiy-psixologik sharoitlar ta'sir qiladi va ularning chegaralari qanday kabilar.

O'tgan asrning 70-80-yillaridan boshlab xotirani tadqiq qilishda tajriba, tekshiruv, sinov usullaridan foydalanila boshlangan. O'tgan asrning 80-yillarida nemis psixologi German Ebbingauz «sof» xotira qonunlarini o'rganish imkonini beruvchi, boshqacha so'z bilan aytganda, tafakkurga bog'liq bo'lmagan holda izlarning esda olib qolinish jarayonini tadqiqot etishning yangi uslubini taklif qilgan. Ma'nosiz bo'g'inlarni yod olishdan iborat bo'lgan bu uslub Ebbingauzga materialni esda olib qolishning egri chizig'iga oid qonunni kashf qilishga, uning asosiy qoidalarini bayon etishga va ana shularning asosida izlarni xotirada saqlanish muddatini hamda asta-sekin so'nish holatini tekshirishga imkoniyat yaratgan.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida amerikalik psixolog Eduard Torndaykning tekshirishlari paydo bo'ladi. U birinchilardan bo'lib tekshirish predmeti sifatida hayvonlarda ko'nikmalarni paydo bo'lish jarayonini tanlagan edi.



Xuddi shudavr xotira psixologiyasida keskin burilish nuqtasini vujudga keltirdi. Akademik I. P. Pavlov shartli reflekslarni o'rganishning ilmiy metodini taklif etdi. Bu narsa, o'z navbatida, bosh miya katta yarim sharlari yangi bog'lanishlar paydo bo'lishiga va mustahkamlanishining asosiy fiziologik mexanizmlarini tekshirish imkoniyatini tug'dirdi. Ana shunday qilib, ushbu bog'lanishlar paydo bo'lishiga va saqlanib qolishiga yordam beradigan shart-sharoitlar, shuningdek, bog'lanishlarning saqlanishiga ta'sir qiluvchi holatlar, omillar va mexanizmlar tasvirlab berildi. I.P.Pavlov oliy asab faoliyati ta'limoti va uning asosiy qonunlari xotiraning fiziologik mexanizmlariga oid bilimlarning asosiy manbaiga aylanib qoldi.

Bolalarda xotiraning yuksak (yuqori) shakllarini birinchi marta tadrijiy ravishda tadqiqot qilish taniqli psixolog L.S.Vigotskiyga nasib etgan (1896-1934).

L.S.Vigotskiy 20-yillarning oxirlarida maxsus tekshirishlarning predmeti qilib, xotiraning yuksak shakllarining rivojlanish muammosini tanlagan va u o'z shogirdlariga L.N. Leontev (1903-1979) va L.V.Zankov bilan birgalikda xotiraning yuksak shakllari ruhiy faoliyatning murakkab shakli ekanligini, kelib chiqish jihatidan ijtimoiyligini ko'rsatadi. Shuning bilan birga u murakkab, mohiyatiga ko'ra, esda olib qolishning asosiy bosqichlari rivojlanishini dalillab berdi.

Psixologlardan A.A.Smirnov, P.I.Zinchenkolar ham xotira bo'yicha ilmiy-tekshirish ishlarini olib bordilar, uning yangi qonunlari va mexanizmlarini ochdilar, esda olib qolishning faoliyat maqsadiga bog'liqligini yoritdilar, murakkab materialni esda olib qolishning oqilona usullarini ko'rsatib berishga muvofiq bo'ldilar. Ularning tadqiqotlari to'g'risida boshqa bobda batafsil to'xtalib o'tamiz, shuning uchun hozir umumiy tasnif bilan cheklanamiz, xolos.

Xotirani psixologik tekshirishlarda qanchalik yuksak muvaffaqiyatlarga erishganidan qat'iy nazar izlarning saqlab qolish jarayoni uning holatlari va hodisalar tabiati noma'lumligicha qolavergan. Bu fan tarmog'ida uzilishlar bir necha davr hukm surib yeklgan. Mazkur holatning turli shaklda talqin qilish mumkin, lekin hech mahal uni saqlash to'g'risida mulohaza yuritib bo'lmaydi.

Faqatgina oxirigi o‘ttiz yil ichida izlarning saqlanishi uchun zarur bo‘lgan miya qismlarini ajratib ko‘rsatuvchi va esda olib qolishning va unutishning asosida yotuvchi mexanizmlarni ko‘rsatib beruvchi tekshirishlar o‘tkazila boshlandi. Quyida ana shu masalalar to‘g‘risida mulohaza yuritiladi hamda ilmiy-amaliy jihatlari yuzasidan dalillar keltiradi.

## **9.2. Xotira jarayonlari va uning turlari. Xotiradagi individual farqlar**

Qo‘zg‘atuvchi ta’siri ostida hosil qilingan izlarning uzoq muddat saqlanish hodisasining hayvonot olamini taraqqiyoti jarayonida namoyon bo‘lish xususiyati tadqiqotchilar tomonidan tekshirilgan va muayyan darajada ma’lumotlar to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lganlar.

Tajribada aniqlanishicha, poliplarning (meduzaga o‘xshash jonivorlar) asab tizimiga bir marotaba elektr toki bilan ta’sir qilish orqali qo‘zg‘atishni vujudga keltirish bir necha soat davomida saqlanib qoluvchi ritmik elektr impulslarini hosil qiladi. Hayvonot olami yirik vakillarining markaziy asab tizimini tadqiqot qilish davomida xuddi shunga o‘xshash hodisa kuzatilgan. Masalan, bir marotaba birdaniga elektr lampochkasini yoqish bilan qo‘zg‘atish hosil qilish uy quyoning yuqori ikki do‘ngligida uzoq muddat qayd qilish mumkin bo‘lgan ritmik elektr razryadlarini hosil qiladi.

Tadqiqotchilarning ko‘rsatishicha, ko‘p vaqt bir xil signalni takrorlab turish natijasida insonning unga moslashishi, ya’ni orientir refleksning so‘nishiga, befarqlikka olib boradi (E.N.Boyko, Y.N.Sokolov va boshqalar). Psixolog E.N.Sokolovning fikricha, bunday odatlanish, ko‘nikish hodisasini alohida olingan neyronning ko‘p marotaba ta’sir etgan qo‘zg‘atuvchiga berayotgan javobini tekshirish davomida kuzatish mumkin.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, kuzatuvchining xarakteri yoki intensivligini bir oz o‘zgartirish jarayoni orientir refleksini qayta vujudga keltiradi.

E.N.Sokolov olib borgan tekshirishlari shuni ko‘rsatdiki, u ilgari surgan orientir refleksining qayta tiklanishi faqatgina qo‘zg‘atuvchining xarakterini o‘zgartirilgan zahoti emas, balki ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng ham qo‘zg‘atish

mumkin. Agar tekshiruvchilarda alohida bir qo'zg'atuvchiga nisbatan moslashish paydo qildirilgan, salgina qo'zg'atuvchining jadalligini, ta'sir etish vaqti yoki xarakteri o'zgartirilsa, u holda oriyentir refleksining vegetativ yoki elektrofiziologik simptomlari qayta tiklanadi. Bu oriyentir refleksining qayta tiklanishi uning so'nganidan uzoq muddat o'tgandan keyin ham kuzatiladi.

Nerv tizimi ilgari kuzatuvchilarning izlarini aniq saqlay olish qobiliyatiga ega. Buning to'laroq dalillash maqsadida misollarga murojaat qilamiz.

Ma'lumki, agar bir xil xususiyatga ega bo'lgan signal qanchalik ko'p uchrasa, sinaluvchi unga shunchalik tez moslashadi, xuddi shu tariqa tezkorlikda (reaksiyaning latent vaqti juda qisqa bo'lishiga qaramay) javob qaytaradi.

Turli metodikalar bilan atroflicha tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, bu qonun eng oddiy sharoitlarda ham saqlanib qolar ekan.

Keyingi davrdagi tekshirishlarning ko'rsatishicha, insonning asab tizimi alohida signal izlarini o'ta aniqlik bilan uzoq muddat saqlash imkoniyatiga egadir, bunga E. N. Sokolov tajribalari yaqqol misol bo'la oladi.

Sinaluvchilarga bir marotaba ma'lum bir balandligi 500 gs va jadalligi 20 db bo'lgan eshitish signali berilgan, unga javob tariqasida qo'lning qisishi kerak bo'lgan. Ular faqat shu signalga javob berib, boshqa signalga qo'l xarakatlari qilmasliklari zarur edi. Tajribaning navbatdagi bosqichida sinaluvchilarga shu balandlikdagi, lekin intensivligi 5 db dan 30 db gacha bo'lgan turli tovushlar berilgan. Bunda bir davrning o'zida elektroensefalogramma, elektromiogramma kabi reaksiyalar qayd qilib borilgan.

Ushbu tajriba oradan ikki, to'rt va yigirma besh kun o'tgandan so'ng qaytadan takrorlangan, lekin bir marotaba berilgan etalon qayta takror namoyon bo'lmagan.

Tajriba natijalarining ko'rsatishiga qaraganda, bir marotaba ko'rsatilgan etalon sinaluvchilarda uzoq vaqt davomida saqlanib qolgan va undan so'ng ham ular etalonga mos signallarga aniq elektrofiziologik va harakat reaksiyalarini bildirganlar.

Keltirilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, inson miyasi bir marta berilgan qo'zg'atuvchining izini uzoq vaqt aniq saqlashi mumkindir. Shunisi ajablanarliki,

izlarninganikligi vaqt o'tishi bilan yo'qolmaydi, balki u borgan sari kuchayib boradi.

Izlarning «konsolidatsiyalanish» jarayoni. Yuqorida biz inson miyasiga ta'sir qilgan qo'zg'ovchilarning izi esda olib qolinishini ko'rib o'tgan edik. Navbatdagi vazifa izlarning mustahkamlanish jarayoni qanday kechadi, degan savolga javob berishdan iboratdir. Izlar tezda mustahkamlanadimi yoki ma'lum vaqt talab qiladimi, degan muammolar tug'ilishi tabiiy holdir.

Bu savollarni o'rganish ko'pgina tadqiqotchilarning predmeti bo'lib xizmat qilgan. Ko'pgina psixologlar kuzatishlariga qaraganda, insonning bosh miyasi jarohatlanganda, jarohatgacha bo'lgan qisqa vaqt ichida va jarohatdan keyin ma'lum vaqt oralig'ida ta'sir qilgan qo'zg'ovchilarning izi saqlanmaydi. Bosh suyagi og'ir jarohatlanib, odam hushidan ketganda, shikastlangangacha qanday hodisa ro'y berganligini va undan so'ng ro'y bergan hodisani sira eslay olmaydi. Bu hol anteregrad, retrograd va anteroretrograd amneziyasi degan nom olgan. Bu holat shuni ko'rsatadiki, asab tizimiga ro'y bergan kuchli shok (ruhiy og'ir favquloddagi xastalanish) miyani ma'lum muddatga unga yetib kelgan qo'zg'atuvchilarning izlarini saqlashga qobiliyatsiz qilib qo'yadi.

Anterograd, retrograd va anteroretrograd amneziya miya izlarini esda olib qolishga qobiliyatsiz bo'lib qolgan vaqt oralig'ini o'lchash imkonini berdi. Masalan, 7 km da halokatga (avriyaga) uchragan mototsiklchi 64 km dan boshlab ko'rgan barcha narsalarni esdan chiqaradi. U soatiga 60 km tezlik bilan ketayotganligi sababli halokatdan 10-15 daqiqa oldin ro'y bergan taassurotlarning izlarini mustahkam saqlab qola olmagan. Demak, izlarning xotirada mustahkamlanishi yoki psixologiyada aytiladiganidek, «konsolidatsiya»lanish uchun 10-15 daqiqa kifoya qilar ekan, xolos.

Shunga o'xshash omillar asosida maxsus tajribalar o'tkazilib, bunda sinaluvchilarga sun'iy kuchsiz shok beriladi va qanday muddat oralig'i xotiradan tushib qolishi kuzatiladi.

Yuqoridagi kuzatishlar shunday fikrlar olib keldiki, izlarning mustahkamlanishi uchun muayyan vaqt talab qilinadi va ushbu faktni tekshirish

uchun psixologiyada qator tadqiqotlar o'tkazila boshlandi. Amerikaliklar tomonidan tadqiqotlar quyidagicha amalga oshirilgan. Hayvonlar ko'nikma hosil qilinayotganidan bir oz vaqt o'tgan, hayvonga elektr toki beriladi. Agar shok ko'nikma hosil qilinganidan 10-15 daqiqadan keyin berilsa, u holda mazkur ko'nikma yo'qoladi: agar ko'nikma hosil qilinganidan keyin 45-60 daqiqa ichida berilsa, ko'nikma saqlanadi. Shu sababdan izlarning mustahkamlanishi vaqti uchun 10-15 daqiqa ajratilishi kifoya qiladi. Jahon psixologlari olib borgan keyingi tajribalar shuni ko'rsatdiki, shokdan so'ng hosil qilinadigan ko'nikmaga ham shok salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak, shok izlarining «konsolidatsiya» lanishigacha ta'sir qilib qolmasdan, balki miyani shunday holatga solib qo'yar ekanki, bunda ko'nikma hosil bo'lishi reallikdan uzoqlashadi.

### **9.3.Yoshga bog'liq sifatlari. Xotiraning neyrofiziologik va bioximik nazariyalari**

Hozirgi davrda shu narsa ma'lum bo'ladiki, yuqoridagi samara (effekt) faqat elektr toki yordamidagina emas, balki farmakologik elementlar ta'siri ostida ham kuzatilar ekan. Masalan, barbituratlar bosh miya po'stlog'ini tormozlanish holatiga olib keladi; metrazol po'stloqda kuchli qo'zg'alishni yuzaga keltiradi. To'plangan ma'lumotlarga qaraganda, odamda ko'nikma hosil qilinib, bir daqiqa o'tgandan so'ng barbituratlarni qabul qilish ko'nikma izining yo'qolishiga olib kelar ekan; aynan shu doza dori barbituratli ko'nikma hosil qilingandan so'ng 30 daqiqa o'tgach qabul qilinsa, ko'nikmaning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shunga o'xshash natijalar metrazol bilan o'tkazilgan tajribalarda ham kuzatilgan; ko'nikma hosil qilingandan so'ng 10 sekund o'tgach, metrazol qabul qilinishi izlarning qo'pol ravishda buzilishiga olib keladi, 10 daqiqa keyin qabul qilinsa, u holda izlarning kuchsiz saqlanishi namoyon bo'ladi, 20 daqiqa o'tganda esa ko'nikma butunlay saqlangan.

Biroq miyaning qo'zg'alishiga ta'sir qiluvchi turli moddalar izlarning saqlanishiga turlicha «chuqurlikda» ta'sir qiladilar. Ba'zilar 3-4 kun oldin hosil qilingan ko'nikmalarni yo'qotsa, boshqalari izlarning hosil bo'lishiga ta'sir qiladi.

Ma'lum bo'lishicha, izlarning «konsolidatsiya»lanishini tezlashtiruvchi moddalar ham ma'lumdir. Bunday preparatlarning biri-otrixnindir. Bundan inyeksiya qilinsa, konsolidatsiyani tezlashtirish bilan birga, unga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi moddalarga nisbatan «yashovchanroq» qilib qo'yadi.

#### Predmetiga ko'ra:

- Harakat yoki motor-harakat xotirasi
- Obrazli xotira
- His-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi
- So'z-mantiq xotira

#### Ruhiy faoliyatning maqsadiga ko'ra:

- ixtiyorsiz
- Ixtiyoriy
- mexanik

#### Ruhiy faoliyatning davomiyligiga ko'ra:

- Qisqa muddatli xotira
- Uzoq muddatli xotira
- Operativ (tezkor) xotira

#### Ruhiy faoliyat qo'zg'atuvchisining sifatiga ko'ra:

- musiqiy
- Eshitish xotirasi

#### Ruhiy faoliyatning inson yo'nalishiga qarab:

- fenomenal
- kasbiy

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan tajribalardan ko'rinib turibdiki, izlarning mustahkamlanishi ma'lum vaqt talab qiladi va ushbu jarayonda turli kuch bilan ta'sir qiluvchi holatlar hukm suradi. Lekin hayvonlarning individual farqlari mavjud bo'lib, izlarning konsolidatsiyasi turli hayvonlarda turlicha tezlikda ro'y beradi. Amerikalik psixolog Mak Gouning ko'rsatishicha, ko'nikma tez hosil bo'ladigan kalamushlarga ko'nikma hosil qilinadigan 45 sek. o'tgandan keyin shok

berilsa, izlar yo‘qoladi, 30 daqiqadan keyin shok berilsa, u holda izlar saqlanadi; ko‘pincha ko‘nikma asta-sekin hosil bo‘luvchi kalamushlarda (individual-tipologik xususiyatlarga ko‘ra) 45 sekunddan, 30 daqiqadan keyin berilgan shok izlarini bir xilda yo‘qotadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, kalamushlarning «tez» guruhlarida izlar 15-20 daqiqa ichida konsolidatsiya bo‘lishga ulguradi (uzoq vaqtgacha) va ular «sekin» guruhlarida esa izlar konsolidatsiya bo‘lishga ulgurmaydi hamda uzoq vaqtgacha yaxshi mustahkamlana olmaydi.


Inson tomonidan muayyan izlarni o‘zlashtirish degan gap izlarning mustahkamlanganligi emas hali, chunki ularning mustahkamlanishi uchun ma’lum vaqt zarurdir. Bu vaqt ko‘pgina omillarga bog‘liq bo‘lib, jumladan, bular qatoriga individual xususiyatlar va ularning imkonini kiritish mumkin.

Fizik iz qolish nazariyasida neyronlardan nerv impulslarining o‘tishi o‘zidan keyin fizik iz qoldiradi deb taxmin qilinadi. Bu nazariya tarafdorlarining fikriga qaraganda, izlarning fizik aks etish sinapslarda yuzaga keladigan elektrik va mexanik o‘zgarishlarda o‘z aksini topadi.

Izlarning neyrofiziologik asoslari to‘g‘risida fikr yuritilganda Lorente, Makselein kabi olimlarning reverberlashtirish hodisasini (reverberlashtirish - aylancha aks ettirish demakdir) tatbiq qilinganlarini aytib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Ularning ko‘rsatishlaricha, nerv hujayralaridan chiqqan aksonlar boshqa hujayralardagi dendritlar bilan qo‘shilishi natijasida reverberlashtirish hodisasi vujudga keladi.

Proteinlar hosil bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar biokimyoviy reaksiyalar deyiladi. Bu hodisani jahon psixologlari uzoq muddatli xotiraning psixofiziologik mexanizmi deb ataydilar. Mak Konnel (AQSh) yomg‘ir chuvalchanglarida tajriba o‘tkazgan. U shartli reflekslarni hosil qilish boshqa reaksiyalardan farqli o‘laroq, biokimyoviy reaksiyalarda (yorug‘dan qochishni mashq qilish) ikki-uch marta kamayib ketishini ko‘rsatgan.

## Xotira turlari.




Yuqorida bayon qilingan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, xotira sababiy bog'lanish, ya'ni determinator holati natijasida vujudga keladi.

Inson xatti-harakatlarining asta-sekin murakkablashuvi, yangicha mazmun va shakl kasb etishi, sifatiy o'zgarishlarining yuz berishi, shaxsiy tajribaning kengayishi, ortishi bilan ro'y beradi. Voqelikning va tashqi olamning timsollari, tizimlari o'zaro turli yo'sinda, tarzda bog'lanib mustahkamlanadi, tartibga keladi, guruhga birlashadi, hayot va faoliyatning talablariga mos ravishda esda olib qolinadi; esda saqlanadi, muayyan izlarning jonlanishi natijasida ularning barchasi tiklanadi. Xotira insonning hayoti va faoliyatining barcha sohalarida qatnashishi tufayli uning namoyon bo'lish shakllari, holatlari, shart-sharoitlari, omillari ham xilma-xil ko'rinishga egadirlar. Odatda, xotiraning turlariga va ularni muayyan turlarga ajratishda eng muhim asos qilib, uning xarakteristikasini esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, tanish singari jarayonlarni amalga oshiruvchi faoliyatning xususiyatlariga bog'liqligi olinadi. Umumiy psixologiyada xotira 5 ta muhim mezonga (bizningcha) muvofiq ravishda turlarga, ko'rinishlarga ajratiladi. Harakat xotirasi. Inson faoliyatining har bir turiga ruhiy faollikning u yoki bu ko'rinishlari ustunlik qilishi kuzatiladi: masalan, harakat, hissiyot, idrok, aql-zakovat kabi ruhiy faoliyatning ko'rinishlari mavjuddir. Ana shu ruhiy faollik



turlarining har biri tegishli harakatlarda va ularning mahsulotlarida o'z ifodasini topib, harakatlarda, hissiy kechinmalarda, tuyg'ularda, obrazlarda, timsollarda fikr va mulohazalarda aks etadi.




Bularning barchasiga xizmat qiluvchi xotiraning o'ziga xos turlariga nisbatan psixologiya fanida ilmiy tushunchalar tariqasida nom berilgan: harakat, hissiyot, obrazli va so'z-mantiq xotira.

Turli harakatlar va ularning bajarilishi tartibi, tezligi, sur'ati, izchilligi va boshqalarni esda qoldirish, mustahkamlash, esga tushirishdan iborat xotira turi harakat xotirasi deb ataladi.

Xotiraning boshqa turlariga qaraganda, harakat xotirasi ba'zi odamlarda aniq, ravshan ustunlik qilayotganligi uchrab turadi. Psixologiya fanida klassik (mumtoz) misolga aylanib qolgan ushbu holatni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir; bir musiqa ishqibozi musiqiy asarni xotirasida mutlaqo qayta tiklay olmas ekan, lekin u yaqindagina eshitgan operani faqat pantomima tarzidagina qayta tiklash imkoniyatiga ega bo'lgan. Turmushda shunday odamlar uchraydiki, ular o'zlarida harakat xotirasining borligini umuman payqamaydilar. Mazkur xotira turining g'oyat katta ahamiyati shundan iboratki, u yurish, yozish, ifodali harakat malakalari bilan bir qatorda har xil amaliy mehnat malakalari tarkib topishining asosini tashkil qiladi. Agarda insonda harakat xotirasi bo'lmaganda edi, u bironta

harakatni amalga oshirish uchun o'sha harakatning aynan o'zini har galda «boshdan boshlar», o'rganar edi. Figurali uchish, langar bilan sakrash, gimnastika, chopishdagi xatti-harakatlar, badiiy gimnastika bilan shug'ullanish harakat xotirasini taqozo etadi. Jismoniy chaqqonlik, mehnatdagi mahorat, «oltin qo'llar», ziyrak ko'zlar, egiluvchanlik va qo'zg'atuvchanlikka ega bo'lish yuksak, barqaror harakat xotirasi mavjudligining alomati bo'lib hisoblanadi.

#### **Mantiqiy esda olib qolishning bosqichlari.**



His-tuyg'u yoki hissiy xotira. Bu xotira his-tuyg'ular, ruhiy kechinmalar, hissiyotlar bizning ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotganligidan, atrofimizdagi narsa va hodisalarning xususiyatiga nisbatan munosabatlarimiz qay tarzda amalga oshirilayotganligidan doimo xabar berib turish imkoniyatiga ega. Shuning uchun har bir kishining hayoti va faoliyatida hissiy xotira turi juda katta ahamiyat kasb etadi.

Voqelikdagi narsa va hodisalardan o'z-o'zimizga bo'lgan munosabatlarimizdan kelib chiqadigan yoqimli hamda yoqimsiz kechinmalarni esda qoldirish, esga tushirishdan iborat xotira turi hissiy xotira deb ataladi. Ular biz ruhiyatimizda kechirgan, ma'naviyatimizga ta'sir qiluvchi, xotiramizda saqlanib qolgan his-tuyg'u, ehtiros, alam, armon kabilar jonlanishiga, harakatga undovchi

yoki o‘tmishda salbiy kechinmalarga ega bo‘lgan harakatlardan saqlab turuvchi signal tarzida namoyon bo‘ladi. O‘zga kishilarning ruhiy holatiga hamdard (empatiya) bo‘lish, bevosita voqelik mohiyatiga oshnolik, kitob, san’at, kino, teatr qahramonlari bilan birgalikda qayg‘urish singari inson tuyg‘ulari hissiy yoki his-tuyg‘u xotirasiga asoslanadi.

Hissiy xotira o‘zining vujudga kelish xususiyati, tezligi, dinamikasi, davomiyligi bilan xotiraning boshqa turlaridan ma’lum ma’noda ajralib turadi. Har qaysi odamga o‘z turmush tajribasidan ma’lumki, ko‘pincha qachonlardir o‘qigan kitoblardan, tomosha qilgan kinofilmlardan, spektakllardan faqat «taassurotlar» bog‘lanishlari zanjirini yechishning dastlabki tuguni sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun hissiy (xotira ijtimoiy ahamiyat kasb etib, umumiylik alohida olingan odamlar kayfiyatlari bir-birlariga o‘xshashligi iliq ruhiy muhitni vujudga keltirish yoki noxush kechinmalar to‘lqinini barpo etish ehtimoli to‘g‘risida mulohaza yuritilayotganligi ayon bo‘lsa kerak) alomati ostida ijtimoiy, guruhiy, jamoaviy barqaror yoki beqaror kayfiyatni vujudga keltiradi. Ommaviy kayfiyat (shodlik, g‘am-g‘ussa, bezovtalanish kabilar) xuddi shu tarzdagi ehtiros, affekt, stress, shijoat singari kechinmalarni keltirib chiqaradi hamda ularni xotirada saqlanishga yordam beradi, zaruriyat tug‘ilganda jonlanishga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Obrazli xotira. Obrazli xotira tasavvurlar va turmush manzaralari, shuning bilan birga, tovushlar, ta’mlar, ranglar, shakllar bilan bog‘liq bo‘lgan xotira turidir. Obraz xotirasi deb, yaqqol mazmuni, binobarin narsa va hodisalarning aniq obrazlarini, ularning xususiyatlari va bog‘lanishlarini esda qoldirish, ongda mustahkamlash hamda zaruriyat tug‘ilganda esga tushirishdan iborat xotira turiga aytiladi.

Sensor xotiraning eng sodda ko‘rinishi yoki shakli izchil obrazlardan iboratdir. Izchil obrazlarning namoyon bo‘lish hodisasi quyidagilardan tuzilgandir: agar subyekt (shaxs)ga bir necha daqiqa oddiy qo‘zg‘atuvchi yuborilsa, jumladan, 10-15 sek. yorqin qizil kvadratga qarab turish taklif etilsa, so‘ng tekshiriluvchi oldidan kvadrat olib qo‘yilsa, u qizil kvadrat o‘rnida xuddi shunday geometrik

shakl izini ko‘rishda davom etadi, asosan, bu shakl ko‘k-yashil rangda tovlanadi. Mazkur iz o‘sha zahoti, ba‘zan bir necha sekunddan keyin paydo bo‘lib, 15 sekunddan to 45-60 sekundgacha o‘sha obyektida saqlanib turadi, shundan so‘ng u asta-sekin oqara boshlaydi; natijada o‘zining aniq konturini yo‘qotadi, keyinchalik mutlaqo yo‘qolib ketadi, goho butunlay yo‘qolish uchun qaytadan paydo bo‘lishi mumkin. Odamlarning individual-tipologik xususiyatlariga qarab, izchil obrazlarning aniqligi va davomiyligi turlicha bo‘lishi ko‘zga tashlanadi.

O‘zining kelib chiqishi, kuchliligi jihatdan izchil obrazlar salbiy va ijobiy turlarga bo‘linadi. Agar izchil ravishda odam qizil rangga qarab turib, so‘ngra nigohini oq qog‘ozga ko‘chirsa, u holda obyektida ko‘k-yashil rang paydo bo‘lganday tuyuladi. Izchil obrazlarning ushbu turi salbiy izchil obrazlar deb ataladi. Bu holatni yana bir misol orqali tushuntirilsa quyidagi ketma-ketlik hodisasi namoyon bo‘ladi. Qorong‘i xonada ko‘z oldida bir narsa, masalan, qo‘l yaqinlashtirilsa, so‘ngra qisqa muddatli (0, 5 sek) elektr chirog‘i yoqilsa, bu holda chiroq o‘chgandan keyin odam bir necha daqiqa davomida narsalarning aniq obrazlarini ko‘rishda davom etadi. Mazkur obraz o‘z rangida bir qancha muddat saqlanib, so‘ng ko‘zdan yo‘qoladi.

Izchil obrazlar xotira jarayonining sodda izlariga misol bo‘la oladi. Ushba ruhiy holatni ong bilan boshqarib bo‘lmaydi, chunonchi, xohishlarga qarab uzaytirish, ixtiyoriy ravishda qayta tiklash mumkin emas. Binobarin, izchil obrazlar ushbu xotiraning murakkabroq turlaridan ana shu jihati bilan farq qiladi.

Izchil obrazlarni eshitish, teri orqali sezishda kuzatish mumkin, lekin bu vaziyatda izchil obrazlar kuchliroq namoyon bo‘lishi va qisqa muddat davom etishi kuzatiladi.


Eydetik obrazlar. Umumiy psixologiyada izchil obrazlardan eydetik obrazlarni farqlash an‘ana tusiga kirgan («eydos» - yunoncha «obraz» degan ma‘noni anglatadi). Xotiraning bu turi, ya‘ni eydetik obrazlar o‘z vaqtida nemis psixologiya maktabining namoyandalari aka-uka Yenishlar tomonidan ta‘riflab berilgan. Ba‘zi odamlarda, ayniqsa, bolalik va o‘smirlik, o‘spirinlik davrlarida

kuzatilgan narsa yoki suratlar ko‘z o‘ngidan olib qo‘yilsa ham surat siymosi uzoq vaqt saqlanish xususiyatiga ega.

Mazkur narsa va jismlarning aniq obrazlari, tasvirlarini kuzatish mumkin. Bu hodisa jahon psixologiya fanida tajribada tekshirilib ko‘rilgan. Tajribada tekshiriluvchiga 3-4 daqiqa davomida rasm ko‘rsatilgan va tasvir olib qo‘yilgandan so‘ng uning tarkibiy qismlari, tuzilishi haqida qatnashchilarga savollar berilgan. Bu jarayonda ayrim tekshiriluvchilar bironta savolga javob bera olmagan bo‘lsalar, aniq eydetik obrazga ega bo‘lgan ishtirokchilar esa rasmni ko‘rishda davom etayotganday har bir savolga aniq javob berishga erishganlar.

Tajribalarning ko‘rsatishiga qaraganda, eydetik obrazlar uzoq vaqt inson ongida saqlanishi mumkin. Mabodo ularning izlari yo‘qolib ketgan bo‘lsa ham, lekin hech qanday qiyinchiliksiz uning siymosi qayta tiklanishi mumkin.

### **Xotira samaradorligining asosiy mezonlari.**



Aka-uka Yenishlar tomonidan o‘tkazilgan oddiy tajribada eydetik xotiraga ega bo‘lgan tekshiruvchiga olma va undan sal uzoqroqda joylashgan ilgak tasvirlangan rasm ko‘rsatilgan. Rasm o‘rtadan bo‘lib qo‘yilgandan keyin tekshiruvchidan olmani olish istagi kuchayib borayotganligi so‘ralgan. Muayyan yo‘l-yo‘riq berilgandan keyin tekshiriluvchi mana bunday holatni tasvirlab beradi: ilgak olmaga yaqinlashib, uni iladi va ixtiyorsiz ravishda qatnashchi tomon tortadi. Xullas, eydetik obraz harakatchan bo‘lib, subyektning ruhiy ko‘rsatmasi ta’siri ostida sifat va miqdor o‘zgarishga yuz tutadi. Eydetik obrazlar, ilmiy

tekshirishlarning ko'rsatishicha, bolalik va o'spirinlik davrlarida muayyan muddat hukm suradi va vaqtning o'tishi bilan uning izlari asta-sekin so'na boradi.

Psixofarmakologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, eydetik obrazlarni kuchaytiruvchi kaliy ionlari va shuningdek, uni kuchsizlantiruvchi kalsiy ionlari moddalari mavjuddir. Ilmiy izlanishlarda olingan miqdoriy materiallar eydetik obrazlar paydo bo'lishining psixologik ildizlarini chuqurroq ochishga xizmat qiladi.

Tasavvur obrazlari. Tasavvur obrazlari xotiraning yanada murakkabroq turi bo'lib hisoblanadi va ularning xususiyatlari haqida tasavvurga egamiz. Inson daraxt, meva, gul to'g'risida tasavvurga ega ekanligi shuni ko'rsatadiki, uning ilgari tajribalari subyektning ongida shu obrazlarning izlarini qoldirgan. Ilmiy tushunchalar talqin qilinganida tasavvur obrazlari eydetik obrazlarga juda yaqindek tuyuladi. Lekin eydetik obrazlar haqidagi psixologik tahlil shuni ko'rsatadiki, tasavvur obrazlari unga qaraganda ancha boy bo'lib, o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tasavvur obrazlarining eydetik obrazlaridan ajratuvchi farq tasavvur obrazlarining polimodallik xususiyatidir. Buning asosiy mohiyati tasavvur obrazlari ko'rish, eshitish, teri orqali sezish izlarining tarkibiy qismlarini birlashtiradi. Masalan, meva to'g'risidagi tasavvur obrazi uning tashqi ko'rinishi (shakli, rangi), mazasi, og'irligi, vaznini o'zaro birlashtirib aks ettiradi.

Tasavvur obrazlarining eydetik obrazlaridan asosiy farqi shundan iboratki, u o'z tarkibiga narsa haqidagi tasavvurlarni aqliy jihatdan qayta ishlashni kiritadi va jismlarning asosiy xususiyatlarini ajratib, ma'lum bir kategoriyaga birlashtiradi. Inson gul obrazini faqatgina esga tushirmaydi, balki uni muayyan bir so'z yoki tushuncha bilan ataydi, xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi, aniq bir kategoriya mohiyatiga kiritadi.

Demak, tasavvur obrazlarida odamning xotirasi idrok qilingan narsaning izini sust ravishda saqlabgina qolmay, balki bir qator tasavvurlar bilan boyitadi, narsa mazmuni va mohiyatini tahlil qilib, u haqidagi o'z bilimlari, tushunchalari kabilarni tajriba bilan bog'lovchi ijodiy sermahsul faoliyatni amalga oshiradi.

Bularning barchasi irodaviy sifatlari, aqliy zo'riqish, asabiy taranglashuv natijasida ro'yobga chiqadi.

Xullas, tasavvur obrazlari xotiraning murakkab faoliyat mahsuli hisoblanib, ular izchil yoki eydetik obrazlarga nisbatan murakkab psixologik hodisadir. Tasavvur obrazlari xotira izlarining murakkab turi bo'lib, uning aqliy jarayon bilan yaqinligi inson bilish faoliyatining muhim tarkibiy qismidan biri ekanligidan dalolat beradi.

So'z-mantiq xotirasi. So'z-mantiq xotirasi mazmunini fikr va mulohazalar, aniq hukm hamda xulosa chiqarishlar tashkil etadi. Insonda fikr va mulohaza turli xil shakllar yordamida ifodalanganligi tufayli, ularni ifodalash faqat o'zlashtirilayotgan materiallarning asosiy ma'nosini izohlash, talqin qilib berish yoki ularni so'zma-so'z ifodalaniishini aynan aytib berishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Agar ma'lumot, axborot, xabar, material ma'no jihatdan qayta ishlanmasa, u holda materialni so'zma-so'z o'zlashtirish mantiqiy o'rganish bo'lmasdan, balki, aksincha, mexanik esda olib qolishga aylanib qoladi.

So'z-mantiq xotiraning vujudga kelishida birinchi signal bilan bir qatorda ikkinchi signallar tizimi asosiyat kasb etadi. Chunki so'z mantiq xotirasi faqat insonga xos bo'lgan xotiraning maxsus turi hisoblanib, bu xotira turi o'zining sodda shakllari bilan hayvonlarga ham taallukdi bo'lgan xarakter his-tuyg'u va obrazli xotiralardan ham sifat, ham miqdor jihatidan keskin farq qiladi. Ana shu boisdan so'z-mantiq xotirasi bir tomondan xotiraning boshqa turlari taraqqiyotiga asoslanadi, ikkinchidan, ularga nisbatan yetakchilik qiladi. Shu bilan birga boshqa barcha turlarning rivojlanishi so'z-mantiq xotiraning takkomillashuviga uzviy bog'liqdir. So'z mantiq xotiraning o'sishi qolgan xotira turlarining barqarorlashuvini belgilaydi.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira. Xotira turlariga nisbatan boshqacha tarzda yondashish hollari uchraydi, shu boisdan xotira faoliyati amalga oshirayotgani yaqqol, faollik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq ravishda turlarga ajratiladi. Masalan, faoliyat maqsadiga ko'ra ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlarga bo'linadi.

Ixtiyoriy xotira deganda ma'lum maqsadni ro'yobga chiqarish uchun, muayyan davrlarda aqliy harakatlarga suyangan holda amalga oshirishdan iborat xotira jarayoni tushuniladi. Bu faoliyatni, odatda, ong bevosita boshqaradi. Ko'pincha psixologiya fanida ixtiyoriy xotiraga ixtiyorsiz esda olib qolish qarshi qo'yiladi. Bu jarayon ma'lum, kerakli topshiriq yoki vazifa qo'ysa, esda olib qolishga yetaklovchi faoliyat biron-bir maqsadni ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan taqdirda yuzaga keladi. Biz matematika topishmoqlari yechayotganimizda masaladagi sonlarni esda olib qolishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ymaymiz. Mazkur so'z-mantiq holatda asosiy maqsad faqat masala yechishga qaratiladi, buning natijasida sonlarni (ikkinchi darajali belgi sifatida) esda saqlashga hech qanday o'rin ham qolmaydi. Shunga qaramay, biz ularni qisqa muddatga bo'lsada, esda saqlashga intilamiz, bu holat faoliyat yakunlangunga qadar davom etadi.

Esda olib qolishni maqsad qilib qo'yish, esda olib qolishning asosiy sharti hisoblanadi. Serb psixologi Radoslavevich o'z tadqiqotida quyidagi hodisani bayon etadi. Tajribada tekshiriluvchidan biri sinovni qo'llayotgan tilning tushunmaganligi tufayli uning oldiga qo'yilgan vazifalarni payqay olmagan. Buning oqibatida uncha katta bo'lmagan tadqiqot materiali 46 marta o'qib berilganiga qaramay tekshiriluvchiga tushuntirilib berilganidan so'ng, u material bilan olti marta o'qib tanishib, uni takrorlab, qismga ajratib esga qayta tushirishga erishgan.

Xotiraning ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlari xotira taraqqiyotiga ikkita ketma-ket bosqichlarini tashkil etadi. Ixtiyorsiz xotiraning turmushda va faoliyatda katta o'rin egallashini har kim o'z shaxsiy tajribasidan biladi. Ixtiyoriy xotiraning turmushda va faoliyatda katta o'rin egallashini har kim shaxsiy tajribasidan biladi. Ixtiyorsiz xotiraning muhim xususiyatlaridan biri maxsus mnemik maqsadsiz, aqliy, asabiy, irodaviy zo'r berishsiz hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan keng ko'lamdagi ma'lumot, xabar, axborot, taassurotlarining ko'pchilik qismini aks ettirishidir. Shunga qaramasdan, inson faoliyatining turli jabhalarida o'z xotirasini boshqarish zarurati tug'ilib qolishi mumkin. Xuddi mana shunday sharoitda, holatlarda,



vaziyatlarda, favqulodda kerakli narsalar ixtiyoriy ravishda esda saqlash, esga tushirish yoki eslash imkoniyatini yaratadigan xotiraning mazkur turi katta ahamiyatga egaligi shubhasiz.

Qisqa muddatli uzoq muddatli va operativ xotira. So‘nggi paytlarda rus va chet el psixologiyasida xotira tadqiqotchilarining e‘tiborini esda olib qolishning dastlabki, boshlang‘ich daqiqalarida vujudga keladigan holatlar, jumladan, tashqi taassurot izlarining mustahkamlashigacha bo‘lgan jarayonlar, holatlar mexanizmlar, shuningdek, ularning mustahkamlanish muddatlari o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Masalan, biror material (shakli, mohiyatidan qat‘iy nazar) xotirada mustahkam joy olish uchun bu subyekti tomonidan tegishli ravishda qayta ishlab chiqilishi, zarur materiallarini bunday ishlab chiqish uchun ma‘lum darajada muddat talab etilishi tabiiydir. Ana shu vaqt, muddat oralig‘ida xotirada qayta tiklanayotgan izlarni konsolidatsiyalash-mustahkamlash deb qabul qilingan. Mazkur jarayon inson tomonidan yaqinida bo‘lib o‘tgan hodisalarni aks sadosidan kechinma sifatida kechiriladi va takomillashadi. Inson muayyan daqiqalarda, lahzalarda dolzarb paytda bevosita idrok qilinayotgan narsalarni go‘yo ko‘rishda, eshitishda davom etayotgandek tuyuladi. Ushbu jarayon kelib chiqishi jihatidan beqaror, hatto o‘zgaruvchan, lekin ular shu qadar maxsus tajriba orttirish mexanizmlarning faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi, shu boisdan ularning roli shu qadar ahamiyatliki, bu jarayonlarga esda olib qolish, esda saqlash, axborotlar, ma‘lumotlar, xabarlarni qayta esga tushirishning alohida turi sifatida qaraladi. Ushbu jarayon, odatda, psixologik fanda qisqa muddatli xotira deb ataladi.

Juda ko‘p qaytarishlar va qayta tiklashlar natijasida materialni uzoq muddatli xotiradan farq qilgan holda qisqa muddatli xotira bir marta hamda juda qisqa vaqt oralig‘ida idrok qilish va shu ongdayoq qayta tiklashdan so‘ng qisqa muddatli esda olib qolish bilan xarakterlanadi.

Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida qisqa muddatli xotiraning quyidagi atamaları mavjud: «bir lahzalik», «zudlik», dastlabki, qisqa muddatli va boshqalar.

Operativ xotira. Inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan faol, tezkor harakatlar, usullar uchun xizmat qiluvchi jarayonni anglatuvchi mnemik holat

operativ xotira deb ataladi. Hozirgi zamon psixologiyasida ushbu holatni namoyish qilish uchun ushbu misol keltiriladi: matematik amalni bajarishga kirishar ekanmiz, biz uni muayyan bo‘laklarga ajratib hal qilishni maqsad qilib qo‘yamiz. Shu boisdan, oraliq natijalarini yodda saqlashga intilamiz, nihoyasiga (oxirga, yakunlanishga) yaqinlashgan sari ayrim materiallar esdan chiqa boshlaydi.

G.Ebbingauz unutishning vaqtga bog‘liqligini tajriba orqali aniqlagan. To‘plangan natijalarning ko‘rsatishicha, material yod olingandan so‘ng unutish sur‘ati tez, keyinchalik u birmuncha sekinlashadi. Bu qonuniyat ma’nosiz ayrim bo‘g‘inlarni unutish ustida olib borgan ishlarida tasdiqlangan. Tajribalarning ko‘rsatishicha, o‘rganilgan narsalar bir soatdan keyin unutiladi. Materialni o‘zlashtirish jarayoni mobaynida, xotirlash natijasida unutish sekinlashib boradi. Muvaqqat asab bog‘lanishlari susayishi natijasida qachonlardir sodir bo‘lgan narsa va hodisalarning o‘zaro aloqalari xotirada asta-sekin yo‘qolib boradi. Vaqtning o‘tishi bilan bir-muncha unutilib borilayotgan yoki unutilib ketilayotgan vaqti bog‘lanishlarni, ya’ni assotsiatsiyalarni qaytadan tiklash jarayoni kuch-quvvat, xatti-harakatlarni talab qiladi.

G.Ebbingauz izdoshlari va shogirdlari tomonidan o‘tkazilgan juda ko‘p tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, unutish sur‘ati materialning ma’noli yoki ma’nosizligiga, uning qanchalik anglashilganligiga bog‘liqdir. Material qanchalik mazmundor, anglashilgan, tushunib olingan bo‘lsa, u holda unutish ham shunchalik sekin kechadi. Lekin ma’noli materialga nisbatan ham unutish avval tez sur‘atda, keyinchalik esa bu sekinlashadi. Biron bir materialni o‘zlashtirish yoki esda olib qolish - insonning ehtiyojlari, qiziqishi, faoliyatning maqsadi bilan bog‘liq bo‘lsa, bu material sekin unutiladi.

Unutishning tezligi esda olib qolingan materialning mustahkamligiga teskari proporsional xususiyat kasb etadi. Demak, esda olib qolishning mustahkamligi o‘zlashtirilayotgan materialning ma’noga ega yoki ega emasligiga bog‘liqlikdan tashqari, yana bir nechta omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi (qiziqish, xohish, shaxsiy ahamiyatga ega ekanligi) va uning faoliyat mazmuniga aylanishiga ham bog‘liq.

Shuningdek, ular kishining shaxsiy, yakkahol xususiyatlariga ham bevosita aloqador.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarning isboti uchun G. Ebbingauzning hayotiy tajribasidagi misolni keltirib o'tamiz. U Don Juan Bayronning to'rtligini 24 soatda o'zlashtirib oladi. Bu to'rtlik G. Ebbingauz uchun shaxsiy ahamiyat kasb etgan, shu bilan birga, uning qiziqish istaklariga mos tushgan. Bunda o'zlashtirish jarayoni quyidagicha ketadi: ikkinchi marta takrorlash 50 foiz vaqtni tejagan, keyin vaqt o'tishi bilan bu to'rtlikni takrorlash 34 foiz vaqtni tashkil qilgan. Oradan 22 yil o'tgandan so'ng ham bu to'rtlik hanuzgacha uning ko'z o'ngidan ketmagan. Xuddi shu g'azalning boshqa bir to'rtligini yod olishga harakat qilib ko'rilganda, buning uchun birmuncha ko'p vaqt talab qilgan hamda 7 foiz vaqt ketgach, bu g'azalning qolgan qismlari yod olinmagan. Demak, bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, odam uchun katta hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan narsalarning ko'pchilik qismi mutlaqo esdan chiqib ketmaydi.

1926 yili P.Vilyamson bir bo'g'inli so'zlar asosida tuzilgan materialdan foydalanib, A.Ditse va G.Djons (1931 yili) kasr usulidagi matndan olingan materialni bir marta o'qib chiqilgandan so'ng, olingan materiallarga ko'ra, unutish jarayoni Ebbingauzning ma'nosiz bo'g'inlar yordamida tuzilgan materiallar asosida o'tkazilgan tajribasidan farqli ravishda, quyidagicha natija bergan: Ebbingauz tajribalarida bir soat ichida 35 foizga keskin pasaygan bo'lsa, Datse Djonslarning tajribalarida unutish 72 foizga, P.Vilyamsonnikida esa unutish 75 foizga pastlashgan holda egri chiziq hosil qiladi.

Nemis psixologi Vilyam Shtern (1871-1938) fikricha, bolalarda ham, katta yoshdagi odamlarda ham ma'nosiga tushunib o'zlashtirishga nisbatan mexanik egallash kam mahsulotdir. Bu mulohaza haqiqatan ham to'g'ri bo'lib, u Meymon fikriga ko'ra, yosh ulg'ayishi bilan ma'nosiz materialni esda olib qolish kamayib boradi va kam samara beradi, lekin ma'noga ega bo'lgan bilimlarni esda olib qolish esa sezilarli darajada rivojlanib boradi. Shunga o'xshash omillar boshqa psixologlar tomonidan ham to'plangan bo'lib, bu haqda boy materiallar umumiy psixologiya xrestomatiyalarida o'z ifodasini topgan.

A.A.Smirnov ma'no anglatmaydigan bo'g'inlardan va ma'no kasb etuvchi so'zlardan tuzilgan material asosida tekshirish o'tkazgan. Katta va kichik yoshdagilarda ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolishni alohida tekshirish, har ikkala yosh davrida mazmundor va mazmunsiz materialni esda olib qolishning munosabatini tekshirish maqsad qilib qo'yilgan.

Ma'no kasb etgan materialni esda olib qolish yosh bolaga nisbatan kattalarda ustunligi, lekin ma'nosiz materialni esda olib qolish kichik yoshdagi bolalarga qaraganda kam samara bermasligi aniqlangan. Ma'nosiz bo'g'inlar nafaqat kichik yoshdagi bolalarda, balki katta yoshdagilarda ham yaxshi o'zlashtiriladi.

A.N.Leontev tadqiqot ishlarida katta yoshdagilarning ma'nosiz bo'g'inlardan tuzilgan materialni yaxshi, puxta esda saqlab qolishligi ta'kidlangan. Katta yoshdagilar ma'nosiz bo'g'inlarni qandaydir mazmun bilan tez va oson bog'lay oladilar. Shuning uchun ularda bolalarga nisbatan ham kuchliroq ma'no kasb etadi, shuningdek, ma'no anglatmaydigan materialni o'zlashtirish jarayoni tez ko'chadi, mahsuldorroq bo'ladi. Ma'nosiz materiallar egallash uchun iroda kuchi, irodaviy sifatlar muhim ahamiyatga egadir.

Esda olib qolishga hech qanday yo'nalish berilmay materialni yaxshi olib qolinishi kishining jadal faoliyati bilan bog'liqdir. Faol faoliyat odamlarning xotira yo'nalishi o'rnini bosib, esda olib qolish uchun berilgan yo'nalishlar va ularning funksiyalarini bajara oladi. Ixtiyorsiz esda olib qolish faol, irodaviy kuch sarflash hisobiga amalga oshadi. A.A.Smirnov ma'noli materialni esda olib qolishning bolalar uchun yengil ko'chishi ularning yosh xususiyatlarga bog'liq narsa emasligini ta'kidlab o'tadi. Chunki bolalar hali tushunib olmagan materialni go'yo ma'nosi yashirinib yotgandek qabul qiladilar. Matn ma'nosining noma'lumligi unga nisbatan qiziqish, bilishga intilish, mazmunini izlashga talabchanlik uyg'otadi. Odatda, ma'nosiz so'zlarni laboratoriya sharoitiga qaraganda kundalik turmushda puxtarroq eslab qolinadi. Masalan, ro'zg'or yoki bog'cha uchun sotib olinishi zarur bo'lgan narsalar va boshqalar. O'zlashtirilayotgan material faol faoliyat mazmuniga, predmetiga aylanganda mustahkam esda olib qolinadi, mahsuldorligi birmuncha yuqori bo'ladi. Ular ko'p narsalarni mexanik esda olib

qoladilar, muayyan ma'noga ega bo'lgan material mazmunini, mohiyatini hamma vaqt ham tushunib olavermaydilar. Bolalar o'z so'zlari bilan tahlil qilishlariga esa ularda so'z boyligi yetishmaydi. Bir fikrni ikkinchisi bilan izchil bog'lay olmaydilar. Kichik maktab yoshidagi bolalar bo'lsa materialni tushunib olishlari qiyin bo'lgandagina ularni, ma'nosini tushungan holda yod oladilar. Shuning uchun navbatdagi materialni o'zlashtirayotganda ham xuddi shu yo'sinda yod olish ular uchun muvaffaqiyatliroq ko'chadi. Shunday qilib, ular mexanik tarzda esda olib qoladilar, buning asosiy sababi esa materialni tushunishning qiyinligi hisoblanadi.

#### **9.4. Xotirani mustahkamlash qonuniyatlari. Assotsiatsiya va uning turlari**

Qator psixolog olimlarning mulohazalariga binoan: 1) materialni esda olib qolish darajasi shaxsning xususiyatiga ega emas, balki uning yakkahol xususiyatlariga bog'liqdir; 2) mexanik esda olib qolishning odat tusiga kirib qolishi ham yosh davrlarning xususiyati emasdir; 3) chet el psixologi G. Uippl (1919 yilda) ushbu masalani tadqiq qilishiga ko'ra, so'zma-so'z esda olib qolish mexanik esda olib qolishning biron-bir ko'rinishidir.

Tajriba vaqtida o'zlashtirilayotgan materialni «o'z so'zi» bilan bayon qilib berishlari so'ralganda, natija ko'ngildagidek bo'lmagan, bunga asosiy sabab so'z qashshoqligidir. Chunki o'zlashtirilgan material mantiqiy izchil emas, balki so'zma-so'z o'zlashtiriladi. So'zlarning birin-ketin izchillikda bayon qilinishi bir oz bo'lsada, materialning asliyatiga yaqinlashadi.

Material va xabarlarini so'zma-so'z olib qolish imkoniyatining sabablari quyidagilardan iborat:

- a) materialning ta'sirchanlik darajasi;
- b) shaxsning o'zlashtirishga munosabati;
- v) o'zlashtiruvchining imkoniyati va qobiliyati.

Agar o'zlashtirilayotgan material ta'sir kuchini ko'rsatishda yosh davrlarining xususiyatlari, subyektning o'ziga xosligi, betakrorligi hisobga olinib, ularni egallashga nisbatan to'g'ri ko'rsatma berilsa, u holda uning ta'sirchanligi ortadi.

Materialni o'zlashtirishga nisbatan munosabatda katta yoshdagi odamlar uchun materialni ma'nosiga tushunib esda olib qolishning ahamiyati, bolalar va maktab o'quvchilarida esa tasavvur obrazlari va obrazli xotira muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda o'zlashtirilayotgan materialning aniqligi, o'ziga xosligi, betakrorligi, aksariyat xususiyatlariga ega ekanligi kabi sifatlarning ahamiyati muhimdir.

Insonning o'z ustida mustaqil ishlashi, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini boshqarish imkoniyati, uzluksiz mashq qilishi, zarur ko'nikma va malakalarni egallashi, ichki imkoniyatlardan unumli foydalanishi esda olib qolish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Esga tushirish. Esga tushirishga xotira jarayoni sifatida ta'rif berilganda, uning ta'siri natijasida uzoq muddatli xotira tizimida avval mustahkamlangan turli xususiyatli materiallar va taassurotlarni operativ (tezkor) xotira jabhasiga ko'chirishning faollashuvi nazarda tutiladi. Oldin o'zlashtirilgan materiallarni xotirada qayta tiklanishi, ya'ni xotirada to'planib (yig'ilib) qolgan izlarning faollashuv jarayoni murakkab yoki yengil kechishining darajalariga binoan tavsiflanishi mumkin: a) bizni qurshab turgan narsa va hodisalarni hech ikkilanmasdan «avtomatik» tarzda tanish; b) qariyb unutilish darajasida bo'lgan narsa va hodisalarni qiyinchilik va azob bilan eslash kabilar. Ana shu talqindan kelib chiqqan holda esga tushirish jarayonining ichki tuzilishiga binoan bir nechta turlarga ajratish maqsadga muvofiq: tanish - bevosita shaxs yoki narsani esga tushirish (ixtiyoriy va ixtiyorsiz tarzda) va eslash (xotira ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz holatda). Bu asnoda insonning turmush tarixi (hayotiy solnomasi), uning umr davomidagi (ontogenetik) xotirasi va uni eslash shaxs uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Tanish - bu kognitiv nuqtai nazaridan tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni inson tomonidan qayta idrok qilish sharoitida esga tushirishdan iborat xotira jarayoni. Tanish muayyan shaxsning hayoti va faoliyatida katta ahamiyatga ega. Bu xotira jarayonining sharofati tufayli biz ko'rgan, eshitgan narsalar, hodisalar, voqeliklar va insonlar bilan qayta duch kelganimizda ularni yangidan, boshdan idrok qilmaymiz, balki ularni qaysidir alomatlarini, ko'rinishini, xususiyatlarini va

boshqalarga asoslanib taniymiz. Xuddi shu bois, tevarak-atrofdagi obyektlarni (subyektlarni) idrok qilish tajribasi bilan uzviy bog‘liq tanish jarayoni atrof-muhitdagi voqelik (realiya) bo‘yicha to‘g‘ri mo‘ljal (oriyentir) olishga imkon yaratadi. Tanish o‘zining aniqligi, ko‘lami, yorqinligi xususiyatlari va darajalariga binoan har xil ko‘rinishlarga ega. Psixologiyada tanish jarayon sifatida ham ixtiyorsiz, ham ixtiyoriy tarzda namoyon bo‘lishi mumkin. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tanish to‘liq, yorqin, aniq amalga oshgan bo‘lsa, u holda bir daqiqali ixtiyorsiz aqliy harakat tarzida kechadi yoki yuzaga keladi. Bu jarayonda hech qanday jismoniy, asabiy, aqliy zo‘riqishsiz, o‘zimiz payqamagan holda avval idrok qilgan jismlar yoki sub’ektlarni tez taniymiz. Chunki, insonning favqulodda tajribasi, hayotiy tajribasi, faoliyati bilan ixtiyorsiz tanish jarayonining turi qo‘shilishib ketadi. Mabodo tanish jarayoni o‘zining ko‘lami bilan noto‘liq bo‘lsa, u albatta noaniq xususiyat kasb etadi. Agarda qaysidir odamni ko‘rganda «tanishlik hissi» uyg‘onsa, lekin uni oldin (avvaldan) bilgan kishimizga o‘xshashligi bo‘yicha shubhalanishimiz mumkin. Shunday ruhiy holatlar ham uchraydiki, unda biz biror insonni tanisak-da, biroq qay tarzda, qanday vaziyatda uni uchratganimizni xotirlay olmaymiz. Bunday holdagi noto‘liq yoki yetarli darajada to‘liq bo‘lmagan tanish jarayoni o‘ziga xos murakkab ixtiyoriylik xususiyatlarini kasb etadi. Obyektni (subyektni) idrok qilishga asoslangan holda uni aniqlanish uchun biz turli vaziyatlarni eslashga harakat qilamiz. Bunday ruhiy holatlar tanish jarayonini esga tushirishga ko‘chganday tasavvur uyg‘otadi.

Esga tushirish jarayoni tanishdan farqli o‘laroq mo‘ljallangan obyektni (subyektni) qaytadan idrok qilmasdan eslash orqali bevosita tarzda amalga oshiriladi. Favquloddagi daqiqalarda ro‘yobga chiqarilayotgan faoliyatning mazmuni esga tushirishni aks ettirsa-da, lekin ushbu faoliyat maxsus tarzda uni esga tushirishga yo‘nalmagan bo‘ladi. Bunday ko‘rinishdagi esga tushirish ixtiyorsiz deyilsa-da, ammo u biron-bir tashqi yoki ichki turtkisiz, o‘zidan o‘zi yuzaga kelmaydi. Ixtiyorsiz esga tushirishning turtkisi - bu predmetni (subyektni) idrok qilish, tasavvur obrazlarini yaratish, fikrlarni tug‘ilish jarayoni hisoblanib, ularni muayyan tashqi ta’sirlar (omillar) keltirib chiqaradi.

Tasodifiy holatlarda obyektlarni (subyektlarni) idrok qilish yuzaga keltirgan ixtiyorsiz esga tushirish betartib (xaotik) bo'lmagan, balki muayyan narsalarga yo'nalish xususiyatiga egadir. Fikr va obrazlarni esga tushirishning mazmuni va yo'nalishini avvalgi tajribalardan to'plangan bilimlar, assotsiatsiyalar belgilaydi. Gohi inson tomonidan esga tushirish turtkilari sezilmasligi sababli ushbu jarayon o'zidan o'zi vujudga kelganday tuyuladi.

Ixtiyorsiz esga tushirish yo'nalgan, tashkillashgan bo'lishi uchun obyektlarni (subyektlarni) idrok qilishni tasodifiy turtki emas, balki mazkur daqiqalarda shaxs tomonidan amalga oshirilayotgan muayyan faoliyat mazmuni keltirib chiqaradi. Masalan, o'qilgan kitobning mazmuni ta'sirida kishida uning tajribalarini ixtiyorsiz esga tushirishni yo'nalganligi va tashkillashtirilganligi ortadi. Mazkur mulohazalardan kelib chiqqan holda ixtiyorsiz esga tushirishni ixtiyorsiz esda olib qolish jarayoni sifatida boshqarish maqsadga muvofiq. Agarda oliy maktab o'qituvchisi ma'ruzani mantiqli, ma'noli, tartibli, tizimli amalga oshirsa, mashg'ulotlarda talabalarda oldingi tajriba mahsullarini tashkillashtirish uquvi ortadi. Odatda, inson o'z oldiga qo'ygan maqsaddan kelib chiqadigan ixtiyoriy esga tushirishni reproduktiv topshiriq yoki muammo yuzaga keltiradi. Mabodo o'zlashtirilgan materiallar xotirada puxta mustahkamlangan bo'lsa, u holda ularni esga tushirish yengil kechadi. Ba'zan materiallarni har qanday vaziyatda, turli yoshdagi insonlar tomonidan eslash imkoni vujudga kelmasa, u taqdirda qiyinchilikni oson, yengil yengish maqsadida faol qidiruv faoliyatini amalga oshirish zarur. Bunday yo'sindagi esga tushirish eslash jarayoni deb ataladi.

Eslash ixtiyoriy esda olib qolishga o'xshab murakkab aqliy harakat xususiyatiga ega bo'lishi mumkin. Kasb-koridan qat'iy nazar, har qanday shaxs obyekt va subyektlarni oqilona eslash ko'nikmasini egallashga intilishi (odatlanishi) lozim. Ma'lumki, insonning o'z bilimlaridan foydalanishning tayyorgarlikdarajasi va mahsuldorligi unga bevosita bog'liqdir. Tajribalarning ko'rsatishiga qaraganda, puxta, mustahkam esda olib qolish jarayoni muvaffaqiyatli esga tushirishni ta'minlaydi.



Shuni ta'kidlash joizki, eslashning muvaffaqiyati ko'p jihatdan reproduktiv topshiriqning mazmuni nechog'lik aniq, yorqin, aniqlangan bo'lishiga bog'liq. Mabodo eslash jarayonida qiyinchiliklar vujudga kelsa, u taqdirda reproduktiv topshiriq mohiyatidan kelib chiqqan holda fikrlash, xotirlash keng ko'lamdagi bilimlardan torroq tizimli bilimlar sari yo'naltirilishi joiz. Buning uchun dastavval nimani esga tushirish aniqlangandan keyin assotsiatsiyalarni faollashtirish maqsadida solishtirish, qiyoslash, farqlash, o'xshatish, aqliy operatsiyalaridan foydalanish ma'qul. Eslash xotiraning esga tushirish jarayoni singari tanlash yoki saralash xususiyatiga ega. Inson nutqida aniq mujassamlashgan va anglanilgan reproduktiv topshiriq (vazifa, masala, muammo) eslashning keyingi aqliy harakatga yo'naltirilganligi tufayli xotira mahsulining eng muhimini ajratib yoki tanlab olishga yordam beradi.

Eslashning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni amalga oshirishda aqliy usul va vositalaridan qanday foydalanishiga bog'liq. Xotiraning muhim vositalari qatoriga: materiallarni (ko'lami va hajmiga binoan) eslashning rejasini tuzish; obyekt va subyekt mohiyati hamda xususiyatiga mutanosib obrazlarni (timsollarni) ko'z o'ngiga keltirish; bilvosita assotsiatsiyalarni paydo qiluvchi maqsadga yo'naltirilgan ichki va tashqi turtki (motiv)larni qo'zg'atish va boshqarish.

Eslashning muvaffaqiyatli kechishi ko'p jihatdan reproduktiv topshiriqni bajarishning qanchalik asoslanganligiga jiddiy bog'liq. Muammoning asoslanganligi uni shaxs tomonidan anglash sari yetaklaydi. Eslash jarayoni o'tmish taassurotlarini oddiy tarzda esga tushirishgina emas, balki u oldingi bilimlarining yangilari bilan aloqaga kirishuvi, yangicha tartibga keltirilishi, chuqurroq anglanish darajasiga o'sib o'tishi hamdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, shaxsda eslash jarayonida ishonch hissining uyg'onishi esga tushirishga katta ta'sir etadi.

Xotirot (esdaliklar shaxsiy majmuasi) bu shaxsning o'tmishdagi obrazlar voqeliklar va taassurotlarining fazoviylashuvi hamda vaqt (davr) jihatidan aniq ifodalanilishiga asoslanib esga tushirishdir. Xotirlashda nafaqat o'tmish obyektlari va subyektlari esga tushiriladi, balki ular muayyan vaqt va fazo jihatidan

muvofiglashtiriladi, ya'ni ularni qachon, qayerda, qanday sharoitda kechganligi esga tushiriladi. Bu mahsullarning natijasida ular turmushning muayyan davri bilan bog'lanadi hamda ularning davriy kechishi insonlar tomonidan anglab yetiladi.

Har bir insonning shaxsiy turmush tarixi u yashayotgan jamiyatning ijtimoiy voqeliklari bilan chambarchas bog'liq. Borliqning, ijtimoiy hayotning hodisalari, holatlari, voqeliklari, ham obyektiv, ham subyektiv xususiyatlari, kechinmalari shaxsning muayyan esdaliklari ma'lum vaqt (davr, muddat) bilan cheklanganlik va qurshab olinganlikning tayanch negizi sifatida xizmat qiladi. Jumladan, inson biror narsa, sana va voqelikni eslaganida, u mazkur hodisa mustaqillik bayrami arafasida, ya'ni XX asrning oxirgi o'n yilligida sodir etilganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, xotiro (esdalik) murakkab aqliy faoliyat, jarayon bilan aloqada bo'lib, esga tushirish voqeliklarni, ularning ketma-ketligini, o'zaro sababiy bog'liqligini anglash (tushunish)ning zarurati hisoblanadi. Shuning uchun inson esdalik (xotiro)larining mazmuni, mohiyati, ma'nosi o'zgarmay qolishi aslo mumkin emas. Chunki, xotiro qotib qolgan kognitiv tarkib emas, balki dinamik xususiyatli xotira jarayoni. Shaxs yo'nalishining evolyutsion (tabiiy ravishda, asta-sekin o'zgarib boruvchanligi) tamoyilga asoslanganligi tufayli u qayta fikr yuritishga, ma'noni fikran qayta qurishga moyil.

Shaxsning xotiro (esdaliklari) uning shaxsiy hayoti, sarguzashtlari bilan aloqadorligi sababli doimo ular bilan bir qatorda rang- barang emotsional holatlar, murakkab ichki kechinmalar hamohangligida kechadi.

Unutish va esda saqlash. Unutish xotira jarayoni sifatida ta'rifga ega bo'lib, o'zini vujudga kelish xususiyatiga bog'liq tarzda o'ta chuqur va yuzaki ko'rinishlarga ega. Xuddi shu bois, unutilgan obrazlarning yoki fikrlarning faollashuvi u yoki bu darajada qiyinchiliklarga uchrashi, hatto amalga oshmaydigan voqelikka aylanishi mumkin. Shaxsning faoliyatida xotirada to'plangan materiallar (turlicha bo'lishidan qat'iy nazar) amaliyotda kamroq qo'llanilsa, foydalanilsa (ortiqcha yuk xususiyatini kasb etsa), unutish tobora chuqurlashib boradi, buning natijasida faol hayotiy maqsadga erishish yo'lidagi ahamiyati pasayadi. Ammo qaysidir materialni eslash chog'ida qiyinchilik, sun'iy

to'siq yuzaga kelsa, uni mutlaqo yo'qqa chiqarish kerak emas, chunki bu hodisa uni batamom shaxs xotirasidan chiqib ketishini bildirmaydi. Odatda, materiallar (obyektlar, subyektlar)ning aniq, yaqqol, mavjud tomonlarining shakli unutiladi, bundan tashqari, uning hukm surishi, barqaror ahamiyatli mazmuni esa unga o'xshash (mutanosib) bilimlar va xulq-atvor harakatlari shakliy birliklari bilan qo'shilib ketadi, oqibat natijada xulq-atvorning mazkur shakllarida taassurotlar integral (umumlashma, yig'iq) tarzda esga tushishi mumkin.

### Xotira samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar.

Xotira samradorligiga ta'sir qiluvchi omillar	
Sub'ektiv	Ob'ektiv
Eslab qolish tipi	Anglanganligi
Oldingi tajriba	Bog'liqligi
Munosabat	Tushunarligi
Qiziqish	Ko'rgazmaliligi
Kisining holati	Ketma-ketligi
	Materil miqdori

I.P.Pavlovning dalillashicha, so'nib borayotgan reflekslar o'zlarini tiklashlari uchun dastlabki paydo bo'lish davriga qaraganda takrorlash miqdorini kamroq talab etadi. Bundan tashqari, so'nib borayotgan reflekslar muayyan sharoit yoki vaziyatda tormozlanish, to'xtalishga uchrashi mumkin. Bu voqelik allaqachon unutilgan deb tasavvur qilingan taassurotlarning favqulodda ayrim omillarni esga tushirish holati bilan izohlanadi. Masalan, og'ir betob holda yotgan odam qachonlardir o'rgangan she'rini tasodifan yoddan aytadi, vaholanki, undan uzoq yillar foydalanmagani uchun uni batamom unutgan deb o'ylash mumkin.

Xotira jarayoni hisoblanmish unutish bu o'ziga xos, rang-barang, izoh talab ruhiy kognitiv hodisa. Shaxs faoliyatiga singib ketgan ma'lumotlar (obyektlar, subyektlar) uning uchun muayyan ahamiyat kasb etganligi tufayli bular mutlaqo unutib yuborilmaydi, inson faoliyatiga singib ketgan materiallar uning ehtiyojlari bilan bevosita aloqaga kirishganligi sababli unutish bilan kurashish jarayonining ishonchli vositasi hisoblanadi. Buning yorqin ifodasi esda saqlashning muhim omili yoki usuli - bu takrorlash aqliy harakatidir.

Salbiy induksiya hodisasi harakati bilan uyg'unlashuv beqaror, shuningdek, muvaqqat (vaqtincha) unutish jarayonini keltirib chiqaradi. Oliy ta'lim jarayonida o'zlashtirishda notanish, begona (yot) qo'zg'atuvchilar yangi muvaqqat (vaqtincha) bog'lanishlar vujudga kelishiga to'sqinlik qiladi, buning oqibatida esda olib qolishning samaradorligi (mahsuldorligi) pasayadi. Oldingi (o'tmishdagi) barqarorlashgan bog'lanishlar (aloqalar) izlarini yo'qotishga yo'nalgan to'siqlar so'zsiz unutish jarayonini keltirib chiqaradi. Modomiki, shunday ekan, unutish nerv faoliyatining proaktiv va retroaktiv tormozlanishi (to'xtalishi) bilan aloqada bo'lishiga shubha yo'q. Ma'lumotlarga qaraganda, oldingi yoki keyingi faoliyat hozirgi faoliyatning mazmuniga o'xshash yoki undan murakkabroq bo'lsa, albatta tormozlanish (to'xtalish) holati vujudga keladi.

Yuqoridagi psixologik va fiziologik omillarga asoslangan holda mana bunday xulosaga kelish mumkin: birinchidan, bir mavzudan boshqa bir mavzuga o'tish chog'ida bir oz to'xtalish qilish tufayli asabiy taranglashuv, jiddiylik, aqliy zo'riqish kamayadi; ikkinchidan, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil bilim olishda turdosh, jinsdosh o'xshash fanlar yuzasidan emas, balki o'zaro bir-biri bilan keskin tafovutlanuvchi sohalar bo'yicha tayyorgarlik ishlarini yo'lga qo'yish darkor.

### **9.5. Xotira murakkab psixik jarayon ekanligi, xorij psixologiyasida xotira borasidagi psixologik fikrlari**

Ma'lumotlarga qaraganda, proaktiv va retroaktiv tormozlanish bir faoliyat doirasida ham yuzaga kelishi mumkin, chunonchi, muayyan o'quv materialini

o'rganish (tanishish), texnik chizmalar ustida ishlash, loyihalarni tahlil qilish kabi jarayonlardir. Ma'lumki, materialning o'rtasini esda olib qolish uchun boshi yoki oxirini o'zlashtirishdan qiyinroq, murakkabroq kechadi. Material hajmining ko'pligi, kattaligi, shuningdek, uning o'rtasini esda olib qolishga proaktiv va retroaktiv tormozlanish salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shu bois, material o'rtasini esda olib qolish uchun uni bir necha marta takrorlashga to'g'ri keladi. Shuning uchun bir tekis, asta-sekin sur'atga amal yoki rioya qilish yuqori samara beradi, diqqatni mavzuga yoki faoliyat obyektiga puxta to'plash (markazlashtirish, konsentratsiya), irodaviy akti unga yo'naltirish natijasida qo'zg'ovchilar, turtkilar miyada mustahkamlanadi.

Muvaqqat, vaqtincha unutish jarayoni miya po'sti hujayralari zo'riqishi, taranglashuvi oqibatida hamda tashqi, ikkinchi darajali tormozlanish ta'sirida vujudga kelishi kuzatiladi. Bu voqelik tana a'zolari, asab faoliyati tizimi toliqqan holatida esda olib qolishni keskin pasayishi bilan izohlanadi. Asab tizimi, hujayralarning me'yorida ishlashini tiklanishi orqali unutilgan narsalar, subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar asta-sekin esga tusha boshlaydi.

Salbiy induksiya va tashqi tormozlanish tomonidan keltirib chiqaruvchi vaqt o'tishi bilan unutish jarayoni reminissensiya hodisasi bilan aloqaga ega. Esda olib qolishning dastlabki daqiqalari-ga qaraganda muayyan vaqt o'tgandan keyin esga tushirish to'laroq aks etar ekan. Katta hajmdagi materiallarni esda olib qolish kezida ham shunga o'xshash ruhiy hodisa vujudga keladi. Tajribalarning ko'rsatishicha, reminissensiya hodisasi voyaga yetganlarga qaraganda bolalarda ko'proq uchraydi, kishi keksayish davrida sal-pal eslash, esga tushirish yanada kuchayadi. Insonning barcha faoliyati turlarida (ta'lim, mehnat), muomalasida, xulq-atvorida hisobga olish joiz.

Ma'lumotlar (materiallar)ni esga tushirishdagi qiyinchiliklar ularni eslashning o'ta kuchli xohishi yuzaga kelishi tufayli namoyon bo'ladi hamda favqulodda tormozlanishni chaqiradi. Vaqt o'tishi bilan insonning boshqa narsalar (obyektlar, subyektlar) bilan chalg'ishi tormozlanishni pasaytiradi, natijada nimani eslash zarur bo'lsa, u darrov esga tushiradi.

Xuddi shu bois, esga tushirish imkoniyatining yo‘qligi, hatto bu borada tanish jarayoni ham o‘z xususiyatlari bilan to‘la unutishning ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanmaydi. Eng asosiysi, oliy ta‘lim tizimida muvaqqat (vaqtincha) unutish bilan sal-pal hamda uzoq muddatli unutish turlarini farqlash joiz, chunki uning oxirgisini takrorlash yordami bilan bartaraf qilinishi mumkin. Ba‘zi hollarda talaba bilimni baholash keqidagi anglashilmovchilikning vujudga kelishi muvaqqat (vaqtincha) unutish sharoiti va xususiyatini hisobga olmay, uzoq muddatli unutish sifatida qaror qabul qilishning oqibatidir.

Muvaqqat asab tizimi aloqalarini uzoq muddat saqlanishi ularning mustahkamlik, barqarorlik darajasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Muvaqqat aloqalar kamroq mustahkamlangan bo‘lsa, puxtalik yetishmasa, ular tezgina so‘nadi va aksincha. Shuning uchun har qanday materialni avval boshdan puxta o‘zgartirib olish lozim. Agarda material puxta mustahkamlansa, shuncha uzoqroq esda saqlanadi va kamroq unutiladi. Shuni ta‘kidlash joizki, egallanayotgan materialga nisbatan shaxsda moyillik, qiziqish, motivatsiya mavjud bo‘lsa, uni uzoqroq esda saqlashga zamin hozirlaydi.

Unutish jarayoni vaqt bilan o‘lchanadi va muayyan sur‘at taqozosi bilan ro‘yobga chiqadi. Ebbingauzning ko‘rsatishicha, materialni o‘zlashtirishning dastlabki daqiqalarida unutish jadal kechadi, muayyan vaqt o‘tgandan keyin uning sur‘ati pasayadi. Unutish materialning mazmuniga, yangiligiga, tushunishning og‘ir yoki yengilligiga kasbiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etishiga bog‘liq. Xuddi shu sababdan shaxs tomonidan anglanilgan material asta-sekin, past sur‘atda unutiladi. Shunga qaramasdan, nisbatan inson tomonidan anglanilgan material dastlab tez sur‘atlar bilan unutila boshlaydi, keyinchalik esa uning kechishi bir oz pasayadi. Mashq qilish, takrorlash, turg‘un, barqaror qiziqishni shakllantirish mumkin qadar unutish sur‘atini pasaytiradi.

Esda saqlashning shart-sharoitlari xotira o‘tkirliigi, mahsuldorligi, samaradorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Unutish vaqt (zamon) funksiyasigina bo‘lib qolmasdan, balki unda esda olib qolish, esga tushirish singari tanlovchanlik (saralash) xususiyati mavjud. O‘z mohiyati bilan shaxsning ehtiyojlariga

qiziqishlariga, faoliyat maqsadiga bog‘liq, mutanosib, muhim ahamiyatli material, sekin sur‘atda unutiladi. Inson uchun hayotiy, ijtimoiy, kasbiy ahamiyatli bir qator voqeliklar materiallar, ma’lumotlar aslo unutilmaydi. Odatda, shaxsning faoliyatda ishtirok etish darajasiga qarab materialning esda saqlanishi aniqlanadi. Ilmiy tadqiqotlarda unutish o‘zlashtirilgan materialning hajmiga bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Muayyan vaqt o‘tgandan keyin o‘zlashtirilgan, o‘rganilgan materialni esda saqlash foizi uning hajmiga teskari proporsional munosabatda bo‘lishi tasdiqlangan. Agarda bir xil sharoitda (vaziyatda) berilgan materiallar ham sifat, ham miqdor jihatdan o‘xshash bo‘lsa, u holda esda olib qolish jarayonida ularni hisobga olish o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi. Masalan, suxandon (diktor) bir bet standart matnni o‘qish uchun ikki daqiqa vaqt sarflasa, xuddi shu hajmdagi materialni o‘qish, uqish, tushunish, anglab yetish uchun talaba uch-to‘rt barobar vaqt ajratadi. Bunda shaxsning individual xususiyatlari, xotira tiplari, uquvchanlik qobiliyati, noyob xislatini hisobga olish joiz. Esda saqlash jarayonida materialning hajmi birlamchi emasligi, unga uning sifati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Esda saqlashda yaxlitlik, alohidalik muhim o‘rin egallaydi, chunki mazkur jarayonda matn (mavzu)dagi asosiy holatlar, qonuniyatlar, nazariyalar, qiyosiy tahlillar, yorqin ifodalar, jonli nutq mahsullari o‘z izini qoldiradi. Esda saqlashda keyingi o‘rin ba’zi bir fikriy birliklarga, hatto matn mazmuniga undan ham kuchli e’tibor beriladi. Esda saqlashning muhim xususiyatlaridan biri - bu materialni umumlashgan darajasi bilan bevosita bog‘liqligidir. Jami umumiylikdan mazmuniy-nazariy yo‘nalishga va undan yakka alohidalikka fikran o‘tish esda saqlashning oqilona aqliy vositasi bo‘lib hisoblanadi. Umumlashmalarni umumlashtirish, mavhum holatlarni mavhumlashtirishning fikriy harakatlariga asoslangan materiallar esda saqlashning eng qulay shart-sharoitlari sanaladi. Esda saqlashning sharoitlariga: a) ma’lumotlarning amaliyotga tatbiq etuvchanligi; b) oqilona aqliy usullar yordami bilan oldingi bilimlar o‘zlashtirilganligi; v) ularni vaqti-vaqti bilan chuqurlashtirib borish; g) materiallarni eydetik obrazlar, tasavvurlarga boyitish kiradi.

Xotira – insonning o'tmishi tajribasini eslab qolish, fikriy tashkil qilish, saqlash va qayta eslashga yo'naltirilgan ko'plab psixik jarayonlari, hatti-harakatlari, holatlaridir.

Tashqi ta'sir natijasida vujudga kelgan nerv va miya qobig'ining ma'lum qismidagi qo'zg'alish – sezish, qabul qilish – ma'lum davrgacha o'z izini qoldiradi, ya'ni tashqi ta'sir to'xtagandan so'ng qo'zg'alishning, sezishning izi saqlanib qoladi. O'sha ta'sir etgan predmetga aloqador bo'lgan, unga qandaydir munosabatda bo'lgan hodisa ta'siri natijasida izlar yana qayta tiklanishi mumkin.

Miya qobig'ida saqlanib qolgan shu fiziologik izlarning tiklanishi, qaytadan qo'zg'alishi tasavvur, xotirani vujudga keltiradi.

Insonning bilish jarayoni hissiy bilish bilangina cheklanmaydi. Hissiy bilish yoki jonli kuzatish inson bilishining pastki bosqichida vujudga keladi, bu bosqich asosida ijtimoiy mehnat jarayonida ikkinchi yuqori bosqich – aqliy bilish, tafakkur paydo bo'ladi. Hissiy bilish orqali obyektiv reallikdan olingan «materiyalar»ni qayta ishlash, ularni munosabatlari, ichki xususiyatlarini aniqlash, muhim va asosiy tomonlarini nomuhimlaridan ajratib olish, ularning qonuniyatlarini ochish aqliy bilish va tafakkurda amalga oshiriladi.

Narsa va hodisalar hamda ulardagi xossalarning sezgi va idrok orqali hosil bo'lgan obrazlari nom - nishonsiz yo'qolib ketmaydi - ular miyamizda o'rnashib, saqlanib qoladi va qulay sharoitda yana esimizga tushadi. Ilgari idrok etilgan narsalarning esimizga tushirilgan obrazlari tasavvurlar deb ataladi. Sezgi va idrok kabi, ko'nglimizdan kechgan fikr, hislarimiz va qilgan ishlarimiz ham miyaga o'rnashib, saqlanib qoladi va yana esimizga tushadi. Idrok etilgan va ko'ngildan kechgan narsalarning miyamizga o'rnashib (esimizda qolib), saqlanishi va yana esimizga tushishidan iborat bo'lgan ana shu psixik faoliyat xotira deb ataladi.

Xotira jarayonlarini tekshirishda qo'llaniladigan quyidagi usul laboratoriya eksperimentiga misol bo'la oladi: eksperiment qilayotgan kishi tekshirilayotgan kishining oldida o'n ikki so'z qilib beradi. Tekshirilayotgan kishi ana shu eshitgan so'zlarini belgilangan vaqtdan keyin aytadi. Xuddi shunday eksperimentlar qilib,



so'zlarni, raqamlarni yoki qanday bo'lmasin boshqa materialni yodlash tezligi, esda nechog'li mahkam saqlash, unutish tezligi va shu kabilarni aniqlash mumkin.

Eksperiment o'tkaziladigan sharoitning o'zi tekshirilayotgan kishilarning psixik holatiga, demak, tekshirilayotgan hodisalarga va tekshirish natijalariga salbiy ta'sir etishi mumkin. Masalan, o'quvchining o'ziga berilgan o'quv materialini nima uchun xotirada qoldirish kerakligini bilib, maktabda yoki uyda dars tayyorlashi uning uchun odatdagi bir ishdir, ammo xuddi shu o'quvchining laboratoriya sharoitida, maxsus asboblarni qo'llaniladigan odatdan tashqari eksperiment sharoitida, ataylab tayyorlangan eksperiment materialini esga olib qolish jarayoni boshqacha tusda o'tishi mumkin.

Ta'lim jarayonida anglashilgan bilimlar, egallangan ko'nikma va malakalar talaba xotirasida saqlanadi. O'quv materialini esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish uchun xotiraning bir necha xil vositalaridan foydalaniladi. Dastlab bilimlar, axborotlar talaba o'qigiga assotsiativ yo'l bilan kirib boradi. Jumladan, o'rganilayotgan narsa va hodisalarning o'zaro o'xshashligi, yondoshligi, qarama-qarshiligi mavjud bo'lganligi sababli ular yengilroq o'zlashtiriladilar. Ba'zan qonun va qoidalar ma'nosiga tushunmay, mexanik ravishda yod olinadi. Lekin unday materiallar esda puxta sakdanmaydi. Ana shuning uchun o'quv materiallari mohiyatini imkoni boricha mantiqiy yo'l bilan esda olib qolish yuksak samaralar beradi. Ayniqsa, esda olib qolishning omilkor usullaridan foydalanish o'zlashtirish sifatini oshiradi. Chunonchi, ma'nosiga ko'ra matndagi so'zlarni fikran guruhlash, matndan tayanch nuqtalarini topish, matn bo'yicha reja tuzish, o'tilgan mavzularni idrok qilgan holda yangi mavzuni takrorlash yaxshi natijalar beradi.

O'qituvchi talabalarda esda olib qolish ustanovkalarini hosil qilishda qaysi materialni uzoq muddat saqlashni, qaysi turkumdagi materialni sidirg'asiga emas, balki mohiyatini tushunib olishni, nimalarni aynan esda olib qolishni, qanday axborotlarni o'z so'zi bilan ifodalagan holda xotirasiga joylashning yo'l va vositalarini tushuntirib berishi lozim. Ustanovkalar ta'lim jarayonida obyektiv omil va kundalik zaruriyat ekanligini talaba anglab yetishi shart. Ulardagi oddiy

ustanovkalar asta-sekin ijtimoiy ustanovkaga o'sib o'tib, shaxsda qadriyatni vujudga keltiradi.

**Nazorat savollari:**

1. Xotira haqida tushuncha bering?
2. Xotira turlarini sanab bering?
3. Xotira mashqlarini bilasizmi?
4. Xotira jarayonlari va mexanizmlari haqida aytib bering?
5. Xotiradagi individual farqlarni tushuntirib bering?

## 10 -MAVZU. XAYOL VA TASSAVUR HAQIDA TUSHUNCHA

*Tayanch tushunchalar: Ijodiy xayol, fantaziya, obraz, agglyutinatsiya, orzu, shirin xayol, giperbola, aktiv xayol, passiv xayol, produktiv xayol, reproduktiv xayol, tasavvur, aglyutinatsiya, giperbolizatsiya, tipiklashtirish, sxematizatsiya, aksentlashtirish.*

### 10.1. Xayol haqida tushuncha. Xayolning fiziologik asoslari

Psixologiyada xayol tafakkur singari bilish jarayonlaridan biri hisoblanib, u insonning ichki va tashqi xususiyatli va izlanishli faoliyatida, muayyan darajaga ega bo'lgan muammoli vaziyatning vujudga kelishi va uning hal qilinishida ishtirok etadi. Agarda xayolni genetik jihatidan kelib chiqishi tahlil qilinadigan bo'lsa, u albatta insonning mehnati mahsulini obrazlar, timsollar yordami bilan aks ettirmasdan turib, bevosita faoliyatga kirishish mumkin emas, chunki fikri mulohazalarni tasavvur qilish tufayli yaqqol tafakkurning predmetiga uzatiladi. Xuddi shu boisdan xayol yordami bilan inson tomonidan kutilayotgan natija, ya'ni kutilmagan tasavvur obrazlari yaratiladi, go'yoki bu jarayonda ijodiy faoliyatning modeli ishlab chiqiladi, fantastik timsollar tizimi yangiliklar-ning mutlaqtarkiblari bilan boyib boradi, ichki faollik esa uning mexanizmiga aylanadi. Odamning har qanday izlanishli, mehnat va ijodiy faoliyatlari xayoliy jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi, kashfiyotning dastlabki obrazlari, tarkiblari aniq voqelikdan uzoq bo'lishidan qat'iy nazar, taraqqiyot (rivojlanish) turtkisi vazifasini bajaradi. Odatda, xayol inson faoliyatining zaruriy tarkibi, muhim sharti sifatida uning turlari atamasi nomlari bilan ifodalanadi, chunonchi badiiy, adabiy, ilmiy izlanishli, musiqaviy, loyihaviy, konstruktorlik. evristik (fikriy topqirlik), ijodiy faoliyat kabilar. Shaxs tomonidan bajarilishi, amalga oshirilishi lozim bo'lgan har qanday faoliyatning mahsuli oldindan tasavvur qilinishi, yaxlit timsol shaklda ko'z o'ngiga keltirilishi shart.

Jahon psixologiyasida xayol insonning ijodiy faoliyatning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi, u tizimiy xususiyatli xatti-harakatning oraliq va yakuniy mahsullari orqali aks etadi, muammoli vaziyatda noaniqlik, noma'lumlik

alomatlari vujudga kelsa, u holda faoliyat rejasini qayta ko'rib chiqishni ta'minlaydi. Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, hech qachon xayol ijodiy faoliyat dasturining yaratuvchisi sifatida namoyon bo'lmaydi, balki uning ayrim o'rinlarini to'ldirishning va almashtirishning timsollarini yaratadi, xolos.

Xayol – insonning subyekt sifatidagi ongidan butun holda idrok qilinmagan yoki sezgi a'zolari yordamida idrok etila olmaydigan obyektlarning in'ikosining (tasavvurlar, sxemalar va boshqa obraz-modellarning) yoki jo'rttaga paydo bo'lishiga yoxud ataylab qurilishiga olib keluvchi bilish faolligidir. (masalan, kelajakni mo'ljallagan tarix hodisalari idrok etila olmaydigan yoki umuman mavjud bo'lmagan dunyoning voqealari – miflar va ertaklardagi g'ayritabiiy personajlar va b.).

### **10.2. Xayol turlari va tavsifi. Shirin xayol, aktiv xayol, passiv xayol, produktiv xayol, reproduktiv xayol, xayolga keltirish obrazlari**

Xayol jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan navbatdagisi xotira tasavvurlarini analiz va sintez qismidan iboratdir. Xayol uchun material bo'ladigan tasavvurlar xayol yaratib berayotgan obrazlarga ko'pincha to'liq holda kirmasdan, balki qisman faoliyatida ro'y beradi. Bunda muayyan tasavvurlardan ajratib olingan elementlarni boshqa tasavvurlar bilan qo'shish va bir turkum qilish jarayoni ro'y beradi. Mana shunday sintez qilish faoliyatida foydalanadilar, ular ya'ni yozuvchilar o'z asarlaridagi qaydnomalarning tiplarini bir qancha ayrim tasavvurlardan vujudga keltiradilar.

Nihoyat xayolning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, agar idrok obrazlari ayni hozirgi paytdagi narsalar bilan bog'liq bo'lsa, xotira obrazlari o'tgan zamondagi narsalarning obrazlarini tiklash bilan bog'liq bo'lsa, xayoliy yo'l bilan yaratilgan obrazlar esa hozirgi va o'tgan zamongagina emas, balki kelajak zamonga, odam kelajakda nima ishlar qilishini xayolan tasavvur qilib ko'rish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Iroda ma'lum xususiyatlari bilan xarakterlanadi: harakatchanlik, ustalilik, keskirlik, qat'iyatlilik, sabr-toqatlilik va o'z-o'zini boshqara olish. Irodaviy

xususiyatlarning namoyon bo'lishi, irodaviy imkoniyatlarni so'zsiz, quyidagi psixik jarayonlar – xayol, sezgi, xotira, tasavvur kabilar bilan bog'laydi. Shunday qilib, iroda katta kuch sifatida ijodni aktivlashtiradi, yuqori natijalarga erishishi va yana rassomning shaxs sifatida shakllanishida yuzaga chiqadi. Tafakkur – ijod kuchlaridan biri bo'lib, borliq materiallari haqida fikrlashda, tahlil qilishda idrok, sezgi, hissiyot va esda qoldirishda asosiy rol o'ynaydi. Xotira vositasida, ya'ni, badiiy asar yaratish maqsadida, tafakkur ishtirokida borliqni chuqur va har tomonlama bilishning oliy jarayoni hisoblanadi, predmet va voqealarning belgilari va o'zaro bir biriga qonuniy bog'langanligi bilan, umumiy va ichki xususiyatlarini ochishga yo'naltirilgan holda namoyon bo'ladi. Badiiy asar inson faoliyatining boshqa sohalaridagi kabi, tafakkurning mahsuli hisoblanadi. San'at asari faqat tasviriy materialni o'z ichiga olibgina qolmay, balki g'oyaviy-estetik mazmun, dunyoqarash, falsafiy tushunishni ham qamrab oladi. Rassomning tafakkuri ijodiy xarakteri bilan ajralib turadi, u ijodiy xayol bilan birga harakatlanadi va san'at spetsifikasi xususiyatlari bilan bog'liq ravishda ishlaydi. Xayol – ijodda asosiy va o'ziga xos natija ko'rsatuvchi ijodiy kuchdir. Badiiy ijodda uning ixtiyoriy, ixtiyorsiz, yaratuvchi ijodiy xayol kabi turlarining barchasi ishtirok etadi. Bular ichida albatta ijodiy faoliyatda ijodiy xayol katta o'rin tutadi. Ilhomlanish – insonning mehnat jarayonidagi eng ko'tarinki ruhiy holatidir. Rassomning ijodiy mehnatida ilhomlanish, aktiv ijod kuchlaridan biri sifatida ahamiyatli rol o'ynaydi. Ilhomlanish – go'yo ijodiy, ma'naviy, jismoniy jihatdan qattiq bosim berganday tuyulsa-da, lekin amaliy jihatdan rassom uchun bu vaziyat juda yengil kechgan, unda hamma narsaga oson erishilgan, ijodiy topshiriqlar juda tez yechilgan bo'ladi. Bu yengillik shu narsa bilan bog'liq bo'ladiki, bunda rassom katta hayotiy taassurotlar zaxirasiga ega edi va katta qiziqish va quvonch bilan ishlagan edi.

Bunda uning ijodiy xayoli va obrazli tafakkuri faol ishlagan edi. Bularning barchasi sonning sifat darajasiga o'tishiga – natijada, qattiq ilhom bilan ishlangan mehnat badiiy asarni dunyoga keltirgan edi. Intuitsiya – sezgirlik, bu inson hayotida alohida fenomenal va murakkab faoliyat bo'lib, inson ruhiy faoliyatida – ya'ni ijodiy mehnatda, xususan badiiy ijodda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga

so'zsiz intuitsiya xotira, tafakkur va obrazli tasavvur bilan jips aloqada bo'ladi. Intuitsiya obyektiv borliqni aks ettiruvchi sifatida bo'lsada, uni rivojlantirish yo'llari ham bordir. Ulardan asosiysi - organizmning biologik sifatlarini tarbiyalashdir (rassomning ko'zi, qo'shiqchining ovozi, musiqachining qulog'i va barmoqlari, raqqosaning qomati) kuzatuvchilikni o'stirish, xotiraning hajmi va ishchanligini ko'tarish, tafakkurni rivojlantirish (jumladan, obrazlilikni), xayol, hissiyotni tushunish, birmaromlilik, uzluksiz mehnat va yangi yechimlarni har tomonlama izlash kabilardir. Badiiy talant - shaxsni individual-psixologik xususiyatlaridan biri bo'lib, u asosan badiiy ijodda eng katta kuch sifatida faol ishtirok etadi. Talant tug'ma emas u tug'ilganda tayyor holda berilmaydi, avloddan-avlodga o'tadigan meros ham emas.

### **10.3. Ijod va xayol. Tasavvur va uning talaba faoliyatidagi roli**

«Inson shunday asos bilan tug'iladiki (rivojlantirish mumkin bo'lgan qobiliyatlarning tabiiy belgilari), qaysiki insonning o'zida tug'ma anatomik va psixofiziologik o'ziga xosliklar bilan mavjud bo'ladi». Qobiliyatlar ma'lum shart-sharoitlardagina shakllanadi o'sadi: ular - atrof muhit, aktiv faoliyat, odam salomatligi kabilardir. Badiiy talant albatta san'atga mehr-muhabbatni talab etadi, ya'ni ba'zi sharoitlarda bolalikdayoq san'atga qiziqish shaklida ko'rinadi va ijod qilish ishtiyoqi tinchlik bermaydi.

Bunga misol tariqasida I.E.Repin, V.I.Surikov, V.A.Serov va boshqalarning ancha barvaqt yuzaga chiqqan talantlarini eslashimiz mumkin. Insonning badiiy iqtidorining eng yuksak darajasi sifati bu geniallikdir. Badiiy ijodda geniallik tushunchasi talantning izohsiz yuqori darajada namoyon bo'luvchi sifati bo'lib, qaysiki u rassomni o'z zamonasi, ma'lum tarixiy davr san'atidan yuqori turuvchi va dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan san'at asarlari yaratishga olib keladi.

Ijod komponentlariga - bilim, dunyoqarash, badiiy uslub, estetik va badiiy did, mahorat kiritiladi. Bilim ijodning asosiy bosh komponenti, obyektiv reallikni bilishning asosiy materiali hisoblanib, uni egallash orqali sezgi, estetik his qilish, idrok, tafakkur, xotira, xayol, dunyoqarash, ko'nikma, malaka, ijodiy ish uslubi,

mahorat rivojlanib boradi. Rassom uchun bilim - bu hayotiy material, hayotni chuqur va har tomonlama o'rganish bo'lib, usiz san'at asari yaratib bo'lmaydi. Hayotni bilish rassomda uning hissiyotlari orqali o'tadi. Avvalo mantiqiy va hissiy bilishning organik mos kelish bilan o'rganmasdan turib obrazli tafakkurni rivojlantirib bo'lmaydi, usiz esa, o'z navbatida badiiy obrazlarni ham yaratib bo'lmaydi. Rassom har tomonlama hayotni yaxshi bilgan, bilimli, ziyoli inson bo'lmog'i lozim. Undan tashqari, u bilimni o'zining hissiyotlari orqali o'tkazishi va umumlashgan shaklda badiiy obraz shaklida aks ettirmog'i lozim. Dunyoqarash - obyektiv borliqni badiiy xarakterda faoliyatning g'oyaviy yo'nalishga mos holda aniqlashdan iboratdir.

Dunyoqarash fanlardan olingan bilimlar asosiga suyanadi. Badiiy uslub ham ijodning alohida komponenti sifatida aks etadi. Estetik va badiiy did ham dunyoqarash, ham badiiy uslub bo'lib, rassomning ma'lum alohida g'oyaviy estetik ijodiy yo'nalishini ko'rsatadi. Estetik va badiiy did insonga tug'ilganda berilmaydi, xuddi qobiliyatga o'xshash, u insonning o'sishi bilan rivojlanib boradi, insonning sezgi organlarini, psixikasini hayotni bilishdagi tajribasi bilan rivojlanib boradi. Estetik did tushunchasi san'atga bo'lgan munosabatdagi badiiy didga nisbatan kengroqdir. Mahorat - ijodning etib bo'lmas va o'zgacha bir komponentlaridan biridir. Ba'zan mahoratni qobiliyat, ijod va talant bilan tenglashtiriladi. Bu to'g'ri emas. Shubhasiz, vaholangki tasviriy san'atning zaruriy sharoitida namoyon bo'luvchi shaxsning badiiy qobiliyatlari, individual ruhiy xususiyati va sifatlaridir. Talant - qobiliyatning tasviriy faoliyatga munosabatlarda alohida ko'zga tashlanadi, qaysiki, ta'lim va tarbiya jarayonida olingan yuqori rivojlangan va badiiy ijodning eng yuqori darajasini ta'minlaydigan holatidir.

Mahorat esa tasviriy faoliyatda tasviriy texnika, bilim, ko'nikma, malakani mukammal egallamoqdir. Yuqori darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarsiz talantning rivoji bo'lishi mumkin emas.

#### **10.4. Xayol va tasavvurning o‘zaro aloqadorligi. Xayolning muhim fenomenlari**

Xayolning bilish jarayoni sifatidagi asosiy vazifasi shundan iboratki, u amaliy faoliyat boshlanmasdan turib, uning mahsulini oldindan tasavvur qilish va ularning timsollar tariqasida vujudga keltirishdan iboratdir. Inson shaxsiy faoliyatida ayrim qiyinchiliklar vujudga kelsa, ularni bartaraf qilish uchun odam o‘ylanadi, fikriy obrazlarni yaratadi, ularga yangi qo‘shimchalar kiritadi, xullas mahsulotning sifatli chiqishini, uning buyum tariqasida namoyon bo‘lishini xayol uzluksiz ravishda ta‘minlab turadi. Aytaylik, inson stul yasamoqchi bo‘lsa, u eng avval unga oid qismlarni tayyorlaydi, shaxs xayolan uning sifatiga e‘tibor beradi, keyin ularni yaxlitlaydi, o‘zaro birlashtiradi hamda buyum shaklida gavdalantiradi. Binobarin, xayol ishning har bir bosqichida bevosita ishtirok qiladi, yo‘l-yo‘lakay ko‘rsatmalar, qo‘shimchalar kiritib boradi.

Xayol bilish jarayonlari bilan uzviy aloqada hukm suradi, ularni aks ettirish imkoniyatining to‘laroq ro‘yobga chiqishiga yordam beradi. Ayniqsa, u tafakkur bilan bevosita aloqada bo‘ladi, xuddi shu boisdan ularning har ikkalasi ham bashorat qilish, oldindan payqash, sezish, istiqbol rejasini tuzish imkoniyatiga ega. Shuning uchun ular o‘rtasida bir qator o‘xshashliklar va ayrim farqlar mavjuddir. Bu holat quyidagilarda o‘z ifodasini topadi: 1) xayol tafakkur singari muammoli vaziyatda, masala va topshiriqlar yechish jarayonida tug‘iladi; 2) yangi yechim, usul, vosita qidirishda va ularni saralashda umumiylik mavjud; 3) xayolning ham, tafakkurning ham paydo bo‘lishi shaxsning ehtiyojlariga bevosita bog‘liq; 4) ehtiyojlarni qondirishning dastlab xayoliy obrazlari yaratiladi, uning natijasida vaziyatni yorqin tasavvur qilish imkoni tug‘iladi; 5) xayolda oldindan aks ettirish jonli tasavvurlar tarzida, yaqqol timsollar shaklida vujudga kelsa, tafakkurda ular umumlashmalar, tushunchalar bilvositalik xususiyati orqali ro‘yobga chiqadi.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, muammoli vaziyatda aql faoliyati natijalari ong nazoratidagi obrazlar, tasavvurlar hamda tushunchalar tizimida ifodalanadi. Obrazlar va tasvirlar tanlash (sarlash) xayolning funksiyasi orqali, tushunchalar va ularning yangilik alomatlari esa tafakkur yordamida ro‘yobga chiqadi.



Tasavvurlar bilan tushunchalarning o‘zaro uyg‘unlashuvi ikkita ijodiy xususiyatli bilish jarayonlarining hamkorlikdagi ijodiy faoliyatida bir davrning o‘zida qatnashishni bildiradi. Faoliyatning tarkibiy qismlari ularning qanday amalga oshirilishi to‘g‘risidagi yaqqol obrazlarni uzviy bog‘lanib ketgan fikriy mulohazalarning qo‘shilishi tufayli harakatchanlik imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xayol jarayoni tafakkurdan farqli o‘laroq muammoli vaziyatning ma’lumotlari qanchalik noaniq bo‘lsa, shunchalik tasavvur obrazlari yaralishi uchun qulay imkoniyat tug‘iladi, uning mexanizmlari tezkorlikda ishga tushadi. Masalan, yozuvchining xayoli asar qahramonlarining taqdiri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, konstruktor, muhandis, me’mor kabi mutaxassislariga qaraganda nihoyat darajada katta noaniqliklarga ega, voqelikdan tubdan uzoq fantaziya olamida obrazlar, chizg‘ilar, badiiy to‘qimalar yaratadi. Ma’lumki, aniq dunyoviy fanlarning qonuniyatlariga qaraganda insonning psixikasi, uning xatti-harakatlari qonuniyatlari murakkab va yetarli darajada ma’lumotlarga ega emas. Xuddi shu boisdan bosh miya katta yarim sharlari funksiyasining qariyb uchdan bir qismini ilmiy dalillar asosida tushuntirib bera olishimiz mumkin, xolos.

Muammoli vaziyat o‘zining xususiyatiga ko‘ra bir davrning o‘zida ham xayolning, ham tafakkurning ishtirok etishini taqozo qiladi. Agarda muammoning yechimi, masalaning sharti aniq bo‘lsa, bu holda tafakkurning ishtiroki ustuvorlik qiladi, mabodo noma’lumliklarning miqsori ko‘payib ketsa, u taqdirda xayol yoki fantaziya yetakchi rol o‘ynay boshlaydi. Muammo yechimining turli usullari, ularning invariantlari, muayyan qonunlari, qoidalari ta’riflari mavjud bo‘lgan taqdirda faoliyat tafakkur yordami bilan amalga oshiriladi.

### **10.5. Aglyutinatsiya, giperbolizatsiya, tipiklashtirish, sxematizatsiya, aksentlashtirish jarayonlari**

Xayolning eng ahamiyatli tomoni shundan iboratki, u tafakkur predmetiga taalluqli holatlardagi yetishmovchilikda ham u yoki bu yo‘l bilan muammoli vaziyatdan yengilroq chiqib ketishga muhim zamin hozirlaydi. Insonda mavjud narsalarning ichki tuzilishi, uning rivojlanishi, o‘zgarishi to‘g‘risidagi

ma'lumotlarning yetishmasligi tufayli shaxs xayolga va fantaziyaga murojaat qiladi. Biosfera va neosferada insoniyat uchun noma'lum o'rganilmagan sohalar mavjud ekan, demakki, xayol uzluksiz ravishda o'z funksiyasini bajaraveradi, shuning uchun xayolning qaysi turi hukm surayotganligidan qat'iy nazar, u ijobiy hodisa sifatida baholanishi lozim. Chunki, xayol insonning aqliy zo'r berishda, stress, affekt holatlarida asab tizimining tangligidan xalos etib, tana a'zolari funksiyasini tiklaydi, ishchanlik qobiliyatini barqarorlashtiradi.

Xayol turlari to'g'risida umumiy tushuncha. Xayol o'zining faolligi bilan atrof-muhitni o'zgartirishga yo'naltirilgan shaxsni ijodiy faoliyatining muhim sharti sifatida xizmat qiladi. Ba'zi bir psixologik ma'lumotlarga qaraganda, goho xayol faoliyatning funksiyasini bajaradi, bunda u xatti-harakatlarning sun'iy ravishdagi majmuasi vazifasini ijro etadi, xolos. Inson quyidagi holatlarda yaqqol tasavvurdan yiroq bo'lgan xayolot olamiga kirib borishi mumkin: 1) inson hech qanday yo'l bilan hal qilib bo'lmaydigan masalalar, muammolar iskanjasidan berkinish maqsadida; 2) turmushning og'ir sharoitlaridan, zahmatlaridan himoyalaniish niyatida; 3) shaxsiy nuqsonlarning ta'qibidan; 4) ushalgan armondan; 5) patologik holatga (ruhiy nuqsonga) uchraganda; 6) alkogolizm, narkomaniya va boshqa vaziyatlarda. Xayolot (fantaziya) turmushda gavdalanishi mumkin bo'lmagan, amalga oshirish imkoniyati yo'q xatti-harakatlar dasturini namoyon etadi.

Yuqoridagi mulohazalar negizidan kelib chiquvchi xayolning bunday shakli psixologiya fanida passiv (sust) xayol deb nomlanadi. Psixologiyada aktiv (faol), ixtiyoriy, ixtiyorsiz, tiklovchi va ijodiy turlar to'g'risida ham muayyan ma'lumotlar mavjuddir.

Inson passiv xayolni oldindan ixtiyoriy rejalashtirib yuzaga keltirishi ham mumkin. Xuddi shu bois iroda bilan hech bir bog'liq bo'lmagan, jo'rttaga «kashf» qilingan, biroq hayotda gavdalanitirishga yo'naltirilgan xayolning o'ziga xos obrazlari majmuasi «shirin xayol» deyiladi. Odatda, «shirin xayol»da fantaziyaning mahsullari bilan insonning ehtiyojlari o'rtasidagi aloqa yengillik bilan yuzaga kelganligi tufayli quvonchli, yoqimli, qiziqarli narsalar haqida

odamlar xayol suradilar. Inson qanchalik shirin xayolga berilsa, u shunchalik darajada passiv shaxs sanaladi, bu ko‘rinish uning nuqsoni hisoblanadi. Passivlik (sustkashlik) kishinig qiyinchiliklarini yengishdan chetlashtiradi, yashash uchun kurashga xohish yo‘qoladi, demak, u reallikdan tubdan uzoqlashadi. Goho passiv xayol hech o‘ylamaganda, ixtiyorsiz ravishda vujudga kelishi ham mumkin, bunda quyidagi holat yuz beradi: a) ong nazoratining kuchsizlanishi; b) ikkinchi signallar tizimining susayishi; v) insonning vaqtincha harakatsizlanishi, g) uyqusirash kezida; d) affektiv vaziyatdan; e) tush ko‘rishda; yo) gallyutsinatsiyada; j) patologik holatlarda va hokazo.

### **10.6. Xorij psixolog olimlarining xayol to‘g‘risidagi fikrlari**

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, passiv xayol ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlarga ajratilganidek, aktiv xayol tiklovchi va ijodiy ko‘rinishlarga bo‘linadi.

O‘zining mohiyati bilan tasavvurlarga muvofiq keladigan tasavvurlar, tasvirlar tizimini yaratuvchi xayol «tiklovchi xayol» deb ataladi. Tabiatga, jamiyatga va shaxslararo munosabatga, bilimlarga oid ma’lumotlar o‘rganilishida xayol bevosita ishtirok etadi hamda matnlarda, rasmlarda, xaritalarda aks ettirilgan narsalar qayta tiklanadi. Ijtimoiy tajribada, ta’lim-tarbiya jarayonida fazoviy xayol, vaqt va harakat birliklariga oid axborotlar, masofa, hajm to‘g‘risidagi xabarlariga diqqat bilan, sinchkovlik bilan qarash, tikilish jarayonida mazkur xayol turi rivojlanadi.

Ijodiy xayol tiklovchi xayoldan farqli o‘laroq original va qimmatli moddiy, ijodiy mahsulotlarda gavdalanuvchi yangi obrazlarning yaratilishidan iborat xayolning turidir.

Xayolning muhim tomonlaridan biri - uning ijodiyot va shaxs munosabatining yaxlit holda talqin qilish xususiyatidir. Ijodiyot shaxsning ichki imkoniyatlari va zaxiralarini ro‘yobga chiqishining asosiy shartlaridan biridir. Xuddi shu sababdan shaxs o‘zining ijodiy faoliyati bilan, birinchidan, insonning yaratuvchilik qudratini amaliyotda namoyish qiladi. Ikkinchidan, u ijodiyot ta’sirida yangi fazilatlarni egallaydi, nafosat, badiiy ijod, texnik qobiliyat, kashfiyot ijtimoiy muammolarni

integratsiya qilish yoki mavjud umumiy qonuniyatlardan kelib chiqib, uni differensiallashtiradi. Uchinchidan, jahon faniga o'z ulushini qo'shadi va sivilizatsiyaga o'z ta'sirini o'tkazadi, ijtimoiy taraqqiyot harakatlantiruvchisiga aylanadi. Ijodiyot davomida shaxs motivatsion, emotsional, irodaviy barqarorlik, xarakterning mustahkamligi va boshqa individual-tipologik xususiyatlardagi yetuklik ijodiyot mahsuliga, uning samaradorligiga, sifatiga munosib ravishda ijobiy ta'sir o'tkazadi. Ijodiyot tarkib bilan shaxsning xususiyatlari o'rtasidagi uyg'unlikning yuzaga kelishi ikkiyoqlama ta'sir o'tkazish mexanizmi sifatida muhim rol o'ynaydi, ya'ni faoliyatda shaxs o'zining yangi qirralarini ochadi, uning fazilatlari esa ijodiy izlanishlarning muvaffaqiyatli yakunlanishini ta'minlaydi.

Xayolning analitik-sintetik xususiyatlari. Analitik holat xayolning mazmunini, mohiyatini, predmetini, asosan, tubdan yangi mahsullar, yangicha obrazlar, timsollar, tasvirlar yaratilishidan, atrof-muhitning ifodasi, yangi bezakli, jiloli ekanligini qayd qilishdan iboratligini tan olishdir. Yangilik elementlari, ba'zi jabhalarining qo'shimcha alomatlar bilan boyitilishi, ijod qilinishi xayolning asosiy vazifasi ekanligi g'oyasini aks ettiruvchi tendensiya psixologiya fanida aksariyat ilmiy maktablar tomonidan tan olingan va taraqqiyot harakatlantiruvchisi sifatida qat'iy ravishda himoya qilinib kelinmoqda. Ikkinchi tendensiya biosfera va neosfera to'g'risidagi ma'lumotlar, tasavvurlar, ta'sirlanish, timsollar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida qaytadan tiklanish orqali xayol mahsuli sifatida saqlanib keladi, degan g'oyaga asoslanadi. Bu tendensiyada obrazlarning tiklanishi, saqlanishi, kuchayishi yoki o'chmas iz tariqasida uzluksiz ravishda inson xotirasida, ko'z o'ngida namoyon bo'lishi, g'aydalanishi hayot va faoliyat uchun birlamchi ekanligi isbotlashga harakat qilinadi. Har ikkala tendensiya ham xayol holatining analitik vazifasini bajarish imkoniyatiga ega bo'lib, o'zaro bir-birini inkor etish darajasiga olib bormaslikni taqozo qiladi. Shuning uchun ijodiy xayol yangi obrazlarni vujudga keltirish bilan taraqqiyotga ulush qo'shadi, yaqqol voqelik va ularning timsollar haqidagi ma'lumotlar, chizg'ilar tasviri hamda tasavvurlarini qayta tiklash orqali insoniyat bilimi, tajribasini boyitadi.

Tiklovchi xayol insoniyat tomonidan oldin yaratilgan narsalar va hodisalar to'g'risidagi obrazlar, axborotlar sifatida qaytadan joylanishiga muhim ta'sir etadi, o'zining harakat tezligi bilan har qanday texnika mo'jizasini dog'da qoldiradi. Har ikkala tendensiya uyg'unlashuvi orqali ijodiy va tiklovchi xayol turlari vazifasiga, ahamiyatiga, mahsuldorlik darajasiga oqilona baho berish mumkin.

Aks holda ikki tendensiya ikki xil talqin, turlicha yakun, o'zgacha mazmun, alohida yondashuv, ustuvorlikka da'vo keltirib chiqarishi ayni haqiqatdir.

Xayol analitik holatdan tashqari sintetik xususiyatga ham egadir. Xayolning sintetik holati ushbu fenomenlar orqali ifodalanadi: agglyutinatsiya (lot. yopishtirmoq, yelimplamoq ma'nosini bildiradi) muayyan tasavvurlarni bir-biriga qo'shib yoki ulardan foydalanib, narsa va hodisalarning yangi obrazlarini yaratishdan iborat xayol fenomenidan biridir; giperbolizatsiya (yunon. piregole bo'rttirish, kuchaytirish ma'nosini anglatadi); sxematizatsiya (yunon. «seta» obraz, shakl vujudga keltirish demakdir); tipizatsiya (yunon. «shroz» iz, chiziq degan ma'noni bildiradi) yoki tipiklashtirish; o'xshatma — muayyan narsalarga nisbatan qiyoslash orqali muhim va nomuhim tomonlaridan umumiylikni tanlab olish kabilar.

Agglyutinatsiya fenomeni obrazlar (tasvirlar, timsollar) sintezlashuv jarayonining soddaroq ko'rinishidan biri hisoblanib, insoniyatning kundalik hayoti va faoliyatida ro'y-rost yaxlitlashtirish imkoniyati yo'q xilma-xil xislatlar, fazilatlar, sifatlar va qismlarni «qorishiq» tarzida (birlashtirilgan) shaklda aks ettiradi.

Odatda, agglyutinatsiya yordami bilan donishmand xalq tomonidan yaratilgan ertak timsollari, afsona tasvirlari yaratiladi yoki xayoliy kompozitsiyasi to'qib chiqariladi (lotincha - tuzilmasi, tarkibiy jihatlari degan ma'no anglatadi). Masalan, bulbuligo'yo - odamsimon (boshi odam, tanasi qush) bir jonivor gavdalanadi; suv parisi timsolida ayol mujassamlashadi (bosh va gavdasi odamniki, dumi baliqniki, sochi yashil suv o'tlaridan iborat); kentavr (ot va odam); pegas (qanot va ot) qanotli ot; tovuq oyoqli uycha, yettiboshli ilon ajdaho (ilon, ot va qushdan iborat) va boshqalar.

Hozirgi zamonda agglyutsinatsiyadan texnik, badiiy, san'at ijodiyoti keng ko'lamda foydalanilmoqda, chunonchi, samolyot amfibiya - (yunoncha - ikkiyoqlama hayot kechirish ma'nosini bildiradi) uchuvchi qayiq toifasidagi quruqlik va suvga moslashgan gidrosamolyot; aerosans (chana singari sirg'anuvchi samolyot), jangovar texnika amfibiya (tank, bronetransport, avtomobil); avtokor (inglizcha «sag» arava) o'zi yurar arava va hokazo.

Giperbolizatsiya fenomeni xayol obrazlarini hamda tasavvur shakllarini o'zlashtirish jihatidan yaqin agglyutinatsiyaga yondosh, o'xshash psixik jarayondir. Giperbolizatsiya narsalar va jonivorlarni nafaqat haddan ziyod kattalashtirish yoki kichiklashtirish (barmoqdek kichik balo, uydek tuxum, tog'dek pahlavon, tariqdek bola, tuyadek burga va hokazo) bilan tavsiflanibgina qolmasdan, balki tasavvur obrazlari (timsollar, tasvirlar) miqdorini ko'paytirish yoki ularning o'rniga almashtirish xususiyatlarini ham namoyon etadi. Masalan, yetti boshli ajdarlar, ko'pqo'lli va ikki qorinli maxluqotlar, olti oyoqli jonivorlar, quyosh nurini to'sgan afsonaviy qushlar shular jumlasidandir.

Sxematizatsiya fenomeni xayolot (fantaziya) obrazlarini yaratish imkoniyati mavjud vositalardan biri hisoblanib, u borliqdagi narsa va hodisalarning u yoki bu alomatlari hamda sifatlarini ta'kidlashdan, shuningdek, ularga butun diqqat-e'tiborni markazlashtirishdan iborat psixik jarayondir. Mazkur jarayonda xayolot (fantaziya) tasvirlarida yuzaga keladigan tasavvurlar o'zaro birlashib ketishi natijasida tafovutlar qariyb yo'qoladi, o'xshashlik alomatlari esa birlamchi voqelikka aylanadi, qolaversa, ushbu holat sxematizatsiyalashni ro'yobga chiqishiga qulay negiz hozirlaydi. Masalan, bunga konstruktorning qushlar olamidanda andoza olib, yangi qurilmalar yaratishi, modeldan haqiqiy asbob ishlab chiqishi; rassom tabiat mo'jizalarining matoga tushirishi yaqqol misoldir.

Tipizatsiya fenomeni yordami bilan xayolda tasavvurlar sintezi ro'yobga chiqishi mumkin. Odatda, badiiy adabiyotda tipizatsiya yoki tipiklashtirishdan keng ko'lamda foydalaniladi hamda uning yordamida ba'zi bir jabhalari bilan o'zaro o'xshash, hatto mutanosib narsa va hodisalarda aks etuvchi muhim belgilari ajratib olinadi hamda ular yaqqol obrazlarda mujassamlashtiriladi. Ijodiy

jarayonlarning vujudga kelishi, kechishi, rivojlanishi bir talay assotsiatsiyalar orqali paydo bo'ladi, lekin ularning qayta tiklanishi xotira jarayonlarida uchraydigan tiklanish yoki jonlanishdan tafovutlanadi. Ijodiy ilhomlari hisoblanmish ehtiyojlar va motivlarga assotsiatsiyalar jarayonida o'zlashtirilgan yo'nalish bo'ysunadi.

Ijodiy xayol o'ziga xos muayyan xususiyatlarga ega bo'lib, ulardan eng muhimi assotsiatsiyalarning an'anaviy yo'l-yo'rig'idan voz kechib, ijodkor ruhiyatida favquloddalik qilayotgan his-tuyg'ular, o'y-fikrlar, xohish-istaklarga tobe etishdir. Vaholanki, assotsiatsiyalarning o'xshashlik, yondoshlik, qarama-qarshilik (kontrastlik) ko'rinishlari saqlanib qolsa-da, lekin tasavvurlarni saralash esa sababiy bog'lanish mexanizmi bilan tavsiflanadi. Ijodkor (shoir, yozuvchi, rassom) asarida assotsiatsiyalar chizgisi paydo bo'ladi, ularning vujudga kelishiga asosiy sabab tashqi taassurot hisoblanadi.

Xayol jarayonlarining, shu jumladan, fantaziya obrazlarining vujudga kelishi inson miyasi faoliyatining mahsuli hisoblanib, bosh miya katta yarim sharlari po'stloq qismining funksiyasi orqali amalga oshadi. Xotira bilan xayolning fiziologik asoslari, mexanizmlari o'rtasida muayyan darajada o'xshashlik va ba'zi tafovutlar mavjudligini ta'kidlab o'tish joiz.

Xotiraning fiziologik asosi muvaqqat nerv bog'lanishlarining o'zaro birikuvi hamda faollashuvi (qayta jonlanishi, tormozlanishi)dan iborat bo'lsa, xayol jarayonida inson ontogenezida yuzaga keltirilgan bog'lanishlar tizimi buzilishi (yemirilishi) oqibatida yangi tizim hosil qilinadi. Favquloddagi bunday holat (birlashishi, yangi tizim) ma'lum ehtiyoj yoki birorta tasodifiy taassurot (tashqi ta'sir) orqali miya po'stida kuchli qo'zg'alish o'chog'ining hosil bo'lishi tufayli vujudga kelishi mumkin. Xuddi shu boisdan xayol surayotgan shaxsda nerv hujayralarining guruhlari o'zaro yangidan (qaytadan) bog'lanishi, shuning uchun fantaziya obrazlariga xos yangilik va o'xshashlik alomatlari mazkur yangicha bog'lanishga bo'ysunadi.

Shunday qilib, xayol miya katta yarim sharlari po'stining funksiyasi hisoblanishiga qaramasdan, uning fiziologik mexanizmlari miyaning boshqa

qismlari bilan bog'liq ekanligi to'g'risida faraz qilishga imkon tug'diradi. Miyaning mana shunday chuqurroq qismlari gipotalamlimbik tizimi fantaziya obrazlarining shakllanishi bilan ularni faoliyat jarayonlariga qo'shilishda miya yarim sharlari po'sti bilan birga qatnashadi. Tizimning po'stloq bilan po'stloqosti qismlari bog'lanishi tufayli gipotalamus miya stvolining yarim sharlar bilan tutashuvida «limb» (chegara) hosil qiladi.

Inson miyasi fantaziya obrazlariga hamda organizmning periferik (chet) qismlariga boshqaruvchanlik ta'sirini o'tkazib, ularning faoliyatini o'zgartirib turadi. Shaxs asabiylashganida biror narsa haqida qattiq o'ylasa, albatta tana a'zolarida ko'zga tashlanadigan o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin. Yuzaga kelgan bunday alomatlar (belgilar, izlar) «stigmat»lar deb nomlanadi (yunoncha, dog' yoki chandiq degan ma'noni anglatadi). Qadimgi xalq afsonalari, rivoyatlariga qaraganda inson qattiq jismoniy kaltaklangan davrini eslasa, go'yoki o'sha azobning izlari favquloddagi paytda yuzaga kelishi ta'kidlanadi. Qo'rqinch holat to'g'risida xayol obrazlari yaratilsa, odamga uchuq chiqishi, lablari yorilgandai his etishi voqeliklari uchrab turadi. Masalan, chekish va ichishni mutlaq tashlagan shaxs papiros yoki spirt ichimligi to'g'risida o'ylasa, uning og'iz bo'shlig'ida tamaki ta'mi, aroqning achchiqligi paydo bo'lishi mumkin. Inson juda suvga tashna bo'lsa yoki ochlik azobi qiynasa, ular to'g'risida o'ylasa, «shirin qoniqish» «lazzatlanish» hislari vujudga keladi.

Psixologiyada qo'rqinch holati to'g'risida muayyan materiallar to'plangan va tahlil qilingan. Fobiya muayyan sharoitlar va vaziyatlarda shaxsda vujudga keladigan kuchli asosga ega bo'lmagan qo'rqinch va tashvishlanishdan iborat, inson tomonidan yengish imkoniyat yo'q muttasil psixopatologik holati. Mazkur patologik holatning ba'zi birlariga tushuncha berishga harakat qilamiz: 1) agarafobiya - shaxsning gavjum maydonlardan, shoh ko'chalardan o'tishiga qo'rqishi; 2) kaustrofobiya - insonning eshigini qulflab yolg'iz o'tirishidan qo'rqishi; 3) monofobiya - shaxsning yakka-yu yolg'iz, hech kimsiz qolishdan qo'rqishi; 4) atropofobiya - insonning ko'pchilik davrasidan, xaloyiqdan qo'rqishi; 5) nazofobiya - odamning kasal bo'lib qolishdan qo'rqishi; 6) eyrotrofobiya -



shaxsning ko'pchilik davrasida izza bo'lishdan, o'zini yo'qotib qo'yishdan qo'rqishi; 7) didaktogen - o'quvchi yoki talabaning o'qituvchidan qo'rqishi; 8) yatrogen - bemorning shifokordan qo'rqishi va hokazo.

Xayolning organik jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi haqidagi ma'lumotlar yana ideomotor (yunoncha - tushuncha, tasavvur, lotincha - harakatlantiruvchi degan ma'noni bildiradi) aktlar (harakatlar)da mujassamlashgan bo'ladi. Inson u yoki bu harakatni tasavvur qilish bilanoq xuddi shu narsaning tabiiy ravishda bajarilishi boshlanadi. Masalan, shaxs qaysidir ashulani dildan o'tkazsa, uning xirgoyisi amalga oshiriladi yoki rubob to'g'risida tasavvur qilinsa, undagi barmoq harakati tasodifiy ijroga kirishadi va boshqalar.

Xayol shakllari to'g'risida tushuncha. Xayolning asosiy shakli xayolot yoki fantaziya deb nomlanadi, lekin chet el psixologiyasida xayolning sinonimi sifatida qo'llaniladi. Fantaziya inson ongida in'ikos etila boshlagandan e'tiboran borliqning qiyofasini o'zgartirishga yo'nalgan bo'ladi, voqelikning unsurlari o'rin almashtirish xususiyatiga ham egadir. Shuningdek, fantaziya insoniyat dunyosi uchun ma'lum bo'lgan omillarga nisbatan yangi nuqtai nazar topishga va shu yo'sinda yondashishga imkon beradi hamda badiiy, ilmiy bilish qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Odatda, bolaning asosiy faoliyati o'yinga aylana borgan sari bog'cha va kichik maktab yoshi davrida jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Ma'lumki, ta'kidlangan yosh davridagi bolalar uchun fantaziya obrazlari ularning o'yin faoliyati uchun dastur tariqasida vujudga keladi: a) bola o'zini kosmonavt sifatida his qiladi; b) konstruktor rolini bajaradi; v) o'zini personaj xulq-atvori bilan taqqoslaydi; g) rolli, syujetli o'yinlarda muayyan rollarga kirishadi va hokazo.

### **10.7 Xayolning psixobiologik rivojlanishi. Xayolning funksiyalari**

Xayolning o'zi faoliyatning har xil turlarida tarkib topadi, uni amalga oshirish va uyushtirish uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Bolaning xayoli tashqi tayanchlarga (o'yinchoqlarga) asoslanuvchi faoliyatdan so'zlar bilan sodda hamda badiiy ijodiyotni amalga oshirishga sharoit tug'diradigan ichki faoliyatga o'sib

o'tadi. Uning xayolida nutqni egallash munosabati bilan shaxslararo muomala ham taraqqiy etadi. Nutq faoliyatining yuksak ko'rsatkichi ko'rmagan, eshitmagan narsa va hodisalarni tasavvur qilish imkonini yaratadi. Xuddi shu bois bolalar cho'plardan ot obrazlarini, stuldan harakatlanuvchi texnikani yaratish imkoniga ega bo'ladi. Shuning uchun fantaziya ijtimoiy tajribani biri sifatida gavdalanadi. Badiiy fantaziya obrazlari (Bilmasvoy, Buratino, No'xat polvon, Qorqiz, Qorbobo, Jodugar kampir va hokazolar) ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va bilishning vositasi ekanligi psixolog tadqiqotchilar tomonidan dalillab berilgan. Voyaga yetgan odamlar esa atrof-muhitni va shaxslararo munosabatlarni faol ijodiy izlanishlari tufayli o'zgartiradi.

Orzu xayol shakllaridan biri hisoblanib, shaxsning o'zi uchun eng yoqimli istiqbol obrazlarini xayolida (tasavvurida) yaratishda gavdalanadi. Orzu insonning ehtiyojlari, xohish-istaklari, intilishlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, uni kelajakda faoliyatni amalga oshirishga undaydi.

Shaxsning ijodiy faoliyati mohiyatida fantaziya ishtirok etmasdan iloji yo'q, chunki hamisha ham uning amaliy xatti-harakatlarida xayol jarayonlari ro'yobga chiqavermaydi. Aksariyat hollarda xayol jarayonlari shaxs amalga oshirishni istaydigan obrazlar shaklida mujassamlashadi hamda ichki faoliyat tusiga aylanadi. Kelajakka shaxsni undovchi, uning xohish-tilaklarini aks ettiruvchi obrazlar majmuasi orzu deyiladi. Orzu – shaxsning atrof-muhitni, ijtimoiy voqelikni o'zgartirishga, o'rin almashtirishga yo'naltirilgan ijodiy kuchlari, ilhomlari va intilishlarini turmushga tatbiq etishning asosiy shartlaridan biridir. Shu bilan birga orzu shaxsiy va ijtimoiy hayotni ilmiy faraz qilishning unsurlaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda taraqqiyotni oldindan ko'ra bilish, maqsad ko'zlash, kelajagi buyuk davlat g'oyalari, milliy istiqloq mafkurasi va milliy istiqloq g'oyasi g'oyat muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun orzu batamom tugallanishi ma'lum bir sabablarga ko'ra muvaqqat kechiktirilgan faoliyatga undovchi motiv (sabab) tariqasida yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun ham inson qo'li bilan bunyod etilgan narsa o'zining ijtimoiy-tarixiy mohiyati jihatidan moddiylashtirilgan, tadbiiy xususiyatli shaxsning orzusidir. Ana shu narsalarga nisbatan o'ta zarur

ehtiyoj his qilgan ajdodlarimizning orzulari yaqqol ko‘rinishda gavdalanganligining shohidi bo‘lamiz: 1) uchar gilamlar; 2) oynai jahon; 3) elektr chirog‘i; 4) o‘zi yurar aravalar; 5) lip etib chiqish (lift); 6) dashtga suv chiqarish va hokazolar.

Badiiy va ilmiy ijodda fantaziyaning o‘rni to‘g‘risida muayyan darajada ishlar qilgan, chunki san‘at va adabiyot ijodiy faoliyatining zaruriy unsuri sifatida xizmati baholangan. Ma‘lumki, rassom hamda yozuvchining ijodiy faoliyatida ishtirok etuvchi xayol obrazlarining muhim xususiyatlari - bu uning emotsional kechinmalar his-tuyg‘ular bilan mujassamlashganidir. Hozirgi davrda: 1) badiiy ijodiyot; 2) badiiy tarjima; 3) ilmiy ijodiyot psixologiyasi; 4) adabiy qobiliyat va iste’dod psixologiyasi singari maxsus sohalarda xayol turlari, jarayonlari, shakllari kabilarga asoslangan holda tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mustaqil mamlakatimizning yoshlari (fuqarolari) yangiliklar yaratish va kashfiyotlar amalga oshirish, o‘zlari yoqtirgan ishlar, muqaddas ijtimoiy xayol yo‘llari, vatanga muhabbat, iftixor, sadoqat, sodiq do‘stlik, qahramonlik, iymon-e‘tiqod, baxt va tole to‘g‘risida uzluksiz ravishda orzu qiladilar. Shaxs tomonidan tasavvur etilayotgan orzular haqiqatdan ham go‘zal, ezgu niyatli, porloq kelajakka qaratilgan bo‘lsa, ular inson xislatiga aylanadi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Xayolning inson psixik faoliyatidagi roli deganda nimani tushunasiz?
2. Xayoliy obrazlarni qayta ishlash mexanizmlarini izohlang?
3. Xayol psixologik kategoriya sifatida haqida ma‘lumot bering?
4. Xayol xususiyatlari va fenomenlarini aytib bering?
5. Xayol turlari va shakllari to‘g‘risida aytib bering?

## 11-MAVZU. TAFAKKUR

*Tayanch tusunchalar: aqliy operatsiya, obrazli tafakkur, mantiqiy tafakkur, taffakur operatsiyalari, analiz-sintez, taqqoslash, abstraksiya, umumlashtirish, konkretlashtirish, klassifikatsiyalash, sistemalashtirish.*

### **11.1.Tafakkurning bilish jarayon sifatidagi mohiyati va shaxs shakllanishida tutgan o‘rni. Tafakkurning nerv-fiziologik asosi**

Ma'lumki, psixologiya fani tafakkurni o'rganadigan yagona fan emas, chunki uning ayrim jihatlarini logika, mantiq, falsafa, hatto kibernetika tadqiq qilmoqda. Shuning uchun tafakkur psixologiyasi predmetini aniqlash juda muhim masalalardan biriga aylanib qolmoqda.


Umumiy psixologiya darsliklarida tafakkurga berilgan ta'rif turlicha bo'lib, ikkita yoki uchta muhim xususiyati ta'kidlab o'tiladi, xolos. Jumladan, P.I.Ivanovning darsligida «tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning tag'in ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi», deb ta'riflanadi. Ushbu ta'rifda tafakkurning to'la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirishi ta'kidlab o'tiladi, xolos, lekin uning xarakterli xususiyatlari bivosita so'z yordami bilan ifodalanishi muallifning diqqat markazidan chetda qolgan.

M.V.Gamezo «tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so'z hamda o'tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi» ekanligi bayon qiladi. U tafakkurning umumlashgan, so'z vositasida va vositali atrof-muhit hodisalarini aks ettira olishini ta'kidlaydi. Bizningcha, tafakkurga berilgan ushbu ta'rif uning predmetini to'la ochib berishga qurbi yetmaydi, shuning uchun boshqa manbalarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

A.V.Petrovskiy tahriri ostidagi darslikda tafakkurga ushbu shaklda ta'rif o'z ifodasini topgan: «Tafakkur - ijtimoiy-sababiy, nutq bilan chambarchas bog'liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va

umumlashtirib aks ettirish jarayonidir». Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, tafakkur yuqorida keltirib o'tilgan ta'riflardan bir muncha kengroq xususiyatlarni ochib berish uchun xizmat qiladi, biroq uning jihatlari to'la qamrab olinmagan.

V.V.Bogoslovskiy tahriridagi darslikda ham tafakkurga berilgan ta'rif uning umumlashgan va bilvosita aks ettirish xususiyatlari yoritilgan, xolos. Xuddi shunga o'xshash tafakkur xususiyatlari F.N.Gonobolin, K.K.Platonov darsliklarida ham uchraydi.



Bizningcha, tafakkur predmetini belgilash uchun to'laroq ta'rif O.K.Tixomirovning darsligida berilgan. Tafakkur predmetiga kiruvchi tarkibiy qismlar mana bunday ifodalanadi: «Tafakkur - bu o'z mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib, bivosita aks ettirishni xarakterlaydigan, umumlashtirish darajasi va foydalanadigan vositalariga hamda o'sha umumlashmalar yangiligiga bog'liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir». O.K.Tixomirov

mazkur ta'rifda tafakkurning aksariyat jihatlari va xususiyatlarini ta'kidlab o'tgan. Lekin tafakkur muammosiga yangicha yondashishlarning paydo bo'lishi ta'rifni yanada takomillashtirishni taqozo qiladi.

### **11.2. Tafakkur operatsiyalari. analiz-sintez, taqqoslash, abstraksiya, umumlashtirish, konkretlashtirish, klassifikatsiyalash, sistemalashtirish**

Hozirgi davrda tafakkurning predmeti yuzasidan psixologiyada turli-tuman qarash va ta'riflar mavjuddir. Ularni ayrimlariga xarakteristika berib o'tamiz. S. L. Rubinshteyn nazariyasiga binoan, tafakkurni psixologik jihatdan o'rganishning asosiy predmeti jarayon, faoliyat tariqasida namoyon bo'lishdir. Muallif tafakkur operatsiyalari, shakllarini shakllantirishda jarayon, muammoli vaziyatni hal qilishda esa fikr yuritish faoliyati sifatida vujudga kelishini chuqur tahlil qilib beradi. S.L.Rubinshteyn tafakkur to'g'risidagi g'oyani rivojlantirib, uni subyekt faolligining paydo bo'lishi deb atadi.

A.N.Leontev tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan mulohaza yuritib, tafakkurni turli ko'rinishlarga ajratadi, fikr yuritish faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni predmetli-amaliy faoliyat deb nomlaydi. Shuning bilan birga tafakkurning strukturasi, fikr yuritish motivatsiyasi to'g'risida nazariy-metodologik muammolarni o'rta tashlaydi.

P.Y.Galperin fikriga ko'ra, tafakkur - bu oriyentirlash-tadqiqot faoliyati, oriyentirovka jarayonidir, ya'ni oriyentirovka jarayoni, oriyentirovka faoliyati. Muallif psixologiya fani intellektual masalalarini yechishda subyektning tafakkurga orientirovka qilish jarayonini o'rganishdan iborat deb tushuntiradi. P.Y.Galperin tafakkurning boshqa jahatlarini o'zining aqliy harakatlarni bosqichli shakllantirish nazariyasidan kelib chiqqan holda yoritishga intiladi.

A.V.Brushlinskiy tadqiqotlarida tafakkurning muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish, oldindan payqash xususiyatlari alohida ta'kidlab o'tiladi. Yuqoridagi mualliflardan farqli o'laroq A.V.Brushlinskiy tafakkurning umumlashtirib, bilvosita aks ettirishdan tashqari

muhim yangilikni izlash va ochish, oldindan bashorat qilish xususiyatlari mavjudligini dalillab ko'rsatadi.

Tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan rus psixologlari tomonidan bildirilgan mulohazalarga yakun yasab, umumiy ta'rif berishning mavridi keldi. Psixologiyada tafakkurga nisbatan berilgan qator tushunchalar mavjuddir, jumladan, jarayon, fikr yuritish faoliyati, bashorat qilish, anglashilgan bilimlar, aql mezoni, fahmlilik va boshqalar. Yuritilgan fikrlarga suyangan holda, tafakkurga quyidagi shartli ta'rifni berish mumkin: Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bavoysita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, ijtimoiy-sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir. Ta'rifda tafakkurning eng muhim xususiyatlari va funksiyasi sanab o'tilgan, ya'ni so'z (fikr) bilan, umumlashtirib, bavoysita, ijtimoiy-sababiylik, yangilik ochish, bashorat qilish, jarayon, faoliyat va boshqalar. Bizningcha, berilgan ta'rifdan kelib chiqqan holda tafakkur predmetini aniqlashga harakat qilinsa maqsadga muvofiq ish qilingan bo'lar edi. Tafakkur predmetini belgilash mashaqqati uning murakkab bilish jarayoni ekanligini yana bir karra tasdiqlab turibdi. Voqelikni psixologik mushohada etish, narsa-hodisalarni ilmiylik va mantiqiylik asosida o'rganish, ilmiy tafakkur va psixologik tasavvurning uyg'unligini ta'minlash, mustaqil va zamonaviy fikrlash, kundalik faoliyatda umumiy psixologik bilimlarni va qoidalarni qo'llay olishidan borat.

Tafakkur psixologik tahlilining o'ziga xosligi. Tafakkur va bilish. Tafakkur psixologiyasining predmeti. Tafakkur psixologiyasi predmetiga asosiy yondashishlar. Tafakkur analizida tarixiylik tamoyili. Tafakkur rivojlanishi muammosi va uning tuzilishi. Tafakkurning filo va antropogenezda rivojlanishi. Biologik layoqatlar tafakkurining kelib chiqishi va insonning ish faoliyatida uning yuzaga kelishi, rivojlanishi. Inson tafakkuri va jonivorlarning aqliy xatti-harakatlari o'rtasidagi printsiptial farqlar. Tafakkur shakllari rivojlanishida ijtimoiy mehnat taqsimotini roli.

### **11.3. Tafakkurning mantiqiy shakllari. Tafakkur turlari**

Fan uchun ba'zi ijodiy masalalarni hal qilishda uchraydigan intuitsiya hodisalari haqidagi masalalar qiziqarlidir. Ijod jarayonlaridagi ijodiy ilhom va ilhom holatida «g'ayri ixtiyoriy» ijod haqidagi masalalar shu bilan bog'langan.

Bu sohada yana shuning uchun ham ishlar olib bormoq kerakki, ijod masalasi idealistik psixologiyada ko'pincha tushuntirish mumkin bo'lmagan, ayrim zotlargagina xos bo'lgan alohida bir hodisa deb noto'g'ri qaraladi. Ko'pincha ijodiy jarayondagi mehnatning roli inkor qilinadi, yangilik yaratish ixtiyorsiz yoki bo'lmasa allaqanday ong ishtiroksiz ishning natijasida ro'y beradi deb hisoblanardi. Materialistik psixologiya ijod va uning taraqqiy etgan shakllari katta ongli ishning yakunidir, degan fikrga tayanadi.

Tafakkurni kuzatish yo'li bilan tekshirganimizda ko'z, yuz muskullaridagi xilma-xil harakatlarni va turqining o'zgarishini qayd qilibgina qolmay, balki, shu bilan birga, shu tafakkur jarayonlari qanday zabt va qanday tezlik bilan ro'y berishini ham bir qadar bila olamiz. Modomiki tafakkur jarayonlari tashqi muhitda o'z ifodasini topar ekan, tafakkurning mazmunini bila olamiz, tafakkur jarayoni qay shaklda ro'y berayotganini, masala qanday kelib chiqayotgani, masalani yechish jarayoni qanday borayotganini ham kuzata olamiz.

Kishilarning psixik sifatlari: tashabbuskorligi, ijodiy tafakkur jarayoni, yangilikni bayon qilishi, o'z oldiga qo'ygan maqsadga yetish yo'lida sabr-matonat ko'rsatishlari kuzatish yo'li bilan tekshirib o'rganiladi.

Tadqiqotchi psixik hayot hodisalarining birontasini, masalan, odamda shodlik hissi subyektiv ravishda qanday kechishini, poetik ijodiyot jarayoni qanday borishini, irodaga bog'liq harakatlarda qaror qabul qilish jarayoni qanday ro'y berishini, biron masalani yechganda tafakkur jarayoni qanday borishini va shunga o'xshash hodisalarni tekshirishni oldindan vazifa qilib qo'yadi, tadqiqotchi suhbat vaqtida tekshiriluvchi kishiga beradigan savollarni oldindan belgilab oladi. Savollar shunday tartib bilan tanlab olinadiki, tekshiriluvchi kishida qaysi kechinmalar va ong jarayonlarini o'rganish kerak bo'lsa, u o'z javoblarida xuddi o'sha kechinmalarni va o'sha ong jarayonlarini oydinlashtirib bersin. psixik



faoliyat: namoyon bo'lishining kuzatish va eksperiment yo'li bilan tekshirib bo'lmaydigan turlarini, masalan, ijodiy xayol – poeziya, muzika, texnika va boshqa shu kabi sohalaridagi ijodiyot yuksak jarayonlarini, ilmiy kashfiyotlarda namoyon bo'ladigan tafakkur faoliyati yuksak jarayonlarini, kuchli iroda va ma'naviy yuksak sifatlarning alohida ifodasi bo'lgan qahramonlikni, shuningdek, geniallik, talantlilik va zo'r qobiliyat kabi xislatlarni ochishga yordam beradi. Odam ongi namoyon bo'lishining ana shunday turlari to'g'risida eng atoqli kishilar bayon qilgan fikrlariga qarab, yoki o'sha shaxslarga yaqin yurgan kishilarning guvohliklariga qarab ko'pgina fikr yuritish mumkin.

Tafakkur jarayonlarini o'rganishda tadqiqotchi o'z-o'zini kuzatish metodidan ham, tashqi kuzatish metodidan ham, eksperimentning turli-tuman xillaridan ham foydalanadi. O'qitish jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini o'rganishda pedagog-psixolog ham turli metodlardan oddiy tashqi kuzatish metodidan, so'rash va suhbat metodidan, eksperimentning oddiy turlaridan va shu kabilardan foydalanadi. Psixik hayot hodisalari yuqorida aytilgan hamma metodlar yordamida aniqlanadi. Bu hodisalar tasvir etiladi, klassifikatsiyaga solinadi, analiz qilinadi, ulardan yakunlar chiqariladi. Shu metodlar yordamida ayrim psixik hodisalar o'rtasidagi bog'lanish topiladi, shu hodisalarning ro'y berish va boshlanish negizidagi qonuniyatlar ochiladi. Ammo psixikani ilmiy asosda o'rganish shu bilan kifoyalanmasligi kerak.

Psixik hayot hodisalari dialektik materializm tamoyillari asosida, jumladan psixikaning mohiyati va psixik hodisalar bilan fiziologik hodisalarning o'zaro munosabati haqidagi ta'limot nuqtai nazaridan tushuntirib berilgandagina, bu hodisalar va ularning qonuniyatlari haqidagi bilimlarimiz becam-ko'st ilmiy bo'limlar bo'ladi.

Fikrlash yoki fikr yuritish inson aqliy faoliyatining, aql-zakovatining, muomala maromining, ongli xulq-atvorining yuksak shakli bo'lib hisoblanadi. Mustaqil fikrlash tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, shaxsning keng ko'lamliligi aqliy faoliyatini oqilona, omilkorlik bilan amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. Mustaqil fikr yuritishning ro'yobga

chiqishida odamda fikr, mulohaza, g'oya, faraz, maqsad kabilar vujudga keladi va ular shaxs ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar sifatida ifodalanadi. Mustaqil fikr yuritish til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi hamda ular uzluksiz tarzda bir-birini taqozo etadi. Xuddi shu bois talaba o'zining mustaqil fikrlashi (muloqoti), nutqi, ongli xulq-atvori tufayli borliqdagi mavjudotlardan tubdan ajralib turadi.

Kishi mustaqil fikr yuritish faoliyatida o'zi aks ettirgan, sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan, eslab qolgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, aniqligi, haqiqiyliigi, haqqoniyliigi yoki ularning voqelikka mos (mutanosib) tushishi va tushmasligini aniqlaydi. Borliqni bilish jarayonida hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar, farazlar (taxminlar), qaror qabul qilishlari chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson mustaqil fikrlashi tufayli voqelikni umumlashtirgan holda bilvosita yoki bevosita aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi ichki, murakkab bog'lanishlar, munosabatlar, xossalar, xususiyatlar hamda mexanizmlarni tushunadi, anglab yetadi. Binobarin, odam muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda tabiiy, ijtimoiy hodisa va voqealarning vujudga kelishi, kechishi, rivojlanishi hamda ularning oqibatini oldindan payqash, bashorat qilish imkoniyatiga ega. Hozirgi zamon kishisining bilish va amaliy faoliyatini oqilona, omilkorlik bilan tashkil qilishda mustaqil fikr yuritish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Odatda, fikr yuritish voqelikni umumlashtira olish darajasiga, muammoni yechish vositasining xususiyatiga, obyektning shaxs uchun yangiligi uning faollikka undashiga binoan bir necha turlarga ajratiladi. Mustaqil fikrlash aqliy faoliyat sifatida tahlil qilinganda talaba tomonidan masalalar va topshiriqlarni yechish nazarda tutiladi, ularning shartlarida, mohiyati, tuzilishi, shakllari va shaxsning anglashuv, tushunuv imkoniyatlarida kuzatiladi. Masalan, muammo, topshiriq yechish (hal qilish, bajarish) insonning ehtiyoji, qiziqishi, mayli, motivatsiyasi, aqliy qobiliyati, iste'dodi, salohiyati bilan bog'liq holda olib qaraladi, muammo tomonidan qo'yilgan talablarni qabul etish, shaxsiy qarorga kelish, yechimni topish uchun vositalar qidirish ijod, izlanish va fikrlashning

mustahkam negizini tashkil qiladi. Mustaqil va ijodiy fikrlash faoliyatida muammo yechimini topish jarayonini boshqarish, borliqni in'ikos qilishda shaxsning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, favquloddagi vaziyatlari, obyektiv sharoitlari uning uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy turmushda ta'lim tizimida, ishlab chiqarish amaliyotida shaxslararo (obyektiv, subyektiv) munosabatlar, aloqalar, hamkorlikdagi aqliy va jismoniy mehnat natijasi muomala qilish maromi nostandart fikrlashning majmuasi tariqasida yuzaga keladi. Talabalar jamoasida tanqid va o'zini o'zi tanqid, baholash va o'zini o'zi baholash, tekshirish va o'zini o'zi nazorat qilish, boshqarish va o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi rivojlantirish, o'zini o'zi namoyon etish, o'ziga o'zi buyruq berish, guruh mulohaza hamda shaxsiy mushohadadan iborat mustaqil fikrlashning sifatlari shakllanadi.

Insonni inson tomonidan idrok qilish, ya'ni notanish shaxsning ruhiy holatini aniqlash, uni taxmin qilish, eng zarur alomatlari va belgilari to'g'risida materiallar to'plash ham ijodiy fikrlashning mahsulidir. Mazkur murakkab bosqichli iborat bilish jarayoni insondan irodaviy zo'r berishni, aqliy jiddiylikni, ongli munosabatni, barqaror vaziyatni, qulay sharoitlarni talab qiladi, bularning bevosita ta'siri orqali ma'lum bir qarorga kelinadi.

Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, ixtirochilik takliflari ham ijodiy fikrlashning mahsuli hisoblanib, amaliy va nazariy ahamiyatli ilmiy farazlar, g'oyalar, ulug'vor maqsadlar, yuksak ezgu niyatlar uning vazifasiga kiradi.

#### **11.4. Tafakkur sifatlarini inson intellektual taraqqiyotidagi o'rni**

Insonning fikrlash faoliyati ijtimoiy xususiyatga ega. Fikrlashning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval ovqatlanish uchun ozuqa izlash, keyinchalik esa mehnat qurolini yasash va ulardan o'z o'rnida foydalanish kezida shaxslararo fikr almashish, tajriba bilan o'rtoqlashish ehtiyoji vujudga kelgan. Insonning o'zaro muloqotga kirishishi, muomala qilishi, munosabat o'rnatishi natijasida fikr bildirish, so'zlashuv uquvi yuzaga kela boshlagan. Nutqning sharofati bilan fikrlash mahsullarining izchilligi, mantiqiyliqi, tizimliliqi paydo bo'lgan, kelajak

avlod uchun an'anaviy meros tariqasida qoldirish imkoniyati tug'ilgan. Insoniyat tomonidan to'plangan tizimlashtirilgan tajribalar, bilimlar, ko'nikma va malakalar qoldirilmaganida edi, odamzod fikr yuritish fan, texnika, madaniyat sohalarida bunday ulkan yutuqlarga erisha olmasdi.

Shaxsda mustaqil fikr yuritish muammoli vaziyat vujudga kelishidan boshlanadi, lekin mazkur vaziyat tug'ilishi, yechimi bu bilan tugallanmaydi. Unda bilishga nisbatan moyillik, ixtiyorsiz xatti-harakat muammoli vaziyatgacha yorqin bo'lmaydi, u noaniq holda yuzaga keladi, so'ngra bu ma'noda yechimga muhtoj muammoli vaziyat yaraladi va nihoyat uning yechimi topilsa, lekin bilishning muammodan keyingi bosqichi fikrning o'z yo'nalishida ixtiyorsiz davom etaveradi (muammogacha - muammoli vaziyat - muammodan keyingi vaziyat).

Talabaning o'quv faoliyati fikr yuritishning o'zaro mustahkam bog'langan berk zanjiri vujudga keladi: mustaqil fikrlash, muammo, masala (topshiriq).

Talabaning mustaqil fikrlashi quyidagi bosqichlarda tarkib topishi mumkin:

1. Mustaqil fikr yuritish faoliyatida, eng avvalo, hal qilinishi zarur bo'lgan masala (topshiriq) talaba tomonidan aniqlab olinishi kerak. Agarda uning oldida hech qanday masala yoki muammo vujudga keltirmagan bo'lsa, u holda biron-bir narsa to'g'risida fikr ham yuritmaydi. Demakki, talaba qarshisida hech qanday muammo paydo bo'lmagan, mabodo u yechish shart bo'lgan masala yuzasidan qanchalik aniq va to'laroq ma'lumotlarga ega bo'lsa, uning oqilona bajarishi yuzasidan yo'l va vositalarni shunchalik yengillik bilan topadi. Buning uchun talabalar qo'yilgan masala mazmunini avvalo ma'lum darajada tushunib olishlari, uning shartini tekshirib chiqishlari, nima ma'lum va nima noma'lum ekanligini aniqlashlari mutlaqo zarur. Faqat ana shundagina, ular sira shoshib qolmaydilar va sira ikkilanmasdan (topshiriq) shartini qidirib, zehn bilan uni tahlil qilishi, tatbiq etish natijasida to'g'ri yechishga erishadilar.

Muammo yoki masalani hal qilish uchun eng zarur bo'lgan barcha bilimlarni (qoidalar, omillar, qonuniyatlar, xossalar, xususiyatlar, muhim belgilar, munosabatlar, bog'lanishlar va boshqalarni) tatbiq qilish uchun intiladilar. Buning

uchun esa insonning shaxsiy tajribasida uchragan holatlardan, usullardan unumli foydalangan holda yangi sharoitga, obyektga ko‘chirish jarayoni amalga oshiriladi.


Masala yoki muammoga taalluqli faraz (taxmin) ilgari suriladi, bosqichlar tahlil qilinadi, yechish to‘g‘risida mulohazalar yuritiladi, turli variantlar hamda variatsiyalar, invariantlar haqida fikr bildiriladi, ular o‘zaro qiyoslanish natijasida eng samarali alomatlariga, belgilarga ajratiladi va hokazo.

Muammo oldiga qo‘yilgan gipotezani muayyan mezonlar natijasi yordami bilan tekshirish zaruriyati tug‘iladi. Uni tekshirish uchun o‘zaro o‘xshashlik holatlari ma’noviy, shakliy, tuzilmaviy jihatdan taqqoslanadi. Bu o‘rinda ijodiy xayol materiallaridan atroflicha foydalaniladi, ya’ni ijodiy rejalar tuzish, umumlashma obrazlar yaratish maqsad, natijalarini ko‘z o‘ngiga keltirish, taxminiy munosabatlarni idrok qilish amalga oshiriladi. Uning haqqoniy ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aqliy xatti-harakatlar tizimini tatbiq etib ko‘riladi va ayrim o‘zgarishlarni kiritish mo‘ljali oydinlashtiriladi. Gipoteza mantiqiy usullar yordamida fikran analiz va sintez qilinadi, uning muhim alomatlari ajratiladi, uning to‘g‘riligi, haqqoniyliigi bo‘yicha tezkor hukm va xulosalar chiqariladi.

Muammoni nazariy jihatdan hal qilish uchun ilgari surilgan gipoteza to‘g‘riligi yoki noto‘g‘ri ekanligi aniqlansa, u fikr yuritish obyektidan siqib chiqariladi va yangi farazlar, o‘ylar topiladi. Yangi amaliy gipoteza fikran bir necha marta tekshiriladi va undan so‘ng amaliyotga joriy qilish uchun sinashga tavsiya etiladi. Ta’kidlab o‘tilgan mulohazalarning aksariyati konstruktiv texnik masalalarni hal qilishda, kashfiyotlarni yaratishda, ixtirochilik takliflarida, ratsionalizatorlikda, texnologik qurilmalarni joriy etishda turli-tuman modellar, variantlar, preparatlar, texnologik kartalar va boshqalar fikran tahlil qilinadi, so‘ngra ulardan eng ma’quli, omilkori, oqili, eng maqsadga muvofiqi tanlanadi va uning ustiga bosh qotirishda davom ettiriladi. Muammo yoki masalani hal qilish, yechish, olingan natijalarning to‘g‘riligiga ishonch va qanoat hosil qilish uchun talaba uni tekshirish bilan mustaqil fikr yuritish xatti-harakatlarini yakunlaydi. Ana shu fikriy operatsiyalar, mulohaza shakllaridan so‘ng masala (topshiriq) batamom hal qilinadi deb topiladi va u to‘g‘rida o‘ylash nisbiy jihatdan to‘xtatiladi, xolos.

Mustaqil fikr yuritish o'zining samaradorligi, dolzarbligi, universalligi bilan kasbiy tayyorgarlik mahorat sari talabalarni yetaklaydi, jamiyat va tabiat hodisalarini anglash uchun puxta negiz hozirlaydi.

Fikr yuritishning mustaqilligi deganda talabaning shaxsiy tashabbusi bilan uning o'z oldiga yaqqol maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va nazariy, xususiyatli faraz (taxminan, gipoteza) qilishi, kutilayotgan natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan muammoni hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasiz, o'zining aqliy izlanishi tufayli, turli yo'l, usul, vosita topib mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish joiz.



Fikr yuritishning mustaqilligi aqlning sertashabbusligida, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. Aqlning sertashabbusligi deganda talaba o'z oldiga yangi muammoni aniq maqsad, yaqqol vazifa qo'yishini, ana shularning barchasini amalga oshirishda nihoyasiga yetkazishga, yechimni qidirishda usul va vositalarni shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'r berib intilishi, ularga taalluqli qo'shimcha belgi va alomatlarini kiritishdan iborat bosqichlarning namoyon bo'lishi nazarda tutiladi. Aqlning pishiqligi vazifalarni tez yechishda, yechish

paytida yangi usul va vositalarni o'z o'rnida aniq qo'llashda, eski yo'llardan forig' bo'lishda va boshqa ruhiy jarayonlarda ifodalanadi.

O'zining va o'zgalarning mulohazalarini, bu mulohazalarning chin yoki chin emasligini tekshira bilishda va namoyon bo'lgan mulohazalarga, muhokamalarga, muammoli vaziyatga baho bera olishda aqlning tanqidiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. Agar tanqidiylik oqilona, muhim belgilarga, muammo mohiyatining to'g'ri ochilishiga, muayyan mezonga asoslanib amalga oshirilsa, unday tanqidiylik obyektiv tanqidiylik deyiladi. Mabodo, talabaning tafakkuri tanqidiyligi subyektiv (shaxsiy) xatolarga umuman subyektivizmga og'ib ketsa, bunday holda subyektiv tanqidiylik deb ataladi. Talaba fikrlashidagi tanqidiylik oqilona, odilona, omilkorlik bilan amalga oshirilsa, namoyon bo'lsa, unda shaxs uchun muhim ham aqliy, ham axloqiy sifat (xislat) vujudga keladi, deb komil ishonch bilan aytish mumkin.

Talaba fikr yuritishining mustaqilligi uning mahsuldorligi bilan uzviy bog'liq tarzda kechadi. Agar talaba tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsiyanomalar bildirilgan hamda nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bunday insonning fikr yuritishi sermahsul deyiladi. Vaqt oralig'ida bajarilgan aqliy faoliyat ko'lamiga va sifatiga oqilona baho berish talaba fikr yuritishi mahsuldorligini o'lchash mezoni sifatida xizmat qiladi. Talaba oddiy narsalar to'g'risida fikr yuritganda ham ularning tashqi belgilari bilan chegaralanib qolmaydi, balki hodisalar mohiyatini ochishga intiladi, oddiy turmush haqiqatidan umumiy ijtimoiy qonuniyat yaratishga harakat qiladi. Shubhasiz, talabaning mustaqil fikrlashi hali izlanmagani, to'la foydalanilmagan imkoniyatlarga ega bo'lib, ularni to'la ochish fan va texnika taraqqiyotini jadallashtirish maqsadiga xizmat qiladi. Har qanday tashkilot, yangilik taraqqiyot - inson aql-zakovatining mahsulidir, xuddi shu bois fan va texnika rivoji ko'p jihatdan mutaxassisning mustaqil fikrlashiga bog'liq. Talaba kamoloti jismoniy, axloqiy va aqliy bosqichlardan iborat bo'lib, bu borada uning mustaqil fikrlashi yetakchi, ustuvor o'rin egallaydi. Hozirgi davr talabalari jismoniy, axloqiy jihatdan komillik darajasiga yengillik bilan erishsa-da, lekin aqliy kamolotga yetishish asab

tizimining taranglashuvi, aqliy zo‘riqish, hissiy jiddiylashuv, barqaror irodaviy akt, uzluksiz faollik, fidoiylik namunalari evaziga bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan amalga oshishi mumkin. Komil inson bo‘lib kamol topishni ezgu niyat qilgan bo‘lg‘usi mutaxassis ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviyat va qadriyatlarni egallash uchun hamda kelajak rivojini ta’minlash uchun talabalarda mustaqil fikrlashni, ijodiy izlanishni, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

#### **Nazorat savollari:**

1. Tafakkur turlarini aytib bering?
2. Tafakkur shakllarini tushuntirib bering?
3. Tafakkurni o‘rganishga nazariy va empirik yondashuvlarni taqqoslab bering?
4. Aqliy operatsiyalarning asosiy turlari ma’lumot bering?
5. Murakkab mantiqiy masalalarni yechish va ijodiy tafakkurni izohlang?



## 12-MAVZU. NUTQNING PSIXOLOGIK TASNIFI

*Tayanch tushunchalar: soʻz, nutq, til, belgilar tizimi, fiziognomik maska, diksiya, imo-ishora, mimika, pantomimika, aks sado, signifikatsiya, daktilogik (barmoq nutqi), ogʻzaki, yozma, monologik.*

### 12.1. Nutq toʻgʻrisida umumiy tushuncha. Tilning asosiy funksiyalari

Insoniyat taraqqiyoti tarixida til tufayli aks ettirishning imkoniyatlari qayta quriladi, olam odam miyasida yanada aniq, ravshan inʼikos ettiriladigan boʻladi. Tilning paydo boʻlish munosabati bilan har bir alohida shaxs jamiyatining ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida, jarayonida toʻplagan tajribalaridan foydalanish imkoniyati tugʻiladi. Til yordami bilan har bir inson shaxsan oʻzi hech qachon duch kelmagan notanish hodisalar, holatlar, vaziyatlar, sharoitlar yuzasidan bilim olishga erishadi. Xuddi shu boʻisda til odamga koʻpchilik hissiy va intellektual taʼsirlar hamda taassurotlar toʻgʻrisida oʻziga oʻzi hisobot berish imkoniyatini yaratadi. Inson til yordami bilan boshqa odamlarga oʻtmish, hozirgi zamon va kelajakka zid narsalar, voqelik yuzasidan axborot, xabar, maʼlumot berishi ularga ijtimoiy tajriba mohiyati, koʻnikma hamda malakalarni oʻtkazishi, uzatishi mumkin.

Maʼlumki, hayvonlar, jonivorlar oʻzlarining individual tajribalarini oʻz turkumidagi boshqa namoyandalarga oʻtkazishga yoki berishga mutlaqo qobil emaslar. Ular, ayniqsa, oʻz turkumlaridagi avlodning ilgarigi tajribalarini oʻzlashtirish qobiliyatiga ega emaslar, chunki mavjudotlar tugʻma irsiy belgilarga, instinktlarga va shartsiz reflekslarga asoslanadilar, xolos.

Odamdagi shaxsiy individual tajribaning umuminsoniy tajriba bilan bogʻliqligi kishilarda tilning mavjudligi bilan izohlanadi. Til oddiy qilib tushuntirilganda soʻz va belgilar sistemasi hamda majmuasidan iboratdir. Inson tomonidan u yoki bu faoliyatning bajarilishi belgilar, alomatlar xususiyatlari bilan bogʻliq boʻlib, uning mahsuldorligi, muvaffaqiyati til tarkiblarining ahamiyatiga bevosita aloqadordir. Masalan, haydovchi uchun koʻcha qoidalari, matematik uchun formulalar, operator uchun signallar (semiotika - yunoncha «belgi») belgilar, simvollar, alomatlar vazifasini bajarib, faoliyat uchun regulyator sifatida

xizmat qiladi.

Shuning uchun belgilar va ularning ahamiyati insonning yuksak psixik funksiyalari (ya'ni idrok, xotira, tafakkur, xayol)ning vositasidir. Odatda, belgilar turli-tuman bo'lishidan qat'iy nazar, ularning eng muhimi - bu so'zdir. Har bir so'z ma'lumot, xabar, axborot vazifasini bajaradi va muayyan mazmuni o'zida aks ettiradi (masalan: mashg'ulot, daftar, yomg'ir va boshqalar).

Tilning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

a) til yashashning vositasi, ijtimoiy tajribani avloddan avlodga uzatish, berish va o'zlashtirish quroli tarzida vujudga keladi (avlodlar ota-onalar, o'qituvchilar va murabbiylar);

b) til vosita yoki kommunikatsiya usuli, hatto odamlarning xatti-harakatlarini boshqaruvchi qurol sifatida namoyon bo'ladi (masalan: «Leksiya bo'lmaydi», «Bugun bayram» - ta'sir qilishdan, ta'sir o'tkazishdan iboratdir);

v) tilning muhim funksiyalaridan yana bittasi - intellektual faoliyatning quroli sifatida xizmat qilishdir (muammoli vaziyat mohiyatini tushunish, yechishni rejalashtirish, ijro etish, maqsad bilan solishtirish).

## **12.2.Nutq faoliyatining fiziologik mexanizmlari. Nutq rivojlanishi**

### **davrlari**

Odam hayvonot olamidan farqli o'laroq o'zi xoh amaliy, xoh aqliy harakat bo'lishidan qat'iy nazar, uni rejalashtira oladi. Faoliyatni bunday rejalashtirish yechimi uchun vosita qidirishning va umumiy fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli tildir. Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tilning eng asosiy funksiyasi - bu kommunikatsiyadir.

Nutq faoliyati - odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, avlodlarga berish (uzatish) yoki kommunikatsiya o'rnatish, o'z shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir.

Nutq faoliyati - odam tomonidan ijtimoiy - tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish o'z harakatlarini rejalashtirish

maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Nutq faoliyati aloqa jarayonining o'zidir. Nutq faoliyatining quyidagi turlari farqlanadi: faol va passiv nutq. So'zlovchining nutqi faol nutq. Tinglovchining nutqi passiv nutq hisoblanadi. Nutq ichki, tashqi nutqqa bo'linadi. Tashqi nutq - yozma va og'zaki nutqqa, og'zaki nutq esa monolog va dialogik nutqqa bo'linadi. Monolog - bir kishining o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqdir. Bu o'qituvchining bayoni, o'quvchining to'laroq javobi, ma'ruza va boshqalardir. Monologik nutq ma'lum qiyinchiliklarga ega. Monologda gapirayotgan kishi fikrlarning aniqligiga, grammatik qoidalarning saqlanishiga, logika va aytilayotgan fikrlarning izchilligiga e'tibor berish kerak.

Nutq axborot, xabar, ma'lumot va yangi bilim berish aqliy topshiriqlarni yechish faoliyatidan iboratdir. Agarda til aloqa vositasi (quroli) bo'lsa, nutq esa aynan o'sha jarayonning o'zidir.

Nutq faoliyatining fiziologik mexanizmlari. Nutqni idrok qilish oddiy reflektor faoliyatining qonunlari asosida sodir bo'lishi mumkin. Chunki uni yuzaga keltiruvchi stimullar birinchi signallar tipidagi qo'zg'atuvchilardan iboratdir (masalan: «Marsh», «Salom»).

Nutqni yuzaga kelishi va idrok qilinishidan inson «signallarning signali» (I.P.Pavlov) tarzidagi so'zlardan foydalanishi mumkin. Mazkur jarayon bosh miya katta yarim sharlarining po'stida amalga oshadi.

P.Broka (1861) miya po'stining ma'lum qismi (miya chap yarim shari peshana qismining pastki tomonidagi burmalarning orqa qismi) shikastlansa, bemorlarda nutq artikulyatsiyasining buzilishini kashf etgan va «so'z obrazlarini harakatlantiruvchi markaz» deb atagan.

K.Vernike (1874) bosh miya yarim sharlari peshana qismining tepa tomonida «so'zlarning sensor obrazlari» joylashgan deb dalillashga harakat qiladi.

P.K.Anoxin - nutq jarayonini ta'minlashda juda ham sodda elementar «stimul-reaksiya» tipidagi fiziologik mexanizm ham, nutq faoliyatining yuksak formalari uchun nutq vositasi bilan fikr bayon qilishning ichdan programmashtirish mexanizmlari uchun xarakterli va ierarxik tuzilishiga ega bo'lgan maxsus mexanizmlar ham qatnashadilar.

Nutq mexanizmlari (N.I.Jinkin).

Biron fikrni nutq vositasi yordami bilan bayon qilishdan oldin, maxsus kod orqali bu fikrning asosini tuzamiz - u programmalashtirish mexanizmidir.

Undan keyin rejalashtirishdan gapning grammatik tuzilishiga o'tish bilan bir guruh mexanizmlar keladi.

Esda olib qolishni so'zlarning grammatik xususiyatlarini amalda qo'llashni ta'minlovchi mexanizm.

Bir xil tipdagi tuzilishdan boshqa tipdagi tuzilishga o'tish mexanizmi.

Profamma elementlarini grammatik tuzilishga yoyish mexanizmi.

So'zni ma'nosiga qarab qidirishni ta'minlovchi mexanizmlar.

Sintagmalarni harakat jihatidan programmalashtiruvchi mexanizmlar.

Nutq tovushlarini tanlash va harakat programmasidan tovushlarni to'ldirishiga o'tish mexanizmlari.

Nutqni amalga oshirishni ta'minlovchi mexanizm. Tadqiqodchi A.R.Luriya nutqning afaziyasini tekshirib, ular quyidagi turlardan iborat ekanligini bayon qiladi: dinamik afaziya - gaplar yordami bilan so'zlash qobiliyatining buzilishi; efferent motor afaziyasi - gapning grammatik tuzilishi buzilishi; afferent motor afaziyasi - nutq artikulyatsiyasining buzilishi; semantik afaziya - gaplar o'rtasidagi bog'liqlikning buzilishi; sensor afaziya - so'zlarni idrok qilishning buzilishi.

### **Nutq rivojlanishi davrlari.**

1-davr - 2 oydan 11 oygacha.

2-davr - 11 oydan 19 oygacha.

3-davr - 19 oydan 3 yoshgacha.

### **Nutq rivojlanishi quyidagi xususiyatlarga ega:**

- a) gugulash;
- b) g'udurlanish (soxta so'zlar);
- c) paradigmatik fonetika (1,3-1,5 yoshgacha) - buvi, buva, o'tir,
- d) o'tirdi, o'tiradi;
- e) nutqning vaziyatbopligi (J.Piaje - situativ nutq);
- f) nutq egotsentrizmi (J.Piaje - egotsentrik nutq).

### **12.3. Nutqning rivojlanishi xususiyatlari. Nutq vujudga kelishining nazariyalari**

Psixologiya, psixofiziologiya, psixolingvistika fanlarida to'plangan nazariy va amaliy materiallar tahliliga ko'ra, akustik nutq signallari murakkab muvofiqlashgan harakatlarning natijasida namoyon bo'luvchi majmuaviy holatlarning birlashuvi nutq apparati deb ataladi.

Odatda, o'pka va nafas olish tana a'zolarining muskul harakatlari bosimning oshishini va havo oqimlarining (ichki va tashqi) nutq aktida artikulyatorlar qatnashishini uzluksiz ravishda ta'minlab turadi.

Akustik tebranishning qo'zg'atuvchi mexanizmlari tomoq faoliyati, shovqin va impulsiv, ya'ni ixtiyorsiz qo'zg'atish, tovushlarining paydo bo'lishi, havo oqimining (massasining) tor oralig'idan o'tishi, nutq aktining ayrim o'rinlari bilan uzviy aloqadordirlar. Akustika yunoncha - eshituv, tovush nazariyasi demakdir. Chastotali filtratsiya akustika manbasi bo'lib hisoblanadi. Nutq tovushlarning tavsifi:

Har qaysi tilda nutqning paydo bo'lishida cheklangan tana a'zolari harakati ishtirok etishi mumkin (artikulyar imo-ishoralar).

Artikulyar imo-ishora nutq apparatining xususiyati va holatiga mos tushadi va muayyan nutq tovushining paydo bo'lishga olib keladi.

Artikulyar imo-ishoralar tartib bilan birin-ketin amalga oshiriladi.

Nutqning xususiyatlari.

Matn -ma'no-fikr bildirish.

Ma'lumot (xabar, axborot) bayoni.

Og'zaki nutqda axborotning muayyan darajada yo'qolishi. U. Nutqning fonetik elementi.

Nutqni idrok qilish nazariyasi:

Shkalalashtirish.

Unutish.

Xalaqit beruvchi vaziyat va sharoitda idrok qilish: a) akustik, b) vizual, v)

taktil.

Dinamik spektogramma:

a) undosh,

b) unli.

Nutq faoliyati:

Anglash.

Anglash (tushunish).

Qayd qilish (fiksatsiya):

a) nazariy va amaliy axborotlar,


b) takroriy fikrlar,

v) diqqatni yo‘naltirish (soxta diqqat),

g) inson shaxsiyati (shaxs, motiv, motivatsiya, emotsiya, hissiyot, iroda: emotsional-motivatsion, shaxsiy, irodaviy, kognitiv, regulyativ va boshqalar).

Psixologiya fanida nutqqa va nutq faoliyatiga bag‘ishlangan bir talay ilmiy tadqiqot natijalari mavjud bo‘lsa-da, lekin bu borada umumiylik, tariflar birligi, uning evolyutsion va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotiga oid qarashlarda mohiyat hamda shakl jihatdan o‘xshashlik yo‘q. Nutqning neyropsixologik asoslari, mexanizmlari, artikulyatsion va fonetik apparatlari, psixolingvistik tuzilishi (fonema, fleksiya) to‘g‘risida ilmiy-amaliy xususiyatli umumlashmalar hamda umumlashmalar umumlashmasi ishlab chiqilmagan. Xuddi shu boisdan nutqning genezisi, uning filogenetik va ontogenetik xususiyatlari, paydo bo‘lishi, o‘sishi, o‘ziga xos tavsiflanishi, bosqichlari, fazalari, patologiyasi bo‘yicha xilma-xil yondashuvlar mavjuddir. Psixologlar tomonidan nutq psixologik muammo sifatida o‘rganilishi ham o‘ziga xoslik, uning qirralari, shakliy tuzilishi, mantiqan izchilligi, tasniflanishi mavjud bo‘lib, ilmiy talqinining tub mohiyati, bayoniyligi bilan o‘zaro tafovutlanadi. Yondashuvlar tahliliga to‘xtalishdan oldin nutqning psixologik tavsiflari yuzasidan mulohaza yuritish, uning tadbiiy jihatini qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

## Nutqning turlari



### 12.4. Nutqning anatomik tasviri. Nutqning funksional elementlari.

#### Nutqning ekvivalent blok sxemasi

Bizningcha, nutqning muayyan asoslarga suyangan holda noan'anaviy tasnifini berish uning qiymatini yanada oshiradi, inson - texnika munosabatini amaliy jihatdan namoyish qilgan bo'ladi (odatda, og'zaki va yozma turkumga ajratilar edi): verbal va noverbal.

Genetik kelib chiqish jihatidan noverbal nutq birlamchi hisoblanadi, chunki insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval tovushsiz, so'zsiz nutq turlarini paydo bo'lgan bo'lib, u o'z ichiga shaxs kamolotining yirik sanasini qamrab olgandir. Insoniyatda nutqning hozirgi zamon avlodiga xos artikulyatsion apparati paydo bo'lgunga qadar imo-ishora negiziga qurilgan. Ma'lumki, qadimgi ajdodlarimizning nutqi va nutq faoliyati hozirgi zamon kishilarida qanday funksiyani bajarayotgan bo'lsa, o'sha davrda ham xuddi shunday vazifani ijro etgan. U davrlarda axborotlar, ma'lumotlar ko'lami tor bo'lganligi tufayli insonlar noverbal nutqdan ko'p davrlar muvaffaqiyatli foydalanib kelganlar. Avlodlar tarbiyasi ma'lumotlar uzatish noverbal nutq orqali amalga oshirilgan, ijtimoiy va xususiy (shaxsiy) fikr uzatish hamda qabul qilish ana shu tariqa namoyon bo'lgan, tobora takomillashib borgan.

Noverbal nutq turini shartli ravishda quyidagi ko'rinishlarga ajratish mumkin:

Imo-ishora,

Mimika,  
Pantomimika,  
Exologik, ya'ni aks sado,  
Signifikatsiya,  
Daktilogik (barmoq nutqi).

Inson yer yuzasidan hayot va faoliyat ko'rsatish davrining dastlabki pallasida asosiy nutq turi sifatida imo-ishora alohida ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun etnik stereotiplar asosida muayyan kechinmalarni, ma'lum axborotlarni shaxslararo munosabat jarayonida uzatish va qabul qilishda ifodalanuvchi tovushsiz, lekin ma'noli, mazmunli nutq turi imo-ishorali nutq deyiladi. Masalan, o'zbeklarda fikrni tasdiqlash old tomonga bosh siltash bilan ifodalansa, xuddi shu ma'noni bulg'orlarda boshni sarak-sarak qilish anglatib keladi. Bir xalqda sanash boshmoldoqdan boshlansa, boshqasida jim-jiloqdan, birisida barmoqlar bukilsa, ikkinchisida unday qilinmaydi. Aksariyat hollarda imo-ishora his-tuyg'usiz namoyon bo'ladi va shaxslararo munosabatning tub ma'nodagi ham quroli, ham vositasi funksiyasini bajarib kelgan. Lekin uni his-tuyg'usiz deb nomlash ham ilmiy-amaliy qiymatini pasayishiga olib keladi, bu holat uning ijtimoiy funksiyasini o'zida aks ettiradi, shaxslararo munosabat mag'zini tashkil etib kelgan, ba'zida hozirgi zamonda ham undan keng ko'lamda foydalaniladi.

Yuz harakatlari (fizionomiya) yordamida insonni inson tomonidan idrok qilish, o'zgalar fikriga javob qaytarish, tana a'zolari rangining o'zgarishi hisobiga shaxslararo munosabatga kirishishda namoyon bo'luvchi noverbal nutq turiga mimika deyiladi. Tabassum, jilmayish, miyig'ida kulish, lab qisish va cho'chchaytirish, til chiqarish, qosh uchirish va suzish, xullas turli psixologik holatlarni, ayniqsa, hissiy kechinmalarni aks ettiruvchi kommunikativ, interaktiv, perseptiv xususiyatli nutq turi mimika bo'lib hisoblanadi. Mimika yordami bilan haqgo'ylik, quvlik, yoqtirish va yoqtirmaslik, samimiylik va ikkiyuzlamachilik, hasad, quvonch, qayg'u, baxtiyorlik singari yuksak tuyg'ular namoyish etiladi. Xush yoki noxush kechinmalar aks etilayotganligidan kelib chiqqan holda muomala jarayoni yoki qisqa muddatli, uzoq muddatli vaqt mezonini namoyon



qiladi, ayanch, baxt hislarini ifodalab keladi. U mono vaziyatni, diada, triada, poliada ko‘rinishidagi shaxslararo munosabat shakllarini yaqqol aks ettiradi, fikrni uzatish, qabul qilish, ta’sirlanish, ruhlanish kabi funksiyani bajaradi. Hayotiy tajribaning ko‘payishi bilan ichki kechinmalarni (interiorizatsiyalash) tashqi voqea hodisalarga almashtirish (eksteriorizatsiyalash) bilan yakunlanadi, ko‘pincha individual va ijtimoiy tarbiya vazifasini bajaradi.

Yuz harakatlari, tana a‘zolari, qaddi-qomat yordami bilan fikrlarni uzatish, syujetli qoidali, ma’noli, dramatik kechinmali noverbal nutq turiga pantomimika deb ataladi. O‘z mohiyati ko‘lami bilan mimikadan ustuvor xususiyatga ega bo‘lib, axborotlar, intim holatlar, murakkab kechinmalar yuzasidan o‘zgalarga ma’lumot uzatish tarzida hukm suradi. Insonda turmush tajribasi ortib borishi, kasbiy faoliyat mazmunini rollarga va syujetga asoslangan holda ssenariysini yaratish, vaziyatga qarab qisqa va uzoq muddatli informativ funktsiya bajaradi. Pantomimika yumor hissini, qo‘rqinch tuyg‘usini, zahmat obrazini, dahshat kechinmasini o‘zida aks ettirib, ko‘pincha kommunikativ funksiyani ijro qiladi, hissiy aloqa o‘rnatish orqali taassurotlar mukammalligi ta’minlanadi.

Tashqi ta’sirlanish va uning teskari aloqasi kulgida, ko‘z yoshlarida (xoh quvonchli, xoh qayg‘uli bo‘lishidan qat’iy nazar) ifodalanib, assotsiatsiyalarni jonlantiradi va ko‘lamini kengaytiradi. Pantomimika sahna harakatiga nisbatan qobil, iste’dodli, iqtidorli, salohiyat namunasini namoyish etib, maxsus qobiliyatli shaxslar tomonidan maqsadga muvofiq ravishda ijro qilinadi, lekin istisno tariqasida o‘qituvchilik faoliyatida ham unumli foydalaniladi. Yaqqol ruhiy hodisalar, holatlar, xususiyatlar, shaxsning fazilatlarini, pantomimika ijrosi davomida faoliyat subyekti tomonidan bajariladi.

Ayrim his-hayajonli shartli tovushlarda mujassamlashgan axborot uzatish va qabul qilish maqsadini amalga oshiruvchi, tabiiy to‘siqlarga urilib qaytuvchi aloqa vositasiga exologik yoki sado nutqi deyiladi. Exologik yoki aks sado nutq turi bir tomonlama aloqa (tog‘-inson, inson-jism) negizida vujudga keladi, ko‘pincha individual tovush harakati javob, masofa funksiyasini ijro etadi. Lekin aks sado orqali tog‘larda, qalin o‘rmonlarda ikki yoki undan ortiq kishilar o‘rtasida aloqa

quroli sifatida muayyan ahamiyat qozonadi. Fazoviy tasavvur qonuniyati asosida shaxslararo munosabat o'rnatiladi, ma'lum shartli belgilari o'zaro bilvosita muloqot vositasi rolini ijro qiladi. Ekstremal favquloddagi hodisalar yuz berishi jarayonida shartli tovushlardan tuzilgan aloqa usulidan foydalaniladi. Tovushlarning qaytishi fazoviy chamalash, muayyan mo'ljal olish uchun xizmat qiladi, qo'rqinch, hayajon, umid, ishonch tuyg'ularining aloqaga kirituvchi shaxslar ruhiy dunyosida mujassamlashishini ta'minlaydi.

Noverbal turkunga kiruvchi signifikatsiya boshqalardan o'z tuzilishi, mazmuni, shakli bilan keskin ajralib turadi. Aniq shartli alomatlar orqali muayyan mantiqiy yuklamani o'zida aks ettiruvchi kommunikativ xususiyatli noverbal nutq turi signifikatsiya deyiladi. U shartli belgilar, signallar, modellar shaklida ifodalanishi mumkin. Uzoq masofalarga xabar yoki ma'lumot uzatish va qabul qilish vositasi sifatida Morze alifbosi va shunga o'xshash «sun'iy til» nomi bilan mashhur kommunikativ manbalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Har bir «signal» o'z ko'lami, takrorlanish sur'ati, tembri, chastotasi bilan muayyan ma'lumot uzatish yoki qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, shartli alomatlar negizida mazmun yoki mohiyat yotadi («doza», «porsiya» deb nomlanadi). Morze alifbosi va shunga o'xshash hozirgi zamon aloqa qurilmalari qo'l yordami bilan (asbobni bosish orqali) xabar uzatishga yoki qabul qilishga mo'ljallangan. Hozirgi zamon ratsiyalari ham xuddi shunga o'xshash kommunikatsiya quroli vazifasini bajaradi.

Noverbal nutqning yana bir turi daktilogik (barmoq) nutq deb ataladi. Inson tana a'zolari, imo-ishoralar, mimika, xullas hissiyot yordami bilan muomala o'rnatishga qaratilgan aloqa vositasi daktilogik nutq deyiladi. So'z orqali ifodalanuvchi nutq mazmuni ma'noli qo'l, yuz harakatlariga, ayrim hayajonli sadoga, qahr-g'azab, iliq tabassum, qahqahaga ko'chiriladi. Harakatning takrorlanishi axborot mazmunini boyitadi, kuchaytiradi, ma'lumotlar uzluksizligini ta'minlab turadi. Umumbashariy xususiyatli nutq vositasi daktiologiya fani nomi bilan yuritiladi va maxsus o'qitish, o'rgatish orqali undan foydalanish ko'nikmasi hamda malakasi soqov yoki kar-soqov odamlarda shakllantiriladi. Hatto ularda savod chiqarish ham xuddi shu tamoyil negizida quriladi. Tabiat va jamiyatga

nisbatan munosabat, shaxslararo muomala, ma'lumot almashish shu nutq yordami bilan ifodalanadi.

Verbal nutq turkumini shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) og'zaki, 2) yozma, 3) monologik, 4) polilogik, 5) tashqi, 6) ichki, 7) ekspressiv, 8) impressiv, 9) lakonik (qatra, yig'iq), 10) epik (yoyiq), 11) affektiv (jaxd holatidagi).

### **12.5. Nutq tovushlarning tasnifi. Nutqning fonetik elementi**

Insonning ijtimoiy - tarixiy taraqqiyoti davri tahlil qilinganda genetik kelib chiqish jihatidan birlamchi qatorida og'zaki nutqni keltirish joiz. Og'zaki nutq noverbal turkumdan keyin paydo bo'lgan nutq turidan biri hisoblanadi va u shartli ravishda quyidagi nutq ko'rinishlarini qamrab oladi: monologik, dialogik, polilogik, tashqi, ichki, ekspressiv, impressiv, lakonik (yig'iq, qatra), affektiv (his-hayajon, jahl).

Pauza, mantiqiy urg'u, temp, tembr, chastota, ritmika va boshqa tashkiliy qismlar hamda mexanizmlarni o'zida mujassamlashtirgan, tilning barcha qoidalari, qonunlari, shartli belgilar sifatida xizmat qilishga asoslanuvchi nutq turi og'zaki nutq deb ataladi.

Noverbal nutq o'zining asosiy funksiyasini bajarib bo'lganidan so'ng (uning ma'lum tarkiblari faoliyat ko'rsatishda davom etib kelmoqda) axborot uzatish, tajribalarni egallash, insonni kamol toptirish va shunga o'xshagan vazifalar tabiiy ravishda og'zaki nutq zimmasiga yuklangan. Jarangli, jarangsiz faol, sust, his-hayajonli, monoton, yuksak sur'atli, shivirlash ko'rinishidagi og'zaki nutq xususiyatlari va qonuniyatlarini o'zida mukammallashtirgan holda aloqa quroli, vositasi tariqasida muomala tarkiblarini aks ettiradi. Kommunikativ xususiyatli axborotlar oddiy xabar, so'rov, undov ma'nosini anglatuvchi ma'lumotlar og'zaki nutqning murakkab hamda rang-barang tuzilishiga ega ekanligidan dalolat beradi. Og'zaki nutq shaxslararo munosabatning puxta negizini tashkil etib, maqsadga yo'naltirilgan yoki tasodifiy vaziyatlar mohiyatidan kelib chiqib, uzoq ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrida o'z ustuvorligini saqlab kelmoqda. Tilning

takomillashuvi bevosita og‘zaki (jonli tilda) nutqda namoyon bo‘ladi, iste‘molda eskirgan so‘zlar eski (arxe) tushunchalar, atamalarga aylanib boradi. Xuddi shu bois millatga xoslik mavjud bo‘lsa-da, lekin shaxslarni o‘zaro katta tarixiy davr ajratib tursa, u holda bir-birlarini to‘liq tushunish qiyinlashadi. Xuddi shunday holatni geografik muhit, hududiy farq, lahjalarga oidlik, shevalar, etnik alohidalik keltirib chiqaradi, ammo axborotlarni idrok qilish va tushunishdagi bunday qiyinchiliklarni adabiy til birligi bartaraf qiladi (Xorazm, Namangan shevasi va hokazo).

Og‘zaki nutq o‘zining jarangdorligi, ta‘sirchanligi, axborotlarni qabul qilishdagi qulayligi, uzatilishdagi ixchamligi, toliqishning oldini olish imkoniyati mavjudligi uning keng qirrali ekanligini bildiradi.

Og‘zaki nutqning dastlabki turidan biri - bu monologik nutqdir. Yakka shaxsning ichki kechinmalarini til mexanizmlariga asoslangan holda aks ettiruvchi, uning o‘ziga qaratilgan (egotsentrik), ta‘sirlanishini ifodalashga va axborot uzatishga mo‘ljallangan nutq turi monologik nutq deb ataladi. Unda shaxsiy his-tuyg‘ularning ichki va tashqi shakllari uyg‘unlashadi, shuningdek, o‘zgalar fikrini ifodali o‘qishda ham o‘z aksini topadi. Odatda, monologik nutqda fikrlar qisqartirilmaydi, mabodo bu qoida buzilsa, axborot ma‘nosini tushunish qiyinlashadi. His-hayajonning tashqi va ichki kechinmalari hamda ularning mexanizmlari aniq, ravon, izchil aks ettiriladi.

Diada shaklidagi munosabatlar negizida quriluvchi, ikki shaxs o‘rtasida namoyon bo‘luvchi, axborot uzatishga va qabul qilishga mo‘ljallangan nutq turi dialogik nutq deb ataladi. Uning monologik turidan farqli tomoni fikr mohiyati nutq faoliyati qatnashchilarida anglangandan keyin u yoki bu shaklda qisqartirish imkoniyatiga ega. Uning interaktiv tomoni ko‘pincha ustuvorlik qiladi, axborotlar qabul qilish va uzatish o‘zaro tushuncha asosiga quriladi, aks holda muomala maromi buziladi, o‘zaro fikr almashuv muddatdan oldin yakunlanadi.

Bir nechta kishilar bilan amalga oshirish mo‘ljallangan, triada va poliada negiziga quriluvchi, axborot uzatish va qabul qilishga yo‘naltirilgan, bahs tarkiblari ishtirok etuvchi og‘zaki nutq turiga polilogik nutq deyiladi. Muomalada muammo

mohiyati har qaysi qatnashchi tomonidan anglashilgandan so'ng uning tarkiblari qisqarishi mumkin, bu esa o'zaro tushunuvni osonlashtiradi. Mazkur nutq turida ham dialogik nutqqa xos bo'lgan mexanizmlar, ta'sir o'tkazuvchi vositalar ishtirok etib, uning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi, shaxslararo munosabat ko'lamini kengaytiradi.

Artikulyatsion apparat orqali vujudga keluvchi, verbal holatlarda aks etuvchi, o'zgalarga yo'naltirilgan, har xil xususiyatli vaziyatlarda namoyon bo'luvchi nutq turiga tashqi nutq deyiladi. Tilning barcha qoidalari va qonuniyatlari unda mujassamlashgan bo'lib, uzatish va qabul qilish, idrok etish va tushunishdan iborat muomala quroli, vositasi vazifasini ijro etadi. Nutq tempi, tembri, ritmikasi va chastotasi mavjudligi uchun axborotlarni tinglash va idrok qilish yengilroq kechadi.

Muayyan axborotlarni tartibga keltirish, g'oyalarni yaratish, fikriy dasturni ishlab chiqishga mo'ljallangan, lekin latent davridagi ma'lumotlar majmuasidan tuziluvchi nutq turi ichki nutq deyiladi. Ichki nutqning muhim xususiyatlaridan biri - bu ko'lam jihatdan tashqi nutqdan kengroq ekanligidir. Ikkinchi bir xususiyati esa tafakkurning mexanizmi funksiyasini bajarishdir.

Axborotlar ichki mohiyatini tashqi his-hayajon tarkiblari bilan kuchaytiruvchi, shaxslararo munosabatlarning yaqqol ifodalanishini aks ettiruvchi, ovozli, til vositalariga asoslanuvchi nutq turiga ekspressiv nutq deyiladi. O'zining tezkorligi va vaziyatbopligi bilan boshqa nutq turlaridan ajralib turadi.

Ichki kechinmalar shaxsiy fikrlash bilan uyg'unlashishi tufayli fikriy bog'lanishni vujudga keltiruvchi holatlar, hodisalar mohiyatini ichki va tashqi omillarga asoslanib aks ettiruvchi nutq turiga impressiv nutq deyiladi. Mulohazalar mohiyati shaxs kechinmalari bilan munosabatga kirishishi natijasida o'ziga xos voqelikni namoyish qiladi.

Turli omillar ta'sirida birdaniga vujudga keluvchi, jahlning mahsuli hisoblanmish, qisqa muddatli nutq turiga affektiv nutq deyiladi. Birdaniga suhbatdosh, raqib tomonga uzatiluvchi, o'ta ta'sirchan, xavfli, ruhiy nishon vazifasini bajaruvchi qisqa muddatli nutq affektiv deb nomlanib, zarbasi jihatidan

alternativi yoʻqligi bilan boshqa nutq turlaridan keskin ajralib turadi. Jahl, qasos, alam, tajovuz kechinmalarini oʻzida aks ettirib, oʻta tanglik, zoʻriqish (stress) mahsuli boʻlib hisoblanadi (jahl kelganda aql ketadi: hissiyot bilan emas, balki aql bilan ish tut).

Insoniyat tarixining sivilizatsiyalik bosqichiga oʻsib oʻtishi davridagi eʼtiborga yozma nutq paydo boʻla boshlagan va hozirgacha u oʻz rivojlanishida davom etmoqda. Tilning barcha qoidalariga (grafik, morfologik, sintaksistik, leksik, orfoepik, lingvistik, fonemetik, fleksiv va hokazo), qonuniyatlariga, mexanizmlariga (jonli ifodalarni mujassamlashtirgan holda) asoslangan tarzda, muayyan shartli alomatlar (grafiklar) yordamida shakl, tuzilishi, maʼno, mazmun va mohiyatni uzluksiz, tadrijiy ravishda axborotlarga aylantirib beruvchi nutq turi yozma nutq deyiladi.

Har bir tilning toʻla mohiyati yozma nutq orqali ifodalanadi, uzoq va yaqin masofalar uchun axborot (kommunikatsiya) vositasi (quroli) vazifasini bajaradi. Millat madaniyati, maʼnaviyati, fan va texnikasi, sanʼati va adabiyoti yozma nutq orqali uzatilib, millatlararo aloqa kanali funksiyasini ado etadi.

Yozma nutq oʻz navbatida quyidagi tarkiblardan tashkil topadi:

a) monologik (drama), b) dialogik (badiiy asar janrlarida), v) ichki, g) lakonik (yigʻiq, qatra), d) epik (yoyiq, yirik roman, qissa va boshqalar).

Yozma nutqning monologik va dialogik turlari badiiy asarlarda oʻz ifodasini topgan boʻlib, ogʻzaki nutqdagidan farqli oʻlaroq til boyliklariga bevosita asoslanadi. Yangiliklar yaratish, ijod qilish soʻzlar orqali mohiyat kasb etadi, u yoki bu shakldagi tartibga keltiriladi. Lakonik (yigʻiq, qatra) nutq ham ogʻzaki nutqdagiday maʼno kasb etadi. Epik (yoyiq) nutq yirik asarlar, monografiyalar mohiyatini toʻlaqonli aks ettirish bilan boshqa nutq turlaridan farqlanadi. Til mexanizmlaridan tashqari badiiy vositalar orqali inson ruhiyati tavsiflanadi.

Bizningcha, his-hayajonlar orqali ifodalanuvchi, muayyan axborotlarni oʻzida mujassamlashtiruvchi nutq turlarini quyidagi tiplarga shartli ravishda ajratish mumkin: ekspressiv, impressiv, affektiv, daktilogik va boshqalar.

Ularning psixologik mazmuni, mohiyati, xususiyatlari toʻgʻrisida yuqorida

mulohazalar bildirilganligi uchun qaytadan tahlil qilish, tavsiflashga hech qanday hojat yo'qdir. Lekin mazkur nutq turlari boshqa turkumlardan ham joy olishi mumkin. Biroq ilmiy jihatdan hech qanday qarama-qarshiliklar vujudga kelmaydi, aksincha, bir-birini to'ldirishda xizmat qiladi, xolos.

Nutq va nutq faoliyati yuzasidan bildirilgan mulohazalar, ilgari surilgan ayrim g'oyalar mutlaqlikka da'vo emas albatta, chunki ularning ko'pgina jihatlari, qirralari, mexanizmlari, qonuniyatlari, tavsiflari chuqurroq izlanishni talab qiladi, ayrim o'rinlarda ularning har birini eksperimental tadqiq etishni taqozo qiladi, yangi metodikalar, testlar, treninglar ishlab chiqishni izlanish predmetiga olib kiradi, amaliy va nazariy muammolar yechimini tezroq hal qilishga safarbar etadi, nutqning muomala jarayonidan kelib chiqib yondashish evaziga qiymatli materiallar to'plash mumkin hamda uning negizida har qaysi psixolog mutaxassisni notiqlik san'atiga o'rgatish kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga muhim hissa bo'lib qo'shiladi.

Dialogik nutqqa nisbatan monologik nutq kechroq shakllanadi. Maktabda o'quvchilarda monologik nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor berishlari kerak. Ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi nutq dialog deyiladi. Dialogik nutqda bayon qilinayotgan fikr ko'p jihatdan undan oldingi fikrga bog'liq bo'ladi. Dialogik nutqda suhbatdoshlarga ma'lum bo'lgan ayrim so'zlar tushirib qoldiriladi. Shuning uchun yozib olingan dialog boshqalarga unchalik tushunarli bo'lmasligi mumkin. Dialogik nutqda har xil turdagi shablonlar, ya'ni odatlanib qolgan so'z birikmasi ko'p uchraydi (qoyil, marhamat qilib aytingchi).

Nutqning ichki nutq deb atalgan turi nutq faoliyatining alohida turi hisoblanadi. Ichki nutq amaliy va nazariy faoliyatni rejalashtirish fazasi sifatida namoyon bo'ladi. Biz so'zni chala - yarim aytishimiz bilanoq tushunaveramiz. Ichki nutq ayrim og'zaki nutq aktlaridan yuksakroq, xususan ixtiyoriylik darajasi ancha yuksakroq bo'lgan og'zaki nutqdan yuksakroq sodir bo'lishi mumkin.

Yozma nutq monologik nutqning turlaridan biri bo'lib, yozma nutq monologik nutqqa nisbatan batafsilroqdir. Yozma nutq tufayli kishilar to'plagan tajribani avloddan avlodga eng yaxshi tarzda yetkazish imkoniyati bor. Yozma

nutq piktografiyadan minglab so'zlar bir necha o'nlab harflar yordamida ifoda etilayotgan hozirgi zamon yozuviga qadar rivojlandi. Ko'pincha bir narsani yozib qo'yish - bu uni anglab olish va eslab qolish demakdir.

Nutq mexanizmlari va nutqsiz kommunikatsiya. Nutq o'zining fiziologik negiziga ko'ra, eshitish va harakat analizatorlari faoliyatini bajaradi. Miya qobig'ida tashqi olam tomonidan bo'ladigan turli xil qo'zg'atuvchilar bilan so'zlarning talaffuz qilinishini boshqarib turadigan tovush paychalari, hiqildoq, til va boshqa a'zolar harakati o'rtasidagi muvaqqat bog'lanishlar o'rnatiladi. Nutq ikkinchi signallar tizimi negizida amal qiladi. So'z, I.P.Pavlov fikricha, "signallar signali"dir. Nutqni dasturlashtirish - nutqiy ifodaning, ya'ni kishi bildirmoqchi bo'lgan fikrning ma'naviy o'zagini tuzish - birinchi bosqich hisoblanadi. Ikkinchi bosqich - jumlaning sintaktik tarkibini tuzishdan iborat. Nihoyat, jumlani ovoz chiqarib ayta boshlaydi, ya'ni nutq real tarzda ro'yobga chiqadi. Shunday qilib, "gapirish" jarayoni boshlanadi. Bu jarayon davomida kommunikator uzatilishi lozim bo'lgan axborotni kodlashtiradi. Retsipient tinglash jarayonida olingan axborotning kodini ochadi. Bu kommunikator aytmoqchi bo'lgan so'zning anglab yetilishini ta'minlaydi.

Nutqiy fikr - mulohazani kodlashtirish va kodini ochish jarayonlari og'zaki muloqotda muvaffaqiyat keltiradigan aqliy markazlar va tizimlar saqlanib qolganda yuz beradi. Mabodo ushbu tizimlar ishida buzilishlar ro'y bersa, kishi nutqida turli xildagi buzilishlar - afaziyalar (so'zlashish va tushunish qobiliyatining yo'qotilishi) sodir bo'ladi.

XIX asrning o'rtalaridayoq olimlar miyaning ba'zi bir qismlari ishidagi buzilish nutqning buzilishiga olib kelishini kashf etgan edilar. Jumladan, P.Broka bemorlarda chap yarim sharning pastki peshona qismidagi burmalari orqali orqa tomonining uchdan bir ulushi shikastlangan holda so'zlarni talaffuz etishda buzilish ro'y berishini aniqladi. Keyinroq K. Vernike chap yarim sharning ustki chakka qismidagi burmalari orqa tomonining uchdan bir ulushi shikastlanganda so'zlarni tushunishning buzilishi hollarini tavsif qilgan yedi. Miya to'qimalarining ushbu qismlari harakatlantiruvchi nutq ("Broka markazi") va nutqni tushunish



(“Vernike markazi”) “markazlari” deb yuritila boshladi. Lekin keyinchalik, asosan psixofiziologlar (A.R.Luriya, N.A.Bernshteyn, P.K.Anoxin va boshqalar) ning ilmiy ishlari tufayli nutqning fiziologik negizi miyaning alohida qismlari (“Nutq markazlari”) faoliyatidan ko’ra ko’proq yaxlit holdagi miya faoliyatining murakkab tarzda tashkil topishidan iborat ekanligi aniq - ravshan bo’ldi. Shunday qilib, nutq funksiyalarining jo’shqin, ya’ni anatomik tarzda emas, balki harakatchan tarzda cheklanishi to’g’risidagi tasavvur tarkib topdiki, bu markaziy asab tizimining keng ravishda kompensatsiyalab turish imkoniyatlaridan foydalanishi munosabati bilan nutqning buzilishini to’g’rilashida juda katta ahamiyat kasb etadi.

Noverbal (nutqsiz) kommunikatsiya vositalariga yuz ifodasi, mimika, ohang, pauza, poza (holat), ko’z yosh, kulgu va boshqalar kiradi. Bu vositalar verbal kommunikatsiya - so’zni to’ldiradi, kuchaytiradi va ba’zan uning o’rnini bosadi. Bolgarlarda boshni qimirlatish yo’q degani, ruslarniki teskarisi bo’ladi. Turli yosh guruhlarida noverbal kommunikatsiya vositasi turlicha bo’ladi. Masalan, bolalar ko’pincha kattalarga ta’sir etish, ularga o’z xohish va kayfiyatlarini o’tkazishda yig’idan vosita sifatida foydalanadilar. Axborotni so’z bilan bayon etishning mazmuni va maqsadiga noverbal kommunikatsiya vositalarining mos kelishi muomala madaniyatining bir turidir.

O’rtog’ining boshiga tushgan kulfatdan xabar topib, unga hamdardlik bildirayotgan suhbatdoshi nutqsiz kommunikatsiya belgilarini ishlatadi: yuzlarini g’amgin tutadi, past ohangda, qo’llarini yuziga yo peshonasiga qo’ygan va boshini chayqagan holda chuqur xo’rsinib gapiradi va h.k.

Nutqsiz kommunikatsiyani amalga oshirish uchun turli xil yosh guruhlarida turlicha vositalar tanlanadi. Nutqsiz kommunikatsiyada qo’llanilayotgan vositalarning axborotni so’z bilan yetkazish maqsadlariga va mazmuniga muvofiqligi munosabat madaniyatining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Bunday muvofiqlik ham og’zaki va ham nutqsiz kommunikatsiya vositalari kasb faoliyatining quroli hisoblangan pedagog uchun juda muhimdir.

## 12.6. Nutqni idrok qilish nazariyasi. Nutq turlari

Kishi ehtiyojlari azaldan agar u boshqa odamlar bilan birgalikda harakat qilgan holda o'zaro munosabatga kirishgan taqdirdagina qondirilishi mumkin bo'lib kelgan. Bu hol subyektda uning uchun nima muhim va ahamiyatli ekanligini aytish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Bola aniq - ravshan nutqni egallay boshlaydi, birinchi yoshning oxiriga yetganda buning dastlabki belgilari paydo bo'ladi. Murakkab talaffuzni talab qilmaydigan va oson aytiladigan "o-pa", "buvi" kabi ohangdosh so'zlar jumlasidandir. Katta yoshdagilar bu hamohanglikni konkret shaxslarga-ona-ota-buviga bog'laydilar va bolaga ana shu ohangdosh so'zlarning uning yaqin atrofidagi konkret shaxslar bilan bog'lanishi qaror topishiga ("bu sening buving") yordamlashadilar. Bola so'zni talaffuz qilarkan, istaganiga erishishga – e'tibor qilishiga, erkatilishiga, o'yinchoq kabilarga erishishiga intiladi. So'z aloqa vositasiga aylanadi. Qo'llaniladigan so'zlar soni borgan sari to'xtovsiz orta boradi va 2 yoshda bolalarning so'z boyligi haddan ziyod kengayibgina qolmasdan, balki ularning grammatik shakllarini to'g'ri ishlatishi ham mumkin bo'lib qoladi, jumlar murakkablashib va uzunroq qilib tuzila boshlaydi. Bolaning tili maktab yoshigacha bo'lgan yillar davomida boyib boradi.

Maktabda o'qish, yozish, keyinroq esa til va adabiyot darslarida bolalarda muloqot vositasi sifatida tilga va munosabat jarayoni sifatida nutqqa ongli munosabat shakllantiriladi. Til o'qituvchi tomonidan maxsus uyushtirilgan tahlil predmetiga aylangan holda o'quvchilar oldida ijtimoiy jihatdan shakllangan qonunlar ta'siriga bo'ysunadigan murakkab belgilar tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda va o'quvchilarda nutqiy munosabatga kirishish malakasini hosil qilishda pedagogikaning roli kattadir. Bu o'rinda ham o'qituvchining erkin hamda aniq ravshan nutqi o'quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan hisoblanadi. Yuksak nutq madaniyati - o'qituvchi tomonidan vaqtdan oqilona foydalanishning muhim shartidir. Demak, nutq faoliyati turli davrlarda o'ziga xos shakllanib, takomillashib boradi.

Muloqot maqsadlari kishilarning birgalikdagi faoliyati ehtiyojlarini aks ettiradi. Bu hol quruq safstatabozlikning, ya'ni muloqotning, kommunikatsiya vositalarining birgina muloqot jarayonining o'zini hosil qilishdan iborat yagona maqsad yo'lida tuturuqsizlik bilan foydalanilishini mustasno etmaydi.

Kishilar muloqotga kirishar ekan, savol berish, buyruq, iltimos qilish, biror narsani tushuntirish bilan birga o'z oldiga boshqalarga ta'sir etish, shu narsani ularga tushuntirish maqsadini qo'yadi. Muloqotning maqsadi kishilarning birgalikdagi faoliyatiga ehtiyojini aks ettiradi. Bunda muloqot shaxslararo o'zaro ta'sir sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo'luvchi aloqa va o'zaro ta'sirlar yig'indisidir. Birgalikdagi faoliyat va muloqot ijtimoiy nazorat sharoitida ro'y beradi. Jamiyat ijtimoiy normalar sifatida maxsus xulq-atvor namunalari tuzilishini ishlab chiqqan. Ijtimoiy normalar ko'lami nihoyat keng-mehnat intizomi harbiy burch va vatanparvarlik xushmuomalalik qoidalari ana shular jumlasidandir. Ijtimoiy nazorat muloqotga kirishuvchilar bajaradigan rolning "repertuar"iga mos holda namoyon bo'ladi.

Psixologiyada "rol" deganda ijtimoiy (sotsial) mavqeni egallab turuvchi har bir kishidan atrofdagilar kutadigan, normativ tomonidan ma'qullangan xulq-atvor namunasi tushuniladi. (Yosh, mansab, jins va oiladagi, o'qituvchi va o'quvchi shifokor va bemor, katta kishi yoki bola, boshliq yoki xodim, ona yoki buvi, erkak yoki ayol, mehmon yoki mezbon rovida namoyon bo'lishi mumkin). O'z navbatida har bir rol o'ziga mos talablarga javob berishi kerak.

Bir kishi turli muloqot vazifalarida turli rollarni bajarishi mumkin. Masalan, xizmat joyida direktor, kasal bo'lsa vrach ko'rsatmalariga itoat etuvchi bemor, oilada keksa ota - onasining qobil farzandi, mehmondo'st oila boshlig'i bo'ladi. Turli rollarni bajaruvchi kishilarning o'zaro munosabati rolli kutishlari bilan boshqariladi. Xohlaydimi yoki yo'qmi atrofdagilar undan ma'lum namunaga mos keluvchi xulq - atvorni kutadilar. Agar rol yaxshi bajarilmasa ijtimoiy-nazorat tomonidan baholanadi, ozmi-ko'pmi cheklanishlar qilinadi.

Turli xil rollarni bajarayotgan kishilarning o'zaro birgalikdagi harakati rollar ehtimoli bilan boshqariladi. Rolning qanday bajarilishi sotsial nazorat ostida

bo'ladi, ijtimoiy jihatdan baholanadi, namunadan chetga chiqish esa qoralanadi. Jumladan, ota-onalar mehribon, xushmuomala, bolaning aybiga nisbatan shafqatliroq bo'lishlari kerak-bu rollar ehtimoliga mos bo'lib tushadi va ijtimoiy jihatdan ma'qullanadi. Ammo atrofdagilarga ota-onaning xushmuomalaligi haddan oshib ketayotgani sezilib turadi va qoralanadi. Vaqti kelganda ota-ona bolaga nisbatan qattiqqo'l, talabchan bo'lishlari lozim. Shunday qilib, o'zaro birgalikda harakat qilayotgan kishilar xulq-atvorining bir-birlaridan kutgan taxminlariga mosligi muloqot jarayonida muvaffaqiyatga erishishning zarur sharti hisoblanadi.

Kishining boshqalardan eshitishga yoki ularda ko'rishga tayyor bo'lgan narsani ulardan kutish mumkinligini bexato va aniq taxmin qilish qobiliyati, malakasi odob deyiladi. Odobsizlik-bu muloqot jarayonida muloqotga kirishganlarning o'zaro birgalikdagi harakatlarining izdan chiqishiga olib keladigan va ba'zan mojaroli vaziyatlarni vujudga keltiradigan darajada buzilishi demakdir. Odobsiz xulq-atvor nisbatan beg'araz tabiatga ega bo'ladi. Pedagogik odobning tegishli aloqa o'rnatish chog'ida tarbiyachiga inom etadigan imkoniyatlaridan foydalanish o'quvchining rivojlanishi uchun istiqbol yaratib bergan holda uning shaxsini shakllantirish jarayonini ancha qulay sharoitlarda amalga oshirish imkonini beradi.

Muloqotning bevosita muvaffaqiyatining sharti o'zaro ta'sir etuvchi kishilarning har biridan kutilayotgan harakatlarga mos keluvchi xulq - atvor namunasini qo'llanishidir. Kishining boshqalar undan nimani kutayotganini, nimani eshitishga va undan nimani ko'rishga tayyor ekanligini to'g'ri, aniq, xatosiz ko'chira olish qobiliyati takt deb ataladi.

O'qituvchi o'quvchilar jamoasi kishilardan tashkil topganligini unutmasligi har bir o'quvchi shaxsini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. O'quvchilar bilan psixologik aloqaning qisqa muddatga bo'lsada yo'qolishi, og'ir oqibatlarni vujudga keltiradi.

Bog'lanish (lotincha bo'lib, "yaqinlashish" degani ) -muloqotga kiruvchilar o'rtasida ikki tomonlama aloqa bo'lishini taqozo etadi. Bunga erishish va uni ko'ngildagidek rivojlantirish sharti munosabatga kirishuvchi shaxslarning o'zaro

bir-birlariga hurmati, ishonchidan iboratdir. Pedagog o'quv - tarbiya ishi jarayonida o'quvchilar bilan aloqa bog'larkan, ulardan o'qituvchi rolining o'zi taqozo etadigan darajada izzat-ikrom kutadi. Agar pedagog o'z tarbiyalanuvchilariga nisbatan ishonch va hurmat bilan munosabatda bo'lsa, u har qancha qattiqqo'l va talabchan bo'lgan taqdirda ham, uning eng arziyas tanbehlari ta'sirli bo'ladi. Talaba o'qituvchining so'zlarida o'ziga nisbatan hurmat-e'tiborni sezmasa, juda asosli va mantiqan to'g'ri pand - nasihatlarini ko'pincha loqayd qoldirishi mumkin.

#### **Nazorat savollari:**

1. Nutq haqidagi tushunchalarni izohlab bering?
2. Nutqning fiziologik asoslari sanab bering?
3. Nutqni o'rganishdagi nazariy yondashuvlarni aytib bering?
4. Nutqning turlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Insonda nutqning rivojlanishi qanday kechadi?

## 13 -MAVZU. EHTIYOJ VA QIZIQISHLARNING PSIXOLOGIK TASNIFI

*Tayanch tushunchalar: Ehtiyoj faollik qiziqish, qiziqish, individual, yakka shaxsga yo'naltirilgan, guruhiy, jamoaviy, hududiy, etnik, umumbashariy.*

### **13.1.Ehtiyoj to'g'risida umumiy tushuncha. Ehtiyojlar faollikning manbai sifatida**


Qiziqishning mazmun jihatidan hamda maqsad jihatidan farqlari. Ta'lim jarayoniga ijobiy qiziqishlarni hosil qilish ta'lim samaradorligi omili sifatida.

Inson bir davrning o'zida ham individuallik, ham ijtimoiylikni aks ettirgan bo'lganligi sababli uning ehtiyojlari shaxsiy va ijtimoiy xususiyatga egadir. Boshqacha so'z bilan aytganda, undagi tor ma'noli shaxsiy xususiyatga ega bo'lganday tuyg'u uyg'otuvchi (tabiat in'omiga aloqador) ehtiyojlarni qondirish jarayoni ham ijtimoiy hamkorlik faoliyatining mahsuli (dehqonlar, ishchilar, xodimlar va boshqa kasbdagi) odamlarning sa'y-harakati, hamkorlikdagi mehnatining moddiy tarzda ifodalanishidan foydalanishida aks etadi.

Ushbu masalaga boshqacha tarzda yondashilsa, unda o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy muhit negizida yaratilgan vositalar va usullardan foydalaniladi, natijada u yoki bu sharoitga nisbatan ehtiyoj his etadi. Masalan, yog'ochdan boltaga dasta yasash uchun unda xohish mavjudligining o'zi yetarli emas, balki bir qator shart-sharoitlar, dastgoh, duradgorlik asboblari bo'lishi lozim, uning sifatiga nisbatan ehtiyoj ham tug'iladi. Xuddi shu boisdan unda o'z xohish-istaklarini ro'yobga chiqaradigan talab bilan imkoniyatga qaratilgan ehtiyoj vujudga keladi. Insondagi tor ma'nodagi ehtiyojlar uning shaxsiy talablarini qondirish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik faoliyatida yuzaga keluvchi jamoaviy ehtiyojlar yakkaholligiga oid xususiyat kasb etadi. Aytaylik, ma'ruza o'qishga qilingan o'qituvchining mashg'ulotga puxta tayyorgarligi o'z predmetining o'ta fidoyisi ekanligi uchun emas, balki jamoa nufuziga dog'tushirmaslik mas'uliyati, ijtimoiy burch hissiga nisbatan ehtiyoj sezganligi tufayli amalga oshadi. Shaxsiy ehtiyoj guruhiy, jamoaviy munosabatlar uyg'unlashib ketganligi sababli o'zaro qorishiq xususiyatga ega bo'ladi. Har qanday individual

faoliyatga nisbatan ehtiyojning tug‘ilishi ijtimoiy alomat, umumiylik, hamkorlik xususiyatini kasb etib, faoliyatga yondashuvda yaqqahollik umumiylikni, umumiylik esa alohidalikni uzluksiz ravishda beto‘xtov aks ettirib turadi.

Tabiiy ehtiyojlarda inson faoliyatining faolligi, o‘z shaxsiy hayotini himoya qilish, o‘z avlodi hayotini saqlash, uni qo‘llab-quvvatlash uchun zaruriy shart-sharoitlarga tortilganlik, tobelik aks etadi. Tabiiy ehtiyojlar tarkibiga odamlarni ovqatlanish, tashnalikni qondirish, jinsiy moyillik, uxlash, issiq va sovuqdan asranish, musaffo havoga intilish, tana a‘zolariga dam berish kabilar kiradi.



Tabiiy ehtiyojlar uzoq vaqt davomida qondirilmasa, uning oqibatida inson halokatga mahkum bo‘ladi, o‘z sulolasi hayoti va faoliyatini xavf ostiga qoldiradi. Tabiiy ehtiyojlar insonda hayvonot ajdodlarnikiga va ibtidoiy jamoa a‘zolarinikiga o‘xshash bo‘lsa-da, lekin ular o‘zining psixologik mohiyatiga ko‘ra mavjudodlarnikidan ham sifat, ham miqdor jihatdan tafovutlanadi. Ehtiyojlarni qondirilish usullari, shakli, quroli tobora takomillashib borishdan tashqari, ularning mohiyati, mazmuni ham o‘zgarib bormoqda, misol uchun hozirgi zamon kishisi eramizdan oldingi ajdodlarimizga nisbatan boshqacha tarzda o‘z ehtiyojlarini

ro'yobga chiqaradi va ularni qondirishga intiladi. Uy ro'zg'or buyumlarining o'zgarishi ehtiyojlarini qondirish yo'llari takomillashuvidan darak beradi.

Shuning uchun insonlarning tabiiy ehtiyojlari ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega, chunki ular ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsulidan iboratdir. Inson faoliyatining faolligi insoniyat madaniyatini mahsuli bilan bog'liqligini ifodalab, madaniy ehtiyojlarni yuzaga keltiradi. Madaniy ehtiyojlar, madaniyat to'g'risida mulohaza yuritilganda uning ijtimoiy ildizlari kishilik tarixining dastlabki manbalari bilan uzviy bog'lanib ketishini ta'kidlab o'tish lozim. Lekin tabiiy ehtiyojlar madaniy ehtiyojlar bilan o'zaro uyg'unlashgan bo'lib, birinchisi ikkinchisini taqozo etadi, chunki ular biri-birining negizidan kelib chiqadi.

Psixologiya fanida ehtiyojlarni tasniflash ularni kelib chiqishi va o'z predmetining xususiyatiga binoan amalga oshiriladi. Odatda, o'zlarining kelib chiqishiga binoan ehtiyojlar tabiiy va madaniy turga ajratiladi.

Xuddi shu boisdan madaniy ehtiyojlar obyektiga tabiiy ehtiyojlarini qondiruvchi uy-ro'zg'or buyumlar, mehnat faoliyati orqali boshqa kishilar bilan bog'lanish vositalari, madaniy aloqalar o'rnatish usullari, shaxslararo muomalaga kirishish uslublari, ijtimoiy turmush zaruriyatiga aylangan narsalar, o'qish va tajriba orttirish yo'llari kiradi. Odatda, jamiyat ta'lim va tarbiya tizimini egallash, xalq an'analari, marosimlari, bayramlari, odatlari, rasm-rusumlari, xulq-atvor ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonida rang-barang madaniy ehtiyojlar vujudga keladi, yangicha ma'no kasb eta boshlaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, tabiiy ehtiyojlar qondirilmasa, ular insonni halokat yoqasiga yetaklaydi, biroq madaniy ehtiyojlarning qondirilmasligi unday oqibatlariga olib kelmaydi, ammo odamda madaniy fazilatlarining shakllanishiga putur yetkazadi, uning kamolotini sekinlashtiradi.

Shu narsani ta'kidlab o'tish joizki, madaniy ehtiyojlar o'zining darajasiga ko'ra, jamiyat tomonidan o'z a'zolari oldiga qo'yilayotgan talablar bilan bog'liqligiga binoan, ular o'zaro bir-birlaridan keskin tafovut qiladi. Masalan, hozirgi zamon yoshlarining bilim olishga nisbatan tinimsiz izlanishini, ya'ni bilim olish ehtiyojining mohiyatini eng so'nggi moda bo'yicha kiyinishga odatlangan



xuddi shu yoshdagi tengdoshining ehtiyojlarini bir xil mezon bilan o'lchash va baholash adolatdan emas. Chunki ehtiyojlarning mohiyatiga, ularni qondirish uchun amalga oshirish ko'zda tutilgan faoliyat natijasiga, ularning xususiyatiga ijtimoiy yoki individual yo'nalganligiga binoan, har qaysisi alohida-alohida baholanadi. Ijtimoiy jamiyat tomonidan o'z fuqarolari oldiga qo'yilayotgan talablariga, jamiyatning huquq asoslariga, xalq an'analariga, yurish-turish qoidalariga, ma'naviyat va qadriyat tizimiga, maslak va dunyoqarash mohiyatiga mos tushadigan ehtiyojlar yuksak onglilik, ijtimoiy faollik, ma'naviy kamolot uchun xizmat qiladi, jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri bo'lib madaniy ehtiyojlarni tug'ilish va ularni qondirilish darajasi va ma'naviyatni egallashdagi roli hisoblanadi.

### **13.2. Ehtiyojlarning turlari. Inson ehtiyojini rivojlanishi**

Psixologiya fanida ehtiyojlar o'z predmetining xususiyatiga ko'ra moddiy va ma'naviy turlarga ajratiladi, ularni keltirib chiqaruvchi mexanizmlar manbai turlicha ekanligi e'tirof etiladi.

Insonning ovqatlanish, kiyinish, uy-joyiga ega bo'lish, maishiy turmush ashylariga intilish, komfort hissini qondirish bilan bog'liq madaniyat predmetlariga nisbatan ehtiyoj sezish moddiy ehtiyojlar majmuasini yuzaga keltiradi. Ma'naviy madaniyatni yaratish va o'zlashtirish, shaxsning o'z fikr mulohazalari va his-tuyg'ulari bo'yicha boshqa odamlar bilan muomalaga kirishish hamda axborat almashtirish, badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan tanishish, mahalliy matbuotni o'qish, kino va teatr ko'rish, musiqa tinglash kabilarga ehtiyoj sezish, ya'ni ijtimoiy ong mahsuliga tobelik ma'naviy ehtiyojlar tizimini vujudga keltiradi.

Ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, vujudga kelgan ma'naviy ehtiyojlarni qondirish jarayoni moddiy ehtiyojlarning tarkibiga kiruvchi moddiy narsalar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, kitob, yozuv qog'ozi va boshqalar.

Ehtiyojlarning turlari haqida fikr bildirganda yana shu narsaga e'tibor berish kerakki, kelib chiqishiga binoan tabiiy turga taalluqli ehtiyoj o'z predmetiga ko'ra

moddiy guruhga, xuddi shu mezonlar bo'yicha bir davrning o'zida madaniy ehtiyojning moddiy yoki ma'naviy ehtiyoj turkumiga kiritish mumkin. Shu tariqa ehtiyojning kelib chiqishi va predmeti xususiyati bo'yicha ikki mezonga asoslanib muayyan guruhlarga ajratiladi. Inson ongining tarixiy taraqqiyotiga nisbatan va ehtiyojlarning obyektiga bo'lgan munosabatiga binoan, har xil tasniflanadi va xuddi shu mezonlarga ko'ra ular rang-barang turlarga ajratiladi. Ularning izchilligi, barqarorligi, doimiyliigi, ko'lami, ahamiyatliligi, predmetliligi, ijtimoiyligi, individualligi kabi xususiyatlari bilan o'zaro bir-biridan farqlanadi.


Ehtiyojlar inson faoliyati va xulq-atvor motivlari bilan jips aloqada bo'ladi.

Inson ehtiyojlarining rivojlanishi. Muayyan muhitda yashovchi hayvonning u yoki bu tarzda xatti-harakati aniq ehtiyojni qondirishga qaratilgan bo'ladi. Shu boisdan ehtiyoj hayvonni faollikka undash bilan cheklanib qolmasdan, balki faollikning turlari, shakli, harakatlantiruvchi kuchiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Hayvonda ovqatlanish ehtiyojini tug'ilishi unda faollikni vujudga keltiradi, natijada so'lak bezlari ishlay boshlaydi, o'lja qidirish, uni poylash, tutish va iste'mol qilish bilan bog'liq holatlar majmuasi yuzaga keladi. Mazkur jarayonlar shartli reflekslar, faollikni keltirib chiqaruvchi yangi qo'zg'ovchilar va unga muvofiq bo'lgan yangi harakatlar bilan bog'lanishi mumkin, biroq hayvon xatti-harakatining tuzilishida hech qanday o'zgarish yuz bermaydi. Jahon fiziologlari va psixologlari tomonidan hayvonlarda shartli reflekslarni shakllantirishga oid tajriba materiallarida ko'rsatilishicha, vosita sifatida foydalanilgan qo'ng'iroq chalinishi hayvon uchun tashqi qo'zg'atuvchilar ichidan faqat ovqatlanishga bog'liq signal (xabar) vazifasini bajaradi, xolos.

O'rgatilgan hayvon tomonidan tepkini bosish jarayoni unga ovqatni berilishi bilan aloqador xatti-harakat tarzida amalga oshiriladi. Shuning uchun hayvon har qanday murakkab shartli reflekslar yordami bilan o'z xatti-harakatini amalga oshirgan bo'lishiga qaramay, ehtiyojlar bevosita uning psixikasini aks ettirish muayyan obyektga yo'naltirish, xulqini idora qilish funksiyasini bajaradi. Chunki hayvon a'zolarining biologik-tabiiy ehtiyojlari psixik aks ettirish mazmuni va

sifatini, tashqi olam ta'siriga nisbatan javob sifatida paydo bo'luvchi xatti-harakatlarni muvofiqlashtirib turadi.

### A.Maslou bo'yicha ehtiyojlar ierarxiyasi.



Insonning faoliyati, xulq-atvori, xatti-harakati hayvonlarnikidan tubdan farq qiladi, ularni tarkib toptirish mutlaqo boshqa asosga quriladi. Misol uchun bolani ovqatlanishi, xatti-harakati, qoshiqdan foydalanish, maxsus ajratilgan joyda o'tirish, ovqat yeyish qurolini ishlata olish uning tabiiy ehtiyojlari tufayli yuzaga kelgan deb e'tirof etish haqiqatdan uzoq fikr, chunki uning negizida yotuvchi mexanizmlar siri tushuntirib berilmagan. O'z-o'zidan ma'lumki, tabiiy ehtiyojni qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi shart emas, insonda uyquga ehtiyoj tug'ilsa, u holda hech qanday yumshoq o'ringa, divanga talab sezilmaydi, charchagan odam duch kelgan joyda o'z ehtiyojini qondiraveradi. Madaniy xatti-harakatlar, odatlarning insonda vujudga kelishi ijtimoiy tarbiyaning ta'sirida tabiiy

ehtiyojlarni qondirishning vositasi, sharti sifatida gavdalanib, qurollar, buyumlar ularning tarkibiy qismiga aylana boshlaydi. Bunday xatti-harakatlar shaklini keltirib chiqaruvchi asosiy manba tub ma'nodagi ehtiyoj emas, balki uni qondirishning jamiyat taraqqiyoti talab qilgan qoidalari, usullari, kamolot taqozo etuvchi madaniy ko'nikmalar hisoblanadi. Jamiyatning taraqqiyot bosqichlariga binoan tabiiy ehtiyojlarni qondirishning yangidan-yangi, yanada takomillashgan vositalari insoniyat tomonidan yaratilaveriladi va bular ehtiyojlar tarkibi bilan qorishib ketadi. Madaniy va ma'naviy ehtiyojlar to'g'risida ham xuddi shu tarzda o'zgarishlar yuz beradi, shaxsning boshqa kishilar bilan muloqotga kirishishi, bilimlarni o'zlashtirishda texnik vositalardan foydalanishi, nutq va kiyinish madaniyatining o'sishi, ularni qondirishga nisbatan talab darajasining ortishi mazkur ehtiyojlar rivojlanishini ta'minlaydi.

Psixologiyada ehtiyojlar rivojlanishining bir necha bosqichlari mavjud ekanligini ta'kidlab o'tish zarur. Chunki ehtiyojlar inson ontogenezida paydo bo'lib, to umrining oxirigacha o'zgarib, takomillashib boradi. Kishilik jamiyatlarida ehtiyojlar bir-biridan ham mohiyat, ham shakl jihatidan tafovutga ega bo'lganiday, yosh davrlariga qarab, ular xuddi shunday mezonlar bo'yicha o'zaro farqlanadilar.

Bola faolligini rivojlantirishning dastlabki bosqichlaridayoq, biologik jihatdan ahamiyat kasb etuvchi buyumlar, jismlar ustuvorlik xususiyatiga ega bo'lmaydilar, aksincha ularning inson tomonidan foydalanish usullari ehtiyojlarning omillari tariqasida gavdalanadi. Binobarin, mazkur buyumlar, aslahalarning ijtimoiy tajribalarini egallashdagi ahamiyati, roli namoyon bo'lishning mexanizmlari sifatida maydonga keladi. Bolalarning xuddi shu yo'sinda egallaydigan xatti-harakatlarining yangi shakllari - bu jamiyat tomonidan ijtimoiy amaliyot vazifalariga munosib ravishda ishlab chiqilgan usullaridan iborat bo'lib, buyumlar bilan shaxsning munosabati tarzida yuzaga keladi, kishining kundalik faoliyati ichidan muhim joy egallaydi. Stol atrofida o'tirish, qoshiq bilan ovqat yeyish, krovatda uxlash, televizor tomosha qilish, o'yinchoq o'ynash, kattalar bilan muomala qilish yuqoridagi fikr mohiyatini yaqqollashtirishga yordam beradi.

Ehtiyojni qondirishning vositalaridan foydalanish qoidalari ijtimoiy muomala usullari, faoliyatni amalga oshirishning yo‘l-yo‘riqlari katta yoshdagi odamlar tomonidan yoshlarga o‘rgatiladi. O‘z ehtiyojlarini muayyan buyumlar vositasida qondirishga va ularni muayyan faoliyat turiga tatbiq etishning insoniy shakllarini egallashga o‘rgatish maxsus mashqlar orqali amalga oshirilib, «Yetuk shaxs - bola» tarzida yuzaga keladi. Demak, bola ehtiyoji qondirilayotgan insoniy shart-sharoitlar ta’siri ostida shaxsning xulq-atvori vositalar ahamiyati bilan emas, balki ularning ijtimoiy qiymati bilan belgilanadi. Ehtiyojlarning qondirilish darajasi, uning og‘ir yoki yengil ko‘chishi shaxsning shakllanishida muhim ahamiyatga ega, shu boisdan ularni qondirish maqsadga muvofiq, oqilona mezonlarga suyanib amalga oshirilsa ijtimoiy ahamiyati yanada ortadi.

### **13.3.Qiziqishning psixologik tasnifi. Psixologiyada qiziqishning turlari va darajalari**

Insonda madaniy va ma’naviy ehtiyojlar turmush tajribasi ortishi, bilim saviyasi kengayishi, maxsus mashqlar egallanishi, ijtimoiy hayot qoidalariga uzluksiz ravishda rioya qilishi, narsa va hodisalarga munosabati o‘zgarishi tufayli rivojlana boradi. Odam tobora barkamol bo‘la borishi uning oldiga yangicha talablar qo‘yadi ularni bajarish esa ehtiyojning yangi, nisbatan murakkab, mohiyat jihatdan teran xususiyat kasb etuvchi shakllarni vujudga keltiradi ularning qondirilishi esa tuzilishga ega bo‘lgan vositalarni taqozo etadi. Ma’lumotlilik aql-zakovat ko‘rsatkichining yuksalishi, iste’dod alomatlarining ro‘yobga chiqishi, faollikning ortishi, xatti-harakat tarkibida keraksiz bo‘g‘inlarning kamayish ehtiyoji takomillashgan shaklining namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Inson komfort sari intilar ekan, demakki, unda yangi ehtiyojlar yuzaga keladi, ularni qondirilishi esa yangi bir sifat darajasiga ko‘tariladi. Madaniyatning yangi qirralari ochilishi, ma’naviyatni egallashga nisbatan xohish-istakning kuchayishi, fan va texnikaning taraqqiyoti, millatlararo munosabatlar ko‘lamining kengayishi rang-barang ehtiyoj turlari va shakllari rivojlanishiga muhim shart-sharoitlar yaratadi. Insonning

barkamollik sari intilishdagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish orzusi ehtiyojlar rivojlanishi harakatlantiruvchi kuchga aylanadi.

Psixologiya fanida ehtiyoj quyidagi tiplarga ajratiladi:

Individual - yakka shaxsga yo'naltirilgan.

Guruhiy - real guruhlar moddiy va ma'naviy intilishi.

Jamoaviy - jipslashgan guruhlar talabi majmuasi.

Hududiy - etnik guruhning muayyan o'ziga xos talablari qondirilishi

Etnik - ma'lum millat yoki xalqlarning safarbarligini ta'minlash.

Umumbashariy - yer yuzi xalqlarining umumiy talablarining majmuaviy aks etishi.

Qiziqish shaxsning muhim psixologik jabhalaridan biri hisoblanib, unda insonning individual xususiyati bevosita mujassamlashadi. Qiziqish – insonlarning dunyoqarashi, e'tiqodlari, ideallari, ya'ni uning oliy maqsadlari, ezgu niyatlari, orzu-umidlari bilan bevosita muhim rol o'ynaydi hamda ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan holda o'zlashtirishda, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishga, bilim saviyasining kengayishiga yordam beradi.

Qiziqish motiv singari borliqning mo'jizakor tomonlarini bilishga, fan asoslarini egallashga faoliyatning turli-tuman shakllariga nisbatan ijodiy yondashishni vujudga keltiradi, mehnatga, ta'limga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishni shakllantiradi, har qaysi yakkahol (individual) shaxsda ishchanlik, g'ayrat-shijoat, yengilmas irodani tarkib toptirishga puxta psixologik shart-sharoitlar yaratadi.

Qiziqishning psixologik mohiyatidan kelib chiqqan holda yondashilganda, qiziqish insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro'yobga chiqarish manbai rolini bajaradi.

Jahon psixologiya fanining yirik namoyandalari shaxsning qiziqishini uning yaxlit ruhiy dunyosi bilan, binobarin, odamning aqliy faoliyati, bilish jarayonlari,

irodasi, xarakteri, temperamenti, hissiyoti, qobiliyati bilan, umuman olganda inson tuzilishining barcha qirralari bilan bog'liq tarzda tushuntirishga harakat qilganlar.

Hozirgi zamon psixologiyasida qiziqish obyektiv borliqning insonlar ongiga subyektiv tarzda aks etishlaridan biri sifatida tan olinadi. Qiziqish shaxsning muayyan voqelikdagi, ma'lum vaziyatdagi turli narsa va hodisalarga tanlab munosabatda bo'lishida, insonning o'ziga xos qaror qabul qilishida, o'zini o'zi nazorat eta bilishida, maqsadga intiluvchanligida, yuzaga kelgan obyektiv va subyektiv to'siqlarning yengishida ifodalanadi.

#### **13.4. Qiziqish muammosi psixologik nuqtai nazardan o'rganilishi**

Psixologiya fanining yirik namoyandalarining ta'limoticha, qiziqish odamlarning ehtiyojlari negizida yuzaga keladi, yaqqol ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitda, vaziyatda vujudga keladi, shakllanadi, barqarorlashib boradi hamda ularning shaxsiy turmush sharoitida va faoliyatida, ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashishi singari omillarda gavdalanadi. Umumiy talqinlarga asoslanib mulohaza bildirilganda, qiziqish alohida jarayon, ma'lum psixologik funktsiya emas, chunki u his-tuyg'u, iroda, ong, qolaversa, jamiki psixik holatlar, hodisalar va ichki kechinmalarning o'zida mujassamlashtirgan, murakkab tizimli ruhiy voqelikdir.

Qiziqishni psixologik mohiyatining dastlabki ko'rinishi - bu uni odamlar tomonidan anglab yetishi yoki tushunish imkoniyatidir. Shaxs qiziqish mahsulini, uning oqibatini anglash, tasavvur etish orqaligina obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarga ongli, tanlab munosabatlarda bo'ladi. Lekin bu voqelik (anglash, tushunish) insonda birdaniga sodir bo'lmaydi, balki muayyan vaqt davomida unda bilish jarayonlari, shaxsiy fazilatlar, individual-tipologik xususiyatlari rivojlanishi tufayli yuzaga keladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, qiziqishning psixologik mohiyati namoyon bo'lishida aqliy jarayonlar muhim rol o'ynashi hodisasi qayd qilinishi u faqat intellektdan tashkil topadi, degan ma'noni anglatmaydi, albatta. Xuddi shu boisdan, qiziqishni psixologik mohiyatining ikkinchi ko'rinishi - uning his tuyg'ular, emotsional holatlar bilan uyg'unlashgan, mujassamlashgan tarzda ifodalanishidir. Ma'lumki, his-tuyg'ular, shuningdek, emotsional holatlar

(emotsional ton, kayfiyat, shijoat, ehtiros va boshqalar) shaxsning borliqdagi aniq voqelikka, narsa va hodisalarga, muayyan faoliyatga nisbatan intilishni, sa'y-harakatlarni kuchaytiradi, jadallashtiradi, safarbarlikni obyektga yo'naltiradi. Inson o'z shaxsiy qiziqishini qondirgandan keyin unda yoqimli his-tuyg'ular uyg'onadi, ruhiy qoniqish esa o'z navbatida lazzatlanish (praksik) hisni vujudga keltiradi, buning natijasida frustratsiya (ruhi tushish) uning shaxsiyatini egallaydi.

Qiziqishni psixologik mohiyatining uchinchi ko'rinishi, uning iroda sifatleri bilan yoinki iroda akti bilan umumlashgan tarzda vujudga kelishidir. Irodaviy zo'r berish, muayyan qaror bo'yicha intilish, ba'zi qiyinchiliklarni yengish, mustaqillik namoyon qilish qiziqishni qaror toptiradi, shaxsni maqsad sari yetaklaydi.

Qiziqishni psixologik mohiyatining to'rtinchi ko'rinishi, uni oliy nerv faoliyati xususiyatlari va temperament tiplari bilan birga mujassamlashgan holda namoyon bo'lishidir.

Qiziqishning nerv-fiziologik mexanizmlari to'g'risida mulohaza yutilganda, dastavval rus olimi I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limotini ta'kidlab o'tish joiz. Uning «bu nima?» refleksi, ya'ni oriyentirovka (mo'ljal olish) refleksi qiziqishning moddiy negizini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

I.P.Pavlov va uning shogirdlaridan keyin P.K.Anoxin, N.A.Bernshteyn, B.M.Teplov, V.S.Merlin, V.D.Nebilisin va boshqalar insondagi qiziqishning nerv-fiziologik mexanizmlarini bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ida oriyentirovka refleksi negizida murakkab muvaqqat bog'lanishlarning vujudga kelishidir, degan yo'sinda talqin qilmoqdalar. Qiziqishning moddiy asoslari o'zaro induksiya qonuni, po'stloqdagi optimal qo'zg'alish o'chog'i va dinamik stereotiplar (I.P.Pavlov), dominanta (A.A.Uxtomskiy), oriyentir murakkab psixofiziologik hodisa ekanligi (Ye.N.Sokolov) va boshqalar bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi davrda qiziqish shaxsning individual-psixologik xususiyatidan iboratdir, degan xulosa odatiy narsaga aylanib qoldi. Shunga qaramasdan, ba'zi manbalarda qiziqish muayyan soha bo'yicha to'g'ri mo'ljal olishga, yangi omillar bilan tanishishga, voqelikni to'la va chuqur aks ettirishga yordam beradigan motivdir, degan ta'rifga ham egadir. Shunga mutanosib tarzda qiziqish bilish



jarayoni tusini kashf etadigan, ijobiy his-tuyg'ularda yo'naltirilgan obyekt bilan chuqurroq tanishishga, u haqda ko'proq ma'lumotga ega bo'lish, uning mohiyatini anglab yetishga nisbatan shaxsning istagida namoyon bo'ladi, qabilida mulohazalar hukm suradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, shaxsning ishtiyoqini qondirishga yo'naltirilganligini aks ettiruvchi qiziqishni qondirilishi, hech qachon uning so'nishini ifodalamaydi, aksincha, obyektning noma'lum qirralarini aniqlashga nisbatan intilish davom etaveradi. Shu bilan birga qiziqishlar bilishning, uning jarayonlari funksional holatining doimiy qo'zg'atuvchi mexanizmi sifatida vujudga keladi va aks ettirishda davom etadi.

Psixologiyada qiziqish mana bunday tiplarga ajratilishi mumkin: 1) mazmuniga ko'ra: shaxsiy va ijtimoiy; 2) maqsadiga binoan: bevosita va bilvosita; 3) ko'lamiga qaraganda: keng va tor; 4) qiziqishlar darajasi bo'yicha: barqaror va beqaror va boshqalar.

Qiziqishning mazmun jihatidan o'zaro tafovutlanishi quyidagilarda mujassamlashadi: bilish ehtiyojlarining obyektlari qaysilar, bilishning mazkur faoliyat maqsadi bilan mutanosibli, shaxsning yashayotgan muhitiga nisbatan munosabati kabilar. Shaxsda nimalarga nisbatan qiziqish uyg'onadi, uning bilish ehtiyojlari obyektining ijtimoiy qiymati qanday ahamiyat kasb etadi? Insonning shaxsiy qiziqishi kelib chiqishiga ko'ra birlamchi bo'lishiga qaramasdan, u bir davrning o'zida ijtimoiylik xususiyatini kasb etaveradi. Uning kasbiy faoliyatiga nisbatan qiziqishi oxir-oqibatda jamiyat uchun naf keltirishi, ravnaqi uchun qiymatlidir. Ijtimoiy xususiyatli qiziqishlarning paydo bo'lishi shaxsiy ahamiyat kasb etish sari yetaklashi muqarrar. Chunki umumiylik (ijtimoiylik) bilan xususiylik (shaxsga oidlik) uyg'unlashgan holda hukm suradi va ular bir bosqichdan boshqa bir bosqichga avtomatik ravishda o'taveradi yoki ular doimo o'rin almashtirib turishadi. Shaxs o'z qiziqishi tufayli biron-bir narsani kashf etsa, individual ehtiyojini qondiradi, shuningdek, jamiyat, jamoa uchun ishlab chiqarishni takomillashtirishga bu narsa xizmat qiladi. Shu boisdan jamiyatning, jamoaning eng dolzarb vazifalaridan biri yoshlarning mustaqil, faol bilishga,

ijtimoiy ahamiyatga moyillik mehnat faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'otishdan iboratdir. Toki ularda jiddiy, sermazmun, jamiyat tomonidan rag'batlantiriluvchi, mehr-muhabbatga sazovor qiziqishlar shakllansin.

Qiziqishning maqsad jihatidan farqi bevosita va bilvosita namoyon bo'ladigan qiziqishlarning mavjudligini aniqlaydi. Bevosita qiziqishlar voqelikning, jismlar va hodisalarning emotsional jozibaliligi, his-tuyg'ularga ega bo'lishligi, tashqi ta'sirlarga beriluvchanligi tufayli vujudga keladi. Bevosita qiziqishlar o'rganilayotgan narsaning ma'nosi bilan uning shaxs faoliyati uchun ahamiyati mos tushgan taqdirda paydo bo'lishi mumkin. Psixologiyada bevosita qiziqishning yuzaga kelishini faoliyatning maqsadini anglash bilan bog'liq bo'lgan bilishni ehtiyoj deb atash qabul qilingan. Mehnat va o'qish faoliyatida hamisha his-tuyg'uga, jozibaga tayanib ish tutish imkoniyati mavjud bo'lmasligi sababli jismoniy va aqliy mehnatni ongli idora qilishda muhim ahamiyat kasb etadigan bivosita qiziqishlarni tarkib toptirish masalasi ishlab chiqarish hamda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Shunday qilib, u yoki bu narsalarni (hodisalar mohiyatini) bilish, ko'rish, idrok qilish, anglab yetish uchun qiziqarli tuyulgan ichki kechinmalar bevosita qiziqishni aks ettiradi. Bilvosita qiziqishlar mehnat faoliyati yoki ta'lim olish jarayonining muayyan ijtimoiy ahamiyati bilan uning shaxs uchun subyektiv ahamiyati o'zaro mos tushganida bilvosita qiziqish yuzaga keladi. Binobarin, shaxs mazkur jarayonda bu narsalar meni qiziqtirgani uchun juda qiziqarlidir, degan xulosaga keladi. Mehnat faoliyati va ta'lim jarayonini ongli tashkil etishda yetakchi va ustuvor rol o'ynaydigan bilvosita qiziqishlarni tarkib toptirish uchun maxsus treninglarga, omilkor yo'l-yo'riqlarga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Odamlarning qiziqishlari o'zining ko'lami bilan bir-biridan farq qiladi. Shunday shaxslar toifasi ham mavjudki, ularning qiziqishlari faqat birgina sohaga qaratilgan bo'ladi. Boshqa bir toifaga taalluqli odamlarda esa qiziqishlar qator sohalarga, fanlarga, obyektarga yo'naltirilganligini uchratish mumkin. Lekin turli sohaga nisbatan qiziqishlarning biri ikkinchisiga salbiy ta'sir etishi mumkin emas, agarda ular oqilona boshqarish imkoniyatiga ega bo'lsa. Qiziqishning torligi

ko'pincha salbiy hodisa sifatida baholanishi mumkin, lekin ayni chog'da ularning kengligi ham nuqson tariqasida tahlil qilinsa bo'ladi. Biroq shaxsning barkamol shaxs bo'lib kamol topishi qiziqishlar ko'lamini tor emas, balki keng miqyosda bo'lishini taqozo etadi.

Qiziqishlar o'zlarining darajasiga qarab barqaror va beqaror turlarga ajratiladi. Barqaror qiziqishga ega bo'lgan shaxs uzoq vaqt davomida yoqtirgan predmetlariga, obyektlariga, hodisalarga nisbatan o'z maylini hech o'zgarishsiz saqlab tura oladi. Shu boisdan inson ehtiyojlarini o'zida mujassamlashtiruvchi, shaxsning ruhiy fazilatiga aylana boshlagan qiziqishlar barqaror qiziqishlar deyiladi. Barqaror qiziqish shaxs qobiliyatining rivojlanganligidan darak berishi mumkin. Ana shu nuqtai nazardan olib qaraganimizda, mazkur qiziqish tashxis qiluvchanlik xususiyatiga ega. Biroq insonlarda barqaror qiziqishning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash uchun ularning mehnat faoliyati va o'quv jarayonidagi qiziqishlarining tashqi ifodasini atroflicha o'rganishga to'g'ri keladi. Odatda, qiziqishning tashqi ifodasi shaxsning o'ziga o'zi baho berish, o'zini o'zi tahlil qilish faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Barqaror qiziqish to'g'risida mulohaza yuritilganda, uning boshqa tarkibiy qismlari va qirralarini hisobga olish lozim, chunki bu narsa ko'p jihatdan shaxsning irodaviy sifatlari, xarakterining vazminligiga bog'liq. Qiziqishning barqarorligi uning nisbatan jadal tarzda namoyon bo'lishi hamda uzoq davom etishi bilan ifodalanadi. Shaxsning zaruriy ehtiyojlarini yuksak darajada aks ettiradigan, shuningdek, uning psixologik tuzilishiga xos xislatlarga aylanib boradigan qiziqishlari barqaror qiziqish deyiladi. Barqaror qiziqish qobiliyatning bir ko'rinishiga o'xshash bo'lib, maqsadga yo'nalganligi bilan muhim ham individual, ham ijtimoiy ahamiyatga, qiymatga egadir.

Qiziqishlarning ba'zi holatlarda beqaror bo'lishligi insonlarning yosh, jins, tipologik xususiyatiga bog'liqdir. Bunday toifadagi odamlarda qiziqishlar g'oyatda ehtirosli kechadi, biroqqisqa muddatli bo'lishi mumkin. Masalan, bir vaqtning o'zida ular bir nechta fanlarga, tabiat hodisalariga qiziqadi, barcha narsaga ishtiyoq bilan kirishib, muammo mohiyatiga chuqur kirib bormasdan, boshqa holatlar bilan

mashg'ul bo'lib ketadilar. Unday xususiyatli shaxslar mashg'ulotlarga tez kirishadi va shunday yo'sinda so'nib turadi ham. Qiziqishlar salohiyatli voyaga yetgan odamlarning, yoshlarning o'z iste'dodlarini maqsadga yo'naltirgan tarzda amalga oshishini ta'minlaydi.

Shaxsdagi qiziqishlarni rivojlantirish va barqarorlashtirish uchun ularning negizini tashkil etadigan faoliyat bilan mashg'ul bo'lishga, maqsadga muvofiq ravishda shug'ullanishga, mayl uyg'otishga puxta zamin hozirlash zarur, toki qiziqishlar motiv, ehtiyoj, e'tiqod funksiyasini bajarishga aylansin.

Shunday qilib, qiziqishlar, shaxs faoliyati asoslarining tanho yo'nalishi emas, lekin uning eng muhim jihatidan iboratdir.

Psixologiya fanining so'nggi davrdagi ma'lumotlariga asoslangan holda qiziqishning bir nechta darajalarga ajratish mumkin: a) sinchkovlik, b) qiziquvchanlik, v) bilishga qiziqish, g) turg'un yoki kasbiy qiziqish. Sinchkovlik qiziqishning biror narsaga nisbatan kuchli intilishdan iborat qisqa muddatli turi yoki darajasidir. Qiziquvchanlik shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, ularning bilishga nisbatan faol munosabatidan iborat qiziqish darajasidir. Bilishga qiziqish anglashinilgan darajadagi, maqsadga muvofiqlashgan, jismoniy va aqliy faoliyatning yangi qirralarini egallashga yo'naltirilgan qiziqish turidir. Turg'un qiziqish shaxsning kasbiy ko'nikmalar, malakalar va bilimlarni egalashga yo'naltirilgan, kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan uyg'unlashgan, maqsadga erishish yo'lida faollik ko'rsatuvchi qiziqish turidir.

Shaxslar ixtiyoriga piktogramma, anagramma, turli xususiyatli testlarni havola qilish ularda qiziqishning ichki mexanizmlarini keltirib chiqaradi. Bu narsa o'z navbatida ularda o'z qiziqishini o'zi boshqarish ko'nikmasini shakllantiradi, har qanday qo'zg'aluvchiga javob berishdan iborat stereotip hosil bo'ladi.

Qiziqishning bu turi va uning yuqori bosqichi shaxsning voqelikdagi ichki bog'lanishlarni, munosabatlarni bilib olishga yo'llaydi hamda ruhiy to'siqlar va qiyinchiliklarni yengadigan, muvaffaqiyatsizliklardan cho'chimaydigan, qat'iyatlik, intiluvchan, toliqmas individual xususiyatni shakllantirishga yordam beradi. Odamlarda o'zini o'zi boshqarish, shaxsiy qiziqishini idora qilish, o'ziga

o‘zi buyruq berish, o‘zini qo‘lga olish, o‘zini o‘zi takomillashtirish singari shaxs xususiyatlarini shakllantirish ijtimoiy, tarixiy hamda ijtimoiy-psixologik ahamiyat kasb etadi.

**Nazorat savollari:**

1. Ehtiyoj to‘g‘risida umumiy tushuncha bering?
2. Ehtiyojlar faollikning manbai sifatida nimani tushunasiz?
3. Qiziqishning psixologik tasnifini ayting?
4. Psixologiyada qiziqishning turlari va darajalari qanday bo‘ladi?
5. Qiziqish muammosi psixologik nuqtai nazardan o‘rganilishi?

## 14 -MAVZU. SHAXSNING USTANOVKASI, E'TIQODI VA DUNYOQARASHI

*Tayanch tushunchalar: ustanovkasi, anglanilmagan mayllari, dispozitsion konsepsiyasi elementar ustanovka, ijtimoiy ustnovka, bazaviy ijtimoiy ustanovka, qadriyatlar tizimi, shaxsning e'tiqodi, shaxsning yo'nalganligi.*

### **14.1. Shaxsning ustanovkasi yoki anglanilmagan mayllari. Ijtimoiy turmushda shaxsning ustanovkasi masalasida D.N.Uznadze tadqiqotlari va natijalari**

Psixologiya fanida xulq-atvor va faoliyatga qaratilgan anglanilmagan mayllar orasida muayyan darajada tadqiq etilgani ustanovka (ko'rsatma berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish) muammosi hisoblanadi. Ushbu umumiy psixologik masala gruzin psixologi D.N.Uznadze va uning shogirdlari tomonidan keng ko'lamda o'rganilgandir.

Ustanovka inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida esa ko'rsatma berish, anglanilmagan mayllar, yo'l-yo'riq ko'rsatish ma'nosida qo'llanilib kelinadi. Lekin keyingi atamalar uning haqiqiy mohiyatini, ma'nosini o'zida mukammal aks ettirmaydi, shuning uchun termini hech o'zgarishsiz qoldirsa ham bo'ladi.

Odatda, ustanovka deganda, bilish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan ehtiyojni ma'lum uslubda qondirishga ruhiy jihatdan tayyor turishlik tushuniladi. Ustanovka shaxsning o'zi anglab yetmagan muayyan ruhiy holati yoki maylidir. Bunday holatda shaxs biron-bir ehtiyojni qondirish mumkin bo'lgan ma'lum faoliyatga nisbatan ruhan tayyor turadi. Ustanovkaning mavjudligi va uning qonuniyatlari eksperimental tarzda ta'kidlab o'tilgan ilmiy maktab namoyandalari tomonidan aniqlangan. Mazkur tajribada sinaluvchiga ikkita, bittasi katta, ikkinchisi esa kichikroq soqqachani uzluksiz ravishda bir nechta (10-15) marta ko'zi yumuq holda paypaslab taqqoslash taklif qilinadi. Eksperimentning navbatdagi bosqichida soqqachalar almashtirilib, baravar jismlar har xil tuyuladi, ya'ni sinaluvchida illyuziya (noto'g'ri aks ettirish) holati yuzaga keladi. Bunday psixologik voqeaning vujudga kelishiga asosiy sabab shuki, obyektiv jihatdan

o‘zaro teng soqqachalar taqqoslanganligida ular bir-biriga teng emas, degan mayl bilan favqulodda subyektiv sharoitda ish tutilganligidir. Ushbu holat oddiyroq qilib tushuntirilganda, taqqoslash jarayoni ustanovka (ko‘rsatma berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish) asosida amalga oshirilganligi uchun shunday oqibatga olib kelgandır.

D.N.Uznadzening ta’kidlashicha, insonda ustanovka bilan bog‘liq psixofiziologik holat markaziy nerv sistemasigina emas, balki uning periferik qismi faoliyatini ham mahsuli bo‘lib hisoblanadi. D.N.Uznadzening tajribalarida sinaluvchining o‘ng qo‘liga navbat bilan avval katta, keyin kichik soqqachalar berib turiladi va bu vaziyat 10-15 marta takrorlanadi. Tajribaning oxirgi bosqichida sinaluvchining chap qo‘liga bir-biriga teng soqqalar beriladi. Buning natijasida uning chap qo‘lida ham illyuziya, ya’ni noto‘g‘ri idrok qilish vujudga keladi. Ko‘z bilan idrok qilishda ikkita o‘zaro teng obyektlarni qayd qilishdagi ustanovka o‘ng ko‘zga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Eksperimental tarzda o‘rganilgan ustanovkali vaziyatlarni takrorlash evaziga insoning o‘ziga sezilmagan holda muayyan obyektlarda subyektga taalluqli «fiksial ustanovkalar» (qayd etilgan ustanovkalar) vujudga kelganligi aniqlangan. Demak, ustanovkani eksperimental tadqiqot etish natijasida anglanilmagan mayllar asta-sekin qayd qilinuvchi (fiksasion) darajasiga o‘sib o‘tish mumkin.

Ijtimoiy turmushda D.N.Uznadzening natijalariga o‘xshash qator ma’lumotlar shaxsda mustahkamlanib qolganligi tufayli ustanovka funksiyalarini bajarib kelmoqda: 1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining oldida turgan ustanovkalar xuddi shunday toifaga kirganligi sababli o‘qituvchining barcha topshiriqlarini darhol bajarishga tayyor turadilar; 2) hisobchilarga nisbatan qo‘rs, rasmiyatchi deyishlik; 3) olimlarga nisbatan parishonxotirlik; 4) savdo xodimlariga nisbatan uddaburonlik, daromad qilishga ustasi faranglik; 5) bolaning haqqo‘yligi, sir tutmasligi; 6) qariyaning so‘zi tugaguncha o‘salning joni uzilishi to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar ustanovkaga yaqqol misol bo‘la oladi.

## **14.2.Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari. Rus olimi V.A.Yadovning dispozitsion konsepsiyasi, unda ustanovkalarning to'rt bosqich va to'rt tizimli tavsifi**

Shuningdek, ba'zi jamoalarda, guruhlarda, oilalarda ustanovkaga asoslanish, ularga ishonch noxush oqibatlarga olib keladi. Avtoritar tafakkur, milliy stereotip, etnik rasm-rusumlar ham ustanovkaga misoldir. Davolovchi shifokorning ustanovkalariga bemorning rioya qilishi irqchilik munosabatlari, ilmiy unvonli ziyolilarga berilgan super (orttirma) baholar va boshqalar ustanovkaning anglanilmagan shaklini o'zida mujassamlashtiradi. Shuni ta'kidlash joizki, ba'zi hollarda shaxs uchun anglanilmagan ustanovka o'z pozitsiyasini aniq namoyish qilishda e'tiqod sifatida gavdalanadi, anglanilmagan omillar tariqasida aks etadi.

Gruzin psixologlari tomonidan ustanovkaning turlicha xislatlari (qo'zg'aluvchanlik, dinamiklik, statiklik, plastiklik-dag'allik, labillik-stabillik, irradiatsiya-generalizatsiya) va tiplari (diffuz, differensiallashgan, fiksatsiyalashgan) aniqlangan. Ularning fikricha, ustanovkaning ba'zi bir xislatlari mutanosibligi uning har xil tiplarini vujudga keltiradi. Psixoz va nevrozlar ustanovkaning patologik o'zgarishlarida o'z ifodasini topadi. Shuningdek, ustanovka inson hukmronligini va qudratini tashkillashtirishning yuksak darajasi sanaladi. U xulq-atvorining batartibli va izchilligining asosi hisoblanadi. Ularning mulohazalaricha, ustanovka insoning muayyan shaklda munosabat bildirishga yuksak yo'sinda umumlashgan tayyorgarlik holati, reaksiyaning yaqqol natijasining kodlashtirilgan neyrodinamik modeli, mazkur reaksiya vaqtini oldindan payqash, qolaversa, yaxlit faoliyat tuzilishining ajralmas jabhasi hisoblanadi. Shuning uchun ustanovka o'zgaruvchanlik va barqarorlik jips birligini aniqlashga xizmat qiladi. U o'zining o'zgaruvchanlik bilan munosabat bildirishi javob qaytarishning barqarorligini ta'minlaydi.



### **14.3.Elementar ustanovkalar, ijtimoiy ustanovkalar, bazaviy ijtimoiy ustanovkalar, qadriyatlar tizimi. Shaxsning e'tiqodi. Shaxsning yo'nalganligi**

Ustanovkaning yuksakroq bosqichi anglanish ko'rinishga ega bo'ladi. Guruhiy va jamoaviy munosabatlarda uning a'zolarini ishontirish (ularga ta'sir o'tkazish) orqali muayyan yo'nalishga safarbar qilish; fikrlarda umumiylikni vujudga keltirish holatlari bunga yorqin misoldir. Ishonish va ishontirish odamlarning xarakter xislatiga, xulq-atvoriga bevosita bog'liq. Bu holat psixologiyada eksperimental tarzda tadqiq etilgan. Masalan, sinaluvchilarga ma'lum vaqt oralig'ida soatiga qaramay, sekundlarini o'z ichida sanash orqali bir daqiqaning cho'zilishini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lganlar. Keyinchalik bu sanash signal berish bilan tekshirilib turilgan, ba'zan «yolg'on» signallar, ya'ni lampochka yonish bilan tajriba bo'linishga yo'l qo'yilgan. Qatnashchilarda eksperimentorga ishonch bo'lganligi sababli xatolarga yo'l qo'yishgan.

Ishonuvchanlikni aniqlashda «konformizm» (kelishuv, murosa-yu, madora)dan foydalanilgan. Ichki va tashqi kelishuvchanlik (konformizm), ichdan kelishmovchilik (nokonformizm) guruhiy ishonuvchanlik mohiyatini o'rganish uchun obyekt sifatida foydalanishgan. Bir guruh odamlarning ochiq ovoz berishi konformizmning namoyon bo'lishidir. Lekin konformizm «soxtalik»ni ham keltirib chiqarish mumkin, uning aks ettiruvchisi esa konformist deb ataladi, ko'pincha ideallardan voz kechish hollari ham uchrab turadi.


Xulq-atvor va faoliyatning anglanilmagan omillari qatoriga mayllar kiradi. Hali differensiyalashmagan, yetarli darajada anglanilmagan ehtiyojdan tashkil topgan xulq-atvor va faoliyatini amalga oshirishga undovchi omil mayl deb ataladi. Moyillik holatiga kirib borayotgan shaxs uchun jalb qilayotgan obyektida uni nima qiziqtirayotgani va qaysi alomat o'ziga tortayotgani sababi noaniqligi. Faoliyat maqsadi subyektiga noma'lumligi tufayli mayl hukm suradi. Bunday psixik holat insonlarda tez-tez uchrab tursa-da, lekin uzining tezkor o'tkinchligi bilan boshqa voqealardan ajralib turadi. Odatda, ushbu mohiyatli psixik holatni harakatlantiruvchi ehtiyoj so'nishi yoki tilakka aylantirish mumkin. Binobarin, u xohish, niyat, orzu, fantaziya kabi shakllarga aylantirish tufayli shaxs tomonidan

anglaniladi. Bunday shakldagi mayllarning odamlarda mavjud bo'lishi ularning yaqin va uzoq kelajakka intilishlaridan dalolat beradi.

Z.Freyd mayllarga nisbatan o'ziga xos nazariya yaratgan bo'lib, u aksariyat holatda jinsiy (instinktiv) mayllar to'grisida mulohaza yuritadi (libido - jinsiy mayl), «edip kompleks» («Shoh Edip» asari bo'yicha), «psixanaliz» atamalarini orqali qo'rqish, himoya, begonalashish singari instinktiv moyillikni talqin qiladi.

taqdirda shaxsning dunyoqarashi sifatida talqin qilinishi maqsadga muvofiq.

### **Shaxsning yo'nalganligining asosiy shakllari.**



Shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, har qanday anglanilmagan mayllar o'zidan o'zi yo'qolib ketmaydi, balki ular bir bosqichdan, ko'rinishdan ikkinchi turga, shakllarga almashadi, mutlaqo boshqacha yangi sifatga ega bo'ladi. Ular

maqsadga, talabga o'sib o'tishi bilan anglanilganlik darajasiga erishadi. Ko'ngil g'ashlik, ruhan bezovtalanish, noma'lum xatti-harakatlar sababi insonga noma'lum bo'lsa, ular anglanilmagan darajada ekanligini bildiradi va mayl funksiyasini bajaradi.

Jahon psixologiyasi ma'lumotlarining ko'rsatishicha, xulq-atvorning muhim motivlaridan biri bo'lib e'tiqod hisoblanadi. Ba'zi manbalarda unga mana bunday ta'rif berilgan: e'tiqod - shaxsni o'z qarashlariga, prinsiplariga, dunyoqarashiga muvofiq tarzda qarorga kelishga undaydigan muhim motivlar tizimidir. Boshqa so'z bilan aytganda, e'tiqod shaklida namoyon bo'ladigan ehtiyojlarning mazmuni - bu tabiat, tevarak-atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar va ularning muayyan tarzda tushunilish demakdir. Bu bilimlar falsafiy, estetik, tabiiy-ilmiy nuqtai nazardan tartibga solinsa va ichki uyushgan tizimi tashkil etilsa, u

#### **14.4. Yo'nalganlikning eng muhim tarkibiy qismlari. Dunyoqarashni tarkib topishi va rivojlanishi**

Psixologiya fani dunyoqarashning shakllanish jarayonini tadqiqot qiladi, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot hodisalarining to'g'ri baholanishini, evolyutsion yo'sinda tarkib topishini, axloqiy prinsiplar, didlar yuz berishini, tabiat hodisalariga va jamiyatning qonuniyatlariga nisbatan qarashlarning shakllanishi qay tariqa yuz berishini va boshqalarni aniqlaydi.

Ijtimoiy ustanovka shaxs xulq-atvorining ichki, anglanmagan yoki qisman anglangan motivlariga kiradi. Masalan, bir kishiga badiiy adabiyotdan aynan bir guruh asarlar guruhi yoki shu adib yoqishini tushunmaydi. O'sha guruhdan yangi bir kitob kitob qo'lga kirganda u albatta yoqishi kerak degan tasavvurda bo'ladi shu manoda olib qaralganda ijtimoiy ustanovka shaxsdagi anglanmagan munosabatlarga o'xshaydi. Lekin aslida uning tabiati juda murakkabdir. Chunki ijtimoiy ustanovka tushunchasida munosabatlar ham, shaxsiy ma'no ham, baholar sistemasi ham, bilimlar ham o'z ifodasini topadi. Ya'ni ijtimoiy ustanovka shaxsning turli ijtimoiy obyektlarga nisbatan munosabat bildirishining ichki

mexanizmidir, shu obyektlar bilan ishlashga, ularni baholashga hamda ma'lum tarzda idrok qilishga tayorgarlik holatidir.

Ijtimoiy ustanovka muammosi G'arbda, ayniqsa, Amerika Qo'shma Shtatlarida har taraflama chuqur o'rganilgan muammolardan hisoblanadi. Amerikalik olimlar uning shaxsning avvalgi hayotiy tajribasiga, undagi ijtimoiy tasavvurlariga bog'liqligini o'rganib, shaxs xulq atvorini turli sharoitlarda boshqaruvchi mexanizm ekanligini isbot qildilar. (U.Tomas, F.Znanetskiy, G.Olport, M.Smit, K.Xovland, Laper, D.Kats, N.Rokich va boshqalar) ular ijtimoiy ustanovkani bir so'z bilan -"attityud"so'zi bilan ifodalaydilar. 1942 yildayoq M.Smit attityudning uch komponentli strukturasi ishlab chiqqan. Bunga ko'ra attityudda uchs qism bo'lib, bo'lar kognitiv qism, affektiv qism hamda kognativ qismlardir. Kognativ qism - bu shaxsdagi attityud obyektiga nisbatan bilimlar, uning odam tomonidan anglanishidir. Bunga shaxsdagi bilimlardan tashqari g'oyalar, tassavvurlar printsiplar va hokazolar kiradi. Attityudning affektiv qismi - bu o'sha obyektni hissiy emotsional baholash bo'lib, yoqtirish yoki yoqtirmaslik tarzidagi hissiyotlar kiradi. Kognativ qismi yoki xulq-atvor bilan bog'liq qismiga esa obyektga nisbatan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, aynan xulq-atvor kiradi. Lekin ba'zi olimlarda ustanovkaning aynan obyektga yoki vaziyatga nisbatan bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumotlar ham bor edi.

Xususan, Laperning 1934 yilda o'tkazgan mashhur eksperimenti bunga misol bo'lishi mumkin. Eksperimentning mazmuni quyidagicha edi. Laper ikkita xitoylik talabalar bilan AQSh bo'ylab sayohatga chiqadi. Ular hammasi bo'lib 252 ta mehmonxonada bo'lishib, ularning deyarli barchasida (bittasidan tashqari) iliq, samimiy munosabatning guvohi bo'lishadi. Ma'lumki, o'sha paytlarda irqiy belgi bo'yicha odamlarga tanlab munosabatda bo'lishar, xitoyliklar ham sariq tanlilar sifatida kamsitilardi. Laper bilan hamroh bo'lgan talabalarga munosabat bilan olimga bo'lgan munosabat o'rtasida deyarli farq sezilmadi.

Sayohat tugagach, Laper o'sha barcha mehmon egalariga minnatdorlik xati yozib, yana o'sha talabalar bilan borsa, yana o'shanday iliq kutib olishlari mumkinligini so'radi. Javob faqat 128 ta mehmonxona egalaridan keldi, ularning

ham bittasi ijobiy javob, 58 da rad javobi, qolganlarida turlicha formalarida noaniq javoblar olindi. Bundan Laper shunday xulosaga keldi: demak, xitoy millatiga mansub shaxslarga nisbatan ustanovka bilan mehmonxona egalarining real xulq-atvorlari o'rtasida farq bo'lib, aslida ustanovka salbiy ekanligi, vaziyatga qarab esa, u boshqacha-ijobiy namoyon bo'lganligi aniqlandi.

Ijtimoiy ustanovkalarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlardan yana biri uning uzoq muddatli xotira bilan bog'liqligidir. Ayni vaziyatga shakllangan obrazlar uzoq muddatli xotirada saqlanib, u yoki bu vaziyatda aktuallashadi, ya'ni "jonlanadi". Masalan, ba'zi bir etnik stereotiplar ana shunday xotira obrazlaridandir. Demak, ijtimoiy ustanovka obyektga hamda konkret vaziyatga bog'liqdir.

Shakllangan ijtimoiy ustanovkaning hayot mobaynida o'zgarishi mumkinligi muhim ijtimoiy psixologik ahamiyatga egadir. Amerikalik olim Xovlant fikricha, ijtimoiy ustanovka o'rgatish yo'li bilan o'zgarishi mumkin. Ya'ni o'quvchilardagi turli ustanovkalarni o'zgartirish uchun rag'batlantirish yoki jazolash sistemasini o'zgartirish lozimdir. Ikki shaxs yoki shaxs bilan guruhning ustanovkalari mos kelmay qolgan sharoitda esa tomonlardan biri ongli ravishda o'z ustanovkalarini o'zgartirishi shartdir. Aks holda nomutanosiblik prinsipiga ko'ra shaxslararo nizo yoki kelishmovchilik paydo bo'lishi muqarrardir.

### **Nazorat savollari:**

1. Shaxsning ustanovkasi yoki anglanilmagan mayllari deganda nimani tushunasiz?
2. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalarini sanab bering?
3. Shaxsning e'tiqodi nima?
4. Shaxsning yo'nalganligi izohlang?
5. Yo'nalganlikning eng muhim tarkibiy qismlari sanab bering?
6. Dunyoqarashning tarkib topishi va rivojlanishi haqida aytib bering?

## 15 -MAVZU. MOTIV VA MOTIVATSIYA

*Tayanch tushunchalar: motiv, motivatsiya, moyillik, yo'naltirish, ehtiyoj, imkoniyat, ideallik, intilish, raqobat, motiv klassifikatsiyasi*

### 15.1.Motivatsiya. Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan berilgan ta'riflar

Motivatsiya – inson xulq-atvori, uning bog'lanishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi.

Ijtimoiy psixologlarining ijtimoiy psixik hodisalarni: hislarni, kayfiyatlarni, faoliyat motivlarini va boshqalarni o'rganishdagi asosiy vazifasi va bu hodisalarning paydo bo'lish va shakllanish qonunlarining, obyektiv omillarining, ijtimoiy-iqtisodiy tabiatini tahlil qilishdan iborat bo'lmog'i kerak.

Motiv va motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida turli-tuman nuqtai nazardan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda o'ziga xos psixologik maktablar vujudga kelgan bo'lib, ularning negizida ilmiy pozitsiyalar va konsepsiyalar mohiyati jihatdan farqlanuvchi g'oyalar va yo'nalishlar mujassamlashdi. Hozir ularning ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Rus psixologiyasi namoyandalari K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, V.N.Myasishev, A.A.Uxtomskiy, D.N.Uznadze, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.Yakobson, V.S.Merlin, L.I.Bojovich, V.I.Selivanov, V.G.Aseyev va boshqalar mazkur muammo yuzasidan tadqiqot ishlari olib borganlar. Ushbu mualliflarning qarashlari oldingi hisobotda berilganligi uchun ularga qaytadan to'xtalishga hojat yo'qdir.

Yuqoridagilardan tashqari Yevropa va Amerika mamlakatlarida motivatsiyaga oid 30 (o'ttiz)dan ortiq ilmiy konsepsiyalar mavjuddir. Ana shu psixologik maktablarning ayrim namoyandalarning tadqiqotlari yuzasidan mulohaza yuritishga harakat qilamiz: interespektiv psixologiya, bixeviorizm, geshtalpsixologiya, psixoanaliz, strukturaviy psixologiya, assotsianistik

psixologiya, empirik psixologiya, analitik psixologiya, gumanistik psixologiya, antropologik psixologiya va hokazolar.

Bixeviorizmning asoschisi Dj.Uotson (1878-1938) psixologiya faninig bosh vazifasi xulqni tadqiq etishdan iborat deb tushunadi. U psixik hodisalardan mutlaqo voz kechib, xulqni ikki shaklga, ya'ni ichki va tashqiga ajratadi, ular o'zaro javoblar stimuli bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bixeviorizm uchun «xulq» asosiy tushunchaga aylanib, uning psixikasi bilan aloqasi chetlab o'tilgandir. Shunga qaramasdan, ba'zi bixevioristlar, jumladan, E.Torndayk, E.Tolmen, K.Xall, D.Xebb kabilar xulq motivatsiyasiga muayyan darajada e'tibor qilganlar. Ular o'zlarining izlanishlarida xulq motivatsiyasining «quyi darajalari»ni o'rganib, kalamushlarda tajriba ishlarini olib borib, jonivorda ochlik, tashnalik va ularning turlicha darajalarini reaksiya tezligiga nisbatan namoyon bo'lish xususiyati, har xil sharoitda motivatsiyaning kuchi to'g'risida muayyan qonuniyatlar ochishga intilganlar. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo'zg'atuvchi sifatida talqin qiladilar va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar. Neobixevioristik nazariyalar yangi qo'zg'atuvchilar paydo bo'lishiga asoslangan bo'lib, ular insonning organik ehtiyojlarini qoniqtirish bilan stimul natijasining uyg'unlashuvi tariqasida tahlil etiladi. Ularning ta'kidlashiga ko'ra, ikkilamchi qo'zg'ovchilar organik qo'zg'atuvchilarning go'yoki qobig'iga o'xshaydi, xolos. Vilyam Makdugall (1871-1938) motivatsiyaning irsiy (tabiatdan beriladigan) xususiyatga ega degan holatni asoslash uchun tug'ma instinktlar masalalari bilan mazkur voqelikni bog'lab tushuntirishga harakat qilgan. Uning fikricha, tug'ma instinktlar ham insonlarga, ham hayvonlarga bir tekis taalluqli bo'lib, ular odamlarning motivida oldin 14 ta, keyinchalik esa 18 tagacha «asosiy instinktlar» sifatida hukm surishi mumkin. Umuman olib qaraganda, bixevioristlar uchun bir qator holatlar o'ziga xoslikka ega:

Bixeviorizm motivatsiya modelini topish bilan shug'ullanib va xulq prinsiplarini vujudga keltira borib, hayvon xulqi hamda ularda kashf etilgan xulq motivatsiyasi qonuniyatlariga asoslanib, insonning xulq motivatsiyasi yuzasidan

xulosa chiqarishga harakat qiladi. Bixeviorizm insonni biologik mavjudod sifatida qarab, unga biologik jabhada yondashadi, oqibat natijada uning ijtimoiy mohiyati tadqiqot predmetidan chetda qolib ketadi. Bixeviorizm ham insonga, ham hayvonlarga xos bo'lgan xulqing umumiy prinsiplarini topishga intiladi.

Bixevioristlar insonni shaxs sifatida taraqqiy etish jarayonini ifodalovchi o'ziga xosligini yo chetlab o'tadilar yoki o'ta sodda tarzda izohlashga moyildirlar.

Hayvonlarning xulq motivatsiyasi shakllarini juda sodda tarzda tushuntirishga asosan tadqiqot natijalarini insonning murakkab va boshqa bir sifat bosqichidagi motivatsiyasiga ko'chirish ishonchli dalillarga ega emas.

Inson motivatsiyasini o'rganishda foydalanilayotgan bixeviorizmning tushunchalari, chunonchi, birlamchi mayllar, organizmni qitiqlovchi tug'ma ehtiyojlar kabilar odamning motivatsiya doirasi tuzilishi mohiyatini juda yuzaki ocha oladi, xolos.

## **15.2.Motivatsiya va motivlarning nazariy muammolar. Motiv muammosi va uning yechimiga doir mulohazalar**

Psixoanalitik konsepsiyalar negizida motivatsiya ortganlik ravishda inson mayllariga xosdir, degan g'oya yotadi. Ularning manbai sifatida maylni aks ettiruvchi qaysidir organdagi yoki uning qismidagi somatik jarayon tushuntiriladi.

Z.Freydning konsepsiyasida mayllar va instinktlar tushunchalari o'rtasida hech qanday tafovut yo'qdir. Ongsizlik ta'limotining asoschisi Z.Freyd xulq motivalari va ehtiyojlari muammosini ishlab chiqayotir, motivatsiyaning manbai instinkt, u tur va individning saqlanish shartidir deb taqdirlaydi. Mazkur holatni muallif individning energetik potensiya sifatida talqin etadi. Eng asosiy masala shuki, Z.Freyd motivatsiya regulyatori va motivatsiya energiyasining irsiy manbai sifatida «u» tushunchasiga qanday ma'no yuklamoqchi? Uningcha, «u» tushunchasining mazmuni tug'ma va o'zgarmasdir. Xuddi shu bois mantiq qonunlari va aql darajalari, ko'rsatkichlari unga hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Z.Freyd affektiv, impulviv shakldagi mutlaqlashgan qo'zg'ovchilarni nazarda tutgan bo'lsa ajab emas. Ushbu qo'zg'atuvchilar (turtkilar)ning



impulsivlik, taxminiylilikning affektiv mohiyati, notanqidiylik, ongli va irodaviy nazoratga itoat etishda qiyinchilik kabilarning dinamik xususiyatlarini mutlaqlashtirish bo'lib, ularning asosida quyi genetik va strukturaviy darajadagi qo'zg'atuvchilar yotadi. Z.Freyd ta'kidlab o'tgan dinamik xususiyatlar va xossalari mohiyatida motivatsiyaning chuqur asosiy manbasini ko'radi. Uning konsepsiyasida inson xulqi va harakatining dvigateli jinsiy instinkt hamda uning transformatsiyasi ustuvor o'rin egallaydi.

Ushbu mulohazani yanada mukammallashtirish maqsadida nofreydistlar hisoblanmish A.Adler, K.Yung kabilarning nazariyalarini tahlil qilishga o'tamiz. A.Adlerning fikricha, insonni harakatga undovchi asosiy kuch, uning faoliyati maqsadini aniqlovchi, ularga erishish yo'llari hukumatga va qudratga erkdir. Xorni, Fromm va boshqalarning asarlarida o'z ifodasini topgan ma'lumotlar mohiyati Freyd tomonidan kiritilgan psixika tushunchasi va uning harakatlantiruvchi nazariyasini almashtirishga intilish yaqqol ko'zga tashlanadi. Xorning nuqtai nazaricha, inson qanchalardir tug'ma kuchlarga ega bo'lib, uning negizi bolalarcha yordamga muhtojlikka qurilgandir, bu holatlar birlamchi bezovtalanish tuyg'usida va tug'ma qo'rqinch hissida o'z ifodasini topadi. Xorning ta'kidlashicha, inson xulqining motivatsiyasi boshqa motivlar yordami bilan aniqlanishi mumkin, jumladan, birlamchi bezovtalanish (bolalarcha yordamga muhtojlik keltiruvchi) atrof-muhitga nisbatan dushmanlik hissini tug'diradi, xavfsizlikka ehtiyoj esa insonni boshqa odamlar tomonidan baholash va o'z-o'zini baholashga nisbatan ichki intilishni vujudga keltiradi. Fromm ham o'z qarashlarida libido masalasiga katta e'tibor bermaydi, chunki uni qiziqtirgan muammo inson xulqi jabhalarda ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro ta'sir o'tkazish jarayonidir. Insonni individualizatsiyalash unda tanholik hissini vujudga keltirishga olib keladi, shuningdek, o'z qadr-qiyamatini anglash sari yetaklaydi. Tanholik hissiyotidan forig' bo'lishga intilish tuyg'usi inson motivatsiyasini va uning xulq shakllarini aniqlaydi. Neofreydistlarning ilmiy asarlarida inson xulqiga ta'sir qiluvchi intim omillariga va uning motivatsiyasiga muayyan darajada ahamiyat

berilgan bo'lsa-da, lekin oqibat natijada xulqning harakatlantiruvchisi sifatida anglashilmagan tug'ma kuchlar asosiy o'rinda turadi.

Geshtaltpsixologiya maktabi namoyandalari uchun motivatsiya o'ziga xos talqinga ega bo'lib, uning mohiyatini eksperimental tarzda o'rganishga, ochib berishga intilish ko'rsatkichi bilan boshqalardan ajralib turadi. K.Levin (1890—1947) motivlarni eksperimental o'rganish metodikasini ishlab chiqib, ularni mutlaqo mustaqil holat sifatida tushuntirishga harakat qilgan va bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan. Geshtaltpsixologiya maktabining namoyandalariga obraz tushunchasi qanchalik o'ta ahamiyatli bo'lsa, K.Levinning maydon nazariyasi uchun motiv kategoriyasi xuddi shunday muhim xususiyat kasb etadi. Obraz va motiv o'zaro aloqasiz hukm surishi ta'kidlanadi, motivatsiyani amalga oshiruvchi vaziyatning predmetli, ma'noviy mazmuni esa inkor qilinadi. K.Levin xulqni mana bunday izohlashga intiladi, muayyan muvaqqatli mikrintervalda shaxsning bevosita yaqqol muhit bilan munosabatlaridan kelib chiquvchi voqelikdir. Uning mazkur nazariyasida insonda har xil ma'no anglatuvchi ikkita motivatsion o'zgaruvchi hukm surishi tan olinadi, ularning bittasi tug'ma, hayvonlar turtkisiga o'xshash va turmush davomida egallangan, faqat insongagina xos bo'lgan. Geshtaltpsixologlarning asarlarida shunday holatlar ham mavjudkim, ularda xulq motivatsiyasi muammolari shaxsning muhim (asosiy) xususiyatlarini tahlil qilish negizidan kelib chiqib qaraladi. Ushbu holat G.Ollport konsepsiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi, uningcha, eng muhim jihat bu inson xulqini o'zgarish sabablarini ochishdir. Shuning bilan birga mazkur vaziyatga olib keluvchi motivlarning omillarini tekshirish ham alohida ahamiyatga ega ekanligini anglab olish qiyin emas. Bu borada individning javoblari o'ziga xosligi bilan o'zaro ta'sir o'tkazish o'rtasida qandaydir aloqa mavjudligini o'rnatish ham ikkinchi darajali narsa sifatida talqin qilinmaydi.

Rus psixologiyasida inson xulq-atvorini harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan motivlar chuqur va yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Ularning psixologik mexanizmlari, uzluksizligini ta'minlovchi omillar, zarur shart-sharoitlar mohiyati, vujudga kelish imkoniyatlari to'g'risida juda yuzaki ma'lumotlarga muayyan

darajada tartibga keltirilgan, tub ma'nodagi motivlar tabiati izchil ravishda, pedagogik va yosh psixologiyasi fanlari qonuniyatlariga asoslangan holda tadqiq qilinmagan. Bu esa respublikamizda ularning keng ko'lamda o'rganishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Motivlarning falsafiy-metodologik ahamiyati shundan iboratki, ular sabab oqibat, ichki murakkab bog'lanishlar tuzilishini yuksak darajada rivojlangan tizim sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv esa o'z navbatida materiya rivojlanishining oliy mahsuli ekanligi to'g'risidagi xulosaga olib keladi. Chunonchi, maqsadga yo'naltirilgan va maqsadga muvofiqlashtirilgan har xil mazmundagi savollar, axborotlar, ma'lumotlar, xabarlar kishilar faoliyatining ongli xususiyati ta'kidlab o'tilgan mulohazalar mohiyati tarkibiga kiradi. Motivlar tuzilishini amaliy (tatbiqiy) yo'nalishga qaratish inson shaxsiga motivatsion, irodaviy, axloqiy, hissiy, kognitiv, regulyativ ta'sir o'tkazishning omilkor shakllarining ilmiy asosi yuzaga kelishiga muhim imkon va zarur shart-sharoitlar yaratadi. Insonning mehnat faoliyati tizimining murakkablashuvi ishlab chiqarishda axloqiy, ma'naviy, nafasat, ruhiy tarbiya jabhalari hamda radio, televidenie va targ'ibot-tashviqot ta'sirini samarali olib borishi, kasbiy tayyorgarlikning ekstremal va stress holatlarning sharoitlari barqarorlashuvi, takomillashuvi, yaxshilanuvi, maqsadga muvofiqlashuvi kabi omillarning barchasi shaxs motiv doirasining o'zgarishiga bog'liq. Shaxsning motiv doirasi uning ehtiyojlarida, irodaviy sifatlarida (aktlarida) va funksional imkoniyatlarida o'z aksini topadi.

### **15.3.O'zbekiston psixologlari tadqiqotlarida motiv va motivatsiya muammosi. Shaxsning shakllanishida motivatsiyaning roli**

Motivning tadqiqot tarixidan kelib unga yondashsak, bu holda u insonlar (goho hayvonlar xatti-harakati) hayoti va faoliyatini ruhiy jihatdan boshqaruvchisi sifatida talqinidan iborat o'ziga xos turidir. Motiv tushunchasi, asosan, sut emizuvchi hayvonlarga taalluqli ekanligi ilmiy manbalarda ta'kidlab o'tiladi. Insonlarga aloqador motivlar tushunchasi qo'zg'atuvchilar va qo'zg'ovchilarning barcha turlari (ko'rinishlari, modalliklari, shakllari)ni o'z ichiga oladi (chunonchi,

motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar, intilishlar, motivlashgan ustanovkalar va boshqalar).

Motiv keng ma'noda xulq-atvor determinatsiyasi belgilanishiga qaramay, ko'pgina chet el tadqiqotchilari shaxs motivlarini juda tor ma'noda talqin qilib, uni ilmiy jihatdan tekshiradilar, hattoki ular shartsiz reflektor aktlarining miqdorini, affektiv, stress va ekspressiv reaksiyalarni motiv tizimiga kiritmaydilar. Bir qator psixologlar motivni energetik, ma'noviy va ma'naviy to-monlarini o'zaro solishtiradilar, ular motivni sof ma'nodagi energetik bioquvvat faolligining manbai sifatida talqin qilib, uning ma'noviy va ma'naviy jabhalarini hisobga olmay turib, o'ziga xos ravishda tushuntirishga intiladilar. Jumladan, Z.Freyd (856-1939) motivning qonun-qoidalarini faqat dinamik energetik holat tariqasida talqin qiladi. Bir guruh chet el psixologlarining fikriga qaraganda, motiv - bu tajriba va reaksiyalarning energetik jabhasidan iboratdir.

Rus psixologlari motivlarni tushuntirishda va uning tarkibiy qismlarini belgilashda dinamik va ma'noviy (ma'naviy) tomonlarining uyg'unligidan kelib chiqqan holda talqin qiladilar. Ularning ayrim namoyandalari qarashlarini tahlil qilish bilan cheklanamiz, xolos.

S.L.Rubinshteyn motivning psixologik mohiyati to'g'risida quyidagi mulohazalarni bildiradi: motivatsiya - bu psixika orqali hosil bo'ladigan determinatsiyadir; motiv - bu shaxs xulq-atvorining kognitivistik jarayonini bevosita tashqi olam bilan bog'lovchi subyektiv tarzda aks etish demakdir. Bizningcha, shaxs o'zining motivlari yordamida borliq bilan uzviy aloqada bo'ladi. Insonning xulq-atvori (xulqi)ni harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'luvchi motivlar shaxsning tuzilishida (tarkibida) yetakchi o'rin egallaydi. Motivning tuzilish (strukturaviy) tarkibiga shaxsning yo'nalishi, uning xarakteri, emotsional holati (his-tuyg'usi), qobiliyati, ichki kechinmalari, faoliyati va bilish jarayonlari kiradi. Psixologiya fanida to'plangan nazariy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, shuningdek, bir qator psixologlarning fikricha, xarakter shaxs motivlarining dinamik tomonlari asosini tashkil qiladi, degan ta'limot mavjud. Jumladan, xarakterning u yoki bu sifatlari sof dinamik xususiyatli tavsiflarni

tashkil qilsa, qolganlari esa faqat dinamik tabiatinigina emas, balki uning ma'naviy va ma'noviy jabhalarini ham yuzaga keltiradi.

Motiv hissiyot bilan ham bog'liq bo'lib, ular xulq-atvor mohiyatidan tashqarida bo'lmaydi, balki hissiy kechinmalar, motivlashgan omillar tizimi bilan uzviy aloqaga egadir. Hissiyotning eng muhim funksiyalaridan biri shundan iboratki, unda inson uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi daqiqalar uning uchun qanchalik zaruriyat ekanligini belgilashga xizmat qiladi. Hissiyotning bu sohadagi boshqa bir funksiyasi nisbatan umumiyroq bo'lib, odamning tashqi olamga, shaxslararo munosabatga, his-tuyg'ularga negizlik muammosi hisoblanib, uning uchun ahamiyatli voqea va narsalarga nisbatan bog'lovchilik xususiyatiga ega bo'lgan muloqoti zaif emotsional holatlar doirasidan tashqariga chiqib, faol, barqaror, turg'un jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi mulohazalardan tashqari, motivlar funksional-energetik tomonlarini dinamik boshqarish vazifasini amalga oshiradi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, motivlarning rivojlanishi, motivlashgan yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishi, faoliyat muhiti doirasidagi o'zgarishlar tufayli amalga oshiriladi. Motiv mexanizmi shaxs sifatlarini qayta qurish, ularni rivojlantirish jarayonining faollashuvi tarzida yuzaga chiqadi, shu bilan birga inson kamol topish jarayoniga, faoliyat muhiti va sharoiti asta-sekin yoki tez o'zgarishi motivlarning takomillashuvi, barqarorlashuvi kabi omillarga ta'sir etadi. Insonni mehnat faoliyatida qayta tarbiyalash va muayyan fazilatlarni shakllantirish yuqoridagi mulohazalar mohiyatidan iboratdir. Bu o'rinda faoliyat faol vaziyat hisoblanib, mavjud ehtiyojlar, qiziqishlar doirasidagi psixologik holatlardan uzoqlashib boradi, so'ngra yangi qiziqish, ehtiyoj va intilishlarni shakllantiradi, motivlar mohiyati va shakllarni o'zgartiradi.

Ushbu mulohazani alohida ta'kidlab o'tish joizki, motivatsiyaning faoliyat darajasidan tashqari chiqishi ehtimoli yoki faoliyatning motivatsiya doirasidan tashqari chiqishi imkoniyati to'g'risidagi talqinlar nisbiy xususiyatga ega. Binobarin, motivatsiya faoliyatdan tashqarida va faoliyat esa motivatsiyadan alohidalikka ega degan xulosaga kelmaslik maqsadga muvofiq. Bu holatni

yaqqolroq namoyish qilish niyatida quyidagi hayotiy haqiqatga murojaat qilamiz. Har bir talaba oliy maktabga o'qishga kirayotganida unda diplom olish motivi paydo bo'ladi, o'qishga joylashganda esa o'quv predmetlarini o'zlashtirish jarayoni o'qishga nisbatan intilish, ehtiyoj, qiziqish, safarbarlik kabi psixik omillar yuzaga keladi.

A.N.Leontevning fikricha, faoliyatning tuzilishi: maqsadga qaratilgan xatti-harakatlar va operatsiyalardan iboratdir. Odatda, faoliyat o'zining predmeti va motiviga ega bo'lib, agarda motiv bilan predmet (jism, narsa) o'rtasida mutanosiblik (moslik) vujudga kelsa, demak shundagina" u tub ma'nodagi faoliyatga aylanadi. Masalan, bir talaba imtihondan (reytingdan) o'tish uchungina birlamchi manbalarni o'qiydi, lekin boshqasi esa o'zini tekshirish va haqiqiy bilimlarni egallash uchun dars tayyorlaydi. Birinchi holatda talaba yoki o'quvchida motiv imtihonga qaratilgan bo'lib, o'quv predmeti mazmuni bundan mustasnodir, xuddi shu boisdan uning faoliyati faqat xatti-harakatlar tizimidan iboratdir, degan xulosa chiqarishga imkon beradi. Ikkinchi holatda esa motiv o'quv predmetini o'zlashtirishga qaratilganligi sababli uning intilishi faoliyatiga o'sib o'tadi degan fikrga kelishga kafolat beradi.

Psixologiyada motivlar muammosini dialektik materializm printsiplariga asoslanib tadqiq etgan. Bu esa, eng avvalo, motivlar tizimi inson hayoti va faoliyatiga murakkab tuzilgan boshqaruvchisi (regulyatori) sifatida tushunishni bildiradi. Mazkur yo'nalishga dahldor psixologlar o'rtasida shaxsning faolligi, ongning faolligi haqidagi g'oyalar keng tarqalgan. Jumladan, S.L.Rubinshteyn motivlashgan tizimning inson borliqni aks ettirishdagi asosiy rolini ko'rsatib, shunday mulohazalarni ta'kidlab o'tadi: birinchi bo'lib kuzatish obyektlari emas, balki ehtiyoj obyektlari va inson xatti-harakatlari beriladi. Motivlashgan ustanovkalarining faollikka oid o'ziga xosligi ham shunday tuzilgan va u o'zi xohlagan borliqning elementi va holatini belgilashga xizmat qiladi. Ularning fikricha, tashqi olamga munosabatning faol motivtasion xususiyatini ko'rsatib o'tishning o'zi kifoya. S.L.Rubinshteyn «Ong - bu faqatgina aks etish emas, balki insonning tashqi muhitga nisbatan munosabati hamdir», deb yozadi.

Motivlarning tuzilishi bilan bevosita borliq ongning bosqichli tuzilishi muammosi psixologlar tomonidan tezkorlik bilan hal qilish, yechish, tekshirish, tadqiq etish zarur bo'lgan dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

S.L.Rubinshteyn ongning rolini ko'rsatish bilan bir qatorda psixikaning ko'p qirraliligi nuqtai nazaridan turli bosqichlarda ruhiy jarayonlarning vujudga kelishi, kechishi holatlarini tushuntirib berishga erishgan. Har qanday shaxsning xulq-atvorini psixologik jihatdan tushuntirishda qo'zg'atuvchilar (qo'zg'ovchilar)ni turli bosqichlarda o'zaro murakkab bog'liqlikda olib qarash, ko'rish lozim, deb ta'kidlaydi. Bu ko'p bosqichli tuzilma boshqarishni anglashilgan bosqichi singari anglanmagan motivatsion tendensiyalarni o'z ichiga oladi.

Rus psixologlari motiv tuzilishining bosqichli konsepsiyasini ishlab chiqarishda quyidagi mulohazalarga tayanganlar:

a) ongning tarixiy kelib chiqish jarayoni bilan inson xulq-atvorini boshqarishning murakkab tizimiga ega ekanligi;

b) ontogenezda bola shaxsining individual (yakkahol) shakllanish jarayoni bo'lmish genetik dalillarga asoslanganligi va boshqalar.

Motivlar tuzilishini genetik bosqichda shakllanish ehtimolini tahlil qilish natijasida uning sodda, bir bosqichli tizimdan murakkab, ko'p bosqichli yuksak darajaga o'sib o'tish jarayoni ishonchli omillar yordami bilan yaqqol ko'rsatib beriladi. Umumlashtirilgan ma'lumotlarga ko'ra, rus sovet psixologlari motivlarning tuzilishi muomalasini tadqiq qilishda ularning dinamik va ma'naviy tomonlarining birligi prinsipidan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Ular faol motivning dinamik holati haqida mulohaza yuritganlariga mazkur faoliyatning ba'zi jarayonlarida uning dinamikasi o'ta bo'rttirib talqin qilinadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqki, sobiq rus psixologlari motiv tuzilishiga oid masalaga yondashish jarayonida butun e'tiborini uning mazmuniy jabhasini alohida ko'rsatishga, ma'naviy tomonlarining birlamchiligini belgilashga yo'naltiradi.

Shaxsning shakllanishida motivatsiyaning roli. Insonning motivlari tuzilishini, ularning asosiy funksional mexanizmlarini hamda shakllanish

jarayoniga yo'naltirishning strategik rejasini ishlab chiqish muammosini psixologik jihatdan tushuntirish uchun bolaning psixik rivojlanishi tahliliga o'ziga xos ravishda taktik yondashish ma'qul.

Shaxsning motivlari oqimi muammosi uning ham metodologik, ham nazariy munosabatni tekshirish demakdir. Chunki to hozirgi davrgacha sobiq rus psixologiyasida uning ko'pgina qismlari o'z yechimini topa olmagan.

G'arb mamlakatlari hamda AQSh psixologlari orasida «biologik ehtiyojlar asosida inson motivlari yotadi», degan qarashlar majmuasi keng ko'lamda qo'llanib kelinmoqda. Chunonchi, AQSh psixologi B.Damellning fikricha, to'qimada vujudga kelgan ehtiyojlar qo'zg'atuvchining asosiy manbai hisoblanadi. Mazkur g'oya yuzasidan mulohaza yuritgan Danlep esa «qo'zgalish biologik to'qimalardan chetga chiqmaydi», degan fikrga qat'iy ishonadi. Gilfordning ta'kidlashicha, faollikning birlamchi manbai ovqatdan» iboratdir. Lekin muallif o'z fikrini izchil ochib berishga intilmaydi.

Bu vaziyatni baholashda psixologik muammolar oqimi bilan motivlarning biologik oqimi o'rtasida yuz beruvchi o'zaro o'rin almashishning sodir bo'lishini mulohaza doirasidan tashqari chiqmaslik lozim. Chunki biologik shartlangan reja faollik manbai o'zaro o'rin almashish jarayonlari assimilyatsiya va dissimilyatsiya sifatida namoyon bo'ladi. Holbuki biologik holatlar psixik jarayonlarning moddiy asosini tashkil qiladi. Xuddi shu boisdan, ular birlamchi manba va psixik faollikning negizi tariqasida yuzaga keladi.

#### **15.4. Ilk bolalik yosh davrida xulq-atvor motivlari. O'quv faoliyati motivlari. Motiv klassifikatsiyasi**

Ilk bolalik yosh davrida xulq-atvor motivlari. Ikki-uch yoshli bolaning motivlari tuzilishi kristallashmagan (amorf)ligi bilan, shuningdek, ularning qat'iy ierarxiyasi yo'qligi bilan tavsiflanishi namoyon bo'ladi. Bola shaxsiga aloqador motivlar tizimi bir qator motivlar yig'indisini ifodalovchi, o'zaro bir-biri bilan tasodifiy o'rin almashib turish xususiyatiga egadir. Motivlarni o'zaro o'rin



almashish jarayonida yagona anglashish darajasidagi nazorat tizimiga bo'ysunmaydi.

S.L.Rubinshteyn bolalik davrining motivlariga quyidagicha psixologik tavsif beradi: «Bevosita bolaga ta'sir etuvchi har bir qo'zg'atuvchi (qo'zg'ovchi) ilk bolalik davrida uning o'sishida hukmronlik qiladi. Chunki undagi ichki motivlar hali mustahkam emas, shuning uchun har xil vaziyatda bola boshqa qo'zg'atuvchi hukmronligiga tobe bo'lib qolishi mumkin. Shu boisdan beqaror, kuchsiz, betartib motivlar xuddi shunday xatti-harakatlarga bog'liq. Muallif vaziyatning stixiyali ta'siri haqida mulohaza yuritib, u bolalik beixtiyor intilishining xulq-atvoriga ta'sirini ko'rsatib turishini ta'kidlaydi.

Nazariy va amaliy ma'lumotlarga asoslanib, ilk bolalik davridagi individning xulq-atvori, birinchidan, impulsivlik bilan, ikkinchidan, vujudga kelgan vaziyat xususiyati bilan tavsiflanadi. Shaxsni boshlang'ich genetik qobig'idagi shakllanish pallasidagi motivining dinamik asosi - xatti-harakati qo'zg'alishini muvaqqat, tor muhitidan tashkil topadi. Chunki bola hali motivlashgan ustanovkalarni uzoq vaqt ushlab tura olmasligi sababli u tez yo'qoladi. Muhim ahamiyat kasb etuvchi qo'zg'alishlarda bola chalg'isa, demak, ularni u tezda esdan chiqaradi. Ehtiyoj qondirilishida, affektiv reaksiyalarda, chalg'ish jarayonida qo'zg'alish berilgan vaqt doirasidan chetlashadi.

Psixologik doiradagi boshqarishning o'ziga xos vositalari, faoliyatni tashkil etishni ta'minlovchi motivlar - inson faoliyatining energetik darajasini strukturaviy aks ettiradi. Bolaning intellektual darajasi va bilimlarning yetarli emasligi oqibatida kichik bir amaliy tajriba yaqqol amaliy faoliyat muhitini siqib chiqarishi mumkin. Bola biron-bir obyektga yo'naltirilgan faoliyatni, uni boshqarishni yuksak funksional-energetik bosqichida motivlarni o'z holicha uzoq vaqt saqlab yurish imkoniyatiga ega emas.

Inson faoliyatining samaradorligi (mahsuldorligi)ni oshirish haqidagi psixologik usulning rolini L.S.Slavina III-IV sinf o'quvchilarida tajriba yo'li bilan dalillab berdi. L.S.Slavina murakkab va uzoq davom etadigan faoliyatlarni tahlil qilish kezida uni nisbatan mustaqil va sodda tarkibiy qismlarga ajratib chiqadi

hamda ularning har birini alohida nazorat qilish kerak, binobarin, uni xuddi mustaqil faoliyat strukturasi takomillashuvi va rivojlanishi natijasidagina motivlar tuzilishining takomillashuvi va rivoji namoyon bo'ladi. Muallifning fikriga qaraganda, xulq-atvorning muayyan maqsadga bo'ysundirilishi kichik maktab yoshining pirovard bosqichida amalga oshirilib, mazkur bosqich ixtiyoriy xulq-atvor shakllanishining boshlang'ich davri bo'lib hisoblanadi.

O'quv faoliyati motivlari to'g'risida mulohazalar. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, har qanday faoliyat muayyan motivlar ta'sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'zlashtirish, egallash va o'rganishni amalga oshirishni ta'minlash uchun o'quvchilarda o'quv motivlari mavjud bo'lishi shart. Bilish motivlari shaxsning (subyektning) gnoseologik maqsad sari, ya'ni bilish maqsadini qaror toptirishga, bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'naltiriladi. Odatda, bunday turdosh va jinsdosh motivlar nazariy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, tashqi va ichki nomlar bilan atalib, muayyan toifani yuzaga keltiradi.

Tashqi motivlar jazolash va taqdirlash, xavf-xatar va talab qilish, guruhiy tazyiq, ezgu niyat, orzu-istak kabi qo'zg'atuvchilar ta'sirida vujudga keladi. Bularning barchasi bevosita o'quv maqsadga nisbatan tashqi omillar, sabablar bo'lib hisoblanadi. Mazkur holatda bilimlar va malakalar o'ta muhimroq boshqa, hukmron (yetakchi) maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlash vazifasini bajaradi (yoqimsiz holat va kechinmalar yoki noxush, noqulay vaziyatdan qochish, ijtimoiy yoki shaxsiy muvaffaqiyatga erishish; muvaqqat erishuv muddaosi mavjudligi va hokazo). Bu turdagi yoki jinsdagi tashqi motivlar ta'sirida ta'lim jarayonida bilim va ko'nikmalarni egallash (o'zlashtirish)da qiyinchiliklar kelib chiqadi va ular asosiy maqsadni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning asosiy maqsadi o'qish emas, balki ko'proq o'yin faoliyatiga moyillikdir. Mazkur vaziyatda o'qituvchining o'qishga ularni jalb qilish niyati o'quvchilarning o'yin maqsadining ushalishiga xalaqit berishi mumkin, lekin izohtalab dalillar yetishmaydi.

Motivlarning navbatdagi toifasiga, ya'ni ichki motivlar turkumiga individual xususiyatli motivlar kiradiki, ular o'quvchi shaxsida o'qishga nisbatan individual maqsadni ro'yobga chiqaruvchi qo'zg'alish negizida paydo bo'ladi. Chunonchi, bilishga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi shaxsning ma'naviy (madaniy) darajasini oshirish uchun undagi intilishlarning yetilishidir. Bunga o'xshash motivlarning ta'sirida o'quv jarayonida nizoli, ziddiyatli holatlar (vaziyatlar) yuzaga kelmaydi. Albatta bunday toifaga taalluqli motivlar paydo bo'lishiga qaramay, ba'zan qiyinchiliklar vujudga kelishi ehtimol, chunki bilimlarni o'zlashtirish uchun irodaviy zo'r berishga to'g'ri keladi. Bunday xossalarga ega bo'lgan irodaviy zo'r berishlar tashqi xalaqit beruvchi qo'zg'atuvchilar (qo'zg'ovchilar) kuchi va imkoniyatini kamaytirishga qaratilgan bo'ladi. Pedagogik psixologiya nuqtai nazardan ushbu jarayonga yondashilganda to'laqonli vaziyatgina optimal (oqilona) deyiladi.

Ta'lim jarayonida bunday vaziyatlarni yaratish o'qituvchining muhim vazifasi hisoblanib, uning faoliyati ichki anglanilgan motivlar o'quvchilar xulq-atvorini shunchaki boshqarish bilan cheklanmasdan, balki ular shaxsini shakllantirishga, ularda maqsad qo'ya olish, qiziqish uyg'otish va ideallarni tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi. Aniq narsalar, hodisalar va xatti-harakatlar insonning faolligi muayyan manbalar bilan uzviy bog'lanishga ega bo'lsa, uyg'unlashib borsa faoliyat motivlari darajasiga o'sib o'tadi. Psixologiyada manbalar o'z mohiyatiga ko'ra turkumlarga ajratib talqin qilinadi.

A. Inson ehtiyojlari bilan belgilanuvchi ichki manbalar. Organizmning tabiiy ehtiyojlarini namoyon qiluvchi tug'ma xususiyatli va jamoada shakllanuvchi ijtimoiy ehtiyojlarni vujudga keltiruvchi orttirma xususiyatga ega bo'lishi mumkin.

Tug'ma ehtiyojlar orasida o'qishga nisbatan ma'no kasb etuvchi alohida ahamiyatga ega bo'lgan faollikka nisbatan ehtiyoj va axborot, ma'lumot, xabarlar olishga ehtiyoj muhim rol o'ynaydi.

Motivga genetik yondashilganda shu narsani alohida ta'kidlab o'tish lozimki, bola tug'ilganidan e'tiboran bevosita faollik ko'rsatishga moyillik hukm suradi: u kuladi (noverbal muomala shakli), qimirlaydi (fazoda o'rin almashish), qo'l va

oyoqlarini harakatlantiradi (moslashish), o'ynaydi (muhit-bola munosabati), gaplashadi (shaxslararo munosabatga kirishish), savollar beradi (dialogik muloqot va boshqalar). Bunga o'xshash xatti-harakatlarning o'zi ularni qoniqtiradi, voqelikni insonning axborotlarga nisbatan ehtiyojini tajribalarda ko'rsatish mumkin: agar tekshiriluvchini ma'lum vaqtga tashqi olamdan ajratib qo'yilsa, natijada uning irodasida, hissiyotida, intellektida buzilish sodir bo'lishi, zerikishi, irodaviy akt tizimi yo'qolishi, fikr yuritish jarayoni parchalanishi, illyuzion, gallyutsional holatlar uchrashi mumkin.

Ijtimoiy turmush sharoitida faollik va informatsion taqchillik odamlarni salbiy his-tuyg'u va kechinmalarga olib keladi, faoliyat tuzilishi va uning dinamikasiga putur yetkaziladi. Ijtimoiy turmushda shakllanuvchi ehtiyojlar orasida o'quv faoliyatida muhim rol o'ynovchi va uni kuchaytiruvchi ijobiy xususiyatli sotsial va gnostik ehtiyojlar alohida ahamiyat kasb etadi, shaxsni kamol toptirish jarayonida hukmron voqelikni egallaydi. Ularning turkumiga bilimlarga nisbatan ehtiyoj, jamiyatga foyda keltirishga intilish, umumbashariy yutuqlarga erishishga intilish kabilar kiritiladi.

B. Inson hayoti va faoliyatining ijtimoiy sharoitlarida aniqlanuvchi tashqi manbalar. Bunday manbalarni talabchanlik, orzu (kutish) va imkoniyatlar tashkil qiladi. Jumladan, talabchanlik insonga faoliyat va xulq-atvorning muayyan turini hamda shakli (ko'rinishi)ni taqozo etadi. Mazkur holatni quyidagi mulohazalar yordamida izohlash mumkin: ota-ona boladan ovqatni qoshiqda yeyishni, stulda to'g'ri o'tirishni, «rahmat» deyishni talab qilsa, maktab o'quvchidan ma'lum belgilangan vaqtda darsga yetib kelishni, o'qituvchilarga quloq solishni, berilgan vazifalarni bajarishni qat'iy belgilaydi. Jamiyat esa xulq, fe'l-atvor orqali ma'lum axloqiy normalar va qoidalarga rioya qilishni, shaxslararo muomalaga kirishish shakllari (vositalari)ni egallashni hamda aniq vazifalarni bajarishga amal qilishlarini o'z fuqarolariga o'rgatadi.

Psixologiya fanining atamaları mohiyatida orzu yoki kutish jamiyatning shaxsga nisbatan munosabatining ifodalanish mexanizmi yotadi. Etnopsixologik stereotiplarda uyg'unlashgan xulq-atvor belgilari va faoliyatning shakllari o'ziga

xoslikka ega. Odatda, odamlar bir yoshli bola tik yurishi kerak, deb hisoblaydilar va ular bu tuhfani boladan kutganligi tufayli unga alohida munosabatda bo'ladilar. Psixologiyada kutish tushunchasi talabdan farqli o'laroq, faoliyat yuzaga kelishi uchun umumiy muhit yaratadi.

Imkoniyatlar to'g'risida fikr yuritilganda ma'lum faoliyatning kishilar irodasi bilan bog'liq (iroda akti, sifati, prinsipi) obyektiv shart-sharoitlarni o'zida aks ettiradi. Agarda odamlarning shaxsiy kutubxonasi boy bo'lsa, ularning o'qish imkoniyati yuqori darajaga ko'tariladi. Kishilarning xulq-atvori psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, ko'pincha ularning obyektiv imkoniyatlaridan chiqib, unga yondashiniladi. Agarda bola qo'lga tasodifan biologiya kitobi tushib qolsa, uning shu predmetga nisbatan qiziqishi ortishi kuzatiladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Motiv va motivatsiyaning nazariy masalalari haqida tushuncha bering?
2. Motiv muammosini o'rgangan olimlarni ayting?
3. Shaxsning shakllanishida motivatsiyaning o'rni qanday?
4. O'quv faoliyati motivlari talqini izohlang?
5. Motivning klassifikatsiyasini tushuntirib bering?
6. Motivatsion soha rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini ayting?

## 16-MAVZU. HISSIYOT

*Tayanch tushunchalar: emotsiya, hissiyot, impressiv, ekspressiv, dinamik stereotip, ambivalentlik, hissiy ton, kayfiyat, affekt, stress, yuksak hislar, praksik hislar, axloqiy hislar, estetik hislar, intellektual hissiyotlar.*

### 16.1.Hissiyot to‘g‘risida umumiy tushuncha. Hissiyotning o‘ziga xosligi

Hissiyot borliqqa, turmushga, shaxslararo munosabatga nisbatan shaxsni subyektiv kechinmalarining aks ettirilishidir. Shaxs tirik mavjudod bo‘lishi bilan birga jamiyat a‘zosi hamdir, shuningdek, yakkahol (individual) inson sifatida tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlarini xolisona (obyektiv) aks ettiradi, in’ikos qiladi. Aks ettirish jarayoni favqulodda o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: a) shaxsning ehtiyojini qondirish imkoniyatiga egalikni; b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko‘rsatadigan obyektlarga subyekt sifatida qatnashishni; v) uni harakat qildiruvchi, bilishga intiltiruvchi munosabatlarini va hokazo. Subyektiv munosabatlarning inson miyasida his-tuyg‘ular, emotsional holatlar, yuksak ichki kechinmalar tarzida aks etishi hissiyot va emotsiyani yuzaga keltiradi. Hissiyot - yaqqol voqelikning ehtiyojlar subekti bo‘lmish shaxs miyasida obyektlarga nisbatan uning uchun qadrlı, ahamiyatli bo‘lgan munosabatlarining aks ettirilishidir. Mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, munosabat atamasi bir necha marta matnda qayd qilindi, shuning uchun unga ayrim izohlar berish maqsadga muvofiqdir. Psixologiyada hali bir talay terminlar, atamalar, tushunchalar mavjudkim, ularga mohiyat, ma’no, ko‘lam, sifat, shakl jihatidan qo‘llanilishi yuzasidan ba’zi bir tuzatishlar kiritilishi ayni muddao bo‘lar edi.

Psixologiya fanida munosabat tushunchasi ikki xil ma’noda qo‘llanilib kelinadi: 1) subyekt (shaxs) bilan obyekt (narsa) o‘rtasida tabiiy holda (tarzda) yuzaga keladigan o‘zaro aloqa o‘rnatish (obyektiv munosabatlar); 2) o‘rnatilgan aloqalarning aks ettirilishi (ularning kechinmasi), xususiy subyektning ehtiyojlari va ularning obyektlararo munosabati (subyektiv munosabatlar), binobarin,

namoyon bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga shay turgan narsalar bilan odam o'rtasidagi munosabat ma'nosida ishlatiladi. Hissiyot tushunchasi kundalik turmushda va ilmiy psixologik manbalarda har xil ma'noda qo'llaniladi. Jumladan, hissiyot o'rnida sezgilar, anglanilmagan mayllar, anglanilmagan xohishlar, tilaklar, maqsadlar, talablar tushunchalardan foydalaniladi. Bu holatlar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslanib ishlatilishi kundalik turmush voqealari bo'lib hisoblanadi, xolos. Ilmiy nuqtai nazardan kelib chiqib tahlil qilinganda «Hissiyot», odatda, tirik mavjudodlar miyasida, ya'ni shaxslarning ehtiyojlarini qonliruvchi va unga monelik qiluvchi obyektlarga nisbatan uning (odamning) munosabatlarini aks ettirish ma'nosida qo'llaniladi.

Jahon psixologiyasida «hissiyot» bilan «emotsiya» terminlari (ayniqsa, chet mamlakatlarda) bir xil ma'noda ishlatiladi, lekin ularni aynan bir xil holat deb tushunish mumkin emas. Bunday nuqson ommabop adabiyotlarda, chet ellarda chop etilgan darsliklarda aksariyat hollarda uchraydi. Odatda, tashqi alomatlarini yaqqol namoyon bo'ladigan his-tuyg'ularni ichki kechinmalarda ifodalanishdan iborat psixik jarayon yuzaga kelishining aniq shaklini emotsiya deb atash maqsadga muvofiq. Masalan, ranglarning o'zgarishi, yuzlarning tabassumlanishi, lablarning titrashi, ko'zlarning yarqirashi, kulgi, yig'i, g'amginlik, ikkilanish, sarosimalik va boshqalar emotsiyaning ifodasidir. Lekin vatanparvarlik, javobgarlik, mas'uliyat, vijdon, mehr-oqibat, sevgi-muhabbat singari yuksak xislatlarni emotsiya tarkibiga kiritish g'ayritabiiy hodisa hisoblanar edi. Ushbu hissiy kechinmalar o'zining mohiyati, kuch-quvvati, davomiyligi, ta'sirchanligi, yo'nalganligi bilan bir-biridan keskin farq qilishlariga qaramay, ularni emotsiya sifatida talqin qilish oddiy safsataga aylanib qolgan bo'lar edi. Shu boisdan ularning o'zaro eng muhim farqi shundaki, birisi ijtimoiy (hissiyot), ikkinchisi esa (emotsiya) individual, xususiy ahamiyat kasb etadi.

## **16.2.Emotsiya, hissiyotning impressiv tomoni, emotsional harakatlarning ekspressiv tomoni, dinamik stereotip, ambivalentlik. Hissiyot va emotsional holatlarning fiziologik asoslari**

Ta'kidlab o'tilgan mulohazalarga qaramasdan, hissiyot bilan emotsiyaning o'zaro bir-biridan qat'iy cheklab qo'yish ham ba'zi anglashilmovchilikni keltirib chiqarishi mumkin. Faoliyat, xulq-atvor, muomala subyekti o'zining shaxsi hamda jamiyati uchun ahamiyati hisoblangan narsalar va hodisalarni aks ettiruvchi munosabati hissiyotda mujassamlashadi. Shaxsning individual hayoti va faoliyatiga aloqador (xohfoydali, xohzararli bo'lishdan qat'iy nazar) omillar, qo'zg'ov-chilar, turtkilarni ifodalovchi hamda kelib chiqishi instinktlar, shartsiz reflekslar, irsiy belgilar (ovqatlanish, jinsiy, himoyalani, qo'rqish va boshqalar) bilan bog'liq sodda hissiy holatlar «emotsiya» deyiladi. Emotsiyalar nafaqat insonlarga, balki jonli rivojlangan mavjudodlarga ham taalluqli ruhiy (psixik) holatlardir. Hayvonlardagi emotsiyalar o'zgarishi murakkab bo'lgan tabiiylik (irsiy) alomatlariga asoslanuvchi sodda tuzilishga egadir. Odam bilan hayvon emotsiyalari o'zlarining mohiyati, tuzilishi, ta'sirchanligi, jadalligi, sifati, shakli bilan keskin tafovutlanadi. Emotsiyalar tashqi ko'rinishga xosligi bilan, muvaqqat xususiyatga ega ekanligi bilan hissiyotdan farqlanadi. Shuni aytib o'tish joizki, hissiyot hayvonot olamiga xos kechinma emas, u aql-zakovat subyekti sanalmish hazrati insongagina xos, xolos, chunki empatik (hamdardlik) his-tuyg'ular shaxsning mukammallik bosqichiga ko'tarilishiga kafolat negizidir.

Hissiyot bilan emotsiya (uning yuksak darajalari nazarda tutiladi) inson shaxsining ijtimoiy-hayotiy shart-sharoitlarida yuzaga kelgan, odamning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida shakllangan, muayyan ijtimoiy muhitda (jamiyatda) istiqomat qiluvchi kishilar tomonidan o'zlashtirilgan g'oyalar, me'yorlar, qonun-qoidalar, nizomlar, qadriyatlarini aks ettiruvchi anglanilgan his-tuyg'ular, murakkab ichki kechinmalarni vujudga kelish jarayonidir.

Hissiyotda shaxs psixikasining o'ziga xos jabhalari, inson faoliyatining ayrim jihatlari sifatida harakatdagi, tevarak-atrofdagi voqelikni odam bosh miyasida turli-tuman shaklda ichdan aks ettiriladi. Shuning uchun hissiyot borliqda sodir



bo'layotgan narsa va hodisalar yuzasidan shaxs uchun ahamiyatli, qadr-qiyimatli alomatlari tuyg'usidan darak beruvchi signallar sistemasi tarzida talqin qilinadi.

Yaqqol voqelikda sezgi a'zolariga ta'sir etuvchi har xil qo'zg'ovchilaridan ba'zich birlari alohidalanadi, o'zaro mos tushganlari esa birlashadi, favqulodda namoyon bo'la boshlagan his-tuyg'ular bilan ular aralashib ketadi. Buning natijasida muayyan qo'zg'ovchilar tirik mavjudotlar uchun xotirjamlik yoki bezovtalik signaliga aylanadi, hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasini shakllantiruvchi shartli refleklar tizimini barqarorlashtiruvchi omil tariqasida aks etadi. Hissiyotning bunday tarzda signal funksiyasining bajarishi uning impressiv (lotincha so'zidan olingan bo'lib, taassurot degan ma'no anglatadi) jihati deb nomlanishda o'ziga xosligi shundaki, hissiyot tasavvur qilinayotgan obrazlarga, fikran rejalashtirilayotgan maqsadlarga mayl, faollik, intilish uyg'otadi, shaxsning faoliyati va xatti-harakatlarining muvaqqat yoki uzluksiz motiviga aylanadi. Ushbu fiziologik jarayonning mohiyatini tushuntirishda I.P.Pavlov mana bunday yondashadi: tirik mavjudodlarning tabiiy muhitga moslashuvida qat'iylashadigan yoki zaiflashadigan dinamik stereotiplar tufayli hissiy va emotsional kechinmalarning ijobiy yoki salbiy ko'rinishi vujudga keladi. I.P.Pavlovning talqinicha, dinamik stereotip - bu tashqi taassurotlarning ma'lum tarkibda takrorlanishi natijasida hosil qilingan shartli refleklar ta'siridagi nerv bog'lanishlarining barqaror tizimidir. Tirik mavjudod hayoti va faoliyatida qiyinchiliklarga, qarshiliklarga uchrasa, dinamik stereotip «zaiflashuvi» yuzaga keladi, buning oqibatida salbiy emotsional holatlar, kechinmalar hosil bo'ladi.

His-tuyg'ular va emotsional holatlar kechishining turli shakllari, ko'rinishlari nafaqat signal funksiyasini bajaradi, balki ular shaxsning faoliyati, xulq-atvori ustidan boshqaruvchanlik funksiyasini amalga oshiradi. Yuksak hislar bu ma'noda ustuvor rol o'ynaydi (vijdon hissi, mas'uliyat va vatanparvarlik tuyg'usi, empatik, ya'ni hamdardlik kechinmalari va boshqalar). Hatto emotsional holatlar, hodisalar, harakatlar shaxsning tana a'zolari o'zgarishida o'z ifodasini topadi va ichki hissiy kechinmalarning tashqi alomatlarini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Ovoz ohangi, sur'ati, tembri, chastotasi o'zgarishi, mimika, imo-ishora, pantomimika, organizmning qizarishi, oqarishi, nafas olish va qon bosimidagi beqaror holatlar ixtiyorsiz yoki ixtiyoriy, ongli ravishda kechishidan qat'iy nazar emotsiyaning ekspressiv (lotincha degan so'zdan olingan bo'lib, ifodalash degan ma'noni bildiradi) jabhasi deyiladi.

Shaxs hissiyotning subyektivi hisoblanib, mazkur holatning namoyondasi, uni aks ettiruvchi tariqasida olamni anglash, bilish jarayonida o'zining shaxsiy faoliyatini (xulq-atvorini) maqsadga muvofiq amalga oshirish uchun hissiy kechinmalarni o'zgartirish qudratiga ega. His-tuyg'ular shaxsdan ajralgan holda vujudga kelmaydi, shuning uchun ular hissiyot subyektivi bilan birga hukm suradi, binobarin, hissiy kechinmalar aniq insonga taalluqli bo'ladi, xolos. Insonda emotsional taassurot qoldiradigan, yuz tuzilishida tabassum yoki qayg'u, goho ajablanish uyg'otadigan narsa va hodisalar hissiyotning obyektivi bo'lib hisoblanadi. Shaxsdagi emotsional o'zgarishlar uning hayoti va faoliyatida, shaxslararo munosabatida, insonlar bilan muomalaga kirishishda, ayrim hollarda biron-bir voqelik to'g'risida xayol surganda, armon tuyg'usi odamga xotirjamlik bermaganida yuzaga keladi.

### **16.3.Odam va hayvon emotsiyalari. Hissiy holatlarning ifodalanishi**

Hissiyot subyektiv ichki kechinmalarda ifodalansa ham uni aniqlash mumkin, chunki dildagi qayg'u alamlar, afsuslanish, achinish, quvonish, o'zidan nolish, ko'z va yuz harakatlaridagi bezovtalanish, hadiksirash, hayajonlanish tashqi tana a'zolarida, nutq faoliyatida, sustlik, loqaydlik hukmronlik qilganida bevosita ifodalanadi. His-tuyg'ular ixtiyorsiz ravishda vujudga kelmaydi, shuning uchun ular qat'iy ravishda determinatsiyalashgan (sababiy bog'langan) psixofiziologik xususiyatga egaligi tufayli u yoki bu tashqi ko'zg'atuvchi ta'siriga nisbatan munosabat bildirish (javob reaksiyasi) tarzida hosil bo'ladi. Vaziyat, shart-sharoitlar hissiyotning mexanizmi tariqasida xizmat qilishi mumkin. Shuni ham aniqlashtirish lozimki, vaziyat ham, sharoit ham tabiiy (biologik), subyektiv

(shaxslararo munosabat) ko‘rinishlarda vujudga kelganligi sababli hissiyotning mohiyati, sifati va shakliga bevosita o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Qattiq sovuq, favquloddagi chang-to‘zon, xonada tok bo‘lmasligi, qo‘pol muomala, loqayd munosabat, avtoritar xulq-atvor va boshqalar vaziyatga, sharoitga yaqqol misol bo‘la oladi.

Hissiyotning determinizm (sababiy bog‘lanish) printsipligiga asoslanganligidan qat‘iy nazar shaxs o‘zining faoliyatida, xulqida, muomalasida hissiyotini, emotsional holatlarini idora qilishga, ba‘zi hollarda o‘zini tutib turishga, voqelikka yoki hodisalarga nisbatan oldingi bahosini o‘zgartirishga, ichki murakkab kechinmalarini ongli ravishda boshqarishga intiladi. Shaxsda vujudga keluvchi subyektiv holatlar, his-tuyg‘ular o‘zining yuzaga kelishi, namoyon bo‘lishi, mohiyati jihatidan hamisha obyektiv voqelikning timsoli, inson miyasiga singdirilgan, qayta ishlangan ko‘rinishidir. Obyektiv borliq yuzaga keltiradigan subyektiv his-tuyg‘ular, kechinmalar moddiy tana a‘zolaridagina aks etish bilan cheklanmasdan, balki muayyan o‘zgarishlar shaxsning faoliyatida, nutqida, mulohazasida, xulqida bevosita ifodalanadi.

Shaxs hissiyot obyektiga nisbatan qanday shaxsiy munosabatda bo‘lishi favquloddagi holatda «Men»lik ifodalanishi his-tuyg‘ularning sifati deyiladi. Masalan, shaxsning muhabbati, rahm-shafqati, hayajonlanishi, qahr-g‘azabi, bezovtalanishi, ruhan ezilish kabi sifatlarning muayyan tasnifi (klassifikatsiyasi) mavjuddir. Sifatlar ikki xil yo‘sinda vujudga kelishi mumkin, jumladan, shaxsning o‘z ehtiyojini qondirishga va unga qarshilik (to‘sqinlik) qilishga aloqador narsa va hodisalarga nisbatan munosabatlari son-sanoqsiz bo‘lishi mumkin. Hissiyotning sifatlari shaxsning narsa va hodisalarga nisbatan emotsional munosabatining o‘ziga xos va zaruriy alomatlari bo‘lib hisoblanadi. Psixologiyada shaxsning hayotiy va tabiat omillariga nisbatan emotsional munosabatlari ijobiy va salbiy turkumlarga ajratiladi. Ijobiy sifatlar narsa va hodisalarga nisbatan ehtiyoj maqsadga muvofiq ravishda qondirilsa, u holda rohatlanish, quvonch hislari ifodasi yuzaga keladi.

Ehtiyojlarni qondirishda to‘siqlar, xalaqit beruvchi omillar namoyon bo‘lsa, u taqdirda noxush kechinmalari, norozilik hislari tug‘iladi. Ijobiy va salbiy sifatlar

bevosita yo'sindagi emas, balki bilvosita yo'l bilan ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, hayot quvonchlarini eslash dadillikni uyg'otsa, muvaffaqiyatsizlikni xayolga keltirish hadiksirashni hosil qiladi.

Shaxs individual ehtiyojlaridan tashqari, ijtimoiy ehtiyojni qondirish bilan bog'liq motivlar ta'siri tufayli ham ijobiy yoki salbiy hissiyot sifatlarini aks ettirishi kuzatiladi. Masalan, talabaning tanlovda qatnashishi quvonch hislarini yuzaga keltirsa, ikkinchi turdagi muvaffaqiyatsizlik xafagarchilik tuyg'usini namoyon etadi. Shaxsning maqolasi (gazeta, jurnalda) bosilib chiqsa faxrlanadi, kimningdir tomonidan u tanqid qilinsa ruhan eziladi. Ota-ona farzandini maqtasa quvonadi, koyisa esa xafa bo'ladi va hokazo.

Hissiyotning ijobiy va salbiy sifatlaridan tashqari, uning ikkiyoqlamalik (yunoncha, ikkiyoqlama vazifa, lotincha «kuch» degan ma'no anglatib keladi) va noaniqlikdan iborat asosiy xislatlari mavjuddir. Bu ruhiy holatlarda shaxsda ikkilanish hollari, noaniq tushunish munosabatlari aks etadi, lekin rohatlanish bilan qanoatlanmaslik hislarini bir-biriga qo'shish mumkin emas.

Ambivalent (ikkiyoqlama) hissiyotda rohatlanish bilan azoblanish tuyg'ulari o'zaro qo'shilib ketish bilan cheklanibgina qolmasdan, balki uyg'unlashgan, aralashgan holda ularning kechishi muhim xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Masalan, rashq hissida muhabbat bilan nafrat bir-biri bilan uzviy bog'lanib ketadi. Xo'randa qorni ochligi uchun sho'r ovqatni yeb biologik ehtiyojni qondirib, bir tomondan rohatlanishi, ikkinchi tomondan esa noxush hisni kechirishi mumkin. Tashnalikdan iliq suvni ichib ham rohatlanishi, ham noxushlikka berilishi kuzatiladi. Kiyimi yupun shaxsga qalinroq to'n berilsa, bir tomondan quvonadi, ikkinchi tomondan esa uyaladi. Oshiqlarda sevish va o'zidan nafratlanish holati kechadi yoki hijron shirin qayg'u, lekin yoqimli iztirob tarzidagi kechinmalar ikkiyoqlama hissiyotga yorqin misoldir.

Shaxsning emotsional dunyosi uzluksiz tarzdagi ziddiyatlar, nizolar va ularning hal qilinishi, oldining olinishini aks ettirishdan iborat jarayonlar majmuasidir. Asosan ijobiy, salbiy va ikkiyoqlama hissiyotni keltirib chiqaradigan omillar quyidagilardan iboratdir: 1) shaxs bilan muhit o'rtasidagi (tabiiy muhit,

ijtimoiy muhit orasidagi) har xil mazmun hamda shakldagi munosabatlar; 2) tana a'zolari, ichki organizm tarkiblari muhitidagi munosabatlarning nisbiy muvozanati o'zgarib turishi; 3) favquloddagi vaziyatlar tufayli yuzaga keladigan har xil kechinmalar va boshqalar.

His-tuyg'ularning yana bitta (to'rtinchi) sifati shaxsning hissiyot obyektlariga nisbatan emotsional munosabatlarining qisqa muddatli aks etishini ta'minlovchi tashqi ta'sirining noaniqligi ifodalanishidir. Shuningdek, obyektlarning taassurotlari uzoq muddatli xususiyatga ega bo'lsa, bunday emotsional holatlar munosabatlarning sifati bo'lishi mumkin; Shaxs o'zining turmush tajribasiga noma'lum, yap-yangi narsalarga duch kelsa, bu voqelik uni to'lqinlantirishi, hayratlantirishi, unda havas va qiziqish uyg'otishi mumkin. Bu hissiy voqelik (hodisa) yangi taassurotni anglashning hissiy jabhasi bo'lib hisoblanadi. Tabiiy va ijtimoiy muhitning anglab olish chigal hodisasi ehtiyoj bilan bog'lanishdan hamda muayyan barqaror munosabat yuzaga keltirishdan oldin hissiy holatning predmetiga aylanadi. Shuning uchun ma'lum kechinmalarining negizida tanho «bu nima refleksi»ni tushunish ehtiyoji yotadi. Bilish faoliyati bilan uyg'unlasha borgan anglash hissi beqarorligi, qisqa muddatliligi bilan tafovutlanadi hamda obyektga nisbatan yengilroq salbiy yoki ijobiy munosabat sifatiga aylanadi.

Hissiyotning mazmuni turli-tuman bo'lib, u shaxsning hayoti va taraqqiyoti imkoniyatlari bilan bog'liq obyektlarga, hatto bevosita rohatlanish (azoblanish) hislarini yuzaga keltiruvchi narsalarga nisbatan munosabatlarida ifodalanadi. Demak, shaxsning hissiyotlari turlicha moddiy va madaniy ehtiyojlariga asoslanadi, ularni qondirishga yordam beradigan omil ijobiy emotsiyani yuzaga keltiradi, so'ng barqaror hissiyot singari mustahkamlanadi. Inson ehtiyojini qondirishga xalaqit beradigan narsa salbiy emotsional holatni vujudga keltiradi hamda hissiyot tariqasida mujassamlashadi.

Hissiyotning mazmuni to'g'risida mulohaza yuritilganda shu narsani eslatib o'tish joizki, his-tuyg'ular barqarorligi, maqsadga muvofiqligi: birinchidan, shaxsga hech qanday xavf-xatar, tahdid solmayotganligini, ikkinchidan, insonning hayoti va faoliyatida uni baxt-omad kutayotganligini, uchinchidan, shaxslararo

munosabati, jamiyatda tutgan mavqeini, to'rtinchidan, tana a'zolarining salomatligini ro'y rost aks ettiradi. Bu ko'rinishlarning barchasi ijobiy sifatlar ustuvorlik qilayotganligidan darak beradi, binobarin, yutuqlarga erishish ehtimoli darajasi yuksakligi, ijtimoiy yoki shaxsiy kutilma esa kafolatlanganligini anglatadi.

Shaxs shaxslararo munosabatning mahsuli bo'lganligi tufayli undagi hissiyotlarning mazmuni, inson kamol topishi bilan uzviy bog'liq tarzda, ko'lami kengayib boradi, buning natijasida emotsional holatlar shaxsiy tor doiradan tashqari chiqib, tabiat hodisalari, jamiyat muammolari (iqtisodiy, siyosiy, tarixiy, ma'naviy jabhalar)ga taalluqli munosabatlarni o'zida ma'naviy, mazmuniy, shakliy jihatdan mujassamlashtiradi. Xuddi shu bois mas'uliyat va loqaydlik, muloqotmandlik va odamovilik, g'azab va shavq, simpatiya va antipatiya, optimizm va pessimizm, xursandlik va xafalik, qahramonlik va qo'rqqoqlik, quvonch va qahr, ishtiyoq va zerikish, egoistlik va alturistlik, sofdillik va g'arazgo'ylik, mehnatsevarlik va dangasalik, samimiylik va laganbardorlik kabilarning barchasi kelib chiqishi (genezisi) jihatidan ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, quyidagi jabhalari bilan ajralib turuvchi: a) shaxsning shaxsiy nuqtai nazari; b) ijtimoiy hayotda egallagan mavqei; v) hayot va faoliyatda faolligi; g) jamiyatdagi hamkorlik faoliyatda qatnashishi; d) guruh yoki jamoada shakllangan shaxslararo munosabatlari bilan bog'liq hissiyotlardir.

Shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, shaxsning ba'zi his-tuyg'ulari ularni ro'yobga chiqaruvchi omillarning takroran ta'siri natijasida mustahkamlanib, uning (insonning) hukmron, ustuvor, barqaror emotsional xususiyatiga aylanadi. Shu sababdan shaxslarning xushfe'l yoki jaholatli, qiziquvchan yoki sovuqqon, qo'rqqoq yoki jasur, mehribon yoki bag'ritosh, xushmuomala yoki qo'pol, kamgap yoki mahmadona degan yo'sinda inson (shaxs) sifatida tavsiflash, baholash mumkin. Milliy tarbiyaning, milliy g'oyaning asosiy vazifalaridan biri mamlakatimiz fuqarolarida milliy istiqlol g'oyalariga sodiqlik, fidoiylilik, vatanparvarlik, mas'uliyatlilik ruhidagi yuksak his-tuyg'ularni shakllantirishdan iboratdir. Mustaqillik ideallariga munosib shaxslarni kamol toptirish uchun, vatan ishq bilan

yonuvchi faol, shijoatli, irodasi bukilmas, barqaror motivatsiyaga ega bo'lgan insoniy sifatlarni ularda shakllantirish maqsadga muvofiq.

Shuni eslab o'tish lozimki, hissiyot o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, uning kuchayishi yoki susayishiga qarab qanday oqibatlarga olib kelishini oldindan bashorat qilish yoki payqash mumkin. Shaxsning his-tuyg'ularida ham barqaror, ham o'zgaruvchan jabhalari birgalikda hukm suradi.

Shu sababdan shaxsning hissiyotida hukmron, ustuvor his-tuyg'ular mavjud bo'lishiga qaramay, ular vaziyat, sharoit yangilanish bois keskin o'zgarishlarga uchraydi, dinamik stereotiplar zaiflasha boshlaydi. Shuning uchun psixologiyada hissiyot o'zgarishining dinamikasi degan atamalar birikmasi uzluksiz ravishda qo'llanilib kelinadi. Shaxsda namoyon bo'layotgan hissiyot asta-sekin jadallashib borgani evaziga u ruhiy kechinma sifatida mustahkamlanib qolishi mumkin. Masalan, jahon xalqlarida yer kurrasining u yoki bu joylarida qo'poruvchilik ko'rinishlariga jirkanch nazar bilan qarash tuyg'usi uyg'ongan bo'lsa, keyinchalik terrorizmga (lotincha, kuch ishlatish bilan qo'rqitish demakdir) qarshi shafqatsiz kurash, nafrat umumiy militarizmga (lotincha, harbiylashtirish ma'nosini anglatadi) yo'naltirildi. Xalqlarda narkotik (yunoncha - miyani aynitadigan) moddalarga nisbatan jirkanch tuyg'u kuchayib borishi, dinamikasi sababli narkobiznes (inglizcha - foyda degani) bilan ayovsiz kurash insoniyat genini (zotini) buzilishiga yo'l qo'ymaslikka o'sib o'tdi. Shaxs kechirayotgan his-tuyg'ular mazmundor, aks ettirilayotgan hodisalar rang-barang, o'zaro ta'sirlar, aloqalar, munosabatlar serqirra, ko'pyoqlamalik xususiyat kasb etsa, u holda hissiyot dinamikasiga puxta negiz hozirlaydi.

Lekin shuni ham ta'kidlash ma'qulki, hissiyot dinamikasi har xil kechishi, uning xususiyati, yo'nalishi bir oz o'zgarishi mumkin. Chunki hissiyot bir yo'nalishda kuchayib borish bilan bir qatorda uning susayishi, hatto so'nib borishi, haddan tashqari zaiflashuvi ham kuzatiladi. Masalan, intizomni buzgan xodimni «haydash» bilan qo'rqitish emotsional ta'sirini yo'qotadi, agarda biror jazo chorasi qo'llanilmasa, mabodo talabani dars qoldirishi po'pisa qilish bilan cheklansa, unda qo'rqinch ruhiy holati yo'qoladi. Ana shunday hodisalar va nomutanosibliklarning

takrorlanishi sababli emotsional moslashuv (adaptatsiya) jarayoni vujudga keladi, demak, hissiyotda o'zgarish sodir bo'lmaydi. Agarda hissiyot obyektining (narsa, hodisa, holat kabilarning) mazmuni, ma'nosi shaxsda qiziqish uyg'ota olmasa, bunday holda emotsion to'yinish yuzaga keladi, oldin qiziq tuyulgan narsa keyinchalik zerikarli, yoqimsiz, noxush kechinmalar hosil qila boshlaydi. Shaxs bir necha marta surunkasiga axborot, qo'shiq, hangoma eshita bergach, unda hayajonlanish, rohatlanish, kayfiyat ko'tarilishi paydo bo'lmaydi, aksincha insonda zerikish hissi uyg'onadi, ularni eshitish esa jahl chiqazadi. Shuning uchun xoh ma'lumot, xoh yumor bo'lishdan qat'iy nazar yangilik alomatlarisiz insonda qiziqish yo'qoladi.

#### **16.4.Hissiy kechinmalarning shakllari. Hissiy ton, kayfiyat, affekt, stress xolatlari**

Emotsional holatlar boshqa ruhiy jarayonlar singari miya faoliyatining natijasi yoki mahsuli bo'lib hisoblanadi. Emotsional holatlarning yuzaga kelishiga tabiatda va jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, munosabatlar, aloqalar, taassurotlar asosiy sababchidir. O'zgarishlar o'z navbatida, birinchidan, shaxs hayoti va faoliyatining jadallashi yoki pasayishiga, ikkinchidan, insondagi ayrim ehtiyojlarning paydo bo'lishiga yoki yo'qolishiga, uchinchidan, odam ichki organlari funksional holatlarining beqarorlashuviga olib keladi. His-tuyg'ular uchun eng xususiyatli fiziologik jarayonlar negizi sifatida shartsiz va shartli reflekslar xizmat qiladi va ularning muayyan tizimi bosh miya katta yarim sharlari po'stida yuzaga keladi hamda shu joyda mustahkamlanadi. Murakkab shartsiz reflekslar esa: 1) yarim sharlarning po'stloqosti bo'shliqlari; 2) miya stvoliga tegishli ko'rish tepachalari (do'ngliklari); 3) nerv qo'zg'alishlarini miyaning yuqori bo'limlaridan vegetativ tizimiga o'tkazib beruvchi markazlari orqali amalga oshiriladi. Shaxsda his-tuyg'ularning kechishi hamisha miya po'sti bilan po'stloqosti markazlarining birlikdagi (hamkorlikdagi) faoliyati natijasida ro'yobga chiqadi



Shaxs ruhiy olamida, uni qurshab turgan tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan o'zgarishlar (xoh tabiiy, xoh subyektiv bo'lishidan qat'iy nazar) kechinmalar subyekti (inson) uchun qanchalik qadr-qiyamat, yuksak ahamiyat kasb etsa, hissiy holatlarning mazmuni shunchali purma'no bo'ladi. Buning ta'sirida yuzaga keladigan muvaqqat bog'lanishlar tizimining qayta qurilishi qo'zg'alish jarayonini hosil qiladi. Mazkur jarayon miya katta yarim sharlari po'stida tarqalib, so'ng po'stloqosti markazlarini egallab oladi. Katta yarim sharlar po'stidan pastda turuvchi miya bo'limlarida organizm fiziologik faoliyatining turli markazlari (nafas olish, ovqat hazm qilish va hokazo) joylashgan. Shu sababdan po'stloqosti markazlarining qo'zg'alishi ba'zi ichki a'zolar faoliyatining kuchayishiga olib keladi. Jumladan, nafas olish ritmikasining o'zgarishi (hayajonlanganda bo'g'ilib qolishni, og'ir va tartibsiz nafas olishni yuzaga keltiradi), yurak faoliyatining buzilishi (yurak urishini tezlashtiradi), organizmni qon bilan ta'minlash izdan chiqishi (uyalgandan qizarishni, qo'rqqandan oqarishni keltirib chiqaradi, ichki sekretsiya bezlari ishining nuqsonlari ko'z yoshining oqizadi, hayajonlanganda og'izini quritadi, qo'rqqanda «sovuq» ter chiqaradi va hokazo.)

Ilmiy manbalarda talqin qilinishicha, miya katta yarim sharlarining po'sti mo'tadil sharoitida po'stloqosti markazlariga boshqaruv va tormozlov yo'sinida ta'sir ko'rsatadi hamda hissiyotining tashqarida ifodalanishiga yo'q qo'ymaydi. Miya po'sti kuchli darajada qo'zg'alsa, uning ta'sirida boshqaruvchanlik funksiyasi buziladi. Shaxs qattiq charchasa yoki kuchli mast bo'lsa, irradiatsiya oqibatida po'stloqosti markazlari ham qo'zg'aladi, natijada harakatni nazorat qilishi yo'qoladi.

Miya faoliyatining elektrofiziologik tadqiqotlari emotsiyalarning paydo bo'lishida gipotalamolimbiq (yunoncha - bosh miya bo'limi nomi) tizimi va retikulyar formatsiya (lotincha - to'rsimon, bog'lam ma'nosini anglatadi)ning roli ko'rsatib o'tilgan. Ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, emotsional holatlarning fiziologik mohiyati katta yarim sharlar po'stining va po'stloqosti tizimi markazlarining funksiyasigina emas, balki ular: a) miya mexanizmlari faoliyatini faollashtiruvchi retikulyar formatsiyaning, b) miyaning, talamus (ko'rish

do'ngliklari)ning, gipotalamusning (do'nglikosti qismining), v) yarim sharlar yangi po'stlog'i orasidagi limbik sistemaning funksiyalaridir.

Emotsional holatlar uchun po'stloqosti tugunchalarining tarkibiga kiruvchi (miya katta yarim sharlarining oq moddasi bilan birlashuvi kulrang modda yig'indisi) markazlar ham muhim ahamiyatga ega. Agarda miya katta yarim sharlari po'stlog'i harakatlarini birlashtirib, sezgilarni va sa'y-harakatlarni nozik ifoda qilib tursa, miya formatsiyalari tashqi hamda ichki muhitda sodir bo'ladigan o'zgarishlarga organizmning javob reaksiyalarini boshqaradi.

Ma'lumotlarga qaraganda, miya katta yarim sharlari po'stlog'i shikastlansa, tashqi olamdan hamda ichki organlardan keladigan qo'zg'ovchilarning nozik tahlil qilinishi zaiflansa ham emotsional holatlar saqlanib qolaveradi. Masalan, hayvonlar limbik tizimga, do'ngosti (gipotalamus) qismiga, ko'rish tepaliklariga yo'nalgan elektr qo'zg'atuvchilarga, retikulyar formatsiyasining qo'zg'alishlariga xursandlik yoki diqqinapaslik, darg'azablik yoki qo'rqqoqlik, lazzatlanish yoki azoblanish, rohatlanish yoki ko'ngilxijillik sifatida javob reaksiyasi hosil bo'ladi.

Psixofiziolog olimlarning ma'lumotlariga qaraganda, miyaning muayyan joylaridan elektrod yordamida biotoklarni yozib olishning ko'rsatishicha, sut emizuvchilarning gipotalamuslarida ham «rohatlanish», ham «azoblanish» markazlari mavjud ekan. Tajribada «rohatlanish» markazi qo'zg'atilganda yoqimli hislar uyg'ongan, elektr toki bilan «azoblanish» markazi qo'zg'atilganda esa hayvonlar qaltirab, o'zini har tomonga tashlagan. Keyinchalik sut emizuvchilar azoblantiruvchi emotsiyadan qochishga harakat qilganlar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ijobiy va salbiy his-tuyg'ularning shunga o'xshash markazlari bosh miyaning boshqa bo'limlarida joylashganligiga qaramay, shartli ravishdagi rohatlanish va azoblanish markazlari ham mavjuddir.

Emotsiyalar bir-biriga yaqin masofada faoliyat ko'rsatadilar. Tajribada qo'sh (juft) markazlaridan birida elektrod bilan hosil qilingan qo'zg'alish ehtiyojdan kelib chiqqan holda salbiy yoki ijobiy emotsiyadan faqat bittasini vujudga keltirgan, xolos. Ba'zida yondosh joylashgan markazlarda qo'zg'alish tarqalgan bo'lsa, u holda ambivalent yoki ikkiyoqlama reaksiya ro'yobga chiqadi. Shartli

ravishda nomlangan markazlar (rohatlanish, azoblanish) bir-biriga yaqin joylashishiga qaramasdan, har xil tuzilishga ega ekanligi aniqlangan. Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, «azoblanish» markazlari miyaning turli bo'limlariga joylashsa-da, lekin ular yagona tizim bilan boshqariladi. Salbiy emotsiyalardan farqli o'laroq ijobiy his-tuyg'ular va «rohatlanish» markazlari birlari bilan jips aloqaga ega emas. Ta'kidlab o'tilgan mulohazalar emotsiyalar juft hamda qarama-qarshi xususiyatga ega ekanligidan dalolat bermoqda. Shuning uchun har qaysi emotsiya qarama-qarshi turkumiga ega deb qat'iy ishonch bilan aytish mumkin, jumladan, sevgi-nafrat, yoqimli-yoqimsiz, xotirjamlik-bezovtalanish mas'uliyatlik-loqaydlik va boshqalar.

I.P.Pavlov, Ch.Sherrington, P.K.Anoxin, N.A.Bernshteyn, Y.N.Sokolov, T.V.Simonov, D.Lindsley, R.U.Liper, B.I.Dodonov, U.Jems va boshqalarning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, tahlil qilingan markazlarning qo'zg'atilishi shartli reflekslari hosil qilinishini mustahkamlovchi omil hisoblanadi. Buning natijasida elektr qo'zg'ovchi yordami bilan miya katta yarim sharlarining po'stida bilish jarayonlari va xatti-harakatlar stereotiplarining negizini tashkil qiluvchi muvaqqat bog'lanishlar hosil qilinadi. Shartli reflekslarning so'nishi, tormozlanishi, po'stloqning tanlash (selektiv) tizimi miya stvolining uzunasi bo'yicha tepalikosti va po'stloqosti nerv tugunlaridagi «markazlar»ning faoliyatiga bog'liqdir. I.P.Pavlov o'sha davrdayoq, «dinamik stereotip»ni hosil qilgandan keyin oliy nerv faoliyatida uni buzilish salbiy hissiyotlar kechishi uchun negiz bo'ladi, dinamik stereotipni oldindan tayyorlab, so'ng uni o'zgarishi ijobiy his-tuyg'ularni paydo qiladi, deb qat'iy ishontirgan edi.

Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, miyaning tepalikosti qismida (gipotalamusda)gi markazlar rohatlanish yoki azoblanish vaziyatlari ko'p marta takrorlansa ham hech o'zgarimasligi mumkin, lekin miya katta yarim sharlari po'stloqosti nerv tugunchalari bo'ylab yoyilgan markazlar qo'zg'atilishi natijasida emotsional reaksiyalar kuchsizlanishi, hatto so'nishi ham kuzatiladi. Bu voqelik shu bilan izohlanadi-ki, aqliy faoliyat va axloqiy kechinmalar emotsional tusi o'zining o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. Binobarin, organizmning birlamchi

ehtiyojlari yuzasidan signal beruvchi emotsional reaksiyalar takroran qanoatlantirgandan keyin ham soʻnmaydi. Shuningdek, organik jarohat tufayli ogʻriq kamaymaydi, muayyan reaksiyalar oʻzgarmaguncha jismoniy mashqdan maroqlanish shaxs koʻngliga tegmaydi. Buning uchun albatta, salbiy, ijobiy, aralash (ambivalent) signallar insonning hayoti va faoliyatida oʻz ahamiyatini yoʻqotishi kerak. Turli markazlarni qoʻzgʻatganda yuzaga keladigan rohatlanish yoki azoblanish emotsiyalarining sifatiga, darajasiga va barqarorligiga asoslangan holda har bir sharoitda hissiy ifodalangan shartli reflektor aloqalar bir marta mustahkamlanganda hosil boʻlishini, boshqa vaziyatda mustahkamlanish uchun koʻp urinishga qaramay aloqani tiklash mushkul ekanligini izohlash mumkin. Bu oʻrinda shaxsning barqaror emotsional yoʻnalganligi, mayllar mustahkamligi ruhiy hodisasini, uning turmush tarzini, hayotiy ideallarni tushuntirish mumkin. Masalan, mayxoʻr (alkogol) yoki narkoman uchun rohatlanish bilan bogʻliq xatti-harakat birlamchi boʻlganligi tufayli turli ijtimoiy voqealar (oiladagi judolik, ishxonadagi koʻngilsizlik, tabiiy ofat va boshqalar) uni bu yoʻldan toʻxtatib qololmaydi, lekin muvaqqat holat vujudga kelishi mumkin (aytaylik bir necha daqiqa oʻzini tiyib turish), biroq tezda tabiiy ehtiyojga mutelik qilib, «tarki odat - amri mahol» yoʻsinda ish tutaveradi.

Hissiyotlar shaxs faoliyatining muhim jabhasi sifatida insonni keng emotsional sohasini rang-barangligi, koʻpqirraligi haqida hissiy ton (yunoncha, zoʻriqish, urgʻu berish maʼnosini bildiradi), emotsiyalar (lotincha, qoʻzgʻatish, hayajonlash demakdir), affektlar (lotincha, ruhiy hayajon, shijoat, ehtiros maʼnosini anglatadi), stress (inglizcha, zoʻriqish deganidir) va kayfiyat kabi tushunchalar muayyan tasavvur bir imkoniyatga ega.

Hissiy ton (tus). Hissiyot aksariyat hollarda faqat emotsional tus sifatida ruhiy jarayonning oʻziga xos sifat (sifatiy) jihati tariqasida vujudga keladi. Hissiyot bu oʻrinda oʻziga oʻzi emas, balki bilishga intilayotgan, oʻzgartirayotgan, egallayotgan shaxsda maʼlum munosabatni namoyon qiluvchi narsalar, hodisalar va harakatlarning alohida xossasi, xislati hamda xususiyati maʼnosida gavdalanadi. Mazkur narsalarga nisbatan inson shaxsining subyektiv munosabatlari toʻgʻrisida

mulohaza yuritilayotganini odam hamisha ham payqay olmaydi. Masalan, yoqimli muloqotdosh, kulgili hangoma, badbo‘y hid, behayo kino, ishtiyoqli mashg‘ulot, iboli qiz, yaramas xulq, xushchaqchaq yigit, xotirjamlantiruvchi xabar, zahmatli mehnat va boshqalar.

Emotsional ton yoki hissiy tus (masalan, affektiv ton) ba‘zi hollarda barcha shaxslarda tug‘ma, nasliy xususiyat kasb etishi mumkin. Jumladan, og‘riq hissi va boshqa xususiyatli kuchli qo‘zg‘atuvchilar bir davrda aks etgan yoqimsiz (noxush) hissiy ton bilan ajralib turadi. Masalan, (lotincha, simob, egallovchi degan ma‘no anglatadi), ya‘ni simob bilan boshqa organik moddalar birikmasidan tarqalgan hidlar har qaysi ruhan sog‘lom insonlar uchun yoqimsiz, jirkanch taassurot uyg‘otadi. Shuningdek, ba‘zi ranglar birikmasi (omixtasi), shilimshiq pardalarning qo‘zg‘alishi, qamishlarning ishqalanishi, egovning ovozi ham xuddi shunday iz qoldiradi. Shu bilan birga idrok obrazlari va tasavvurlarining aksariyat hissiy tonlari (tuslari) oldingi emotsional jarayonlaridan saqlanib qolgan izlar, turmush tajribaning saboqlari ((aks sadolari) insonlarda o‘xshashligi tufayli «tug‘ma» deb baholanishi mumkin. Hissiy ton shaxsning ehtiyojlarini atrofdagi narsalar va vaziyatlar qoniqtirishi yoki qoniqtirmasligi, faoliyatning esa muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kechishini yaqqol namoyish etishiga xizmat qiladi. Shaxsning psixologik xislatlariga binoan hissiy ton (tus) o‘ziga xos (yunoncha, o‘ziga xos, qorishmoq, qorishuv ma‘nosini bildiradi) xususiyatini kasb etadi, bunday ta‘bli odam boshqalar uchun befarq tuyulgan narsalarga ham jirkanch munosabatini namoyish qiladi, masalan, duxobaga tegishni, baliq, yog‘, gul hidlarini yoqtirmaydi.

Shuni alohida ta‘kidlash o‘rinliki, ko‘rish, eshitish, hidlash, kinestetik (harakat) sezgilarga hamda idroklarga taalluqli hissiy ton muhim amaliy ahamiyatga ega. Masalan, xonalar, ish joyi, transport vositalarining rangi (tusi) taassurotidan vujudga kelgan yoqimli va yoqimsiz hissiy ton mehnat samaradorligiga, xizmatchilarning kayfiyatiga sezilarli ta‘sir o‘tkazadi. Kimyoviy o‘g‘itlar, sabzovotlar yoqimsiz hidi, ishlab chiqarishdagi shovqinlar, tovushlar hissiy ton jihatidan mehnat unumdorligini pasaytiradi. Xotirjamlik, yoqimsiz

musiq, iliq shaxslararo munosabatl, muomala maromi, ahillik muvaffaqiyat kafolati, ijtimoiy taraqqiyot omili hisoblanadi.

### **16.5.Yuksak hislar. Praksik hislar, ahloqiy hislar, estetik hislar, intellektual hissiyotlar**

Emotsional jarayonlar, holatlar yoki tor ma'noda emotsiyalar hissiy kechinmalarining o'ziga xos xususiyatli shakllaridan bittasidir. Emotsiya - u yoki bu hissiyotning inson tomonidan bevosita kechirilishi (kechishi) jarayonidan iboratdir. Masalan, shaxs tomonidan musiqani sevish emotsiyani vujudga keltirmaydi, balki buning uchun musiqani eshitish, ijrochi mahoratiga tasanno bildirish, undan hayajonlanish yoki asar ijrosi yoqmasa g'azabli hissiy kechinma hosil bo'lishi ijobiy, bu salbiy emotsiya deyiladi. Qo'rqinch, dahshat hissiy kechinma sifatida obyektlarga shaxsning munosabatini aks ettirib, turlicha shaklda namoyon bo'lishi mumkin: odam dahshatdan qochadi, qo'rquvdan serrayib qoladi, o'zini idora qila olmaydi har tomonga uradi, hatto xavf-xatarga o'zini tashlashi ham mumkin.

Ko'pincha emotsiyalar o'zining ta'sirchanligi bilan bir-biridan ajralib turishiga qaramay, bunday sifatli hissiy holatlar stenik (yunoncha so'zidan olingan bo'lib, kuch degan ma'no anglatadi) xususiyatli deyiladi. Bunday emotsiyalar dadil xatti-harakatlarga, mantiqiy mulohazalarga, ijobiy izlanishlarga kuch-quvvat, qanot bag'ishlaydi. Masalan, xursandchilikdan shaxs «parvoz qiladi», «yulduzni narvonsiz oladi», kimlargadir xolis yordam qilishga shoshadi, faollik, tinib tinchmaslik uning sifatiga aylanadi. Aksariyat hollarda xushxabar, muvaffaqiyat shaxsda stenik xususiyatli emotsiyalarni vujudga keltiradi. Ba'zi hollarda emotsiyalar o'zining sustligi, zaifligi, nursizligi bilan tavsiflanadi, bunday hissiy holat astenik (yunoncha so'zidan olingan bo'lib, kuchsizlik, zaiflik ma'nosini bildiradi) deb ataladi. Bunday hissiyot insonni bo'shashtiradi, uni xayolga cho'mdiradi, xayolparast qilib qo'yadi, shu sababdan favqulodda shaxsdagi rahmdillik befoyda emotsional kechinmaga, uyalish vijdon azobiga, andisha esa qo'rqqolikka aylanib qolish xavfi kuchli.

Har qanday vaziyatda ham emotsional xatti-harakat, faoliyat motivlari bo'lishidan tashqari, ular ba'zida faoliyatni tashkillashtiruvchi, goho uni izdan chiqaruvchi omilga ham aylanishi mumkin. Emotsional holatlar yo haddan tashqari kuchaysa yoki susaysa, xullas me'yori, maromi izdan chiqsa, u holda shaxs faoliyati maqsadga yo'nalishini yo'qotadi, buning natijasida obyektlar noto'g'ri aks ettiriladi, ular xolisona talqin qilinmaydi, baholashda mantiqiy nuqsonlarga yo'l qo'yiladi.

Affektlar. Haddan ziyod tez kechirishi bilan miyada paydo bo'luvchi, shaxsni tez qamrab oluvchi, jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi, jarayonlar ustidan irodaviy nazoratlarning buzilishiga yetaklovchi (o'zini o'zi boshqarishni zaiflashtiruvchi), organizm a'zolari funksiyasini izdan chiqaruvchi emotsional jarayonlarga affektlar deb ataladi. Affektlar qisqa muddatli bo'lib, ular favquloddagi yong'inga, yarqiragan portlashga, to'satdan kelgan do'lga, to'fonga, kutilmagan silkinishga o'xshab ketadi. Mabodo emotsiya ruhiy to'lqinlanish deyilsa, unda affekt holatlari turli bosqichlardan tuzilgan bo'lib, ular o'zaro o'rin almashib turadi. Ma'lumki, vahimaga, tahlikaga, sarosimaga tushib qolgan, o'ta quvongan, kulgi nashidasi bilan band bo'lgan, umidsizlik tuzog'iga ilingan inson turli vaziyatlarda borliqni bir tekis aks ettira olmaydi. Chunki u mazkur sharoitlarda o'z kechinmalarini har xil ifodalaydi, o'zini turli darajada ushlaydi, harakatlarini esa turlicha boshqaradi. Bunda oraliq miya va miya katta yarim sharlari po'stlog'idagi ma'lum markazlarning kuchli qo'zg'alishi va boshqa markazlarning tormozlanishi me'yordan chiqib ketishi tufayli o'zaro almashinib qoladi. Harakatchanlikning asta-sekin ko'tarilishidan iborat stenik holat astenik holat bilan almashinadi (kuchli holat kuchsiz bilan aralashib ketadi), lekin qayta tiklanishga ulgurmaydi. Masalan, jo'shqin harakatda, ko'z yaltirashida, yuz qizarishida vujudga kelayotgan kuchli jahl ko'rinishlari ko'zning xiralanishi, yuz oqarishi, rang o'chishi bilan bog'liq qattiq g'azabga aylanishi mumkin. Umidsizlik kechinmasida organizmning jo'shqin reaksiyasi ba'zan hushidan ketib qolish holati bilan almashinadi. Ushbu vaziyat lotincha, ya'ni serrayib qolish, karaxt holati deb psixologiyada qo'llaniladi.

Affekt holati boshlanishida shaxs insoniy qadriyatlarining barchasidan uzoqlashib, o'z hissiyotining oqibati to'g'risida ham o'ylamaydi, hatto tana o'zgarishlari, ifodali harakatlar unga bo'ysunmay boradi. Kuchli zo'riqish natijasida mayda, kuchsiz harakatlar barham topadi. Tormozlanish miya yarim sharlari po'stini to'la egallay boshlaydi, qo'zg'alish po'stloqosti nerv tugunchalarida, oraliq miyada avj oladi, xolos. Buning natijasida shaxs hissiy kechinmasiga(dahshat, g'azab, nafratlanish, umidsizlik va hokazolar) nisbatan o'zida kuchli xohish sezadi.

Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, ko'pincha hissiyotlar affektiv shaklda o'tishi tajribalarda sinab ko'rilgan. Jumladan, 1) teatr tomoshabinlarida, 2) tantana nashidasini surayotgan olomonlarda, 3) es-hushini yo'qotgan, telbanoma sevgi afsonalarida, 4) ilmiy kashfiyot lahzasida, 5) tasodifiy qizg'in uchrashuvlarda jo'shqin shodliklar mujassamlashadi.

Affektlar vujudga kelishining dastlabki bosqichida har bir shaxs o'zini tutushini, o'zini qo'lga olishni uddalash qurbiga ega bo'ladi. Ularning keyingi bosqichlarida irodaviy nazorat yo'qotiladi, irodasiz harakatlar amalga oshiriladi, yo'lanmasdan xatti-harakat qilinadi. Affektiv holatlar mas'uliyatsizlik, axloqsizlik, mastlik alomatida sodir bo'ladi, lekin shaxs har bir xatti-harakati uchun javobgardir, chunki u aql-zakovatli insondir. Affektlar o'tib bo'lganidan keyin shaxsning ruhiyatida osoyishtalik, charchash holati hukm suradi. Ba'zi hollarda holsizlanish, jamiki narsaga loqayd munosabat, harakatsizlik, faollik barham topishi, hatto uyquga moyillik yuzaga keladi. Shu bilan birga affektiv shok (fransuzcha, zarba degan ma'no anglatadi) holati ham sodir bo'ladi, buning oqibatida organizmning ichki a'zolari funksiyasi buziladi, hatto yurak xuruji (infarkt lotincha - «xavf to'ldirg'ich», miokard yunoncha tuz - tomir, yurak degan ma'no bildiradi) yuzaga keladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, affektiv qo'zg'alish muayyan davrgacha davom etishi, ba'zan o'qtin-o'qtin kuchayishi yoki susayishi (pasayishi) sodir bo'lib turishi mumkin.

Stress inglizcha so'zidan olingan bo'lib, jiddiylik, keskinlik, zo'riqish degan ma'no anglatadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keskin vaziyat tufayli



vujudga keladigan emotsional holatlarni tadqiq etish psixologiya, fiziologiya, tibbiyot fanlarida keng qo‘lamda amalga oshirila boshlandi. Stress - og‘ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar, ishlar me‘yoridan oshib ketib, xavfli vaziyatlar tug‘ilganida zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo‘riqishlar. Mana shunday sharoitlar va vaziyatlarning barchasini biron-bir emotsiya turi ro‘yobga chiqaradi. Stress emotsional holatining paydo bo‘lishi hamda kechishining psixologik xususiyatlarini aniqlash nafaqat uchuvchilar, kosmonavtlar, dispetcherlar (inglizcha - ishlab chiqarishni muvofiqlashtiruvchi ma‘nosini anglatadi) uchun, balki sudyalalar, korxonalar rahbari, ta‘lim tizimi xodimlari uchun alohida ijtimoiy-psixologik ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya faniga stress tushunchasini olib kirgan olim kanadalik fiziolog G. Sele (1936) sanaladi. U stressni tadqiq qilishda moslashuv alomati (adaptasion sindrom yunoncha - belgi, alomat, ko‘rinish moslashuvi demakdir) masalasiga, uning faoliyatga ijobiy hamda salbiy ta‘sir etishiga alohida ahamiyat bergan. Shuningdek, ekstremal (lotincha - favquloddagi holat, eng oxirgi vaziyat ma‘nosini anglatadi) vaziyatlardagi, murakkab jarayonlardagi stressning o‘ziga xosligi, faoliyatni qayta tashkil qilishgacha (lotincha-tashkilot, tuzilma ma‘nosini bildiradi) olib borishi, shunga o‘xshash sharoitlarda shaxs xulqini bashorat etish (prognoz yunoncha - bashorat ma‘nosini anglatadi) imkoniyatlari G. Sele tomonidan o‘rganilgan.

Tadqiqotchi U.Kennonning gomeostazis (yunoncha o‘xshashlik ma‘nosini bildiradi) haqidagi ta‘limotida stress holati har tomonlama o‘rganilgan. Ushbu termini u psixologiyaga 1929 yilda olib kirgan. Gomeostazis mexanizmda moslashish xususiyatlari yaqqol o‘z ifodasini topadi. Uning mulohazasicha, faoliyat shakllarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida nerv sistemasi va miya funksiyasini oqilona ta‘minlab turishda hamda saqlashda gomeostazis muhim rol o‘ynaydi.

Stress holatida shaxsning xatti-harakatlari o‘ziga xos tarzda o‘zgaradi, unda qo‘zg‘alishning umumiy reaksiyasi paydo bo‘ladi, uning harakatlari tartibsiz ravishda amalga oshiriladi. Stressning kuchayishi esa teskari reaksiyaga olib

keladi, natijada tormozlanish, sustlik, zaiflik, faoliyatsizlik ustuvorlik qila boshlaydi. Lekin stress holatida fiziologik o'zgarishlar tashqi tomonidan qariyb ko'zga tashlanmasligi mumkin. Biroq muammoni yechishdagi qiyinchilik, diqqatni taqsimlashdagi sarosimalik stressning tashqi ifodasi deb taxmin qilinsa bo'ladi. Shaxs stress holatida telefon nomerini adashtiradi, vaqtni chamalashda yanglishadi, ong faoliyati yengil tormozlanadi, idrok ko'lami torayadi va boshqalar.

Stress holatida shaxsning psixologik xususiyatlari, turmush tarbiyasi, shakllangan malakasi muhim rol o'ynaydi. Keskinlikning oldini olishda shaxsning oliy nerv faoliyati, nerv sistemasining xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Undagi yuksak his-tuyg'ular (mas'uliyat, burch, javobgarlik, vatanparvarlik, sadoqat va hokazo) stress holatida xatti-harakat buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Kayfiyat. Shaxsning xatti-harakatlariga va ayrim ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holat kayfiyat deb ataladi. Shaxsning hayoti va faoliyati davomida shodonlik, hazilkashlik, umidsizlik, jur'atsizlik, zerikishlik, qayg'urishlik singari his-tuyg'ular uning ruhiy holatini umumiy tizimiga aylanadi. Ushbu vaziyat ba'zi emotsional taassurotlarning vujudga kelishiga qulay zamin hoziraydi, boshqasi uchun esa qiyinchilik tug'diradi. Inson xafa, ma'yus hissiy holat hukmronligida bo'lsa, u holda tengdoshlarining haziliga, keksalarning o'git-nasihatlariga, maslahatlariga quvnoq kayfiyat chog'dagiga nisbatan mazmun, sifat jihatidan boshqacharoq tusda munosabat bildiradi. Shuning uchun ishlab chiqarish va xalq ta'limi tizimi jamoalarida, rasmiy, real guruhlarida ishchanlik, o'zaro yordam, hamkorlik, hamdardlik, iliq ruhiy muhit yaratish, samimiy muomala maromini shakllantirish ham jismoniy, ham aqliy mehnat samaradorligini oshirishning kafolatidir.

Kayfiyat nihoyatda xilma-xil, uzoq va yaqin manbalar negizida vujudga keladi. Uni barqarorlashtirib turadigan asosiy manbalardan biri shaxslarning ijtimoiy jamiyatda hukmronlik qilayotib umumiy nuqtai nazarlari, hayotning turli jabhalarida aks etuvchi ta'sirlar, chunonchi mehnat muvaffaqiyati va ta'lim yutug'i, rahbar va xodim, o'qituvchi va saboq oluvchi o'rtasidagi munosabatlari,

oiladagi shaxslararo muomala maromi, har xil vaziyatlarda paydo bo'lgan turmushdagi qarama-qarshiliklar, shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari va ta'blarining qondirilishidan qanoat hosil qilishlik yoki qanoat hosil qilmaslik kayfiyatning manbalari bo'lib hisoblanadi. Shaxsning ma'lum muddat ruhi tushib, noxush, zaif kayfiyatda yurishi uning turmushida muammolar yuzaga kelganligidan halovat, tinchlik buzilganligidan dalolat beradi. Bunday vaziyatlar namoyon bo'lganida shaxsga oqilona mulohaza mahsulidan kelib chiqqan holda xushtavozelik bilan ijobiy ta'sir o'tkazish, ruhini tetiklashtiruvchi vositalarni qo'llash, kayfiyatini buzib turgan omillarni batamom bartaraf etish maqsadga muvofiq.

Inson kayfiyatining paydo bo'lishiga va o'zgarishiga ta'sir qiluvchi ikkita omilni tahlillash mutlaqo shart. Ulardan bittasi obyektiv va subyektiv xususiyatli vaziyatdir: a) tabiiy omillarga taalluqli bo'lgan vaziyat (havoning sovuqligi yoki issiqligi, bioritmika o'zgarishi), b) shaxslararo munosabatning noqulayligi va boshqalar. Ikkinchi bir manba sifatidagi talqin qilish mumkin - bu obyekt va subyektiv shart-sharoitlardir. Masalan, mehnat va o'qish faoliyatiga kerakli vositalarning mavjudligi (ish dastgohi, mehnat quroli, yorug'lik, auditoriya, partalar va boshqalar). Ikkinchidan, subyektiv munosabatlar: ilk psixologik muhit, muloqotmandlik maromi, rag'batlantirish, muloqot o'rnatish uslubi, shaxsiyatga tegmaslik, teng huquqlilik, hamkorlik, demokratiya printsiplariga rioya qilishlik, o'zaro tushunish, shaxsning psixologik xususiyatlarini hisobga olish va hokazo.

## **16.6. Shaxs fidoyilik tuyg'usini psixologik baholash. Vatanparvarlik his-tuyg'usini baholash mezonlari**

Psixologiya fanida asosiy hissiyotlar atamasi ko'chma ma'noda qo'llanilib kelmoqda. Tadqiqotlar ichida K.Izartning tasnifi muayyan qiziqish uyg'otadi, lekin his-tuyg'ularning barchasini o'zida qamrab olmaydi. K.Izartning talqinicha: 1) qiziqish - malaka va ko'nikmalar shakllanishiga, o'qishga moyillik uyg'otadigan bilimlarni egallashga yordam beruvchi ijobiy hissiy holatdir; 2) quvonch qondirilishi dargumon bo'lgan yetakchi (hukmron) ehtiyojning qondirilishi

mumkinligi bilan bog‘liq ijobiy hissiy holatdir; 3) hayratlanish - favqulodda ro‘y bergan holatlardan hissiy jihatdan ta’sirlanishning ijobiy yoki salbiy jihatdan ifoda etilmagan belgisidir; 4) iztirob chekish - hozirgacha qondirilish ehtimoli ozmi yoki ko‘pmi mavjud tasavvur qilingan, muhim hayotiy ehtiyojlarning qondirilishi mumkin emasligi to‘g‘risida ma’lumot olinishiga bog‘liq salbiy hissiy holatdir; 5) g‘azablanish - obyektiv tarzida kechadigan, shaxs uchun g‘oyat muhim ehtiyojni qondirish yo‘lida to‘siqlarni yengib chiqadigan salbiy hissiy holatdir; 6) nafratlanish -obyektlarga yaqinlashuv subyektning ma’naviy yoki estetik ideallarga zid kelib qolishi oqibatida ro‘y beradigan salbiy hissiy holatdir; 7) jirkanish - shaxslararo munosabatlarda ro‘y beradigan va shaxsning hayotiy nuqtai nazarlari, qarashlari va xulq-atvoriga nomutanosibligi oqibatida hosil bo‘ladigan salbiy hissiy holatdir; 8) qo‘rquv - shaxs o‘zining xotirjam hayot kechirishiga ziyon yetishi mumkinligi unga real tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mavjud xavf-xatar to‘g‘risidagi xabarni olish bilan paydo bo‘ladigan salbiy hissiy holatdir; 9) uyalish - o‘zining ezgu maqsadlari, xatti-harakatlari va tashqi qiyofasi, nafrati katta muhit kutilmasiga mos kelmaganligi bilan emas, balki o‘ziga loyiq xulq-atvor hamda tashqi siymosi shaxsiy tasavvurlarga ham mos emasligini anglashda ifodalanadigan salbiy hissiy holatdir.

Yuksak hislar. Kishilik jamiyati bilan hayvonot olami o‘rtasida psixologik tafovutlar yuksak hislarda o‘z ifodasini topadi. Yuksak hislar ongli harakatlarni bajarishning obyektiv sharoitlari, yo‘nalishlari, mazmuni bilan uyg‘unlashgan shaxs emotsional holatining barqaror, murakkab tarkibida paydo bo‘ladi va kechadi. Ko‘plab kechirilayotgan emotsiyalarda, affektlarda, kayfiyatlarda yaqqollashgan umumlashma hislar yuksak hislar deb ataladi. Ular o‘z tarkibiga sodda tuzilgan hislarni qamrab oladi, lekin oddiy hislar yig‘indisidan iborat emas, chunki yuksak hislar mazmuni, sifati, shakli bilan alohidalikka ega.

Shaxsda topshiriqni bajarish bilan bog‘liq javobgarlik hissi har xil ma’noda kechiriladi: 1) tashvishlanish emotsiyasi (bir tomondan, xursandlik, ikkinchi tomondan esa qo‘rqish hissi) sifatida; 2) o‘z kuchiga, g‘ayratiga, iftixoriga ishonch emotsiyasi tariqasida; 3) vazifaga jiddiy qaraydigan tengdoshlardan g‘azablanish

emotsiyasi sifatida; 4) shart-sharoitlarni hisobga olishga nisbatan shubhalanish sifatida va hokazo. Tahlildan ko‘rinib turibdiki, javobgarlik hissining mohiyati ularning oddiy yig‘indisidan iborat emas, balki jamoa a‘zolarining ehtiyojiga aylangan voqelikni anglashdir. Masalan, kitob o‘qib lazzatlanish bilan kitobni o‘qib tugatish shodlik hissini farqlamoq lozim.

Psixologiya fanida yuksak hislar quyidagi turlarga ajratiladi: 1) mehnat faoliyatini davomida kechiriladigan hislar - praksik hislar (yunoncha so‘zidan olingan bo‘lib, ish, faoliyat, yumush degan ma‘noni anglatadi); 2) intellektual hislar (lotincha so‘zidan olingan bo‘lib, tushunish, aql degan ma‘noni bildiradi); 3) axloqiy hislar (lotincha so‘zidan olingan bo‘lib, axloqiylik degan ma‘noni anglatadi); 4) estetik hislar (yunoncha so‘zidan olingan bo‘lib, hissiy idrok, hissiy degan ma‘noni aks ettiradi).

Praksik hislar. Shaxsning amaliy hayotining istalgan tarmog‘i, maqsadga muvofiq ongli faoliyati shaxsning ularga nisbatan muayyan munosabatda bo‘lishning muhim sohasiga aylanib qoladi.

Umumiy psixologiya asoslarini puxta egallash orqaligina har bir shaxsda yuksak his-tuyg‘ular, mehnatga ijobiy munosabat, ijtimoiy faollik, komfort hislarini shakllantirish mumkin. O‘zini o‘zi anglash va milliy ongini qaror toptirish orqali mehnatsevar, vatanparvar, fidoiy insonlarni tarkib toptirish lozim. Bozor iqtisodiyotining birmuncha murakkab mexanizmlari qay yo‘sinda ishlashini tushunib yetish, muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsata olish uchun nimalar qilish zaruratini anglash, unga to‘g‘ri yo‘l topa bilish shaxsdan muayyan yuksak tuyg‘u hamda xislatni taqozo etadi.

Hozirgi ijtimoiy muhitda shaxslararo munosabatlar silsilasida «birdamlik ruhi» va «mushtaraklik tuyg‘usi» singari hamkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishning samarali usullari va uslublari psixologiya fanida ishlab chiqilishiga qaramay, bugungi kun talabiga javob beradiganlari yetarli emas.

Umumiy psixologiya fanida xalq xo‘jaligi tarmoqlarini tashkil qilish va ularni boshqarish jarayonida «inson-texnika» tizimdan tashqari («inson-tabiati», «inson-obraz») singari yondashish bundan istisno) munosabatlari muhim ahamiyat kasb

etish, ularning tahlili ko'p jihatdan empirik, amaliy, miqdoriy, tabiiy ma'lumotlarga asoslanishi muayyan darajada yoritilganligiga qaramay, hozirgi davrda «inson-inson», «inson-jamoa», «jamoa-inson», «jamoa-jamoa» munosabatlarining boshqaruv imkoniyatlarini tekshirish talab qilinadi.

Xo'jalikni boshqarishning yangi qonuniyatlari, mexanizmlari, omillari, ijtimoiy manbalari, shaxslararo munosabat usullari, yakka shaxsning ijtimoiylashuvi xossalari, rahbar va tobe kishilar o'zaro muomalasining maromi nizoli vaziyatlarning oldini olish, mazkur jarayonda iliq psixologik muhitning roli, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning imkoniyatlariga doir empirik va metodologik materiallar to'plashning qulay shart-sharoitini yuzaga keltiradi.

Mehnat va ta'lim jarayonlari boshqaruv predmeti hamkorlik faoliyatida shaxsning xulqiga va ongiga guruh ta'sir o'tkazishning xususiyatlarini, rahbar bilan ijrochi o'rtasidagi muomala maromini tekshirish, shaxslararo munosabatlar bosqichlari, shakllari va ruhiy muhitni ta'minlash mexanizmlarini tadqiq etishdir. Xuddi shu sababdan shaxs xislatlarini o'lchash tizimini yaratish dolzarb muammolardan biri hisoblanib, ularning ayrim ko'rinishlarini amaliyotga tavsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning fidoiyligi jamiyat taraqqiyoti, vatan gullab yashnashi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, altruizm tushunchasiga juda yaqin turadi.

His-tuyg'u – insonning nisbatan barqarorligi, umumiyliги, uning shaxs sifatidagi taraqqiyoti davomida shakllangan ehtiyojlari va (xususan) qadriyatlariga mosligi bilan farq qiladigan yuksak o'zaro madaniy bog'langan hissiyotlaridir.

Psixikaning irratsional (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo'lmish hissiyot, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Hissiyotning klassifikatsiyasi. Hissiy holatlarning xilma-xilligi. Hissiyotni klassifikatsiyalashning asosiy shartlari. Sezgining emotsional toni. Affekt va uning biologik o'ri. Situativ hissiyot. Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik hissiyoti. Hissiyotning namoyon bo'lishi. Hissiyotning obyektiv ko'rsatkichlari, ularning ishonchliligi.

Kishi idrok etish, xotirlash, xayol surish va fikrlash jarayonida faqat voqelikni bilib qolmay, balki hayotdagi u yoki bu narsalarga munosabat bildiradi, unda ularga nisbatan ijobiy yoki salbiy his-tuyg'u uyg'onadi. Mammun bo'lish, suyunish, g'azablanish kabilar his-tuyg'ularning ko'rinishlaridir. His-tuyg'ular kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir. His-tuyg'ular o'zining kechishiga ko'ra o'zgarib turadigan psixik jarayondir.

His-tuyg'ularni boshdan kechirishning turli shakllari - emotsiya, affekt, kayfiyat, kuchli hayajonlanish stress, ehtiros ko'rinishlariga ega bo'ladi. His-tuyg'ular shaxsning emotsional sohasini tashkil etadi.

Kishida his-tuyg'ular uning ehtiyojlari qondirilishi jarayoni qanday kechayotganligi belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Barcha psixik jarayonlar kabi emotsional holatlar, his-tuyg'ularning kechishi ham miya faoliyatining natijasi bo'lib hisoblanadi. Emotsiyaning paydo bo'lishi tashqi olamda ro'y beradigan o'zgarishlardan boshlanadi. Bu o'zgarishlar kishi hayoti va faoliyatining jonlanishiga yoki pasayishiga, bir xil ehtiyojlarning paydo bo'lishiga yoki yo'qolishiga, kishi organizmi ichida yuz beradigan jarayonlardagi o'zgarishlarga olib boradi. His-tuyg'ular kechishiga oid fiziologik jarayonlar ham murakkab shartsiz va shartli reflekslar bilan bog'liqdir. «Hissiyot», «emotsiya» va «his-tuyg'u» degan so'zlar ko'pincha sinonimlar sifatida qo'llaniladi. Torroq ma'noda olganda, bu qandaydir biroz doimiyroq his-tuyg'ularning bevosita va vaqtincha boshdan kechirilishdan iboratdir. «Emotsiya» so'zi ruhiy hayajonlanish, ruhiy xarakterlanish degan ma'noni beradi. Emotsiyalar stenik va astenik turlarga bo'linadi. Stenik hislar kishining g'ayratlantirsa, astenik hislar esa uning faoliyatini susaytirib yuboradi. Kishini tez chulg'ab oladigan va shiddat bilan o'tib ketadigan his-tuyg'u affekt hissiy portlash deb aytiladi. Bu paytda kishi ong bilan ishlay olmaydi, o'zini qara olmaydi, nazorat keskin susayib ketadi, iroda o'ziga bo'ysunmaydi.

Kayfiyatlar uncha kuchli bo'lmagan, lekin uzoq vaqt davom etadigan barqaror hisdir. Kayfiyat shodu-xurramlik yoki qayg'uli, tetiklik yoki lanjlik, hayajonli yoki ma'yuslik, jiddiy yoki yengiltaklik, jizzakilik yoki muloyimlik kabilar tarzida kechadi.

Ehtiroslar deb kishi xatti-harakatlari yo'nalishini belgilaydigan, barqaror, chuqur va kuchli hislarga aytiladi. Masalan, rassomlikka, musiqaga ehtiros, bedana urishtirish kabilarga ehtiros. His-tuyg'ular hayvonlarga ham xos. Lekin insonning his-tuyg'ulari o'z mazmuni va kechishiga ko'ra hayvonnikidan tubdan farq qiladi. Masalan, jirkanish, faxrlanish, hasad qilish, shodu-xurramlik, zerikish, hurmat qilish, burchni his etish kabilar faqat insonga xos bo'ladi.

Intellectual aqliy his-tuyg'ularga bilishga qiziqish, ajablanish, shubhalanish, taajjublanish, ishonch kabi hislar kiradi. Bularning barchasi ijobiy xarakterga ega bo'lib kishini bilishga, o'rganishga, ishtiyoq bilan ishlashga undaydi.

Ma'naviy his-tuyg'ularga do'stlik-o'rtoqlik, Vatanga muhabbat, insonparvarlik, hamdardlik, sodiqlik, uyalish, mehnatni sevish kabi his-tuyg'ular kiradi. Bizning axloqiy yetukligimiz, tarbiyalanganligimiz ana shu hislar orqali belgilanadi.

Estetik his-tuyg'ularga bizning go'zal, chiroyli, yoqimli narsalardan zavqlanishimiz, shodlanishimiz, huzur qilishimiz, rohatlanishimiz kabilar kiradi. Bu hislarning manbai go'zal tabiat, san'at, adabiyot, chiroyli turmush kabilar bo'lishi mumkin. Intellectual, ma'naviy, estetik tuyg'ularni faoliyat va muomala jarayonida boshdan kechiramiz. Sotsial voqelikka nisbatan butun hissiy munosabatlar boyligini ifodalagani uchun ularni yuksak his-tuyg'ular deb ham aytamiz.

#### **Nazorat savollari:**

1. Hissiyot deb nimaga aytiladi va uning hosil bo'lish manbalari?
2. Emotsional hislar va uning turlari qaysilar?
3. Affekt nima va qanday qilib uning oldi olinadi?
4. Yuksak hislar qaysilar?
5. Hissiyotning psixologik nazariyalari sanab bering?



## 17 -MAVZU. IRODA

*Tayanch tushunchalar: maqsad, motiv, motivlar kurashi, iroda, iroda akti, irodaviy zo'r berish, qaror, qarorni ijro etish, ijroga baho berish, dadillik, qat'iyatlilik, matonatilik, sabr-toqatlik.*

### 17.1.Iroda haqida tushuncha. Irodaviy harakatlar

Iroda insongagina xos muhim xususiyat bo'lib, u shaxsning turli-tuman faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Iroda inson faolligining muhim tomonini tashkil etadi. Odam tevarak-atrofdagi olamni o'z sezgi, idroklari yordamida bilib, o'rganibgina qolmay, uni o'z ehtiyojlari, zaruriyatlariga moslab o'zgartiradi ham. U o'z aql-idroki yordamida zarur natijani qo'lga kiritish uchun qachon, qayerda va qanday kuch – g'ayrat sarf etish zarurligi, ish faoliyatini qanday tashkil etish kerakligini belgilaydi. Ko'p hollarda murakkab xatti-harakatlar natijasidagina tegishli yutuq qo'lga kiritiladi. Bunday harakat davomida obyektiv va subyektiv qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri keladi.

Kuch-g'ayratni vujudga keltirish, qancha vaqt kuch-g'ayrat zarur bo'lsa, uni o'shancha vaqt saqlab turish uchun kishiga iroda kerak. Iroda kishi ongining shunday bir sohasiki, bu orqali odam o'z ishiga faol kirishadi va uni muvofiqlashtirib boradi. Iroda tufayli kishi o'z shaxsiy tashabbusi bilan, ongli zaruratdan kelib chiqqan holda, oldindan rejaga solingan yo'nalishda va oldindan nazarda tutilgan kuch-g'ayrat bilan tegishli ish harakatlarni bajarishi mumkin. Bundan tashqari, odam o'z psixik faoliyatini tegishli ravishda uyushtirish hamda uni muayyan bir mazmunga yo'naltirishi ham mumkin..

Odam o'zidagi emotsional holatni sirtiga chiqarmaslikka, tashqi tomondan bilintirmaslikka harakat qilishi, goho tashqi tomondan mutlaqo buning aksi bo'lgan holatlarni ifoda etishi ham mumkin. Xullas, iroda, bir tomondan, odam xatti-harakatini yo'nalishga soladi yoki uni biror harakatdan saqlab qoladi, ikkinchi tomondan, mavjud vazifa va talablardan kelib chiqqan holda kishining psixik faoliyatini uyushtiradi.

Odamning irodaviy harakatlari o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini, turli-tuman yumushlarini shunchaki bajarishdangina iborat emas. Balki irodaviy harakat o'ziga xos xususiyatga egadir. Buning ma'nosi shuki, odam o'z oldida turgan va uning uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarga o'zi uchun unchalik ahamiyatli bo'lmagan boshqa xatti-harakat motivlarini bo'ysundiradi.

Iroda kishining o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarishni, bir qator intilish va istaklarni tiyib turishni taqozo etadi. Irodaviy harakat shundan iboratki, bundan odam o'zini-o'zi idora qiladi, o'zini-o'zi qo'lga oladi, o'z his-tuyg'ularini nazorat qilib turadi va kerak bo'lib qolgan paytlarda ularni bosa oladi. Irodaning namoyon bo'lishi ish-harakatlarda ongning ishtirok qilishi bilan bog'liq bo'lgan shaxs faolligidir.

Irodaviy faoliyat shaxs tomonidan keng miqyosda anglangan va psixik jarayonlarni amalga oshirish xarakteri jihatidan irodaviy zo'r berishni talab qiladigan bir qator ishlarni taqozo qiladi.

Ko'pincha irodaviy faoliyat odamning hayot yo'lini aniqlaydigan, uning ijtimoiy qiyofasini ko'rsatadigan qarorlarga kelish bilan bog'liq bo'ladi. Bunda burch hissi, Vatan va xalq oldidagi burchini aniq anglash namoyon bo'ladi. Bularga misol qilib Ulug' Vatan urushi davridagi kishilarimizning qahramonliklarini ko'rsatishimiz mumkin.

Irodaviy faoliyat turli-tuman harakatlar natijasida amalga oshiriladi. Harakatlar esa suyak-muskul sistemasining faoliyati tufayli vujudga keladi. Ma'lumki, insonda turli harakatlarni vujudga keltiradigan 600 dan ortiq katta va kichik muskullar mavjuddir. Bu muskullarning harakati alohida-alohida, bir-biridan ajralgan holda emas, balki ularning birgalikdagi faoliyati tufayli hosil bo'ladi. Insonning istalgan bir harakatida bir guruh muskullar albatta ishtirok etadi. Bosh miya yarim sharlarida harakatlarni boshqaruvchi maxsus uchastka bor. Bu yerdan tanamizning barcha qismlariga nerv tolalari ketgan bo'ladi. Bu markaz teskari aloqa usulida ishlaydi va harakatlarimizni boshqarib, tartibga solib turadi. Bordiyu harakat markazi ishdan chiqsa, odamning harakatlari ham bir-biri bilan uyg'unlashmaydi, izdan chiqadi, qilmoqchi bo'lgan ish-harakatlarni odam to'g'ri

bajara olmaydi. Buni spirtli ichimlik iste'mol qilgan kishi harakatida ko'rish mumkin.

Irodaning nerv-fiziologik mexanizimi sifatida bosh miya katta yarim sharlari po'stining shartli reflekslar hosil qilishdan iborat bo'lgan faoliyatini ham ko'rsatish mumkin. Demak, irodaviy harakatlarning mexanizmini bosh miyadagi harakat markazi faoliyati, suyak-muskul sistemasining faoliyati, shartli reflekslar va ikkinchi signallar sistemasi tashkil etadi. Irodaviy harakatlarning dastlabki boshlang'ich nuqtasi harakat maqsadining vujudga kelishi va shu maqsadning o'rta qo'yilishidir.

Maqsad - kishining shu paytda kerakli va zarur deb topgan ish- harakatlarini tasavvur etishi demakdir. Maqsadni tasavvur qilish odatda, shu maqsadga erishish, istak-orzuni amalga oshirish yo'lidagi intilishga bog'liq bo'ladi. Masalan, kishi qiyin ahvolga tushib qolsa, shu ahvoldan bir amallab qutilishini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Kishi shu vaziyatni ma'lum darajada o'zgartirish, bir nimaga barham berish, bir nima qo'shish va shu kabi maqsadlarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Xatti-harakatni maqsad qilib qo'yish kishining mehnat faoliyati, kasb-koriga bog'liq bo'lgan vazifalariga va turmushdagi burchlariga qarab belgilanadi. Kishi jamiyatda, jamoada tutgan o'rni maqsad qo'yishga ta'sir etadigan muhim omil hisoblanadi.

Kishida kelib chiqadigan ehtiyojlar darrov yaqqol tasavvur qilinadigan maqsad tarzida hosil bo'la qolmaydi. Ko'ngilda kechayotgan ehtiyoj va intilishlar turli darajada anglanishi va turlicha tasavvur qilinishi mumkin.

Masalan, ehtiyoj va intilishlar ba'zan istak tarzida ko'ngildan kechadi. Istak shunday holatki, bunda odam o'ziga nimadir yetishmayotganini, nimanidir istayotganini his qilib turadiyu, o'sha narsa nima ekanini yaxshi tasavvur qila olmaydi. Tilak intilishning shunday bosqichiki, bunda kishi harakat maqsadini anglab yetadi, lekin unga erishish yo'llari va vositalarini hali tushunib yetmaydi.

Ehtiyoj yana kuchayib boraveradi. Natijada intilishi maqsadlaridan tashqari, uning yo'l, usul va vositalari ham asta-sekin anglashilib borad. Intilishning bunday to'la anglanilgan bosqichi xohish deb aytiladi.

Maqsadning va unga yetishish yo'llarining ma'qul va noma'qulligini belgilab beradigan hamma narsa ish-harakat motivlari deb aytiladi. Kishi nega boshqa bir maqsadni emas, balki xuddi shu maqsadni o'z oldiga qo'ymoqda, shu maqsadga yetishmoq uchun boshqa yo'l va vositalar bilan emas, balki xuddi shu vositalar bilan ish ko'rishning sababi nima degan savolga javob motiv deb ataladi. Maqsadlarni, ularga erishish yo'llari va vositalarini tanlash jarayoni ba'zan ichki kurash xarakteriga ega bo'ladi. Bu kurashda turli kuch va jozibaga ega bo'lgan bir necha motiv maydonga chiqadi. Bu jarayon motivlar kurashi deb yuritiladi. Motivlar kurashi ko'pincha tafakkur bilan hissiyot o'rtasidagi kurashdan iborat bo'ladi. Bundan tashqari, bu burch hissi bilan unga oid bo'lgan qandaydir boshqa shaxsiy his o'rtasidagi kurash tarzida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Maqsadga erishish yo'llari va vositalarini tanlash jarayoni, rejalashtirish motivlar kurashi bilan bog'langan bo'lib, qarorga kelish bilan tugaydi. Qarorga kelish muayyan bir maqsadni va shu maqsadga erishish yo'lidagi harakat usullaridan birini tanlab olish demakdir. Tez qarorga kelish sur'ati bir qancha sabablarga, jumladan, ehtiyojga, hal qiluvchi motiv kuchiga, vaziyatga, hissiyotga, tafakkur va xayolning taraqqiyot darajasiga, kishining turmush tajribasi va bilimlariga, dunyoqarashi, temperament va xarakteriga, boshqa kishilarning maslahati, buyrug'i, takliflariga bog'liqdir. Bundan tashqari, maqsadning ahamiyatliligiga, birorta qarorga keltiruvchi faoliyatning xarakteriga ham bog'liq bo'ladi.

Qat'iyat faqat tezlik bilan qarorga kelishdagina emas balki, qarorni tez va dadil bajarishda ham zohir bo'ladi. Tezlik bilan qarorga kelish va uni belgilangan muddatda bajarish – qat'iyatni namoyish qilish demakdir.

Qabul qilingan qaror mustahkam yoki bo'sh bo'lishi mumkin. Bir marta qabul qilinib, keyinchalik o'zgartirilmaydigan va ma'lum vaqt davomida albatta bajariladigan qaror qat'iy va mustahkam qaror deyiladi. Qaror qabul qilinsayu, keyin yo o'zgartirilsa, yoki boshqa yangi qaror bilan almashtirilsa, yoxud butunlay bekor qilinsa, bunday qaror bo'sh qaror deyiladi. Qat'iy va mustahkam qarorga kelish irodaning ijobiy xususiyatidir.

Qaror unga muvofiq keladigan choralar ko'rish va harakat qilish uchun qabul qilinadi. Qarordan harakatga o'tishni qarorni ijro etish deyiladi. Irodaning eng muhim va asosiy bosqichi qarorni ijro etishdir.

### **17.2. Irodaning nerv-fiziologik asoslari. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari**

Odatda irodaviy harakatlar 2 xil: jismoniy va aqliy bo'ladi. Jismoniy harakatlarga har xil mehnat operatsiyalari, o'yin va sport mashg'ulotlari va boshqalar kiradi. Aqliy harakatlarga esa masala yechish, yozma ishlar, dars tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlari olib borish kabilar kiradi. Ko'p vaqt takrorlanib o'zlashib ketgan, ko'nikma va malakalarga aylangan harakatlar ham murakkab irodaviy harakatlardandir.

Qarorni ijro etish, odatda, ma'lum vaqt, muddat bilan bog'liq bo'ladi. Qaror kechikmasdan, belgilangan muddatda ijro etilsa, bu irodaning ijobiy sifatidan dalolat beradi.

Ammo qabul qilingan qaror hamisha bajarilavermaydi, ayrim hollarda esa o'z vaqtida bajarilmay qoladi. Ijrosi paysalga solinadigan yoki butunlay ijro etilmaydigan qarorlar niyatlar deb aytiladi. Bir qator hollarda qarorga kelish boshqa kuchli ehtiyojlarning ta'sirini zaruriy tarzda yengish bilan bog'liq bo'lgan jiddiy xarakterdagi ichki zo'r berish bilan bog'liq bo'ladi. O'zidagi qarshiliklarni yengish bilan bog'liq bo'lgan bunday jarayon irodaviy zo'r berish deyiladi. Irodaviy zo'r berish ongning, avvalo nerv-muskul apparatining maxsus zo'riqishida ifodalanadi va organizmning tashqi o'zgarishlarida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, zo'r berish uchun yana kuch sarflashga ham to'g'ri keladi.

Irodaviy zo'r berish va irodaviy harakat maqsadga erishish yo'lida uchraydigan to'siqlarni yengishda namoyon bo'ladi. To'siqlar esa ikki xil: ichki va tashqi to'siqlar bo'lishi mumkin. Irodaning navbatdagi bosqichi ijroga baho berish bo'lib hisoblanadi. Baho berish qilingan ishni ma'qullash, oqlash yoki qoralashdan iborat bo'ladi. Bu baho qabul qilingan qaror yoki bajarilgan harakatlardan mamnun

bo'lish yoki mamnun bo'lmaslik tufayli kelib chiqqan maxsus hissiy kechinmalarda ifodalanadi.

Demak, iroda insongagina xos noyob psixik jarayondir. U insonning ongli harakatlarida namoyon bo'ladi. Iroda tufayligina turli qarshiliklarni yengib o'z maqsadimizga erishamiz. Iroda juda murakkab tuzilishga egadir. U ko'plab harakat bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Borliqni aks ettirish, faoliyatni muayyan yo'nalishda tashkil qilish, muammolar yechimini egallash yuzasidan ma'lum bir qarorga kelish, uni amalga oshirish jarayonida qiyinchiliklarni yengish harakatlar yordami bilan ro'yobga chiqadi. Turli ehtiyojlar (shaxsiy, jamoaviy, tabiiy, madaniy, moddiy, ma'naviy) tufayli vujudga keladigan, maqsadga yo'nalganlik xususiyatini kasb etadigan shaxsning faolligi o'zining tuzilishi, shakli rang-barang bo'lgan harakatlar, xatti-harakatlar va sa'y-harakatlar yordami bilan tabiat, jamiyat tarkiblarini maqsadga muvofiq kelmaganligi sababli qayta quradi, takomillashtiradi, ezgu niyatga xizmat qildirishga bo'ysundiriladi. Ehtiyoj, motiv, qiziqish, anglashilmagan, anglashilgan mayllar negizidan kelib chiqadigan barcha ko'rinishdagi harakatlar o'zlarining yuzaga kelishiga binoan ixtiyorsiz va ixtiyoriy turkumlarga ajratiladi. Odatda, psixologiyada ixtiyorsiz harakatlar anglanilgan yoki yetarli darajada anglanmagan istak, xohish, tilak, mayl, ustanovka va shu kabilarning ichki turtki ta'sirida paydo bo'lishi natijasida ro'yobga chiqariladi. Mazkur istak va uning boshqa shakllari impulsiv (lotincha, ixtiyorsiz qo'zg'alish ma'nosini anglatadi) xususiyatiga ega bo'lib, inson tomonidan anglanilmaganligi uchun ma'lum obyektga qaratish yuzasidan rejalashtirilmagan, hatto ko'zda tutilmagan bo'ladi. Insonning favquloddagi vaziyatda yuzaga keladigan sarosimalik affekti, dahshat, hayajonlanish, ajablanish, shubhalanish va shunga o'xshash boshqa mohiyatli, har xil shakldagi xatti-harakatlari ixtiyorsiz turkumdagilarga yorqin misoldir. Undagi atamalar ma'nosi, aks etish imkoniyati bundan oldingi hissiyot to'g'risidagi ma'lumotlarda keng ko'lamda bayon qilingan.

Boshqa kategoriyaga taalluqli harakatlar ixtiyoriy harakatlar deb nomlanib, ular maqsad ko'zlash, maqsadni anglashni va uni amalga oshirishni ta'minlovchi

operatsiyalar, usullar va vositalarni shaxs o'z miyasida tasavvur qilishini, samaradorligini taxminan baholashni taqozo etadi. O'zining mohiyati bilan tafovutlanib turuvchi ixtiyoriy harakatlarning alohida guruhini irodaviy harakatlar deb ataluvchi turkum tashkil qiladi. Psixologik ma'lumotlarga asoslangan holda ularga quyidagicha ta'rif berish mumkin: «Maqsadga erishish yo'lida uchraydigan qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish jarayonida zo'r berish bilan uyg'unlashgan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatlar irodaviy harakatlar deyiladi».

Shaxsning irodaviy faoliyati o'z oldiga qo'ygan anglangan maqsadlarni bajarishdan, amalga oshirishdan iborat sodda shakldagi harakatlarning majmuasidan iborat emas. Zo'r berishni taqozo etmaydigan ish harakati (masalan, shkafdan choynak olish, sochiqni qoziqqa ilish va hokazolar) bilan irodaviy faoliyat tarkiblari o'rtasida keskin tafovut mavjud. Irodaviy faoliyat o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda shaxs o'z oldiga qo'ygan va unga muhim ahamiyat kasb etuvchi maqsadlariga o'zi uchun kamroq qiymatga molik xatti-harakat motivlarini bo'ysundiradi. Ustuvor (yetakchi) motivlar qo'shimcha ko'makchi motivlarni muayyan yo'nalishga safarbar qilib, umumiy maqsadga xizmat qildiradi.

Shaxs faolligining har xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular funksional tomondan bir-biridan farqlanadi, lekin iroda inson faolligining alohida o'ziga xos shaklidan iboratligi ajralib turadi. Iroda insonning o'z xatti-harakatlarini (xulq-atvorini) o'zi boshqarishini, u yoki bu xususiyatli intilish va istaklarini tormozlashni talab qiladi, binobarin, u anglanilgan turlicha harakatlar tizimi mujassam bo'lishini nazarda tutadi. Irodaviy faoliyat mohiyati shunda ko'zga tashlanadiki, bunda shaxs o'zini o'zi boshqaradi, o'zini qo'lga oladi, o'zining xususiy ixtiyorsiz impulsiv tomonlarini nazorat etadi, hatto zarurat tug'ilsa, u holda ularni tamoman yo'qotadi ham. Iroda paydo bo'lishining bosh omili inson tomonidan faoliyatning turli tarkiblarining irodaviy harakatlarni tizimli tarzda tatbiq etilishi bunday ish-harakatlarda ong bilan mujassamlashuvchi shaxsning faolligidir. Irodaviy faoliyat shaxs tomonidan keng ko'lamda anglanilgan va ruhiy jarayonlarni amalga oshirish xususiyati bo'yicha irodaviy zo'r berishni talab

qiladigan aqliy amallarni taqozo etadi. Bunday aqliy amallar favquloddagi vaziyatni baholash, kelgusida amalga oshirishga mo'ljallangan harakatlar uchun vositalar va operatsiyalar tanlash, maqsad ko'zlash va unga erishishning usullarini saralash, ularni tatbiq etish uchun muayyan qaror qabul qilish kabilar bo'lib hisoblanadi. Ushbu amallarning barchasi irodaviy faoliyatning operatsional tomoni deb baholanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ba'zi psixologik holatlarda, vaziyatlarda irodaviy faoliyat insonning butun hayot yo'lini aniqlab beradigan, uning ijtimoiy-psixologik qiyofasini (siyimosini) namoyon qiladigan va ma'naviy-axloqiy qadriyatini ro'yobga chiqarishga yordam beradigan qarorga kelish bilan uyg'unlashadi. Shuning uchun bunday irodaviy harakatlarni amalga oshirish jarayonida shaxs ongli harakat qiluvchi subyekt tariqasida ham ularning kashfiyotchisi, ham bir davrning o'zida ijrochisi (bajaruvchi) bo'lib ishtirok etadi.

Mazkur holatda shaxs o'zida to'kis mujassamlangan qarashlari tizimiga (dinamik stereotipiga), iymon-e'tiqodga, ishonch va dunyoqarashiga, qadriyatiga, hayotiy munosabatlari majmuasiga, aql-zakovatiga, ma'naviyatiga asoslangan holda ongli yo'l tutadi. Shaxsning umr (hayot) yo'lida qadriy xususiyat kasb etuvchi javobgarlik hissi irodaviy harakatlarni tatbiq qilishda uning miyasiga mujassamlashgan, anglanilgan barcha ijtimoiy-psixologik shartlangan fazilatlar (qarash, e'tiqod, qadriyat, ma'naviyat va hokazolar) sog'lom fikr, ustuvor (yuksak tuyg'u) hissiyot tariqasida faollashadi, mustahkamlanadi hamda baholash, qarorga kelish, tanlash, ijro etish (bajarish) jarayonlariga ta'sir qilib, umumiy hamkorlik tizimida o'z izini qoldiradi. Javobgarlik hissi shaxs ma'naviyati, ruhiyati, qadriyati namoyon bo'lishi, kechishi, takomillashishi bosqichlarining boshqaruvchisi, ongli turtkisi, sifatining ko'taruvchisi funksiyasini bajaradi.

### **17.3. Iroda borasidagi nazariyalar. Irodaviy akt va uning tuzilishi**

Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotining yirik namoyandalari ijodiy faoliyatiga taalluqli ma'lumotlar, qarorga kelish namunalari ularning ijtimoiy-psixologik qiyofalarini aks ettirish imkoniyatiga egadir. Masalan, buyuk sarkarda



Amir Temur Ko‘ragoniyning «Kuch adolatdadir» degan hikmati, Alisher Navoiyning «Zanjirband sher - yengaman der» xitobi, Cho‘lponning «Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir» chaqirig‘i javobgarlikni yuksak his etgan holda xalqning xohish irodasini ifoda qilib, qat‘iy irodaviy xatti-harakatlarini amalga oshirganlar, shu bilan birga ular o‘zlarining ma‘naviy, qadriy, ruhiy qiyofalarini chuqur va ko‘pyoqlama ochib berishga musharraf bo‘lganlar. Ijtimoiy-tarixiy sahifalarimizda, yaqin o‘tmishimizda va istiqlol davrida ko‘plab vatandoshlarimiz irodaviy xatti-harakatlarining namunaviy ko‘rinishlarini namoyish qilganlar, bular rasmiy manbalarda va badiiy adabiyotlarda keng ko‘lamda yoritilgan.

Yuqoridagi mulohazalardan tashqari, irodaviy faoliyatning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari ham mavjuddir va ular muayyan tavsiflarga asoslanib talqin qilinadi. Irodaviy faoliyatni yoki alohida iroda aktini (lotincha, harakat degan ma‘noni anglatadi) amalga oshirishning xususiyatlaridan biri - bu bajarilayotgan harakatlarning erkin ekanligini shaxs tomonidan anglash (bunday qilsa ham bo‘ladi yoki unday qilsa ham) iboratligidir. Ushbu jarayonda shaxs ma‘lumki, o‘z xulq-atvori va o‘z faoliyati sabablarini tashqi omillardan deb tushunishga moyil odamlar mavjud.

Psixologiya fanida nazoratni lokallashtirish deganda shaxsning individual faoliyati natijalari uchun mas‘uliyatni tashqi kuchlarda va sharoitlarda qayd qilishni, shuningdek, ularning kuch-g‘ayratiga, qobiliyatiga moyilligini belgilaydigan sifatlar majmuasi tushuniladi. Nazoratni lokallashtirish tashqi (eksternal) hamda ichki internal turlariga ajratiladi. Nazoratni tashqi lokallashtirishga ba‘zi misollarni keltiramiz. Xodim ishga, talaba darsga kech qolsa, bu hodisani turlicha bahonalar bilan izohlashga harakat qiladi: 1) avtobus o‘z vaqtida kelmadi; 2) yo‘lovchilar ko‘p bo‘lganligi uchun avtobusga chiqa olmadim; 3) avtobus juda sekin harakat qiladi; 4) transport buzilib qoladi; 5) ko‘chada yo‘l harakati fojiasi yuz bergani tufayli ushlanib qoldik va hokazo. Psixologik tadqiqotlar natijalarining ko‘rsatishicha, nazoratning eksternal lokallik turining namoyon bo‘lishi shaxsning muayyan nuqsonlari va illatlariga bevosita

bog'liqdir, chunonchi insonning mas'uliyatsizligi, o'z imkoniyatiga ishonmasligi, hadixsirashi, xavfsirashi, shaxsiy niyatini ro'yobga chiqarishni paysalga solishi va boshqalar. Mabodo shaxs o'z xulq-atvori oqibati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olsa, o'z qilmish-qidirmishlarini shaxsiy xususiyatidan deb tushunsa, bunday psixologik voqelik nazoratning internal (ichki) lokallasuvi mavjud ekanligini bildiradi. Nazoratning ichki lokallashtirishiga xos insonlar maqsadga erishish yo'lida mas'uliyat yoki javobgarlik his etadilar, o'zini o'zi tahlillash imkoniyatiga egadirlar. Ijtimoiy tarbiya jarayonida shaxsda lokallashtirishning har ikkala (eksternal, internal) turini shakllantirish tufayli uning mustahkam shaxsiy fazilatiga aylantirish mumkin.

Irodaning o'ziga xos ko'rinishlari shaxsning tavakkalchilik vaziyatidagi xatti-harakatida ro'yobga chiqadi. O'ziga mahliyo qiluvchi maqsadga erishish yo'lida xavf-xatar, yo'qotish dahshati, muvaffaqiyatsizlik unsuri bilan ham hamohang, ogoh dadil harakat tavakkalchilik deyiladi. Tavakkalchilik jarayonidagi noxushlik kutilmasi muvaffaqiyatsizlik ehtimoli bilan noqulay oqibatlar darajasi uyg'unlashuvi mezoni orqali o'lchanadi. Tavakkalchilikda muvaffaqiyat bilan muvaffaqiyatsizlik kutilmasi ehtimoli yotadi, yutuqqa erishish shaxsda xush kayfiyatni vujudga keltirsa, mag'lublik esa noxushlik holatining bosh omili hisoblanadi. O'z-o'zidan ma'lumki, yutuq (g'oliblik) quvonch nashidasini uyg'otsa, omadsizlik jazo, moddiy va ma'naviy yo'qotishni ro'yobga chiqaradi. Lekin shunga qaramasdan, insonlar tavakkal qilish harakatidan hech mahal voz kechmagan xoh u kundalik hayot muammosiga aloqador voqelik, xoh murakkab mehnat, xoh harbiy yurishlar bo'lishiga qaramay, shuning uchun tavakkalchilik insoniyat dunyosining ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davrining qaror qabul qilish namunasi, mahsuli sifatida shaxsning hayoti va faoliyatida to hozirgacha ishtirok etib kelmoqda.

Psixologik manbalarda ko'rsatilishicha, tavakkalchilik harakatini amalga oshirishning o'zaro uyg'unlashgan ikkita sababi mavjudligi qayd qilib o'tiladi. Qarorga kelishning birinchi sababi - bu yutuqqa umidvorlik muvaffaqiyatga erishilganda kutilishi ehtimol qiymatning mag'lub oqibati ko'rsatkichidan

yuksakroq bo'lishiga ishonchdir. Ushbu voqelik vaziyatni tavakkalchilik deb atalib, muvaffaqiyat motivatsiyasini muvaffaqiyatsizlikdan qutilish motivatsiyasidan yaqqolroq namoyon bo'lishida o'z ifodasini topadi. Shu boisdan tavakkalchilik inson uchun qaror qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadigan ruhiy hodisa hisoblanib, u yoki bu tarzda harakatni amalga oshirib, o'z xulq-atvorini namoyish qiladi. Dehqon kechikib yerga urug' qadashga tavakkal qilgan bo'lsa, hosil pishib yetilishi xavfi tug'iladi, lekin agrotexnika vositalaridan jadal sur'atda foydalansa, asosiy mablag'ni sarf qilib qo'yish tashvishi uyg'onadi. Irodaviy qaror qabul qilib, tavakkalchilikdagi uning mardligi, tashabbuskorligi, qat'iyatligi mehnatda yutuqqa erishishni ta'minlaydi. Ammo bunday qarorga kelish goh o'zini oqlaydi, goho mutlaqo oqlamasligi ham mumkin. Bu borada harakatning xavfli yoki xavfsiz yo'lini tatbiq etish, tavakkalchilikning g'oyaviy, ma'naviy yuksakligi, qarorning oqilonaligi baxtli tasodif sari yetaklashi mumkin. Ba'zan tavakkalchining qobiliyati, qat'iyiligi, malakaligi, hisob-kitobning to'g'ri qilganligi unga omad keltiradi.

Tavakkalchilikning ikkinchi sababi xatti-harakatning xavfli yo'lini afzal bilgan xulq-atvorda ko'zga tashlanadi. Bu voqelik shaxsning vaziyat osti faolligi deb nomlanib, insonning vaziyat talablaridan ustuvorlikka erishishida, undan (vaziyatdan) yuksakroq maqsad qo'ya olishda namoyon bo'ladi. Tavakkalchilikning bu turi «vaziyat usti» yoki «xolisonalik» deb atalib, tavakkalchilik uchun tavakkalchilikka yo'l qo'yishni anglatadi hamda tavakkalchilikning tavakkalchiligi atamasini keltirib chiqaradi. Shaxsdagi tavakkalchilikni riskometr deb ataluvchi maxsus asbobda o'lchab ko'rish mumkin. Bu asbob yordamida psixologik tajribada insonlarda muvaffaq bo'lish ehtimoli mavjud xolisonalik tavakkalchilikka moyillik, ularning haqiqiy xavf ostida irodaviy harakatlarini oldindan aytib berish (bashorat qilish) imkoniyati vujudga keladi.

Iroda muammosiga bag'ishlangan bundan oldingi sahifalarda ta'kidlab o'tilganidek, shaxsning irodaviy harakatlari murakkab psixologik mazmun, mohiyat, ma'no kasb etishi bilan tavsiflanadi. Shuni ham eslash o'rinliki, shaxsda

motivlar kurashining paydo bo'lishi uchun unga mas'uliyat, javobgarlik hissining yuklatilishi, irodaviy harakatni amalga oshirish zaruriyati tug'ilishi, mazkur vaziyatda shubhalanish, ikkilanish uyg'onishi favqulodda unda irodaviy zo'r berishlar vujudga kelishi lozim. Bu voqelikni tushuntirish yoki izohlash uchun psixologik nuqtai nazardan iroda aktining tarkiblaridan iborat ekanligini aniqlanish uchun uning unsurlari, bo'linmalari, tuzilishi to'g'risida mulohaza yuritish joiz.

Insonning miyasida tug'iladigan maqsadga erishish tufayligina irodaviy harakat amaliyotga tatbiq etiladi. Ushbu fikr boshqacharoq ifodalanganda, shaxs u yoki bu harakat yordami bilan qo'yilgan maqsadiga erishish yo'llarini anglab yetadi, ya'ni harakat bilan maqsad, o'rtasidagi uyg'unlik insonga tobora yaqqollashadi, anglashiniladi. Holbuki shunday ekan, shaxs o'zining ruhiy holatini o'zgartirishga qaror qiladi, qondirilishi lozim bo'lgan ehtiyojlarini muayyan tartibga keltiradi, ularni birlamchi va ikkilamchi darajalarga ajratishni lozim topadi. Xuddi shu yo'sinda irodaviy harakatni amalga oshirishning tarqoq va yig'iq tarkiblari (unsurlari) maqsadga yo'naltiriladi. Ushbu jarayonga inson shaxsini undalayotgan, ham anglanilgan, ham anglanilmagan ruhiy tayyorgarlik motivdan iborat bo'lib, maqsadga intilish va unga erishish majburiyatini tushuntirishga xizmat qiladi.

#### **17.4. Maqsad, tilak-havaslar, harakat motivlari va motivlar kurashi, qarorga kelish, qarorni ijro etish, irodaviy zo'r berish**

Insonning hayoti va faoliyatida uning borliqdagi narsalarga nisbatan o'zini tortadigan har xil xususiyatli maqsadlari vujudga kela boshlaydi. Lekin shuni ta'kidlash joizki, shaxs oldida paydo bo'lgan maqsadlarni u tanlashi, mohiyat jihatidan ma'qulligi (noma'qulligi) yuzasidan qaror qabul qilishi, ularning hozirgi davr uchun ahamiyat kasb etishini, istiqbol imkoniyatlari singari xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Shaxs faolligining mexanizmi sifatida unda aniq, yaqqol, obyektga yo'nalgan maqsadni amalga oshirish (qaror toptirish) ezgu niyati ro'yobga chiqadi. Masalan, kundalik moddiy ehtiyojini qondirish, sayohatga chiqish, ish joyini almashtirish, til markaziga o'qishga kirish, qarindoshlari holidan

xabar olish, televizor tomosha qilish istaklari tug'ilishi mumkin. Bu asnoda iroda aktining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, nafaqat xohish-istakdagi maqsadni tanlay olish, balki uni amalga oshirish imkoniyati aniqroq ekanligini tushunish hamda anglashdir. Xuddi shu tariqa irodaviy harakatning muhim tarkibi, binobarin, ajratib olingan maqsadga erishishning yo'l-yo'riqlari shakli va mohiyati to'g'risida mulohaza yuritish, uning ustida bosh qotirish davri boshlanadi. Mazkur jarayonda fikr yuritilayotgan vositalarning maqsadga erishish yo'liga muvofiqligi tahlil qilinadi, aqlan chamalab ko'riladi, uni ro'yobga chiqarishga mutlaqo mos yordamchi uslublar, harakatlar tanlanadi. Yuqorida mulohaza yuritilgan aqliy xatti-harakatlarning barchasi o'zining mohiyati bilan iroda aktining tarkibiga kiruvchi aqliy jarayonlar, aqliy lahzalar, aqliy vaziyatlar sifatida mujassamlashadi.

Irodaviy aktning boshlanishi maqsadga erishish yo'l-yo'riqlari haqiqatan ham aniq istaklarning ushaliishiga xizmat qilishi to'g'risida oqilona qarorga kelishda o'z ifodasini topadi. Psixologik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, tanlangan harakatlar oqilona, omilkor, odilona ekanligi to'g'risida qarorga kelinganida, maqsadga muvofiqligi ishonchli dalillar ustiga qurilganida ushbu jarayon qiyinchiliklarsiz sodir bo'ladi. Biroq aksariyat hollarda qarorga kelish murakkab jarayonga aylanadi, buning natijasida motivlar kurashi yuzaga keladi, binobarin, tanlash, yakdillikka kelish muddati birmuncha cho'ziladi. Masalan, shaxsda ish joyini almashtirish xohish-istagi tug'ildi deb aytaylik, biroq unda boshqa xususiyatga ega bo'lgan intilishlari hukm surishi mumkin, o'z navbatida ular ishxonani o'zgartirishga to'sqinlik ham qiladi. Jumladan, ish joyini o'zgartirish maoshning yangi ishxonada bir oz yuqoriligi bilan bog'liq bo'lsa-da, lekin yangi muhitga va jamoaga, notanish shart-sharoitga, boshqacha talabga moslashish (ko'nikish) zarurligini taqozo etadi. Ana shu tarzdagi munosabatlar bilan motivlar kurashi yuzaga keladi, uning negizida: a) yangi ish joyidan, b) ichki qanoatlanish tuyg'usidan voz kechish kerakmi; yoki v) qimmatli imkoniyat tug'ilishi, g) uning istiqboli evaziga o'zining boshqa ehtiyojlaridan yuz o'g'irishi lozimmi, degan motivlar kurashi boradi.

Motivlar kurashida u yoki bu tarzda qarorga kelishni ma'qullash (e'tirof qilish) yoki ma'qullamaslik (e'tirof etmaslik) to'g'risidagi mulohazalarni tahlil qilish (ularni chamalash) bilan cheklanib qolmasdan, balki o'zaro ziddiyatli, bir-birini inkor etuvchi harakatlarni tatbiq etishga undovchi qabilidagi motivlar kurashi ham tug'ilishi mumkin. O'zaro qarama-qarshi motivlarning salmog'i qamrovli bo'lsa, shaxsni faoliyatga undovchi ehtiyojlarning obyektini o'zining qiymati (ahamiyatligi) bilan o'zaro baravarlashsa, u holda bunday motivlar kurashi ularga hamohang tarzda kuchli kechadi. Mabodo shaxsda televideniya kino ko'rish xohishi bilan do'stining tavallud topganligini tabriklash uchun borish istagi o'rtasida ruhiy kurash yuzaga kelsa, motivlar kurashi sodir bo'lmaydi, chunki bunday mahalda shaxsda kinoni tomosha qilish tilagi (intilish) o'zidan o'zi yo'qoladi. Lekin motivlar kurashi hamisha ham shunday yengil kechadi, deb xulosa chiqarmaslik kerak, bunda munosabat, xohish shaxs uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etishiga ko'p jihatdan bog'liq. Jumladan, shaxsni (safarga o'tlanish (tayyorgarligi) hamda qarindoshdagi to'yga tabriklash uchun borish istaklari (zarurati) o'rtasidagi motivlar kurashi o'zaro bir-biriga zid ekanligi tufayli faqat ulardan bittasini tanlash taqozo etilganligi sababli murosasiz kurash tariqasida keskin tus olishi mumkin. Shunga o'xshash motivlar kurashi natijasida muayyan qarorga kelishi yoki qaror qabul qilish vujudga keladi, bunda shubhalanish, sustlik, loqaydlik, ikkilanish singari sifatlar (goho illatlar) faoliyat doirasidan siqib chiqarilib, butun diqqat-e'tibor qarorni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Mabodo qarorga kelinganidan keyin ham jur'atsizlik shaxsni ikkilanish sari yetaklashda davom etaversa, u holda irodaviy harakat tub ma'nodagi g'ayratdan, shijoatdan, sobitqadamlikdan, belgilangan maqsad sari intilishdan mahrum ekanligini aks ettiradi. Maqsadga erishish uchun shaxs o'zini tayyorlaydi, psixologik va statistik kutilmalar o'zaro tafovutlanishi yuzasidan ma'lumotlarni umumlashtiradi.

Shuni eslatib o'tish o'rinliki, qarorga kelish, uni amalga oshirishda qiyinchiliklarni bartaraf etishda irodaviy zo'r berish muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat psixologik holatlarda inson tomonidan qarorga o'z ehtiyojlarining

ustuvorligi darajasi ta'sirini zaruriy chora tariqasida yengish bilan uyg'unlashgan, jiddiylik, zo'riqish xususiyatli ichki zo'r berish jarayoni bilan uzviy bog'liqlikka ega. Shaxs o'zidagi qarama-qarshiliklarni yengishga nisbatan bunday munosabat (zaruriyat) birinchidan, subyektning ayrim istaklari, mustahkamlangan salbiy odatlari; ikkinchidan, turmush hodisalariga nisbatan ko'nikish hissi; uchinchidan, ma'qullanilmagan axloq-odob printsiplari, an'analar bilan kurashining kechishi irodaviy aktning o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan xislati (sifati) irodaviy zo'r berish tomonidan idora qilinadi.

Insonda vujudga kelgan kuchli, shijoatli intilishlarni yo'qolishiga harakat qilinadi. Biroq qabul qilingan qaror (yoki qarorga kelish)ning axloq-odob printsiplariga javob bera olishini (mutanosibligini), ijtimoiy ahamiyat kasb etish imkoniyatini anglashning o'zi shaxs uchun murakkab ishni «o'lik» nuqtasidan siljitishga, qo'zg'atishga yetarli darajadagi omil bo'lib xizmat qila olmaydi.

Mazkur holatni shaxs tomonidan tushunish (anglash) burch, mas'uliyat, javobgarlik, qat'iyatlilik tuyg'ulari bilan qat'iy ishonch, zaruriyat, barqaror ichki kechinmalar (regulyator hislar) mustahkamlansa, bunday davrda ushbu narsa ko'pgina intilishlarni yo'qotishga imkon beradigan haqiqiy irodaviy zo'r berishni vujudga keltiradi. Yuksak hislar (burch, mas'uliyat, javobgarlik, vatanparvarlik, fidoiylik kabilar) axloqiy talablar interiorizatsiyaga aylanganligini, ya'ni shaxsning ma'naviy mulkiga o'tayotganligini, egoistik (xudbinlarcha) intilishlar bilan altruistik (ijtimoiy fidoiylik) istaklari (xohishlari) o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan favquloddagi vaziyatda amalga oshiriladigan xulq-atvorning ichki mexanizmlarga aylanganini aks ettiradi. Yuksak hislar motivlar kurashida intilish o'ng yoki so'l tomonga og'ishini aniqlaydi, maqsadni amalga oshishini ta'minlashda regulyator funksiyasini bajaradi.

Psixologiyada irodaviy akt to'g'risida mulohaza yuritilganda shu narsa ta'kidlanadiki, irodaviy zo'r berishning ichki kechishi faqat qarorga kelishda paydo bo'lmaydi, balki uni ijro etish jarayonida jadal sur'atga erishishda ham amalga oshadi. Buning psixologik ma'nosi shuki, qabul qilingan qarorni ijro etish (bajarish) aksariyat hollarda subyektiv va obyektiv xususiyatli bir talay qarama-

qarshiliklarga duch keladi, ularni yengib o'tish esa irodaviy zo'r berishni, zo'riqishni talab qiladi. Chunonchi, bozor iqtisodiyotiga maqsad va vazifasiz, tasodifiy yondashuv sifatida moslayotgan shaxs o'z turmush tarzini o'zgartirmasa, uzoqni ko'zlab ish yuritmasa (bugungi kuni o'tganiga shukur qilib yashasa), faollik ko'rsatmasa, imkoniyatidan foydalanmasa bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Insonning o'zligi bilan ichki kurashi, xarakter xislatlarini o'zgartirishga intilishi irodaviy zo'r berishi tufayli amalga oshadi, xolos. Shuningdek, inson sanitariyaga, gigiyenaga rioya qilib yashashi (sayr qilish, xona havosini almashtirish, ovqat hazm bo'lishini kutish, ozodalikka e'tibor qilishi yangi ko'nikmalarni egallash kabi) irodaviy zo'r berishni taqozo etadi. Bu psixologik voqelikning negizida insonni oldin hayajonga solmagan, tashvishlantirmagan narsalarga e'tibor qilish mexanizmi yotganligi tufayli favquloddagi qarshilik salbiy his-tuyg'ularni (stress, affekt, frustratsiya kabilarni) vujudga keltiradi. Holbuki shunday ekan, shaxsning o'zini - o'zi bilan ichki ruhiy kurashi natijasida muvaffaqiyatga erishilsa, u holda ijobiy xususiyatli hissiy kechinmalar yuzaga keladi, o'zining ustidan o'zi hukmronlik tuyg'ulari, o'z kuch va qudratiga ishonch, uni anglab yetish, o'ziga o'zi buyruq berish, o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini oldiga qo'ygan eng muhim maqsadlarga erishish imkoniyatini tushunish ro'yobga chiqadi.

Ushbu ruhiy jarayonlar muammo yechimida ishtirok etishidan qat'iy nazar, irodaviy zo'r berish va uning ichki kechishi kuchli zo'riqishlar tufayli amalga oshadi. Bu o'rinda shaxsning xarakteri, individual xususiyatlari, ijtimoiy shartlangan xislatlari, har bir narsaga jiddiy munosabati yetakchi va ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'zini o'zi boshqarish, gumanistik psixologiya tarkibidagi kategoriyalar hamda ularning hayot va faoliyatda namoyon bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, shaxsiy mayllar, ustanovkalardan tashqari, unga ijtimoiy ustanovkalarning ta'siri, o'z roli, statusi yuzasidan baholash tizimining to'g'ri shakllanganligi bunda alohida ahamiyatga ega.

Shaxs ma'lum bir faoliyatni amalga oshirgunga qadar o'z ruhiy olamida yuzaga kelgan ayrim subyektiv («Men» bilan «Men» emas qabildagi) qarshiliklarni



yengishdan tashqari, unga muayyan tashqi, (obyektiv tarzda) ziddiyatlarni ham barham toptirishga to'g'ri keladi. Aytaylik, inson uchun ro'yobga chiqarish zarur hisoblangan maqsad aniq (yaqqol), uni amalga oshirish yuzasidan hech qanday shak-shubha bo'lmasa-da, shuningdek, qarorga kelishda kuchsiz motivlar kurashi davom etsa-da, lekin qarorni ijro qilishda ba'zi bir qiyinchiliklar tug'ilishi mumkin. Mazkur jarayonda vujudga kelgan qarshilik va qiyinchiliklarni yengish insondan chidam, qat'iylik, favquloddagi, sira kutilmagan holatni inobatga olishni taqozo etadi. Ba'zida esa uzluksiz ravishda ular bilan kurashish, irodaviy zo'r berish, ularni yengish uchun esa ruhan tayyorgarlik mayli bilan qurollantirishni talab etadi. Bunday vaziyatlar zo'riqish, tanglik, zo'r berish, jiddiylik ma'lum davr davomida shaxsda saqlanib turish majburiyatini yuklaydi.

Psixologik ma'lumotlarga qaraganda, irodaviy sa'y-harakat uchun o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan irodaviy zo'r berish aksariyat hollarda motivlar kurashidagi qarama-qarshilik yuzaga kelganligi bilan emas, balki shaxs tomonidan qabul qilingan qarorni ijro etish (bajarish, ado etish) jarayonida obyektiv xususiyatga molik qiyinchiliklarni yengish tufayligina namoyon bo'ladi. Xuddi shu bois iroda akti tuzilishi tahlilining ko'rsatishicha, ushbu holat iroda faoliyatining bir talay xususiyatlarini xaspo'shlashga imkon yaratadi. Shuning bilan birga, irodaviy faoliyatning shaxs xatti-harakatlarida muayyan ustuvor vazifalar (funksiyalar) ijro etishini (bajarishini) ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur funksiyalar: birinchidan, shaxsning xatti-harakatlarini amaliyotga tatbiq qilishning sifat darajasini yuksaltiradi. Ikkinchidan, inson hayoti va faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi muammolar yechimini topishga sharoit yaratadi. Uchinchidan, inson shaxsiga muammo mohiyatiga kirishini ta'minlaydi, shuningdek, harakatni maqsadga muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Irodaviy faoliyat insonning xatti-harakatlarini uning borliqqa (atrof-muhitga) nisbatan ongli shaxs sifatida o'z oldiga qo'ygan ustuvor maqsadlari mohiyatidan kelib chiqqan holda boshqaradi. Shaxs, bu asnoda, o'zining tanlagan ideallariga, uni yo'naltiruvchi g'oyalarga, ishonch-e'tiqodlariga, qarashlariga, o'zga kishilar beradigan baholariga, o'ziga o'zi baho berish mezonlariga nomutanosib istaklar,

xohishlar, tilaklar vujudga keltirmaslikka, ularni to'xtatishga yoki batamom bartaraf etishga intiladi. Bu holat tahlili shundan dalolat beradiki, iroda bu o'rinda shaxsning xatti-harakatlarini jilovlash (to'xtatish), nazorat qilish, boshqarish, chetga og'ishdan saqlash (cheklash) funksiyalarini aks ettiradi. Irodaning xatti-harakatlarini boshqarish funksiyasi shaxs uchun noxush, noqulay, yoqimsiz xohish-istak, harakat va intilishni cheklash, to'xtatish, tiyish kabilardan iborat bo'libgina qolmay, balki inson shaxsiy faolligini muayyan jabhaga, sohaga yo'naltirish, o'z harakatlari quvvatini oshirish, barcha narsalarni umumiy maqsadga muvofiqlashtirishdan iboratdir. Irodaviy jarayon hamisha shaxsni faollikka chorlaydi, uni qat'iy yo'l belgilash sari yetaklaydi, barqaror harakat qilishga yo'naltiriladi, ikkilanish, shubhalanishning oldini oladi.

Shuning uchun ham maqsadga yo'naltirilgan harakatlar, amalga oshirilgan intilish, ro'yobga chiqarilgan ezgu niyat shaxsda o'ziga ishonch tuyg'usini uyg'otadi, dadil amallar qilishga yo'naltiriladi, orzularni ushatishga nisbatan faol maylni shakllantiradi. Insonning erishgan yutug'i, muvaffaqiyati har bir irodaviy harakat barqarorligini ta'minlaydi, amallar tanlash, qaror qabul qilish, shaxsiy uslubni tarkib toptirishni jadallashtiradi, yangi irodaviy harakatlarni amalga oshirishni yengillashtiradi, o'zidagi irodaviy sifatlarning takomillashuviga puxta negiz hozirlaydi, irodaviy zo'r berishni taqozo etuvchi harakatlarni tatbiq qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Mazkur jarayon ham anglanilgan, ham anglanilmagan tarzda, motivlar kurashi orqali (kuchsiz), irodaviy zo'r berish, qiyinchiliklarni yengish tufayli namoyon bo'ladi.

Iroda uchun irodaviy xatti-harakat motivatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu bois irodaning negizini shaxsning xatti-harakatlari va ishlarining keng ko'lamli, rang-barang xususiyatli motivlashtirilishiga omil (turtki) tariqasidagi ehtiyojlarni vujudga keltiradi. Psixologiyada motivlashtirishning uch turi mavjudligi ta'kidlanadi (psixologik hodisalarning bir-biri bilan jips bog'langan, lekin o'zaro to'la mutanosib bo'lmagan, nisbiy mustaqil ko'rinishlari motivlashtirish deyiladi).

Shaxsning ehtiyojlarini qondirish bilan shartlangan, uni faoliyatga undovchi (turtki) tarzda vujudga keluvchi motiv sifatidagi motivlashtirishdir. Mazkur holatda motivlashtirish faollik nima sababdan vujudga kelishini, shaxsni faoliyatni amalga oshirishga undovchi ehtiyojlar mohiyatini tahlillashga xizmat qiladi.

Motivlashtirish faollik nimalarga yo'naltirilganligini, nega aynan shunday xulq-atvor tanlanganligini, nima uchun boshqasiga e'tibor berilmaganligini asoslashga qaratiladi. Bu o'rinda motivlar shaxsning xulq-atvor yo'nalishini tanlashni aks ettiruvchi sabablar funksiyasini bajaradi. Bularning barchasi yaxlit holda keltirganida inson shaxsining yo'nalishini vujudga keltiradi.

Motivlashtirish - bu inson axloqi va faoliyatini o'zi boshqaruvchi vosita tariqasida namoyon bo'lishidir. Ushbu vositalar tarkibiga emotsiyalar, xohishlar, tilaklar, qiziqishlar, mayllar va boshqalar kiradi. Masalan, emotsiyada insoniy fe'l-atvorning shaxsiy aks ettirish mohiyati baholanadi, binobarin, uning tub maqsadi faoliyat tuzilishiga mos tushmay qolsa, u taqdirda his-tuyg'ular uning yo'nalishini o'zgartiradi. Buning natijasida fe'l-atvor qayta quriladi, oldingi harakatlarni jadallashtiruvchi yordamchi kechinmalar va boshqalar.

Shunday qilib, irodaviy harakatda uni motivlashtirishning uchta jabhasi (sohasi), ya'ni faollik manbai ekanligi, inson shaxsining yo'nalganligi, o'zini o'zi boshqarish vositasiligi aks etadi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, irodaning asosi motivlashtirishga sabab bo'luvchi ehtiyojlardan iborat ekanligi dalillab o'tiladi. Ehtiyojlar esa irodaviy harakatlar bajarilishini ta'minlaydigan yoki ularga to'sqinlik qiladigan motivlarga aylana boradi. Irodaviy harakatlarning motivlari (sabablari) muayyan darajada anglanilgan xususiyat kasb etadi va shaxsni ularni amalga oshirishga yo'naltirib turadi.

Psixologiyada ehtiyojning anglanilganligi darajasiga asoslangan holda intilish, istak kabilarni psixologik jihatdan tafovut qilish mumkin. Agarda ularning mohiyatini ta'rif orqali yoritishga harakat qilsak, u holda o'zaro farqini tezda aniqlab olish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Intilish - yetarli darajada anglanilmagan, farqlanish, tabaqalashish imkoniyati sust ehtiyojdan tashkil topgan faoliyat

motividan iboratdir. Masalan, shaxs yozgan maqolasini bosib chiqarishga intilishni xayoldan o'tkazish chog'ida nashriyotni ko'z o'ngiga keltiradi, muharrir bilan uchrashganda, suhbatlashganda mamnuniyat tuyg'usini his etadi. Xuddi shu bois intilish obyekti bilan takror-takror uchrashuvga rozi bo'ladi va o'z intilishini davom ettirishga qaror qiladi. Biroq inson ba'zi hollarda unga huzur-halovat baxsh etayotgan motiv (sabab) mohiyatini anglamaydi ham, chunki u qanday natijaga erishish mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotga ega emas. Bundan ko'rinib turibdiki, intilish psixologik jihatdan yetarli darajada aniqlikni o'zida mujassamlashtirmaydi, ayrim shubhalar hukm surish ehtimoli mavjud, harakat unsurlari yuzasidan taxmin yetishmaydi.

Istak-shaxs tomonidan ehtiyojning yetarli darajada anglanilganligi bilan tavsiflanuvchi faoliyat motividir. Intilishdan farqli o'laroq istaqda nafaqat ehtiyoj obyekti, balki uni qondirishning yo'l-yo'riqlari, vositalari ham inson tomonidan tushuniladi. Masalan, oliy maktab o'qituvchisi o'qitish samaradorligini oshirish istagini bildirib, bu holatni ijtimoiy ehtiyoj sifatida tasavvur etib, ta'limning faol metodlarini qo'llash haqida o'ylaydi, o'z faoliyatini yangicha tashkil qiladi, iqtidorli, bo'sh o'zlashtiruvchi talabalar bilan individual ishlash grafigini ishlab chiqadi, qo'llanmalar yaratish rejasini tuzadi va hokazo.

### **17.5.Shaxsning irodaviy sifatlari, irodani tarbiyalash, irodaning individual xususiyatlari**

Inson faoliyatining motivlari (motivatsiyasi) uning yashash shart-sharoitlarini aks ettiradi, shuningdek, shaxs tomonidan namoyon ettirilgan ehtiyojlarini fahmlash imkoniyatini vujudga keltiradi. Ehtiyojlar ahamiyatining o'zgarishi tufayli muayyan psixologik holatlarda motivlar kurashi paydo bo'ladi, bunda bir istak boshqa istakka nisban qarama-qarshi qo'yiladi, bu haqida oldingi sahifalarda mukammal mulohazalar yuritilgan.

Qarshiliklar, qiyinchiliklar, nizoli vaziyatlarni yengish uchun irodaviy zo'r berishga to'g'ri keladi. Irodaviy zo'r berish to'g'risida mulohaza yuritilgan bo'lsada, lekin unga ta'rif berilmaganligi sababli ayrim aniqliklar kiritish joiz deb

hisoblaymiz. Irodaviy zo‘r berish - his-tuyg‘ular (hissiyot) shakli hisoblangan shaxsning irodaviy harakatiga (aktiga) qo‘shimcha motivlarni vujudga keltiruvchi, ba’zida ularni barbod qiluvchi, bilish jarayonlarini safarbar etuvchi, muayyan zo‘riqish holati singari kechiriluvchi motivlar majmuasidir.

Irodaning individual xususiyatlari va fenomenlari mavjud bo‘lib, inson faoliyatining maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirishni ta’minlaydi. Iroda shaxs faoliyatining ichki qiyinchiliklarini yengishga qaratilgan ongli tuzilmadan iborat bo‘lib, u o‘zini o‘zi boshqarish sifatida dastavval o‘ziga, o‘z hissiyotiga va xatti-harakatlariga hukmronlik qilishda aks etuvchi psixologik hodisadir. Irodaning kuchi yoki kuchsizligini aks ettiruvchi holatlar uning individual xususiyatlarini namoyon qiladi. Ana shu atamalardan kelib chiqqan holda irodasi kuchli va irodasi sust (kuchsiz) odamlar hamda ularning ijobiy va salbiy fazilatlari, sifatleri, xislatlari, illatlari to‘g‘risida mulohaza yuritiladi.

Irodasi sustlikning patologiyasi mavjud bo‘lib, ular abuliya (yunoncha, qat’iyatsizlik degan ma’noni anglatadi) va apraksiya (yunoncha argaxla harakatsizlik ma’nosini bildiradi) atamalari bilan ifodalanadi. Abuliya - bu miya patologiyasi negizida vujudga keladigan faoliyatga intilishning mavjud emasligi, harakat qilish, uni amalga oshirish uchun qaror qabul qilish zarurligini anglagan tarzda shunday qila olmaslikdan iborat inson ojizligidir. Masalan, shifokor ko‘rsatmalariga rioya qilish zarurligini to‘g‘ri fahmlagan abuliya kasali bilan shikastlangan bemor biror narsani bajarishga o‘zini mutlaqo yo‘llay olmaydi. Apraksiya - miya tuzilishining shikastlanishi tufayli yuzaga keladigan harakatlar maqsadga muvofiqligining murakkab buzilishidan iborat psixopatologik holatdir. Nerv to‘qimalarining buzilishi miyaning peshana qismlarida yuz bersa, u holda xatti-harakatlarni erkin to‘g‘rilashda buzilish namoyon bo‘ladi, natijada iroda akti bajarilishi qiyinlashadi. Abuliya va apraksiya - psixikasi og‘ir kasallangan insonlarga xos, nisbatan noyob, fenomenal psixopatologik hodisalardir. Lekin pedagogik faoliyatda uchraydigan irodaning sustligi miya patologiyasi bilan emas, balki noto‘g‘ri tarbiya mahsuli bilan tavsiflanadi.

Iroda sustligining yaqqol (tipik) ko‘rinishlaridan biri - bu yalqovlik hisoblanib, shaxsning qiyinchiliklarini yengishdan bosh tortishga intilishi, irodaviy kuch-g‘ayrat ko‘rsatishni qat’iy ravishda istamasligida o‘zini aks ettiruvchi illatdir. Yalqovlik - shaxs ojizligi va irodaviy sustligining, uning hayotga layoqatsizligining, shaxsiy va ijtimoiy faoliyatga (hamkorlikka) loqaydligining ifodasidir. Yalqovlik - shaxsning ruhiy qiyofasi bo‘lib, uzluksiz tarbiyaviy ta’sir va o‘zini o‘zi tarbiyalash orqali bartaraf etish imkoniyati mavjud ruhiy nuqsondir. 3. Iroda nazariyasi va tadqiqoti to‘g‘risida tushuncha.

Irodaning tadqiqoti uzoq tarixga ega bo‘lib, inson ongining mohiyatini kashf qilish jarayonidan boshlab, muayyan bilimlar to‘planishi tufayli shaxsning irodasi tabiatini tushunishga ilmiy yondashuv vujudga kelgan. XVII asrdayoq Gobbs va Spinozalar ta’kidlab o‘tganlaridek, faollik manbai bemahsul sohaning paydo bo‘lishi deb tushunish mumkin emas, chunki uni shaxsiy kuch-quvvatini hissiy intilish bilan uzviylikda qaramoqlik lozim. Spinozaning fikricha, iroda bilan aql aynan bir narsadir. Unga bunday tasdiqiy munosabatning tug‘ilishi irodani ilmiy nuqtai nazardan tushunishni shakllantirgan bo‘lsa, ikkinchi bir tomondan u mustaqil substansiya sifatida tan olindi ham. V.Vundtning mulohazasicha, irodaning negizida appersepsiya aktining subyekt tomonidan ichki faollik uniki ekanligini his etish yotadi. Uning bu konsepsiyasi emotsional yoki affektiv nom bilan psixologiya faniga kirib keldi. U. Djemsning tan olishicha, irodaviy harakatlar boshqa ruhiy jarayonlarga qorishtirib bo‘lmaydigan birlamchi xususiyatga egadirlar. Har qanday g‘oya dastlab dinamik tendensiyaga ega bo‘lganligi tufayli irodaviy aktning vazifasi diqqat yordami bilan bir g‘oyaning boshqasi ustidan ustuvorligini ta’minlashdan iboratdir.

Psixologiyada yetarli darajada qat’iy fikr qaror topgankim, iroda - bu insonning qo‘yilgan maqsadlariga erishishga yo‘naltirilgan ongli faolligidir. Iroda tushunchasi mohiyatiga inson tomonidan maqsad qo‘ya olish qobiliyati, o‘z emotsiyasini boshqarish, shaxsiy gavdasini va xulqini idora qilish kiritiladi. V.I.Selivanov irodani tadqiq etish negizidan kelib chiqqan holda ayrim xulosalar chiqaradi:

a) iroda - bu shaxsning o'z faoliyatini va tashqi olamdagi o'zini o'zi boshqarilish shakllarini anglashning tavsifidir;

b) iroda - insonning yaxlit ongining bir tomoni hisoblanib, u ongning barcha shakl va bosqichlariga taalluqlidir;

v) iroda - bu amaliy ong, o'zgaruvchi va qayta quriluvchi olam, shaxsning o'zini ongli idora qilishlikdir;

g) iroda - bu shaxsning hissiyoti va aql-zakovati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatidir, ammo qaysidir harakatning motivi (turtkisi) hisoblanmaydi.

V.I.Selivanov irodaning psixologik jabhalarini yoritayotib, u shunday g'oyani ilgari suradi, insoning ongini jarayonlar, holatlar, xislatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida tasavvur qilish mumkin. Shaxsning u yoki bu ongli harakati o'zining tuzilishiga ko'ra, u bir davrning o'zida ham aqliy, ham hissiy, ham irodaviy hisoblanadi.

Tadqiqotchi V.A.Ivannikov esa irodani motivatsiyaning ixtiyoriy shakli sifatida tushunadi, shuningdek, harakat ma'nosining o'zgarishi hisobiga uni tormozlovchi yoki qo'shimcha turtki yaratuvchi imkoniyat, yangi real motivlarni harakat bilan birlashtiruvchi, yoinki vaziyatning tasavvur motivi tariqasida talqin qiladi. Irodaviy boshqariluv esa harakatni «ixtiyoriy boshqariluv ko'rinishlarining bittasi sifatida» tushuniladi, bunda boshqariluv motivatsiyaning ixtiyoriy o'zgarish orqali amalga oshirilishi ta'kidlaniladi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, psixologiya fanida irodani tushunish, ta'riflash bo'yicha bir xil munosabat yaratilmaganiday, irodaviy sifatlarning ma'noviy asosini tahlil qilish yuzasidan ham umumiylik, umumiy qarashlar majmuasi mavjud emas. Jumladan, V.A.Kruteskiy o'z asarida irodaviy sifatlarni tarkibiga sobitqadamlik, mustaqillik, qat'iyatlilik, sabr-toqatlilik, intizomlilik, dadillik, jasoratlilik va tirishqoqlikni kiritadi.

P.M.Yakobson bo'lsa, irodaning muhim sifatlarini mustaqillik, qat'iyatlilik, tirishqoqlik, o'zini uddalashga ajratadi. Insonda namoyon bo'ladigan irodaviy sifatlarni sarasiga A.I.Shcherbakov mana bularni kiritadi: sobitqadamlik va

tashabbuskorlik, tashkillashtirganlik va intizomlilik, erinchoqlik va tirishqoqlik, dadillik va qat'iyatlilik, chidamlilik va o'zini uddalashlik, botirlik va jasoratlik.

Lekin aksariyat ilmiy psixologik adabiyotlarda irodaviy sifatlar qatorida «ishonch» atamasi sanab o'tilmaydi. Shunga qaramasdan, ishonch iroda sifati tariqasida tadqiq etilishiga haqlidir. Buning uchun A.I.Shcherbakov tadqiqotidan namuna keltirishning o'zi yetarlidir. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, bir talabaga institutni qisqa vaqt (fursat) ichida tugatish taklif qilingan, lekin sinaluvchi bu ishni uddasidan chiqa olmaslikni oshkora bildirgan. Shundan so'ng eksperimentator talabada o'z kuchiga ishonch uyg'otishga maqsad qilib qo'ygan va unda irodaviy zo'r berish, qiyinchiliklarni yengish vositalarini shakllantirgan. Buning natijasida talaba o'z maqsadiga erishishga musharraf bo'lgan. Bunga o'xshash tajribalar boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham o'tkazilganligi ilmiy adabiyotlarda uchraydi. Shuning uchun ham o'z kuchiga ishonch psixologik hodisa sifatida o'rganilishi ko'pchilikni qiziqtiradi, chunki kuchli irodaviy zo'r berish qanday omillar bilan shartlanganligini kashf qilish muhim ilmiy muammo hisoblanadi. Xuddi shu bois hozirgi zamon psixologiyasining irodaga oid nazariyasi zaifligi tufayli irodaviy sifatlarni tasniflashning asosiy tamoyili (printsipi) ishlab chiqilmagandir.

Ushbu psixologik muammoni hal qilish maqsadida V.K.Kalin irodaviy sifatlarni tasniflashga (klassifikatsiyalashga) qaror qiladi. Uning nuqtai nazaricha, bazal irodaviy sifatlar irodaviy jarayonlar asosida vujudga keladi, ammo bunda uning intellektual va axloqiy jabhalari ishtirok etmaydi. U bazal sifatlarni aniqlash uchun ongning quyidagicha namoyon bo'lishini tanlaydi:

- a) faollik darajasining ortishi;
- b) zarur bo'lgan faollik darajasini quvvatlash;
- v) faollik darajasining pasayishi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda tadqiqotchi quyidagi sifatlarni mulohaza uchun tavsiya qiladi; g'ayratlilik, chidamlilik, vazminlik. Agarda bu jarayonda intellektual negiz ishtirok etmasa, shu narsani tushunib bo'lmaydi, qaysi hal qiluvchi qurilma hisobiga vaziyat baholanadi va harakatni kuchaytirish, quvvatlash, pasaytirish to'g'risidagi komanda beriladi.



V.K.Kalin bazali tizimga kirmagan irodaviy sifatlarni ikkilamchi deb nomlaydi, chunki ularda bilimlar, ko'nikmalar, emotsiya va intellektning paydo bo'lishi mujassalashadi. Muallif qat'iyatlikni ikkilamchilar qatoriga kiritadi, vaholanki uning fikricha, u o'ziga mahliyo qiladi, his-tuyg'ularni yengishdan, shuningdek, rad etilgan variantlardan, ishonchsizlikni to'sishdan tashkil topadi. U tirishqoqlikni ham ikkilamchi sifatlar tarkibiga kiritadi.

Chunki ularda obyektning to'planganligi ifodasi o'z aksini topgan, ravshan hayotiy qadr-qiyamat mujassamlashgan. Chidamlilik tavsifida «qo'shimcha impulslar», «qo'shimcha irodaviy zo'r berish», «iroda kuchi», «sabr-toqat» jabhalari ifodasining o'rni mavjud. Chidamlilikka turtkning xususiyatlari tirishqoqlik irodaviy sifatga mos tushish hollari uchraydi. Y.P.Ilinning rang jadvalida tirishqoqlik sifati chidamlilikdan keyin joylashgan bo'lib, quyidagi ta'rifga ega: «Tirishqoqlik - qiyinchilikka va muvaffaqiyatsizlikka qaramasdan, maqsadga erishish yo'lida uzluksiz ravishda intilishning paydo bo'lishidir».

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, tirishqoqlik, qat'iyatlik sifatleri bilan bir qatorda chidamlilikni irodaviy xislatlarning yetakchisi tariqasida tan olish, qiyinchiliklarga qaramasdan, harakatni davom ettirishga intilish tarzida tushunish muhim ahamiyat kasb etishi shak-shubhasiz. Lekin og'riqqa chidash, bardoshlikka moyillik nuqtai nazardan yondashinilganda esa irodaning erkinligi ta'biri, irodaviy sohaning paydo bo'lishi va amalga oshishi mohiyati yuzasidan metodologik nuqsoniy talqin yuzaga kelishi mumkin.

Tibbiyot psixologiyasida ma'lumki, inson tomonidan og'riqqa bardosh berish chidamlilik sifatining vujudga kelishi, kechishi jarayonining yorqin ifodasidir. Hayot va faoliyat tajribalari ko'rsatishicha, shaxs og'riqqa ko'nika olmaydi, chunki buning negizida boshqa mexanizmlar yotishi turgan gap. Fiziologik me'yorlarga binoan shaxs og'riqni sezish, idrok va tasavvur qilishning murakkab jismoniy qurilmasiga ega. Shunga qaramasdan, og'riqni inson har xil his qilishi, unga bardosh berishi, sabr-toqat bilan boshidan kechirishi mumkin, bunda individual tafovut aniq namoyon bo'ladi. Diqqatning og'riq sezgilariga to'planishi tufayli og'riq zarbi kuchayadi - bu psixofiziologik qonuniyatdir. Xuddi shu boisdan odam

og'riq sezgilariga tobe bo'lib qolmasligi lozim, aks holda u bu noxush kechinma, ruhiy holat ta'sirida uzoq muddat qolib ketishi kuzatiladi. Og'riqni boshdan kechirish jarayonida nafaqat chidamlilik zarur, balki mushkul sharoitlarda faollik ko'rsatish ko'nikmasi, qiyinchilikni yengish odati muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday xususiyatga ega bo'lgan insonlarda o'z hissiy a'zolarini, ularning harakatlarini idora qilish uquvi mavjuddir, aksincha nozik tabiatli, ichki intizomsiz, sabr-toqati zaif, mo'rt ruhiy kechinmali shaxslar chidamsizligini namoyish qiladilar.

Yuqorida bildirilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, to hozirgacha psixologiya fanida asosiy, muhim irodaviy sifatlarni tasniflashning umumbirlik tamoyili mavjud emasligi tufayli aksariyat hollarda bir irodaviy xislat qo'shaloq atama bilan belgilanishi davom etib kelmoqda (masalan, mustaqillik va tashabbuskorlik, jur'at va dadillik, tirishqoqlik va qat'iyatlik, vazminlik va o'zini uddalash kabilar).

Psixologiyada irodani eksperimental o'rganishga oid qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ularning ayrimlaridan namunalar keltirib o'tamiz. Ko'pchilik tadqiqotchilar Y.I. Ignatev qo'llangan metodikasi va uning natijalariga xayrixohlik bildiradilar. Lekin muallifning o'zi uni baholashda juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladi. Uning mulohaza bildirishicha, ushbu metodika yetarli darajada ishonchli, irodaning tormozlashi paydo bo'lishini tadqiqot qilishda qoniqarli natijalar berishi mumkin, lekin undan «test» sifatida foydalanish ko'ngildagidek ko'rsatkichlarga olib kelmasligi ehtimoldan xoli emas. Ushbu metodikaning mohiyati shundan iboratki, muskulning kuchli qisqarishidan keyin o'zining tinch holatiga qaytishdagi qarshiliklarini yengish xususiyatini tajribada tekshirishdir. Xuddi shu vaziyatda irodaviy zo'riqishni bartaraf etish namoyon bo'ladi. Muallifning ta'kidlashicha, zo'riqishdagi muskullarning qisqarishini bir lahza to'xtatib qolishni irodaning shartli ko'rsatkichi tariqasida qabul qilish mumkin, chunki mazkur jarayonda inson o'z tana a'zolari muskulini ongli boshqarish uquvi aks etadi. E.I. Ignatev tadqiqotida maksimal qisilishdan keyin irodaviy zo'riqishni (zo'r berishni) 5 kg ortiq bo'lmagan og'irlikda pasaytirishga

yoʻl beriladi, uning taxminicha, bu kattalik (ogʻirlik) zoʻriqish kuchini kamaytirmaydi va zoʻr berishni vaqtincha toʻxtatib qolishga taʼsirini oʻtkazmaydi. Tadqiqotchi materiallarini tahlil qilishning koʻrsatishicha, muskul zoʻr berishi 9-17 yoshdagi sinaluvchilarda 14 kg dan 40 kg gacha ogʻirlikni tashkil qiladi, zoʻr berishning 5 kg kamayish doirasi maksimal holatga nisbatan 35,7 protsentsdan to 12,5 protsent miqdorlarda mujassamlashadi.


Iroda sifatlarini tadqiqot qilishga intilgan V.I.Makarova test oʻrnida gimnastik stoldan matga (gollandcha, inglizcha «pta1» - polga yoziladigan matoga sakrashni tanlagan, chunonchi: oldingi 180° aylanish bilan old tomonga, orqaga. Tajriba davomida tomir urishi, tayyorgarlik vaqti, mimika, gavda holat, barmoqlarni bukish qayd qilib berilgan.

Shunday qilib, irodaviy sifatlarni aniqlash va baholash metodlari oʻzlarining rang-barangligi bilan tavsiflanadi. Tadqiqotchilar oʻz faoliyatlarida harakatlarning odatiy va qiyinlashtirilgan sharoitlardagi xususiyatlari, ularning mahsuldorligi kabi hodisalarni qayd qilish imkoniyatiga ega boʻlganlar. Toʻplangan maʼlumotlar tahlilining koʻrsatishicha, iroda motivlarda, maqsadlarda, oʻzini oʻzi baholashda, harakatlarda, faoliyatda oʻz ifodasini topar ekan. Xuddi shu bois iroda - bu tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishni talab qiladigan qiliqlarni va harakatlarni inson tomonidan ongli boshqarishdir.

Iroda - odamning oʻz ustidan, oʻz his-tuygʻulari, oʻy-fikrlari, xatti-harakatlari ustidan hukmronlik qilishidir, boshqacha aytganda, iroda insonning oʻz xulq-atvorini ongli ravishda boshqara olishi, har qanday qiyinchiliklarga qaramay, oʻz oldiga qoʻygan maqsa-diga erisha olish qobiliyatidir. Shaxsning ichki toʻsiqlarni barta-raf qila bilishi uning tashqi toʻsiqlarni ham muvaffaqiyatli yengishiga imkoniyat yaratadi. Masalan, xizmatchi yugurish musobaqalarida qatnashib, maʼlum masofaga yugurishi, yoʻlda uchraydigan suv yoki boshqa gʻovlardan oʻtishi, yomon ahvoldagi yoʻlakdan yugurishi lozim. Qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli yengib, xizmatchi mazkur qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun zaruriy irodaviy sifatlarni oʻzida mujassamlashtirishga muvaffaq boʻladi. Shu bois

irodaviy harakatlar - shaxsning ko'zlagan maqsadiga erishish uchun ham ichki, ham tashqi to'siqlarni yengishi bilan uzviy bog'liq ongli xatti-harakatlardir.

### Irodaviy aktning tuzilishi va bosqichlari.



Insonning irodaviy harakatlari va bunday harakatlarga qobilligi mehnat hamda ijtimoiy faoliyatda, ta'lim jarayonida yuzaga kelgan. Ijtimoiy turmush sharoitlari, tobora o'sib boruvchi turli xususiyatli ehtiyojlar odamlardan bu ehtiyojlarni qondirish maqsadida borliqni o'rganish, o'zlashtirish va uni qayta qurishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni taqozo etgan. Hamkorlikdagi jamoaviy mehnatda odamda nerv sistemasi, xususan, uning yuksak qismi - bosh miya rivojlanib, takomillashib boradi, shu bois shaxsning psixik hayoti miyaning mahsuli yoki xossasidir, shuning uchun miya faoliyatining buzilishi tufayli

psixikada ham o'zgarishlar yuzaga keladi. Bosh miya po'stlog'idagi barcha bo'linmalarning o'zaro mutanosib ishlashi shaxsning me'yordagi ruhiy faoliyatini ta'minlab turadi.

Ilmiy natijalar tahlilining ko'rsatishicha, iroda faqat tashqi xatti-harakatlarda namoyon bo'lib qolmasdan, balki insonning ortiqcha, noto'g'ri harakatlarni qilmasligida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunday qilib, irodaviy harakatlar ham qo'zg'alish, ham tormozlanish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, har ikkalasi bir-biriga uzluksiz ravishda ta'sir o'tkazib turadi. I.P.Pavlovning ta'biricha, biz, normal kishilar doimiy ravishda ma'lum harakat va so'zlardan o'zimizni tiyib turamiz-ku, bu esa katta yarim sharlarning muayyan punktlariga tormozlanish impulslari yuborish emasmi, axir.

Shuning uchun har qanday irodaviy harakatning fiziologik asosida bosh miya po'stlog'ida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining murakkab dinamik munosabati yotadi. Qo'zg'alish jarayonlari zaif, kuchsiz bo'lsa, u holda odamda irodaviy faollik susayadi, ba'zan, hatto apatiya holati vujudga keladi. Tormozlanish jarayonlarining kuchsizlanishi shunday ruhiy holatga olib keladiki, bunda shaxs o'zini o'zi nazorat qilish, og'irliklarga bardosh berish, o'zini tuta bilish, o'z xatti-harakatlarini tartibga solishga qurbi yetmay qoladi. Demak, tana a'zolari (organizm) faoliyatini va uning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasining tartibga soluvchi, idora qiluvchi katta yarim sharlar po'stlog'ining sog'lom holati va me'yorda ishlashi insonga, o'zini, o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish xususiyati faqat inson zotigagina xosdir.

Ma'lumki, odamlar hayvonlardan qanchalik ko'p uzoqlasha borsalar, ularning tabiatga ta'sir qilishlari shuncha ko'p oldindan o'ylash, rejali, oldindan belgilangan, ma'lum maqsadga qaratilgan ish tusiga kira boradi. Shuning uchun jamoa bo'lib mehnat qilish jarayonida odamlarda maqsadni anglash va o'z oldiga maqsad qo'yish, ishni bajarishdan oldin reja tuzib olish, ishga faol ravishda kirishish va keraksiz xatti-harakatlardan o'zini tiyish, maqsadga erishish yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yengish, o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish qobiliyati, o'quvi, zehni o'sa boradi. Borliqdagi tashqi ta'sirlar atrof-

muhitning ta'sir ko'rsatishi tufayli odamlarda irodaviy sifatlar takomillashadi, demakki iroda tarkib topadi. Buyuk allomalarning fikricha, tashqi dunyo kishilarda paydo qiladigan taassurotlar uning miyasida ifodalanadi, unda his-tuyg'u, fikr, mayl, irodaviy harakatlar tarzida, «ideal intilishlar» tarzida aks etadi. Yana bir donishmandning mulohazasicha, kishining intilish va xohishlari, o'z oldiga qo'ygan maqsadlari obyektiv dunyo tomonidan vujudga keltirilgan.

Irodaviy harakatlar inson yashab turgan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar, turmush tarzi bilan belgilanadi. Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning, shaxslararo muomalaning o'zgarishi bilan shaxsning o'z oldiga qo'yadigan maqsadlari ham, odamni faoliyatga undovchi motivlar ham o'zgaradi. Mamlakatimizning fuqarolarining irodasi kelajagi buyuk davlat qurishga qaratilgandir. Respublikamiz yoshlari huquqiy demokratik, kuchli fuqaroviy jamiyat, mustaqillikni mustahkamlash g'oyalari bilan bog'liq bo'lgan aniq, ham istiqbol maqsadlarga ega. Fuqarolar o'z oldilariga maqsadlar qo'yar ekanlar, bu maqsadlarni qanday yo'l va vositalar bilan amalga oshirish mumkinligi to'g'risida ham o'ylab ko'radilar, qo'yilgan maqsadlarga erishishning eng ma'qul, oqilona, odilona, omilkor usullari ular tomonidan tanlab olinadi.

Shuni ta'kidlash joizki, iroda bilimlar, his-tuyg'ular, tafakkur kabi psixologik kategoriyalar bilan uzviy aloqada, o'zaro bir-biriga ta'sir o'tkazishi tufayli ijtimoiy hayotda, insonning individual turmushida shakllana boradi va takomillashadi.

#### **Nazorat savollar:**

1. Iroda qanday bosqichlarda yuz beradi?
2. Iroda sifatlariga nimalar kiradi?
3. Irodaviy harakatlar haqida tushuncha bering?
4. Iroda borasidagi psixologik nazariyalar sanang?
5. Irodaviy harakatlarning fiziologik motivatsion asoslarini izohlang?
6. Irodaviy harakat tuzilishi va rivojlanishini tushuntirib bering?

## 18-MAVZU. TEMPERAMENT

*Tayanch tushunchalar: xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik, shaxs tiplari, shaxs yo'nalishi, sezitivlik, individual xususiyatlar, reaktivlik, impulsivlik,*

### **18.1. Temperament haqida tushuncha. Temperamentning rivojlanish tarixi, temperament tipi**

Insonning ruhiy olami beto'xtov harakatlar majmuasidan iborat bo'lib, biri ikkinchisini bevosita taqozo etadi va ular uzluksiz zanjir tizimiga o'xshash tarzda hukm suradi. Xuddi shu bois shaxs ruhiyatida tashqi atrof-muhit to'g'risidagi taassurotlar, o'tmish xotiralari, kelajak yuzasidan ijodiy xayollar, ezgu niyatlar, xohish istaklar, maqsad va tilaklar, mulohaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar uzluksiz tarzda o'zaro o'rin almashtirib turishi evaziga ontogenetik dunyoga mustahkam negiz hozirlanadi. Ruhiy olam kechishi, uning sur'ati, mazmuni, shakli, ko'lami, xususiyati, xislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkahol insonda rang-barang tarzda namoyon bo'lishi kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, insonlar tabiat hodisalariga, omillariga, ta'sir kuchlariga tez yoki sekin, yengil yoki mushkulot bilan javob qaytarishga moyillik ko'rsatadilar.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, psixik faoliyatning dinamikasi nafaqat temperamentga, balki motivlarga, psixik holatlarga, his-tuyg'ularga ham bevosita bog'liqdir. Misol uchun, inson o'zi temperamentning qaysi turiga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar, o'z faoliyatiga layoqatli, mayli kuchli, intilishi qat'iy, qiziquvchan bo'lsa, uni tashkillashtirishda va nazardan qolishda uyushqoqlik, harakat sur'ati esa tezkor amalga oshadi, unga loqayd munosabatni bildirsa, ish sur'ati sekin va sust kechadi. Har qanday vaziyatga qaramasdan, shaxsning qarindosh urug'lari to'g'risidagi, shuningdek, jahonda kechayotgan noxush xabarlar uning a'zoyi badanini larzaga keltiradi, labi quriydi, rangi bo'zaradi, atrof-muhitga nisbatan mo'ljalini yo'qotadi. Psixologiyada temperamentga taalluqli individual dinamik xususiyatlar bilan motivlar va psixologik holatlar, hissiy kechinmalarning dinamik xususiyatlari o'rtasida muayyan darajada tafovut

mavjudligi alohida ta'kidlanadi. Ular orasidagi farqlarni ajratib ko'rsatish maqsadida qo'shimcha belgilar kiritiladi va o'ziga xos tarzda tavsiflab beriladi. Ularning ayrimlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq.

1. Favqulodda temperamentning bir xil xususiyatlari, motiv, individual xususiyatlari bilan temperamentga aloqador nerv tizimi xususiyatlarining o'zaro qo'shiluvini nerv tizimining tipi deb nomlaydi va uni to'rtta tipga ajratadi: a) kuchli, muvozanatli, epchil; b) kuchli, muvozanatsiz, epchil; v) kuchli, muvozanatli, sust; g) kuchsiz tip.

## **18.2.Qadimgi yunon olimi Gippokrat ta'limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o'zaro bir-biridan tafovutlanishi**

Yirik rus psixologlaridan biri B.M.Teplov (1896-1965) va uning shogirdlari, maslakdoshlari I. P.Pavlovning tadqiqotlarini davom ettirib, inson nerv jarayonlari xususiyatlarining o'ziga xos tomonlarini ochishga muvaffiq bo'ldilar. Ular nerv-fiziologik jarayonlarning nozik qirralarini o'rganishda maxsus moslamalar yordami bilan o'zgarishlarni qayd qilish hamda olingan natijalarni (omillarini) matematik statistika metodlari orqali hisoblashni tatbiq etdilar.

B.M.Teplov ilmiy maktabi namoyandalari tomonidan olingan ma'lumotlarga qaraganda, insonda hosil qilinadigan shartli reflekslarning ba'zi bir individual xususiyatlari o'zaro uyg'unlikka egadir. Ularning ta'biricha, o'zaro bog'liq individual xususiyatlar tizimi asab tizimining muayyan xususiyati bilan tavsiflanadi. Jumladan, o'zaro bog'langan xususiyatlar, birinchidan, shartli qo'zg'ovchi mustahkamlanishi davom etishidan qat'iy nazar, shartli reflekslar so'nishi darajasiga, ikkinchidan, qo'zg'ovchilarning kuchli yoki kuchsizligi bilan shartli reaksiyaning hajmi orasidagi tafovutlarga, uchinchidan, asosiy qo'zg'ovchi sezgirligiga begona (notanish) qo'zg'ovchini ijobiy (salbiy) ta'sir o'tkazish darajasiga, to'rtinchidan, boshqa ko'rinishdagi yoki kuchlanishdagi qo'zg'alish jarayonlarining kuchiga bog'liqdir.

Ma'lumotlarning tahliliga binoan, tormozlanishning (to'xtalishning) kuchi bilan nerv jarayonlarining muvozanatlashuviga taalluqli shartli reflektor



faoliyatining individual xususiyatlari turkumlari shunga o'xshash usul yordami bilan kashf qilingan. Shuningdek, B.M.Teplov ilmiy maktabining namoyandalari tomonidan ijobiy va tormozlovchi shartli reflekslarning hosil bo'lish tezligini tavsiflovchi individual xususiyatlar turkumi ham ta'birlab berilgandir. Ushbu individual xususiyatlar mohiyatida ifodalanuvchi asab tizimining notanish xususiyati dinaminlik deb nomlangan. Bundan tashqari, ular shartli reflektor faoliyatining bir guruh individual xususiyatlari qo'zg'alish jarayonining to'xtalishining tezligi mahsuli sifatida taxmin qilingan xususiyatni (yangi xislatni) labillik, ya'ni lotincha - beqarorlik deb ataganlar.

Shuning bilan birga asab tizimining boshqa xususiyatlari mavjudligi to'g'risida ilmiy taxminlar ilgari surilgan, chunonchi: senzitivlik, reaktivlik va hokazo. B.M.Teplov ilmiy maktabi I.P.Pavlov tadqiqotlarida aniqlangan asab tizimining xususiyatlari to'g'risidagi nazariya va taxminlar muayyan darajada kengaytirilgan hamda temperamentning tub mohiyatini tushuntirishga qulay imkoniyatlar yaratilgan. Lekin shunday chuqur izlanishlar olib borilishiga qaramay, psixologlar tomonidan kashf qilingan xususiyatlarning kimyoviy va fizikaviy mohiyati to'hanuzgacha noma'lum bo'lib qolmoqda.

Xuddi shu bois, asab tizimining xususiyati to'g'risidagi ilmiy mushohadalar faqat shartli reflektor faoliyati bilan o'zaro bog'liq individual xususiyatlar turkumiga taalluqli umumiy sabablar bo'yicha talqin qilishni ifodalaydi, xolos.

Nerv tizimi xususiyatlari bilan temperamentning bog'liqligi aksariyat hollarda mana bunday omillarning mohiyatida aks etishi mumkin. Jumladan, negizida asab tizimining faraz qilingan fiziologik xususiyati yotgan shartli reflektor faoliyatining o'zaro bog'liq individual xususiyatlarning muayyan turkumi shaxsda qanchalik ko'p mujassamlashsa, temperamentning unga mutanosib xususiyati xuddi shu darajada namoyon yoki aks holatda shuncha kam ifodalanishi kuzatiladi: 1) insonda shartli refleks shakllangan bo'lsa-da, lekin u tez so'na boshlasa; 2) tashqi qo'zg'ovchi shartli refleksda kuchli tormozlanishni vujudga keltirsa; 3) shaxs kuchsiz qo'zg'ovchilarga kuchli qo'zg'ovchilar singari shiddat bilan reaksiya qaytarsa; 4) odam kuchsiz qo'zg'alish jarayoni bilan uyg'unlashgan xususiyatlarni

aniqlasa; 5) insonda kuchli emotsional qo'zg'alishi hamda diqqatning chalg'ishi yuzaga keladi.

### **18.3.Oliy nerv faoliyati tipi va temperament. I.P.Pavlovning temperament shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog'liqligi haqidagi ta'limoti**

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, I.P.Pavlov ta'limotida temperamentning psixologik ta'siri asab tizimining barcha xususiyatlari bilan aloqadorligi yoki uning tipiga tegishli ekanligi tushuntiriladi. Xuddi shu bois, temperamentning u yoki bu xususiyati asab tizimining birorta xislati bilan emas, balki xususiyatlarning turkumlari bilan aloqaga kirishadi. Buning ta'sirida asab tizimi xususiyatlarining miqdoriy munosabatlarida temperament xususiyatlari ham sifat o'zgarishini yasaydi.

Yigirmanchi asrning 60-70 yillarida ushbu soha bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, temperamentning psixologik tavsifi bilan I.P.Pavlovning tiplari o'rtasida aloqa hukm surishiga hech qanday shak-shubha yo'qdir. Temperamentga taalluqli asab tizimining tiplari ham insonga, ham hayvonlarga tegishli bo'lib, ular umumiy tiplar deb nomlanadi. Binobarin, temperamentning fiziologik asosi - bu asab tizimining umumiy tiplaridir. Biroq, I.P.Pavlovning tiplari - bu nerv tizimi xususiyatlarining tanho tipik birikmasi emasdir, chunki keyinchalik bu borada yangi birikmalar topildi. Lekin ajratilgan tiplarning barchasi bir tekis ahamiyatga molik emasligi tufayli ularning eng asosiylari kuchli va kuchsiz tiplardan tashkil topadi.

Nerv tizimining umumiy tiplari kelib chiqishi yuzasidan mulohaza yuritilganda, albatta I.P.Pavlovning ta'limotini eslash maqsadga muvofiq, chunonchi, irsiyat yo'li bilan shartlangan tip - bu genotip demakdir. Hozirgi davrda asab tizimining umumiy tipi (genotip) irsiyatga bog'liq ekanligi haqidagi ma'lumotlar, omillar juda ko'p bo'lib, ular qiyosiy psixologiyada hayvonlarni o'rganishda topilgandir. Masalan, asab tizimining kuchi, epchilligi hayvonlarni

chatishtirish yo‘li bilan yuzaga keltirilgan, lekin barcha xususiyatlar to‘g‘risida bunday dadil fikrlarni bildirish mumkin emas.

Xorijiy psixologik adabiyotlarda ta’kidlanishicha, temperament asab tizimi umumiy tipining nerv-fiziologik xususiyatlariga emas, balki: a) tashqi ko‘rsatkichi badanning jismoniy tuzilishiga, b) uning ba’zi qismlari o‘rtasidagi aloqaga, v) organizm turli tarkiblarining munosabatlaridan tuzilgan organizmning umumiy tuzilmasiga bog‘liqdir, degan nazariya jahon psixologiyasida ustuvor o‘rin egallagandir.

Bu nazariyaning asoschilari E. Krechmer (nemis psixologi) va U.Sheldon (amerika psixologi)lar hisoblanib, ularning talqinicha, tana tuzilishi ham, temperament xususiyatlari ham ichki sekretiya bezlari faoliyatidagi o‘zaro munosabatlarning nasliy belgilariga bog‘liqdir. Ularning fikricha, tana tuzilishi bilan temperament xususiyatlari orasida muayyan mutanosiblik mavjuddir. U. Sheldonning mulohaza bildirishicha, semiz, qorin bo‘shlig‘i takomillashgan inson shodlikka, muloqotmandlikka, to‘yib ovqatlanishga moyil (visseraton) xususiyatga egadir. Shuningdek, skelet muskullari taraqqiy etgan shaxslar g‘ayratli, faol (somaton) xislatlidir. Shu bilan birga asab tizimi, bosh miyasi o‘rta rivojlangan insonlar o‘ta sezgir, sertashvish, xayolotga beriluvchan bo‘ladilar, ya’ni serebroton xususiyatlidir.

Mulohaza yuritilgan muammo muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi, chunki ichki sekretiya bezlarining tuzilishi ham tashqi sharoitlarga, ham faoliyat talablariga to‘la-to‘kis moslasha olmaydi, binobarin u asab tizimiga bir oz muvofiqlashuvi mumkin, xolos. Xuddi shu omildan kelib chiqqan holda Krechmer bilan Sheldon talqiniga yondashilsa, u holda shaxs temperamentining xususiyatlari tashqi ijtimoiy sharoitlarga, faoliyat talablariga muvofiqlashuv ehtimoli mavjud.

Mualliflar e’tiroficha, turli temperamentli shaxslarga ijtimoiy zaruriyat tufayli bir xil talablar qo‘yilsa, u holda insonning temperamenti imkoniyatlari bilan jamiyat talablari o‘rtasida murakkab ziddiyatlar, nizoli vaziyatlar vujudga kelishi mumkin emish.

Shuni ta'kidlash joizki, Krechmer bilan Sheldonning temperament to'g'risidagi nazariyasi bir muncha bahslidir, chunki temperamentning asab tizimi umumiy tipining xususiyatlariga bog'liqligini aks ettiruvchi omillarni tushuntirishga zaiflik qiladi. Shuningdek, mazkur ta'limot temperamentning kelib chiqishini tushuntirishga biryoqlama orttirma baho beradi. Shuni unutmaslik kerakki, organizmning umumiy tuzilishi darhaqiqat asab tizimining tipiga va temperamentga muayyan darajada ta'sir o'tkazishi mumkin. Chunki asab tizimining xususiyatlari modda almashish ichki sekretsiya bezlari faoliyatining individual xususiyatlariga muvofiqdir. Demak, temperamentning vujudga kelishida organizmning umumiy tuzilishi emas, balki asab tizimining genotipi yoki umumiy tipi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga qaramay temperamentning fiziologik asosi asab tizimining umumiy tipidan iborat bo'lsa-da, lekin uning psixologik tavsifini tahlil qilish uchun asab tizimining xususiyatlarini bilish hozirgi davr talabiga javob bermaydi. Misol uchun, g'ayratlilik, barqaror kayfiyat, yuqori faollik, harakat tezligi qo'zg'alish kuchiga bog'liqdir, lekin unga har xil psixik xususiyatlar ham taalluqlidir (sezgi xususiyatlari, xayol obrazlari yorqinligi va hokazo).

Temperamentning muayyan xususiyati asab tizimi umumiy tipining birorta xususiyatiga aloqador bo'lmasdan, balki bir turkum xususiyatiga bog'liqdir. Psixologiyada biror tobe o'zgaruvchi bir nechta mustaqil o'zgaruvchilarga aloqador bo'lsa yoki tanho (yolg'iz) mustaqil o'zgaruvchi bir turkum tobe o'zgaruvchiga bog'liqligi o'rnatilsa, bunday tobelik ko'pyoqlama tobelik deyiladi.

Xuddi shu bois, temperamentning psixologik xususiyatlari asab tizimi umumiy tipining fiziologik xususiyatlariga ko'pyoqlama tobedir. Nerv tizimi umumiy tipi xususiyatlarining fiziologik tadqiqotlari temperament paydo bo'lishi qonuniyatlarini tushunishga kamlik qiladi, shuning uchun bu sohada fiziologik izlanish o'tkazish uning psixologik mohiyatini tekshirishni taqozo etadi.

#### **18.4.Nerv sistmasi tiplarining kelib chiqishi. Temperament xususiyatlari**

Temperament tipologiyasi, mabodo insonlar temperamentlari bo'yicha qiyoslansa, u holda uning xususiyatlari jihatidan o'zaro o'xshash shaxslarning guruhi mavjudligi namoyon bo'ladi. Bu asnoda eramizdan oldingi davrda ham temperament tiplari to'g'risida materiallar to'plangan. Ularda temperament tipi deyilganda, insonlarning muayyan guruhlarini tavsiflovchi psixik xususiyatlarning yig'indisi (majmuasi) anglashinilgan. Hozirgi davrda temperament tipi deganda, ma'lum insonlar guruhi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning sodda majmuasi emas, balki mazkur xususiyatlarining qonuniy, zaruriy o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Temperament tipini tavsiflovchi xususiyatlarning qonuniy tarzda o'zaro bog'liqligi turlicha aks etishi mumkin.

Temperamentning ayrim xususiyatlarini u yoki bu tashqi ko'rinishiga qarab o'lchash mumkin. Shaxsning shiddatlilik (tezlik, impulsivlik) darajasini ikkita harakatdan bittasini tanlanmaydigan harakatga nisbatan qancha vaqt mobaynida qaror chiqarishga qarab aniqlash mumkin. Agar ushbu yo'sinda temperamentning bir nechta xususiyatlari o'lchansa, u holda uning bir xususiyati qancha ko'p miqdorda ifodalansa temperamentning boshqa xususiyatining shuncha ko'p yoki, aksincha oz aks etishi kuzatiladi.

Har qaysi tip uchun o'ziga xos xususiyatlarining o'zaro aloqasi, har bir alohida xususiyatning sifat tavsifi temperament tipining boshqa xususiyatlari bilan bog'liqligi ham aks etadi. Masalan, o'zini tuta bilmaslik yoki o'zini tuta bilish temperamentning bitta tipi uchun: a) ehtirosli shiddat, b) jazava va jazavadagi muvozanatsizlikdir; bir xil tip uchun o'zini tuta bilish - emotsional-irodaviy bir me'yor bo'lsa, boshqa uchun u ulug'vorlik va vazminlik namunasidir.

Temperament tiplarini psixik xususiyatlar o'rtasidagi qonuniy munosabatlar tarzida tushunish Gippokrat tomonidan talqin qilingan temperament to'g'risida tushuncha ma'nosiga mos tushadi. Lekin u ushbu tushunchani yunoncha so'zi bilan belgilagan va u lotinchaga mos bo'lib, nisbatan, munosabat degan ma'noni anglatadi. Nerv tizimining umumiy tiplari bilan fiziologik jihatdan temperament

tiplari I.P.Pavlovdan keyin Gippokrat tiplari, ya'ni sangvinik, xolerik, flegmatik, melankolik deb atala boshlangan. Lekin bu tushunchalar hozirgi zamon psixologik ma'lumotlar munosabati bilan yangicha mazmun va mohiyat kasb etgan. Shu boisdan asab tizimining to'rtta tipi temperamentning to'rtta tipiga bog'liq deb e'tirof etishimizga haqqimiz yo'q, chunki ular gippokratcha tiplarning ayrimlari, xolos. Shuning uchun yangi omillar mazkur tiplarning psixologik tavsifini qayta tahlil qilishni taqozo etadi.

Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi mumkin:

Senzitivlik (lotincha - sezish, his qilish degan ma'no anglatadi). Senzitivlik yuzasidan insonda bironta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo'lgan o'ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi, jumladan, sezgilarning paydo bo'lishi uchun qo'zg'ovchining ozgina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasi (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashadi.

Reaktivlik. Bu to'g'rida aynan bir xil kuch bilan ta'sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildiriladi. Reaktivlikning yorqin ro'yobga chiqishi - emotsionallik, ta'sirlanuvchanlik ifodalanishidir.

Faollik. Bu borada inson qanday faollik darajasi bilan tashqi olamga ta'sir etishi va maqsadlarni amalga oshirishda obyektiv hamda subyektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan yengishiga qarab fikr yuritiladi.

Reaktivlik bilan faollikning o'zaro munosabati. Odamning faoliyati ko'p jihatdan nimaga bog'liqligiga binoan, chunonchi tasodifiy tarzdagi tashqi va ichki sharoitlarda (kayfiyatga, favquloddagi hodisalarga) yoki maqsadlarga, ezgu niyatlarga, xohish-intilishlarga ko'ra fikr bildirish nazarda tutiladi.

Reaksiya tempi. Turli xususiyatli psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechishi tezligiga, binobarin, harakat tezligiga, nutq sur'atiga, farosatlilikka, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqariladi.

Harakatlarning silliqligi va unga qarama-qarshi sifat rigidlik (qotib qolganlik). Shaxsning o'zgaruvchan tashqi taassurotlarga qanchalik yengillik va chaqqonlik bilan muvofiqlashishiga (silliqlik bilan moslashishga), shuningdek, uning xatti-harakatlari qanchalik sust va zaifligi (rigidligi - qotib qolganligi)ga nisbatan baho berishdan iboratdir.

Ekstravertirovanlik va introvertirovanlik. Shaxsning faoliyati va reaksiya ko'p jihatdan nimalarga bog'liqligiga, chunonchi favquloddagi tashqi taassurotlarga (ekstravertirovanlik) yoki, aksincha, timsollarga, tasavvurlarga, o'tish hamda kelajak bilan uyg'unlashgan mulohazalarga (introvertirovanlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir. Ruhiy faoliyatning umumiy xususiyatlari bilan bir qatorda shaxsiy-psixologik xususiyatlar ham borki ehtiyojlar qizishlar temperament xarakter motivlar shularga kiradi.

Demak, temperament inson shaxsining individual psixologik xususiyatlaridan biridir. Temperament deb shaxsining emotsional qo'zgaluvchanligi va umumiy harakatchanligi bilan sifatlanadigan individual xususiyatlari yig'indisiga aytiladi. Boshqacha qilib aytganda temperament deb markaziy nerv sistemasining odam reaksiyalari umumiy xususiyatlarini belgilab beruvchi tug'ma biologik xossalariga aytiladi. Mana shu xususiyat umr bo'yi kam o'zgaradi lekin har qalay ijtimoiy muhitda rivojlanib boradi. I.P.Pavlov nerv jarayonlarining xossalariga qarab oliy nerv faoliyatining Gippokrat aytib ketgan temperamentlar (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik)ga mos keluvchi asosiy tiplarini ajratdi.

### **18.5.Temperament tiplari. Faoliyatning individual uslubi va temperament**

Sangvinik I.P.Pavlov fikricha kuchli muvozanatlashgan ya'ni serharakat tipga to'g'ri keladi. Bunda tormozlanish va qo'zgalish tashqi taassurotga mos keluvchi yetarlicha kuch bilan paydo bo'ladi va tashqi taassurotlarning navbatlashuviga mos keluvchi sur'at bilan bir-birini almashtira oladi. Bunday temperamentga ega bo'lgan kishilar aktiv faol vazmin bo'lishadi yangi sharoitga yaxshi va tez moslashishadi bir turdagi faoliyatdan osonlik bilan ikkinchi turdagi faoliyatga o'tishadi.

Xolerik - kuchli muvozanatlashmagan ya'ni jonsarak tipdir. Bunday odamlarda qo'zgalish jarayonlari tormozlanish jarayonlaridan ancha kuchliroq bo'ladi. Shu xildagi odamlar sabr-toqat kerak bo'lgan hollarda o'zlarini tutib turishlari qiyin bo'ladi.

Flegmatik - kuchli muvozanatlashgan kam harakatchan ya'ni yuvosh tipdir. Bunday temperamentga ega bo'lgan kishilar sustkash vazmin maqsad yo'lida intiladigan bo'lishadi-yu lekin bir turdagi faoliyatdan ikkinchi turdagi faoliyatga qiyinchilik bilan o'tishadi.

Melanxolik - nimjon tipdir. Bu xildagi odamlar shu bilan ajralib turishadiki ularda nerv jarayonlari kuchsiz buladi tormozlanish reaksiyalari qo'zg'alish reaksiyalaridan ustun turadi: Bunday temperamentli kishilar tortinchoq uyatchan qo'polikka sezgir bo'lishadi ular ro'y berib turgan hodisalar va odamlarning o'zaro munosabatlariga juda ziyraklik bilan baho berishadi.

Psixologik ma'lumotlar e'tirof etishicha, irsiyat va turmush sharoitlari temperament tiplari o'rtasidagi tafovutlarning sababchisidir. Shuning uchun irsiy fiziologik xususiyatlari bir xil va bitta tuxumdan yaralgan (gomozigot) egizaklarning temperament xususiyatlarini ikkita tuxumdan vujudga kelgan (geterozigot) egizaklarning temperament xususiyatlari bilan qiyoslansa, bu omil tasdiqlanishi mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, geterozigot egizaklardan farqli o'laroq, gomozigot egizaklar temperament xususiyatlari shunchalik o'xshashki, hatto ular irsiyat yo'li bilan berilish omillarini 85% tasdiqlash imkoniyatiga ega. Tarbiyaviy muhit turlicha bo'lishiga qaramay, o'xshashlik saqlanib qolishi tajribalarda ko'p marta tekshirilgan. Lekin temperamentning ayrim xususiyatlari o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar inkor etilmaydi, unga favquloddagi tashqi hamda ichki sharoitlar keskin ta'sir o'tkazadi (masalan, tog' sharoiti, xavf-xatar mavjudligi va hokazo).

Shuni esda saqlash joizki, temperament ayrim xususiyatlarining turmush sharoiti bilan tarbiyaviy ta'sirida o'zgarishi jarayonini temperament tiplarining takomillashtiruvidan farqlay olish shart. Ma'lumki, temperament tipi unga mutanosib xususiyatlari birdaniga paydo bo'lgan narsa emas, chunki asab



tizimining takomillashuvi umumiy qonuniyatlari temperamentga ham ta'sir o'tkazib, o'z izmini qoldiradi. Shaxsning kamolotiga binoan, temperament xususiyatlari asab tizimining takomillashuvi bilan bog'liq tarzda ro'yobga chiqa boradi va mazkur jarayon temperament rivojini uzil-kesil hal qiladi.

**Nazorat savollari:**

1. Temperament haqida tushuncha bering?
2. Temperament haqidagi ta'limotlarning qisqacha mazmuni izohlang?
3. Temperamentga psixologik tavsif va inson faoliyatida tutgan o'rni qanday?
4. Temperament metodikalarini ayting bering?

## 19 -MAVZU. XARAKTER

*Tayanch tushunchalar:* xarakter rigidligi, sotsializatsiya, tug'ma qobiliyat, aksentuatsiyasi, mehnatsevarlik, halollik, rostgo'ylik, mehribonlik, tashabbuskorlik, kamtarlik, intiluvchanlik, qat'iyatlik, jasurlik, mardlik, matonatlilik, o'z-o'zini tuta bilish.

### 19.1. Xarakter haqida tushuncha. Xarakterning nerv-fiziologik asoslari

Xarakter - ijtimoiy muhit ta'sirida tarkib topib shaxsning atrofdagi voqeikka va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatida ifodalanadigan uning muayyan sharoitlardagi xatti-harakatlarini belgilab beradigan barqaror individual psixik xususiyatlar yig'indisi xarakterni tashkil qiluvchi xususiyatlar xarakter xislatlari deyiladi. Xarakter xislatlari ikki katta guruhga bo'linadi; 1-xarakterning ma'naviy sifatlari – mehnatsevarlik, halollik, rostgo'ylik, mehribonlik, tashabbuskorlik, kamtarlik kabilar; 2- xarakterning irodaviy xislatlari - maqsadga intiluvchanlik, qat'iyatlik, jasurlik, mardlik, matonatlilik, o'z-o'zini tuta bilish kabi sifatlardan iborat.

Odamning tabiati xakteri - tashqi muhit ta'sirotlariga ko'rsatadigan ruhiy reaksiyalarining bolalik paytidan shakllanib boradigan tipidir. Xarakter atrofdagi muhitga temperamentdan ko'ra ko'proq darajada bog'liq bo'ladi. Uning shakllanib borishi odamning butun umri bo'yi davom etadi. Shunga qaramay xarakter shaxsning barqaror xususiyatlarini tashkil etadi. Odamning yurish-turishi hamda uning atrofdagi muhitga o'z-o'ziga qanday ko'z bilan qarashi shu xususiyatlarga bog'liq deb hisoblanadi. Xarakter keyinchalik mustahkamlanib qaror topib boradigan va odamning yurish-turishi hamda atrofdagilarga munosabatini belgilab beradigan temperamentga va tashqi ta'sirotlarga ko'rsatiladigan reaksiyalar shakliga qarab mujassamlanib boradi.

Demak, xarakter tug'ma o'zgarmaydigan xususiyat emas. U kishining hayot sharoitlariga borliq holda tarkib topib o'zgaruvchan va tarbiyalanuvchandir; maxsus sharoitda maxsus ta'lim-tarbiya ta'sirida salbiy xarakter xislatlarini bartaraf qilish ijobiy xarakter xislatlarini tarbiyalash mumkin.

Xarakter xislatlari shaxsni muayyan faoliyatga undovchi omil sifatida maydonga chiqishi mumkin. Ma'lumki, xarakterning aksariyat xislatlari shaxsning xatti-harakatlari muvaffaqiyatini belgilovchi turtki va faol mayllar bo'lib hisoblanadi. Odatda, shaxslar o'zaro o'xshash sharoitlarda bir xil motivlar va munosabatlarga asoslanib, aniq maqsadga intilib, maqsadga erishishga mutanosib harakat usullariga nisbatan moyillikni namoyon etadilar. Moyilliklar negizida xarakter xislatlarining undovchanlik kuchi vujudga keladi va uning ta'siri tufayli inson tabiiy sharoitga zid, maqsadga nomuvofiq harakat usullaridan foydalanadi.

Shaxs ba'zida o'z xarakter xislatidan afsuslanadi, lekin boshqacha harakatni amalga oshirishni uddasidan chiqmaydi. Xorijiy psixologlarning tasdiqlashicha, ayrim insonlar faoliyatida muvaffaqiyatsizlikdan xavsirashga qaraganda, ular o'z yutuqlarini yuksakroq qadrlaydilar va yuqori baholaydilar. Muvaffaqiyatsizlik ular uchun halokatli hodisa emas, shuning uchun «tavakkalchilik»ka qo'l urishida davom etaveradilar. Boshqa toifadagi odamlar muvaffaqiyatsizlikdan cho'chiydilar, o'ta ehtiyotkor bo'ladilar, qiyinchilikdan yuz o'giradi, yengil ishga qo'l urishni lozim topadilar.

Maqsadga nomuvofiq, lekin shaxs uchun o'ziga xos harakat usullarini tanlashga moyillik kuchli irodaviy zo'r berish sharoitlarida, jiddiylik (zo'riqish) vaziyatlarida yorqin aks etadi. Inson uchun o'ziga xos harakat usuli favquloddagi sharoitda maqsadga muvofiq kelsa, u holda o'z xislatiga nomuvofiq, bir xil yo'sindagi usullaridan foydalanishga qaraganda ko'p kuch-quvvat, qat'iylik, ishchanlik namoyish qilinishni ma'qul topadi. Mabodo xarakter xislatlari tabiiy (obyektiv) sharoit talabiga qarshi harakat qilishga undasa, uning xislatlari o'ziga xalaqit va pand beradi. Xarakter xislatlari sharoit, vaziyat talablariga muvofiq tushsa, u holda bunda shaxs ijobiy faoliyat ko'rsatadi, butun kuch-quvvatini jamlab harakat qilishga imkon tug'iladi.

Shunday qilib, xarakter xislatlari shaxsni muayyan yo'sinda intilishiga, ba'zida sharoitga zid harakat qilishga undash bilan birga, ular murakkab vaziyatlarda yorqin ro'yobga chiqadilar. Haqqoniylik, dadillik, to'g'rilik shaxsni noxush

kechinmalarga olib kelishiga qaramay, uni davralarda haqiqatni tik aytishga undaydi, sobitqadamlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shaxs harakatlarining sifati va ularning oqilona usullari nafaqat uning munosabatlariga aloqador, balki insonning irodaviy, hissiyoti, diqqati, aqliy sifatlariga yoki psixik jarayonlarining individual xususiyatlariga ham bog'liqdir. Chunonchi, mehnatda ko'zga tashlanadigan tirishqoqlik, puxtalik mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni aks ettirishga emas, balki boshqa omillarga: a) diqqatning to'planishiga (markazlashuviga), b) harakatlarning aniqligi, maqsadga yo'nalganligi, v) irodaviy zo'r berishga, g) usullar mahsuldorligiga, d) aqlning ziyrakligiga bog'liq. Xarakterning aqliy, hissiy, irodaviy xislatlariga ajratishni harakat usullaridan hamda xilma-xil ruhiy jarayonlarning ustuvorlik qiluvchi ta'siridan kelib chiqqan holda amalga oshirish mumkin.

Xarakter xislatlari shaxsni muayyan faoliyatga undovchi omil sifatida maydonga chiqishi mumkin. Ma'lumki, xarakterning aksariyat xislatlari shaxsning xatti-harakatlari muvaffaqiyatini belgilovchi turtki va faol mayllar bo'lib hisoblanadi. Odatda, shaxslar o'zaro o'xshash sharoitlarda bir xil motivlar va munosabatlarga asoslanib, aniq maqsadga intilib, maqsadga erishishga mutanosib harakat usullariga nisbatan moyillikni namoyon etadilar. Moyilliklar negizida xarakter xislatlarining undovchanlik kuchi vujudga keladi va uning ta'siri tufayli inson tabiiy sharoitga zid, maqsadga nomuvofiq harakat usullaridan foydalanadi.

Shaxs ba'zida o'z xarakter xislatidan afsuslanadi, lekin boshqacha harakatni amalga oshirishni uddasidan chiqmaydi. Xorijiy psixologlarning tasdiqlashicha, ayrim insonlar faoliyatida muvaffaqiyatsizlikdan xavsirashga qaraganda, ular o'z yutuqlarini yuksakroq qadrlaydilar va yuqori baholaydilar. Muvaffaqiyatsizlik ular uchun halokatli hodisa emas, shuning uchun «tavakkalchilik»ka qo'l urishida davom etaveradilar. Boshqa toifadagi odamlar muvaffaqiyatsizlikdan cho'chiydilar, o'ta ehtiyotkor bo'ladilar, qiyinchilikdan yuz o'giradi, yengil ishga qo'l urishni lozim topadilar.

Maqsadga nomuvofiq, lekin shaxs uchun o'ziga xos harakat usullarini tanlashga moyillik kuchli irodaviy zo'r berish sharoitlarida, jiddiylik (zo'riqish)

vaziyatlarida yorqin aks etadi. Inson uchun o'ziga xos harakat usuli favquloddagi sharoitda maqsadga muvofiq kelsa, u holda o'z xislatiga nomuvofiq, bir xil yo'sindagi usullaridan foydalanishga qaraganda ko'p kuch-quvvat, qat'iylik, ishchanlik namoyish qilinishni ma'qul topadi. Mabodo xarakter xislatlari tabiiy (obyektiv) sharoit talabiga qarshi harakat qilishga undasa, uning xislatlari o'ziga xalaqit va pand beradi. Xarakter xislatlari sharoit, vaziyat talablariga muvofiq tushsa, u holda bunda shaxs ijobiy faoliyat ko'rsatadi, butun kuch-quvvatini jamlab harakat qilishga imkon tug'iladi.

Shunday qilib, xarakter xislatlari shaxsni muayyan yo'sinda intilishiga, ba'zida sharoitga zid harakat qilishga undash bilan birga, ular murakkab vaziyatlarda yorqin ro'yobga chiqadilar. Haqqoniylik, dadillik, to'g'rilik shaxsni noxush kechinmalarga olib kelishiga qaramay, uni davralarda haqiqatni tik aytishga undaydi, sobitqadamlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

## **19.2.Xarakter tipologiyasi. Shaxsning munosabatlarini aks ettiruvchi xarakter xislatlarining to'rtta tizimga ajratish**

Xarakter xislatlari kelib chiqishining muhim fiziologik sharoitlaridan biri - xarakter xususiyatlarining fiziologik hamda psixologik jihatdan ifodalanishi o'rtasidagi o'xshashlik bo'yicha taxminiy xulosa chiqarishdir. Ma'lumki, I.P.Pavlov ilmiy maktabi materiallarida e'tirof etilishicha, laboratoriya sharoitida ovqatlanish orqali, shuningdek, teriga elektr toki bilan ta'sir qilish tufayli mustahkamlashda aynan bir hayvonda bir xil shartli qo'zg'ovchiga javoban ikki xil dinamik stereotiplar hosil bo'lishi mumkin. Harakat stereotiplar va so'lak ajratishdan iborat ijobiy va tomozlanish shartli reaksiyalari bilan javob qaytaradi. Teriga elektr toki bilan ta'sir qilish sharoitida esa qo'zg'ovchilarning o'ziga mudofaa harakatlari stereotiplari reaksiyasi bilan javob beradi. Bu hodisalar negizida yotgan fiziologik mexanizm ko'chirish mexanizmi deyiladi. Ko'chirish mexanizmining mohiyati shuki, sharoitga bog'liq tarzda markaziy asab tizimida har xil funksional holat paydo bo'ladi, chunonchi, ovqatlanishda ovqatlanishning markazlarida kuchli qo'zg'alish yuzaga keladi va bunday ovqatlanish bilan bog'liq

dominanta tug'iladi. Teriga elektr toki bilan ta'sir qilishda mudofaa bilan bog'liq harakat markazlari kuchli qo'zg'alishi tufayli muhofaza (mudofaa) dominantasi vujudga keladi.

Hayvonlardagi mazkur hodisalarning shaxs xarakterining xislatlari namoyon bo'lishi bilan o'xshashligi mavjud: 1) ular hayvonlar va odamlar uchun stereotip xususiyatga ega; 2) sharoitga bog'liq holda odamlarda va hayvonlarda bir qo'zg'ovchiga javoban xilma-xil stereotip xususiyatli reaksiyalar tizimi vujudga keladi; 3) funksional holatlar har ikkalasida ham barqaror va doimiy xususiyat kasb etadi. Funksional holatlar hosil bo'lishining tashqi omillariga asoslanib; xarakter xislatlari shakllantirishning fiziologik sharoitlaridan biri ko'chish mexanizmi asosida dinamik stereotiplarning vujudga kelishidir.

Xarakter xislatlarining dinamik stereotiplarga bog'liq asab tizimining shartli reflektor funksional holati shaxsning sharoitga nisbatan turlicha munosabatiga bog'liqdir. Masalan, tajribaga nisbatan tekshiriluvchi munosabati o'zgartirilsa, unda nerv jarayonlarining qo'zg'aluvchanligi, harakatchanligi, to'xtalishi kuchayadi, demak asab tizimining funksional holati o'zgaradi. Shunday qilib, xarakter xislatlarining asosi ko'chish mexanizmi insonlarda hayvonlarnikidan keskin tafovutlanadi, chunki unda ikkinchi signal tizimi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xarakter xislatlarining namoyon bo'lishi bilan asab tizimi qiyoslansa, u holda birinchisining ro'yobga chiqishi o'zgacha fiziologik sharoitga asoslanishini ko'rish mumkin. Rus psixologiyasida ta'kidlanishicha, asab tizimi umumiy tipining zid xususiyatlari psixologik jihatdan zid harakat usullariga mos tushadi. B.M.Teplov, V.S.Merlin, Y.A.Klimovlarning tadqiqotlarida, o'qish, sport va mehnat faoliyatlarida harakat usullarining individual farqlari aniqlangan. Xuddi shu bois xarakter xislatlari paydo bo'lishning o'zgacha fiziologik sharoiti asab tizimi umumiy tipining xususiyatlari hisoblanadi. Ma'lumki, asab tizimining umumiy tipi - bu temperamentning fiziologik asosi hamdir. Shuning uchun temperament tipi xarakterning individual o'ziga xos xislatlarining ro'yobga chiqishidagi muhim psixologik sharoitlardan biri bo'lib hisoblanadi. I.P.Pavlov tajribasining

ko'rsatishicha, muayyan tizimda tashqi ta'sir hukm surganda asab tizimi umumiy tipining xususiyatlariga taalluqli dinamik stereotipning shakllanishiga qulaylik vujudga keltirishi yoki, aksincha, xalaqit berishi mumkin.

Shaxsning xarakteri tuzilishi turli xususiyatlarning tasodifiy yig'indisidan iborat emas, balki o'zaro bir-biriga bog'liq, hatto tobe yaxlit tizimdan tarkib topadi. Xarakter xislatlarining muayyan qismida xabardor bo'lishlik notanishlarni tashxis qilish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, shaxsning shuhratparastligi ma'lum bo'lsa, uning dili (ko'ngli) qoraligi yuzasidan taxmin qilish mumkin yoki inson kamtar, mo'min, yuvosh xususiyatli bo'lsa, albatta u ko'ngilchan ekanligi ko'nglimizga keladi.

Odatda, psixik xususiyatlarning o'zaro bog'liq tizimi simptomokomplekslar (omillar) deyiladi. «Simptom» yunoncha -belgi, mos tushish, «kompleks» lotincha, aloqa, majmua degan ma'no anglatadi. Misol uchun, qarama-qarshi simptomokomplekslar haqida mulohaza yuritilsa, u holda insonlarda bu tizim o'ziga ishonish, o'zi-dan mag'rurlanish, maqtanchoqlik, o'zbilarmonlik, urishqoqlik, kek saqlash kabilar birikmasida yuzaga keladi. Boshqa toifadagi shaxslar o'zlarining kamtarinligi, ko'ngilchanligi, iltifotliligi, dilkashligi, haqqoniyliги bilan ajralib turadilar. Voqelikka shaxsning bir xil munosabati xarakter xislatlarining o'zaro bir-biriga bog'liqligini bildiradi.

Shaxsning munosabatlarini aks ettiruvchi xarakter xislatlarini to'rtta tizimga ajratish qonuniy holatga aylangan:

Jamoaga (guruhga) va ba'zi bir insonlarga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik va boshqalar.

Mehnatga nisbatan munosabatlarni mujassamlashtiruvchi xususiyatlar: mehnatsevarlik, dangasalik, vijdonlilik, mas'uliyatlilik, mas'uliyatsizlik kabilar.

Narsalarga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar: ozodalik, ifloslik, ayash, ayamaslik va hokazo.

Shaxsning o'ziga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi xislatlar: izzat-nafslilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, takabburlik, dimog'dorlik, kamtarinlik, samimiylik va boshqalar.

Shartli ravishda qabul qilingan «shaxs va atrof-muhitdagi insonlar» simptomokompleksi tarkibiga nafaqat boshqa shaxslarga nisbatan munosabatlar, balki o'ziga qaratilgan munosabatlarni mujassamlashtiruvchi xislatlar ham kiradi, chunonchi, o'ziga ishonch, o'zbilarmonlik, o'ziga bino qo'yish, maqtanchoqlik yoki aksincha, xususiyatlar shular jumlasidandir. Shunday qilib, ««shaxs va atrof-muhitdagi insonlar» degan shartli nom berilgan xislatlar tizimi o'zga kishilarga, jamoa (guruh) a'zolariga va o'ziga nisbatan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlarni birlashtiradi. Turlicha munosabatlar o'zaro bir-biriga bog'langan tarzda muayyan tizimni tashkil qiladi, natijada «Men-Biz» munosabati o'zaro o'rin almashtirib turadi, ya'ni o'ziga qaratilgan munosabat guruhiy xususiyat kasb etadi.

Shuning uchun shaxsning turlicha munosabatlari o'zaro bog'liqligi uning xarakteri tuzilishi xususiyatlari bilan uyg'unlashib ketadi. Umumiy va xususiy munosabatlar xarakter xislatlari bilan birlashgan holda muayyan ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu boisdan insonning xarakteri nisbatan butun, yaxlit xususiyatga ega. Shaxs munosabatlarining kelib chiqishiga asoslanib, ular markaziy (asosiy) va ularga tobe, hosilaviy munosabatlarga ajratiladi. Shaxsning markaziy (asosiy) munosabatlari ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanganligi tufayli bunday munosabatlar hamisha ijtimoiy-tipik xususiyatga egadir. Masalan, ijobiy xislatlar mujassamlashgan shaxsning asosiy munosabatlari o'zga odamlarga, jamoa (guruh)ga nisbatan munosabatlarida ifodalanadi. Shunday qilib, xarakter xislatlarining individual o'ziga xosligi, betakrorligiga qaramay, uning tuzilishi negizida hamma vaqt shaxsning ijtimoiy-tipik markaziy (asosiy) munosabatlari yotadi.

Xarakterning tuzilishi qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda muhim tarbiyaviy xulosalar chiqarish mumkin. Xarakter xislatlarining ba'zi nuqsonlarini (qo'pollik va yolg'onchilikni) bartaraf qilish, uning ijobiy xususiyatlarini (xushfe'llik va haqqoniylikni) shakllantirish muddaosi rejalashtirilgan dasturda amalga oshirib bo'lmaydi. Chunki insonlarga nisbatan to'g'ri munosabatni tarkib toptirmay turib, illatga qarshi kurashib, ijobiy fazilatni shakllantira olmaymiz. Shu narsa ma'lumki, shaxsda o'zaro bir-biriga bog'liq xususiyatlarning yaxlit bir tizimini qaror toptirish



mumkin, xolos. Mazkur jarayonda xususiyatlar tizimini shakllantirishning muhim shartlaridan biri - bu shaxsning markaziy (asosiy) munosabatlarini tarkib toptirishdan iboratdir.

### **19.3.Xarakter aksentuatsiyasi. Xarakter tarkibi**

Shaxs xarakterining yaxlitligi, bus-butunligi mutlaq narsa emas albatta, chunki insonning asosiy munosabatlaridan biri boshqa barcha munosabatlarni to‘la belgilay olgandagina xarakter mutlaq xususiyat kasb etadi. Lekin shaxsning munosabatlari ijtimoiy munosabatlarining aks ettirilishidan iboratligi tufayli uning munosabatlari bilan xarakter xislatlari o‘rtasida ziddiyat hukm suradi. Bundan xulosaga kelgan holda shaxsning xarakteri nisbiy jihatdan yaxlitdir, deyishimiz mumkin, biroqning bir butunligi ham individual, o‘zigi xos xususiyatga egadir. Yaxlitlik nuqtai nazaridan, turli qarama-qarshi xususiyatli shaxslar qarshiliklar oqibatida harakatlarda va inson xulqida shunday holat hosil bo‘ladi va ijtimoiy-axloqiy me‘yorlarni buzishini yuzaga keltiradi. Bunday vaziyatlarda harakatdagi kamchiliklar bilan kurashishning asosiy yo‘li - bu shaxs xarakteridagi qarama-qarshiliklarni yengishga o‘rganishdir. Xarakterning tuzilishi ba‘zi xislatlarining o‘zaro bog‘liqligi bilan emas, balki uning yaxlitligiga mutanosib xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Xarakter tuzilishining qatoriga ularning chuqurlik darajasi kiradi va shaxsning asosiy munosabatlari bilan belgilanadi. Insonning boshqa odamlarga, jamoaga, mehnatga nisbatan fidoiy munosabatda bo‘lishida belgilanuvchi xususiyatlar chuqurroq xususiyatlar deyiladi. Mazkur mezonga qarab shaxslarning farqlanishini yuzaki tasavvur qilmaslik kerak, chunki insonga beriladigan tavsifnoma simptomokomplekslarni ta’kidlab o‘tishi bilan cheklanmasligi lozim. Aks holda shaxsning psixologik qiyofasining tavsifnomasi: birinchidan, simptomokomplekslarni chuqurroq joylashtirishni, ikkinchidan, muayyan darajada chuqurroq mujassamlashtirishni, uchinchidan, bir oz yuzakiroq tizimni ajratishni taqozo qiladi.

Xarakter tuzilishi xususiyatlari jumlasiga faollik yoki xarakter kuchi kiritiladi va shunga asosan insonlar kuchli hamda kuchsiz xarakter turlariga ajratiladi.

Shuningdek, xarakter tuzilishi xususiyatlari tarkibiga uning barqarorlik va o'zgaruvchanlik darajasi ham kiritilgandir. Xarakterning barqarorligi ham, o'zgaruvchanligi ham moslashish faoliyatining zaruriy shartlaridan hisoblanadi. Shaxsning xarakter xususiyatlari turlicha turmush sharoitlarida, qarshilik qiluvchi vaziyatga uchrashiga qaramay, uning xatti-harakatlarini boshqaradi. Shu boisdan inson tashqi vaziyatga bog'liq bo'libgina qolmasdan, balki tashqi vaziyatni uning shaxsan o'zi yaratadi, shuningdek, maqsadga muvofiqlashtiradi.

Bundan tashqari, shaxsning turmushdaga zaruriy sharoitlaridan biri - bu xarakterning muayyan darajada plastikligidir. Xarakterning plastikligi ikki xil ma'no kasb etadi. Xarakterning plastikligi uning barqarorligi singari muhitga faol ta'sir o'tkazishning shartlaridan hisoblanadi. Ish-amallari maqsadga muvofiq va foydali kechishi uchun ular o'zgaruvchan tashqi sharoitga moslashishlari lozim. Xarakterning plastikligi, mustahkamligi uni shakllantirishining zaruriy sharti sanaladi. Xarakterning barqarorligi, plastikligi o'ziga xos individual xususiyatga ega bo'lib, uni tuzilishining xislati sifatida mujassamlashadi.

Xarakter xususiyatlarining kuchi va barqarorligi markaziy tizimga bog'liqligiga binoan muayyan darajada shaxs munosabatlarining mazmuni bilan belgilanadi. Biroq ular munosabatlar mazmuniga bog'liqligiga qaramay, ba'zan yuzaki xususiyatga ham ega bo'ladilar.

Psixologiyada irsiyat bilan xarakterining munosabati to'g'risida xilma-xil qarashlar mavjuddir (Krechmer, Sheldon va boshqalar). Aksariyat psixologlarning e'tirof etishlaricha, organizmning nasliy xususiyatlari xarakter xislatlarining paydo bo'lishidagi shartlaridan biri hisoblanadi, xolos. Ma'lumki xarakter xususiyatlari irsiyatning biologik qonuniyatlari bilan emas, balki ijtimoiy qonuniyatlar bilan tavsiflanadi. Ushbu masalani irsiyatga bog'lab tushuntirishi gomozigot egizaklarni o'rganish orqali inkor qilinadi, chunki ularning nasliy xususiyatlari aynan bir xildir. Ular temperament xususiyatlari bo'yicha tubdan o'xshash bo'lsalar-da, lekin xarakter xislatlariga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladilar. Shuning uchun xarakterning shaxs turmush sharoitiga bog'liqligini: a) uning fiziologik asosi ham,

b) tashqi taassurotlar tizimi tufayli vujudga keladigan shartli reflektor funksional holati ham tasdiqlaydi.

#### **19.4.Xarakterning shakllanishi, xarakter tuzilishi va xususiyatlari.**

##### **Xarakterning tarkib topishida taqlidchanlikning roli**

Xarakter tarkib topishi muayyan qonuniyatlar ta'sirida amalga oshadi. Xarakterning har bir xislati shaxs munosabatlariga bog'liq bo'lsa, ular o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Nasliy xususiyatlari bir xil egizaklarda turlicha ijtimoiy muhitda har xil xarakter xislatlari shakllanadi. Shu sababdan ijtimoiy tuzumni tavsiflovchi keng ijtimoiy munosabatlar shaxsning ijtimoiy tipik xususiyatlarigina emas, balki xarakterning individual xususiyatlari (xislatlari) tarkib topishiga ham katta ta'sir o'tkazadi. Ijtimoiy munosabatlarga bevosita yoki bilvosita bog'liq tarzda, oilada, bolalar va mehnat jamoalarida xayrixohlik, o'rtoqlik, o'zaro yordamlashish, hamkorlik, yoki aksincha, johillik, zolimlik, badjahllik kabi shaxslararo munosabatlar tarkib topa boshlaydi. Oilaviy muhit, undagi shaxslararo munosabatlar, farzandlarning miqdori, yoshidagi farqi, nizoli vaziyatlar ko'rinishi, ota-ona munosabatiga asoslangan holda xarakterning o'ziga xos xususiyatlari shakllanadi. Bolalar bog'chasidagi, maktabdagi shaxslararo munosabatlar ham xarakterning maxsus xislatlarini tarkib toptiradi.

Mehnat jamoalarida, norasmiy guruhlarda ham xarakter xususiyatlarida sezilarli o'zgarishlar yuzaga keladi. Ilk yoshlik davrida shakllangan xarakter xislatlari nihoyat darajada barqaror bo'lib, ularga ayrim o'zgarishlar kiritish juda qiyin kechadi. Shaxsda mayllarning qondirilishi yoki qondirilmasligi bilan bog'liq holda tarkib topgan munosabatlar o'zining mustahkamligi bilan ajralib turadi. Xarakter xislatlarining chuqurligi, barqarorligi, doimiyligi ko'p jihatdan shaxs munosabatlarining onglilik darajasiga bog'liq. Insonning haqqoniylik, mehnatsevarlik xislatlari tasodifiy tarkib topmagan bo'lib, uning ongli qarashlariga, ishonch aqidalariga mos tushsa, u holda har qanday qiyin holatlarda ham namoyon bo'laveradi. Mamlakatimiz fuqarolari xarakterining kuchi va mustahkamligi ularning istiqlol nashidasidadir va vatanparvarlik yuksak his-

tuyg'usidadir. Shunday qilib, psixikaning individual sifat xususiyatlari shaxsning ijtimoiy-tipik munosabatlari bilan qo'shilgan taqdirdagina xarakter xislatlarini belgilash, tavsiflash imkoniyati vujudga keladi. Psixikaning individual xususiyatlari orasida temperament xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Chunki xarakter bilan temperamentning o'zaro munosabati ularning fiziologik asoslari bilan belgilanadi. Xarakter xususiyatlarining tashqi jihatdan namoyon bo'lib, aynan shu tarzda muayyan vaqt mobaynida kechishi dinamik xususiyat deyiladi. Xarakter xislatlarining dinamik xususiyati temperament xususiyatlariga bog'liqdir. Ana shu holatga muvofiq ravishda temperament xususiyatlari ham, xarakterning ma'lum xislatlarining vaqt davomida tashqi namoyon bo'lishi ham temperament tipiga bog'liq.

Taraqqiyot va tarbiyaning ijtimoiy sharoitlari hamda ularning psixikaning irsiy individual xususiyatlari bilan o'zaro munosabati xarakter xislatlarini to'g'ridan-to'g'ri tavsiflamaydi, balki shaxsning faoliyati orqali belgilaydi. Uning faoliyatiga taalluqli aynan bir xil ijtimoiy sharoitda ham xuddi shu bir xil irsiy xususiyatlaridan turli xarakter xislatlari shakllanadi. Xuddi shu boisdan xarakterning rivojlanishi shaxsning faol faoliyati jarayonida uning xatti-harakatlariga bog'liq tarzda amalga oshadi. Xarakterning tarkib topishida faol faoliyatning roli shundaki, xuddi shu faol faoliyatida xarakterning ifodalaydigan harakatning individual o'ziga xos usullari tarkib topadi. Harakat usullarining avtomatlashuvi muayyan dinamik stereotip hosil qilinishi bilan bog'liq shartli reflektor funksional holatning mahsulasidir. Avtomatlashuvining bir necha turdagi psixologik mexanizmlari mavjud bo'lib, ulardan biri - bu odatlardir. Xarakter xislatlari tarkib tonishining muhim shartlaridan biri - bu xislatlarni zaruriy xatti-harakatlarda chidam bilan mashq qilishdan iboratdir.

Xarakterning tarkib topishida taqlidchanlikning roli katta bo'lib, harakat usullari avtomatlashuvining bosh manbai hisoblanadi. Tarkib topish jarayonida taqlidchanlikning ahamiyati ko'p jihatdan ifodali xatti-harakatlarning shaxs emotsional (hissiy) kechinmalariga ta'siri bilan belgilanadi. Taqlidchanlik xatti-harakat namunasiga taqlid qilish uchun mo'ljallangan shaxs munosabatlari

tomonidan motivlashtirilgandagina xarakter xislatlari shakllantirishning shartiga aylanadi.

Xarakterning shakllanishida muayyan psixik faoliyatga yaxlit obyektiv va subyektiv mayllik tarzidagi ko'rsatma berish (ustanovka) psixologik mexanizm negizida yuzaga kelgan avtomatlashish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'rsatma (ustanovka) odatlaridan farqli o'laroq, muayyan harakatlarga tayyor turishgina bo'lib qolmay, balki bilish jarayonlariga, hissiy va irodaviy reaksiyalarga ham tayyor turishlikdir.

Xarakterning hosil bo'lishida nizoli vaziyatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xarakter faqat murakkab va keskin vaziyatlarda (sharoitlarda) yorqin namoyon bo'libgina qolmasdan, balki mazkur holatlarda u tarkib ham topadi. Odatda, xarakter xislatlarining o'zgarishidagi individual farqlar shaxsning nizoli vaziyatlardan chiqish uchun qanday yo'l-yo'riq topishiga bog'liq, binobarin, inson sharoitdan kelib chiqib, qanday xatti-harakatni amalga oshirishga qaror qiladi. Shunday qilib, shaxs o'zining butun hayoti va faoliyati davomida o'z xatti-harakatlari, odatlari bilan o'z xarakter xislatlarini o'zi yaratadi va ularni boshqarishga odatlanadi.

### **19.5. Shaxslararo munosabatlarda shaxs xarakter xususiyatlarining shakllanishi va rivojlanishi. Oilaviy munosabatlarda shaxs xarakter xususiyatlarining o'rni**

Inson xarakterini tarkib toptirishning muhim omili tariqasida vaziyat (situatsiya) yetakchi rol o'ynaydi va regulyatorlik funksiyasini bajaradi. Bizning fikrimizcha, vaziyat goho qo'sh stimulyator, juft determinator, qo'shmexanizm sifatida uzluksiz ruhiy holatlar (qaysi muhitda bo'lishdan qat'i nazar) vujudga kelib turishini ta'minlashi mumkin. Vaziyatlar ekstremal (favqulodda), kausal (tasodifiy), kauzual (sababiy) kabi ko'rinishlarga ega bo'lib, ularning har qaysisi o'ziga xos xususiyatlari bilan o'zaro muayyan darajada ajralib turadi.

Ekstremal vaziyatlar yo tabiiy omillar, hodisalar ta'siri, natijasi mohiyatidan kelib chiqib, ofatlar, larzalar, tabiatning injiqliklari, mo'jizalari, dahshatli kuchlari

shaklida namoyon bo'lishi, vujudga kelishi, kechishi va rivojlanishidan iboratdir. Individdning muayyan darajada uyushgan guruh (etnik birlik)ning munosabati xarakterologik xususiyatlarning shakllanishiga zarur obyektiv va subyektiv qulay sharoitlar yaratilishiga imkon yaratadi. Vaziyatlar o'zining mohiyati bilan rasmiy yoki norasmiy guruhlar, maxsus mutaxassislar tomonidan uyushtirilishi ham mumkin (harbiy mashqlar va hokazo). Ularning aks sadosiga nisbatan javob reaksiyasi (goho aksiya) sifatida vaziyatlarning qatnashchilari munosabati ularning xarakter xususiyatlarida ifodalanadi. Kutilmagan favquloddagi vaziyatlar qatoriga psixoterapevtik ta'sir o'tkazish, gipnotik holatga keltirish, ongsizlikka tushirish oqibatlarida bir yoqlama ruhiy ta'sir o'tkazish hamda ta'sirga berilish (diada, triada, poliada) natijasida o'ta ishonch bildirish tufayli ta'sir doirasiga kirib qolish milliy xarakterning kuchliligi yoki kuchsizligini namoyish qiladi.

Subyektiv maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan sun'iy vaziyatlar ham xarakterologik xislatlarni sinashda muhim obyekt sifatida xizmat qiladi (masalan, shijoat, ehtiros, stress, affekt).

Kazusli (tasodifiy) vaziyatlar inson hayoti va faoliyatida alohida ahamiyat kasb etib, unda ishonch, qat'iyatlik, barqarorlik, mustaqillik, ta'sirga beriluvchanlik kabi xislatlar yoki illatlar ustuvorligi hamda barqarorligi haqida ma'lumot olishga zamin hozirlaydi.

Bunday vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi omillardan biri - bu tolerantlikning vujudga kelishi bilan neyrofiziologik, psixofiziologik mexanizmlardan iboratdir. Bizning ta'birimizcha, uni keltirib chiqaruvchi omillar, asosan, ikki qutbga taalluqli bo'lib, biri tasodifiy, yondosh qo'zg'atuvchilar ta'sirida yuzaga kelib, tolerantlikka asoslanadi, ikkinchisi esa ichki qo'zg'ovchilar «reaksiyalar» («aksiyalar») orqali ifodalanib, ko'proq subyektiv omillar mahsuli hisoblanadi, armonning har xil shakllari funksiyasini bajaradi. Omadlilik xuddi shunday ruhiy hodisalarni vujudga keltiradi, shaxsning (etnik birlikning, jamoaning) faollikka undovchi uzluksiz xatti-harakatlar qo'shstimul vazifasini muvaqqat bajarishga kirishishi mumkin. Birinchi holatda shijoat harakatlantiruvchi mexanizm rolini bajarsa, ikkinchisida esa ushalgan ezgu niyat, ichki ruhiy g'alayon, tug'ilayotgan

fikrlarning «jangi», ularning o‘zaro qarama-qarshi tayanch nuqtalariga ega ekanligi hal qiluvchi stimul funksiyasini ijro etadi. Shaxslararo munosabat negizidan kelib chiquvchi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik, omadlilik va omadsizlik kabilarni vujudga keltiradi. Masalan, talabaning yuqori ballga erishganligi uni yanada ilhomlantiradi, kursdoshida esa ikki xil xususiyatli kechinmani yuzaga keltirib, bir tomondan xohish, ishtiyoq, ilhom, ezgulik his-tuyg‘ularining kuchayishiga olib keladi. Ikkinchi tomondan esa g‘ayrilik illati individni (shaxsni) faollik sari yetaklaydi.

Xarakterning shakllanishida muayyan psixik faoliyatga yaxlit obyektiv va subyektiv mayllik tarzidagi ko‘rsatma berish (ustanovka) psixologik mexanizm negizida yuzaga kelgan avtomatlashish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘rsatma (ustanovka) odatlaridan farqli o‘laroq, muayyan harakatlarga tayyor turishgina bo‘lib qolmay, balki bilish jarayonlariga, hissiy va irodaviy reaksiyalarga ham tayyor turishlikdir.

Xarakterning hosil bo‘lishida nizoli vaziyatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xarakter faqat murakkab va keskin vaziyatlarda (sharoitlarda) yorqin namoyon bo‘libgina qolmasdan, balki mazkur holatlarda u tarkib ham topadi. Odatda, xarakter xislatlarining o‘zgarishidagi individual farqlar shaxsning nizoli vaziyatlardan chiqish uchun qanday yo‘l-yo‘riq topishiga bog‘liq, binobarin, inson sharoitdan kelib chiqib, qanday xatti-harakatni amalga oshirishga qaror qiladi. Shunday qilib, shaxs o‘zining butun hayoti va faoliyati davomida o‘z xatti-harakatlari, odatlari bilan o‘z xarakter xislatlarini o‘zi yaratadi va ularni boshqarishga odatlanadi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Xarakterning nerv-fiziologik asoslari aytib bering?
2. Xarakter tipologiyasi izohlang?
3. Xarakter aksentuatsiyasi nima?
4. Xarakter tarkibiga nimalar kiradi?
5. Xarakterning shakllanishi, xarakter tuzilishi va xususiyatlari sanang?
6. Xarakterning tarkib topishida taqlidchanlikning roli?

## 20 -MAVZU. QOBILIYAT

*Tayanch tushunchalar:* qobiliyat, layoqat, mahorat, talant, iste'dod, pedagogik qobiliyat, kommunikativ qobiliyat, didaktik qobiliyat, avtoritar qobiliyat, perseptiv qobiliyat.

### 20.1. Qobiliyat haqida tushuncha. Qobiliyatning sifat va miqdor tavsifi

Qobiliyatlar to'g'risida umumiy tushunchani vujudga keltirish uchun ularga aloqador omillar, tarkiblar bo'yicha ayrim ma'lumotlar keltirish maqsadga muvofiq: a) qobiliyatlar shaxsning psixologik xususiyatlari ekanligi; b) mazkur xususiyatlarga bilim, ko'nikma, malaka orttirish bog'liq; v) ushbu xususiyatlarning o'zi bilim, ko'nikma va malakalarga taalluqli emasdir. Yuqoridagi voqeliklarning tahlilidan kelib chiqilganida, tovarga berilgan baho, tanlovlardagi muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz ishtirok etishga asoslanib, shaxslarning qobiliyatlari yuzasidan qat'iy qarorga kelinishi mumkin edi.

Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oliy ta'lim jarayonida o'zlashtirish ko'rsatkichi bo'yicha «o'rtamiyona» talaba keyinchalik ijobiy tomonga o'zgarishi, boshqa soha (tarmoq)da yuksak natijalarga erishishi, hatto mutaxassisligiga yondosh ixtisoslikda o'zini ko'rsatishi mumkin. Ta'lim va ijtimoiy turmushda uquvsiz, «yaroqsiz» deb baholangan insonlar keyinchalik biron-bir sohaning yetakchi mutaxassisi sifatida elga tanilishi, yuqori lavozim egallashi, tadbirkor shaxs sifatida kamol topishi hodisasi tajribada ko'p uchraydi. Shuning uchun bilim, ko'nikma va malakalarni egallash (o'zlashtirish) jarayonida qobiliyatlar namoyon bo'lsa-da, lekin ular bilim, ko'nikma, malakalarga bevosita taalluqli emasdir. Xuddi shu boisdan, ular bir-biri bilan o'zaro munosabat va nisbatan nuqtai nazardan tahlil qilinganida qobiliyatlar bilan bilimlar, qobiliyatlar bilan ko'nikmalar mohiyat, mazmun, ma'no jihatidan bir-biridan tafovut qiladi. Ushbu psixologik hodisa obrazliroq qilib tushuntirilganida, bilim ko'nikma, malaka mashqlanish tufayli egallaniladigan aniq voqelik deb tasavvur qilinsa, qobiliyatlar shaxsning ruhiy olamidagi hali ro'yobga chiqmagan imkoniyatidir. Masalan, talabanning o'qishga kirishi u mutaxassis sifatida kasbiy kamolot uchun imkoniyat



tarzida gavdalanishi kabi (uning intilishi, obyektiv va subyektiv muhit, salomatligi va boshqalar), shaxsning qobiliyatlari kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash uchun imkoniyat tariqasida namoyon bo'ladi.

Kasbiy bilim va ko'nikmalar egallandimi yoki yo'qmi, imkoniyat ro'yobga chiqdimi yoki ushalmagan orzu sifatida qolib ketdimi - bularning barchasi ko'pgina omillarga va sharoitlarga bog'liqdir. Masalan, atrof-muhitdagi odamlar (oila, maktab, mehnat jamoasi a'zolari, jamoatchilik) shaxsning u yoki bu bilim hamda ko'nikmalarni egallashga manfaatdorligi, o'qish, o'rgatishga munosabati, ularni tashkil qilish va mustahkamlashga nisbatan mas'uliyat his qilish kabilarning barchasi - imkoniyatning ro'yobga chiqarish, uning voqelikka aylantirishning kafolatidir. Psixologiyaning metodologik asosining ko'rsatishicha, qobiliyatlar - imkoniyatlar tizimidan tashkil topgan bo'lib, u yoki bu faoliyatidagi zaruriy mahorat darajasi haqiqat hisoblanadi. Insonda namoyon bo'layotgan tasviriy san'at qobiliyati uning rassom sifatida shakllanishiga kafolat bera olmaydi. Rassomlikni egallashi uchun maxsus ta'lim berilishi, tabiatga o'zgacha munosabati, idrok qilish xayoloti, shaxsiy fazilati, salomatligi, matolar, mo'yqalamlar, bo'yoqlar, moslama asboblari va boshqalar muhayyo bo'lishi lozim. Ta'kidlab o'tilgan vositalar, shart-sharoitlarsiz tasviriy san'at qobiliyatlari taraqqiy etmay turiboq, ilk ko'rinishidayoq so'na borishi mumkin. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot pallasida bunday hodisalar son-sanoqsiz bo'lib o'tganligi hech kimga sir emas, albatta.

Psixologiya fani qobiliyatlar bilan faoliyatning muhim jabhalari bo'lmish bilim, ko'nikma va malakalarning aynan bir narsa ekanligini rad etar ekan, ularning birligini e'tirof qiladi. Shuning uchun qobiliyatlar faqat faoliyatda ro'yobga chiqadi, lekin shunda ham aynan shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi amri mahol faoliyat ko'rinishlaridagina aks etadi, xolos. Agar shaxs rasm solishga hali o'rganmagan bo'lsa, mabodo u tasviriy faoliyatning malakalarini uddalay olmasa, uning tasviriy san'atga nisbatan qobiliyatlari yuzasidan mulohaza yuritishga o'rin ham yo'q. Bularning barchasi bo'lg'usi rassomning ish uslubi, usullari, rangga munosabatlarini qanchalik tez va oson o'zlashtirishida hamda borliqdagi go'zallikni idrok qilish, tasavvur etishida yuzaga keladi. Talabada

kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar tizimi, ularning barqarorligi, shakllangan shaxsiy ish uslublari mavjud emasligiga asoslanib, ularni jiddiy tekshirib, tashxis qilmasdan turib, shoshilinch tarzda unda qobiliyatlar yo'q degan xulosa chiqarish oliy maktab o'qituvchisining qo'pol psixologik nuqsoni hisoblanadi. Bolalik davrida u yoki bu qobiliyatlarning atrof-muhitdagi odamlar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik xuddi ana shu qobiliyatlari tufayli jahonda munosib shon-shuhrat qozonishga musharraf bo'lgan juda ko'p allomalarning nomi olamda mashhur, chunonchi, Albert Eynshteyn (nisbiylik nazariyasi asoschisi), Nikolay Lobachevskiy (yangi geometriya yo'nalishi asoschisi) va boshqalar o'qishida genial olim bo'lib voyaga yetishishi dalolatnomasi yo'q edi.

Qobiliyatlar bilim, ko'nikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi. Faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida yuzaga chiqadigan farqlar, qobiliyatlar mulohaza yuritish imkonini beradi.

Demak, shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar deyiladi. Ushbu xususiyatni aniqlash uchun ba'zi bir omillarni tahlil qilish maqsadga muvofiq; a) shaxsning muayyan sifatlari yig'indisi belgilangan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati mavjuddir; b) inson shunday holatlarda faoliyat talabiga javob bera olmasa - psixologik sifatlari, ya'ni qobiliyatlar mavjud emasdir (juda zaifdir). Lekin bunday xususiyatli shaxs ko'nikma va malakalarni egallay olmaydi degan ma'no anglatmaydi, biroq ularni egallash vaqti cho'zilib ketadi, xolos.

Shunday qilib, qobiliyatlar individual-psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan birga: a) ularni shaxslarning mavjud boshqa xususiyatlariga, xarakter fazilatlariga, hissiy kechinmalariga va boshqalarga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas; b) shuningdek, qobiliyatlarni shaxsning mazkur xususiyatlari bilan bir qatorga qo'yish, ularni ayniylashtirish ham nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Shuni ta'kidlash joizki, mulohaza bildirilgan sifatlardan ba'zi biri yoki ularning yig'indisi faoliyat

talablariga javob bera olsa yoki ularni ta'sirida vujudga kelsa, u holda shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb atash imkoniyati tug'iladi.

## **20.2.Qobiliyatlar tuzilishi. Talantning paydo bo'lishi va tuzilishi**

Psixologiyada qobiliyatlar individual-psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va buning asosida bir insonning boshqa insondan tafovutlanadigan xislatlari, fazilatlarini yotadi. Shuning uchun har bir shaxsdan bir xil natija, bir xil sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar o'z qobiliyatlari bo'yicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar, binobarin, ular o'rtasida farqlar sifat va miqdor jihatidan bir talay bo'lishi mumkin. Qobiliyatlarning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual-psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdori tavsifi esa faoliyatga qo'yiladigan talablarga shaxs tomonidan qay yo'sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya'ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog'lik tez, yengil, puxta foydalana olishini namoyish qiladi.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat jihatidan talqin qilinishida, birinchidan, maqsadga turlicha yo'llar orqali erishishga imkon beruvchi «o'zgaruvchan miqdor» to'plami tariqasida, ikkinchidan, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning individual psixologik xislatlari (fazilatlarini) murakkab majmuasi ko'rinishida gavydalanadi.

Shaxsning qobiliyatida mavjud bo'lgan o'rnini bosish (kompensator)lik imkoniyati eshitishdan mahrum insonlarni maxsus o'qitish orqali ro'yobga chiqadi. Hayotda ko'r musiqachi, artist, shoir, rassom, muhandis va boshqa shu kabi kasb egalari yetishib chiqqanligi ko'p uchraydi. Hatto eshitish qobiliyati past yoki umuman yo'qligi ham kasbiy musiqaviy qobiliyatining rivojlanishiga keskin xalaqit bermasligi mumkin. Bu psixologik hodisa (bir qobiliyatni boshqa qobiliyat yordami bilan o'stirish, ya'ni kompleksatorlik xususiyati) har bir shaxs uchun kasb tanlash va qayta kasb tanlash (ikkinchi yoki uchinchi kasbni egallash ishtiyoqi) sohasida mislsiz keng ko'lamdagi imkoniyatlarni ochadi. Ushbu voqelikni tasdiqlovchi qator misollarning o'zida silliq duradgor mohir tikuvchi bo'lishi; yirik

fan allomasi yirik san'atkor, yetuk sportchi ekanligi uchrab turadi. Qobiliyatli shaxslar ijtimoiy turmushning turli sohalari hamda jabhalarida o'z o'rnini topa oladilar hamda yuksak yutuqlarga erishadilar, hatto bir necha faoliyat turida tekis muvaffaqiyatlar qozonish ham mumkin.

Qobiliyatlarning miqdoriy tavsifi va ularni o'lchash muammosi psixologiya fanida o'ziga xos rivojlanishning tarixiy o'tmishiga ega. Hozirgi davrda fanning mumtoz psixologlariga aylangan Spirmen, Permen Kettell va boshqalar XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlaridayoq muayyan ixtisoslar uchun kasb tanlashni ilmiy asosda yo'lga qo'yish zaruriyatidan kelib chiqadigan talablar tazyiqida o'quv yurtlarida saboq olayotgan shaxslarning qobiliyat darajasini aniqlashga kirishdilar. Ularning taxminlaricha, insonning lavozimiga loyiqligi, uning mehnat faoliyatiga layoqati, shuningdek, oliy o'quv yurtlariga, harbiy xizmatga, rahbarlik martabasini egallashga nisbatan layoqatlarini aniqlash imkoniyati mavjuddir. O'tgan asrda qobiliyatlarni o'lchash usuli, mezoni tariqasida aqliy iste'dod testlari ishlab chiqildi va AQSh, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda o'quvchilarni saralash, harbiy xizmatga zobitlarni tanlash, ishlab chiqarishda rahbarlik lavozimiga tavsiya qilishda foydalanildi. Hatto Buyuk Britaniyada universitetga kirish huquqini beruvchi test sinovi tizimi ham yaratildi. «Aqliy iste'dod» testlari ball yoki ochkolar bilan baholanib, yechimga sarflangan vaqtni hisobga olib, natijalar yig'indi holiga keltirilar edi. Masalan, Buyuk Britaniya maktablarida 11 yoshli o'smirlarga beriladigan test ko'rinish: «Pyotr Jemsga qaraganda balandroq, Edvard Petrdan pastroq. Kim hammadan ko'ra balandroq?» va tanlagan javobning tagiga chizib qo'yish talab qilinadi: 1) Pyotr, 2) Edvard; 3) Jeyms; 4) «ayta olmayman». Boshqacharoq testlar berilgan beshta so'zdan boshqalariga o'xshamaganini sinaluvchi tanlab olish kerak: 1) qizil, yashil, ko'k, ho'l, sariq; 2) yoki, ammo, agar, hozir, garchi va shu kabilar. Testlar murakkabligi ortib borish tamoyili bo'yicha «Testlar batareyasi» tizimi yaratiladi. Testlar tuzilishi bo'yicha faqat so'zlardan iborat (verbal) sinovlar bilan cheklanmasdan, balki turlicha mohiyatli «labirintlar» (yunoncha - chigal holat,

murakkab, chalkash ma'nosini bildiradi), «boshqotirma» va shunga o'xshash sinovlar kiritiladi.

Mazkur yo'nalishning namoyandalarining e'tirof etishlaricha, «aqliy iste'dod ko'effitsiyenti» qandaydir o'zgarmas mezon sifatida «umumiy intellektni» (inglizcha) ro'yobga chiqarish imkoniyatiga egadir. Shuni ta'kidlash joizki, «aqliy iste'dod ko'effitsiyenti» nazariyasida bahsli jabhalar mavjudkim, bunda shaxsning aqliy qobiliyatlari namoyon bo'ladi. Rus psixologi L.S.Vigotskiy yuqoridagi nazariyaga o'z e'tirofini bildirgan holda ikki bosqich, ya'ni «eng yaqin taraqqiyot zonasi», «aktual faoliyat zonasi» orqali qobiliyatni to'g'ri aniqlash mumkinligini ko'rsatib bergan edi. Hozirgi zamonda qo'llanayotgan test sinovlari o'tmishdoshlaridan ko'p jihatdan ajralib turadi, lekin ko'pincha xotira mahsullarini ochishga xizmat qildi, ijodiy tafakkur natijalari esa diqqat markazidan chetda qolib ketish hollari uchraydi.

Shaxs egallashi shart hisoblangan faoliyat, u xoh ta'lim, xoh mehnat, xoh o'yin, xoh sport bo'lishidan qat'iy nazar, uning bilish jarayonlariga, aqliy xislatlariga, hissiy-irodaviy jabhalariga, senso-motor sohasiga, xarakterologik xususiyatlariga muayyan talablar qo'yadi va ularning hamkorlikdagi sa'y-harakati tufayli muvaffaqiyatlarga erishiladi. Psixologik ma'lumotlarga qaraganda, insondagi yuksak ko'rsatkichga erishgan sifat harchand ustuvorlikka ega bo'lmasin, u talablarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Ayrim hollarda alohida namoyon bo'lgan psixik xususiyat (xislat) faoliyatining yuksak mahsuldorligi va samaradorligini ta'minlash qurbiga ega, u qobiliyatlar uddalay oladigan imkoniyat bilan bab-baravar kuch quvvat tariqasida vujudga keladi, degan faraz o'zini oqlamaydi. Shu-ning uchun qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar (xislatlar) majmuasidir deyish juda o'rinlidir.

### **20.3.Qobiliyat va talantning tabiiy shartlari. Qobiliyat nazariyalari talqini**

Qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganligi tufayli har qaysi

turdagi faoliyatlar uchun o'ziga xos tarzda qo'yilishi turgan gap. Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tamiz:

matematik qobiliyat: matematik materiallarni umumlashtrish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish-amallarni kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdan yengil o'tishlik, masala yechishda fikr yuritishning epchilligi kabilar;

adabiy qobiliyat: nafosat hislarining yuksak taraqqiyot darajasi, xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonliligi, «til zehni», behisob xayolot, ruhiyatga qiziquvchanlik, o'zi ifodalashga intiluvchanlik va boshqalar. Ajratib ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinib turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o'zaro bir-biriga o'xshamagan talablari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy, texnik, konstruktorlik, tibbiy qobiliyatlar va shunga o'xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib, kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Yaqqol qobiliyatlar tuzilishini tashkil qiluvchi shaxsning xislatlari, fazilatlarini orasida ustuvorlik qilsa, ayrimlari yordamchilik vazifasini bajaradi. Ma'lumki, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida yetakchi xislatlar sifatida pedagogik odob (takt), bolalarni sevish, o'quvchilar jamoasini tashkil qilish va uni boshqarish, kuzatuvchanlik, talabchanlik, bilimlarga chanqoqlik, bilimlarni uzatishga uquvchanlik va shunga o'xshashlar tan olinadi. O'qituvchilik qobiliyatining yordamchi (qo'shimcha) fazilatlariga quyidagilar kiradi: artistlik, nutqiy qobiliyat, diqqatni taqsimlash, akademik qobiliyatlar va hokazo. Pedagogik qobiliyatlarning yetakchi (asosiy) va yordamchi (qo'shimcha) tarkiblari, jabhalari ta'lim jarayoni muvaffaqiyatini ta'minlaydigan birlikni (birikuvni) yuzaga keltiradi hamda o'qituvchi shaxsi bilan bog'liq bo'lgan hamkorlik individual faoliyatini tashkillashtiradi. Qobiliyatlardan muayyan darajada umumiy va torroq ma'noda maxsus sifatlarni ajratish orqali ma'lum turkum tizimini yuzaga keltirish mumkin. Bundan kelib chiqqan holda qobiliyatlar guruhiga ajratish maqsadga muvofiq. Umumiy qobiliyatlar (sifatlar) maxsus qobiliyatlarga (sifatlarga) zid tarzda taqin qilish mumkin emas. Shaxsning umumiy qobiliyatlari ularni hosil qiluvchi omillar

yaqqol psixologik hodisa yoki voqelikdir. Maxsus qobiliyatlar ko‘lam jihatdan torroq bo‘lishiga qara-may, chuqurroq mohiyatni o‘zlarida mujassamlashtiradi.

Rus olimi I.P.Pavlov o‘z ta’limotida «badiiy», «fikrlovchi», «o‘rta» tiplarga ajratilgan shaxslarning ana shu uchta tipdan bittasiga taalluqli ekanligini tavsiflab beradi. Muallif ushbu tipologiyani yaratishda oliy nerv faoliyatining birinchi va ikkinchi signal tizimidan iboratligi to‘g‘risidagi ta’limotiga asoslanadi. Birinchi signallar va ikkinchi signallar tizimi esa obrazlar haqida so‘zlar orqali signal berishdan iboratdir. Ikkinchi signallar tizimi I.P.Pavlov tomonidan «signallarning signali» deb nomlangan edi. Ushbu tipologiyani osonroq qilib quyidagicha tushuntirish mumkin:

shaxs psixik faoliyatida birinchi signallar tizimining signallari nisbatan ustunlik qilsa inson «badiiy» tipga taalluqlidir;

mabodo «signallarning signali» nisbatan ustuvor bo‘lsa-bu shaxs «fikrlovchi tipga» munosibdir;

agarda har ikkala signallar aralashib ketgan bo‘lsa (birortasining ustunligi sezilmasa) - bu inson «o‘rta tipga» mansub odamdir. 4) Tipologiyaning o‘ziga xos tomonlari qisqacha ifodalanganda yoki tavsif qilinganida quyidagilar namoyon bo‘ladi:

«Badiiy tip» uchun bevosita taassurot, taassurotlar, jonli tasavvur, yorqin idrok, his-tuyg‘ular (emotsiyalar) natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligi xosdir.

«Fikrlovchi tip» uchun mavhumlarning, mantiqiy tizimlarning, nazariy mulohazalarning, metodologik muammolarining ustunligi muvofiqdir.

Badiiy tipning mavjudligi aqliy faoliyatning zaifligi yoki aqlning yetishmasligini bildirmaydi, lekin bu o‘rinda gap psixikasining obrazlari jabhalarini fikrlovchi tomonlari ustidan nisbatan ustuvorligi haqida borada, xolos. Biroq shuni ta’kidlash joizki, shaxsning ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimidan ustunlik qiladi va bu ustuvorlik mutlaqlik xususiyatiga egadir. Ma’lumki, insonlarning hayot va faoliyatlarida til bilan tafakkurning o‘rni hal qiluvchi

ahamiyat kasb etadi, shaxs tomonidan borliqni aks ettirish jarayoni soʻzlar, fikrlov vositasida roʻyobga chiqariladi.

Signallar tizimi orasidagi munosabatni matematik tarzda quyidagicha aks ettirish mumkin:

A)  $S > S$ ,  $S$  - ikkinchi signallar tizimi,  $S$  - birinchi signallar tizimi;

B) birinchi signallar tizimining ikkinchi signallar tizimidan nisbatan ustunligi («badiiy tip»):  $S > S$  QM ( $t$  - mazkur tip namoyandalarining borliqni emotsional va obrazli bilish xususiyati jihatidan ajratuvchi belgisi);

V) «fikrlovchi tip» mana bunday ifodalanishi kuzatiladi:

$S + p > S$  ( $p$  - mazkur tip namoyandalarini boshqalardan ajratuvchi olamga mavhum munosabatning xususiyati).

Shunday qilib, shaxsning u yoki bu faoliyatiga tayyorligi tariqasida yuzaga keladigan har qaysi yaqqol qobiliyatlar tuzilishi oʻz tarkibiga yetakchi va yordamchi, umumiy va maxsus nomdagi majmua sifatlarni (xislatlarni) qamrab olgan boʻlib, murakkab tizimdan iboratdir.

Talantning ijtimoiy-tarixiy, tabiiy nuqtai nazardan talqini qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi ekanligidan dalolat beradi. Talant (yunoncha - qimmatbaho, noyob narsa, irsiy, tabiiy xislat degan maʼno anglatadi) muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini taʼminlaydigan qobiliyat hamda isteʼdodlar majmuasidan (yigʻindisidan) iborat individual xususiyatdir. Psixologik adabiyotlarda unga turlicha taʼrif berishiga qaramay, ularda asosiy belgilar taʼkidlab oʻtiladi, chunonchi, shaxsga qandaydir murakkab mehnat faoliyatining muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasiga talant deyiladi. Talantning asosiy belgilari: a) muvaffaqiyatni taʼminlash; b) faoliyatni mustaqil bajarish; v) originallik unsurining mavjudligi; g) qobiliyat hamda isteʼdodlar yigʻindisidan iborat ekanligi; d) individual-psixologik xislatligi; y) ijtimoiy turmushni oʻzgartiruvchi, yaratuvchi imkoniyatligi kabilar.

Talant ham qobiliyatlarga oʻxshash ijodiyotda yuksak mahoratga, muvaffaqiyatga erishish imkoniyati hisoblanib, ijodiy kutilmasi (yutuq)



insonlarning ijtimoiy-tarixiy turmush shart-sharoitlariga bog'liqdir. Jamiyatda talantli shaxslarga nisbatan muhtojlik sezilsa, bunday insonlarning kamol topishi uchun zarur obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar yaratilsa, bunday vaziyatda barkamol odamlarning shakllanishiga imkoniyat tug'iladi.

Shuning uchun jahon sivilizatsiyasi, fan va texnikasi, san'at va adabiyot, moddiy va ma'naviy madaniyatini yaratishning (ichki ruhiy) imkoniyati hisoblanmish talant progressning harakatlantiruvchi omilidir. Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning yetishmasligi tufayli ko'pchilik talant sohiblari o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlaridan mahrum bo'lgandir. Mamlakatimizning yaqin o'tmishida chorizm mustamlakachilik siyosatida, qatag'on yillarida qanchalab talantli davlat va jamoat arboblari, betakror fan, madaniyat, adabiyot namoyandalari o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga erisha olmay dunyodan ko'z yumdilar. Bu bizning moziyimiz, achchiq haqiqatimiz, turmush voqeligimiz, dinamik xususiyatli ko'ngil armonimiz, borliqqa aql-zakovat bilan munosabatda bo'lishning ilmiy-psixologik mezonidir. Talantlarning uyg'onishi (tug'ilish) ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'lganligi tufayli mustaqil mamlakatimizda talantli yoshlarga nisbatan yuksak ehtiyoj sezmoqda, bu narsa yaqqol ko'rinib turibdiki, shunday mezonga loyiq shaxslar mavjud va ular kelajagi buyuk davlatimiz poydevori hisoblanadi.

Talant qobiliyatlar yig'indisi yoki ularning majmuasidan iborat bo'lishiga qaramay, alohida olingan yakka qobiliyatni, hatto u taraqqiyotning yuksak bosqichiga erishgan, yorqin ifodalansa ham, u bilan tenglashtirish mumkin emas. Bu omilga asos bo'lib, XX asrning 20-30-yillarida moskvalik psixologlar tomonidan olib borilgan fenomenal g'oyat o'tkir, noyob (nodir) xotiraga ega bo'lgan insonlarni tekshirish natijalari hisoblanadi. Esda olib qolish qobiliyati (estrada sahna artisti) hech kimda shubha tug'dirmagan bo'lsa-da, lekin xotira ijodiyotning muvaffaqiyati, mahsuldorligi omillaridan biri ekanligi to'g'risida xulosa chiqarishga olib kelgan. Ma'lumki, shaxsning yaratuvchanlik faoliyatida aqlning epchilligi, boy fantaziya, kuchli iroda, barqaror xarakter, turg'un

qiziqishlar, sermahsul bilish jarayonlari, motivatsiya, yuksak his-tuyg'ular va boshqa psixologik sifatlarning ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuni unutmashimiz o'rinli, noyob xotiraga ega bo'lgan ajoyib yozuvchilar, rassomlar, kompozitorlar, yuristlar, jamoat arboblarning nomlari mashhurdir.

#### **20.4. Qobiliyatlarning rivojlanishi. Qobiliyat va irsiyat**

Psixologik ma'lumotlarni umumlashtirilgan holda ikki xil xususiyatli fikrni alohida ta'kidlab o'tish talant tuzilishini yengilroq tushunish imkoniyatini yaratadi:

talant - bu shaxs psixik xislatlarning shunday murakkab birikmasidirki, uni: a) alohida, yagona maxsus qobiliyat bilan; b) xotiraning yuksak mahsuldorligi orqali; v) hatto noyob (kamyob, nodir) sifat tariqasida o'lchab bo'lmaydi;

shaxsda u yoki bu qobiliyatning mavjud emasligi hamda yetarli darajada taraqqiy etmaganligi talantning murakkab tarkibiga kiruvchi boshqa qobiliyatlarning jadal takomillashuvi orqali ularning o'rnini bosib yuborishi (kompensatsiya qilishi) mumkin.

Moskvaning umumiy va pedagogik psixologiya instituti xodimlari tomonidan o'quvchilarning talanti iste'dod tushuncha negizida o'rganilgan. Aniqlangan muhim qobiliyatlar yig'indisi aqliy iste'dod tuzilishini vujudga keltirgan. Ilmiy tadqiqotchilarning fikricha, yuksak iste'dod quyidagicha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin: a) bunday shaxsning birinchi xususiyati - ziyraklik, shaylik, jiddiy faoliyatni bajarishga tayyor turishlikdir; b) shaxsning ikkinchi xususiyati - uning mehnatga tayyorligi (mehnatga moyilligi, mehnatga intilishi, mehnatning ehtiyojga aylanishi)dir; v) insonning uchinchi xususiyati - unda tafakkur xususiyatlari va fikr yuritishning tezligi, aqlning tartiblilik, tahlil va umumlashtirishning yuqori imkoniyatlari, aqlning mahsuldorligidir. Ma'lumotlar tahlilining ko'rsatishicha, maxsus iste'dod tuzilishi yuqoridagi sifatlardan tashqari, aniq faoliyat talablariga muvofiq keluvchi bir qator qobiliyatlar bilan to'ldiriladi. Talant o'zining umumiy va maxsus sifatlari yig'indisi bilan ijodiy yutuq imkoniyatining ayniyatidir. Talant mahoratning dastlabki sharti hisoblansa-da, lekin ular bir-biridan muayyan darajada tafovutlanadi. Talant - katta, ijodiy va zo'r

mehnat mahsulatidir. Mehnat esa hayotiy tajriba, ko'nikmalarning zaruriy majmuasi manbaidir. Ijodiyotning sharti - bu hayotiy tajriba, zaruriy ko'nikma va malakalar yig'indisining mavjudligidir. Ijodiy faoliyat talantning ajralmas qismi hisoblanib, bunda ruhlanish deb nomlangan psixologik holat alohida ahamiyat kasb etadi. Ruhlanish esa faoliyat mahsuldorligi ortishiga qaratilgan ijodiy lahzadan iboratdir. Talant imkoniyat tariqasida psixologik hodisa hisoblansa, u holda mahorat - haqiqatga aylangan imkoniyat gavdalanishidir. Psixologik nuqtai nazardan haqiqiy mahorat - bu shaxs talantining faoliyatda namoyon bo'lishidir.

Odatda, qobiliyatlar insonga shaxsning barcha individual-psixologik xususiyatlari kabi tabiat tomonidan tug'ma ravishda tayyor holda berilmaydi, balki hayot davomida va faoliyat jarayonida shakllanadi. Ilmiy psixologiya qobiliyatlarning tug'maligi nazariyasini inkor etib, shaxs qobiliyatlarining noma'lum tabiiy omillar tomonidan azaliy belgilanishi to'g'risidagi tasavvurlarga qattiq zarba beradi.

Shuni uqtirish joizki, qobiliyatning tug'maligini inkor qilish mutlaq xususiyatga ega emas, albatta. Lekin qobiliyatning tug'ma ekanligini tan olmaslik miya tuzilishi bilan bog'liq differensial xususiyatlarning tug'maligini inkor qiladi, degan so'z emasdir. Layoqat esa qobiliyatning tabiiy zamini sifatida faoliyatda muhim rol o'ynaydi. Layoqat deb qobiliyatlar taraqqiy etishining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining, sezgi a'zolari va harakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlari aytiladi. Tug'ma layoqat jumlasiga nozik hid sezish, binobarin, bilish analizatorlarining alohida yuksak sezgirligi muvofiqdir. Alohida yakka shaxs ma'lum tabiiy layoqatga ega bo'lsa, u holda o'ziga taalluqli qobiliyatlarni rivojlantirish nisbatan yengil kechadi. Insonlarning kasbiy qobiliyati ular layoqatlarining rivojlanishi mahsulidir. Layoqat ko'pqirrali psixik hodisa bo'lganligi tufayli faoliyat talablarining xususiyatiga bog'liq ravishda bir xil layoqatlar negizida har xil qobiliyatlar rivojlanishi kuzatiladi.

Layoqatning tuzilishi va mahsuldorligi namoyon bo'lishiga qaraganda, uning nuqsonlari haqida ilmiy ma'lumotlar miqdori ko'pdir. Hozirgi davrda qobiliyat

taraqqiyotining dastlabki tabiiy shartlari mohiyati yuzasidagi farazning ozmi yoki ko'pmi mahsuldorligi to'g'risida mulohaza yuritish mumkin. F.I.Gallning ta'limoticha, shaxsning barcha qobiliyatlari, «aql» va «hissiyot sifatlari miya yarim sharlarida o'zining qat'iy markazlariga egadir. Uning fikricha, kalla suyaklari miyaning cho'nqir joylariga aniq mos tushish lozim. Gall tomonidan miyaning maxsus « frenologik» (yunoncha - «aql» to'g'risidagi ta'limot degan ma'no anglatadi) xaritasi tuzilgan bo'lib, unda bosh suyagi 27 bo'lakka ajratilgan. Go'yoki har bir bo'lakka muayyan psixik sifat mos tushadi. Shuningdek, layoqatning miya og'irligiga bog'liqligi haqidagi faraz ham noto'g'ri ekanligi ayon bo'lib qoladi. Shaxs layoqatlari miya burmalarining soni bilan belgilanadi degan taxmin ham o'z tasdig'ini topmadi.

XX asrning ikkincha yarmida paydo bo'lgan layoqatni miyaning mikrotuzilishi va sezgi a'zolari bilan bog'lovchi faraz eng mahsuldor bo'lib hisoblanadi. Miya hujayralarini tadqiq etish iste'dodli shaxs nerv hujayralarining morfologik va funksional xususiyatlarida farq borligini aniqlash mumkinligi faraz qilinadi. Layoqatlar bilan nerv jarayonlarining ayrim differensial xususiyatlari hamda oliy nerv faoliyatining tiplari o'rtasida bog'liqlik mavjudligi to'g'risida faraz ham haqiqatga yaqindir.

Rus psixologi B.M.Teplov va uning shogirdlari ishlarida oliy nerv faoliyati tiplarining xislatlari ta'siri tufayli shaxs qobiliyatlarining tuzilishida qandaydir sifat xususiyatlari paydo bo'lishini aniqlashga urinishgan. Jumladan, asab tizimining alohida sezgilari ma'lum qobiliyat nishonasi sifatida vujudga kelishi mumkin.

Ta'kidlangan xususiyatlar oliy nerv faoliyati umumiy tipining sifatlariga va belgilariga mansubdir. Ammo qobiliyatlarning tabiiy asoslarini asab tizimining porsial (xususiy) deb nomlanadigan xislatlari bilan bog'lanuvchi farazlar yanada ko'proq ehtimol darajasiga egadir.

Qobiliyatning tabiiy sharti, layoqat asab tizimining tuzilishi va funksiyalarining xususiyatlari tarkibida ekanligi, bu hodisa barcha morfologik va fiziologik sifatlari singari umumiy genetika qonunlariga bo'ysunish farazining haqqoniyligini dalillaydi. F.Galtonning (Angliya) irsiyat qonunlari to'g'risidagi

g'oyasi qobiliyatning tabiiy shartlangan xususiyatlari tavsifini ochib bera olmaydi, chunki unda dalilga muhtoj juda ko'p o'rinlar mavjuddir.

Shuning uchun qobiliyat tabiatini biologik irsiyatdan emas, balki turmush muhitining nasldan-naslga o'tishidan qidirish maqsadga muvofiqdir. Agarda insonning taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy qonun-ar bilan boshqarilishi tan olinar ekan, qobiliyatning taraqqiyoti biologik irsiyat qonunlariga bo'ysunishi to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslangan holda qobiliyat va layoqatlar muayyan tabiiy zaminga bog'liq bo'lsa-da, lekin ular faqat tabiatning in'omi emas, balki insoniyat tarixiy taraqqiyotining bebaho (qimmatli) mahsulidir. Xuddi shu bois qobiliyatlarning namoyon bo'lishi shaxslar tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish davomida ijtimoiy shartlangan bilimlar va ko'nikmalarni tarkib toptirishning yaqqol usullariga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun qobiliyatlar taraqqiyotining uzluksiz ta'lim tizimiga bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tish muhim ahamiyatga ega.

Shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishda barqaror, turg'un, kasbi maxsus qiziqishlar muhim omillar, vositalar tariqasida xizmat qiladi. Maxsus qiziqishlar inson faoliyatidagi u yoki bu sohaning (tarmoqning) mazmuniga nisbatan intilishidan iborat shaxsiy fazilat, ichki turtki, harakatlantiruvchi kuchdir. Bunday maxsus qiziqishlar turlicha faoliyat bilan kasbiy tayyorgarlik sifatida shug'ullanishi moyilligiga o'sib o'tadi. Bilishga oid qiziqish (fan asoslarini egallashga yo'naltirilgan ichki turtki) faoliyat usullarini amaliy jihatdan o'zlashtirib olishni va yangi vaziyat, sharoitga ko'chirishni taqozo qiladi, rag'batlantiradi hamda shaxsda o'zini o'zi boshqarishni ta'minlashga yordam beradi.

Qobiliyatning rivojlanishi shaxsning tarkib topishi bilan uzviy uyg'unlikka ega bo'lib, inson kamoloti har ikkala omilning birikuvini talab qiladi. Iste'dodli o'quvchilar va talabalar shakllanishi ijtimoiy muhit, ijtimoiy institutlar, ma'naviyat asoslari hamda o'zini o'zi namoyon etish, o'zini o'zi kashf qilish, o'zini o'zi

rivojlantirish asosida amalga oshishi odatiy ijtimoiy-psixologik qonuniyat tariqasida xizmat qiladi.

### **20.5.Qobiliyat va kasb tanlash. Ta'lim jarayonida iqtidorli va qobiliyatli o'quvchilarni aniqlash hamda ular bilan ishlash muammolari**

Rus psixologi A.G.Kovalev o'z tadqiqotlarida qobiliyatning tabiati va tashxis qilish yo'llarini tekshirishga muvaffaq bo'lgan. Muallifning ta'rificha, qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki inson shaxsining faoliyat talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlay oladigan xususiyatlar ansambli yoki sintezini tushunish kerak. Uning ta'kidlashicha, qobiliyatning tuzilishida tayanch va yetakchi xususiyatlarni va nihoyat, muayyan fonni yoki yordamchi xususiyatlarni farq qilish kerak. Hamma qobiliyatlar uchun asosiy, tayanch xususiyati kuzatuvchanlik - ko'ra bilish ko'nikmasidir. Uning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishdir. A.G.Kovalev yordamchi xususiyatlar qatoriga xotira (u faoliyat talablariga muvofiq ravishda o'ziga xos ko'nikishga ega), emotsionallik, ya'ni his-tuyg'uga beriluvchanlik (bu xususiyat shaxsning faolligini oshiradi)ni kiritadi.

Muallif ta'kidlashicha, ilmiy mavhumlash qobiliyatning ikki darajasini farqlash imkonini beradi: reproduktiv aks ettirish darajasi. O'z qobiliyati rivojlanishining birinchi darajasida turgan shaxs bilimlarni juda mohirlik bilan o'zlashtiradi, faoliyatni o'rganib oladi va uni biror namuna orqali amalga oshiradi. Ikkinchi darajada turgan inson esa yangilik yaratishga qodir bo'ladi. Psixologiya fanida qobiliyat to'g'risida gap ketganda uchta o'ziga xos konsepsiya mavjudligi ta'kidlanadi. A.G.Kovalev asarida bayon qilinishicha, ulardan biri qobiliyat shaxsning biologik jihatidan determinlashgan, ya'ni biologik jihatdan bog'langan xususiyatlaridir, qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanishi esa tamomila irsiy fondga bog'liq, deb tushuntiriladi. XIX asrda F. Galton, XX asrda Kotslar talant irsiydir, faqat imtiyozli tabaqalarning vakillarigina boy irsiy merosga ega bo'ladilar, degan xulosaga keladilar.

Ikkinchi konsepsiyaning vakillari, qobiliyatni butunlay hayot va tarbiyaning ijtimoiy sharoiti belgilaydi, deb uqtiradi. Masalan, Gelvesiy o'z davrida, tarbiya yordamida geniy yaratsa bo'ladi, degan edi. Amerikalik olim U. Eshbi insonning qobiliyati yashab turgan davrida stixiyali ravishda o'zidan o'zi va ongli tarzda ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi, shularning natijasi o'laroq masalalarni yechish uchun tegishli dastlabki rejalar va dasturlar vujudga keladi, deydi. Fiziologik olimlar miyaning tuzilishidan individual xususiyatlar bo'lsa, bu hol miyaning funksiyalarida o'z aksini topmasligi mumkin emas, deb qayd qilinadi.

A.G.Kovalev ta'kidlashicha, qobiliyatning uchinchi konsepsiyasining tarafdorlari ancha to'g'ri pozitsiyada turadilar. So'nggi nazariyada qilinishicha, tabiiy kuchlar, zehn nishonalari va qobiliyatning rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy sharoit mavjud bo'lishi kerak. Muallif zehn nishonalari deganda anatomik-fiziologik xususiyatlardan ko'ra, ko'proq psixologik-fiziologik xislatlarni tushunish kerakligini uqtiradi. Zehn muayyan bir faoliyatga (maxsus qobiliyat) yoki hamma narsaga nisbatan ustuvorlik, qiziquvchanlikda (umumiy qobiliyat), moyillikda va intilishda ko'rinadi.

A.G.Kovalev Edison fikriga asoslanib («bunda faqat 1 foizgina geniy bo'lsa, 99 foiz ter to'kish bo'lgan»), hamma buyuk kishilar bag'oyat mehnatsevarlikka va katta ishchanlikka ega bo'lganlari holda, hatto asab tizimi tabiiy kuchsiz bo'lsa-da, subyektiv ravishda o'z yutuqlarini qobiliyatdan emas, balki mehnatdan deb baholaganlar.

Qobiliyatning rivojlanishi va shakllanishi, birinchidan, ma'lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sifatiga qarab, tegishli tabiiy zehn nishonalarni aniqlash yo'li bilan, ikkinchidan, mutaxassis rahbarligida tizimli faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo'li bilan, uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo'li bilan, to'rtinchidan, o'quvchining maxsus qobiliyatini kamol toptirishni jadallashtirishni ta'minlovchi shaxsni har tomonlama rivojlantirish yo'li bilan, beshinchidan, shaxsning faollik alomatlarini tarbiyalash yo'li bilan,

oltinchidan, o'quvchilarga nisbatan individual munosabatda bo'lishni umumiy talablar bilan to'g'ri qo'shib olib borishdir.

A.G.Kovalevning ta'rificha, adabiy ijodga qobiliyat shaxs iste'dodining badiiy tipiga tegishli bo'lib, badiiy tipdagi qobiliyatning hamma ko'rinishlaridan uni ajratib turadigan o'ziga xos sifatlarga ham egadir. Uning ta'kidlashicha, umuman qobiliyat va xususan adabiy ijodga xos qobiliyat murakkab bo'lib, uning tuzilishida har xil xususiyatlar yoki tarkiblar (jabhalar) mavjud. Bu jabhalarning biri yetakchi, boshqalari tayanch xususiyatlar, uchinchilari esa sermahsul faoliyat uchun zarur bo'lgan muayyan bir fonni tashkil qiladi. Adabiy qobiliyatda uch tomonni mujassamlashtirish muhim ahamiyatga ega: o'tkir kuzatuvchanlik, kuchli ijodiy tasavvur, til vositasida ko'rgan va ravshan tasavvur etgan narsalarni tasvirlay olish.

Muallif mulohazasiga qaraganda, adabiy qobiliyatning tayanch xususiyati yumshoq ko'ngillilik va ta'sirchanlikdir. Ta'sirchanlik deganda idrokning jonliligi va o'tkirligini, emotsional iltifotgo'ylikning naqadar kuchliligini tushunish kerak. Ijod uchun yolg'iz ko'ra bilish qobiliyatining o'zi kamlik qiladi, ko'rganlarni qayta o'zgartira bilish, kuzatilayotgan narsani boshqa hayotiy taassurotlar bilan fikran bog'lay olish ham muhimdir. Kuzatilayotgan narsalar va ayniqsa, yaratilayotgan obrazlar qobiliyatida namoyon bo'ladi hamda bu adabiyotda ko'pincha ichdan ko'rish qobiliyati deb ataladi.

Adabiy qobiliyatni tekshirish shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning qobiliyatlari qobiliyatsizlaridan, V.P.Yagunkovanning ma'lumotlari bo'yicha, idrok qilishning aniqligi va xotirasi bilan, yangi original obraz va syujetlar tuzishdagi tafakkur kuchi va tasavvur bilan, ijodiy vaziyatning yengilgina yuzaga kelishi bilan, so'z boyligi va til sezgisi bilan farqlanadilar. Ba'zi birlarida voqelikka mulohazali mantiqiy munosabatda bo'lish ustun tursa, boshqalarida obrazli emotsional munosabat ustundir, uchinchilarida esa bularning ham ikkisi mujassamdir. V.P.Yagunkova sinaluvchilarning adabiy qobiliyatini tashxis qilishda quyidagi ko'rsatkichlarni mezon tariqasida oladi, chunonchi, a) idrok etish va xotiraning



aniqligi; b) emotsional ta'sirchanligi; v) tasavvurning kuchi va jonli tilni his qilish kabilar.

S.P.Kudryatseva tadqiqotida ilk o'spirinning adabiy qobiliyati ikki tipga ajratiladi: adabiy-tanqidiy tip va badiiy-ijodiy. Birinchi tipda badiiy asarlarni tushunchalar asosida tahlil qilishning o'sganligiga e'tibor qilinadi. Ikkinchi tipda adabiy asarlarni o'qish vaqtida va adabiy mavzuga bayon yozishda hayajonlanish va ijodiy yondashishga ahamiyat qaratiladi.

V. A. Kruteskiy matematik qobiliyat tuzilishiga quyidagilarni kiritadi:

qobiliyatda bolalarning matematik materialni qabul qilishi borasidagi qobiliyatchga matematik obyektlar, munosabat va amallarni shakl holga keltirib idrok qilish matematik materialga o'ziga xos «yig'ma» analitik-sintetik ishlov berish qobiliyatini qayd qilish lozim;

qobiliyatli o'quvchilarning fikrlashi quyidagilar bilan: a) miqdoriy va fazoviy munosabatlar, sonlar va belgilar simbolikasi sohalarida mantiqiy fikrlash qobiliyati; b) matematik materialni tez va keng umumlashtira olish; v) matematik mulohazalar jarayonida qisqacha aqliy xulosalar yordamida fikrlashga moyillik; g) fikrlash jarayonlarining nihoyatda moslashuvchan va harakatchanligi; d) yechishda ravshanlik, soddalik, ratsionallik va ixchamlikka intilish;

3) matematik axborotni xotirada saqlash va hokazo.

Matematik qobiliyatning borligini taxmin qilishga asos bo'ladigan tashqi alomatlarni belgilash mumkin. Muallif taxminicha, bular quyidagilar:

o'quvchining matematikaga oid ochiq-oydin qiziqishini namoyish qilishi, hech kim majbur qilmasdan, o'zining bo'sh vaqtini sarflab, matematika bilan bajonidil shug'ullanishga moyillik;

muayyan matematik ko'nikma va malakalarni odatdagidan kichikroq yoshda o'zlashtirish qobiliyati; matematikani o'zlashtirish sohasida tez siljib borish;

4) matematik taraqqiyot va yutuqlarning yuqori darajasi.

Mamlakatimizda psixolog M. G. Davletshin texnikaviy qobiliyat ustida tadqiqot ishlari olib borgan yetakchi mutaxassis hisoblanadi. Muallif texnikaviy qobiliyat deganda shaxsning individual-psixik xususiyatlaridan tuzilgan shunday

o'ziga xos birikmalarni tushunadiki, u shaxsning texnikaviy faoliyatga yaroqlilik darajasini va u bilan muvaffaqiyatli ravishda shug'ullana olishini aniqlaydi.

M.G.Davletshin ham an'anaviy yo'ldan borib, texnikaviy qobiliyatni ikkita o'sha nomdagi tipga ajratadi hamda yetakchi tayanch xususiyatlarini o'zgarishsiz qoldiradi. Lekin boshqalardan farqli o'laroq yetakchi xususiyatlar rivojlangan texnikaviy fikrlash va fazoviy tasavvurdan iboratdir. Uning talqinicha, texnikaviy iste'dodli shaxs bo'lishi uchun unda: a) amaliy jihatdan fahmli; b) texnik moslamalarni tahlil qila olish qobiliyati; v) narsalarni montaj qilib qismlardan butun hosil qila olishi qobiliyati bo'lishi shart. M.G.Davletshin texnikaviy iste'dod ko'rsatkichlarini an'anaviy baholashni tan olgan holda (ko'z bilan chamalash, fazoviy tasavvur, texnikaviy tahlil, konstruksiyalash qobiliyati) o'zining original yondashuvini ishlab chiqqan. Texnikaviy qobiliyat darajasini tashxis qilish uchun tekshirishlarda ishlab chiqilgan eksperimental masalalarning to'qqizta seriyasidan foydalanadi.

Qobiliyatlar individual – psixologik xususiyatlar sifatida, ya'ni bir odamning boshqa bir odamdan farq qiladigan belgilari sifatida ta'riflanadi. O'z-o'zidan ma'lumki, kishilar bir-biri bilan teng emas. Ana shuning uchun ham qobiliyatlar haqida gap ketganda bu farqlarni xarakterlab o'tish kerak. Bu farqlar sifatli va miqdoriy bo'lishlari mumkin.

Qobiliyatlarning sifat jihatdan xarakteristikasi insonga mehnat faoliyatining qaysi sohasida (konstruktorlik, pedagoglik, iqtisodchilik, sport va boshqalarda) osonlik bilan o'zini topa oladi, katta yutuqlarga va muvaffaqiyatlarga erishadi degan savolga javob topish imkoniyatini beradi. Bu bilan qobiliyatlarning sifat xarakteristikasi ularning miqdoriy xarakteristikasiga uzviy bog'liqdir.

Psixologiyada qobiliyatlarni miqdor jihatdan o'lchash muammosi uzoq tarixga egadir. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida qator psixologlar (Kettel, Termen, Spirmen va boshqalar) ommoviy ixtisoslar uchun kasb tanlashni amalga oshirish zaruriyati bilan bog'liq bo'lgan talablar ta'siri ostida ta'lim olayotganlarning qobiliyatini aniqlashni taklif qilib chiqdilar.

O'sha paytlarda qobiliyatlarni o'lchash usuli sifatida aqliy iste'dod testlaridan foydalanildi.

Aqliy iste'dod testlari mazmun jihatdan qator savollar va masalalardan tashkil topgandir. Ularni yechish muvaffaqiyati (sarflangan vaqtni hisobga olib) ball yoki ochkolar yig'indisi bilan hisoblanadi. Masalan, o'n bir yoshlik bolalarning aqliy qobiliyatlarini aniqlash uchun ingliz maktablarida quyidagicha test qo'llangan: «Petr Jeymsga qaraganda balandroq, Edvard Petrdan pastroq. Hammadan ko'ra kim baland? Savol tagiga quyidagi javoblar yozib qo'yiladi: 1.Edvard, 2. Jeyms, 3. Petr,» Ayta olmayman. Yoki boshqacha test: qizil, yashil, ko'k, ho'l, sariq. Bu yerda bola turkumga kirmaydigan so'zni aniqlashi kerak va hokazo.

Bolalar testlar to'plamini bajarib bo'lgandan keyin ularning natijalarini standartlashtirilgan yo'l bilan, ya'ni har bir sinaluvchi olgan ochkolar miqdorini hisoblash bilan shug'ullanishadi.

Inson qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omillari – barqaror maxsus qiziqishlardan iborat. Maxsus qiziqishlar – bu insoniyat faoliyatining qandaydir soha mazmuniga bo'lgan qiziqishlari bo'lib, bu qiziqishlar ana shu turdagi faoliyat bilan kasb tariqasida shug'ullanish moyilligiga o'sib ko'tariladi. Bilishga doir qiziqish bu o'rinda faoliyat usullari va uslublarini amaliy ravishda egallab olishni rag'batlantiradi. Biror mehnat yoki o'quv faoliyatida qiziqishning paydo bo'lishi bu faoliyatga nisbatan qobiliyatlarning uyg'onishi bilan chambarchas bog'liqligi va qobiliyatlarning rivojlanishi uchun dastlabki zamin sifatida xizmat qilishi qayd etilgan.

#### **Nazorat savollari:**

1. Qobiliyat haqida tushuncha bering?
2. Qobiliyat rivojlanishi va individual farqlarni izohlang?
3. Qobiliyat va layoqatning farqi nima?
4. Inson qobiliyatining biologik asoslari tushuntirib bering?
5. Shaxsda qobiliyat qanday rivojlanadi?

## GLOSSARIY

**Adaptatsiya** (lot. adaptaro–moslashmoq) sezgi a'zolari (analizatorlar) ning ta'sirot kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishi A. hodisasida sezgirlik ortishi yoki kamayishi mumkin. Kuchli ta'sirdan kuchsiz ta'sirga o'tganda sezgirlik asta-sekin ortib boradi, ta'sir kuchayganda esa, sezgirlik, aksincha, kamayib boradi. A.qonuniyati, organik sezgilardan boshqa, barcha sezgilar sohasiga xosdir. U fiziologik, ijtimoiy – psixologik va kasbiy moslashishga bo'linadi.

**Anesteziya** (yunon anaesthesia–sezgisizlik, sezmaslik) –nerv tizimining kasallanishi oqibatida sezgirlikning yo'qolishi.

**Asteniya** (yunon. asthenea-holsizlik) kuchli toliqish, sezgirlikning susayishi, kayfiyatning beqarorligi, uyquning buzilishi bilan ifodalanuvchi ruhan sustlik, ojizlik holati. Unga uzoq muddat spirtli ichimlik ichish natijasida hosil bo'ladigan ruhiy sustlik misol bo'ladi.

**Attraksiya** – (fran.attraktion –qiziqmoq, intilmoq)- kishini boshqa kishi tomonidan qanday qabul qilinishini belgilovchi tushuncha, ya'ni bir kishini ko'rib qolganda, idrok etganda yuz beradigan tafakkur turi.

**Audometr**-(lot.audire-eshitmoq, yunon. metrio-o'lchayman) eshitish sezgisining kuchini aniqlaydigan asbob.

**Agglyutinatsiya** (lot.agglutinare –yopishtirmoq) bir necha narsalarning ayrim har xil qismlarini olib birlashtirilib, yangi narsa va hodisalarning obrazlariga yaratilgan iborat xayol faoliyati. Mavjud obraz va tasavvur qismlarini bir-biriga «yopishtirib» qo'shish asosida yuzaga keladi. Mas. suv parisi obrazi.

**Antipatiya** (yunon. antipotheia-ko'ngilsizlik, xushlamaslik,yoqtirmaslik) - biror narsaga yoki kimsaga nisbatan bo'lgan salbiy munosabatdan kelib chiqadigan va uni ifodalaydigan yoqimsiz hissiyot.

**Apatiya**- charchash, og'ir his-tuyg'u yoki kasallik oqibatida qiziqishning so'nishi, atrofdagilarga nisbatan befarq bo'lish, ma'yuslik kabi ruhiy holatlar.

**Affekt-** (lot. affektus–ruhiy hayajon, ehtiros)-kuchli, tez va jo‘shqin kechuvchi, nisbatan qisqa muddatli, his-hayajonli, irodaviy nazorat yo‘qotilgan ruhiy holat.

**Afaziya-** (yunon. yuk. phasia-nutq)- eshitish a‘zolarining sog‘lom bo‘lgani holda nutq faoliyatining buzilishi. Bosh miya katta yarim sharlari po‘stlog‘ining shikastlanishi natijasida paydo bo‘ladi.

**Bevosita esga tushirish** - narsa va hodisalar, fikrlar, harakatlarni idrok qilgandan keyin, oradan vaqt o‘tkazmay, esga tushurishdan iborat xotira prsessi.

**Gallyutsinatsiya** -(lot.hallucinatio-alahash, bosinqirash)-sezgi aldanishi yo‘q narsani bor deb idrok etish. Odatda muayyan tashqi ta‘sirlessiz vujudga keladi. Asosan ko‘rish, eshitish gallyutsinatsiyalari mavjud. U psixik kasallarda uchraydi. Real voqeilikdagi narsa va hodisalarning analizatorlarga bevosita ta‘sirlessiz ongimizda turli obrazlarning xayoliy ravishda paydo bo‘lishi.

**Deduksiya** - (lot.deductio-keltirib chiqarmoq) bilish jarayonida umumiy hukmlardan xususiy hukmlarga o‘tish orqali mantiqiy xulosa chiqaruvchi tafakkur turi.

**Diqqat** - individning hissiy, aqliy va harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqozo etadigan tarzda ongning yo‘naltirilganligi va bir narsaga qaratilganligi. Diqqat ongning bir nuqtaga to‘planib, muayyan bir obyektga faol qaratilishidir. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatlar mavjud.

**Diqqatning barqarorligi** – diqqatni uzoq vaqt bir obyektga muttasil, kuchli qarata olishdan iborat ijobiy xususiyati.

**Diqqatning ko‘lami**-bir vaqtning o‘zida diqqatning bir qancha obyektga qaratilishi imkoniyati.

**Diqqatning to‘planganligi**-diqqatning muayyan obyektlar doirasida tez hamda kuchli to‘plana olishdan iborat xususiyati.

**Diqqatning taqsimlanishi** – bir paytning o‘zida diqqatning bir necha obyektlarga yoki faoliyatga qarata olish imkoniyati.

**Diqqatning ko‘chuvchanligi**-faoliyat protsessida diqqatning ongli ravishda bir obyektidan ikkinchi obyektga ko‘chirilishi.

**Ixtiyoriy diqqat**-ongimizning obyektga ixtiyorsiz ravishda yo‘naltirilsa-da, uning ustida ma’lum vaqt barqaror holda, to‘planib turishidan iborat ixtiyoriy diqqat turi.

**Ixtiyorsiz diqqat** – ongimizning oldindan belgilangan maqsadsiz ravishda muayyan obyektga yo‘naltirilishi va unda to‘planishidan iborat diqqat turi.

**Parishonxotirlik**- kishining maqsadga qaratilgan, yo‘naltirilgan faoliyatining funksional yoki organik buzulishi, diqqatni ma’lum obyektga qarata olmaslik.

**Zavqlanish**- biror-bir mufaqqiyatli ijodiy ishni ko‘rish, eshitish, yoki sezish orqali paydo bo‘ladigan ruhiy holat.

**Instinkt** (lot.instinctus-ichki mayl, intilish)-organizmning tashqi yoki ichki ta’sirotlar natijasida paydo bo‘ladigan murakkab tug‘ma harakatlari majmui, murakkab shartsiz refleks (ovqatlanish, himoyalanih, jinsiy instinkt va b.) Odamda instinkt uning ongi bilan boshqariladi.

**Idrok**-sezgi a‘zolariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etuvchi narsa va hodisalarning kishi ongida yaxlit holda psixik aks ettirishdan iborat psixik jarayon.

**Idrok aniqligi**- idrok obrazlarini idrok qilinayotgan narsalarga qanchalik muvofiq kelish darajasi.

**Idrokning konstantligi** - (lot.constantis-o‘zgarmas, doimiy) - idrok qilinayotgan narsalarning o‘lchami, shakli va rangi ungacha bo‘lgan masofani o‘zgartirganda ham nisbatan turg‘unlik holatining o‘zgarmasligi.

**Idroklilik**-idrokning to‘liqligi, aniqligi va tezligi kabi ijobiy xususiyatlardan tashkil topgan aql sifati, zehn tezligi.

**Idrok tezligi**- idrok qilinayotgan narsaning sezgi a‘zolariga ta’sir qila boshlagan paytdan , to bu narsaning obrazini anglab olgunimizgacha o‘tgan vaqt.

**Illyuziya** (lot.illusio-aldash)- borliqning, voqelikning noto‘g‘ri idrok etilishi, idrokning chalg‘ishi. Sezgi a‘zolari takomillashganmaganligi natijasidagi qo‘rquv.

**Induksiya**-(lot. industio- keltirib chiqarish) juz‘iy yoki yakka hollarda umumiyya, ayrim faktlardan umumlashmalarga qarab boradigan induktiv xulosa chiqarishga asoslangan mantiqiy bilish metodi, tafakkur formasi.

**Iste'dod**- shaxsning rivoj topib, qobiliyatlarida namoyon bo'ladigan tug'ma layoqatlari yoki boshqacha aytganda shaxsning tabiiy va muayyan ijtimoiy muhit ta'sirida erishgan noyob xislatlari . Biror sohada yuksak darajadagi qobiliyat.

**Iste'dodli bolalar**—o'zini umumiy yoki maxsus iste'dodini namoyon qilgan bolalar. Iste'dodli bolaning aqliy rivojlanishini tashxis qilinib aniqlanadi.

**Ixtiyoriy esda olib qolish**-maxsus mnemik harakatlar, ya'ni asosiy maqsad esda olib qolishdan iborat bo'lgan harakatlar mahsuli.

**Ixtiyorsiz xotira**- biror narsani esda olib qolish yoki eslash uchun maxsus maqsad bo'lmagan holda esda olib qolish va qayta esga tushirish

**Iroda** – kishining o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishi uchun qiyinchiliklarni yengib o'tishiga qaratilgan faoliyati va xulq -atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'zini –o'zi boshqarishidir.

**Istak**- intilishning maqsadi aniq bo'lmagan holat. Bu maqsadga erishuvning yo'li va vositalarini to'la anglab yetmaslikdan iborat irodaviy holat.

**Ishonchlilik**-obyektiv voqeilikdagi narsa va hodisalarni fikran to'g'ri, shakshubhasiz aks ettirishdan iborat mantiqiy kategoriya.

**Ishontirish**-shaxsga muayyan ta'sir o'tkazish; buning natijasida kishi irodasi va ongidan qat'iy nazar, unda muayyan holat, hissiyot, munosabat vujudga keltiriladi.

**Individuallik**-muayyan shaxsning boshqa shaxslardan ajratib turuvchi, shaxsning o'ziga xos xislatlari.

**Kayfiyat**-inson his-tuyg'usining yaxlit shakli, kechinmalarining umumiy holati. Kayfiyat doirasi har xil; u insonning umumiy kechinmalaridan to zerikish, qo'rquv, xafalik yoki quvnoqlik, umid va qiziqish kabilargacha bo'lgan barcha shakllarni o'z ichiga oladi.

**Kinestezik sezgi** - (yunon.kineo-harakatga keltirmoq)- proprioretseptorlar qo'zg'alishi natijasida o'z tana a'zolari harakati va holatini sezish.

**Ko'ruv sezgisi** – ko'ruv analizatori bevosita ta'sir etib turgan ranglar va yorug'likni aks ettirishdan iborat sezgi turi.

**Kuzatish**- shaxsni qiziqtirgan narsalar va tevarak atrofidagi hodisalarni bilish uchun maqsadli va rejali tarzda idrok etish .

**Kuzatish metodi**-faoliyat mahsulini tahlil etish, erkin tavsifnomalarni umumlashtirish usuli.

**Layokat** – individning ma’lum faoliyatning bajarishga undovchi saylanma yo‘nalganligi. Nerv tizimining ba’zi irsiy determinlashgan anatom-fiziologik xususiyati.

**Longityud** tadqiqot- (ing.longitude-uzoq muddat) insonning yosh va individual o‘zgarishlar ko‘lamini o‘rganish maqsadida yashash davri fazalari o‘zgarmas bo‘lgan guruhni uzoq va uzluksiz tekshirish usuli.

**Lyusher testi**- ruhiy holatni aniqlovchi rangli test.

**Metod** (yunon.methodos-tadqiqot,tekshirish)-bilishning nazariy va amaliy o‘zlashtirish usullari yig‘indisi.

**Mexanik xotira** - (yunon.mechane-qurol,mashina)- muayyan material ma’nosini, mazmunini, ichki mohiyatini, ichki mantiqiy bog‘lanishlariga tushunmagan holda takrorlashga asoslangan xotira turi.

**Mehnatsevarlik** – insonning mehnat faoliyati jarayoniga ijobiy shaxsiy munosabatidan iborat bo‘lgan xarakter xususiyati.

**Melanxoliya** (yunon.melas-qora, chole-o‘t,safro)-temperament turlaridan psixik faollikning sust, tez ta’sirlanuvchilik, hatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta’sirotda berilishi bilan xarakterlanadi.

**Melonxolik**- Gippokrat ta’limotiga ko‘ra, temperamentning bir turi. Yuksak darajadagi ta’sirchanlik va hissiyotning zoxiran nisbatan sust ifodalanganligi.

**Orzu**- shaxsning o‘zi uchun yoqimli bo‘lgan istiqbol obrazlarini ongida yaratishdan iborat xayol turi.

**Oltinchi sezgi**- odamdagi asosiy besh sezgidan tashqari har xil holatlarda namoyon bo‘ladigan sezgi.

**Obrazli xotira** -tasavvur, tabiat va hayot manzaralarini, shuningdek, tovush, hid, ta’mlarni esda olib qolishdan iborat bo‘lgan xotira.



**Operativ xotira** (lot.operatio-harakat)- xotira turi. Kishi tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan zaruriy xatti-harakatlar, shularga xizmat qiluvchi mnemik jarayonlar.

**Proprioretseptiv sezgilar** (lot.proprius-xususiy, maxsus, recipere-qabul qilmoq) tana turli qismlari, holatlari va ularning harakatlari haqida darak beruvchi sezgilar.

**Proyektiv metod** (lot.projektus-oldinga tashlangan, yunon.methodos-tadqiqot)-shaxsni tadqiq qilish metodlaridan biri. Bu metodda mas. tajriba vaziyatlarida tasvirlar idrok qilinib, uning talqini beriladi.

**Psixodiagnostika** (yunon. diagnostikos-bilishga qodir)- shaxsning individual psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va ularni o'lchashni ishlab chiquvchi psixologiya usuli

**Psixologik test**-qisqa muddatli, yozma savolli topshiriq bo'lib u orqali kishilar qobiliyati, ko'nikma, bilim va malakalari, kasbga layoqati va shu kabilar aniqlanadi.

**Psixologiya metodlari** - psixik hodisalar va ularning qonuniyatlarini o'rganadi. Mas. Kuzatish, tajriba, lab-ya tajriba, tabiiy kuzatuv, o'z-o'zini kuzatish, biografiya.

**Psixologik tadqiqot usuli** - u 4 bosqichga bo'linadi. 1.Tayyorgarlik bosqichi 2. Tajriba-sinov bosqichi 3.Tadqiqotga ishlov berish 4.Olingan natijalarni izohlash bosqichi.

**Psixologik metodikalar**- jamoa yoki alohida kishini psixologik o'rganish maqsadida tuzilgan savollar to'plami.

**Psixologik tahlil** - inson psixik faoliyatining psixologik shart-sharoitlari va tarkibini ochib berishdan iborat ilmiy-tekshirish metodlaridan biri.

**Psixik jarayonlar** -bu faoliyatning hozir ta'sir etadigan (sezgi, idrok) yoki qachonlardir yuz bergan qo'zg'atuvchiga javob tariqasida ro'y beradigan shu ta'sirni umumlashtiradigan, ular pirovardida olib keladigan natijalarni (tafakkur xayol) oldindan ko'ra bilishga yordam beradigan, bir xil ta'sirotlar natijasida faoliyat (his -tuyg'u) ni kuchaytiradigan yoki susaytiradigan, umuman

faollashtirib yoki sekinlashtiradigan, odamlar xulq-atvoridagi tafovutlarni aniqlaydigan boshqaruvchilaridir.

**Psixik reaksiya**- tashqi yoki ichki ta'sirotda javob sifatida paydo bo'ladigan har qanday psixik jarayon.

**Psixologik test**- psixologik standart mashqlar. Bu mashqlarning bajarish natijalariga ko'ra tekshirilayotgan kishining psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek bilim, malaka va ko'nikmalari to'g'risida xulosa chiqariladi.

**Rang sezish**- ko'zning idrok qilinayotgan narsa va hodisalarning rangini ajrata olish qobiliyati.

**Refleks** (lot.reflexus-aks etish)- organizmning retseptorlar qo'zg'alishiga javob reaksiyasi. Vujudga kelgan qo'zg'alish markaziy nerv sistemasiga uzatilgach, u ham qo'zg'alish bilan javob qaytaradi. Qo'zg'alish efferent nervlar orqali turli a'zolarga uzatiladi.

**Refleksiya (in'ioks, tajalliy)** (lot.reflexus-aks ettirish) -subyektning u bilan muloqotga kirishgan sherigi tomonidan qay tarzda idrok etilishini anglab yetishi.

**Retseptor** (lot.recipere-qabul qilmoq) -tashqaridan yoki organizm ichki muhitidan ta'ssurotni qabul qilib va uni nerv impulslariga aylantirib, markaziy nerv sistemasiga o'tkazib beradigan sezuvchi nerv tolalari uchlari yoki maxsus hujayralar ( ko'z to'r pardasi, ichki quloq va b.)

**Raddiya**-tafakkurning turli operatsiyalari hamda formalaridan foydalangan holda biror fikrning yolg'on ekanligini isbotlashdan iborat bo'lgan mantiqiy operatsiya.

**Subyekt** - (lot.subgestum-odam, kishi)- obyektiv dunyoni biluvchi, uni o'zining ehtiyoj va qiziqishlariga moslab o'zgartiradigan ongli mavjudot.

**Sotsializatsiya** (lot.societas-jamiyat)- o'zaro munosabatlar tizimi bilan psixologik qovushuvchanlikning aniqlash maqsadida guruh va jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganishdan iborat psixologik tadqiqot metodi.

**Sotsiometriya usuli** – o‘zaro munosabatlari va psixologik moslashuvini aniqlash, guruh, jamoani shaxslararo munosabatlarini psixologik tekshirish va tahlil qilish usuli. (A.Moreno).

**Statistik metod** - (lot. status-holat, yunon.methodos-tadqiqot,)- o‘tkazilgan tadqiqot natijalarini miqdoriy hisoblab chiqish usuli.

**Suhbat**- psixologiyaning og‘zaki muloqot qilish yo‘li bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita ma‘lumot olish jarayonidir. S. yordamida shaxsning qiziqishlarini, dunyoqarashini, e‘tiqodini, nutqiy xususiyatlarini va boshqa sifatlarini o‘rganilishi mumkin.

**Sezgilar** – obyektiv reallik xossalarning ini‘kosi, ana shu xossalarning sezgi organlariga ta’siri va bosh miya nerv mexanizmlarini qo‘zg‘atishi natijasida vujudga keladi. Sezgi - dunyoning bilishning boshlang‘ich nuqtasi. Sezgi turlari har xil: tuyish, eshitish, silkinish, hid bilish va b. Sezgining sifat xususiyatlari uning modalligi deyiladi.

**Sezgi a‘zolari** – sezuvchi nerv hujayralari va qo‘shimcha tuzilmalardan tuzilgan ko‘rish, eshitish, gravitatsiya, hid bilish, ta‘m bilish a‘zolari.

**Sezgi chegarasi**- minimal kuchga ega bo‘lgan qo‘zg‘ovchining bilinar-bilinmas ta‘sirini sezishning quyi chegarasi, eng yuqori kuchi ta‘sirni sezishi (maksimal) yuqori chegarasi deyiladi.

**Senzitivlik** - (lot.sensus-hissiyot)-sezgilarning turli xil ta‘sirotlarga nisbatan kuchli va tez qo‘zg‘alishhi

**Senzitiv yosh davrlari**-bunda ma‘lum yosh davri xos psixik xususiyat va jarayonlar, yuqori darajada yaxshi hisoblanadi.

**Sensibilizatsiya** - (lot.sensibilis-sezuvchan, ta‘sirchan)-ichki omillar qo‘zg‘atgich ta‘sirida nerv analizatorlari sezgirligining oshishi.

**Sentimentalizm** - (fr.sentimentalisme-sezuvchanlik)-sensor sezgirlikdan farq qiluvchi haddan tashqari emotsional sezgirlik, narsa va hodisalarga o‘ta emotsional munosabatda bo‘lishi.

**Sensor sezgilar** - (lot.sensus-sezgi, his) -sezgi a‘zolariga tegishli bo‘lgan sezgilar.

**Sensor buzilish** – sezgi a’zolari faoliyatining buzilishi.

**Sensorika** – sezgi va idrokning birgalikda umumlashtiruvchi tushuncha.

**Stress** (ing.stress-zo’riqish) – to’satdan va kuchli ta’ssurot natijasida hosil bo’ladigan ruhiy zo’riqish holati.

**Sangvinik** – (yunon.sanguis-qon) ruhan kuchli, faol, harakatchan, tez va yorqin qiyofali, hissiyoti o’zgaruvchan, nutqi tez, ba’zan e’tiborsiz va shoshiluvchan bo’lgan temperament turi.S. inson dilkash va mehribon bo’ladi.

**Sangvinik temperament** - (lot.sanguis-qon, temperamentum-qismlarning zaruriy nisbati)-shaxsning tez, kuchli lekin beqaror emotsional qo’zg’aluvchanligi va psixik jarayonlari bilan sifatlanadigan individual xususiyati.

**Temperament (mijoz)** - (lot.temperamentum-qorishma, aralashma)-individning psixik faoliyati (sur’ati, ritmi, psixik jarayon va holatlar jadalligi)dagi dinamik xususiyatlar jihatidan uning tavsifi. Asosiy komponentlari individning umumiy harakatchanligi, motorikasi (harakatlar ko’rinishi) va emotsionalligi.

**Taktil sezgilar**-teri sezgilarining biror narsaning badanga tekkanini, bosilganini, tebranishini aks ettirishdan iborat turi.

**Ta’ m**-sezgi turi.(shirin, achchiq, chuchuk, tuzli). Analizatorlar til o’zagidagi nerv tugunlari hamda bosh miya po’stloq qismidagi T. markazidir.

**Tabiiy eksperiment** (lot.experimenum-sinov, tajriba)- o’yin, mehnat va o’quv faoliyatini tekshiriluvchiga sezdirmasdan psixologik o’rganish usuli.

**Tahlil**-tafakkur qilish usuli, bunda murakkab obyektlar qismlarga bo’lib o’rganiladi

**Test** (ing.test-tekshirmoq)- psixologik standart sinov. Bu sinov natijalariga ko’ra sinalayotgan shaxsning to’liq yoki ayrim psixofiziologik xususiyatlari, shuningdek, bilim, malaka, ko’nikmalari to’g’risida xulosa chiqariladi.

**Tasavvur**- oldin shakllangan manzaralar asosida tuzilgan obrazlarning psixik akslanish shakli. Tasavvur faqat insonga xos.T. sezgi va idrok bilan uzviy bog’liq, lekin, ulardan farq qilib, ancha umumlashgan xarakterga egadir.

**Talant**-(yunon.talanton-qimmatbaho, qimmat narsa) qobiliyatlar, ayniqsa maxsus qobiliyatlar rivojlanishining yuqori darajasi. Talantli kishi ishga ijodiy

yondashadi. Muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijobiy ravishda bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar yig'indisidan iborat, t. li kishilar, odatda, yuksak ijodiy, keng mazmunli, tanqidiy va mahsuldor aql egalari bo'ladilar.

**Tafakkur**-inson aqliy faoliyatining yuksak shakli. Sezgi, idrok va tasavvurlar orqali bevosita bilib bo'lmaydigan narsalarni ongli ravishda aks etish mumkin. Fikr yuritish, o'ylash, jiddiy ravishda yangilikni qidirish va ochishga ijtimoiy jihatdan bog'liq, aloqador psixik jarayon. Shuningdek, uning tahlili va sintezida voqelikni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishlardan paydo bo'ladi va hissiy bilish chegarasidan ancha tashqariga chiqib ketadi. Intuitiv, ko'rgazmali-obrazli, amaliy, so'zli-mantiqiy, ijodiy, nazariy tafakkur turlari mavjud.

**Tafakkur**- inson aqliy faoliyatining yuksak bosqichi. Sezgi, idrok, va tasavvurlar orqali bevosita bilib bo'lmaydigan narsa va hodisalar T. da ongli ravishda aks etadi.

**Tush (odam uxlaganida)** -bosh miya yarim sharlari po'stlog'ida hosil bo'ladigan xayolning ixtiyorsiz faoliyati, ong bilan tashqi muhit o'rtasidagi aloqa ma'lum darajada uziladi.

**Unutish**-oldin xotirada bo'lganni qayta tiklanmaslik, ya'ni esga qoldirgan narsa va hodisalarning zarur paytda aytib bera olmaslik jarayoni.

**Fenomenal xotira**-idrok qilingan narsa va hodisalarni, ularning bog'lanishi munosabatlarini favqulotda tez hamda aniq esda qoldirish va esga tushirishdan iborat nodir xotira qobiliyati.

**Fazoni idrok qilish**- voqelikdagi narsa va hodisalarning fazoda tutgan o'rnini, shaklini, miqdorini uch o'lchov asosida (balandlik, kenglik, uzunlik) bevosita aks ettirish.

**Flegmatik** (yunon. flegma – balg'am, shilimshiq modda)- yuragi keng, barqaror intilish va kayfiyatga, doimiy va chuqur his-tuyg'ularga, xatti –harakatlari

va nutqi bir xil maromda bo'lgan, ruhiy holati tashqi tomonda ifoda etiluvchi temperament turi.

**Flegmatik temperament**- sekin, kuchsiz, va beqaror emotsional qo'zg'aluvchanlik bilan xarakterlanadigan xususiyat.

**Xotira**-o'tmish tajribalarini esga tushirish qobiliyati, tashqi olam voqealari va organizm reaksiyalari haqidagi axborotni uzoq saqlab ong va xatti –harakatlar sohasiga ko'p martalab joriy eta olishdan iborat nerv tizimining xususiyatlaridan biri. U esda qolish, esda saqlash va esga tushirish jarayonlariga ajratiladi. U ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira, bevosita va bivosita xotira, qisqa muddatli va uzoq muddatli xotiralarga ajratiladi. X. ning fiziologik asoslari bosh miya yarim sharlari qobig'ida muvaqqat nerv bog'lanishlarining hosil bo'lishi, mustahkamlanishi va keyinchalik faollashuvidir.

**Xarakter**(yunon.charakter-nishon, xislat belgi)-kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning induvidual birligi. Odamning xatti-harakatlari va atrof- muhitga munosabatida namoyon bo'ladigan shaxsiy psixik xususiyatlari yig'indisi. Xarakterni tashkil qiluvchi xususiyatlar xarakter xislatlari deyiladi.

**Xarakter aksentuatsiyasi** (yunon. karakter-xususiyat, nishon, belgi, akcentus-urg'u)- xarakterning alohida xususiyatlariga ortiqcha urg'u berilishi.

**Xarakterning ma'naviy sifatlari** - odamoshavandalik, samimiylik, rostgo'ylik, gumanizm, mehribonlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, o'z qadr qimmatini bilishlik kabilardan iboratdir.

**Xarakter xislatlari** - ijtimoiy muhit ta'sirida tarkib topgan, shaxsning xatti-harakatlarida muntazam uchraydigan doimiy xususiyat va sifatlari yig'indisi.

**Xolerik** (yunon.chole-safro, sariq o't) - temperament turi, u hissiyotning jo'shqinligini, kayfiyatning birdaniga tez o'zgarib qolishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ifodalanadi.

**Xudbinlik**- kishining faqat o'z manfaatini ko'zlovchi salbiy xarakter xislati, boshqalar manfaati bilan hisoblashmaslik.

**Xayol**-mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat psixik aks ettirish jarayonlaridan biri. U ixtiyorsiz va ixtiyoriy, ijodiy xayol va tasavvur xayol turlariga ajraladi.

**Xayolparast** (yunon.phantasia-tasavvur, xayol)- kishining voqea, dalillarini asta-sekin buzib, ularni o'z xohishiga qarab fikri -xayoliga moslab tasvirlab berishi.

**Eksperiment metodi** – yangi psixologik bilimga ega bo'lish uchun obyektiv tarzda ilmiy bilishning asosiy vositasi. U laboratoriya va tabiiy E. metodlarga bo'linadi.

**Empirik metod** (yunon.emperia-tajriba, methodos-tadqiqot) tekshiriluvchi haqidagi ma'lumotlarni tajribaga asoslanib, amaliy tajribalar bilan aniqlash usuli.

**Eksteroretseptiv sezgilar** – tashqi olamdagi narsa va hodisalarning turli xususiyatlari haqida darak beruvchi, tana sirtida joylashgan retseptorlar, sezgilar. Mas: ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilishdan iborat tashqi sezgilar.

**Esga olib qolish**- yangi qabul qilingan ma'lumotlarni oldin egallangan bilim va tajribalar bilan bog'langan holda esda saqlashga qaratilgan psixik faoliyat.

**Esga tushirish** – o'tmishda idrok qilinganlarni (narsa, his-tuyg'u, fikr, ish, xatti-harakat) ongimizda qayta tiklashdir. Xotira jarayonlaridan biri.

**Eshitish xotirasi**- tovush qo'zg'ovchilarini sezish, idrok qilish natijasida hosil bo'lgan eshitish obrazlarini esda qoldirish, mustahkamlash va esga tushirishdan iborat xotira turi.

**Emotsiya** (lot.emovere- uyg'otish, to'lqinlashtirish) - his tuyg'u, kechinma, hayajon (g'azab, qo'rquv, quvonch).Odam yoki hayvonlarning subyektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo'zg'ovchilar ta'siriga javob reaksiyasi.

**Emotionallik** – kishining his-tuyg'u va emotsiya dinamikasi, mazmunini xarakterlovchi sifatleri.

**Eshitish sezgisi** – tovush tebranishlarini eshitish a'zolari yordamida sezish turi. Eshituv analizatorlariga bevosita ta'sir etayotgan shovqinli hamda musiqali tovush to'lqinlarining alohida belgi va sifatlarini aks ettirishdan iborat sezgi turi.

**Egoizm** (lot.ego-men) - xudbinlik bo‘lib, shaxsning o‘z qiziqishlari va ehtiyojlarini boshqa shaxs bilan qiziqmay, uning ehtiyoj va qiziqishlaridan ustun qo‘yish.

**Qobiliyatlar** – u yoki bu unumli faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarini egallay olishni ta‘minlaydigan shaxsning individual – psixologik xususiyatlari.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.Usmanova, I.Haydarov. Umumiy psixologiya. T. 2018.
2. D.B. Elkonin Psixologiya igri. Vlados.: 1999
3. Davletshin M.G., To‘ychiyev S.M. Umumiy psixologiya. T.:TDPU, 2012.
4. David G. Myers Psychology, USA , 2010
5. Nemov.R.S.Psichologiya. Kniga1, 2,3. Vlados.: 2000
6. Umarov B.M. Psixologiya.T., 2012
7. Solso R. Kognitivnaya psixologiya. - M.: 2002.
8. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – T.: TDPU, 2010.
9. M.G.Davletshin va boshqalar "Yosh davrlar va va pedagogik psixologiya" T.TDPU. 2009.
10. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. - T.: Sharq. 2000.
11. V.A.Kruteskiy. "Pedagogik psixologiya asoslari".- T.: O‘qituvchi.1986.
12. Rubinshteyn S.L. Osnovm obshey psixologii. - M., 1989.
13. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash.- T. Fan.2003.
14. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017.
15. Ivanov F.I, Zufarova M.E. Umumiy psixologiya.T., 2018.
16. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. - T.: «Universitet», 2002.
17. G‘oziyev E.G‘. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. - T.: «Universitet», 2003.
18. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2010.
19. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent, 2010.
20. G‘oziyev E.G‘. Sotsial psixologiya. “Noshir” nashriyoti 2012.
21. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). Toshkent, “O‘qituvchi”, 1994.

22. G‘oziyev E.G‘. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent, Universitet, 1997. – 80 b.

23. G‘oziyev E.G‘. Faoliyat va xulq–atvor motivatsiyasi. Toshkent, Universitet, 2003.

24. G‘oziyev E.G‘. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, 2006.

25. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya tarixi sahifalari. Toshkent, “Fan”, 2006.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	<b>3</b>
<b>1-MAVZU. UMUMIY PSIXOLOGIYA FANI PREDMETI VA VAZIFALARI</b>	<b>4</b>
1.1.Psixologiya fani haqida tushunchalar	4
1.2.Psixologiya fanining predmeti va asosiy vazifalari	6
1.3.Psixikaning namoyon bo'lishi	8
1.4.Psixologiyaning o'rganilish bosqichlari (bixeviorizm, neobixeviorizm, neofreydizm)	11
1.5.Psixologiya fanining fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Psixologiya fanining tarmoqlari	16
<b>2-MAVZU. UMUMIY PSIXOLOGIYA FANINING ILMIY TADQIQOT METODLARI</b>	<b>40</b>
2.1.Hozirgi zamon psixologiyasi ilmiy tadqiqot metodlari	40
2.2.B.G.Ananevning tadqiqot metodlari kllasifikatsiyasi	41
2.3. Kuzatish metodi va uning turlari. Eksperiment metodi	46
2.4.So'rov metodi va uning turlari. Faoliyat mahsulini o'rganish metodi	48
2.5.Test metodi, sotsiometriya metodi, biografiya metodi. Proyektiv metodlar	53
<b>3-MAVZU. PSIXIKA VA ONGNING TARAQQIYOTI</b>	<b>59</b>
3.1.Psixikaning filogenetik taraqqiyoti. Odam psixikasining paydo bo'lishi va taraqqiyoti	59
3.2.Ong strukturasi va uning asosiy psixologik xarakteristikasi. Yuksak psixik funksiyalarning tarkib topishi va ularning tuzilishi	64
3.3.Yuksak psixik funksiyalarning substrati – miya. Psixikaning vazifasi	69
3.4.Ong va uning shakllari. Ong tushunish sifatida; refleksiyaga nisbatan qobiliyatlilik, o'z-o'zini kuzatish, o'zligini anglash	71
3.5.Ongsizlikning onglilikdan farqi, ust onglilik holatlari, ong tuzilmasi, ongning tarkibi, aks ettiruvchanligi, ijodiylikning vujudga keltiruvchanligi	76
<b>4-MAVZU. FAOLIYATNING PSIXOLOGIK TALQINI</b>	<b>84</b>
4.1.Faoliyat haqida tushuncha. Faoliyatning psixologik talqini	84
4.2.Faoliyatning turlari. O'yin faoliyatining o'ziga xos jihatlari	90
4.3.O'qish faoliyati, uning komponentlari va psixologik xususiyatlari Mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlari	91
4.4.Faoliyatda muvaffaqiyatga erishish. Faoliyatning shaxs taraqqiyotidagi roli	96
4.5. A.N.Leontev bo'yicha faoliyat tuzilishi. Faoliyat va motivlar	100
<b>5-MAVZU. SHAXS</b>	<b>103</b>
5.1.Shaxs haqida tushuncha, odam-inson-individuallik tushunchalari, shaxs ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida: ijtimoiy normalar, sanksiyalar.	103
5.2.Shaxs nazariyalari endopsixika va ekzopsixika. Markaziy Osiyo mutaffakirlari ijodida shaxs kamoloti	107

5.3.Chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari. Rus va o‘zbek psixolog olimlarning shaxs haqidagi ilmiy qarashlari	112
5.4.Biogenetik va sotsiogenetik nazariyalar. «Men»-obrazi va o‘z-o‘ziga baho	116
5.5.Shaxsga xos bo‘lgan obyektiv sifatlar, onglilik, javobgarlikni his etish, o‘z qadrini bilish	132
<b>6-MAVZU. SEZGINING PSIXOLOGIK MOHIYATI</b>	<b>140</b>
6.1.Sezgi psixik jarayon sifatida. Sezginging psixofiziologik asoslari	140
6.2.Sezginging tasnifi, sezgi klassifikatsiyalari	142
6.3.Inson faoliyatida sezginging roli va qonuniyatlari, chet el psixologiyasida sezgi nazariyalari	147
6.4.Segzi kognitiv jarayonning boshlang‘ich nuqtasi (R.Solso)	152
6.5.Analizatorlar. Sezginging reseptor va reflektor nazariyasi	163
<b>7-MAVZU. IDROK</b>	<b>166</b>
7.1.Idrok haqida tushuncha. Idrokning fiziologik asoslari	166
7.2.Idrok turlari. Idrokning asosiy sifatleri	167
7.3.Idrokning individual xususiyatlari. Idrokning yangi qirralari	169
7.4.Idrokning asosiy xususiyatlari uning predmetliligi, yaxlitligi, strukturaliligi, doimiyligi (konstantligi) va anglashilganligi	170
<b>8-MAVZU. DIQQAT PSIXOLOGIK JARAYON SIFATIDA</b>	<b>174</b>
8.1.Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning nerv-fiziologik asoslari	174
8.2.Diqqat turlari. Diqqatning asosiy xususiyatlari	176
8.3.Diqqatning ko‘chuvchanligi, bo‘linishi, ko‘lami, kuchi, barqarorligi va bo‘linishi. Diqqatning rivojlanishi	178
<b>9-MAVZU. XOTIRA</b>	<b>181</b>
9.1.Xotiraning psixik jarayon sifatida o‘rganilishi. Xotira va uning psixifiziologik mexanizmlari	181
9.2. Xotira jarayonlari va uning turlari. Xotiradagi individual farqlar	186
9.3.Yoshga bog‘liq sifatleri. Xotiraning neyrofiziologik va bioximik nazariyalari	189
9.4. Xotirani mustahkamlash qonuniyatlari. Assotsiatsiya va uning turlari	205
9.5.Xotira murakkab psixik jarayon ekanligi, xorij psixologiyasida xotira borasidagi psixologik fikrlari	212
<b>10-MAVZU. XAYOL VA TASSAVUR HAQIDA TUSHUNCHA</b>	<b>219</b>
10.1. Xayol haqida tushuncha. Xayolning fiziologik asoslari	219
10.2.Xayol turlari va tavsifi. Shirin xayol, aktiv xayol, passiv xayol, produktiv xayol, reproduktiv xayol, xayolga keltirish obrazlari	220
10.3. Ijod va xayol. Tasavvur va uning talaba faoliyatidagi roli	222
10.4.Xayol va tasavvurning o‘zaro aloqadorligi. Xayolning muhim fenomenlari	224
10.5.Aglyutinatsiya, giperbolizatsiya, tipiklashtirish, sxematizatsiya, aksentlashtirish jarayonlari	225
10.6.Xorij psixolog olimlarining xayol to‘g‘risidagi fikrlari	227
10.7 Xayolning psixobiologik rivojlanishi. Xayolning funksiyalari	233

<b>11-MAVZU. TAFAKKUR</b>	<b>236</b>
11.1.Tafakkurning bilish jarayon sifatidagi mohiyati va shaxs shakllanishida tutgan o‘rni. Tafakkurning nerv-fiziologik asosi	236
11.2.Tafakkur operatsiyalari. analiz-sintez, taqqoslash, abstraksiya, umumlashtirish, konkretlashtirish, klassifikatsiyalash, sistemalashtirish	238
11.3.Tafakkurning mantiqiy shakllari. Tafakkur turlari	240
11.4.Tafakkur sifatlarini inson intellektual taraqqiyotidagi o‘rni	243
<b>12-MAVZU. NUTQNING PSIXOLOGIK TASNIFI</b>	<b>249</b>
12.1.Nutq to‘g‘risida umumiy tushuncha. Tilning asosiy funksiyalari	249
12.2.Nutq faoliyatining fiziologik mexanizmlari. Nutq rivojlanishi davrlari	250
12.3.Nutqning rivojlanishi xususiyatlari. Nutq vujudga kelishining nazariyalari	253
12.4.Nutqning anatomik tasviri. Nutqning funksional elementlari. Nutqning ekvivalent blok sxemasi	255
12.5.Nutq tovushlarning tasnifi. Nutqning fonetik elementi	260
12.6.Nutqni idrok qilish nazariyasi. Nutq turlari	266
<b>13-MAVZU. EHTIYOJ VA QIZIQISHLARNING PSIXOLOGIK TASNIFI</b>	<b>270</b>
13.1.Ehtiyoj to‘g‘risida umumiy tushuncha. Ehtiyojlar faollikning manbai sifatida	270
13.2. Ehtiyojlarning turlari. Inson ehtiyojini rivojlanishi	273
13.3.Qiziqishning psixologik tasnifi. Psixologiyada qiziqishning turlari va darajalari	277
13.4. Qiziqish muammosi psixologik nuqtai nazardan o‘rganilishi	279
<b>14-MAVZU. SHAXSNING USTANOVKASI, E‘TIQODI VA DUNYOQARASHI</b>	<b>286</b>
14.1.Shaxsning ustanovkasi yoki anglanilmagan mayllari. Ijtimoiy turmushda shaxsning ustanovkasi masalasida D.N.Uznadze tadqiqotlari va natijalari	286
14.2.Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari. Rus olimi V.A.Yadovning dispozitsion konsepsiyasi, unda ustanovkalarining to‘rt bosqich va to‘rt tizimli tavsifi	288
14.3.Elementar ustanovkalar, ijtimoiy ustanovkalar, bazaviy ijtimoiy ustanovkalar, qadriyatlar tizimi. Shaxsning e‘tiqodi. Shaxsning yo‘nalganligi	289
14.4. Yo‘nalganlikning eng muhim tarkibiy qismlari. Dunyoqarashni tarkib topishi va rivojlanishi	291
<b>15-MAVZU. MOTIV VA MOTIVATSIYA</b>	<b>294</b>
15.1.Motivatsiya. Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan berilgan ta’riflar	294
15.2.Motivatsiya va motivlarning nazariy muammolar. Motiv muammosi va uning yechimiga doir mulohazalar	296
15.3.O‘zbekiston psixologlari tadqiqotlarida motiv va motivatsiya muammosi. Shaxsning shakllanishida motivatsiyaning roli	299

15.4. Ilk bolalik yosh davrida xulq-atvor motivlari. O'quv faoliyati motivlari. Motiv klassifikatsiyasi	304
<b>16-MAVZU. HISSIYOT</b>	<b>310</b>
16.1. Hissiyot to'g'risida umumiy tushuncha. Hissiyotning o'ziga xosligi	310
16.2. Emotsiya, hissiyotning impressiv tomoni, emotsional harakatlarning ekspressiv tomoni, dinamik stereotip, ambivalentlik. Hissiyot va emotsional holatlarning fiziologik asoslari	312
16.3. Odam va hayvon emotsiyalari. Hissiy holatlarning ifodalanishi	314
16.4. Hissiy kechinmalarning shakllari. Hissiy ton, kayfiyat, affekt, stress xolatlari	320
16.5. Yuksak hislar. Praksik hislar, ahloqiy hislar, estetik hislar, intellektual hissiyotlar	326
16.6. Shaxs fidoyilik tuyg'usini psixologik baxolash. Vatanparvarlik his-tuyg'usini baholash mezonlari	331
<b>17-MAVZU. IRODA</b>	<b>337</b>
17.1. Iroda haqida tushuncha. Irodaviy harakatlar	337
17.2. Irodaning nerv-fiziologik asoslari. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari	341
17.3. Iroda borasidagi nazariyalar. Irodaviy akt va uning tuzilishi	344
17.4. Maqsad, tilak-havaslar, harakat motivlari va motivlar kurashi, qarorga kelish, qarorni ijro etish, irodaviy zo'r berish	348
17.5. Shaxsning irodaviy sifatleri, irodani tarbiyalash, irodaning individual xususiyatlari	356
<b>18-MAVZU. TEMPERAMENT</b>	<b>367</b>
18.1. Temperament haqida tushuncha. Temperamentning rivojlanish tarixi, temperament tipi	367
18.2. Qadimgi yunon olimi Gippokrat ta'limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o'zaro bir-biridan tafovutlanishi	368
18.3. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament. I.P. Pavlovning temperament shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog'liqligi haqidagi ta'limoti	370
18.4. Nerv sistmasi tiplarining kelib chiqishi. Temperament xususiyatlari	373
18.5. Temperament tiplari. Faoliyatning individual uslubi va temperament	375
<b>19-MAVZU. XARAKTER</b>	<b>378</b>
19.1. Xarakter haqida tushuncha. Xarakterning nerv-fiziologik asoslari	378
19.2. Xarakter tipologiyasi. Shaxsning munosabatlarini aks ettiruvchi xarakter xislatlarining to'rtta tizimga ajratish	381
19.3. Xarakter aksentuatsiyasi. Xarakter tarkibi	385
19.4. Xarakterning shakllanishi, xarakter tuzilishi va xususiyatlari. Xarakterning tarkib topishida taqlidchanlikning roli	387
19.5. Shaxslararo munosabatlarda shaxs xarakter xususiyatlarining shakllanishi va rivojlanishi. Oilaviy munosabatlarda shaxs xarakter xususiyatlarining o'rni	389

<b>20-MAVZU. QOBILIYAT</b>	<b>392</b>
20.1. Qobiliyat haqida tushuncha. Qobiliyatning sifat va miqdor tavsifi	392
20.2. Qobiliyatlar tuzilishi. Talantning paydo bo‘lishi va tuzilishi	395
20.3. Qobiliyat va talantning tabiiy shartlari. Qobiliyat nazariyalari talqini	397
20.4. Qobiliyatlarning rivojlanishi. Qobiliyat va irsiyat	402
20.5. Qobiliyat va kasb tanlash. Ta’lim jarayonida iqtidorli va qobiliyatli o‘quvchilarni aniqlash hamda ular bilan ishlash muammolari	406
<b>GLOSSARIY</b>	<b>412</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b>	<b>425</b>

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>ВВЕДЕНИЕ</b>	<b>3</b>
<b>ТЕМА 1. ПРЕДМЕТ И ЗАДАЧИ ОБЩЕЙ ПСИХОЛОГИИ</b>	<b>4</b>
1.1. Понятия о психологии	4
1.2. Предмет и основные задачи психологии	6
1.3. Проявление психики в филогенез	8
1.4. Этапы изучения психологической науки (бихевиоризм, необихевиоризм, психоанализ)	11
1.5. Отношения между психологией и наукой. Отрасли психологических наук	16
<b>ТЕМА 2. НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЕ МЕТОДЫ ОБЩЕЙ ПСИХОЛОГИИ</b>	<b>40</b>
2.1. Методы научных исследований в современной психологии	40
2.2. Классификация методов исследования Б.Г. Ананьева	41
2.3. Методы наблюдения и их виды. Метод эксперимента	46
2.4. Метод опроса и его типы. Методы изучения деятельности	48
2.5. Методы тестирования, метод социометрии, метод биографии. Проективные методы	53
<b>ТЕМА 3 РАЗВИТИЕ ПСИХИКИ</b>	<b>59</b>
3.1. Филогенетическое развитие психики. Возникновение и развитие психики человека.	59
3.2. Структура сознания и его основные психологические особенности. Структура высших психических функций.	64
3.3. Мозг как основа высших психических функций. Функции психики	69
3.4. Сознание и его формы. Сознание как способность к рефлексу, самоконтролю, самосознанию	71
3.5. Отличие сознания от бессознательности, структура сознания, проявления сознания к творчеству	76
<b>ТЕМА 4. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ</b>	<b>84</b>
4.1 Понятия о деятельности	84
4.2. Виды деятельности. Особенности игровой деятельности	90
4.3. Учебная деятельность, компоненты и психологические особенности учебной деятельности. Психологические особенности труда	91
4.4. Успех в деятельности. Роль деятельности в личностном развитии	96
4.5. Структура деятельности А.Н.Леонтьева. Деятельность и мотивация	100
<b>ТЕМА 5. ЛИЧНОСТЬ</b>	<b>103</b>
5.1. Понятие личности, понятие человек-личность-индивидуальность, личность как продукт социальных эффектов: социальные нормы, санкции.	103
5.2. Теории личности, эндопсихика и экзопсихика. Развития и	107



изучения личности в творчестве мыслителей Средней Азии	
5.3. Изучении личности в зарубежной психологии. Научные взгляды российских и узбекских психологов в отношении личности	112
5.4. Биогенетические и социогенетические теории. Образ «Я» и самооценка личности	116
5.5. Объективные характеристики личности, осознанность, чувства ответственности, самосознания личности	132
<b>ТЕМА 6. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЩУЩЕНИЯ</b>	<b>140</b>
6.1. Ощущение как психологический процесс. Психофизиологические основы ощущений	140
6.2. Характеристика ощущений. Классификация ощущений.	142
6.3. Роль и закономерности ощущений в человеческой деятельности, теории изучения ощущения в зарубежной психологии.	147
6.4. Ощущение как начальная стадия когнитивных процессов (Р. Солсо)	152
6.5. Анализаторы. Рецепторные и рефлекторные теории ощущений.	163
<b>ТЕМА 7. ВОСПРИЯТИЯ</b>	<b>166</b>
7.1. Восприятия и его физиологические основы	166
7.2. Основные особенности восприятия. Типы восприятия	167
7.3. Индивидуальные особенности восприятия. Новые аспекты восприятия	169
7.4. Основные черты восприятия его субъективность, целостность, структурализм, постоянство и последовательность	170
<b>ТЕМА 8. ВНИМАНИЕ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС</b>	<b>174</b>
8.1. Понятие о внимание. Нейрофизиологическая основы внимания	174
8.2. Виды внимания. Основные характеристики внимания	176
8.3. Интенсивность внимания, деление внимания, сила, стабильность и распределение внимания. Развитие внимания	178
<b>ТЕМА 9. ПАМЯТЬ</b>	<b>181</b>
9.1. Изучение памяти как психического процесса. Память и ее психофизиологические механизмы	181
9.2. Процессы памяти и их виды. Индивидуальные различия памяти	186
9.3. Возрастные атрибуты. Нейрофизиологические и биохимические теории памяти	189
9.4. Законы подкрепления памяти. Ассоциация и ее виды	205
9.5. Память - сложный психологический процесс, психологические мысли о памяти зарубежных психологов	212
<b>ТЕМА 10. ПОНЯТИЕ ФАНТАЗИИ И ВООБРАЖЕНИЯ</b>	<b>219</b>
10.1. Понятие о воображении. Физиологические основы воображения.	219
10.2. Типы и характеристики воображения. Сладкая фантазия, активная фантазия, пассивная фантазия, продуктивная фантазия, репродуктивная фантазия, образная фантазия	220
10.3. Творчество и фантазия. Воображение и его роль в студенческой деятельности	222

10.4. Взаимосвязь воображения и фантазии. Основные явления воображения	224
10.5. Процессы агглютинации, гиперболизации, характеристики, схематизации, акцентуации	225
10.6. Мнения зарубежных психологов в отношении воображения.	227
10.7 Психобиологическое развитие воображения. Функции воображения	233
<b>ТЕМА 11. МЫШЛЕНИЯ</b>	<b>236</b>
11.1. Сущность мышления как процесс познания и его роль в формировании личности. Нейрофизиологическая основа мышления	236
11.2. Операции мышления: анализ, синтез, сравнение, абстракция, обобщение, конкретизация, классификация, систематизация	238
11.3. Логические формы мышления. Виды мышления	240
11.4. Роль мышления в интеллектуальном развитии человека	243
<b>ТЕМА 12. ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ОБЩЕНИЯ</b>	<b>249</b>
12.1. Понятие об общении. Основные функции языка	249
12.2. Физиологические механизмы речевой деятельности. Периоды развития речи	250
12.3. Особенности речевого развития. Теории речевого образования.	253
12.4. Анатомическое изображение речи. Функциональные элементы речи. Эквивалентная блок-схема речи	255
12.5. Характеристика звуков в речи. Фонетический элемент речи	260
12.6. Теория восприятия речи. Виды речи	266
<b>ТЕМА 13. ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ПОТРЕБНОСТЕЙ И ИНТЕРЕСОВ</b>	<b>270</b>
13.1. Общая концепция потребностей. Потребности как источник деятельности	270
13.2. Виды потребностей. Развитие человеческой потребности	273
13.3. Психологическая классификация интересов. Виды и уровни интереса в психологии	277
13.4. Психологическое изучение интереса.	279
<b>ТЕМА 14. УСТАНОВКА ЛИЧНОСТИ, УБЕЖДЕНИЯ И МИРОВОЗЗРЕНИЕ</b>	<b>286</b>
14.1. Установка личности или необъяснимые тенденции человека. Результаты исследования установки в общественной жизни Д.Н.Узнадзе	286
14.2. Социальные установки личности. Диспозиционная концепция русского ученого В.А.Ядова, где предусмотрено четыре этапа и четыре системы описания установки	288
14.3. Элементарные установки, социальные установки, базовые социальные установки, система традиционных ценностей. Личность убеждений. Личностная ориентация	289
14.4. Самые важные составляющие ориентации. Структура и развитие мировоззрения	291

<b>ТЕМА 15. МОТИВАЦИЯ И МОТИВ</b>	<b>294</b>
15.1. Мотивация. Научные определения мотива	294
15.2. Теоретические проблемы мотива и мотивации. Размышления о проблеме мотивации и ее решении	296
15.3. Проблема мотива и мотивации в исследованиях узбекских психологов. Роль мотивации в формировании личности	299
15.4. Поведенческие мотивы в раннем детстве. Мотивация учебной деятельности. Классификация мотивации	304
<b>16-MAVZU. ЧУВСТВА</b>	<b>310</b>
16.1. Общее понятие о чувствах. Своеобразие чувств	310
16.2. Эмоция, импрессивная сторона чувства, экспрессивная сторона эмоционального поведения, динамический стереотип, амбивалентность. Физиологические основы чувства и эмоциональных состояний	312
16.3. Человеческие и животные эмоции. Выражение эмоциональных состояний	314
16.4. Формы эмоциональных переживаний. Эмоциональный тонус, настроение, аффект, стресс	320
16.5. Великие чувства. Праксиальные чувства, моральные чувства, эстетические чувства, интеллектуальные чувства.	326
16.6. Психологическая оценка самоотверженности личности. Критерии оценки патриотических чувств	331
<b>ТЕМА 17. ВОЛЯ</b>	<b>337</b>
17.1. Понятие о воли. Волевые движения	337
17.2. Нейрофизиологическая основа воли. Общие черты волевой деятельности	341
17.3. Теории о воле. Волевой акт и его структура	344
17.4. Цели, страсти, мотивы и мотивационная борьба, принятие решений, исполнение решений, волевые усилия.	348
17.5. Волевые качества личности, воспитания воли, индивидуальные особенности воли	356
<b>ТЕМА 18. ТЕМПЕРАМЕНТ</b>	<b>367</b>
18.1. Понятие о темпераменте. История развития темперамента, тип темперамента	367
18.2. Различия по особенностям темпераментов между людьми в изучение древнегреческого ученого Гиппократ.	368
18.3. Тип высшей нервной системы и темперамент. Исследование П.Павлова о факторах, способствующих индивидуальным характеристикам обусловленной рефлексорной деятельности.	370
18.4. Происхождение типов нервной системы. Свойства темперамента	373
18.5. Типы темперамента. Индивидуальная активность и темперамент	375
<b>ТЕМА 19. ХАРАКТЕР</b>	<b>378</b>
19.1. Понятие о характере. Нейрофизиологическая основа характера	378

19.2. Типология характера. Разделение на четыре черты характера определяющих взаимоотношение личности	381
19.3. Акцентуация характера. Состав характера	385
19.4. Формирование характера, структура характера и особенности. Роль подражания в формировании характера	387
19.5. Формирование и развитие качеств характера в межличностных отношениях. Роль характерных качеств в семейных отношениях	389
<b>ТЕМА 20. СПОСОБНОСТИ</b>	<b>392</b>
20.1. Понятие о способностях. Качественные и количественные характеристики способностей	392
20.2. Структура способностей. Появление и структура таланта	395
20.3. Естественные условия способностей и таланта. Интерпретация теорий способностей	397
20.4. Развитие способности. Способность и наследственность	402
20.5. Способности выбора карьеры. Проблемы выявления и работы с одаренными и способными студентами	406
<b>ГЛОССАРИЙ</b>	<b>412</b>
<b>СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУРЫ</b>	<b>425</b>